

# Chingiz Aytmatov

## Tanlangan asarlar

Alvido, Gulsari

•

Jamila

•

Oq kema  
(Ertakdan soʻng)

С (Кир) - Произв. киргиз. лит.  
УДК 821.512.154

**Chingiz Aytmatov. Tanlangan asarlar.** — Toshkent: SMI-ASIA, 2009.

Qirg'iz xalqining mashhur farzandi Chingiz Aytmatov asarlari kirib bormagan o'zbek xonadoni bo'lmasa kerak. Yarim asrdan beri bu zahmatkash yozuvchining qalamiga mansub «Jamila», «Sarv-qomat dilbarim», «Oq kema», «Alvido, Gulsari», «Sohil yoqalab chopayotgan olapar» kabi qissalari, «Asrni qaritgan kun», «Qiyomat» romanlari butun jahonda katta shuhrat qozonib kelmoqda. Aytmatov asarlarining qahramonlari jasur, mard, halol, olijanob odamlardir. Ular hayotdagi turli illatlarga, jaholat, yovuzliklarga qarshi kurashadilar, adolat, haqiqatni qattiq turib himoya qiladilar. Ruhan boy bu qahramonlar boshidan kechirgan shiddatli voqealar tasviri har qanday kitobxon qalbini larzaga soladi, ularning ma'naviy yo'ldoshiga aylanadi.

Chingiz Aytmatovning qo'lingizdagi eng sara qissalari yosh o'zbek kitobxonlarining eng yaqin do'sti bo'lib qoladi deb umid qilamiz.


DVI  
2346781

Mazkur kitob UNICEF va IKEA Ijtimoiy Tashabbusi tomonidan qo'llab-quvvatlangan loyiha doirasida nashr etildi.

Sotish uchun mo'ljallanmagan.

ISBN 978-9943-17-003-2

- © Chingiz Aytmatov
- © Asil Rashidov (o'zbek tiliga tarjima)
- © Anvar Mamadjanov (rasmlar)
- © SMI-ASIA



17 0 1 1 0 0 1  
**Ko'makchi fond**



# ALVIDO, GULSARI

## I

**E**ski aravani keksa bir kishi haydab borardi. Saman yo'rg'a — Gulsari ham juda qari edi...

Yassi tog'likka tinkani quritadigan uzoq yo'l bilan chiqilardi. Yaydoq kul rang tepaliklarda qishda doim sovuq shamol yer yalab izg'ib yurar, yozda esa tandirday qizib ketar edi.

Bu tepaliklar Tanaboy uchun jon azobi edi. U aravani sekin haydashni istamasdi. Sekin yursa yuragi tars yorilib ketay derdi. Yoshlik kezlari tuman markaziga tez-tez qatnab turishga to'g'ri kelar, uyga qaytishida u har gal otning boshini qo'yib yuborib, toqqa choptirib chiqib ketar, uni qamchin bilan ayovsiz savalardi. Agarda hamrohlari bilan bir aravada ketayotgan bo'lsa, buning ustiga yana aravaga ho'kizlar qo'shilgan bo'lsa bormi, yerga sakrab tushib, indamay kiyimlarini olardi-da, yayov ketardi. Xuddi hujumga borayotganday jon-jahdi bilan, qahr-g'azab bilan yurar va yassi tog'lik ustiga ko'tarilgandagina to'xtar edi. U yerda ko'ksini to'ldirib-to'ldirib nafas olib, pastda o'rmalab kelayotgan og'ir, katta aravani kutib turardi. Tez yurganidan yuragi gupillab urar va ko'kragida sanchiq turar edi. Har qalay ho'kizlarning qadamiga qarab, imillab kelgandan ko'ra yaxshi-ku!

Rahmatli Choro ba'zan do'stining bunday g'alati qiliqlarini ko'rib tegishishni yaxshi ko'rardi.

— Nega omading kelmaydi, bilasanmi, Tanaboy? — derdi u, — besabrlikingdan. Xudo haqqi. Senga qolsa hamma narsa tezroq, darrov bo'la qolsa. Jahon inqilobi darhol bo'la qolsa! Inqilob u yoqda tursin, Aleksandrovkadan balandlikka ko'tarilishga ham toqating yo'q sening. Hamma odamlar aravada xotirjamgina o'tirib borishadi-yu, sen bo'lsang sakrab tushib, xuddi orqangdan bo'rilar quvayotganday toqqa qarab yugurasan, xo'sh, bundan nima foyda ko'rasan? Hech narsa. Baribir tepada boshqalarni kutib o'tirasan-ku. Jahon inqilobiga ham bir o'zing ye-ta olmaysan, bilsang, boshqalarning ham tenglashib olishlarini kutasan.

Ammo bu bir zamonlardagi, uzoq o'tmishdagi gap edi.

Tanaboy bu gal Aleksandrovkadagi balandlikdan qanday chiqib olganligini sezmay ham qoldi. Qariganida, demak, ko'nikib qolibdi. Aravani tez ham, sekina ham haydagani yo'q. O'tni o'z holiga qo'yib berdi. Endi u doim yo'lga yolg'iz chiqardi. O'ttizinchi yillarda bu yo'llardan u bilan birga shovqin solib yurgan bir to'da yoshlarni endi qidirib topa olmaysan. Biri urushda halok bo'lgan, biri o'lgan, bittayarimta tirik qolganlarining ham kunlari sanog'liq qolgan. Yoshlar esa mashinalarda yurishadi. U bilan birga ori qirchang'i ot qo'shilgan aravada yurisharmidi.

Eski yo'lda g'ildiraklar g'ijirlab borardi. Yo'l uzoq, oldinda cho'l yastanib yotardi, kanal ortida esa tog' etagi bo'ylab yana anchagina yurish kerak.

U otning bo'shshib, majolsizlanib borayotganligini allaqachon seza boshlagandi. Lekin o'zining og'ir xayollari bilan band bo'lganligi uchun bunga unchalik e'tibor bermasdi. Ot yo'lda charchab qoladi, deb g'am yeydimi kishi? Undan batarlari bo'lgan. Manzilgacha yetkaza oladi, amallab sudrab olib boradi...

O'zining sap-sariq rangi uchun Gulsari deb nom olgan qari yo'rg'a oti umrida so'nggi marta Aleksandrovka balandligiga ko'tarilganligini va hozir ot oxirgi chaqirimlarni bosib o'tayotganligini qayoqdan bilsin u. Otning boshi bangidevona yeganday aylanayotganligini, yer uning xira ko'zi o'ngida rangli halqalar singari suzib o'tayotganligini, yer qiyshayib goh u, goh bu tomoni bilan ufqqa tegayotganini, nazarida yo'l birdan qop-qorong'i bo'shliqqa tushib ketib, oldindagi tog'lar o'rnida qizg'ish tuman yoki tutun suzayotganday tuyulayotganligini qayoqdan bilsin u.

Otning allaqachon zo'riqib, kuchsizlanib qolgan yuragi zirqirab og'rirdi, bo'yincha-xomutda nafas olish tobora og'irlashib borardi. Bir yonboshga sirg'alib ketgan egar-jabduq beliga qattiq botar, chap tomonda xomut ostida allaqanday uchli narsa yelkasiga muttasil qadalib sanchilayotganday edi. Ehtimol, bu tikanak yoki xomutning kigiz astaridan chiqib qolgan mixning uchidir. Yelkasidagi qadoq bo'lib ketgan eski yag'ir o'rnida ochilgan yara chidab bo'lmas darajada zirqirab og'rir, achishar edi. U xuddi shudgordan ketayotgandaydi, oyoqlari ham borgan sari og'irlashardi.

Ammo shunday bo'lsa ham qari ot so'nggi kuchlarini to'plab yurib borardi, kekxa Tanaboy esa ahyon-ahyonda unga «chuh-chuh»lab, jilovini tortib-tortib qo'yar va xayol surishda davom etardi. O'ylaydigan o'ylari ko'p edi uning.

G'ildiraklar eski yo'ldan g'ijirlab borardi. Gulsari ilk bor oyoqqa turib, onasi — yoldor ulkan biya ortidan o'tloq bo'ylab qo'rqa-pisa, yo'rtib ketganidan buyon biron marta ham adashmagan o'sha yo'rg'a bir maromda qadam tashlab borardi.

Gulsari tug'ma yo'rg'a ot edi va dong'i chiqqani uchun umrida boshiga ko'p yaxshi va yomon kunlar kelgan edi. Ilgari aravaga qo'shish hech kimning xayoliga ham kelmasdi, uni aravaga qo'shish uvol edi. Lekin ot boshiga ish tushsa, suvliq bilan suv ichar, er boshiga ish tushsa, etik bilan suv kechar, deganlaricha bor.

Bularning hammasi o'tmishdagi gaplar. Hozir yo'rg'a bor kuchini sarf qilib, o'zining so'nggi marrasiga ketayotgandi. U hech qachon manzilga bunchalik sekin bormagan, hech qachon unga bunchalik tez yaqinlashmagandi ham.

G'ildiraklar eski yo'ldan g'ijirlab borardi.

Tuyoqlari ostidagi qattiq yerning omonatligini his etish otning so'niq xotirasida uzoq o'tmishdagi o'sha yoz kunlarini, tog'lardagi o'sha shabnamli yumshoq o'tloqlarni, osmonda charaqlagan va tog'-u toshni orqada qoldirib ketayotgan quyoshni to uyurboshi ayg'ir g'azabdan quloqlarini ding qilib olib, uni quvlab orqasiga qaytarmagunicha u tentak o'tloqlaru daryoni kesib, butalarni yorib o'tib quyosh ortidan quvib ketgan o'sha ajoyib va g'aroyib damlarni g'ira-shira jonlantirdi. O'sha paytlardan beri oradan qancha vaqt o'tib ketdi-ya! Yilqilar xuddi ko'l tubida oyoqlarini osmonga qilib yurganday, uning onasi — yoldor kattakon biya bo'lsa, go'yo iliqqina sutli bulutga aylanganday tuyulardi. Onasi birdan mehribonlik bilan pishqiruvchi bulutga aylanib qoladigan shunday damlarni sevardi. Uning emchaklari taranglashib, lazzatli bo'lib qolar, lablarida sut ko'piklanardi, u bo'lsa sutning mo'lligi va shirinligidan entikib qolardi. U yoldor kattakon onasining qorniga tumshug'ini qadab turishni yaxshi ko'rardi. Naqadar lazzatli edi bu sut! Butun olam — quyosh, yer, onasi bir qultum sutga joylashganday edi. To'yib bo'lganidan keyin ham yana bir qultum, yana, yana emishni istardi.

Afsus, bu uzoqqa cho'zilmadi, tezda barham topdi. Oradan ko'p o'tmay hamma narsa o'zgarib ketdi. Ko'kdagi quyosh charaqlamay, tog'dan toshga sakramay qo'ydi, endi kun sharqdan chiqib g'arbga tomon og'ishmay boradi, yilqilar oyoqlarini osmonga qilib yurmaydigan bo'lib qoldi, payhon qilib tashlangan sizot o'tloq ular tuyoqlari ostida chapillaydi va qorayadi, qirg'oqlardagi toshlar qarsillab yorilib ketadi. Yoldor kattakon biya qattiqqo'l ona ekan, bolasi haddan ortiq bezor qilganida uning yolidan qattiq tishlab olardi. Endi sut yetishmas, o'tlash kerak edi. Uzoq yillar cho'zilgan hayot boshlandi, mana endi oxirlab borayotir.

Mana shu o'tgan uzoq umri davomida abadiy yo'qolgan o'sha yoz yo'rg'a otga sira qaytib kelmadi. U egarlangan holda har xil yo'llarni bosib o'tdi, uni har xil

chavandozlar mindi, lekin hamon yo'llarning oxiri ko'rinmasdi. Faqat endigina — quyosh yana o'z o'rnidan qo'zg'algan, yer esa oyoqlari ostida chayqalayotgan, ko'zlari jimirlab, xiralasha boshlagandagina shuncha uzoq vaqtdan beri qaytmagan o'sha yoz uning ko'ziga ko'rinib ketdi. Hozir uning ko'z o'ngida o'sha tog'lar, o'sha sizot o'tloqlar, o'sha yilqilar, o'sha yoldor kattakon biya miltillab, g'ira-shira namoyon bo'ldi. U do'g'adan, xomut va shotidan qutilib olib, to'satdan uning ko'ziga ko'rinib ketgan o'tmishga qadam qo'yish uchun kuchi boricha talpinar, jon-jahdi bilan depsinardi. Lekin aldanchi xayol har gal uzoqlashib ketar, shunisi jonga azob berardi. Qulunlik paytidagidek onasi sekin kishnab uni chaqirar, yilqilar uni toylik vaqtidagiday biqinlari bilan turtib, dumlari bilan urib o'tar, uning esa shamolga bardosh berishga kuchi yetmasdi — shamol tobora kuchayar, uni dumi bilan qamchilar, ko'zlari va burun kataklarini qor bilan to'ldirib, terga botib sovuqdan qaltirar, erishib bo'lmas o'sha olam izg'irin quyunlari ichida unsiz ko'milib yo'q bo'lib ketar edi. Mana endi tog'lar ham, o'tloqlar ham, daryo ham g'oyib bo'ldi, yilqilar qochib ketdi, faqat onasining — yoldor katta biyaning sharpasi oldinda g'ira-shira ko'rinib turardi. U bolasini tanho tashlab ketishni xohlamasdi. U toychoq'ini oldiga chorlardi; toychoq bor kuchi bilan xixilab kishnab yubordi, ammo o'z ovozi o'zi eshitmadi. Hamma narsa birdan g'oyib bo'ldi, izg'irin ham tindi. G'ildiraklar g'ijirlamay qo'ydi. Xomut ostidagi yaraning achishgani ham sezilmay qoldi.

Yo'rg'a to'xtadi, gandarab ketdi. Ko'zi qattiq og'rirdi. Kallasi tinmay g'uvillardi.

Tanaboy jilovni aravaning oldiga tashladi, beso'naqay sakrab tushdi, uvishib qolgan oyoqlarining chigilini yoydi va qovog'ini solib otning oldiga keldi.

— Hey, harom o'lgur! — sekin so'kindi u yo'rg'aga boqib.

Ot ozib ketgan uzun bo'ynini cho'zib, kattakon kallasini xomutdan osiltirib turardi. Yo'rg'aning qovurg'alari, eski-tuskilar yopilgan, ich-ichiga kirib ketgan biqinlari yuqoriga, pastga ko'tarilib tushib turardi. Qachonlardir sap-sariq, tilla rang bo'lgan ot endi ter va changdan qo'ng'ir tusga kirgan edi. Ko'kish ter tomchilari qoq suyak sag'risidan qorniga, oyoqlariga, tuyoqlariga oqib tushardi.

— Qattiq haydamovdim shekilli, — deb to'ng'illadi Tanaboy va shoshib-pishib ayilni bo'shatdi, suvlig'ini chiqardi. Suvlig'i issiq, yopishqoq so'lakka botgandi. Po'stinining yengi bilan yo'rg'aning tumshug'ini va bo'ynini artib qo'ydi. Keyin qolgan-qutgan pichanlarni yig'ish uchun aravaga sakrab chiqdi, supurib-

sidirib yarim quchoq to'pladi, otning oldiga tashladi. Lekin ot pichanga qayrilib qaramadi ham. U qalt-qalt titrardi.

Tanaboy yo'rg'aga bir tutam pichan tutdi.

— Ma, ol, ye, senga nima bo'ldi-ya!

Yo'rg'aning lablari qimirladi, lekin pichandan ilintira olmadi. Tanaboy uning ko'zlariga qaradi-yu, qosh-qovog'i solinib ketdi. U otning ich-ichiga cho'kib ketgan, yarim ochiq ko'zlarida hech narsani ko'rmadi. Ular tashlandiq uyning derazalari kabi xiralashgan edi.

Tanaboy sarosimaga tushib u yoq-bu yoqqa qaradi: uzoqda tog'lar, atrof biyday cho'l, yo'lda hech kim ko'rinmasdi. Yilning bu faslida yo'lovchilar bu yerda kamdan-kam uchraydi.

Qari ot va keksa odam kimsasiz yo'lda yakka-yolg'iz turishardi.

Fevral oyining oxirlari edi. Yalangliklardagi qorlar erib ketgandi, faqat jarliklar va qamishzor soyliklardagi qishning yashirin uyalaridagina hali so'nggi qor uyumlari saqlanib qolgandi. Shamol eski qorning kuchsiz hidini uchirib keltirardi, yer hali ham muzlab yotar, jonsiz edi. Qish oxirlarida toshloq dasht huvillab yotadi. Unga bir qarashdayoq Tanaboyning ichiga qaltiroq turardi.

U ko'kish cho'qqi soqolini dikkaytirib, po'stinining yog' bosgan yengi ostidan g'arb tomonga uzoq qarab qoldi. Quyosh yerning bir chekkasida, bulutlar orasida osilib turardi. Ufqdan botayotgan quyoshning nursiz, xira shafaq nuri tarala boshlagandi. Hech narsa havoning aynishidan darak bermasdi, lekin shunday bo'lsa ham kun sovuq, vahimali edi.

«Bilganimda edi, yaxshisi yo'lga chiqmagan bo'lardim, — afsuslanardi Tanaboy. — Endi esa na u yoqqa, na bu yoqqa yura olasan, tap-taqir dalaning o'rtasida qolib ketdim. Otni ham bekordan-bekorga nobud qilib qo'yaman».

Yaxshisi ertalab yo'lga chiqish kerak edi. Kunduzi yo'lda bir narsa bo'lib qolsa ham biron yo'lovchi duch kelib qolishi mumkin. U bo'lsa tushdan keyin yo'lga chiqdi. Bunday kezlarda yo'lga o'tlanish mumkinmi, axir?

Tanaboy orqadan yoki qarshi tomondan kelayotgan mashina ko'rinib qolmasmikin, deb do'nglikka chiqib atrofga boqdi. Ammo na u, na bu tarafda hech narsa ko'rinmasdi, sharpasi eshitilmasdi ham. U orqasiga — arava tomonga qadam tashladi.

«Bekorga yo'lga chiqibman», — deb o'yladi yana Tanaboy shoshqaloqligi uchun qayta-qayta o'zini koyib. U alam qilganidan o'zidan ham, o'g'lining uyi-

dan tezroq jo'nab ketishga majbur etgan hamma narsadan ham achchig'lanardi. Tunab qolishi, otiga dam berishi kerak edi, albatta. U bo'lsa!..

Tanaboy jahl bilan qo'l siltadi. «Yo'q, baribir qolmasdim. Yayov bo'lsa ham ketardim, — o'zini o'zi oqlardi u. — Qaynataga shunaqa gaplarni gapirish mumkinmi axir? Har qalay, men otaman-ku. Seni qara-yu, butun umringni cho'ponligu yilqichilikda o'tkazgansan, qariganingda haydab chiqararkanlar, partiyaga kirib nima qilarding, emish. O'g'limgayam balli-e. Miq etmaydi-ya, ko'zini yerdan olishga qo'rqadi. Agar xotini unga otangdan kech desa, yo'q demaydi. Latta, tag'in u boshliq bo'lib ko'tarilishga urinib yotibdi. E, gapirishdan nima foyda. Odamlar boshqacha bo'lib ketgan!»

Tanaboy qizib ketdi, u ko'ylagining yoqasini yechib yubordi va otni ham, yo'lni ham, bosib kelayotgan tunni ham unutib, og'ir-og'ir nafas olib arava atrofida yura boshladi. Ming urinsa ham o'zini bosa olmadi. U yerda — o'g'lining uyida u o'zini tutib oldi, kelini bilan adi-badi qilib o'tirishni o'ziga ep ko'rmadi. Endi esa birdan qaynab-toshib ketdi, hozir bo'lganida yo'l bo'yi alam bilan o'ylab kelgan gaplarining hammasini unga to'kib solardi: «Meni partiyaga qabul qilgan sen emassan, chiqargan ham sen emassan, o'sha vaqtda nima bo'lganligini sen qayoqdan bilarding, kelinposhsha. Endi hamma narsa haqida fikr yuritish oson. Endi hamma sabrli, hurmat va obro'ing joyida. Bizdan esa talab qilishardi, shunaqangi talab qilishardiki, otang uchun, onang uchun, do'sting va dushmaning uchun, o'zing uchun, qo'shningning iti uchun, olamdagi jamiki hamma narsa uchun javobgar eding. Partiyadan o'chirganlari bilan esa sening ishing bo'lmasin! Bu mening ichimdagi g'amim, kelinjon. Bu bilan ishing bo'lmasin!»

— Bu bilan ishing bo'lmasin! — ovoz chiqarib takrorlashda davom etdi u aravaning oldidan nari ketmay. — Ishing bo'lmasin! — hamon takrorlardi u. Eng alam qilgan narsa shu ediki, «ishing bo'lmasin» deyishdan bo'lak gap topolmasdi.

To bir nima qilish kerakligi, bu yerda tunab qolib bo'lmasligi esiga tushmagu-nicha u arava atrofida yuraverdi.

Gulsari aravada qo'shiqligicha avvalgiday jimgina, hamma narsaga beparvo, bukchayib, oyoqlarini bir joyga to'plab, go'yo qotib qolganday turardi.

— Senga nima bo'ldi? — Tanaboy otning oldiga yugurib keldi va uning cho'zib sekin ingranganini eshitdi. — Ko'zing uyquga ketdimi? Kasalmisan, bechora? Ahvoning chatoqmi? — U shoshib-pishib yo'rg'aning muzdek quloqlarini ushlab ko'rди, yellari tagiga qo'lini suqdi, bo'yni ham sovuq va nam. Ammo hammasidan ham uni yolining ilgarigiday og'ir emasligi qo'rqitib yubordi. «Juda

qaribdi, yoli sop bo'libdi, parday yengil. Hammamiz ham qariyapmiz, hammamiz ham o'lib ketamiz», — alam bilan o'yladi u. Nima qilishni bilmay boshi qotib o'rnidan turdi. Agar ot bilan aravani tashlab yayov ketsa, yarim kechada uyiga, daradagi qorovulxonasiga yetib olishi mumkin. U yerdagi bazada xotini bilan turar, daryodan bir yarim kilometr yuqorida o'rnashib olgan suv xo'jaligi qorovuliga qo'shni edi. Tanaboy yozda pichan o'rimiga, qishda esa cho'ponlar pichanni talon-taroj qilib ketishmasin, muddatidan oldin isrof etib qo'yishmasin deb, g'aramlarga ko'z-quloq bo'lib turardi.

O'tgan kuzda bir ish bilan idoraga kelgan edi, yangi brigadir — chetdan kelgan yosh agronom unga:

— Oqsoqol, birrov otxonaga o'ting, biz u yerda sizga boshqa otni tanlab qo'ydik. Qarirog'u, lekin sizning ishingizga yaraydi, — dedi.

— Qaysi otni? — sergaklandi Tanaboy. — Yana biron qirchang'inimi?

— O'sha yerda ko'rsatishadi sizga. Saman ot. Bilsangiz kerak, aytishlaricha, siz bir mahallar uni minib yurur ekansiz.

Tanaboy otxonaga yo'l oldi va qo'rada turgan yo'rg'ani ko'rishi bilan yuragi achishib ketdi. «Iya, yana uchrashdik», — dedi ichida u minilaverib, nihoyat holdan toygan qari otga qarab, «Kerakmas», deyishga yuragi bormadi. Otni yetaklab ketdi.

Uyda xotini yo'rg'ani zo'rg'a tanidi: — Tanaboy, nahotki bu o'sha Gulsari bo'lsa? — hayron qoldi u.

— O'sha, o'shaning o'zi, nima qipti? — xotining ko'ziga qaramaslikka tirishib to'ng'illadi Tanaboy.

Yo'rg'a bilan bog'liq xotiralarni eslab o'tirishning hojati yo'q edi ularga. Tanaboyning yoshligida qilgan gunohi bor edi. Gap o'ziga yoqmaydigan mavzuga ko'chib ketishidan qochib, u xotiniga dag'al gapirdi:

— Nima qilib turibsan, yeyishga biron narsa tayyorlasang-chi. Itday ochman.

— Mana hozir otga tikilib turib, qarilik nima ekanligini bildim, — javob berdi xotini. — Agar sen bu huv o'sha Gulsari ekanligini aytmaganingda tanimagan bo'lardim.

— Nimasiga hayron qolasan buning. Biz ikkimizning ahvolimiz undan yaxshiroq, deb o'ylaysanmi? Hamma narsaning ham o'z vaqt-soati bor.

— Men ham mana shuni aytyapman-da. — U o'ychan bosh chayqadi va oq ko'ngillik bilan kulimsirab hazil qildi; — Ehtimol, sen yana yo'rg'angda tunlari daydib yurarsan? Mayli, ruxsat.

— Qayda! — u o'ng'aysizlanib qo'l siltadi va xotiniga orqasi bilan o'girilib oldi. Hazilga hazil bilan javob qaytarsa bo'lardi, biroq u uyalganidan pichan olgani ombor ustiga chiqib ketdi. U yerda ancha vaqtgacha ivirsib yurdi. Xotini anovi ishlarni unutib yuborgan, deb o'ylab yurardi, unutmagan ekan-da.

Mo'ridan tutun ko'tarilardi, xotini sovib qolgan ovqatni isitardi, u bo'lsa to xotini eshikdan turib qichqirmaguncha ivirsib pichan bilan ovora bo'ldi. — Tush, bo'lmasa ovqat yana sovib qoladi.

Xotini o'tgan ishni boshqa eslamadi, eslashning nima ham hojati bor edi?..

Butun kuz va qish bo'yi Tanaboy yo'rg'ani parvarish qildi, iliq kepak tert, maydalangan lavlagi bilan boqdi. Gulsarining tishlari tushib bo'lay degandi, faqat siniqlari qolgandi. Otni endi oyoqqa turg'izdim, deb o'ylovdi, buning, ahvoli-ni qarang. Endi uni nima qilish kerak?

Yo'q, otni yo'lning qoq o'rtasida tashlab ketishga uning ko'zi qiymaydi.

— Xo'sh, Gulsari, endi shunday turaveramizmi? — Tanaboy yo'rg'ani qo'li bilan itargan edi, u tebranib, oyoqlari chalishib ketdi. — Qani, to'xtab tur-chi, men hozir...

U keliniga kartoshka olib kelgan bo'sh qopni qamchi sopi bilan aravaning tagidan ko'tardi-da, undan tuguncha chiqardi. Xotini yo'lga non yopib bergandi, esidan chiqarib yuboribdi, ovqatni o'ylaydigan vaqt emasdi. Tanaboy nonning yarmini sindirdi, uni maydalab beshmatining etagiga soldi-da, otga tutdi. Gulsari qattiq nafas olib nonni hidladi, lekin uni yeya olmadi. Shunda Tanaboy unga kafti bilan yegiza boshladi. Og'ziga bir necha bo'lagini tiqdi, ot chaynay ketdi.

— Ye, ye, ehtimol yetib olarmiz-a? — Tanaboy quvonib ketdi. — Asta-sekin bir amallab, ehtimol yetib olarmiz-a? U yog'i bir gap bo'lar, qo'rqadigan joyi yo'q. U yerda kampir ikkalamiz seni parvarish qilamiz, — derdi u. Uning qaltirayotgan qo'llariga otning lablaridan so'lagi oqib tushar, u bo'lsa so'lagi ilib borayotganligidan quvonardi.

Keyin u yo'rg'aning jilovidan ushladi.

— Qani, ketdik! Turishdan foyda yo'q! Ketdik! — buyurdi u qat'iy qilib.

Yo'rg'a joyidan qo'zg'aldi, arava g'ijirladi, g'ildiraklar yo'l bo'ylab taraqlab sekin yurib ketdi. Ular — chol bilan qari ot asta-sekin odimlab ketishdi.

«Holdan toyibdi, — deb o'yvardi Tanaboy yo'l chetidan odimlab bora turib. — Nechaga kirding, Gulsari? Yigirma, yoki undan ham ortiqdir. Ortiqroq bo'lsa kerak...»



Ular birinchi marta urushdan keyin uchrashgan edilar.

Yefreytor Tanaboy Bekasov G'arbda ham, Sharqda ham bo'lgan, Kvantun armiyasi taslim bo'lganidan so'ng armiyadan qaytib kelgan edi. Hammasi bo'lib u deyarli olti yil askar yo'llaridan odimlab o'tdi. Hech narsa qilmadi, xudo asradi, bir marta obozda kontuziya qilindi, ikkinchi marta bomba parchasi bilan ko'krigidan yaralandi, ikki oycha gospitalda yotdi va yana o'z qismiga qaytdi.

Uyga qaytayotganida esa stansiyalardagi bozorchi ayollar uni chol deb atashdi. Bu ko'proq hazil edi, albatta. Tanaboy ulardan uncha xafa ham bo'lmasdi. U yosh emasdi, albatta, lekin qari ham emasdi, ko'rinishdangina go'yo qariga o'xshardi, urush yillari ichida qarib ketdi, mo'yloviga oq oralay boshladi. Ammo tanasi va ruhi hali bardam edi. Bir yildan so'ng xotini qiz ko'rdi, keyin esa ikkinchisini tug'di. Hozir ikkalasi ham erga chiqqan, bolalari bor. Yozda dam-badam kelib turishadi. Katta qizining eri — shofyor. Xotin, bola-chaqasini kuzovga o'tqizadi-da, toqqa — chol-kampirlarning oldiga haydaydi. Yo'q, cholu kampir qizlari va kuyovlaridan xafa emas, lekin o'g'ildan yolchimadilar. Ammo bu bo'lak masala...

O'shanda, g'alabadan keyin yo'lda kelayotganida chinakam hayot endi boshlanayotganday tuyulgan edi. Ko'ngli biram shod ediki, asti qo'yavering. Katta stansiyalarda eshelonni duxovoy orkestr bilan kutib olishar va kuzatib qo'yishar edi. Uyda xotini kutardi, o'g'ilchasi sakkizga qadam qo'ygan, maktabga kirish harakatida edi. Tanaboy xuddi dunyoga qayta kelganday, xuddi shu mahalgacha bo'lib o'tgan hamma narsaga go'yo hozir bo'lmaganday g'alati bir his-tuyg'u bilan qaytayotgandi. U hamma narsani unutgisi, faqat kelajak haqida o'ylagisi keldi. Istiqboli ham xayolida aniq-ravshan va oddiygina bo'lib ko'rindi: yashash kerak, bolalarni o'stirish, xo'jalikni yo'lga qo'yish, uy qurish, xullas, yashash kerak. Bunga endi boshqa hech narsa xalaqit bermasligi zarur, chunki butun o'tmish, garovga qo'yilgan, chinakam hayot nihoyat endi boshlanib kelyapti, ana shu hayotga intilyapti, azboroyi ana shu hayot uchun odamlar urushda g'alaba qozonishdi va qurbonlar berishdi.

Ammo endi ma'lum bo'lishicha, Tanaboy shoshilgan, ortiqcha shoshilgan ekan, kelajakning garovi uchun yana yillar va yillarni berish kerak edi.

Dastlab u temirchilik ustaxonasida bosqonchi bo'lib ishladi. Qachonlardir bu ishning hadisini olgan edi, sandon yonida turib ertalabdan kechgacha qulo-

chkashlab shunday cho'kich urardiki, temirchi qizdirilgan temir parchasini bolg'a ostida ag'darib turishga zo'rg'a ulgurardi. Hozir ham barcha kulfat va tashvishlarini unuttirib yuboradigan temirchixonadagi o'sha taqa-tuq, jarang-jurunglar unga goho eshutilganday bo'ladi. Non, kiyim-kechak yetishmasdi, ayollar sarpoychan kalish kiyib yurishardi, bolalar qand nimaligini bilishmasdi, kolxoz qarzga botgan, bankdagi hisob raqamlar xatlangan edi, u bo'lsa bolg'ani ko'tarib tushirish bilan bularning hammasini unutmogchiday edi. U bolg'ani gursillatib urar, sandon jaranglar, uchqunlar ko'k tomchilar kabi sachrar edi. «Huh-ha, huh-ha! — deb nafas olardi bolg'ani ko'tarib tushirganida. — Hamma ish o'nglanib ketadi, eng muhimi — biz g'alaba qildik, ha, g'alaba qildik!» deb o'ylardi. Bolg'a esa «g'alaba qildik, g'alaba qildik», degandek, «duk, duk, duk!» tushardi. Faqat ugina emas, o'sha kunlari hamma xuddi nonday aziz g'alaba nafasi bilan yashar edi.

Keyin esa Tanaboy yilqichilikka o'tdi, toqqa chiqib ketdi. Choro uni shu ishga ko'ndirdi. Rahmatli Choro o'sha paytda kolxoz raisi edi, u butun urush davomida raislik qildi. Xasta yuragi tufayli uni armiyaga olishmadi. Front orqasida bo'lsa ham hiyla qarib qolgandi. Tanaboy qaytganida buni darrov payqadi.

Boshqa odam ehtimol temirchilikni tashlab yilqichi bo'lishga uni ko'ndira olmasdi. Ammo Choro uning eski do'sti edi. Ular bir vaqtlar komsomol ekanliklarida kolxozga kirishga birgalikda tashviqot qilishgan, birgalikda quloqlarni tugatishgandi. Ayniqsa u, Tanaboy o'sha paytlari g'ayrat ko'rsatgandi. U quloqlarni tugatish ro'yxatiga tushib qolganlarni ayamasdi.

Choro uning oldiga — temirchixonaga kelib uni yangi ishga o'tishga ko'ndirdi va ko'ndira olganidan u juda mamnun edi.

— Men bo'lsam sen bolg'ani qo'ldan tashlamassan, undan seni ajrata olmasman, deb qo'rqardim, — degan edi u kulimsirab.

Choro kasal edi, ozib ketgan, bo'yni cho'zilib, cho'kib ketgan yanoqlarini ajin bosgan edi. Hali kun iliq bo'lsa ham, Choroning fufaykasi yozda ham ustidan tushmasdi.

Ular temirchixona yaqinidagi ariq bo'yida chuqqayib o'tirib olib suhbatlashishardi. Choroning yoshligi Tanaboyning esiga tushib ketdi. O'sha davrda u ovulda eng savodxon, ko'zga ko'ringan yigit edi. Odamlar vazminligi, yaxshi xulqi uchun uni hurmat qilishardi. Tanaboyga esa uning ko'ngilchanligi yoqmasdi. Majlislarda u ba'zan o'rnidan sakrab turardi-da, dushman bilan sinfiy kurashda yo'l qo'yib bo'lmaydigan bo'shangligi uchun Choronni urib chiqardi. Uning so'zlari xuddi gazetalarda yozilgan so'zlarday shiddatli edi. Ovoz chiqarib gazeta o'qi-

ganlarida nimaiki eshitgan bo'lsa, hammasini yodaki takrorlardir. Ba'zan o'zining so'zlaridan o'zi dahshatga tushib ketardi. Lekin juda zo'r chiqardi.

— Bilsang, seshanba kuni men tog'da edim, — dedi Choro. — Chollar, hamma askarlar ham qaytib kelishdimi, deb so'rashdi. Ha, tirik qolganlarning hammasi, dedim. «Qachon ish boshlashmoqchi!» Ishni boshlashgan, deb javob berdim, biri dalada, biri qurilishda, boshqalari yana bo'lak yerlarda. «Buni biz ham bilamiz. Yilqilarga kim qarashi kerak? Bizning o'lishimizni kutishmoqchimi, bir oyog'imiz go'rda-ku». Juda uyalib ketdim. Tushunyapsanmi muddaolarini? Biz bu chollarni urush yillari tog'larga yilqichilikka yuborgandik. Shundan beri ular o'sha yoqda. Senga aytib o'tirishimning hojati yo'q, chollarning ishi emas bu. Doim egardasan, na kunduzi, na kechasi halovat yo'q. Qish kechalarini ayt-maysanmi! Darveshboy esingdami, egarda muzlab qotib qoldi. Ular axir otlarni yurishga, minishga ham o'rgatishardi — armiyaga kerak edi bu otlar. Yetmish yoshingda sen tog'u dashtlarda sarson bo'lishni tatib ko'r-chi. Ko'radiganingni ko'rasan. Shuncha chidab berganlari uchun ham rahmat ularga. Frontchilar bo'lsa mana qaytishdi-yu, burunlarini jiyirishyapti, «chet el madaniyati»ni ko'rishgandir-da, endi yilqichilikni yoqtirmay qolishibdi. Tog'larda sarson-sargardon bo'lib nima qilaman emish. Ahvol mana shunday. Shuning uchun sen yordam ber, Tanaboy. Sen borsang, boshqalarni ham majbur qilamiz.

— Xo'p, yaxshi, Choro, xotinim bilan gaplashib ko'ray, — javob berdi Tanaboy. O'zi esa: «Qanaqa kunlarni boshimizdan o'tkazdik, sen bo'lsang, Choro, hali boyagidayсан. Ko'ngilchanliging tufayli adoni tamom bo'lasan. Ehtimol, bu yaxshi hamdir. Urushda nimalarni ko'rmadik axir, hammamiz ham ko'ngilchanroq bo'lsak yaxshi bo'lardi. Ehtimol, hayotdagi eng keragi mana shudir?» deb o'yladi.

Ular gapni bir joyga qo'yib ajralishdi, Tanaboy o'zining ustaxonasi tomon yo'l oldi. Lekin Choro birdan uni chaqirib qoldi:

— Tanaboy, to'xta! — u otda uning oldiga keldi va egar qoshiga engashib uning yuziga tikildi: — Sen xafa bo'lmadingmi? — so'radi u sekingina. — Bilasanmi, hech vaqt topa olmayapman-da. Ilgarigi paytlardagiday dilkashlik qilgim keladi. Necha yil ko'rishmadik. Urush tamom bo'lsa yengilroq bo'lar, deb o'ylagandim, tashvish kamaymayapti. Ba'zan har xil fikrlar boshingga kelib mijja qoqmay chiqasan. Qanday qilib xo'jalikni yuksaltirish, xalqni to'ydirish va hamma rejalarni bajarish mumkin. Odamlar ham avvalgi odamlar emas, yaxshiroq yashashni xohlashadi...

Ammo dilkashlik qilib suhbatlashib o'tirish ularga nasib bo'lmadi, xoli o'tirishga vaqt ham topisha olmadi. Vaqt esa o'tib borardi, keyinchalik endi kech bo'lib qolgandi...

Tanaboy xuddi o'sha kezlarda toqqa yilqichi bo'lib borganida keksa To'rg'ayning yilqilari orasida bir yarim yashar saman toyni birinchi marta ko'rgandi.

— Merosga nima qoldiryapsan, oqsoqol? Yilqilaring aytadigan emas-ku, a? — otlarni sanaganlaridan va qo'tondan haydab chiqarganlaridan so'ng keksa yilqichini uzib oldi Tanaboy.

To'rg'ay ajin bosgan yuzida bironta ham tuki bo'lmagan qotmagina, o'smir-larday past bo'yli chol edi. Qo'y terisidan tikilgan kattakon paxmoq telpagi bo-shida xuddi qo'ziqorinday turardi. Bunday chollar odatda epchil, tili achchiq va baqiroq bo'ladi.

Lekin To'rg'ayning jahli chiqmadi.

— Bori shu, anchayin yilqilar-da, — pinagini buzmay javob berdi u. — Maqtanadigan joyi yo'q, boqib ko'rsang bilasan.

— Ota, men shunchaki aytdim qo'ydim-da, — dedi Tanaboy, murosasozlik bilan.

— Bittasi bor! — To'rg'ay ko'ziga tushib ketgan telpagini ko'tarib qo'ydi-da, uzangida turib, qamchi sopi bilan ko'rsatdi. — O'ng tomonda o'tlab yurgan huv anovi saman toy. Zo'r ot bo'ladi.

— Qaysi biri, huv anovi koptokday yum-yumalog'imi?. Ko'rinishdan uvoqqi-na-ku, beli ham kalta.

— Kechikib tug'ilgan. Quvvatga kirsa zo'r bo'ladi.

— Nima fazilati bor? Nimasi yaxshi?

— Tug'ma yo'rg'a.

— Xo'sh, nima qipti?

— Bundaylarni kam uchratganman. Ilgarigi zamonlarda u bebaho ot hisobla-nardi. Bunday ot uchun poyga-uloqlarda jonlarini tikishardi.

— Qani ko'raylik-chi! — deb qo'ydi Tanaboy.

Ular otlariga qamchi bosib, yilqilarni chekkalab borishdi-da, saman toychoq-ni bir chetga chiqarishdi va oldilariga solib haydab ketishdi. Toyning bir chopgisi kelib turuvdi. Peshonasidagi yolini silkitib pishqirdida, o'rnidan qo'zg'alib, prujinali o'yinchoq otday bir maromda shitob bilan yo'rg'alab ketdi, keyin yilqilarga qo'shilish uchun katta yarim doira yasab aylanib chiqdi. Uning chopishiga maf-tun bo'lgan Tanaboy qichqirib yubordi:

— Xo'-o'-o', qadam tashlashini qara! Qara!

— Sen nima deb o‘ylovding! — g‘urur bilan javob qildi kekxa yilqichi.

Ular yo‘rg‘aning ketidan tez yo‘rttirib borishardi va poygadagi kichkina bolalarday qichqirishardi. Ularning ovozlari go‘yo toychoqni savalayotganday bo‘lar, u o‘zini deyarli zo‘riqtirmay, qadamini tobora tezlashtirib, lo‘killamasdan bir tekis yo‘rg‘alab borardi.

Ularga otlarini choptirishga to‘g‘ri keldi, anovi bo‘lsa hamon avvalgiday yo‘rg‘alab borardi.

— Ko‘ryapsanmi, Tanaboy! — telpagini silkitib qichqirardi To‘rg‘ay otda chopib borayotib: — Ziyrakligini qara-ya, ovozingga qarab qadam tashlaydi-ya! Hayt, hayt, hayt-e!

Saman toychoq nihoyat yilqilarga kelib qo‘shilganida To‘rg‘ay bilan Tanaboy uni tinch qo‘yishdi. Lekin otlarini sovutayotganda ham anchagacha hayajonlari-ni bosisholmadi.

— Rahmat-e, To‘rg‘ay aka, yaxshi ot yetishtiribsiz. Ko‘nglim ancha ko‘tarildi.

— Yaxshi ot, — qo‘shildi unga chol. — Ammo ehtiyot bo‘l, — ensasini qashib birdan qovog‘ini solib oldi u. — Ko‘ziktirib qo‘yma. Mahmadonalik qilib, eldan burun gapirib yurma. Suqsur qizlardek yaxshi yo‘rg‘a otning ham xushtori ko‘p bo‘ladi. Qiz taqdiri shundayki, yaxshi odamga tushsa, ochilib ketadi, ko‘z ko‘rib quvonadi, biron ahmoqning qo‘liga tushsa, qizni ko‘rib xafa bo‘lib ketasan. Hech yordam ham bera olmaysan. Yaxshi ot ham xuddi shunday. Nobud qilib qo‘yish qiyin emas. Poygada qoqilib yiqiladi.

— Tashvishlanma, oqsoqol, axir mening ham bunaqa ishdan xabarim bor, kichkina bola emasman.

— Ha, balli. Men shunchaki gapirdim qo‘ydim-da. Uning oti Gulsari. Esingda tut.

— Gulsari?

— Ha. Bultur yozda nevaram mehmon bo‘lib kelgandi. Bu otni o‘sha qo‘ygan. Sevib qolgandi. O‘sha vaqtda u qulun edi. Esdan chiqarma: «Gulsari».

To‘rg‘ay ezma chol chiqib qoldi. Tun bo‘yi nasihatgo‘ylik qildi, Tanaboy uni sabr-toqat bilan tingladi.

U To‘rg‘ay bilan xotinini manzildan yetti chaqirim narigacha kuzatib qo‘ydi. Unga bo‘sh o‘tov qoldi, endi oilasi bilan birga ko‘chib kirishi lozim edi. Boshqa o‘tovga uning yordamchisi o‘rnashishi kerak edi. Ammo hali yordamchi topishmagandi. Hozircha uning bir o‘zi edi. Xayrlashayotganida To‘rg‘ay yana:

— Saman toyga hozircha tegmay tur, — dedi. — Hech kimga ishonib topshirma ham. Bahorda o‘zing minishga o‘rgat. Ha, ehtiyot bo‘l. Egarlab minib ol-

gandan keyin qattiq haydama. Tizginini hadeb tortaversang yo'rg'a qadamidan ayniydi, otni buzib qo'yasan. Tag'in qara, birinchi kunlari issiqlab turib ko'p suv ichib qo'ymasin. Oyoqlariga suv tushadi, oqbosh yarasi paydo bo'la boshlaydi. Agar o'lmasam, minishga o'rgatganingdan keyin ko'rsatarsan.

To'rg'ay unga yilqilarni, o'tovni, tog'-toshlarni qoldirib, ko'ch-ko'ronlarini tuyaga ortdi-yu, kampiri bilan jo'nab ketdi...

Gulsari o'zi haqida qancha gap-so'zlar bo'lganini, yana qancha so'zlar aytilishini va bularning oqibati nima bo'lishini bilsa edi!..

U yilqilar podasida avvalgiday erkin yurardi. Chor atrofda hech narsa o'zgarmagan, o'sha tog'lar, o'sha maysalar va o'sha daryolar. Faqat chol o'rniga kul rang shinel va askarcha quloqchin kiyib olgan boshqa xo'jayin ularni qo'riqlay boshladi. Yangi yilqichining ovozi xirqiroq, lekin baland va kuchli edi. Yilqilar ko'p o'tmay unga o'rganib qolishdi. Mayli, atrofda aylanib yuraversin.

Keyin esa qor yog'di. U dam-badam yog'ar va erimay uzoq yotardi. Otlar o't-olan topish uchun tuyoqlari bilan qor titkilashardi. Xo'jayinning yuzlari qorayib, qo'llari shamoldan tarashaday qotib ketdi. Endi u kigiz etik kiyib, katta po'stinga o'ralib yurardi. Gulsarining junlari juda o'sib ketgandi, shunday bo'lsa ham u sovqotar, ayniqsa tunlari qattiq sovuq yerd. Ayoqli tunlari yilqilar bir yerga zich bo'lib to'planishardi-da, to quyosh chiqquncha ustlariga qirov tushib, shu ko'yda turishardi. Xo'jayin shu yerdan nari ketmay yurar, qo'lqop kiygan qo'llarini bir-biriga urar, yuzini ishqalar edi. Ba'zan ko'rinmay qolar va yana paydo bo'lardi. Uning ketmagani yaxshi edi. Qichqirsa yoki sovuqdan tomoq qirsa — yilqilar boshlarini dik etib ko'tarishar, quloqlarini ding qilishar, doimo xo'jayinlari yonlarida ekanligiga darrov ishonch hosil qilishib, tungi shamolning g'uvillashi, hushtagi ostida mizg'iy boshlashardi. O'sha qishdan buyon Gulsari Tanaboyning ovozini bir umrga eslab qoldi.

Bir kuni tunda tog'da bo'ron boshlanib, quruq qor yog'ib berdi. Qor yolini ich-ichiga kirar, dumini og'irlashtirar, ko'zlarini ochirmas edi. Yilqilar bezovta bo'lib qoldi. Otlar bir-biriga tiqilishar, qaltirashar, qari biyalar qulunlarni uyurning o'rtasiga haydab, besaranjom bo'lishib pishqirishardi. Ular Gulsarini eng chekkaga siqib chiqarishdi, u to'daning orasiga hech kira olmasdi. Tepikib boshqalarni sura boshladi, butunlay chekkaga chiqib qoldi, shunda uyur ayg'iri rosa ta'zirini berdi. U ko'pdan beri atrofni aylanib yurarkan, kuchli oyoqlari bilan qorni bosib-yanchib, yilqilarni bir joyga yig'ayotgan edi. Ba'zan u boshini egib va quloqlarini chimirib qayoqqadir bir chekkaga tashlanar, qorong'ulikda ko'rinmay ketar, uning faqat pishqirishi eshitilar va g'azab bilan yana otlarning

orasiga chopib qaytib kelar edi. Bir chekkaga chiqib ketgan Gulsarini payqab qolib, uni ko'ragi bilan urdi, orqasi bilan o'girilib keyingi tuyuqlari bilan uning biqiniga shunchalik qattiq tepdiki, Gulsari og'riqdan o'lar holatga keldi. Uning ichida nimadir guvillab ketdi, tepki yeb qichqirib yubordi va arang oyoqda turib qoldi. U o'zboshimchalik qilishga endi urinmadi. Biqini zirqirab og'rirkan, zolim ayg'irdan achchig'lanib uyurning bir chekkasida qimir etmay turdi. Otlar tinchib qolishdi, shunda u allaqanday cho'ziq uvlashni eshitdi. U hech qachon bo'rining uvlashini eshitmagandi, bir on tomir urishi to'xtab, badani muzlab ketganligini seedi. Yilqilar cho'chib tushishdi, quloqlari ding bo'ldi. Hammasi jim bo'lib qoldi. Ammo bu sukunat vahimali edi. Hamon shuvillab yog'ayotgan qor Gulsarining ko'tarilgan tumshug'iga tushib yopishib qolardi. Xo'jayin qayerda qoldi? Shu daqiqada u judayam kerak edi, loaqal ovozini eshitsu, po'stinining dudli hidini hidlasa! U bo'lsa yo'q. Gulsari bir chekkaga ko'z qirini tashladi va qo'rquvdan qotib qoldi. Yon tomonda qorda sudralib qanaqadir ko'lanka lip etib o'tganday bo'ldi. Gulsari birdan o'zini orqaga tashladi va shu zahotiyog yilqilar hurkib joyidan qo'zg'aldi. Es-hushini yo'qotgan otlar qattiq kishnab baravariga zulmat og'ushiga otillishdi. Endi ularni to'xtata oladigan hech qanday kuch yo'q edi. Otlar tog' o'pirilganda qoyadan uzilib tushgan toshlar kabi bir-birlarini itarib, kuchlarining boricha olg'a tomon talpinishardi. Gulsari hech narsani tushunmay terlab-pishib jon-jahdi bilan chopib borardi. Shunda birdan o'q ovozi eshitildi, keyin yana gumburladi. Otlar chopib ketayotib egalarining darg'azab qichqirig'ini eshitdi. Qichqiriq qayerdandir, yon tomondan eshitildi va keyin to'xtamay otlarning yo'lini kesib o'ta boshladi, so'ng old tomondan eshitildi. Ular endi bu to'xtovsiz eshitilayotgan ovozga yetib oldilar, bu ovoz ularni o'z ortidan yetaklab borardi. Xo'jayin ular bilan birga edi. U har lahzada jarlik yoki daraga yiqilib tushish xavfi ostida oldinda chopib borardi. U endi bo'g'iq ovoz bilan qichqirardi, keyin xirillay boshladi, ammo ovozi tinmadi: «Hayt, hayt, hayt-a-ayt!» Otlar ta'qib qilayotgan dahshatdan qutulish uchun uning izidan chopishardi.

Tongga yaqin Tanaboy yilqilarni eski joyiga haydab keldi. Faqat shu yerdagina otlar to'xtashdi. Yilqilar ustidan quyuq tuman kabi bug' ko'tarilardi, otlarning biqinlari ko'tarilib-tushib turar, boshlaridan kechirgan dahshatdan hamon qaltirashardi. Ular qor yeyishardi. Tanaboy ham qor yerd. U tizzalab o'tirib olib, og'ziga siqimlab qor tiqardi. Keyin u yuzini kaftlari orasiga olib qimir etmay uzoq o'tirdi. Osmondan esa hamon qor yog'ib turardi. U otlarning issiq sag'risida darrov erib ketib, loyqa, sarg'ish tomchilarga aylanib pastga oqib tushardi.

Qalin qorlar erib ketdi, o'tlar ko'karib qoldi. Gulsari tez etga kirdi. Yilqilar tulab, terilari yiltillab qoldi. Qish va yem-xashak tanqisligi go'yo sira bo'lmagan day. U otlarning esidan chiqib ketgan, ammo odamning xotirida qolgan. U sovuqni, bo'ronli tunlarni eslaydi, agar ustida qotib o'tirgan paytlarini, muzlab qolgan qo'l va oyoqlarini gulxan yonida isitib, yig'lab yubormaslik uchun lablarini tishlagan vaqtlarini eslaydi. Bahorda yerni yupqa muz bilan qoplab olgan «yut»ni eslaydi, o'shanda uyurdagi eng kuchsiz yilqilar halok bo'lganligini, tog'lardan tushib, kolxoz idorasida ko'zini yerdan uzmay otlarning o'lganligi haqidagi aktga imzo chekkanligini va birdan g'azabga kelib, rais stoliga musht urib baqirganligini eslaydi:

— Sen menga bunaqa qarama! Men senga fashist emasman! Yilqilar uchun otxona qani, yem-xashak qani, sulii qani, tuz qani? Uzoqda qolib ketganmiz! Axir xo'jalikni shunday olib borish kerak deyilganmi? Qaragin, qanaqa yirtiq-yamoq kiyimda yuribmiz! O'tovlarimizni ko'r, qanday yashayotganligimizni ko'r! To'yib non yemaymiz. Urushda ham hatto bundan yuz marta yaxshi yashardik. Sen bo'lsang menga go'yo o'zim bu otlarni bo'g'ib o'ldirganday o'qrayib qaraysan!

Raisning mum tishlab qolganini, uning rangi bo'zarib ketganligi hali ham esida. O'z so'zlaridan uyalib ketgailigini va uzr so'ray boshlaganligini eslaydi u.

— Sen... kechir meni, qizishib ketdim, — duduqlanib zo'rg'a tilga kirgandi u.

— Sen meni kechirishing kerak, — dedi unga Choro.

Rais omborchi ayolni chaqirib:

— Unga besh kilo un ber, — deganda Tanaboy beshbattar qizarib ketgandi.

— Yaslini nima qilamiz?

— Qanaqa yasli? Doim sen hamma narsani chalkashtirib yurasan! Ber! — keskin buyurdi Choro.

Tanaboy yaqinda sut sog'ila boshlanadi, qimiz bo'ladi, deb un olishdan bosh tortmoqchi edi-yu, lekin raisga nazar tashlab va uning jon achchig'ida yolg'on gapirganini anglab indamay qo'ya qolishga majbur bo'ldi. Keyinchalik, u shu undan qilingan ugra oshdan icharkan, har gal og'zini kuydirib olardi. Qoshiqni tashlab:

— Bu nimasi, og'zimni kuydirmoqchimisan? — derdi.

— Sovutib ich, kichkina emassan-ku, — bamaylixotir javob berardi xotini.



Unutmagandi, hech narsani unutmagandi u.

Mana, may oyi yetib keldi. Yosh ayg'irlar kishnashar, bir-birlari bilan urishib, begona uyurlardan yosh biyalarni haydab olib ketishardi. Yilqichilar urishqoq otlarni quvib yuborish uchun kuyib-pishib chopishar, bir-birlari bilan so'kinishar, ba'zan o'zlari ham yoqalashib ketishar, qamchi ko'tarishar edi. Gulsarining bular bilan ishi yo'q edi. Bir yoqdan yomg'ir yog'ib, bir yoqdan o'ftob chiqar, tuyoqlar ostidan o't unar edi. O'tloqlar ko'm-ko'k, ularning ustidagi tizma tog'lar-da oppoq-oppoq qorlar yarqirab turardi. O'sha bahorda saman yo'rg'a yoshlikning ajoyib davrini surardi. Bir yarim yasharli kalta dum, serjun toychoqdan kelishgan, baquvvat ayg'irga aylanib borayotgandi. Uning bo'yi o'sdi, tanasi yumshoq tarhlarini yo'qotib, uch burchak shakliga kira boshlagandi — ko'kra-gi keng, orqasi ingichka edi. Kallasi ham yo'rg'a otlarnikidek ozg'in, peshona-si do'ng, ko'zlarining oralig'i keng, lablari yig'iq va tarang edi. Ammo uning chopishdan boshqa ishi yo'q, shu sababdan u xo'jayiniga ko'p tashvish orttirgan edi. O'z tengdoshlarini orqasidan ergashtirib, bularning orasida uchar yulduzday chopib yurardi. Qanaqadir bitmas-tuganmas kuch uni tog'larga, yon bag'irlardan pastliklarga, toshli qirg'oq, tik so'qmoqlar bo'ylab, soyliklarga haydardi. Hatto tun yarmida, yulduzlar ostida uyquga ketganida ham oyoqlari ostidagi zamin-ning qochib ketayotganligi, yoli va quloqlarida shamolning hushtak chalayotgan-ligi, tuyoqlar taqillayotganligi tushiga kirardi.

O'ziga bevosita aloqador bo'lmagan hamma narsaga qanday qarasa, xo'jayi-niga ham xuddi shunday qarardi. Uni sevmasdi ham, unga hech qanday adova-ti, g'arazi ham yo'q edi, chunki u bunga xalaqit bermasdi. Faqat uzoqqa cho-pib ketishganida ularni quvib so'kinardi. Ba'zan xo'jayini saman yo'rg'aning sag'risiga ukruk — sirtmoq bilan bir-ikki urib qolishga ulgurardi. Bunday va-qtida Gulsarining butun tanasi titrab ketar, ammo kaltakdan ko'ra ko'proq zar-bning to'satdan kelib tushganligidan cho'chib ketardi, shunda qadamini yana ham tezlashtirardi. U yilqilar yoniga qaytayotib qanchalik tez chopsa, ukrukni ko'ndalang tutib izma-iz quvib kelayotgan xo'jayiniga shunchalik ko'p yoqar-di. Yo'rg'a o'z ortidan ruhlantiruvchi qichqiriqlarni, xo'jayini egar ustida o'lan ayta boshlaganini eshitar, bunday damlarda u egasini sevar, qo'shiq ostida chopishni yaxshi ko'rar edi. Borib-borib bu qo'shiqlar qulog'ida qoldi — ular-ning orasida har xili: quvnog'i va g'amgini ham, uzuni va qisqasi ham, so'zlisi va so'zsizi bor edi. U yana xo'jayini yilqilarni tuz bilan boqishini ham yaxshi ko'rardi. Qoziqlarga o'rnatilgan uzun taxta oxurga egasi yalama tuz parchala-

rini tashlardi. Butun yilqilar yopirilib kelardi, ana rohat, ana maza. Uni qo'lga tushirgan ham shu tuz bo'ldi.

Bir kuni xo'jayin bo'sh chelakni taqillatib chalib, otlarni «po', po', po'!» deb chorlay boshladi. Otlar chopib kelishdi. Gulsari boshqalarning o'rtasida turib tuz yalardi va xo'jayini sherigi bilan birga qo'llarida sirtmoq bilan yilqilarni aylana boshlaganida sira ham bezovtalanmadi. Buning unga dahli yo'q edi. Ukruk bilan miniladigan otlarni, sog'iladigan biyalarni va boshqa yilqilarni tutishardi, lekin uni tutishmasdi. U erkin edi. Birdan qil sirtmoq uning boshidan sirg'alib tushib, bo'ynida osilib qoldi. Gulsari nima gapligini tushunmas, sirtmoqdan u qo'rqmas, shuning uchun tuz yalashda davom etardi. Boshqa otlar bo'yinlariga ukruk tashlanganida o'zlarini har yoqqa tashlardilar, oyoqlarini ko'tarib sapchirdilar, Gulsari bo'lsa qimir etmadi. Lekin uning daryoga chopib borib suv ichgisi kelib ketdi. Bo'ynidagi sirtmoq esa tortilib uni to'xtatib qo'ydi. Bunaqasi sira bo'lmagandi. Gulsari sapchib o'zini orqaga tashladi, ko'zlari olakula bo'lib xirillay boshladi, so'ng shiddat bilan old oyoqlarini osmonga tikka ko'tardi. Atrofdagi otlar birpasda tumtaraqay qochib ketishdi, shunda u o'zini qil arqonda ushlab turgan odamlar o'rtasida ko'rdi. Egasi oldinda, uning orqasida esa ikkinchi yilqichi turardi, yaqindan beri bu yerda paydo bo'lib qolgan va yilqilar tevaragida tinmay ot choptirib, uning joniga tekkan yilqichilarning bolalari ularni o'rab olishgandi.

Yo'rg'a otni dahshat bosdi. U tag'in bir sapchib oyoqlarini baland ko'tardi, so'ng yana osmonga sapchidi, ko'zi o'ngida quyosh olovli doiralarga bo'linib xiralashib ketdi, tog'lar, yer, odamlar qulab, chalqanchasiga yiqilib tusharkan, ko'z oldini bir lahza qop-qora, vahimali bo'shliq qopladi, u bu bo'shliqni oldingi oyoqlari bilan tepkilab turardi.

Ammo u qancha tepinmasin, sirtmoq bo'ynini borgan sari qattiqroq siqib borardi, yo'rg'a samanning nafasi bo'g'ilib, o'zini odamlardan chetga olish o'rniga ularga tashlandi. Odamlar o'zlarini olib qochishdi, sirtmoq bir daqiqa bo'shshdi va ot chopib ularni sudrab ketdi. Ayollar qichqirib, bolalarini o'tovlarga hayday boshlashdi. Lekin yilqichilar o'rinlaridan turib olishga ulgurishdi va sirtmoq yana Gulsarining bo'ynidan siqa boshladi. Bu gal u shu qadar qattiq siqdiki, nafas olishning iloji bo'lmay qoldi. Shunda u boshi aylanib, nafasi bo'g'ilib to'xtadi.

Arqonni qo'ldan chiqarmay, xo'jayin yon tomondan yaqinlashib kelaverdi. Gulsari uni bir ko'zi bilan ko'rib turardi. Xo'jayin tilka-pora bo'lib ketgan kiyimda, yuzlari shilingan holda unga yaqinlashardi Ammo egasining ko'zlarida

g'azab uchquni ko'rinmasdi. U og'ir nafas olar va yorilib ketgan lablarini chapil-latib sekin, deyarli shivirlab gapirardi:

— Tek, tek, Gulsari, qo'rqma, to'xta, to'xta!

Uning ortidan arqonni bo'shatmay ehtiyotkorlik bilan yordamchisi yaqinlashib kela. boshladi, Xo'jayin nihoyat qo'lini cho'zib saman otga yetkazdi, uning boshini siypadi, o'girilmay turib yordamchisiga:

— Yuganni ber, — dedi.

U yuganni uzatdi.

— Tek tur, Gulsari, tek tur, jonivor, — der edi u. U yo'rg'a otning ko'zlarini kafti bilan berkitib turib boshiga yugan soldi.

Endi uni jilovlash va egarlash kerak edi. Kallasiga yugan tashlaganida Gulsari xirillab, qochishga urinib ko'rdi. Lekin egasi uning yuqori labidan ushlab qolishga ulgurdi.

— Burov sol! — qichqirdi yordamchisiga, u chopib kelib otning labiga chilvir bilan burov soldi va g'altakni aylantirganday tayoq bilan aylantira boshladi.

Yo'rg'a saman og'riq azobidan orqa oyoqlariga o'tirib qoldi va ortiq qarshilik ko'rsatmadi. Sovuq temir suvliq tishlariga taqillab tegdi va og'zining burchlariga botib ketdi. Uning ustiga nimanidir tashlashdi, beliga qayish solib shunday tortishdiki, ko'kragi qisilib, tebranib ketdi. Bular ham ko'ziga ko'rinmadi, endi lab-lunjidagi dahshatli og'riqnigina sezardi, xolos. Ko'zlari kosasidan chiqib ketayozgandi. Na qimirlab, na nafas olib bo'lardi. U hatto egasi qachon va qanday qilib ustiga minib olganligini ham sezmay qoldi, og'zidan burovni olishgandagina o'ziga keldi.

Hamma yog'idan qayish bilan tortilgan va og'irlashgan ot hech narsani tushuna olmay bir-ikki minut turib qoldi, keyin yelkasi osha ko'z qirini tashlab, birdan ustida odam borligini ko'rdi. Cho'chiganidan o'zini bir chekkaga otdi, lekin suvliq og'zini yirar, odamning oyoqlari esa biqinlariga qattiq botib turar edi. Saman ot oldingi oyoqlarini tikka ko'tardi, g'azabnok va jon achchig'i bilan kishnadi, shataloq otib u yoqdan bu yoqqa yugurib yeldi va o'zini bosib turgan hamma yukni ustidan uloqtirib tashlash uchun kuch to'plab bir tomonga tashlandi, biroq ikkinchi uchini boshqa bir otliq odam mahkam ushlab turgan arqon uni qo'yib yubormasdi. Shunda u doira yasab chopa boshladi, u doiradan chiqib, qochib ketish payida bo'lardi. Biroq doiradan chiqib ketib bo'lmas, tinmay chopar edi. Odamlarga xuddi mana shunisi kerak edi. Egasi uni qamchi bilan urib turar, etik poshnasi bilan niqtardi. Shunday bo'lsa ham saman ot uni

ikki marta ustidan uloqtirib tashladi. Ammo egasi o'rnidan turar va yana egarga minardi.

Bu holat shu yo'sinda uzoq, juda uzoq davom etdi. Boshi aylanardi, atrofdagi yer, o'tovlar aylanardi, uzoqlarga tarqalib ketgan otlar, tog'lar, osmondagi bulutlar aylanardi. Keyin u charchadi va qadamlab yurib ketdi. Juda chanqadi.

Ammo unga suv berishmasdi. Kechqurun ustidan egarini olmay, faqat ayilini salgina bo'shatib, otqoziqqa qaytarib qo'yishdi. Jilovini egarning qoshiga qattiq o'rab bog'lab qo'yilganidan boshini tik tutishga to'g'ri kelar va shu holda yerga yota olmas edi. Uzangilar ko'tarilib egar qoshiga ilib qo'yilgandi. U tun bo'yi shu taxlitda turib chiqdi. U o'z boshidan kechirgan bu g'aroyib narsalarning hammasidan dovdirab, esankirab tikka turardi. Og'zidagi suvliq hamon unga xalaqit berar, u salgina qimirlasa ham og'zini og'ritar, temirning mazasi ham yoqimsiz edi. Og'zining shishgan burchaklarini suvliq shilib yuborgandi. Qornidagi qayish qiyib yuborgan joylari achishardi. Egar tagidan qo'yilgan namat terlik ham belini og'ritardi. Juda-juda suv ichgisi kelardi. U daryoning shovillashini eshitar va bundan chanqog'i yanada kuchayardi. U yoqda — daryoning narigi betida har vaqtdagiday yilqilar o'tlab yurishardi. Ko'p tuyoqlarning taqir-tuquri, otlarning kishnashi va tungi yilqichilarning qichqirig'i eshitalardi. O'tovlar oldidagi odamlar gulxanlar yonida o'tirib dam olishar, bolalar itlarni mayna qilib vovillashardi. U bo'lsa o'z joyida turar, hech kimning u bilan ishi ham yo'q edi.

So'ng oy ko'tarildi. Tog'lar zulmat quchog'idan chiqib, oyning sarg'ish nuri ostida sekin tebrana boshladi. Yulduzlar tobora yerga yaqinlashib, yorqinroq porlardi. U bir joyga mahkam bog'langanicha qimir etmay turar, uni kimdir izlardi. U o'zi bilan birga o'sgan va o'zidan hech qachon ajralmaydigan jiyron baytalning kishnashini eshitar. Baytalchanning peshonasida oq yulduz qashqasi bor edi. U saman toycha bilan chopib yurishni yaxshi ko'rardi. Ayg'irlar uning ortidan quvib yura boshlagandi, u tutqich bermas, yo'rg'a toy bilan birga ulardan uzoqqa qochib ketardi. Jiyron baytalcha hali yoshiga yetmagan edi, saman toy ham ayg'irlar biyacha bilan qilmoqchi bo'lgan ishni qiladigan yoshga hali yetmagandi.

Mana u qaydadir juda yaqin joyda kishnadi. Ha, bu o'sha biya edi, uning ovozi u aniq tanidi. U javob qaytarmoqchi bo'ldi-yu, ammo shilinib, shishib ketgan og'zini ochgani qo'rqardi. Juda ham og'rirdi. Nihoyat baytalcha uni izlab topdi. Oydinda peshonasidagi oq yulduzchani yaraqlatib yengilgina chopib keldi. Dumi va oyoqlari ho'l edi. U daryoni kechib o'tib, o'zi bilan birga suvning sovuq

nafasini keltirgandi. Tumshug'ini tirab, yumshoq iliq lablarini tegizib, uni iskay boshladi. Biya erkalanib pishqirar, uni o'zi bilan birga ketishga chorlar, u bo'lsa joyidan qo'zg'ala olmasdi. So'ng biyacha uning bo'yniga kallasini qo'ydi-da, tishlari bilan yollari orasini qashiy boshladi. Saman toy ham uning bo'yniga kallasini qo'yishi va yag'rinini qashishi kerak edi. Ammo uning mehribonligiga mehribonlik bilan javob qaytara olmasdi, hatto qimir etishga holi kelmas, u chanqagandi. Baytalcha qochib ketganida to uning soyasi daryo ortidagi tun qorong'uligiga singib ketguncha orqasidan qarab qoldi. Keldi-yu ketdi. Uning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqdi. Yirik-yirik yosh tomchilari tumshug'idan oqib, oyoqlari ostiga sekingina dumalab tushardi. Saman yo'rg'a umrida birinchi mar-ta yig'layotgandi.

Erta tongda xo'jayin keldi. U atrofdagi ko'm-ko'k tog'larga qaradi, kulimsirab bir kerishib oldi, suyaklari sirqirab og'riganidan ingrab qo'ydi.

— Oh, Gulsari, kecha mening rosa adabimni berding-da. Nima qildi? Sovqot-dingmi? Voy seni qara-yu. Ha, durust, durust.

U yo'rg'a toyning bo'ynini silab-siypadi va unga qandaydir iliq hazilomuz so'zlarni gapira boshladi. Odam nimalarni gapirayotganini Gulsari qayoqdan bil-sin? Tanaboy bo'lsa shunday derdi:

— Ha, mayli, xafa bo'lma, birodar. Umr bo'yi ishsiz, bekor yurmassan axir. Ko'nikib qolarsan, hamma ish o'nglanib ketadi. Qiynal-ding-a, hechqisi yo'q, shu-siz bo'lmaydi. Hayot mana shunaqa, birodar, to'rttala tuyog'ingni ham taqalaydi. Keyinchalik yo'lingda uchragan har bir toshga egilib ta'zim qilib yurmaysan. Qorning ochdimi, a? Chanqadingmi? Bilaman...

U saman toyni daryo tomon yetaklab ketdi. Yaralangan og'zidan suvlig'ini avaylab chiqardi. Gulsari titrab-qaqshab suvga tashlandi, sovuqdan ko'zlaridan yosh chiqdi. Oh, suv naqadar mazali edi, u buning uchun odamdan qanchalik minnatdor!

Shunday qilib, oradan ko'p vaqt o'tmay u egarga shunchalik ko'nikib ketdiki, uning og'irligini sezmay qoldi. Ustidagi chavandoz unga qushday yengil ko'rinar, o'zini yaxshi sezardi. Odam sira jilovni bo'sh qo'ymas, saman ot bo'lsa yo'llarda bir maromda oyoq tashlab, yo'rg'alab ketardi. U egar ostida shunchalik tez va te-kis yurishga o'rgangan ediki, odamlar qoyil qolishardi:

— Ustiga bir chelak suv qo'y — bir tomchi ham to'kilmaydi! — deyishardi.

Avvalgi yilqichi chol To'rg'ay bo'lsa Tanaboyga dedi:

— Rahmat, yaxshi o'rgatibsan. Yo'rg'angning dong'i chiqishini endi ko'rasan!

### III

**F**ski arava g'ildiraklari kimsasiz yo'lda sekin g'irchillab borardi. Ba'zan g'ildiraklarning to'qillashi eshitilmay qolardi. Holdan toygan yo'rg'a to'xtab qolardi, sukunat cho'kkan damda yuragining gup-gup, gup-gup etib urayotganligi qulog'iga chalinardi.

Keksa Tanaboy otning nafasini rostlab olishini kutib turar, so'ng yana uning jilovidan tortardi:

— Ketdik, Gulsari, ketdik, qara, qorong'i tushib qoldi, Ular bir yarim soat-larcha yurishdi, keyin yo'rg'a taqqa to'xtab qoldi. U aravani ortiq torta olmasdi. Tanaboy yana ot atrofida aylana boshladi.

— Senga nima bo'ldi, Gulsari, a? Qara, tezda tun kiradi!

Lekin ot uni tushunmasdi. U hatto kallasini ko'tarishga ham majoli yetmay, boshini silkitib, chayqalib turardi. Qulog'iga esa hamon yuragining gup-gup, gup-gup etib urishi eshutilardi.

— Kechir meni, — dedi Tanaboy. — Darrov fahmim yetmaganini qara-ya. Qurib ketsin bu arava ham, bu egar-jabduq ham, seni bir amallab uyga yetkazib olsam bo'lgani.

U po'stinini yerga tashladi va shoshib-pishib otni aravadan chiqardi, boshidan xomutni oldi-da, hamma anjomlarni aravaga tashladi.

— Mana, vassalom, — dedi u va po'stinini kiyib aravadan chiqarilgan saman otiga qaradi. Xomutsiz, anjomsiz haddan ortiq katta kallali ot hozir kechki sovuqda cho'l o'rtasida arvohday turardi. — Yopiray, xudoyim-e, qay ahvolga tushib qolding, Gulsari? — pichirladi Tanaboy. — Agar seni hozir To'rg'ay ko'rganidami, go'rida tik turardi...

U saman otning jilovidan tortdi, ular yana asta yurib ketishdi. Qari ot va keksa odam. O'rtda arava qolib ketdi, oldinda, g'arb tomonda yo'lni qoramtir-binafsha rang zulmat bosib kelayotgandi, Tun tog'larni chulg'ab ufqni berkitib, cho'l ustiga, unsiz-tovushsiz yoyilib kelardi.

Tanaboy yurib borarkan, uzoq yillar davomida saman ot bilan bog'liq bo'lgan narsalarni eslar va alamli kulimsirab odamlar haqida o'ylardi: «Biz hammamiz mana shunaqamiz. Umrimizning oxirida, birortamiz og'ir kasal bo'lib qolganimizda yoki dunyodan o'tganimizda bir-birimizni eslaymiz. Ana shunda kimni yo'qotganimiz, u qanday odam bo'lganligi, nimasi bilan dong chiqarganligi, qanday ishlar qilganligi birdan hammamizga ayon bo'lib qoladi. Tilsiz maxluq haqda

nima deyish mumkin? Gulsari kimlarni olib yurmadi axir! Kimlar uni minmadi! Qarishi bilan uni hamma unutdi qo'ydi. Endi oyoqlarini zo'rg'a sudrab yuribdi. Axir qanaqa ot edi u!»

So'ng u yana o'tgan voqealarni eslay boshladi va qanday qilib ko'pdan beri xayolan o'tmish kunlarga qaytmaganligiga o'zi ham hayron bo'ldi. Qachonlardir bo'lib o'tgan ishlarning hammasi uning xotirasida jonlana boshladi. Hech narsa ham izsiz yo'qolmas ekan. Ilgarilari u o'tmish haqida kam o'ylardi, to'g'rirog'i, o'ylashga o'ziga yo'l qo'ymasdi, endi bo'lsa, o'g'li va kelini bilan bo'lgan gap-so'zdan keyin jonini berayotgan saman otning jilovidan ushlab yo'lda ketarkan, boshidan o'tgan yillarni alam va hasrat bilan esladi va bu yillarning hammasi uning ko'z o'ngida yaqqol gavdalandi,

U o'z xayollari bilan band bo'lib qadam tashlab borardi, saman ot esa jilovni tobora ortga tortib sudralib kelardi. Cholning qo'li tolib qolganida jilovni boshqa yelkasiga oshirar va yo'rg'ani yana yetaklab ketar edi. Keyin u bunday yurishdan charchadi, saman otga ham dam berdi. O'ylab turib otning kallasidan yuganni chiqarib oldi.

— Oldinda yur, holing kelganicha yur, men orqangdan boraman, seni tashlab ketmayman, — dedi u. — Qani yur, asta-asta.

Endi saman ot oldinda, Tanaboy esa yelkasida yugan, orqada borardi. U yuganni hech qachon tashlamaydi. Gulsari to'xtaganida Tanaboy u kuch yig'ib olsin, deb kutib turar, so'ng yana ular yo'lda sudralib ketishardi. Qari ot va keksa odam.

Bir vaqtlar mana shu yo'ldan orqasida chang-to'zon qoldirib Gulsari yelib o'tganini eslab, Tanaboy g'amgin kulimsirab qo'ydi. Cho'ponlar mana shu chang-to'zondan saman otning chopib o'tganligini bilib olishlarini aytishardi. Tuyoqlari ostidan chiqqan chang cho'lda oppoq bo'lib suzar va shabada-shamolsiz kunlari u xuddi reaktiv samolyotning tutuniday yo'l ustida muallaq osilib turardi. Bunday damlarda cho'pon kaftini ko'zlari ustiga soyabon qilib o'zicha: «Gulsari kelyapti! Bu o'sha Gulsari» derdi va issiq shamolda yuzini kuydirib bu ot ustida yelib kelayotgan baxtli kishi haqida hasad bilan o'ylardi. Dong'i ketgan mana shunday yo'rg'a ustida o'tirib borish qirg'iz uchun buyuk sharafdir.

Gulsari qancha kolxoz raislarini ko'rmadi deysiz, har xili bo'lgan — aqlli va tentaklari, sofdil va vijdonsizlari bo'lgan, ammo hammasi ham o'z raisligining birinchi kundan to so'nggi kunigacha saman otni minib yurgan. «Qani endi ular? Ertadan kechgacha ularni olib yurgan Gulsarini goho-goho eslab qo'yishar-mikin?» — o'ylardi Tanaboy.

Ular nihoyat jarlik ustidagi ko'prikka yetib olishdi. Bu yerda yana to'xtashdi. Saman ot yerga yotish uchun oyoqlarini buka boshladi, lekin Tanaboy bunga yo'l qo'yishi mumkin emasdi, keyinchalik hech qanday kuch bilan uni joyidan turg'iza olmasdi:

— Tur, tur! — qichqirib yubordi u va tizgin bilan otning kallasiga tushirdi. So'ng urgani uchun o'zidan xafa bo'lib, yana baqira boshladi: — Nega tushunmaysan axir? Harom o'lmoqchimisani? Bunga sirayam yo'l qo'ymayman! Tur, tur, deyman! U otning yolidan tortardi.

Gulsari oyoqlarini zo'r-bazo'r tiklab oldi, og'ir ingradi, Qorong'u bo'lsa ham otning ko'ziga qarashga Tanaboyning yuragi dov bermadi. U otni silab-siypadi, u yer-bu yerini paypaslab ko'rди, so'ng qulog'ini uning chap biqiniga tutdi. U yerda, otning ko'kragida yuragi xuddi to'sinlarga o'ralib qolgan te-girmon parragiday pixillab zo'rg'a urib turar edi. U to beli qaqshagunicha otning yonida shu ko'yda uzoq egilib turdi. Keyin qaddini rostlab boshini silkidi, xo'rsindi, so'ng tavakkal qilishga — ko'prikdan o'tgach, soy yoqalab boruvchi so'qmoqqa burilishga qaror qildi. Bu so'qmoq tog'liqqa olib chiqardi va uyga tezroq yetib olish mumkin edi. To'g'ri, tunda adashib qolish ham hech gap emas, ammo Tanaboy o'ziga ishonardi, bu yerlarni ko'pdan beri bilardi, faqat ot chidash bersa bo'lgani.

Chol shular haqida o'ylar ekan, uzoqda yo'lovchi mashinaning chiroqlari porlab ko'rindi. Chiroqlar zulmat quchog'idan bir juft yorqin shar kabi to'satdan chiqdi-da, uzun, tebranuvchi yog'dulari bilan o'z oldidagi yo'lni paypaslab tez yaqinlashib kela boshladi. Tanaboy saman ot bilan ko'prik yonida turardi. Mashina ularga hech qanday yordam bera olmasdi, shunday bo'lsa ham Tanaboy uni kutib turardi. Sababini o'zi bilmasa ham kutib turardi u. «Nihoyat, loaqal bittasi uchradi», — o'yladi u, yo'lda odamlar paydo bo'lganligidan mamnun bo'lib. Yuk mashinasining chiroqlari o'tkir nurlari bilan uning ko'zlarini qamashtirgan edi, u ko'zlarini qo'li bilan berkitib oldi.

Mashina kabinasida o'tirgan ikki kishi ko'prik yonidagi qari kishi va uning oldida go'yo ot emas, balki odamga ergashib olgan itga o'xshab turgan egarsiz, yugansiz qirchang'ini ko'rib hayron qolishdi. To'g'ri tushgan yorug'lik bir lahza chol va otni yoritib yubordi va ular birdan jimsiz oppoq shaklga aylanib qolgan-dek bo'ldi.

— Tavba, tun yarmida bu yerda nima qilib yuribdi? — dedi shofyorning yonida o'tirgan quloqchin telpakli novcha yigit.



— Bu o'sha, anovi yoqdagi arava shuniki, — tushuntirdi shofyor va mashinasini to'xtatdi. — Senga nima bo'ldi, chol? — qichqirdi u kabinadan boshini chiqarib. — Yo'lda aravani tashlab ketgan senmisan?

— Ha, men, — javob berdi Tanaboy.

— Shunaqa degin. Qarasak, yo'lda shalag'i chiqqan arava yotibdi. Atrofda hech kim yo'q. Abzal-anjomni olmoqchi edik, u ham hech narsaga arzimasa ekan. Tanaboy indamadi.

Shofyor mashinadan tushdi, aroqning o'tkir badbo'y hidini har yoqqa taratib, u yoqdan-bu yoqqa bir necha qadam tashladi, so'ng yo'lga yozila boshladi.

— Nima bo'ldi? — so'radi u qayrilib.

— Ot torta olmadi, kasal bo'p qoldi, uning ustiga o'zi ham qari.

— Hmm. Xo'sh, endi qayoqqa bormoqchisan?

— Uyg'a. Sarigov darasiga.

— O'-ho! — hushtak chalib yubordi shofyor. — Toqqami? Yo'limiz bir emas ekan. Xohlasang, kuzovga chiq, sovxozgacha eltib qo'yaman, u yerdan ertaga ketasan.

— Rahmat. Otim bor.

— Manovi o'limtikmi? Itga tashla uni, huv anovi jarlikka itarib yubor, vasalom, qarg'alar cho'qib tamom qilishadi. Xohlasang, ko'maklashib yuboraylik,

— Ketaver, — dedi qovog'ini uyib Tanaboy.

— Bilganingni qil, — tirjaydi shofyor va eshikni yopa turib kabina ichiga qarab so'z qotdi: — Miyasi aynib qolibdi cholning!

Mashina qo'zg'alib, xira nur oqimini o'zi bilan ergashtirib ketdi. Stop-signalarning to'q qizil nuri bilan yoritilgan soy ustidagi ko'prik g'ichirlab qoldi.

— Nega u odam ustidan kulasan, agar o'zingning boshingga shunday kun tushsa nima bo'lardi? — dedi ko'prikdan o'tgach, shofyor yonida o'tirgan quloqchinli yigit.

— Hechqisi yo'q... — Shofyor esnab barankani aylantirdi. — Har qanaqasiga duch kelganman. Men gapning po'skallasini gapirdim. Qandaydir bir qirchang'i... O'tmishning sarqiti, hozir, birodar, hamma narsaning otasi texnika. Hamma yerda texnika. Urushda ham, bunaqa chollar va otlarning davri o'tdi.

— Hayvon ekansan! — dedi yigit.

— Tufladim hammasiga, — javob berdi u.

Mashina ketgandan so'ng, yana hamma yoqni tun zulmati qopladi, ko'z esa yana qorong'ulikka o'rgandi. Tanaboy saman otni hayday boshladi.

— Qani, ketdik, chuh, chuh! Yursang-chi!

Ko'prikdan o'tgandan keyin u otni katta yo'ldan so'qmoqqa burdi. Endi ular qorong'ilikda zo'r-bazo'r ko'rinib turgan so'qmoq bilan soy yoqalab asta-sekin ilgari lab borishardi. Oy tog'lar ortidan endigina mo'alab kelayotgandi. Yulduzlar sovuq osmonda miltillashib, uning chiqishini kutishardi.

#### IV

**G**ulsari minishga o'rgatilgan yili yilqilarni kuzgi yaylovlardan kech qaytarishdi. Kuz odatdagiga qaraganda cho'zilib ketdi, qish ham yumshoq keldi, qor tez-tez yog'di-yu, ammo uzoq turmadi, yem-xashak yetarli edi. Bahorda esa yilqilar yana tog' yonbag'irlariga qaytib kelishdi va cho'l gullab-yashnashi bilanoq pastlikka tusha boshlashdi.

Urushdan keyin Tanaboy hayotida bu, ehtimol, eng yaxshi davr bo'lgan chiqar. Qarilikning qo'ng'ir oti uni hali dovon ortida, garchand bu dovon yaqin bo'lsa ham kutib turar, Tanaboy hali yosh saman yo'rg'ani minib yurar edi. Bu yo'rg'a ot unga bir necha yil keyin uchraganda, u Gulsarini minganda ehtimol bu qadar o'zini baxtli sezmasdi. Ha, Tanaboy goho odamlar oldida o'zini ko'z-ko'z qilishdan ham qaytmasdi. Yelib ketayotgan saman ot ustida o'tirib u o'zini qanday ko'z-ko'z qilmasin! Gulsari buni yaxshi bilardi. Ayniqsa Tanaboy ovulga ketayotganida ishga to'da-to'da bo'lib borayotgan ayollar yo'lda uchrab qolsa o'zini ko'z-ko'z qilishni yaxshi ko'rardi. Ulardan hali uzoqda qaddi-qomatini rostlab egar ustida g'oz o'tirib olar va uning hayajoni otiga ham o'tardi, Gulsari dumini sag'risi baravar ko'tarib olar, yoli shamolda hilpirab borardi. U ustidagi chavandozni yengilgina ko'tarib, pishqirib yo'rg'alardi. Oq va qizil durrali ayollar tizzalariga qadar yashil bug'doylarga ko'milishib yo'l chekkalariga chiqib turishardi. Ular go'yo sehrlanganday to'xtab qolishar, hammasi birdaniga qayrilib qarashardi, chehralar, porlab turgan ko'zlar, tabassumlar va oppoq tishlar lip-lip etib ko'rinardi.

— Hey, yilqichi! To'xta-a!

Izma-iz kulgi va qochiriqlar eshitilardi:

— Shoshmay tur, qo'lga tusharsan, tutib olamiz!

Bir-birlarining qo'llaridan ushlab yotib yo'lni to'sib uni tutib olishgan kunlar ham bo'lgan. Nimalar qilishmas edi deng! Xotinlar hazil-mazax qilishni yaxshi



ko'rishadida. Tanaboyni egardan sudrab tushirishar, qo'lidan qamchini tortib olishib qah-qahlab kulishar, qiyqirishar edi:

— Ochig'ini ayt, qachon qimiz keltirasan?

— Biz bu yerda ertalabdan kechgacha dalada ishlaymizu, sen bo'lsang saman otda sayr-tomosha qilib yurasan!

— Kim sizlarni ushlab turibdi? Yilqichilikka o'ting. Faqat erlaringga tayinlab qo'yinglar, o'zlariga boshqasini qidirishsin. Tog'da sumalakday muzlab qolasizlar.

— Ho, hali shunaqami! — yana uni tortqilay boshlashardi.

Tanaboy hech kimni saman yo'rg'aga minishga sira yo'l qo'ymasdi. Hatto uchrashganida darhol kayfiyati o'zgaradigan va otini sekin yuritishga sababchi bo'ladigan o'sha ayol ham biron marta uni minmagan. Ehtimol, u buni istamagan hamdir.

O'sha yili Tanaboyni kolxoz taftish komissiyasiga saylashgandi. U ovulga dam-badam kelib turar va deyarli har gal bu ayol bilan uchrashar edi. U idoradan ko'pincha achchig'lanib chiqardi. Gulsari uning ko'zlari, ovozi, qo'llarining harakatiga qarab buni sezardi. Ammo bu ayol bilan uchrashganida u doim ochilib, xushfe'l bo'lib qolardi.

— Hay-hay, sekinroq, qayoqqa shoshasan! — shivirlardi u o'ynoqi otini tinchlantirib va ayol bilan tenglashib olgach sekin haydardi.

Ular nima haqdadir asta gaplashishar, ba'zan indamay borishardi. Gulsari xo'jayinining yuragidagi alam qanday tarqalayotganligini, uning ovozi qanday muloyimlashib borayotganligini, qanday mehr-shafqatli bo'lib ketayotganligini qo'lidan his qilardi. Shuning uchun ham u o'zlari yo'lda bu ayolni quvib yetishlarini yaxshi ko'rardi.

Kolxozda turmush og'irligini, mehnat kuniga deyarli hech narsa tushmayotganligini, taftish komissiyasining a'zosi Tanaboy Bekasov qanday qilib shunday ahvol yuz berayotganligini, davlatga ham bir narsa berish mumkin bo'ladigan, odamlar ham bekorga ishlamaydigan kunlar qachon kelishini so'rab-surishtirib, idoradagilarning boshini qotirayotganligini ot qayoqdan bilsin.

O'tgan yili hosil bitmadi, yem-xashak qahatchiligi bo'ldi, bu yil tumanning yuzi yerga qaramasin deb boshqalar uchun ham rejadan tashqari don va mol topshirishdi, oxiri nima bo'ladi, kolxozchilarning hollari nima kechadi — bunisi noma'lum edi. Vaqt o'tib borardi, urushni esdan chiqara boshlashdi, lekin tomorqadan olganlari va dalalardan yashirincha tashib keltirganlari bilan hamon ilga-

rigiday kun kechirishardi. Kolxozda pul ham yo'q edi: g'alla, sut, go'sht — hammasi zarariga topshirilardi. Yozda chorvachilik rivojlana boshlardi, qishda esa uning ahvoliga maymunlar yig'lardi, mollar tanqislik va sovuqdan qirilardi. Zudlik bilan qo'tonlar, molxonalar, yem-xashaklar uchun bazalar qurish kerak edi, qurilish materiallarini esa hech qayerdan topib bo'lmas va ularni topib berishga ham hech kim va'da bermas edi. Urush yillari turar joylar qay ahvolga keldi deysiz! Ko'proq bozorma-bozor yurib mol hamda kartoshka bilan savdo-sotiq qilib yurganlarga uy-joy qurishdi. Bundaylar kuch-qudratga kirib, qurilish materiallarini ham qayoqdandir chetdan topib kelishardi.

— Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas o'rtoqlar, bunda nimadir chatoq, qanaqadir katta ishkali bor, — deydi Tanaboy. — Shunday bo'lishi kerakligiga ishonmayman. Yo biz ishdan chiqib qoldik, yo sizlar noto'g'ri rahbarlik qilyapsiz.

— Nimasi joyida emas? Nimasi noto'g'ri? — Buxgalter unga qog'ozlarni tutardi. — Mana, rejalarini qara... Manovi olganlarimiz, manovi topshirganlarimiz, manovi debet, manovi kredit, manovi saldo. Daromad yo'q, faqat zarar-ziyon. Yana nima demoqchisan? Avval tushunib ol. Faqat sen komunistсанu biz xalq dushmanimizmi, shunaqami?

Gapga boshqalar aralashar, bahs, shovqin-suron boshlanardi, Tanaboy bo'lsa boshini qo'llari orasiga olib o'tirardi va kuyib-pishib nega bunday bo'layotganini o'ylardi. U shu yerda ishlayotganligi uchungina kolxoz uchun kuyinmayotgandi, bunga boshqa alohida sabablar ham bor edi. Tanaboy bilan qadimdan xusumati bo'lgan kishilar bor edi. Ular endi undan sekin kulib yurganlarini, uni ko'rganlarida: xo'sh, o'zlarining ishlari qalay endi, degandek yuziga surbetlik bilan tik boqishlarini yaxshi bilardi. «Ehtimol, yana quloqlarni tugata boshlarsan? Faqat endi bizdan oladiganing yo'q. Qo'ling kaltalik qiladi. U-uh, nega urushda joning uzila qolmadi-ya!»

Tanaboy ham ularga: «Shoshmay turinglar, ablahlar, baribir biz aytganday bo'ladi!» deganday ma'nodor qarash bilan javob berardi. Holbuki, bu odamlar yot odamlar emas, o'z odamlari edi. Uning o'gay akasi Quliboy hozir qarib qolgan, urushga qadar yetti yilni Sibirda — qamoqda o'tkazgan. O'g'illari ham otasiga tortdi, Tanaboyni o'lguday yomon ko'rishadi. Nima uchun ham ular uni sevishsin? Ehtimol ularning bolalari ham Tanaboy urug'idan nafatlanishsa kerak. Buning sababi bor. Bu ish allaqachonlar bo'lgan bo'lsa ham alami ketgani yo'q. Quliboyni shunday qilish kerakmidi? Axir shunchaki uddaburon, ishbilarmon kishi, o'rtahol dehqon emasmid? Qarindosh-urug'chilikka rioya qilmay bo'la-

dimi. Quliboy katta xotindan, u bo'lsa kichik xotindan edi, lekin qirg'izlarda bunday aka-ukalar bir qorindan tug'ishganday hisoblanadi. Demak, u qarindosh-urug'chilikka ham dahl qildi, o'sha vaqtda qancha gap-so'zlar bo'lgan edi. Endi, albatta, turlicha mulohaza yuritish mumkin. Ammo o'shanda-chi! Axir kolxozni deb u shu ishlarni qilmadimi? Lekin shunday qilish kerakmidi? Ilgarilari shubhalanmasdi, urushdan so'ng esa ba'zan boshqacharoq o'ylab qoladigan bo'ldi. O'zi-ga va kolxozga ortiqcha dushmanlarni orttirib olmadimikin?

— Nega o'tiribsan, Tanaboy, ko'zingni och, — gapga tortishardi uni. Yana o'sha eski tashvish: qish ichida hamma go'nglarni dalalarga olib chiqish, hovlima-hovli yurib yig'ish kerak. G'ildiraklar yo'q, demak, qayrag'och, chambar-shina uchun temir sotib olish kerak, lekin qaysi pulga sotib olinadi, qarz berisharmikin, nimaning evaziga? Bank quruq gapga ishonmaydi. Eski ariqlarni tuzatish, tozalash, yangilarini qazish kerak, ish ko'p, og'ir. Qishda xalq bunday ishlarga chiqmaydi, yer muzlagan, qazib bo'lmaydi. Ko'klamda esa ulgurmayсан — ekish-tikish, qo'zilatish, o'toq qilish, undan keyin esa pichan o'rimi boshlanadi. Qo'ychilikni nima qilish kerak. Urchitish uchun binolar qani? Sut fermasida ham ahvol yaxshi emas. Tomi chirib ketgan, yem-xashak yetishmaydi, sut sog'uvchilar ishlashni xohlashmaydi. Ertadan kechgacha urinib yurishadi, ammo nima haq olishadi? Boshqa yana qancha har xil tashvish va kamchiliklar bor. Vahima bosib ketardi ba'zan.

Shunday bo'lsa ham o'zlarini qo'lga olib, partiya majlisi, kolxoz boshqaruvida bu masalalarni yana muhokama qilishar edi. Choro rais edi. Faqat keyingina Tanaboy uning qadriga yetdi. Tanqid qilish oson ekan. Tanaboy bir uyur otlar uchun javob bersa, Choro kolxozdagi hamma odamlar va barcha ishlar uchun javobgar edi. Ha, Choro metin odam edi. Hamma ishlar barbod bo'layotganday tuyulganida tumanda unga qarab stolni do'qillatganlarida va kolxozda yoqalaridan tutganlarida Choroning ruhi tushmadi. Tanaboy uning o'rnida bo'lganida yo aqldan ozardi, yo o'zini o'zi o'ldirardi. Choro bo'lsa xo'jalikni saqlab qola oldi, oxirigacha, yuragi ishdan chiqquncha turib berdi, keyin ham yana ikki yilcha partiya tashkilotchisi bo'lib ishladi. Choro ishontira olar, odamlar bilan gaplasha bilar edi. Tanaboy uni tinglab hamma ish yaxshilanib ketishiga, turmush nihoyat odamlar dastlabki paytlar orzu qilganday bo'lishiga yana ishona boshlardi. Uning Choroga bo'lgan ishonchi bir martagina susaydi, lekin shunda ham uning o'zi ko'proq aybdor edi...

Tanaboy idoradan qosh-qovog'i osilib chiqqanida, egarga zarb bilan o'tirib, jilovni siltab tortganida uning ko'nglida nimalar yuz berayotganini yo'rg'a bilmasdi. Lekin u xo'jayinining ahvoli juda yomonligini sezardi. Garchand Tana-

boy uni hech qachon urmagan bo'lsa ham, saman ot bunday paytlarda xo'jayini-  
dan cho'chib turardi. Yo'lda o'sha juvonne ko'rishi bilan xo'jayini ancha yengil  
tortib, ko'ngli yumshashini, uni to'xtatib, ayol bilan nimalar haqdadir sekin  
gaplashib turishini, juvonning qo'llari esa Gulsarining yollarini tarab, bo'yini  
silab-siypashini ot bilardi. Hech bir odamning qo'llari bunchalik muloyim ema-  
sdi. Bu qo'llar peshonasida yulduzi bor huv o'sha jiyron baytalchanning lablari  
singari yoqimli va yumshoq edi. Olamda hech kimda bu juvonning ko'ziday ko'z  
yo'q edi. Tanaboy egardan egilib u bilan gaplashar, u bo'lsa goh jilmayar, goh  
xo'mrayar, nimagadir rozi bo'lmay boshini tebratar, ko'zlari shoshqin daryoning  
tubidan oydinga ko'rinib turuvchi toshlar kabi yaltirardi. Ketayotib, u qayrilib  
qarar va yana boshini tebratardi.

Shundan keyin Tanaboy ot ustida o'ychan ketardi. U jilovni erkin qo'yib  
yuborar, yo'rg'a ham o'z erkiga ko'ra tuyoqlarini taqillatib bamaylixotir yurib  
borardi. Go'yo egarda xo'jayini yo'qday. Go'yo ularning har biri o'z-o'zlaricha  
ketayotganday. Shunda qo'shiq ham o'zidan-o'zi kela qolardi. Tanaboy saman  
ot tuyoqlarining bir maromdagi taq-tuqi ostida allaqachonlar o'tib ketgan odam-  
larning azob uqubatlari haqida so'zlarni aniq talaffuz etmay sekin hirgoyi qilib  
kuylab borardi. Ot esa mashqini olgan yurish bilan uni daryo ortiga, yilqilar to-  
mon olib ketardi...

Gulsari xo'jayinining kayfi shunday chog' bo'lishini sevar, bu juvonne ham  
o'zicha yaxshi ko'rar edi. U juvonne qaddi-qomatidan, qadam tashlashidan tanir-  
di, hatto undan tarqaluvchi notanish o'tning qandaydir g'alati hidini sezgirlik bi-  
lan payqab olardi. Bu — qalampir munchoq edi. U qalampir munchoqdan marjon  
taqib yuradi.

— Ko'ryapsanmi, u seni naqadar yaxshi ko'radi, Bibijon, — derdi juvonga  
Tanaboy. — Qani, silab-siypa-chi, yana bir silab-siypa. Ho, quloqlarini solintirib  
yubordi-yu! Buzoqning xuddi o'zginasi-ya. Yilqilarga esa uning dastidan kun  
yo'q. Erkiga qo'yib bersang bas. Ayg'irlar bilan xuddi itday tishlashishadi. Shu-  
ning uchun ham uni minib yuribman, mayib qilib qo'yishmasin, deb qo'rqaman.  
Hali yosh.

— U-ku sevadi-ya, — xayolini band qilgan bir nima haqda o'ylab turib javob  
berdi juvon.

— Boshqalar sevmaydi, demoqchimisan?

— Men bo'lak narsani gapiryapman. Bizning sevishadigan vaqtimiz o'tib ket-  
di. Senga achinaman.

— Nega endi?

— Sen unaqa odam emassan, keyin qiyin bo'ladi senga.

— Senga-chi?

— Menga nima? Men bevaman, askar xotiniman. Sen bo'lsang...

— Men bo'lsam taftish komissiyasining a'zosiman. Mana, seni uchratib qoldimu, u-bu faktlarni surishtirib olyapman, — hazil qilishga urinib ko'rди Tanaboy.

— Negadir sen faktlarni tez-tez surishtiradigan bo'lib qolding. Hushyor bo'l.

— Men nima qilibman? Men ham yo'limda ketayotgandim, sen ham...

— Men o'z yo'lim bilan ketayotibman. Bizning yo'limiz bir emas. Xo'sh, xayr.

Vaqtim yo'q.

— Quloq sol, Bibijon!

— Xo'sh, nima? Kerakmas, Tanaboy. Nima keragi bor? Aqlli odamsan-ku, axir. Sensiz ham yuragim siqilib yuribdi.

— Nima, men senga dushmanmanmi?

— Sen o'zingga dushmansan.

— Bu nima deganing?

— Qanday xohlasang, shunday tushunaver.

U ketardi, Tanaboy bo'lsa go'yo ish bilan qayoqqadir ketayotganday qishloq ko'chalari bo'ylab yurardi, tegirmon yoki maktab tomon burilardi va loaqal uzoqdan bo'lsa ham qaynanasining uyidan uning chiqishini (ish paytida u qizini shu yerda qoldirardi), qizining qo'lidan yetaklab ovul chekkasidagi uyiga qanday ketishini bir ko'rishga zor edi. Uning hamma narsasi juda aziz, qadrdon edi. Juvonning u tomonga qaramaslikka tirishib qadam tashlab borishi ham, qora ro'mol ichidan oqarib ko'rinib turgan yuzi ham, qizchasi ham, yonida chopib borayotgan laychasi ham qadrdon edi unga.

Nihoyat u o'z hovlisiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lardi, Tanaboy bo'lsa uning qanday qilib bo'm-bo'sh uyi eshigini ochishini, to'zib ketgan paxtalik choponini yechib, bir ko'ylakda suv keltirgani chopib ketishini, o'choqqa olov yoqib, qizini yuvintirishini, ovqatlantirishini podadan sigirini kutib olishini va tunda qopqorong'i, huvillab yotgan uyda yolg'iz yotib, ular bir-birlarini sevishi mumkin emasligiga, uning oilasi borligiga, uning yoshida sevishi kulgili ekanligiga, har bir narsaning o'z vaqt-soati borligiga, Tanaboyning xotini yaxshi ayol ekanligiga, u erining boshqa xotin dardida oh-voh qilib yurishiga loyiq ish qilmaganligiga o'zini ham, uni ham ishontirishga urinayotganligini xayolan tasavvur qilib yo'li-da davom etardi.



Bunday fikrlardan Tanaboy o'zini noqulay sezardi. «Demak, nasib bo'lmagan ekan-da», — o'ylardi u va daryo ortidagi surma rang olisliklarga boqib, dunyodagi hamma narsani — ishni ham, kolxozni ham, bolalarining kiyim-kechaklarini ham, do'st va dushmanlarini ham, necha-necha yillardan beri gaplashishmay yurgan o'gay akasi Quliboyni ham, xohlamasa ham tushiga kirib uni sovuq terga botirib yuboradigan urushni ham unutib, o'zining butun borlig'ini unutib, qadimiy ashulalarni kuylay boshlardi. O'tining daryoni kechib, narigi qirg'og'iga o'tib yana yo'lini davom ettirayotganligini ham sezmasdi. Faqat saman yo'rg'a yilqilarga yaqinlashib qolganligini sezib, qadamini tezlashtirgandagina u o'ziga kelardi.

— Tr-r-r, Gulsari qayoqqa shoshilyapsan? — tizginni tortardi Tanaboy eshushini yig'ib olib.

## V

**H**ar qalay o'sha paytlarda Tanaboy ham, saman yo'rg'a ham davrini surib qoldi. Uchqur o'tning dovrug'i futbolchining dovrug'iga o'xshash bo'ladi. Ko'cha-ko'yda koptok tepib yurgan kechagi bola birdan hammaning arzandasi, bilimdonlarning og'ziga tushadi, olomonning zavq-shavqiga sabab bo'ladi. Darvozaga to'p kiritib yurgan mahalda uning dovrug'i oshib boradi. So'ng u asta-sekin diqqat markazidan tusha borib, keyinchalik butunlay unutiladi. Hammadan ham ortiq zavqlangan kishilarning o'zlari birinchi bo'lib uni eslaridan chiqarishadi. Buyuk futbolchining o'rnini boshqasi egallaydi. Uchqur ot dovrug'ining qismati ham shunday. Musobaqalarda g'olib chiqaverar ekan, uning shuhrati oshadi. Oralaridagi farq shundaki, otlar hasad qilishni bilmaydi, odamlar esa, xudoga shukur, otlarga hasad qilishni hali o'rganganlari yo'q. Lekin gapning ochig'i, hasad degan narsa aqlga sig'maydi, shunday hodisalar bo'lganki, hasadgo'ylar odamga yomonlik qilish uchun ot tuyog'iga mix qoqishgan. Oh, bu mash'um hasad! Ha, mayli, qurib ketsin...

Chol To'rg'ayning karomati to'g'ri chiqdi. O'sha bahorda saman yo'rg'aning baxt yulduzi porladi. Keksa-yu yosh hamma uni tanirdi: «Gulsari!», «Tanaboyning yo'rg'asi», «Ovulning ko'rki» deb tilga olardi.

Hali «r» harfini ayta olmaydigan isqirt bolalar saman yo'rg'aning yelishiga taqlid qilishib ko'chani changitishib chopisharkan: «Man Gulsaliman... Yo'q,

man Gulsaliman... Oyi, aytgin, man Gulsaliman-a... Chu-u, olg'a, he-e-y-y, man Gulsali», deb qichqirishardi.

Shuhratning nimaligini va u qanday buyuk qudratga ega ekanligini saman ot o'zining birinchi katta poygasida bilgan edi. Bu Birinchi mayda bo'lgandi.

Daryo yoqasidagi katta o'tloqda o'tkazilgan mitingdan so'ng sayl boshlandi. Har yoqdan son-sanoqsiz xaloyiq yig'ildi. Odamlar qo'shni sovxozdan, tog'lardan, hatto Qozog'istondan ham kelishgan edi. Qozoqlar o'z otlarini qo'yishdi. Aytishlaricha, urushdan keyin hali bunaqa katta bayram bo'lmagan ekan.

Ertalabdan oq, Tanaboy egarlayotgan, ayil va uzangilarni diqqat bilan tekshirayotgan paytdayoq, saman ot egasining ko'zlari yonishidan va qo'llarining qaltirashidan favqulodda bir narsa bo'lishini sezgan edi. Xo'jayini juda hayajonlanardi.

— Hushyor bo'l, Gulsari, uyaltirib qo'yma, — shivirladi u otning yoli va peshonasini tarab. — Sen o'zingni sharmanda qilishing kerakmas, eshityapsanmi! Bunga haqqimiz yo'q bizning, eshityapsanmi!

Odamlarning ovozlari va yugurib-yelishidan ham favqulodda bir nima kutilayotganligi sezilardi. Qo'shni yaylovlarda yilqichilar otlarini egarlashardi. Bolalar allaqachon otlarga minib olishgandi, ular qiyqirib atrofda chopib yurishardi. Keyin yilqichilar to'planishdida, hammasi birgalikda daryo tomon yo'l olishdi.

Gulsari o'tloqda bunchalik ko'p ot va odam yig'ilganidan gangib qolgandi. Daryo, suv bo'yidagi tepaliklar ustida shovqin-suron hukmron edi. Rang-barang ro'mol va ko'ylaklardan, qip-qizil bayroqlar va ayollarning oppoq lachaklaridan ko'zlar qamashardi. Otlarga eng yaxshi abzallar taqilgan. Uzangilar jaranglar, suvliqlar va otlarning ko'kraklariga osib qo'yilgan kumush o'mildiriqlar shaqirlardi.

Chavandozlar ostidagi otlar qatorda toqatsizlanib depsinishar, jilovni yulqib, tuyoqlari bilan yer tepishardi, o'rtada chollar — saylni boshqaruvchilar otlarini gijinglatib yurishardi.

Gulsari g'ayrat va shijoati tobora oshib, kuchga to'lib-toshib borayotganligini his qilardi. Ichiga go'yo qanaqadir otashin ruh kirib olganday bundan qutulish uchun tezroq davraga otilib kirish, so'ng o'qday uchib ketish kerak edi.

Boshqaruvchilar davraga kirishga ishora qilishgach, Tanaboy tizginni bo'shlatdi, ot uni o'rtaga olib kirdi va hali qayoqqa qarab chopishni bilmay aylana boshladi. Qator oralari guvillab «Gulsari!» «Gulsari!» degan so'zlar eshitildi.

Katta poygada qatnashishni istaganlarning hammasi davraga kirdi. Ellikka yaqin chavandozlar yig'ildi.

— Xalqdan fотиha oling! — dedi sayilning bosh boshqaruvchisi tantanali suratda.

Peshonalarini qattiq tang'ib olgan taqir boshli chavandozlar kaftlarini ochganlaricha qo'llarini baland ko'tarishib qator bo'ylab yurishdi va «O-mi-in!» degan ovoz u chekkasidan bu chekkasigacha gurilib tarqaldi, yuzlab qo'llar peshonalarga ko'tarilib, kaftlar oqib tushayotgan suv oqimi singari yuzlaridan sirg'alib tushdi.

Shundan so'ng chavandozlar bu yerdan to'qqiz chaqirim naridagi poyga boshlanadigan joyga otlarini yo'rttirib ketishdi.

Bu orada davrada otsiz va otliqlarning kurashi, egardan tortib tushirish, chopib o'tayotib yerdan tangani olish va boshqa musobaqa o'yinlari boshlandi. Bularning hammasi faqat katta o'yinning boshlanishi edi, xolos, eng muhimi u yoqda, chavandozlar chopib borayotgan tomonda boshlanardi.

Gulsari yo'lda qizishardi. U xo'jayinining nega jilovini qo'yib yubormasligini tushunmasdi. Atrofdan boshqa otlar ham gijinglashar va yulqinishar edi. Ularning ko'pligi va hammasi chopishni xohlayotganligidan saman yo'rg'a asabiylashar va toqatsizlanib qaltirardi.

Nihoyat, hamma startga — poyga boshlanadigan joyda bir qator bo'lib tizildi, poyga boshi safdagilarning oldidan u chekkadan bu chekkaga qadar chopib o'tdi-da, oq ro'molchani ko'tardi. Hamma sergaklanib qotib qoldi. Ro'molcha silkindi. Otlar irg'ib joylaridan qo'zg'alishdi, g'ayrati toshgan Gulsari ham hamma bilan birga oldinga tashlandi. Son-sanoqsiz tuyoqlar ostida yer gumburlab ketdi, chang-to'zon ko'tarildi. Chavandozlarning «ha, chuh, ha, chuh!»lari va qiyqiriqlari ostida otlar o'qday uchib borardilar. Sakrab chopishni bilmagan Gulsarigina yelib borardi. Uning ojjizligi ham, qudrati ham shunda edi.

Dastlab hammasi g'uj bo'lib, bir necha minutdan keyin oldinma-ketin chopib ketishdi, Gulsari buni ko'rmasdi. Yo'rg'a faqat chaqqon chopqir otlargina uni orqada qoldirib, oldinda chopib ketayotganligini ko'rardi. Tuyoqlar ostidan uchib chiqqan issiq shag'al va kesak parchalari tumshug'iga urilar, atrofda esa otlar chopishar, chavandozlar qichqirishar, qamchilar qarsillar, chang-to'zon ko'tarilar edi. Chang-to'zon bulutga aylanib, yer uzra uchib yurardi. Ter, chaqmoq tosh va bosilib ezilgan yavshonning kuchli hidi kelardi.

Deyarli yo'lning yarmiga qadar shu ahvol davom etdi. Oldinda o'ntacha ot yo'rg'a saman yeta olmaydigan sur'at bilan uchib borardi. Atrofdan shovqin pasaya boshladi, orqadagilarning suroni sekin eshitilar, lekin oldinda boshqalarning ketayotganligi, tizginlarini qo'yib yubormaganliklari uning g'azabini qo'zitar edi. Ko'z oldi g'azab va shamoldan qorong'ilashib, yo'l shiddat bilan oyoqlari ostiga orqaga chopib ketar, quyosh osmondan olovli koptokday dumalab,

u tomon kelar edi. Uning butun tanasini issiq ter qoplar, saman yo'rg'a qanchalik ko'p terlasa, shunchalik yengil tortib borardi.

Chopqir otlar charchab, chopishlari borgan sari sekinlasha boshladi, saman yo'rg'a esa endigina kuchga kirayotgandi. «Chuh, Gulsari, chuh!» — egasining ovozi eshitardi u. Shundan so'ng quyosh u tomonga yana ham tezroq yumalab kela boshladi. Quvib yetilgan va ortda qoldirilgan chavandozlarning g'azabdan burushgan yuzlari, osmonga ko'tarilgan qamchilar, otlarning irjaygan og'izlari, xirillab nafas olgan tumshuqlari birin-ketin ko'zga chalina boshladi. Birdan suvliq va tizginlarning hukmronligi yo'qoldi, Gulsari egarning ham, chavandozning ham borligini sezmay qoldi, u chopish ishtiyoqi bilan yonar edi.

Har qalay oldinda qo'ng'ir va malla rang ikki chopqir ot yonma-yon borardi. Ikkalasi ham bir-birlariga bo'sh kelishmay, chavandozlarning qichqiriqlari va qamchilari zarbi ostida uchishar edi. Bular kuchli poygachi otlar edi. Gulsari otlarni anchadan keyin quvib yetdi va nihoyat ularni yo'ldagi balandlikka ko'tarilishda orqada qoldirdi. U go'yo katta bir to'lqinning qirrasiga chiqib olganday tepalikning ustiga sakrab chiqdi va bir necha daqiqa vaznsiz holatda havoda osilib qolganday bo'ldi. Nafasi qaytib ketdi, ko'zlariga quyosh yana ham yorqindan yolqin sochdi, u yo'l bo'ylab pastga tomon o'qday tez uchib tusha boshladi, lekin ko'p o'tmay orqasidan quvib yetayotgan tuyuqlarning taqir-tuqurini eshitdi. O'sha qo'ng'ir va malla rang ikki ot alamini olishmoqchi edi. Ular ikki tomondan deyarli yonma-yon kelishib, endi bir qadam ham ortda qolishmayotgandi.

Ular uchalasi kallalarini kallalariga tegizib, birga chopishardi, Gulsariga ular endi sira ham chopmay, qandaydir g'alati — harakatsiz va unsiz qotib qolganday tuyulardi. Hatto yonlaridagilarning ko'zidagi ifodasini, ularning taranglashgan tumshuqlarini, tishlangan suvliqlarini, yugan va tizginlarini ko'rish mumkin edi. Qo'ng'ir rang ot g'azab va qaysarlik bilan qarardi, malla rang esa hayajonlanar, ishonchsizlik bilan u yoqdan-bu yoqqa alanglardi. Xuddi ana shunisi birinchi bo'lib ortda qola boshladi. Eng avval uning gunohkorday jovdiragan ko'zlari g'oyib bo'ldi, so'ng kengayib ketgan tumshug'idagi burun teshiklari orqada qoldi, shundan keyin u boshqa ko'rinmadi. Qo'ng'ir ot esa juda qiyinlik bilan sekin-asta orqada qola boshladi. U chopib turib sekin taslim bo'layotgandi, ojizlikdan, qahrg'azabdan uning ko'z qarashlari asta-sekin xiralashib borardi. U mag'lubiyatni tan olgisi kelmay shu ko'yda ortda qolib ketdi.

Raqiblar ortda qolganida nafas olishi ham osonlashganday bo'ldi. Oldinda esa daryoning muyulishi kumushdek yaltirab, yashil o'tloq ko'rinmoqda va oli-

sdan odamlarning qiyqiriq, hayqiriqlari eshutilmoqda edi. Eng uchchiga chiqqan ishqibozlar yoʻlda kutib turishgan ekan. Ular «ha, chop, ha, chop! Boʻsh kelma!» deb gijgijlashib va hayqirishib otlarini choptirishib borishardi. Shunda saman yoʻrgʻa birdan charchaganligini sezib qoldi. Masofa oʻz taʼsirini koʻrsata boshladi. Orqada nima boʻlayotganligini, uni quvib yetishyaptimi, yoʻqmi, buni Gulsari bilmasdi. Chopish haddan ortiq ogʻirlashib, ot holsizlanib bormoqda edi.

Lekin huv oldinda koʻp sonli olomon guvillar va toʻlgʻanar, otlig va piyoda kishilar peshvoz chiqib, ikki yoqdan oqib kelar, qichqiriqlar borgan sari kuchayardi. Birdan u; «Gulsari! Gulsari! Gulsari» degan ovozlarni aniq eshitdi. Bu hayqiriqlar, nidolar, xitoblar bilan toʻlgan havodan nafas olayotgan saman ot yangi kuch bilan olgʻa intildi... Eh, odamlar, odamlar! Ular nimalarning uddasidan chiqmaydi deysiz!

Gulsari shodlik suronlari va qiyqiriqlar bilan kutib olayotganlarning oralari-dan oʻtib, qadamini sekinlatdi-da, oʻtloqni aylanib chiqdi.

Ammo ish shu bilan tamom boʻlmadi. Endi oʻzining ham, xoʻjayinining ham ixtiyori qoʻlidan ketdi. Saman yoʻrgʻa bir oz nafasini rostlab, tinchib olganida xaloyiq davrani katta ochib, gʻoliblarni qutladi: «Gulsari, Gulsari, Gulsari!» degan ovozlarni koʻkka oʻrladi. U bilan birga esa «Tanaboy! Tanaboy! Tanaboy!» degan hayqiriqlar ham yangrardi.

Odamlar saman yoʻrgʻaga yana qandaydir moʻjizali kuch bilan taʼsir qilishdi. Magʻrur yuguruk ot boshini baland koʻtarganicha, koʻzlarini chaqnatib sahnga chiqdi. Gulsari shuhrat havosidan mast boʻlib yana chopishga intilib raqs tusha va bir yonlab qadam tashlay boshladi. U oʻzining chiroyli, qudratli va dongʻi chiqqanini bilardi.

Gʻolib Tanaboy qoʻllarini ochib xaloyiq oldidan oʻtdi, yana bir ogʻizdan chiqqan «O-min!» soʻzi yangradi, tagʻin yuzlarcha qoʻllar peshonalarga koʻtarilib, oqar suvlarning irmoqlari singari yuzlar ustidan sirgʻalib tushdi.

Shunda saman yoʻrgʻa koʻp odamlar orasida birdan tanish ayolni koʻrib qoldi. Garchand u bu gal qora roʻmol emas, oq roʻmol oʻragan boʻlsa ham, fotiha uchun qoʻlini yuziga olib borganida ot uni darrov tanidi. U olomonning birinchi qatorida baxtiyor va shod-xurram boʻlib turar, tezoqar tip-tiniq suvlar tubidagi toshlarga oʻxshab porlab turuvchi koʻzlarini ulardan uzmas edi. Uning oldida bir oz turish, xoʻjayini u bilan gaplashib olishi uchun, peshonasida yulduzcha boʻlgan oʻsha jiyron biyaning lablariga oʻxshash silliq va mehribon qoʻllari bilan yollarini tarashi, boʻynini silab-siy-pashi uchun Gulsari odat boʻyicha ayol tomon intildi. Lekin Ta-

naboy nima uchundir jilovni boshqa tomonga tortar, saman ot bo'lsa xo'jayinini tushunmay, turgan joyida gir aylanib, tinmay ayol tomon intilardi. Nahotki xo'jayini o'zi, albatta, gaplashib olishi lozim bo'lgan juvonnini ko'rmayotgan bo'lsa?..

\* \* \*

Ikkinchi kun, ya'ni ikkinchi may ham Gulsarining kuni bo'ldi. Bu gal tush paytida cho'l bag'rida uloq o'tkazildi. Cho'l yana qiy-chuv, qiyqiriqlarga to'ldi, yer yana nog'oraday taraqladi. Son-sanoqsiz otlar ishqibozlar qiy-chuv ko'tarishib, qiyqirishib uloqchilar atrofida girdikapalak bo'lib chopib yurishardi. Yana Gulsari kunning qahramoni bo'ldi. Lekin Tanaboy uni oxirgi o'yin — kim epchil va tezkor bo'lsa, uloqni o'sha o'z ovuliga olib ketishiga ruxsat beriladigan erkin olomon-poygaga saqlab turardi. Olomon-poygani hamma kutardi, chunki u musobaqaning cho'qqisi edi, buning ustiga istagan chavandoz unda qatnasha olardi. Unda har kim o'z baxtini sinab ko'rishni xohlardi.

May quyoshi esa bu orada uzoqda — qozoq yerlarida sekin cho'kmoqda edi. Bar-kashday o'tob xuddi tuxum sarig'iga o'xshardi. Qarasang ko'zing qamashmasdi.

Qirg'izlar va qozoqlar to'kechga qadar ot choptirib, egarlaridan engashib, uloqqa chang solishar, uni bir-birlaridan yulqib olishib, goh suron ko'tarishar, goh g'uj bo'lib olishar, goh qiyqirishib yana tarqalib ketishardi.

Cho'ldagi soyalar uzayganida qariyalar nihoyat olomonpoygani boshlashga ruxsat berishdi. Uloq o'rtaga tashlandi. «Olomon!»

Hamma birdan tashlanib, echkini yerdan ko'tarib olishga urindi. Lekin ur-yiqit to'polonda uni olish oson emasdi. Otlar telbalanib gir aylanishar, tishlarini g'ijirlatib bir-birlarini tishlashar edi. Gulsari bu ur-yiqitda qiynalar, keng maydonga chiqqisi kelar, ammo Tanaboy uloqni hech qo'lga tushira olmas edi. Birdan: «Ushla-a, qozoqlar olishdi-i!» degan kuchli ovoz yangradi. Otlar girdobidan gimnastyorkasi dabdala bo'lgan yosh qozoq quturib ketgan qora to'riq otda otilib chiqdi. U taqimiga uloqni qistirib, otni choptirganicha ketdi.

— Ushla-a! Anovi qora to'riq! — hamma qichqirdi, quvishga tashlanib. — Tezroq, Tanaboy, faqat sen quvib yeta olasan!

Qora to'riq otdagi qozoq uzangining ostida selkillab osilib borayotgan uloq bilan to'ppa-to'g'ri quyosh qizarib botayotgan tomonga ketib borardi. Go'yo yana bir oz chopsa u ana shu alangalanayotgan quyoshga uchib kirib, o'sha yerda qizil tutun bo'lib erib ketadiganday tuyulardi.

Gulsari Tanaboy nega jilovini tortib borayotganini tushunmasdi. Lekin uning egasi qozoq yigit ta'qib qilib borayotgan sonsiz-sanoqsiz chavandozlardan ajralib olishini, unga yordamga oshiqayotgan bir to'da urug'doshlaridan uzoqroq ketishini kutish kerakligini bilardi, Ular to'riq otni chopqir otlar bilan o'rab olishsa bormi, qo'ldan boy berilgan o'ljani hech qandan kuch bilan olib bo'lmasdi.

Faqat yakkama-yakka kurashdagina biron muvaffaqiyatga umid bog'lash mumkin edi.

Payt poylab, Tanaboy saman yo'rg'aning boshini qo'yib yubordi. Gulsari quyosh nuri ostida o'zi tomon yugurib kelayotgan yer ustiga uchib borardi, dukir-dukir ovozlarda qolib uzoqlasha boshladi, qora to'riqqacha bo'lgan masofa esa qisqara bordi. Qora to'riq og'ir yuk bilan chopib borardi, uni quvib yetish uncha qiyin emasdi. Tanaboy saman otni qora to'riqning o'ng tomoniga olib o'tdi. Otning o'ng biqinida chavandoz taqimiga qistirib olgan uloq osilib borardi. Mana, tenglasha boshlashdi. Tanaboy echkining oyog'idan ushlab, tortib olish uchun egardan engashdi. Lekin qozoq o'ljani chaqqonlik bilan o'ng tomonidan chap tomoniga oshirib o'tkazib oldi. Otlar esa hamon to'ppa-to'g'ri quyosh tomon yelib borishardi. Endi Tanaboy bir oz ortda qolishi va chap berib yana quvib yetishi kerak edi. Saman yo'rg'ani qora to'riqdan ayirishi qiyin edi, lekin shunday bo'lsa-da, bunga erishish mumkin bo'ldi. Dabdalasi chiqqan gimnastyorkali qozoq uloqni yana boshqa tomonga o'tkazishga ulgurdi.

— Qoyil! — zavq bilan qichqirib yubordi Tanaboy.

Otlar esa hamon quyosh tomon yelib borardi.

Vaqtni boy berish kerak emasdi, Tanaboy saman otni qora to'riq ayg'irga yondashtirib, qo'shnisining egari qoshi ustiga engashdi. Qozoq yigit qutulishga urindi, lekin Tanaboy qo'yib yubormadi. Yo'rg'a otning chaqqonligi va xipchaligi unga qora to'riq ayg'irning bo'yniga deyarli yotib olishga imkon berdi. Shu tarzda u uloqqa qo'l cho'zib uni o'zi tomon torta boshladi. Unga o'ng tomondan harakat qilish oson edi, buning ustiga ikkala qo'li bo'sh edi, Mana, u echkining deyarli yarmisini o'ziga tortib oldi.

— O'zingga ehtiyot bo'l, qozoq birodar! — qichqirdi Tanaboy.

— Bekor aytibsan, bermayman! — javob qildi u.

Shiddat bilan chopib borayotib, ular ot ustida kurash boshlashdi. Bitta o'ljaga tashlangan burgutlarday uloqqa mahkam yopishib olishib, 6ir-6irlariga o'shqirishar, dirillashar va bir-birlarini qo'rqitish uchun yirtqichlarday irillashar edi, qo'llari bir-birlarinikiga chirmashib ketgan, tirnoqlari ostidan

qon sizib oqardi. Chavandozlari yakkama-yakka kurashayotganda tiqilishib yonma-yan ketayotgan otlar esa qirmizi quyoshni quvib yetish uchun shoshilar, ko'zlari qonga to'lgandi.

Shunday mardona o'yinlarni bizga qoldirgan ajdodlarimizga, ofarin!

Uloq endi ularning ikkalasining o'rtasida edi, uloq chopib borayotgan otlar o'rtasida osilib borardi. Ular indamay, tishlarini tishlariga qo'yib, bor kuchlarini ishga solib uloqni tortishar, bir-biridan qutulish va chetroqqa chiqib olish uchun ikkalasi ham echkini taqimga bosishga urinardi. Qozoq baquvvat edi. Qo'llari katta, serpay, buning ustiga Tanaboydan ancha yosh adi. Lekin tajriba — zo'r narsa. Tanaboy o'ng oyog'ini to'satdan uzangidan bo'shatib oldida, uni qora to'riq ayg'irning biqiniga tirab oldi. Uloqni o'ziga tortib, ayni paytda oyog'i bilan raqibining otini itarayotgandi. Qozoqning panjasi asta-sekin ochila boshladi.

— O'zingni tut! — uni ogohlantirishga ulgurdi yengilgan qozoq.

Kuchli siltovdan Tanaboyning egardan uchib tushishiga sal qoldi. Lekin o'zini tutib oldi. Shodligidan qiyqirib yubordi. Saman otni birdan keskin burdi-da, halol kurashda qo'lga kiritilgan o'ljani taqimga bosib qocha boshladi. Unga tomon esa bir gala chavandozlar baqirib-chaqirib chopib kelayotgandi:

— Gulsari! Gulsari oldi!

Qozoqlar to'dalanishib, uning yo'lini to'sishga tashlanishdi.

— Ubay, ushla, Tanaboyni tut.

Endi eng muhimi ushlab olishlaridan qutulish va ovuldoshlarining qurshoviga tezroq o'tish edi.

Tanaboy tutib olmoqchi bo'lgan kishilardan o'zini chetga tortib saman otni yana birdan keskin buradi. «Balli, Gulsari, rahmat senga, aqlli samanim!» — deb minnatdor bo'lardi u yo'rg'adan.

Yo'rg'a o'z egasi tanasining salgina egilishini ham payqab, goh u, goh bu tomonga burilib, quvib boruvchi raqiblaridan epchillik bilan qutulardi, yo'rg'a ot deyarli yer bag'irlab, goh u yoq, goh bu yoqqa burilib qiyin ahvoldan qutulib o'qday chopib ketdi. Bu orada Tanaboyning ovuldoshlari ham yetib kelishdi, ikki tarafdan, orqadan uni o'rab olishdi va hammasi birgalashib zich to'da bo'lib qochib qolishdi. Lekin quvayotganlar yana oldilaridan chiqib qolishdi. Tag'in burilib qochishga to'g'ri keldi. Goh u, goh bu qanotga tashlanib uchuvchi tez uchar qushlar galasi singari, keng cho'l bo'ylab qochuvchilar va ularni quvuvchi chavandozlar galasi uchib boradi. Havoni chang-to'zon qoplagan,



ovozlar jaranglar, kimdir oti bilan birga yiqilar, kimdir o'mbaloq oshib tushar, kimdir oqsoqlanib o'z otini quvardi, lekin hammani musobaqaning zavq-shavqi qamrab olgan edi. O'yinda hech kim javobgar emas. Tavakkalchining va dovyuraklikning onasi bitta...

\* \* \*

Botib borayotgan quyoshning bir chekkasigina ko'rinib turardi, qosh qorayib qolgan. Yerni larzaga keltirayotgan olomon-poyga esa moviy oqshomning salqinida hamon davom etardi. Endi hech kim qichqirmas, hech kim hech kimni ta'qib etmas, lekin hamma qizg'in harakatdan mast bo'lib chopishda davom etardi. Cho'zilib borayotgan chavandozlar oqimi to'lqin kabi chopish ritmi va kuyiga berilib tepalikdan tepalikka ko'chib yurardi. Chavandozlarning yuzlaridagi jiddiylik va ularning kamgapligi shundanmikin, qozoqlar do'mbirasi va qirg'izlar qo'bizining jarangdor ovozi shular tug'dirmadimikin!..

Daryoga yaqinlashib qolishgandi. U oldindagi quyuq changalzorlar ortida xira yiltillardi. Yana ozroq qolgandi. Daryoning narigi betida o'yin tugaydi, u yog'i esa ovul. Tanaboy va uni qurshab olganlar bir to'da bo'lib chopishardi. Gulsarini go'yo bosh kemaday o'rtada qo'riqlab borishardi.

Lekin u charchagan, juda charchagan edi — kun haddan ortiq og'ir bo'ldi. Saman yo'rg'a holdan toydi. Ikki yonboshida chopib borayotgan yigit uning suvlig'idan tortishib otni yiqilgani qo'yishmasdi. Qolganlari Tanaboyni orqadan va yon tarafdan qo'riqlab chopishardi. U bo'lsa egarning oldiga tashlangan uloq ustiga ko'kragini bosib yotardi. Tanaboyning boshi chayqalar, o'zi bo'lsa egar ustida zo'rg'a o'tirardi. Yonida qo'ltiqlab borayotgan chavandozlar bo'lmaganida edi, o'zining ham, yo'rg'aning ham qo'zg'alishga holi kelmagan bo'lardi. Ilgari-lari, ehtimol, o'ljani olib shunday qochishgandir, balki, yarador botirni asirlikdan shunday qutqarishgandir...

Mana daryo, mana o'tloq, shag'al toshli keng kechuv. Qorong'i tushsa ham hozircha u ko'rinib turardi.

Chavandozlar chopishdan to'xtamay suvga otilib kirishdi. Taqalarning quloqlarni kar qilguday taqir-tuquri ostida suvni sachratib, yo'rg'a otni narigi qirg'oqqa olib chiqishdi. Olomon-poyga tamom bo'lgan edi! G'alaba!

Kimdir Tanaboyning egaridan uloqni olib, ovulga chopib ketdi.

Qozoqlar daryoning narigi betida qolishdi.

— Biz bilan uloq chopishganingiz uchun rahmat sizlarga! — qichqirishdi ularga qirg'izlar.

— Sog' bo'linglar! Kuzda yana uchrashamiz! — javob berishdi qozoqlar va otlarini orqaga burishdi.

\* \* \*

Qorong'ilik tushgan, Tanaboy mehmondorchilikda o'tirardi, saman yo'rg'a esa boshqa otlar bilan birga hovlida bog'log'liq turardi. Minishga o'rgatilgan birinchi kunni hisobga olmaganda, Gulsari hech qachon bunchalik charchamagandi. Lekin o'sha paytda u hozirgiga nisbatan nozikkina nihol edi. Uyda u haqda so'z borardi:

— Tanaboy, Gulsari uchun qadah ko'taraylik: agar u bo'lmasa, bugun biz g'alabaga erisha olmasdik.

— Ha, qora to'riq ayg'ir arslonday baquvvat. Anovi yigit ham kuchli. Uning istiqboli porloq.

— Rost gap! Gulsarining o'zini tutqizmaslik uchun yer bag'irlab chopishi hali ham ko'z o'ngimda. Hayajonimdan nafasim qaytib ketay dedi qarab turib.

— Nimasini aytasan. Ilgari zamonlarda botirlar bunday otda jangga kirishardi. Ot emas bu, duldul!

— Tanaboy, qachon uni biyalarga qo'ymoqchisan?

— E-e, u hozir ham biyalarni quvlab yuribdi, lekin hali erta deb o'ylayman. Kelgusi bahorda esa ayni vaqti bo'ladi. Et olishi uchun kuzdan o'z holiga qo'yib beraman...

Kayfi oshib qolgan odamlar olomon-poyganing tafsilotlari va saman yo'rg'aning xislatlari to'g'risida gapirishib uzoq o'tirib qolishdi, Gulsari bo'lsa teri qotib, suvliqni chaynab hovlida turardi. U tongga qadar och holda qantariqliq turishi kerak edi. Lekin uni qiynayotgan ochlik emasdi. Yelkalari zirqirab og'rir, oyoqlari ham go'yo o'ziniki emasday, tuyoqlari qizishib yonardi, kallasi esa hamon olomon-poyganing shovqin-suronidan garang. Qiy-qiriqlar, baqiriqlar hali ham uning qulog'idan ketmasdi, vaqti-vaqti bilan u cho'chib tushar va pishqirib quloqlarini chimirardi. Maysa-o't ustida ag'anab yotgisi, bir silkinib olgach, yaylovda otlar orasida o'tlab yurgisi kelardi. Lekin xo'jayini uzoq o'tirib qoldi.

Ko'p o'tmay xo'jayini qorong'ilikda sal-pal gandraklab chiqib keldi. Undan qandaydir kuchli, o'tkir hid anqirdi, U ahyon-ahyondagina bunaqa holatga tu-

shardi. Oradai bir yil o'tgach, saman yo'rg'a doim mana shunaqa hid anqib turadigan odam qo'liga tushib qoladi. Shunda u o'sha odamdan ham, manovi iflos hiddan ham nafratlanadi.

Tanaboy saman otning yoniga keldi, yag'rinini silab-siypadi, terlikning ostiga qo'lini suqib ko'rdi:

— Bir oz sovuding shekilli? Charchadingmi? Men ham o'lguday charchadim. Lekin bunaqa o'grayib qarama menga, axir ichsam sening sog'lig'ingga ichdim-da. Bayram. Shunda ham qittak ichdim. Men o'z o'lchovimni bilaman, sen buni hisobga ol. Urushda ham me'yorini bilganman. Qo'y, Gulsari, bunaqa o'grayib qarama. Hozir yaylovga ketamiz, dam olamiz...

Xo'jayin ayillarni siqib tortdi, uydan chiqqan odamlar bilan bir oz gaplashib turdi, hammalari otlarga minishib, tarqalib ketishdi.

Tanaboy ovulning uyquga ketgan ko'chalari bo'ylab borardi. Atrof jimjit, Derazalar qop-qorong'i. Dalada eshitilar-eshitilmas traktor tarillardi. Tog'lar ustida oy turar, bog'larda gullagan olmalar oqarib ko'rinardi, qayerdadir bulbul chah-chahlardi. Nima uchundir butun ovulda birgina bulbul bor. U o'zi sayrab, o'zi tinglar, keyin jimib qolar, so'ng yana chah-chahlay boshlardi.

Tanaboy saman yo'rg'ani to'xtatib turdi.

— Biram chiroyli, — dedi u ovoz chiqarib. — Munchayam jimjit-a! Faqat bulbulgina sayramoqda. Tushunyapsanmi, Gulsari, a? Qayoqdan tushunarding. Sen yilqilarning oldiga borishing kerak, men bo'lsam...

Ular temirchilik ustaxonasidan o'tib ketishdi, bu yerda eng chekkadagi ko'cha bilan yurib daryoga chiqishlari, undan keyin esa yilqilar podasiga borishlari kerak edi. Lekin xo'jayini nima uchundir ot boshini boshqa tomonga, o'rtadagi ko'chaga burdi, uning oxirida o'sha juvon yashaydigan hovli yonida to'xtadi. Ko'pincha qizcha bilan birga chopib yuradigan laycha yugurib chiqdi, bir oz vovilladi-da, dumini likillatib tinchib qoldi. Xo'jayini egar ustida jim o'tirar, nimanidir o'ylardi, so'ng bir xo'rsindi-da, jilovni istar-istamas siltadi.

Yo'rg'a ilgarilab ketdi. Tanaboy daryo tomon pastga burdi va yo'lga chiqib olganidan so'ng otini haydadi. Gulsarining o'zi ham yaylovga tezroq yetib olgisi kelardi. Ular o'tloq bilan ketishdi. Mana, daryoga ham yetishdi, qirg'oqda taqalari toshga urilib taraqlay boshladi. Suv muzday, shovillar edi. Suvning qoq o'rtasiga kelganlarida xo'jayin jilovini qattiq tortib, otni keskin orqaga burdi. Gulsari xo'jayinini adashgandir, deb o'ylab boshini chayqadi. Ular orqalariga qaytishlari kerak emasdi. Hadeb yuraveradimi? Lekin xo'jayini uning biqiniga qamchi bilan

tushirdi. Gulsari urishlarini yoqtirmasdi. U suvlig'ini asabiy chaynab xo'jayiniga istar-istamas bo'ysundi va orqasiga burildi. Yana o'tloq orqali, o'sha yo'l bilan, o'sha hovli tomon jo'nashdi,

Uy oldiga kelganlarida xo'jayini egar ustida yana qimirlay boshladi. Suvliqni goh u yoqqa-goh bu yoqqa tortar, uning nima qilmoqchiligini tushunib bo'lmagani. Darvoza oldida to'xtashdi. Sirasini aytganda, darvozaning o'zi yo'q edi. Undan faqat qiyshaygan ustunlargina qolgandi. Yana laycha chopib chiqdi. Bir oz vovilladi-da, dumini likillatib tinchib qoldi. Hovli tip-tinch va qop-qorong'i edi.

Tanaboy egardan tushib, yo'rg'ani jilovidan ushlaganicha yetaklab hovliga kirdi, derazaga yaqinlashib borib oynani taqillatdi.

— Kim u? — ovoz chiqdi ichkaridan.

— Men, Bibijon, och, eshityapsanmi, menman!. Uyda chiroq yondi va derazalar xira yorishdi.

— Senga nima bo'ldi? Bemahalda qayoqdan kelyapsan? — eshik oldida Bibijon paydo bo'ldi. U yoqasi ochiq oq ko'ylakda, qop-qora sochlari yelkasiga tushgan edi. Undan badanning iliq hidi va notanish o'tning g'alati isi kelardi.

— Kechir, — sekin gapirdi Tanaboy. — Olomon-poygadan kech qaytdik. Charchadim. Otning ham tinkasi qurigan. Uni qantarib qo'yish kerak, o'zing bilasan, yaylov uzoqda,

Bibijon indamadi.

Uning ko'zlari oydinga suv tubida yaltirab ko'ringan toshlar singari yalt etib yondi-yu, yana so'ndi. Saman yo'rg'a juvonning unga yaqin kelishini va bo'ynini silab-siypashini kutardi, lekin u bunday qilmadi.

— Sovuq, — yelkalari qaltirab ketdi Bibijonning. — Nega turibsan? Unday bo'lsa, kir. Eh, o'ylab topganingni qara, — sekin kuldi u. — Sen bu yerda ot ustida tipirchilab turganingda men ham bo'larimcha bo'ldim. Bolaga o'xshaysan.

— Men hozir. Otni bog'lay.

— Huv anovi yerga, devor yonidagi burchakka bog'lab qo'ya qol.

Xo'jayinning qo'llari hech qachon bunchalik qaltiramagandi. U suvliqni chiqarishga shoshilar, ayillarni darrov bo'shata olmasdi. Ayilning birini bir oz bo'shatdi, ikkinchisini esa esdan chiqarib qo'ydi.

U juvon bilan birga kirib ketdi, ko'p o'tmay derazalardagi chiroq o'chdi.

Begona hovlida turish saman otga g'alati tuyulardi.

Oy bor nurin sochardi. Gulsari devordan ko'zini oshirib qarab, osmonga bo'y cho'zgan, oqimtir-ko'kish shu'laga chayib olingan tungi tog'larni ko'rdi. U qulo-

qlarini dikkaytirib tinglardi, ariqda suv shildirardi. Uzoqda dalada hamon o'sha traktor tarillar, bog'larda esa hali ham o'sha yolg'iz bulbul sayrardi.

Qo'shni olma daraxti butoqlaridan oppoq gul barglar to'kilib, otning kallasi va yolyuga sekin qo'nardi.

Tun yorishib borardi, saman ot tik turib, tanasining og'irligini goh u oyog'iga, goh bu oyog'iga solar, tik turib xo'jayinini sabr-toqat bilan kutar edi. Tunlarni tongga ulab, hali yana ko'p marta bu yerda turishini bilmasdi u.

Tanaboy azonda uydan chiqdi, iliq qo'llari bilan Gulsarining og'ziga suvliq sola boshladi. Endi uning qo'llaridan ham notanish o'tning o'sha g'alati hidi kelardi.

Bibijon Tanaboyni kuzatishga chiqdi. Uning pinjiga suqildi, Tanaboy undan uzoq bo'sa oldi.

6828216— Mo'yloving sanchib oldi, — shivirladi u. — Shoshilish kerak, qara, yorishib qoldi. — U ketmoqchi bo'lib o'girildi.

— Bibi, bu yoqqa kel — chaqirdi uni Tanaboy. — Menga qara, buni bir silab-siypab qo'y, erkala, — imo qildi u saman yo'rg'aga qarab. — Bizni xafa qilma sen!

— Voy, esimdan ham chiqibdi-ya, — kulib yubordi u. — Buni qara, ustini olma guli qoplabdi. — U shirin so'zlarni aytib turib, peshonasida yulduz qashqasi bor huv anovi to'riq biyachaning lablari singari silliq va yoqimli ajoyib qo'llari bilan otni silab-siypay boshladi.

Daryodan o'tgach, xo'jayin o'lan ayta boshladi. Uning qo'shig'i ostida qadam tashlash unga yoqar, shunda yaylovdagi podaga tezroq yetib olishga oshiqar edi.

Bu may tunlarida Tanaboyning omadi keldi. Podani tunda boqish navbati unga kelgandi. Saman yo'rg'a uchun yangi hayot boshlandi. Kunduzi u o'tlab yurardi, dam olardi, tunda esa xo'jayini yilqilarni pastqam yerga haydab, uni minib yana o'sha hovli tomon haydardi. Tong g'ira-shirasida ular go'yo ot o'g'rilariday cho'lning kamqatnov so'qmoqlaridan yurishib, pastqamlikdagi otlar tomon shoshilishardi. Bu yerda xo'jayini yilqilarni bir joyga yig'ib, qayta-qayta sanab chiqar va oxiri ko'ngli tinchirdi. Saman yo'rg'aga qiyin bo'ldi. Xo'jayinning bir oyog'i u yoqda, bir oyog'i bu yoqda edi. Tunlari esa yo'lsiz joylardan chopib yurish oson emasdi. Lekin xo'jayinning irodasi shu edi.

Gulsarining erki o'zida bo'lsa, u uyurdan sira ham ajralmasdi. Unda ayg'irlik alomatleri paydo bo'layotgandi. Hozircha u to'dadagi ayg'ir bilan chiqishib, murosa qilib yurgandi. Lekin ikkalasi ham bitta biyaga aylanishib, dam-badam to'qnashadigan bo'lib qolishdi. U bo'ynini tik ko'tarib, dumini xoda qilib yilqilar oldida tez-tez o'zini ko'z-ko'z qilib yuradigan bo'lib qoldi. Qattiq kishnar,

achchig'lanar, biyalarni sonidan asta tishlar edi. Bu esa ularga yoqsa kerak, uyur ayg'irining rashkini keltirib Gulsariga suykalishardi. Saman yo'rg'a rosa adabini yerd — ayg'ir, rahmsiz va urishqoq edi. Lekin tun bo'yi hovlida turishdan ko'ra bezovtalanib, to'da ayg'iridan qochib yurish yaxshi edi. Bu yerda — hovlida u biyalarni sog'inar, anchagacha tipirchilab turar, yer tepinar, keyin yuvoshlanib qoldi. Agar anovi hodisa bo'lmaganida, kim biladi, bu tungi safarlar qanchagacha davom etardi...

O'sha tunda saman yo'rg'a uyurni qo'msab, egasini kutib, odatdagidek hovlida turardi, bir oz mudray boshlagandi ham. U tom to'siniga qantarilib qo'yilgandi. Bu yetishiga yo'l qo'ymasdi: har gal mudrab boshi tushib ketganda suvlini og'ziga qattiq botardi. Shunday bo'lsa ham uyqu bosardi. Havo qandaydir og'ir bo'lib, qop-qora bulutlar osmonni qoplab olgandi.

Gulsari mudrab turib, uyqu aralash daraxtlarni go'yo to'satdan qandaydir bir kuch qulatmoqchi bo'lganday silkitayotganini, ular shovillab ketganini payqab qoldi. Shamol guvillab, sigir sog'adigan bo'sh chelakni taraqlatib hovlida yumalatib, arqondagi kiyim-kechaklarni yulib-yulqib uchirib ketardi. Laycha qayoqqa yashirinishini bilmay tipirchilab g'ingshiy boshladi. Yo'rg'a jahl bilan pishqirdi, quloqlarini dikkaytirib qotib qoldi. U boshini devordan oshirib cho'l tomonga qaradi, u yerdan, zulmat ichidan qandaydir dahshatli narsa guvillab yaqinlashib kelayotgan edi. Bir zumdan so'ng xuddi daraxt qulaganday taraq-turuqlab ketdi. Momaqaldiroq gulduradi, chaqmoqlar bulutlarni qaychiladi. Sharillab yomg'ir quydi. Saman yo'rg'a qamchi yeganday jilovini uzmoqchi bo'ldi va uyuri uchun dahshatga tushib, jon-jahdi bilan kishnab yubordi. Unda o'z urug'ini xavfdan saqlashdek azaliy zavqi tabiiy uyg'ongan. Ot es-hushini yo'qotib suvliq, jilov, ayil, qil arqondan — uni bu yerda mahkam ushlab turgan hamma narsadan qutulish uchun isyon ko'tardi. U har yoqqa tashlanib, tuyoqlari bilan yerni qaziy boshladi va yilqilar sado eshitish umidida tinimsiz kishnashga kirishdi. Ammo faqat bo'rongina hushtak chalar va uvillardi. Oh, u bog'loqliq joyidan bo'shay olganda edi!..

Xo'jayini ichki oq ko'ylakda otilib chiqdi, uning ortidan ayol ko'rindi, u ham oppoq ko'ylakda edi. Ular yomg'ir ostida bir pastda qorayib ketishdi. Chaqmoq ularning ho'l yuzlari va qo'rquv bosgan ko'zlariga nur sochib, qorong'ilikdagi uyning bir qismini, uning shamolda ochilib-yopilab turgan eshigini ham yoritdi.

— To'xta! To'xta! — yechib olishga urinib otga baqirdi Tanaboy. Lekin ot endi unga bo'ysunmasdi. Saman ot xo'jayiniga yirtqichlarday tashlandi, tuyoqlari bilan devorni qulatdi, chilvirni uzish uchun tinmay yulqinardi. Tanaboy devorga

qapishib uning yoniga pusib bordi, qo'llari bilan boshini berkitib oldinga tashlandi va jilovga osilib qoldi.

— Tezroq yech! — qichqirdi u juvonga.

Ayol chilvirni endi yechgan ham ediki, yo'rg'a ikki old oyog'ini oldinga ko'tarib, Tanaboyni hovli bo'ylab sudrab ketdi.

— Qamchini ber tezroq!

Bibijon qamchini keltirgani yugurib ketdi.

— To'xta, to'xta, o'ldiraman! — qichqirardi Tanaboy otning tumshug'iga qamchi bilan savalab. U egarga o'tirib olishi, hozirning o'zidayoq yilqilar oldiga yetib borishi lozim edi. U yoqda nima bo'layotganik? Dovul otlarni qayoqlarga haydab ketdiykin?

Lekin saman yo'rg'a ham yilqilar oldida bo'lishi kerak edi. Hozirning o'zidayoq, qudratli savqi tabiiy uni chorlayotgan mana shu damdayoq yetib borishi lozim. Shuning uchun ham u kishnar va oyoqlarini tik ko'tarar, shuning uchun ham u bu yerdan tezroq ketishga shoshilardi.

Yomg'ir esa chelaklab quyardi, chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumburlab, yerni larzaga keltirardi.

— Ushla! — buyurdi Tanaboy Bibijonga. Juvon jilovni ushlab olganida u egarga sakradi. U o'tirishga hali ulgurmasdanoq, otning yolidan ushlab olishi bilanoq, Gulsari juvonnini turtib, xalqopga ag'angatib yubordi-da, hovlidan otilib chiqib ketdi.

Gulsari endi na suvliqqa, na qamchiga, na ovozga bo'ysunmay, tabiiy sezgisi bilangina yo'lni payqab, bo'ronli tunda shatirlatib yog'ayotgan jala ostida uchib borardi. U endi o'z hukmini yo'qotgan xo'jayinini qaynab-toshib oqayotgan soy o'rtasidan suvning shovillashi va momaqaldiroqning guldur-gulduri ostida, butazorlar orasidan, soyliklar, jarliklardan olib o'tdi, shiddat bilan olg'a tomon chopgani chopgan edi. Gulsari hech qachon, na katta uloqda, na olomon-poygada o'sha dovulli kechadigidek chopmagandi.

Quturgan saman yo'rg'a qayoqqa, qanday qilib olib ketayotganini Tanaboy bilmasdi. Yomg'ir yuzi va badanlarini kuydirayotgan kuchli olovday tuyulardi unga. Uning miyasini faqat birgina fikr o'yar edi: «Yilqilarga nima bo'ldiykin? Otlar hozir qayerda ekan? Temir yo'l tomonga qochib ketishlaridan xudo asrasin. Poyezd halokati o'zing panohingda saqla. O'zing qo'llab-quvvatla, xudo! Arvohlar, qaydasiz, yordam beringlar. Yiqilib tushma, Gulsari, yiqilib tushma! Cho'lga olib chiq, o'sha yoqqa, o'sha yoqqa, yilqilarga olib bor!»

Choʻlda esa oq yolqini bilan zulmatda koʻzni qamashtirib chaqmoqlar goh u, goh bu yerda chaq nab turadi. Soʻng yana atrofni zulmat qoplar, momaqaldir oq gumburlar, shamol aralash yomgʻir yogʻardi.

Goh yorishar, goh qorongʻilashar, goh yorishar, goh qorongʻilashar edi...

Yoʻrgʻa oldingi oyoqlarini balandga tik koʻtarar va ogʻzini katta ochib kishnar edi. U chaqirar, u chorlar, u izlar, u kutardi. «Qaydasiz? Qaydasiz? Javob qaytar-ing!» Unga javoban osmon gumburlar, soʻng yana chopish, yana izlash, yana boʻronga qarshi yugurish.

Havo goh yorishar, goh qorongʻilashar, goh yorishar, goh qorongʻilashar edi...

Boʻron faqat tongga borib tindi. Bulutlar birin-ketin asta tarqalishdi, lekin sharqda momaqaldir oq hali ham tinmasdi, osmon gumburlar, qarsillar, momaqaldir oqlar bir-biriga qoʻshilib ketar edi. Ezilib ketgan yerdan bugʻ koʻtarilardi.

Bir necha yilqichi tarqalib ketgan otlarni toʻplab, tevarak-atrofdan izgʻib yurishardi.

Tanaboyning esa xotini izlab yurardi. Toʻgʻrirogʻi, kutib oʻtirardi. U tunda-yoq qoʻshnilari bilan birga otga minib eriga yordam uchun chopgandi. Ular yilqilarni topishdi, jarlikda ushlab qolishdi. Lekin Tanaboy yoʻq edi. Adashib qolgandir, deb oʻylashdi. Ammo u erining adashmaganligini bilardi. Shuning uchun qoʻshnilarining oʻgʻli: «Huv ana, eringiz, Jaydar opa, huv ana kelyap-ti!» deb quvonib qichqirib, u tomon otini choptirib ketganida, Jaydar joyidan qoʻzgʻalmadi. Daydi erining qanday qaytib kelayotganligiga ot ustida jimgina qarab turardi.

Tanaboy bir tunning ichida oriqlab ketgan saman otni minib jiqqa hoʻl ichki koʻylakda qoʻrqinchli holatda jimgina kelardi, Gulsarining oʻng oyogʻi oqsardi.

— Biz boʻlsak sizni qidirib yuribmiz! — quvonib xabar qildi uning oldiga chopib borgan yigitcha. — Jaydar opa endi tashvishlana boshlagandi...

Eh, bolakay, bolakay...

— Adashib qoldim, — toʻngʻilladi Tanaboy.

Er-xotin shu tarzda uchrashishdi. Bir-biriga hech narsa deyishmadi. Yigitcha jarlikdagi yilqilarni haydash uchun uzoqlashganida xotini sekin dedi;

— Bu nimasi, hatto kiyinishga ham ulgur mabsan. Yaxshiyamki, ish-toning bilan etiklaring bor. Uyatmasmi? Axir endi yosh emassan-ku. Ana, bolalaring yaqinda ulgʻayib qolishadi, sen boʻlsang...

Tanaboy miq etmasdi. Nima ham desin?

Bu orada yigitcha yilqilarni haydab keldi. Hamma otlar va toylar sogʻ-sa-lomat edi.



— Uyga ketdik, Oltivoy, — yigitchani chaqirdi Jaydar. — Bugun sizlarning ham, bizlarning ham bir dunyo ishimiz bor. Shamol o'tovlarimizni ag'dar-to'ntar qilib tashladi, Yur, yig'ishtirib olaylik.

Tanaboyga bo'lsa sekin dedi:

— Sen shu yerda tura tur. Senga ovqat, kiyim-kechak keltiraman. Odamlarning ko'ziga qanday ko'rinasan bu ahvolda?

— Huv anovi yerda, pastda bo'laman, — deb ishora qildi Tanaboy.

Ular jo'nab qolishdi, Tanaboy yilqilarni yaylovga haydab ketdi. Uzoq haydadi. Oftob yoyilib kun ilidi. Yo'l bug'lanib jonlandi. Yomg'ir va ko'katlarning hidi anqiy boshladi.

Otlar baland-pastliklardan, jarliklardan shoshilmay lo'killab, sayxonlikka chiqishdi. Bu yerda Tanaboy ko'zi oldida go'yo boshqa bir olam ochilganday bo'ldi. Uzoq-uzoqlarda ufq oq bulutlarga burkangandi. Osmon cheksiz, baland va tip-tiniq. Bu yerdan juda uzoqda, cho'lda poyezd tutun, taratib ketardi.

Tanaboy otdan tushib, o't-o'lanlar ustidan yurib ketdi. Yonginasidan to'rg'ay «pirr» etib uchdi-da, balandga ko'tarilib sayray ketdi. Tanaboy boshini quyi solib borardi, to'satdan yerga gupillab dumalab tushdi.

Gulsari xo'jayinini hech qachon bunday ahvolda ko'rmagandi. U yuz tuban yotar, yelkalari yig'idan qalt-qalt qilardi. U nomus va alamdanda yig'lardi, umrida so'nggi bor erishgan baxtidan ayrilganini bilardi u. To'rg'ay bo'lsa hamon sayrardi...

Ertasiga yilqilar tog'lar tomon yo'l olishdi — endi ular bu yerlarga faqat kelgusi yili erta bahorda qaytishlari kerak edi. Ko'chmanchilar daryo bo'ylab ovul yaqinidagi sizot pichanzorlardan o'tib borishardi. Qo'y-qo'zilar, sigirlar, yilqilar o'tib borardi. Yuk ortilgan tuyalar va otlar o'tib borar, egarlarida ayollar va bolalar o'tirishardi. Paxmoq itlar chopishardi. Havoni har xil ovozlar: baqiriqlar, kishnashlar, ma'rashlar larzaga keltirgan edi.

Tanaboy o'z yilqilarini keng o'tloqdan, keyin yaqindagina bayramda xaloyiqning g'ala-g'ovuri, shovqin-suroni hukm surgan tepalikdan haydab borar va ovul tomonga qaramaslikka harakat qilardi. Gulsari bir mahal to'satdan chekkadagi hovli tomon qayrilganida, bu qilig'i uchun qamchi yedi. Shunday qilib, ular manglayida yulduzi bor o'sha to'riq baytalchanning lablari singari silliq va mehribon qo'lli juvonning hovlisiga kirishmadi.

Yilqilar baravariga chopib borishardi.

Saman yo'rg'a xo'jayinining o'lan aytishini istardi, lekin u miq etmasdi. Ovul ortda qoldi. Xayr, ovul. Oldinda tog'lar. Kelgusi bahorgacha xayr, cho'l. Oldinda tog'lar.

**T**un yarimlashib qolgandi. Bundan bu yog'iga Gulsari ortiq yura olmasdi. U bu yerga, jarlikka qadar necha martalab to'xtab-to'xtab bir amallab yurib keldi, lekin jarlikdan o'tishga endi majoli yetmasdi. Otdan bundan ortiq talab qilish mumkin emasligini keksa Tanaboy tushundi. Gulsari azoblanib ingrar, odam kabi ingrar edi. U yota boshlaganida Tanaboy xalaqit bermadi.

Sovuq yerda yotganida ham saman ot kallasini u yoqdan-bu yoqqa tebratib ingrashdan to'xtamasdi. U sovqotgandi, butun tanasi qaltirardi. Tanaboy ustidan po'stinini yechdi va uni otning beliga yopib qo'ydi.

— Nima bo'ldi, ahvoling yomonmi? Juda yomonmi? Sovqotdingmi, Gulsari. Sen axir hech qachon sovqotmasding-ku.

Tanaboy yana allanima deb g'ulduradi, lekin saman yo'rg'a endi hech narsani eshitmasdi. Uning yuragi go'yo yilqilar o'zlarini ta'qib qilayotganlardan dahshatga tushib qochayotganday, gum-gup, gum-gup, gum-gup etib naq qulog'ining ostida tartibsiz urardi.

Tog'lar ortidan oy ko'tarildi, tuman ichida osmonda osilib qoldi... Yulduzlar tovushsiz uchar va so'nar edi,

— Sen shu yerda yota tur, men borib qovray terib kelay, — dedi chol.

U bulturqi quruq burgan o'tlarni yig'ib, atrofda uzoq daydib yurdi. Bir quchog'ini tergunicha qo'llarini tikanlar tirnab ketdi. Keyin, har ehtimolga qarshi, qo'lida pichoq tutib jarlikka tushdi va bu yerda yulg'unga duch keldi. U china-kam gulxan qalaydigan bo'ldik, deb quvonib ketdi.

Gulsari yaqinida yonayotgan olovdan doim qo'rqardi. Hozir esa qo'rqmadi, yonidan issiq va dud urib turardi. Tanaboy qop ustida indamay o'tirar, gulxanga goh yulg'un, goh burgan tashlab, olovdan ko'z uzmay qo'llarini isitardi. Ba'zan o'rnidan turib, ot ustiga tashlangan po'stinini tuzatib qo'yar va yana olov yoniga o'tirardi.

Gulsari isininib oldi, qaltirashi to'xtadi, ammo ko'z oldi qorong'ilashar, ko'kra-gi qisilar, nafas olishga havo yetishmasdi. Shamolda olov goh pasayar, goh kuchayardi. Qarshisida o'tirgan, uzoq vaqtdan beri uning xo'jayini bo'lib kelgan chol goh g'oyib bo'lar, goh paydo bo'lardi. Alahsirayotgan saman otga go'yo u egasi bilan birga bo'ronli tunda chopib borayotganday, u oyoqlarini tikka ko'tarib kishnayotganday, yilqilarni qidirayotganday, ammo ular topilmayotganday tuyulardi. Oppoq chaqmoqlar yalt-yult chaqnab va o'chib turganga o'xshardi.

Goh yorishar, goh qorong'ilashar, goh yorishar, goh qorong'ilashar edi...

**Q**ish tugadi, yashash unchalik og'ir emasligini cho'ponlarga ko'rsatish uchun qish vaqtincha o'rnini bo'shatdi. Issiq kunlar keladi, mollarga jir bitib, et oladi, sut va go'sht mo'l-ko'l bo'ladi, poyga va bayramlar bo'ladi, oddiy kunlar boshlanadi: qo'zilatish-qulunlatish, jun qirqish, yosh molni o'stirish, yaylovdan yaylovga ko'chish, go'sht kombinatiga qo'y-yilqilarni haydab borish kerak, bu ishlar orasida har kimning o'z tashvishi — muhabbat va ayriliq, tug'ilish va o'lim bor, farzandlarning muvaffaqiyatlaridan odamlar g'ururlanishadi, ular haqida internatdan noxush xabarlar olganda: «O'zimning oldimda bo'lganida, ehtimol yaxshiroq o'qirmidi», deb kuyib-pishishadi. Nimalar bo'lmaydi, deysiz, tashvishlar boshingizdan oshadi va qishki azob-uqubatlar vaqtincha esdan chiqadi. «Yut» keladi, mollar nobud bo'ladi, yerlar yaxmalak bilan qoplanadi, teshik-yirtiq o'tovlar va muzdek molxonalar kelgusi yilgacha svodkalarda va hisobatlarda qolib ketadi. Keyin yana qish bosib keladi — oq tuyasida chopib keladi, tog'dami, cho'ldami, qayerda bo'lmasin, cho'ponni izlab topadi va unga o'z qiliqlarini ko'rsatadi. Vaqtincha unutilgan hamma narsani esga tushiradi u. Yigirmanchi asrda ham qish o'zining shu qilig'ini qo'ymadi...

O'shanda ham shunday qildi. Oriqlab ketgan mollar va yilqilar tog'lardan tushishib, cho'lga yoyilib ketishdi. Bahor. Qishdan omon chiqishdi.

O'sha bahorda ayg'ir Gulsari yilqilar orasida sayr qilib yurdi. Tanaboy endi uni kamdan-kam egarlar, unga rahmi kelar, minaverish mumkin ham emasdi — qochirish mavsumi yaqinlashib qolgandi.

Gulsari yaxshi ayg'ir bo'ladiganga o'xshardi. Jajjigina qulunlarni xuddi otalariday kuzatib yurardi. Ona biya alahsib qolsa, u qulunning biror yoqqa dumalab ketishiga yoki yilqilardan ajralib qolishiga yo'l qo'ymasdi. Gulsarining yana bir fazilati shu ediki, u otlarni bekordan bekor bezovta qilishlarini yaxshi ko'rmasdi, agar bezovta qilaverishsa yilqilarni darrov uzoqroqqa haydab ketardi.

O'sha yilning qishida kolxozda o'zgarishlar bo'ldi. Yangi rais yuborishdi, Cho-ro ishlarni topshirdi-da, tuman kasalxonasiga yotdi. Uning yuragi juda zaiflashib qolgandi, Tanaboy ko'p marta do'stini ko'rgani bormoqchi bo'ldi-yu, ammo ishni tashlab ketib bo'larmidi? Cho'pon ko'p bolali onaga o'xshaydi — doim tashvishi, ayniqsa kuz va ko'klamda tashvishi ko'p bo'ladi. Mol mashina emaski, qulog'ini burab qo'yib ketaversang. Shu tariqa Tanaboy tuman kasalxonasiga bora olmadi.

Endi uning yordamchisi yo'q edi. Xotini o'rin yordamchi yilqiboqar hisoblanardi — turmush kechirish uchun bir amallab pul topish kerak edi-da, axir: mehnat kuniga kam haq to'lansa ham, har holda bir mehnat kuniga qaraganda ikki mehnat kuniga ko'proq haq olish mumkin.

Lekin Jaydarning qo'lida bolasi bor edi. U qanaqa yordamchi bo'la olardi? Kunu tun o'zi ko'z-quloq bo'lib turishi kerak edi. Tanaboy qo'ni-qo'shnilari bilan gaplashib yordamchi topgunicha Choroning kasalxonadan chiqib ovulga qaytganligi haqida xabar keldi. Shunda u xotini ikkisi, keyinchalik — tog'dan tushganlarida unikiga borishga qaror qilishdi.

Vodiyga endi qaytib tushishganida, yangi joyga endigina ko'nika boshlashganida, Tanaboy haliga qadar hayajonsiz zslay olmaydigan voqea yuz berdi...

Yo'rg'a ot dong chiqarsa, oqibati uning uchun yaxshi ham bo'lishi mumkin, yomon ham. Tevarak-atrofga uning dong-dovrug'i qanchalik ko'p taralsa, boshliqlar unga shuncha ko'p ko'z olaytirishadi.

O'sha kuni Tanaboy ertalabdan otlarni yaylovga haydadi, o'zi esa ovqatlanish uchun uyiga qaytdi. Qizini tizzasiga olib, xotini bilan oilaviy ishlar haqida gaplashib choy ichib o'tirardi.

Internatdagi o'g'lining oldiga, shu bilan birga bir yo'la stansiyaga — chayqov bozoriga ham borish, bolalari va xotini uchun u-bu kiyim sotib olish kerak edi.

— Unday bo'lsa, Jaydar, yo'rg'ani egarlay, — dedi Tanaboy choydan ho'plab. — Bo'lmasa qaytib kelishga ulgurmayman. Oxirgi marta minib borib kelaman, keyin unga tiqilmayman.

— Mayli, o'zing bilasan, — rozi bo'ldi Jaydar. Tashqarida otliqlarning dupuri eshitildi. Kimdir ular tomon kelardi.

— Qara-chi, — dedi Tanaboy xotiniga. — Kim ekan u?

U chiqdi-da, qaytib keldi, ferma mudiri Ibrohim va u bilan birga yana ovuldan kimdir kelganligini aytdi.

Tanaboy o'rnidan istar-istamas qo'zg'aldi, qizini qo'lga ko'tarib o'tovdan chiqdi. Garchand u yilqichilik fermasining mudiri Ibrohimni uncha yoqtirmasa ham, mehmonni kutib olish kerak edi. Ibrohimni nima uchun yoqtirmasligini Tanaboyning o'zi ham bilmasdi. U boshqalarga qaraganda xushmuomalali edi, ammo shunday bo'lsa ham u subutsiz odamga o'xshardi. Eng yomoni shu ediki, hech qanday ish bilan shug'ullanmasdi, faqat hisob-kitob olib borardi. Fermada yilqichilik ishlari o'lda-jo'lda, har bir yilqiboqar o'z holiga tashlab qo'yilgandi. Partiya majlislarida Tanaboy bu haqda necha bor gapirganda hamma unga qo'shi-

lardi, Ibrohim ham qo'shilib, tanqid uchun minnatdorchilik bildirardi, lekin hamma narsa ilgariqiday qolib ketaverardi. Yaxshiyamki, vijdonli, halol yilqiboqarlar tanlangan. Ularni Choroning o'zi tanlagandi.

Ibrohim egardan tushib, ochiq yuz bilan qulochini yozdi.

— Assalomu alaykum, xo'jayin! — u hamma yilqiboqarlarni xo'jayin deb atardi.

— Vaalaykum assalom! — vazmin javob berdi Tanaboy kelganlarning qo'lini siqib.

— Sog'omonmisizlar? Otlar qalay, Tanaka o'zingiz qalaysiz? — Ibrohim og'zi o'rganib qolgan savollarni so'rar, odatdagi tabassumidan uning semiz yuzi yoyilib ketardi.

— Joyida.

— Xudoga shukur. Sizdan ko'nglim to'q.

— O'tovga marhamat.

Jaydar mehmonlar uchun yangi kigiz to'shadi, kigiz ustiga esa echki terisidan qilingan po'stak tashladi. Unga ham Ibrohim iltifot qildi.

— Salom, Jaydar boybicha. Sog'lig'ingiz qalay? Eringizga yaxshi qarayapsizmi?

— Salom, kiringlar, bu yoqqa o'tiringlar.

Hammasi o'tirishdi.

— Bizga qimizdan quy, — dedi xotiniga Tanaboy.

Qimiz ichishdi, u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirishdi.

— Hozir eng yaxshi ish — chorvachilik. Hech bo'lmaganda yozda sut, go'sht bo'ladi-ku, — mulohaza qilardi Ibrohim, — dalachilikda yoki boshqa ishlarda umuman hech vaqo yo'q. Shuning uchun hozir yilqilaru qo'y-qo'zilar yonida bo'lgan ma'qul. To'g'rimasmi, Jaydar boybicha.

Jaydar bosh silkidi, Tanaboy bo'lsa indamadi. Buni uning o'zi ham bilardi, chorvachilikni qadrlash kerakligiga ishora qilish uchun har bir imkoniyatdan foydalanadigan Ibrohimdan ham bunday gapni birinchi bor eshitayotgani yo'q edi. Tanaboyning unga: agar odamlar sut-go'shtli issiqqina joylarga suquladigan bo'lsa, buning hech yaxshi tomoni yo'q, degisi keldi. Boshqalar-chi? Qachongacha odamlar bekorga ishlashadi? Urushga qadar axir shundaymidi? Kuzda har bir uyga ikki-uch aravadan g'alla keltirilardi. Endi-chi? Biror yerdan biron narsa undirish uchun qoplari bilan yugurib yurishadi. O'zlari g'alla yetishtirishib, o'zlari nonsiz o'tirishadi. Bu yaxshi emas. Faqat majlislaru pand-nasihatlar bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Choro mehnatlari uchun odamlarga yaxshi so'zdan bo'lak hech narsa bera olmay qolganligi uchun ham yurak kasaliga yo'liqdi.

Ammo fikr-xayolini band qilgan bu masalalarni Ibrohimga gapirib o'tirishning foydasi yo'q. Tanaboy hozir gapni cho'zishni istamasdi ham. Bularni tezroq kuzatish, ishlarini tezroq bitirish uchun yo'rg'ani egarlash — barvaqtroq qaytish kerak edi. Nega kelishdiykin ular? Lekin so'rab-surishtirish noqulay edi.

— Negadir seni taniyolmayapman, inim, — Tanaboy Ibrohimning hamrohi, kamgap yosh yigitga murojat qildi. — Rahmatli Abalakaning o'g'limasmisan sen

— Ha, Tanaka, men o'shaning o'g'liman.

— Uh, vaqt qanday tez o'tyapti-ya. Yilqilarni ko'rgali keldingmi?

— Yo'q, biz...

— U men bilan birga keldi, — uning so'zini bo'ldi Ibrohim.

— Biz bu yerga bir ish bilan keldik, keyinchalik gaplasharmiz u haqda. Qimizingiz, Jaydar boybicha, juda ajoyib ekan. Hidini qarang, qanday o'tkir. Yana bir kosa quying-chi.

Yana u-bu haqda gaplasha boshlashdi. Tanaboyning ko'ngli ko'ngilsiz bir narsani sezib turardi, lekin Ibrohim uning oldiga nima maqsadda kelganligini tushuna olmadi. Nihoyat, Ibrohim cho'ntagidan qanaqadir qog'ozni oldi.

— Tanaka, biz sizning oldingizga mana shu ish bilan, manovi qog'oz bilan keluvdik. O'qib ko'ring.

Tanaboy ovoz chiqarmay hijjalab o'qirdi, o'qirdi-yu ko'zlariga ishonmasdi. Yirik-yirik harflar bilan qog'ozga shular yozilgandi:

«Farmoyish.

Yilqichi Bakasovga.

Saman yo'rg'a Gulsari minib yurish uchun otxonaga jo'natilsin.

Kolxoz raisi (aji-buji imzo). 1950 yil, 5 mart».

Ishning bunchalik yomon tus olishidan esankirab qolgan Tanaboy indamay qog'ozni to'rtga bukladi-da, gimnastyorkasining ko'krak cho'ntagiga soldi va ko'zini yerdan uzmay uzoq o'tirib qoldi. Kuraginging osti muzlab, ko'ngli behuzur bo'la boshladi. Sirasini aytganda, bunda kutilmagan, tasodifiy hech narsa yo'q. Keyinchalik ishlatish, minib yurish uchun u otlarni parvarish qilayotgan edi-da. Bu yillar ichida u qancha-qancha otlarni brigadalarga jo'natdi. Lekin Gulsarini berish uning qo'lidan kelmasdi. Shuning uchun saman yo'rg'ani qanday qilib olib qolish uchun zo'r berib fikr yurita boshladi. Hamma ishni puxta o'ylab qilish kerak edi. O'zini tutib olishi kerak. Ibrohim bezovtalana boshladi.

— Mana shunday arzimagan ish bilan sizning oldingizga keldik, Tanaka, — ehtiyotkorlik bilan dedi u.

— Ma'qul, Ibrohim, — xotirjam boqdi unga Tanaboy. — Bu ish qochib qutulmaydi. Yana qimizdan ichaylik, gaplashib o'tiraylik,

— Ha, albatta, siz aqlli odamsiz-ku, Tanaka. «Aqlli! Sening avrab-aldashlaringga uchib bo'pman!» — dedi ichida Tanaboy achchig'lanib.

Yana anchayin suhbat boshlandi. Endi shoshilishning hojati yo'q edi.

Tanaboy kolxozning yangi raisi bilan ilk bor shu tarzda to'qnashdi. To'g'rirog'i, shaxsan o'zi bilan emas, balki uning aji-buji imzosi bilan. Uning o'zini hali yuzma-yuz ko'rmagandi. U Choroning o'rniga kelganida tog'larda edi. Uni qattiqqo'l odam, katta mansablarda ishlagan, deyishardi. Birinchi yig'ilishdayoq ishyoqmaslarni qattiq jazolashni aytib ogohlantirib qo'ygan, mehnat kuni minimumni bajarmaganlik uchun esa sudga tortaman, deb do'q qilgan, kolxozlardagi barcha qiyinchiliklar kolxozlarning mayda bo'lganligidan yuz berayotganligini, endi ularni yiriklashtirajaklarini, tez orada ahvol yaxshilanishini, uni shuning uchun ham bu yerga yuborilganini, xo'jalikni ilg'or agrotexnika va zootexnikaning barcha qonun-qoidalariga muvofiq olib borishini o'zining asosiy vazifasi qilib olganligini aytgan edi. Buning uchun esa hamma agrotexnika va zootexnika to'garaklarida o'qishga majbur.

Chindan ham o'qishni boshlab yuborishdi — plakatlar osib qo'yishdi, leksiylar o'tkaza boshlashdi. Agar cho'ponlar leksiylar paytida pinakka ketib qolishayotgan bo'lishsa, bu endi ularning ishi...

— Tanaka, biz jo'nashimiz kerak, — Ibrohim Tanaboydan bir narsani kutganday qaradi va etiklarining sirg'alib tushgan qo'njlarini tortib, tulki telpagini qoqib, u yer-bu yerini tuzata boshladi.

— Gap bunday, ferma mudiri, raisga borib ayt: Men Gulsarini bermayman. U uyur ayg'iri. Biyalarga qo'yamiz.

— Voy-bo'y, Tanaka, biz uning o'rniga besh ayg'ir beramiz, bironta ham biya qisir qolmaydi. Axir shu ham gapmi? — ajablandi Ibrohim. Hamma ish yaxshi borayotganidan u xursand edi, birdan... Eh, Tanaboy o'rnida boshqa biron kishi bo'lganida gapni qisqa qilgan bo'lardi. Ammo Tanaboy Tanaboyligini qiladi-da, u o'zining akasini ham ayamagan, buni e'tiborga olish kerak. Ehtiyotlik bilan ish tutmasa bo'lmaydi.

— Menga sizning besh ayg'iringiz kerakmas! — Tanaboy terlab ketgan peshonasini artdi va bir oz indamay turgach, ochiqchasiga gaplashishga qaror qildi. — Nima, raisingga minishga ot topilmadimi? Otxonada otlar qurib ketibdimi? Nega endi xuddi Gulsari kerak bo'lib qoldi?

— Nega bunday deysiz, Tanaka? Rais bizning rahbarimiz, demak, uni hurmat qilish kerak. Axir u tumanga boradi, uning oldiga ham odamlar kelib turishadi. Rais xalq orasida yuradi, xo'sh, aytaylik...

— Nima, xo'sh? Boshqa otni minsa hech kim uni tan olmay qo'yadimi? Yoki hammaning ko'z oldida bo'lsa, albatta yo'rg'a otni minishi kerakmi?

— Albattami, albatta emasmi, ammo shunday bo'lishi kerak. Mana siz, Tanaka, urushda askar bo'lgansiz. Siz yengil mashinada, generalingiz esa yuk mashinasida yurganmi axir? Yo'q, albatta. Generalga — generalligiga munosibi, askarga — askarligiga yarashasi. Yo noto'g'rimi?

— Uning yo'rig'i boshqa, — ikkilanib e'tiroz bildirdi Tanaboy. Nega yo'rig'i boshqacharoq ekanligini tushuntirib o'tirmadi, ochig'ini aytganda, tushuntira olmasdi ham. Saman yo'rg'a bo'ynidagi sirtmoq tortilayotganini sezib, u jahl bilan gapirdi: — Bermayman. Agar ma'qul ko'rmayotgan bo'lsalaring, yilqiboqarlikdan olib tashlanglar. Temirchilik ustaxonasiga boraman. U yerda siz mendan bolg'ani tortib ololmaysizlar.

— Nega bunday deysiz, Tanaka! Biz sizni hurmat qilamiz, qadrlaymiz. Siz bo'lsangiz xuddi yosh bolaning gapini qilyapsiz. Axir shu sizga munosibmi? — Ibrohim o'tirgan joyida tipirchilab qoldi. Ish pachava bo'ldi shekilli. O'zi va'da bergandi, o'zi maslahat qilgandi, o'zi to'g'rileyman deb maqtanuvdi, manovi qaysar nusxa bo'lsa hamma ishni barbod qilmoqchi.

Ibrohim chuqur xo'rsindi-da, Jaydarga murojaat qildi:

— O'zingiz o'ylab ko'ring, Jaydar boybicha, bitta ot nima bo'пти, mayli yo'rg'a bo'lsa ham? Uyurda qanaqa otlar yo'q deysiz — istaganingizni tanlab oling. Odam kelgan bo'lsa oldingizga, uni yuborishgan bo'lsa...

— Sen nega buncha jon koyityapsan? — so'radi Jaydar.

Ibrohim hayron bo'lib, tutilib qoldi:

— Bo'lmasam-chi? Tartib-intizom. Menga topshirishdi, men kichik odaman. O'zim uchun emas. Men eshakda ham yuraveraman. Mana so'rang, Abalakaning o'g'lini yuborishdi yo'rg'a otni minib kel deb.

U indamay bosh silkitdi.

— Yaxshi ish bo'lmayapti, — davom ettirdi Ibrohim. — Bizga rais qilib yuborishdi, u bizning mehmonimiz, biz butun ovul bir bo'lib otni bermasak. Xalq bilsa nima deydi? Qirg'izlar qachon shunday qilishgan?

— Xo'p yaxshi, — javob berdi Tanaboy. — Ovuldoshlar bilsin, mayli. Men Choroning oldiga boraman. Mayli, u bir yoqlik qilsin bu masalani.



— Choro, berma, deydi deb o'ylaysizmi? U bilan kelishilgan. Faqat uni uyaltirib qo'yasiz. Qasddan bo'yintoblik qilyapsiz. Yangi raisni tan olmaymiz, eskisiga arz qilgani boramiz. Choro kasal odam bo'lsa. Uning rais bilan munosabatini buzishning nima hojati bor? Choro partiya tashkilotchisi bo'ladi, u rais bilan ishlashishi kerak. Xalaqit berishning nima keragi bor...

Choro haqida so'z ketganida Tanaboy indamay qoldi. Hamma jimib qoldi. Jaydar og'ir xo'rsindi.

— Ber, — dedi u eriga, — odamlarni tutib turma.

— Mana bu aqlli gap, allaqachon shunday qilsangiz bo'lardi, rahmat sizga Jaydar boybicha.

Ibrohim bekorga qayta-qayta minnatdorchilik bildirmagandi. Shundan keyin uncha ham ko'p vaqt o'tmay, u ferma mudirligidan raisning chorvachilik bo'yicha muovinligiga ko'tarildi...

Tanaboy egar ustida yerga tikilib o'tirardi, qaramasa ham hamma narsani ko'rardi. Gulsari qanday tutilganin va unga qanday qilib yangi no'xta urilganini (o'zining no'xtasini Tanaboy o'lsa ham bermasdi) ko'rib turdi. Gulsarining uyurdan ketgisi kelmayotganligini, Abalakaning o'g'li tutib turgan jilovdan qutulish uchun har tomon tashlanayotganini, Ibrohim goh u yonidan, goh bu yonidan ot choptirib kelib, qamchi bilan qulochkashlab uni urayotganini ko'rib turardi. U yo'rg'a otning ko'zlarini, bu ko'zlar sarosimaga tushib notanish kishilar uni biyalar va qulunlardan, o'z xo'jayinidan ayirib qayoqqa va nega olib ketayotganliklarini tushunmayotganini ko'rardi, kishnaganida uning ochiq og'zidan otilib chiqqan bug'ni, yolini, belini, sag'risini, bel va biqinlaridagi qamchi izlarini ko'rib turardi, butun bastini, hatto oldingi o'ng oyog'ining to'pig'idan yuqorisidagi kichikroq g'urrani ham ko'rib turardi, uning oyoq tashlashlarini, tuyoq izlarini, och sarg'ish to'riq junlarining so'nggi qiligacha hammasini ko'rib turardi va lablarini tishlab indamay iztirob chekardi. U boshini ko'targanida Gulsarini olib ketganlar tepalik orqasida ko'zdan g'oyib bo'lishgan edi. Tanaboy ingrab yubordi-da, ularning ortidan otini choptirib ketdi.

— To'xta, bu niyatingdan qayt! — Jaydar o'tovdan yugurib chiqdi.

Chopib ketayotib birdan uning xayolidan: xotanim anovi tunlardagi qilmi-shlarim uchun saman yo'rg'adan qasos olyapti, degan dahshatli taxmin o'tdi. U otni to'satdan keskin burib, qamchi bilan tislattirib urganicha orqasiga qaytaradi. O'tov yonida otni shartta to'xtatdi-da, sakrab tushdi va yuzi burushgan, rangi quv o'chgan dahshatli bir ahvolda xotining oldiga chopib keldi:

— Sen nega... nega berib yubor, deding? — pichirladi u tik boqib.

— O‘zingni bos! Qo‘lingni tushir, — u har doimgiday xotirjamlik bilan bosib qo‘ydi erini. — Gapimga quloq sol. Gulsari axir sening xususiy otingmi? O‘z otingmi? O‘zingga tegishli nimang bor sening? Bizdagi hamma narsa kolxozniki. Shu bilan tirikmiz. Saman yo‘rg‘a ham kolxozniki. Rais esa kolxoz xo‘jayini: nima desa, shu bo‘ladi. Anovi to‘g‘risida ko‘nglingga kelgan narsa bekor, istasang, hozir ham ketishing mumkin. Ketaver. U mendan yaxshiroq, chiroyliroq, yoshroq. Yaxshi juvon. Men ham beva qolishim mumkin edi, lekin sen qaytib kelding. Qancha kutdim seni! Mayli, bu to‘g‘rida gapirib o‘tirmaylik ham. Sening uch bolang bor. Ularni nima qilasan? Keyinchalik nima deysan ularga? Ular nima deyishadi? Men nima deyman ularga? O‘zing hal qil...

Tanaboy cho‘lga chiqib ketdi. Yilqilar oldida kechga qadar qolib ketdi, hamon o‘zini bosib ololmasdi. Yilqilar yetimlanib qoldi. Tanaboyning qalbi bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoldi. Yo‘rg‘a ot o‘zi bilan birga uning qalbini ham olib ketdi. Hammasini olib ketdi. Hamma narsa o‘zgaranday. Quyosh ham bo‘lakcha, osmon ham bo‘lakcha, o‘zi ham go‘yo boshqachaday edi.

U qorong‘i tushganda qaytdi. O‘tovga indamay, qop-qorayib kirib keldi. Qizlari uxlab qolishgandi. O‘choqda olov yonardi. Xotini qo‘liga suv quydi.

— Yemayman, — rad qildi Tanaboy. So‘ng dedi: — Changovuzni ol, «Ona tuyaning bo‘zlashi»ni chalib ber.

Jaydar changovuzni oldi, uni lablariga tutdi, barmog‘ini ingichkagina po‘lat «til»ga tegizdi, unga pufladi, so‘ng nafasini ichiga tortdi, ko‘chmanchilarning qadimiy kuyi quyilib oqa boshladi. Oq bo‘talog‘ini yo‘qotgan ona tuya haqida qo‘shiq. Cho‘lu dashtlarda u uzoq kunlar yugurib-yelib yuradi. Bo‘talog‘ini chaqiradi, qidiradi. Oqshomlari jarlik yoqalab, ertalab yalangliklarda uni o‘z orqasidan endi ergashtirib yura olmasligidan, butoqlardan barglarni birgalikda terib yeya olmasligidan, ko‘chma qumlar ustida yugura olmasligidan, bahor paytida dalalarda aylanib yura olmasligidan, uni oppoq sutini emiza olmasligidan zorlanardi. Qaydasan, qora ko‘z bo‘talog‘im? Javob ber! Yelinimdan, tirsillab turgan yelinimdan sut tizillab oqyapti, oyoqlarimdan oqib tushyapti. Qaydasan? Javob ber! Yelinimdan, tirsillab turgan yelinimdan tizillab sut oqyapti. Oppoq sut...

Jaydar changovuzni yaxshi chalardi. Tanaboy uni qizlik vaqtidayoq shu chalishi uchun sevib qolgandi.

Tanaboy boshini quyi solib tinglardi va yana boshini ko‘tarib qaramasa ham hamma narsani ko‘rib turardi. Issiq va sovuqdagi ko‘p yillik mehnatdan uning dag‘allashib ketgan qo‘llari, oppoq oqargan sochlari va bo‘ynida, lablarida, ko‘z

yonlarida paydo bo'lgan ajinlar. O'sha ajinlar ortida o'tgan, yoshlik sochlari yelkasiga tushib turgan sariq mag'iz qizcha va uning o'zi — Tanaboyning o'sha kezlardagi juda-juda yosh yigitlik davri, hamda ular ikkalasining o'sha yillardagi yaqinligi ko'zga ko'rinib ketardi. Xotini hozir uni sezmayotganligini Tanaboy bilardi, u o'z kuyiga, o'z xayollariga g'arq bo'lgandi. O'sha damda u yana o'z kulfatlari va azob-uqubatlarining yarmini xotining hayotida, taqdirida ko'rardi. Jaydar bu kulfat va uqubatlarni o'z ustiga olgan edi.

... Ona tuya qancha kunlardan buyon yelib-yugurib o'z bolasini qidiradi, chaqiradi. Qaydasan, qora ko'zli bo'talog'im? Yelinimdan, tirsillab turgan yelinimdan sut tizillab chiqyapti, oyoqlarimdan oqib tushyapti. Qaydasan? Javob ber! Yelinimdan, tirsillab turgan yelinimdan tizillab sut oqyapti. Oppoq sut...

Qizlar bo'lsa bir-birlarini quchoqlashib uxlab yotishardi. O'tov ortida esa bepoyon cho'l, tun qorong'iligida ko'z ilg'amas cho'l yastanib yotardi.

O'sha kezlarda Gulsari otxonada to's-to'polon qilayotgan, otboqarlarga uyqu bermayotgandi. U otlarga qamoqxona bo'lgan otxonaga birinchi bor tushishi edi.

## VIII

**T**anaboy bir kuni ertalab yilqilar orasida o'z saman yo'rg'asini ko'rganida qalbi olam-olam quvonchga to'ldi. Ustida egar, no'xtasidan uzilgan arqonning bir bo'lagi osilib turardi.

— Gulsari, Gulsari, omonmisan? — Tanaboy sirtmog'i bilan yugurib bordi va yaqinlashib uni begona yuganda, og'ir uzangili qo'pol begona egar ostida ko'rди. Uni ayniqsa egar ustidagi qalin duxoba yostig'i g'azablantirib yubordi, go'yo otni erkak emas, balki semiz dumbali xotin minib yurganday.

— Tuf! — g'azablanganidan tupurib yubordi Tanaboy. Otni tutmoqchi, uning ustidagi mana bu bema'ni abzal-anjomlarning hammasini uloqtirib tashlamoqchi bo'ldi, lekin Gulsari tutqich bermay qochib ketdi. Saman yo'rg'aning hozir u bilan ishi yo'q, u biyalarga aylanishardi. Yo'rg'a ularni shu qadar sog'ingandiki, o'zining sobiq xo'jayinini hatto payqamagan ham edi.

«Demak, oxir qochib kelibsan-da, tizginni uzibsan-da, balli! Xo'p, mayli, o'ynab qol, o'ynab qol, men jim yuraman», o'yladi Tanaboy va yilqilarning bir oz chopib yurishiga erk berishga qaror qildi. Gulsarining orqasidan odamlar yelib kelishmaganicha, u o'zini o'z uyidagiday his etib yuraversin.

— Hayt-hayt-hayt! — qichqirdi Tanaboy, uzangiga oyoq tirab va sirtmoqni havoda o'ynatib yilqilarni haydadi.

Biyalar qulunlarini chaqirib qo'zg'alishdi, yosh biyalar o'ynoqlab chopib ketishdi. Shamol ularning yollarini o'ynardi. Ko'katlar bilan qoplanayotgan yer quyosh nuri ostida yashnardi. Gulsari seskanib tushdi, qaddini rostlab oldida, gerdayib chopib ketdi. Uyur oldiga tushib oldi, yangi ayg'irni uyurdan quvib chiqardi-da, orqaga haydab yubordi, o'zi bo'lsa pishqirib, uyur oldida o'zini ko'z-ko'z qilib o'ynoqlab ketdi va yilqilarning goh u yonboshiga, goh bu yonboshiga chopib o'ta boshladi. Uyurning hidi, biyalar sutining hidi, qulunlar hidi, dasht shamolining hidi uning boshini aylantirardi. Ustida bema'ni duxoba yostiqli beso'naqay egarning borligi, biqinlariga zilday uzangilarning shapatilab urilayotganligi bilan uning ishi yo'q edi. U kecha suvlig'ini chaynab, guvillab o'tayotgan yuk mashinalaridan hurkib, tumandagi qator ot qoziqlarining birida turganligini unutgandi. Keyinroq sassiq ichimlikxona yonidagi ko'lmakda turganligi va uning yangi xo'jayini o'zining ulfatlari bilan chiqqanligi, hammasidan sassiq hid burqsib taralganligini ham unutgandi. Yangi xo'jayini pishillab, kekira-kekira unga mingandi. Yo'lda ular loy kechishib ahmoqona poyga uyushdirganlarini, yangi xo'jayinini qanday surib olib ketganligini va u egar ustida lo'killab borganligini, keyin esa yuganni qattiq tortib, uning boshiga qamchi bilan tushira boshlaganini ham unutgandi.

Hammasini unutgandi saman yo'rg'a, hammasini: uyurning hidi — biyalar sutining hidi, qulunlar hidi, dasht shamolining hidi uning boshini aylantirardi... Saman yo'rg'a chopib yurardi — orqasidan quvib kelayotganlarini fahmlamay chopib-yelib yurardi.

Tanaboy yilqilarni avvalgi joyiga qaytargan edi hamki, ovuldan ikki otboqar kelib qoldi, ular Gulsarini podadan olib ketishdi.

Lekin ko'p o'tmay u yana paydo bo'lib qoldi. Bu gal no'xtasi ham, egari ham yo'q edi. Bir amallab yuganni boshidan chiqarib tashlab, tunda otxonadan qochgandi. Tanaboy avval kulib yubordi, so'ng jimib qoldi va o'ylab turib, yo'rg'aning bo'yniga sirtmoq tashladi, o'zi tutdi, o'zi jilovlab, ovulga yetaklab ketdi, qo'shni yaylovdagi yosh yilqiboqardan yo'rg'ani orqadan haydab borishni iltimos qilmoqchi bo'ldi. Yarim yo'lda qochoq yo'rg'a ot ketidan kelayotgan otboqarlarni uchratdi. Gulsarini ularga topshira turib, Tanaboy hatto po'ng'illab ham qo'ydi:

— Nima, u yoqda hamma qo'lsizlar to'planganmisizlar, raisning otiga tuzukroq qaray olmaysizlar. Qattiqroq bog'langlar uni.

Gulsari uchinchi marta qochib kelganida, Tanaboyning hazilakamiga jahli chiqmadi:

— Nima qilyapsan, ahmoq! Qaysi jin seni bu yoqqa boshlab kelyapti? Ahmoqsan-da, ahmoqsan, — so‘kinardi u sirtmoq bilan saman yo‘rg‘aning ketidan quvib. Yana uni qaytarib olib borib berdi va tag‘in otboqarlar bilan so‘kishishdi.

Lekin Gulsari aqlli bo‘lishni xayoliga ham keltirmasdi, har gal qulay paytdan foydalanib qochib kelardi. Otboqarlarning ham joniga tegdi, Tanaboyning ham.

...O‘sha kun Tanaboy kech yotdi — yaylovdan kech qaytgan edi. Har ehtimolga qarshi, yilqilarni o‘tovga yaqin haydab keltirib qo‘ydi-da, uxlab qoldi, uyqusi notinch bo‘ldi, Kun bo‘yi juda charchagandi. Qanaqadir g‘alati bir tush ko‘rdi — u yana urushda yuribdimi yo qayerdadir kushxonadami, anglash qiyin edi. Hamma yoq qon, qo‘llar ham yopishqoq qon edi. Tushga kirgan qon yaxshilikka bo‘lmaydi, deb o‘ylaydi o‘zi tushida. Qo‘llarini biron yerda yuvib olmoqchi bo‘ladi. Uni bo‘lsa itarib tashlashadi, mazax qilib kulishadi, qah-qah urishadi, chinqirishadi, kimligini bilmaydi, birov deydi: «Tanaboy, qonga qo‘lingni yuvyapsan, qonga, Bu yerda suv yo‘q, Tanaboy, bu yerda hamma yoq qon! Haha-ha, ho-ho-ho, hi-hi-hi!..»

— Tanaboy, Tanaboy! — yelkasidan silkirdi uni xotini. Tur o‘rningdan.

— A, nima?

— Eshityapsanmi, uyurda bir narsa bo‘layotganga o‘xshaydi. Ayg‘irlar urishishyapti. Ehtimol, tag‘in Gulsari qochib kelgandir.

— Padariga la‘nat uning. Hech tinim yo‘q! — Tanaboy tez kiyindi, sirtmoqni oldi va allaqanday to‘s-to‘polon bo‘layotgan pastlik tomon chopib ketdi, Tong yorishib qolgandi.

Chopib kelib Gulsarini ko‘rdi. Lekin bunisi nima? Oyoqlariga temir kishanlar solingan yo‘rg‘a ot hakkalab yurardi. Oyoqlarida kishanlar jaranglaydi, gir aylanadi, oyoqlarini osmonga ko‘taradi, ingraydi, kishnaydi. Manovi kallavaram uyur ayg‘iri bo‘lsa uni bekordan bekor tepyapti ham, tishlayapti ham.

— Hah, sen yirtqichni! — Tanaboy yelday uchib bordi, kallavaramni shunday urdiki, sirtmoqning bandi sinib ketdi. Haydab yubordi. Ko‘zlaridan esa yosh chiqib ketdi. — Seni nima qilishibdi-ya? Kim oyog‘ingga kishan soldi-ya! Nega bu yoqqa sudralib kelding, badbax tentak?..

Buni qarang — shunday uzoq joydan, daryodan, soylik va do‘ngliklardan bu yergacha kishanda hakkalab kelib, yilqilarga axir yetib olibdi. Tun bo‘yi, ehtimol, sakrab-sakrab yurib kelgandir. Qochqin katorgachiday yakka o‘zi kishanni jarang-jurunglatib yo‘l yurgandir.

«Qoyil-e! — boshini chayqadi Tanaboy. Saman yo'rg'ani silab-siypay boshladi, yuzini uning lablariga tutdi. U bo'lsa sekin-asta labini qimirlatar, ko'zlarini chala yumib qisardi.

— Nima qilamiz endi, a? Bu qilig'ingni tashlasang bo'lardi, Gulsari, oxiri baxayr bo'lmaydi. Tentaksan sen, tentaksan. Hech narsani bilmaysan...

Tanaboy saman yo'rg'ani ko'zdan kechirib chiqdi. Tishlangan yerlar bitib ketishi mumkin. Ammo kishan oyog'ini qattiq shilib tashlabdi. To'piqlaridan qon oqmoqda. Kishanga qorejagan kigizga kuya tushib, chirib ketgan ekan, suvdan hakkalab o'tganida kigiz tushib ketib, temiri ochilib qolibdi. Ana shu uning oyoqlarini qonga belabdi. «Hoynahoy Ibrohim kishanni chollardan topgan bo'lsa kerak. Bu uning ishi», g'azab bilan o'yladi Tanaboy. Kimniki bo'lardi bo'lmasa? Kishan eskilardan qolgan. Har bir kishanning alohida maxsus qulfi bo'ladi, kalitsiz ocha olmaysan. Ilgarilari ot o'g'rilari yaylovlardan haydab ketib qolmasliklari uchun eng yaxshi otlarning oyoqlarini kishanlab qo'yishardi. Oddiy arqon tushovni pichoq bilan kessang bas, kishanlangan otni esa olib keta olmaysan. Ammo bunday voqealar qachonlardir bo'lardi, hozir esa kishan kamyob narsa bo'lib qoldi. O'tmishdan xotira sifatida biron-ta cholda saqlanib qolgan chiqar... Lekin mana bunisini qarang, hoynahoy, kimdir aytgan bo'lsa kerak shunday qilish kerak deb. Ovul yaylovidan uzoqqa ketib qolmasligi uchun saman yo'rg'ani kishanlab qo'yishibdi. U bo'lsa baribir qochib kelibdi...

Butun oila bir bo'lib Gulsarining oyog'idan kishanni yechib olishdi Jaydar jilovidan ushlab, yo'rg'aning ko'zini bekitib turdi, qizlari atrofda o'ynab yurishardi, Tanaboy bo'lsa, hamma asboblarini keltirib, qulfni ochishga kalit tanlash bilan ovora bo'lib terlab-pishib ketgandi. Temirchilik malakasi, uquvi yarab qoldi, uzoq pishillab urindi, qo'llari shilinib ketdi, lekin baribir yo'lini topib ochdi.

Kishanni uloqtirib tashladi. Yo'rg'aning oyoqlaridan qon oqayotgan joylarga malham qo'ydi, Jaydar uni otqoziqqa bog'lagani olib ketdi. Katta qizi singlisini orqasiga opichib olib, ular ham uyga yo'l olishdi.

Tanaboy bo'lsa hamon hansirab, pishillab o'tirardi, u qattiq charchagandi. Keyin asboblarni yig'ishtirib, yerdan kishanni oldi. Qaytarib berish kerak, bo'lmasa yana javob berishga to'g'ri keladi. Zanglagan kishanni tomosha qila turib, ustaning ishiga qoyil qoldi. Hamma tomoni joyida, aql ishlatib yasalgan edi. Keksa qirg'iz temirchilarining ishi. Ha, bu hunar endi yo'qolgan, umrbod unutil-

gan. Kishanlar endi kerakmas. Ammo boshqa buyumlarning yo'qolganiga afsuslanasan kishi. Kumushdan, misdan, yog'ochdan, teridan qanday bezaklar, qanday asbob-anjomlar yasay olishardi! Qimmat ham emasdi, lekin go'zal buyumlar edi. Har birining o'ziga xos go'zalligi bor edi. Endi bunaqalar yo'q. Endi hamma narsani — krujkalar, laganlar, qoshiqlar, ziraklar va tog'orachalarni alyumindan yasashadi — qayoqqa borsang, hamma yerda bir xil narsa, joningga tegib ketdi. Egarsoz ustalarning ham eng oxirgilari qoldi. Qanaqa egarlar qila bilishardi-ya! Har bir egar o'z tarixiga ega edi: kim, qachon, kim uchun va o'z mehnati qanday taqdirlangani ma'lum edi. Yaqinda hamma xuddi u yoqda, Yevropadagidek, mashinada yuradigan bo'lsa kerak. Hammasiniki bir xil mashina, faqat nomerlaridan ajratasan, xolos. Bobolar hunarini esa unutib yuboryapmiz. Qadimiy qo'l hunarini yo'qotdik, holbuki, inson qalbi ham, ko'zi ham qo'llarda...

Goho Tanaboyni shunday xayollar chulg'ab olardi. Xalq hunari haqidagi mulohazalarga berilib ketardi, u yo'qolib ketayotganligi uchun kimni ayblashni bilmay kuyib-pishar, g'azablanardi. Holbuki, o'zi ham yoshligida qadimdan meros qolgan narsalarimizning shunday go'rkovlaridan biri bo'lgandi. Bir kuni hatto komsomol yig'ilishida o'tovlarni tugatish haqida nutq ham so'zlagandi. Kimdandir o'tovlar yo'qotilishi kerakligini, o'tov — inqilobdan oldingi turar joy ekanligini eshitgandi. «Bitsin o'tov! Eskichasiga yashashni bas qilaylik».

O'tovni ham «quloq qilishdi». Uylar qura boshlashdi, o'tovlar esa sindirib tashlandi. Kigizlarni ham qirqib boshqa narsalarga kerak qildilar, yog'ochlari keraga, chang'oroqlari hovli devorlariga, mollar uchun qo'ralarga ishlatildi, hatto o'choqqa yoqildi...

Keyin ma'lum bo'lishicha, o'tovlarsiz uzoq yaylovlarda chorvachilik qilib bo'lmas ekan. Endi Tanaboy bunday so'zlarni aytishga og'zi qanday borganligiga, ko'chma chorvachilik uchun hali o'tovdan durustroq boshqa hech narsa o'ylab topilmaganligiga qaramay, uni nega qoralaganiga o'zi ham hayron qolardi. Har bir kichik bo'lagi ajdodlarning asriy tajribasidan o'tgan o'tov o'z xalqining ajoyib kashfiyoti ekanligini u qanday qilib ko'ra olmadiykin?

Endi u qari To'rg'aydan qolgan ilma-teshik, is bosgan o'tovda yashardi. O'tov juda eski edi, faqat Jaydar benihoya sabr-toqatlik bo'lgani uchun undan foydalalanib kelayotgan edilar. U bir necha kunlab o'tovni yamab-yasqar, yashab bo'ladigan holga keltirar, bir-ikki haftadan so'ng esa chirik kigiz yana so'tilib ketar, yana teshiklar ko'rinib qolar, shamol guvillab kirar, qor kirar, yomg'ir o'tar edi. Tag'in ayol tikish-yamashga kirishardi, bu ishning poyoni ko'rinmasdi.

— Qachongacha azob chekamiz? — zorlanardi u. — Qara, kigiz emas bu — kukun, to‘kilib-sochilib ketyapti. Keragasi bilan uvuqlari nimaga o‘xshab qoldi! Aytgani uyalasan. Sen loaqal bizga yangi kigizlar olsang-chi. Uyning egasimisan yoki yo‘qmi? Axir biz ham odamga o‘xshab yashashimiz kerak-ku...

Tanaboy avvallari uni yupatib, va‘da qilib yurdi. Ovulda o‘ziga yangi o‘tov o‘rnatib berishlari zarurligi haqida og‘iz ochganida esa kekxa ustalar allaqachonlar o‘lib ketishgani, yoshlar bo‘lsa ularni qanday yasash to‘g‘risida tasavvurga ham ega emasligi ma‘lum bo‘lib qoldi. O‘tovlar uchun kolxozda kigizlar ham yo‘q edi.

— Bo‘lmasa jun beringlar, o‘zimiz kigiz bostirib olamiz, — iltimos qildi Tanaboy.

— Qanaqa jun! — deyishdi unga. — Sen nima, osmondan tushdingmi? Junning hammasi reja bo‘yicha sotilyapti, xo‘jalikda bir gramm ham qoldirish mumkin emas... — So‘ng o‘tov o‘rniga brezent chodirni taklif qilishdi.

Jaydar qat‘iyan rad etdi:

— Chodirda yashagandan ko‘ra yirtiq-yamoq o‘tovda yashagan yaxshiroq.

Ko‘pgina chorvadorlar bu vaqtda chodirlarga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lishgandi. Ammo bu o‘zi qanaqa turar joy? Na turib yura olasan, na o‘tira olasan, na olov yoqasan? Yozda haddan tashqari isib ketadi, qishda esa it ham sovug‘iga chiday olmaydi. Na buyumlarni joylashtira olasan, na o‘choq qura bilasan, na chiroyliroq qilib bezata olasan. Mehmonlar kelib qolsa qayoqqa joylashtirishni bilmay qolasan.

— Yo‘q-yo‘q! — deb bosh tortdi Jaydar. — Nima qilsang qilginu lekin men chodirda yashamayman. Chodir bo‘yoqlar uchun, u ham bo‘lsa vaqtinchalikka, bizning esa bola-chaqamiz bor. Ularni cho‘miltirish kerak, tarbiyalash kerak, yo‘q, yashamayman.

Bir kuni Tanaboy Choroni uchratib qoldi. hamma gapni so‘zlab berdi.

— Bu yog‘i nima bo‘ladi, rais?

Choro g‘amgin bosh chayqadi:

— Bu haqda biz ikkimiz o‘z vaqtida o‘ylashimiz kerak edi. Yuqoridagi rahbarlarimiz ham. Hozir bo‘lsa xatlar yozyapmizu, nima deyishlarini bilmaymiz. Jun — qimmatbaho xomashyo, kamyob narsa deyidilar. Eksport qilinadi. Ichki xo‘jalik ehtiyojlariga sarflash maqsadga muvofiq emas.

Shundan keyin Tanaboy jimib qoldi. Demak, qisman o‘zi ham aybdor. O‘zining tentakligidan un chiqarmay kula boshladi: «Maqsadga muvofiq emas! Ha-ha-ha! Maqsadga muvofiq emas!»



Bu «maqsadga muvofiq emas» degan og‘ir so‘z uzoq vaqtgacha xayolidan ketmadi.

Shunday qilib, ular tuzatib olish uchun oddiygina jun zarur bo‘lgan, qirq yamoq bo‘lib ketgan eski o‘tovda yashayverishdi. Bu junni esa kolxoz otarlaridan tonnalab qirqishar edi...

Tanaboy qo‘lida kishan ushlagancha o‘z o‘tovi oldiga keldi. U shu qadar g‘aribona ko‘rinib ketdiki, hamma narsaga — o‘ziga ham, saman yo‘rg‘aning oyoqlarini qonatgan manovi kishanga nisbatan ham g‘azabi shunchalik oshib-toshib ketdiki, hatto tishlarini g‘ijirlatib qo‘ydi. G‘azabi qo‘zib turgan paytda yana Gulсарining ketidan otboqarlar kelib qolishsa bo‘ladimi.

— Olib ketinglar, — baqirdi ularga Tanaboy. G‘azabdan lablari ucha boshladi. — Manovi kishanni esa raisga beringlar, aytinglarki, agar u saman yo‘rg‘ani yana kishanlaydigan bo‘lsa, men mana shu kishan bilan uning boshini majaqlab tashlayman. Shunday deb aytinglar!..

U bekorga bunday dedi. Uff, bekorga! Uning bu qiziqqonligi va to‘g‘riso‘zligi unga hech qachon yaxshilik keltirmagandi...

## IX

**Y**orug‘, oftob charaqlab turgan kun edi. Bahor quyoshga boqib ko‘zini suzar, bargaklardan soch taqib bezanar, shudgorlardan bug‘ chiqarar va so‘qmoqlarda naq oyoq ostida maysa-o‘tlar barq urib yashnardi.

Otxona oldida bolalar chillak o‘ynashardi. Biroq chaqqon bola chillakni osmonga uloqtirib yubordi-da, poylab turib uni chillak sopi bilan qulochkashlab urib uchirib yuboradi. Oraliqni chillak sopi bilan o‘lchay boshlaydi — bir ikki, uch... yetti... o‘n... o‘n besh... Injiq hakamlar anovi g‘irromlik qilmasligi uchun uning orqasidan gala-gala bo‘lishib kuzatib borishadi. Yigirma ikkita.

— Avval yetmish sakkiz edi, endi yigirma ikki, — hisoblaydi bola va yakunlab bo‘lgach, shodligini ichiga sig‘dirolmay qichqirib yuboradi: — Yuz! Yuz bo‘ldi!

— Ura-a-a yuz! — deb boshqalar ham qo‘shilishadi.

Demak, naq mo‘ljalni urgan. Ortiq ham emas, kam ham. Endi yutqizgan «zuv»lashi kerak. G‘olib ganakka — marra chizig‘iga boradi-da, u yerdan chillak otadi. Tag‘in ham uzoqroqqa tushadigan qilib otadi. Hamma chillak tushgan joyga qarab chopadi, u yerda chillakni yana bir bor uradi, shu tarzda uch marta uriladi.

Yengilgan bolaning yig'lashiga sal qoladi — u shunchalik uzoq yerga «zuv» deb bori-shi kerak! Lekin o'yin qonuni qat'iy. «Nega turibsan, qani zuvla!» chuqur nafas olib;

Oyboy, Ko'kboy.

Buzoqlarni haydama.

Haydasangu yetmasang

Bolalarga aytaman — zu-u-u-uv...

deb gapirib chopib ketadi.

Boshi tirsillab yorilib ketay deydi, lekin u baribir «zuv» deb ketaveradi. Ammo chiziqqacha yetkaza olmaydi. Orqaga qaytib, yana boshqadan boshlash kerak. Yana yetkaza olmaydi. G'olib tantana qiladi. Nafasing yetmayaptimi — opichib obor! U zuvlovchiga opichib oladi, unisi bo'lsa buni eshakday mingash-tirib boradi.

— Qani, tezroq, ildamroq yur! — oyog'i bilan niqtaydi minib olgan. — Bolalar, qaranglar, bu mening Gulsarim. Qara, u qanday yo'rg'alab boryapti...

Gulsari bo'lsa devor ortida, otxonada turgandi. Toliqqandi. Negadir bugun uni egarlashmadi ham. Ertalabdan beri yem-xashak ham berishmadi, sug'orishmadi ham. Esdan chiqarib yuborishdi shekilli. Otxona allaqachon bo'shab qoldi, aravalarni olib ketishdi, otliqlar tarqalib ketishdi, otxonada uning birgina o'zi qoldi.

Otboqarlar otxonani tozalayapti. Bolalar devor orqasida qiy-chuv ko'tarishyapti. Yilqilarning oldiga, cho'lga borsang hozir! Keng yalangliklar ko'ziga ko'rinib ketdi, bepoyon cho'lda yilqilar qanday daydib yurganligini ko'z oldiga keltirdi. Kul rang g'ozlar ular ustidan uchib o'tishyapti, qanotlarini qoqishyapti, o'z orqalaridan ergashishga chorlashyapti...

Gulsari bir silkindi, arqonni uzishga urinib ko'rdi. Yo'q, qo'sh qavat zanjir bilan uni mahkam bog'lab qo'yishibdi. Ehtimol, o'zinikilar eshitib qolar? Gulsari derazaga kallasini cho'zib, oyoq ostidagi taxtani tepib: «Qaydasizla-a-ar?...» degandek bo'g'iq ovozda kishnab yubordi.

— Ovozingni o'chir, shayton, kuning bitdi! — sapchib kelib unga belkurakni o'qtaldi otboqar! So'ng eshik orqasidagi allakimga murojaat qilib qichqirdi:

— Olib chiqaymi?

— Olib chiq! — javob berishdi hovlidan.

Ikki otboqar yo'rg'ani hovliga olib chiqishadi. Uh, muncha ham yorug'! Havo qanday yaxshi! Saman yo'rg'a nozik burun parraklari ko'klamning sarxush etuv-

chi havosidan titray boshladi. Barglardan achchiqroq bir is tarqalyapti, nam tuproq isi kelyapti. Tanda qon qaynayapti. Qani endi chopib ketsang hozir. Gulsari yengilgina sakradi.

— Tek, tek! — birdaniga bir necha ovoz uni to'xtatib qo'ydi.

Nega bugun uning atrofida odamlar bunchalik ko'p? Yenglari qayirilgan, qo'llari baquvvat, jundor. Kul rang xalatlari bittasi oq lattaga qanaqadir yaltiroq temir buyumlarni terib qo'ymoqda. Ular quyosh nuri ostida ko'zlarni qamashtiradigan darajada yaltiraydi. Boshqalari arqon ushlab turishibdi. Ie, yaigi xo'jayini ham shu yerda-ku! Keng galifedagi semiz oyoqlarini ko'rib gerdayib turibdi. Hammaniki kabi uning ham qoshlari uyulgan, faqat yenglari shimarilmagan. Bir qo'lini beliga tirab olgan, ikkinchisi bilan kitelidagi tugmalarini aylantirib o'ynamoqda. Kecha undan yana o'sha sassiq hid anqigandi,

— Xo'sh, nega qarab turibsizlar, boshlanglar! Boshlasinlarmi, Jo'raqul Aldanovich! — murojaat qiladi raisga Ibrohim. U indamay bosh silkiydi.

— Qani boshlanglar! — Ibrohim shoshib-pishib, otxona darvozasidagi mixga tulki teri telpagini osadi. Telpak go'ng ustiga dumalab tushib ketadi. Ibrohim jirkanib uni qoqib-silkib, yana osib qo'yadi. — Siz sal chekkaroqqa borib tursangiz bo'lardi, Jo'raqul Aldanovich, — deydi u. — Tag'in, kim bilsin, tuyog'i tegib ketishi ham mumkin. Ot — ahmoq maxluq, shikast yetkazishi mumkin.

Bo'ynidagi qil arqonni his etgach, Gulsari bir seskanib tushdi. Tikanday arqon. Arqonni sirg'aluvchi sirtmoq qilib ko'kragi ustidan bog'lashdi, uchi ni tashqariga, yonboshiga uloqtirib tashlashdi. Nima kerak ularga? Negadir arqonni orqa oyog'iga solib, to'pig'idan o'tkazishyapti, oyoqlarini tushovlashyapti. Gulsari asablana boshlaydi, pishqiradi, ko'zini ola-kula qiladi. Nima qilganlari bu?

— Tezroq! — shoshiradi Ibrohim va kutilmaganda ingichka ovoz bilan chiyilab yubordi: — Yiqit!

Ikki juft baquvvat jundor qo'l arqonni zarb bilan o'zlari tomonga tortadi. Gulsari ildizi qirqilgan daraxtday yerga gursillab yiqilib tushadi. Quyosh gir aylanib ketadi, zarbdan yer gumburlaydi. Bu nimasi? Nega u yonboshlab yotibdi? Nega odamlarning yuzlari yuqori tomon g'alati cho'zilib ketgan, nega daraxtlar balandga ko'tarilgan? Nega u yerda bunday noqulay vaziyatda yotibdi? Yo'q, bunaqasi ketmaydi.

Gulsari kallasini ko'tarib bir silkindi, butun tanasi bilan qo'zg'alishga harakat qildi. Arqonlar uning oyoqlarini qorniga tortib, terisiga botib ketdi. Saman

yo'rg'a ijirg'anib, bog'lanmagan bitta orqa oyog'ini jon-jahdi bilan siltay boshladi. Arqon tortildi, chirsilladi.

— Ustiga tashlan, bos, ushla! — tipirchilab qoldi Ibrohim.

Hamma otga tashlandi, tizzalari bilan bosishdi.

— Boshini, boshini yerga bosinglar! Bog'la! Tort! Ha, shunday. Tezroq bo'lsanglar-chi! Mana bu yeridan yana bir o'tkaz. Tort, yana bir tort, tag'in. Ha balli. Endi bu yeridan ilitir, tugun qilib bog'la! — tinmay chiyillardi Ibrohim.

Saman yo'rg'aning oyoqlarini arqon bilan tobora siqishib, to hammasi qattiq bir tugun bo'lib yig'ilmagunicha tortaverishdi.

Gulsari oyoqlarini chirmab olgan arqondan qutulish uchun hamon urinib, bo'yni va kallasiga o'tirib olganlarni itqitib tashlab, qattiq ingrab yubordi. Lekin odamlar uni tag'in tizzalari bilan bosa boshladilar. Yo'rg'aning terga botgan tanasi changak bo'lib, tomirlari tortishib. oyoqlari uvushib qoldi. Shunda u taslim bo'ldi.

— Uff, nihoyat!

— Xo'p kuchi bor ekan-da!

— Hatto traktorday kuchi bo'lganida ham endi u qimir eta olmaydi!

Shunda yiqilgan saman yo'rg'a yoniga yangi xo'jayinining o'zi yugurib ke- lib, uning bosh tomonida cho'qqayib o'tirib oldi, kechagi aroqning hidi gup etib anqidi va go'yo uning oldida ot emas, balki odam — uning ashaddiy dushmani yotganday oshkora nafrat va tantana bilan tirjaydi.

Terlab-pishib ketgan Ibrohim ro'molchasi bilan artina-artina uning yoni- ga o'tirdi. Rais ikkalasi yonma-yon o'tirishib, bundan keyin yuz berishi lozim bo'lgan hodisani kutib papiros chekishdi.

Hovlining orqasida esa bolalar chillak o'ynashardi:

Oqboy, Ko'kboy,  
Buzoqlarni haydama,  
Haydasangu yetmasang  
Bolalarga aytaman — zu-u-u-u...

Quyosh hamon ilgarigiday nur sochardi. Yo'rg'a so'nggi marta poyonsiz dashtni ko'rib turgandi, u yerlarda yilqilar erkin holda qanday daydib yurganli- gini ko'rayotgandi. Ular ustidan kul rang g'ozlar uchib o'tishyapti, qanotlarni qo-

qishyapti, o'z orqalaridan ergashishga chorlashyapti... Gulsarining tumshug'iga esa pashshalar yopishib olgan. Hayday olmaydi.

— Boshlaymizmi, Jo'raqul Aldanovich! — tag'in so'radi Ibrohim. Unisi indamay bosh silkidi. Ibrohim o'rnidan turdi.

Hamma yana harakatga keldi, yopirilib, bog'langan yo'rg'ani tizzalari va ko'kraklari bilan bosishdi. Uning kallasini yerga tag'in ham qattiqroq niqtashdi, kimningdir qo'llari choti orasida g'imirlab qoldi.

Bolalar devor ustiga chiqib chumchuqlarday tizilib olishdi.

— Qaranglar, bolalar, qaranglar, nima qilishyapti.

— Saman yo'rg'aning tuyoqlarini tozalashyapti.

— Ja bilarkansan-da, tuyoqlarinimish! Hech-da.

— Hey, nima bor sizlarga bu yerda, qani, jo'nab qolinglar! — ularga qo'l siltdi Ibrohim. — Boringlar, o'ynanglar. Pishirib qo'ygani yo'q.

Bolalar devordan sirg'alib tushib ketishdi.

Jimjit bo'lib qoldi.

Gulsari turtki va muzday bir narsaning tegishidan g'ujanak bo'lib qoldi. Yangi xo'jayini esa uning oldida cho'qqayib o'tirar, termilib nimanidir kutar edi. Birdan kuchli og'riqdan yo'rg'aning ko'zlarida o't chaqnab ketdi. Voh! Qizg'ish alanga yalt etib yondi-yu, darrov hamma yoqni qorong'ilik bosdi.

Hamma ish bitganida ham Gulsari hamon bog'log'liq yotardi. Qon tinguncha bo'shatmaslik kerak edi, uni.

— Xo'sh, mana Jo'raqul Aldanovich, hammasi joyida, — dedi Ibrohim qo'llarini ishqalab. — Endi u hech qayoqqa chopib keta olmaydi. Chopib bo'пти endi, Tanaboyga esa parvo qilmang. Tuf deng. U hamma vaqt shunaqa bo'lgan. U o'z akasini ham siylamagan — quloq qilgan, Sibirga yuborgan. U kimga yaxshilik istaydi, deysiz...

Ibrohim xursand bo'lib mixdan tulki teri telpagini oldi, uni silkib qoqdi, silab-siypadi va terlagan boshiga kiydi.

Bolalar esa hamon chillak o'ynashardi:

Oqboy, Ko'kboy

..... zu-u-u-u.

— Ha-ha, yeta olmadingmi, qani engash. Chuh, Gulsari, olg'a! Ura-a-a, bu mening Gulsarim!

Serquyosh, yorug' kun edi...

## X

**T**un. Yarim tun. Keksa odam bilan qari ot. Jarlik yoqasida gulxan yonmoqda. Olov shamolda goh pasayadi, goh kuchayadi...

Muzlagan qattiq yer saman otning biqinini muzlatadi. Bo'ynini cho'yan-day og'ir narsa bosib turganday, kishanlangan oyoqlar bilan hakkalab yurgan paytidagiday kallasini goh yuqoriga ko'tarib, goh pastga tushurishdan charchadi. Gulsari o'sha vaqtdagiday yelib-yugurib chopa olmaydi. zanjir kishanlarni uzib tashlay olmaydi. Chopganida tuyoqlaridan o't chaqnashi uchun oyoqlarini erkin tashlashni istaydi, ko'krak qafasini to'ldirib-to'ldirib nafas olish uchun yer uzra parvoz qilgisi keladi, yilqilarni chorlab ovozi boricha kishnash uchun, biyalar va qulunlar u bilan birga bepoyon yavshonzor dasht bo'ylab chopib yurishlari uchun yaylovga tezroq yelib borgisi keladi, lekin kishanlar yo'l qo'ymaydi. Zanjirlarning jarang-jurungi ostida u qochoq katorgachi singari hakkalab boradi. Hamma yoq huvillagan. qop-qorong'i, o'zi yakka-yu yolg'iz. Shamol yelib turgan osmonda miltillab oy ko'rinadi. Saman ot hakkalab yurib kallasini osmonga ko'targanida ko'z oldida oy gavdalanadi, kallasini yerga osiltirganida u toshdek dumalab tushadi.

Goh yorug', goh qorong'i, goh yorug', goh qorong'i... Qarayverib ko'zlar toliqdi.

Zanjirlar jaranglaydi, oyoqlar qonga bo'lanadi. Sakraydi, tag'in sakraydi, tag'in. Hamma yoq bo'm-bo'sh, qop-qorong'i. Kishanda uzoq yurish kerak, kishanda yurish muncha ham qiyin.

Jarlik yoqasida gulxan yonmoqda. Sovuq, qattiq yer saman otning biqinini muzlatadi..

## XI

**I**kki haftadan keyin yaylovga, yana tog'larga ko'chish kerak edi. Butun yoz bo'yi, butun kuz va qish bo'yi, kelgusi bahorga qadar shu yoqda bo'lish kerak. Bir uydan ikkinchi uyga ko'chish naqadar mushkul! Shuncha ashqoldashqol qayoqdan yig'ilarkin? Shuning uchun ham qirg'izlar qadimdan: kambag'al bo'lsang, ko'chib ko'r, deyishadi.

Ko'chishga hozirlanish kerak, bir dunyo har xil ishlarni qilish — tegirmonga, bozorga, etikdo'zga, internatga o'g'lining oldiga borib kelish kerak... Tanaboy bo'lsa suvga bo'kkan nonday bo'shshib yurardi. O'sha kunlari u xotiniga juda

g'alati ko'rindi. Gaplashishga ham ulgurmaysan: erta turib yilqilar oldiga ketib qoladi. Tushga tomon qovoqlarini osib, asabiylashib qaytib keladi. Bir narsani kutganday, doim quloqlari ding.

— Senga nima bo'ldi? — deb surishtirardi Jaydar. U indamasdi, bir kuni esa ochilib gapirdi:

— Yaqinda yomon tush ko'rdim.

— Mendan qutulish uchun shuni o'ylab topdingmi?

— Yo'q, chindan ham. Miyamdan ketmayapti o'sha tush.

— Shu kunga qoldikmi? Ovuldagi xudosizlarning boshlig'i sen emasmiding? Kampirlar seni qarg'ashmasmidi? Qarib boryapsan, Tanaboy, hamma gap shunda, yilqilarning oldidan aylanib ketmaysan, yaylovga ko'chish vaqti juda yaqin kelib qolganligi parvoyingga ham kelmaydi. Axir mening bir o'zim bolalarni eplashтира olamanmi? Loaqal Choroni ko'rib kelsang bo'lardi. Obro'li odamlar ko'chish oldidan kasallarni ko'rib kelishadi.

— Ulguraman, — qo'l siltadi Tanaboy, — keyin.

— Keyin, qachon? Sen, nima, ovulga borishga qo'rqasanmi? Ertaga birga boramiz. Bolalarni olamiz-da, ketamiz. Men ovulga borib kelishim kerak.

Yosh qo'shnilariga yilqilarni topshirib, ertasi kun butun oila otlarga minishib jo'nashdi. Jaydar kichik qizi bilan, Tanaboy kattasi bilan. Bolalarni egarlarning oldiga o'tqizib borishardi.

Ovul ko'chalaridan o'tishardi, yo'lda uchraganlar va tanish-bilishlari bilan salomlashishardi. Temirchilik ustaxonasi oldida esa Tanaboy birdan otini to'xtatdi.

— To'xta, — dedi u xotiniga. Egardan tushdi va katta qizini xotini mingan otning sag'risiga mingazdi.

— Senga nima bo'ldi? Qayoqqa?

— Men hozir qaytaman, Jaydar. Sen ketaver, Choroga ayt, men tezda yetib boraman, idorada shoshilinch ishlar bor, tushlikkacha yopilib qoladi. Ustaxonaga ham lip etib kirib chiqaman. Ko'chish oldidan taqalarni saranjomlab qo'yish kerak.

— Oldinma-keyin borishimiz yaxshi emas-ku.

— Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q. Sen ketaver. Men hozir...

Na idoraga, na ustaxonaga kirdi Tanaboy. U to'ppa-to'g'ri otxonaga qarab yo'l oldi.

Otdan tushib, hech kimni chaqirmay bir o'zi otxonaga kirdi. Ko'zlari qorong'ilikka ko'nikkunicha tomog'i qaqrab ketdi. Otxona bo'm-bo'sh va jimjit edi, hamma otlar minib ketilgan edi. U yoq-bu yoqqa qarab olgach, Tanaboy yengil

nafas oldi. Otboqarlardan birontasini ko'rish uchun yon eshikdan otxona hovliga chiqdi. Shunda u bu yerda so'nggi kunlargacha ko'rishdan qo'rqib yurgan narsasini ko'rdi.

— Shundaydir deb o'ylovdim, ablahlar! — dedi u sekin mushtlarini qisib.

Dokaga o'ralgan dumi arqon bilan bo'yniga bog'lab qo'yilgai Gulsari bostirma tagida turardi. Kerilgan orqa oyoqlari orasida kattaligi ko'vachaday keladigan, yallig'langan tarang shish qorayib ko'rinardi. Ot ohur ustida kallasini osiltirib qimir etmay turardi. Tanaboy lablarini tishlab ingrab yubordi, yo'rg'aning yoniga bormoqchi bo'ldi-yu, lekin jurat eta olmadi. Uni vahima bosdi. Bo'm-bo'sh otxona, huvillagan hovli va bichib tashlangan yakkayu-yolg'iz yo'rg'a otni ko'rib vahimaga tushdi. U ortiga qayrildi va indamay nari ketdi. Tuzatib bo'lmaydigan ish sodir bo'lgan edi.

Ular kechqurun o'z o'tovlariga qaytib kelishganlarida Tanaboy xotiniga xasrat bilan dedi:

— Tushim o'ngidan keldi.

— Nima bo'ldi?

— Mehmondorchilikda bu haqda gapirib o'tirmadim. Gulsari endi qochib kelmaydi. Uni nima qilishganini bilasanmi? Bichibdilar, padar la'natlar!

— Bilaman. Shuning uchun ham seni ovulga sudradim. Buni bilishdan qo'rquvingmi sen? Nimasidan qo'rqasan? Kichkina emassan-ku, axir! Otlarni axir birinchi va oxirgi marta bichishyaptimi? Azaldan shunaqa bo'lgan, bundan keyin ham shunday bo'ladi. Bu axir har bir kishiga ma'lum-ku.

Tanaboy bunga javoban hech narsa demadi. Faqat:

— Yangi raisimiz nazarimda yomon odamga o'xshaydi. Ko'nglim sezib turibdi, — deb qo'ydi.

— Qo'ysang-chi, bu gaplaringni, Tanaboy, — dedi Jaydar. — Sening yo'rg'a otingni bichgan bo'lishsa, darrov rais ham yomon bo'lib qoldimi. Nega unday deysan? U yangi odam bo'lsa. Xo'jalik katta, uni boshqarish qiyin. Ana Choro, endi kolxozlarning ahvolini o'rganishadi, yordam berishadi, deb aytyapti-ku. Qanaqadir rejalar tuzayotgan emishlar. Sen bo'lsang hamma narsa haqida eldan burun hukm chiqarasan. Biz axir ko'p narsalarni bilmaymiz-ku...

Kechki ovqatdan so'ng Tanaboy uyurga jo'nadi va to kun yarmiga qadar u yerda qolib ketdi. U o'zini koyirdi, hamma narsani unutishga o'zini majbur etar, lekin kunduzi otxonada ko'rgani miyasidan ketmasdi. U yilqilarni aylanib cho'l kezarkan o'yoldi: «Ehtimol, rostdan ham bir odam haqida bunday fikr yu-



ritish kerak emasdir? Bu bema'nilik, albatta. Ehtimol, qarib borayotganligimdan, yil — o'n ikki oy yilqilarning ketidan yurganligimdan, hech narsani ko'rmayman, bilmayman. Ammo qachongacha shuncha og'ir hayot kechirish mumkin?.. Nutqlarga quloq solsang — yo hamma narsa yaxshilanib ketayotganday. Xo'p, mayli, men yanglishyapman, deylik. Xudoyo men yanglishayotgan bo'lay. Lekin boshqalar ham ehtimol shunday o'ylashayotgandir...»

Tanaboy cho'lda aylanib yurib, bosh qotirar, biroq o'zining shubhalariga javob topa olmas edi. Shunda o'zlarining bir vaqtlar qanday qilib kolxoz tuza boshlaganliklari, xalqqa baxtli turmush va'da qilganliklari, hammaning qanday orzu-istaklari bo'lganligi esiga tushib ketardi. O'sha orzularning ro'yobga chiqishi uchun qanday kurashishdi! Hamma narsani ag'dar-to'ntar qilib tashlashdi, eskilikka zarba berishdi. Dastlabki paytlar turmush yomon emasdi. Agar manovi la'nati urush bo'lmanida yana ham yaxshiroq yashashgan bo'lishardi. Endi-chi? Urushdan keyin necha yil o'tib ketdi-yu, hamon xo'jalikni eski o'tovday yamab-yasqab yotibmiz. Bir joyini yamasang, boshqa joyidan yirtig'i ko'rinib qoladi. Nima uchun? Nima uchun kolxoz o'sha paytdagiday o'zingniki emas, go'yo begona — yotday O'sha davrda yig'ilish nima qaror qilsa qonun bo'lardi. Qonunni o'zlari qabul qilishganlarini va uni bajarish kerakligini bilishardi. Endi esa yig'ilish quruq gapdan iborat bo'lib qoldi. Sen bilan hech kimning ishi o'q. Kolxozni go'yo kolxozchilarning o'zlari emas, kimdir tashqaridan boshqarayotganday. Go'yo nima qilish, qanday ishlash, xo'jalikni qanday olib borish kerakligi sirtidan yaxshiroq ko'rinadiganday. Xo'jalikni goh unday, goh bunday aylantirib ko'rishadi, lekin hech qanday natija yo'q. Odamlar bilan uchrashgani ham qo'rqasan: «Qani, ayt-chi, sen partiya a'zosisan, kolxoz tuza boshlaganimizda hammadan ko'p sen tomog'ingni qirgansan, bu narsalar qanday yuz berayotganligini bizga tushuntirib ber-chi?» deb so'rab qolishlari mumkin. Nima deysan ularga? Loaqal bir joyga yig'ilishib, nimalar bo'layotganligini so'zlab berishsa mayli edi. Kimning ko'nglida nimalar borligini, qanaqa fikrlar, qanaqa tashvishlar borligini so'rashsa edi. Tumandan kelayotgan vakillar ham negadir avvalgilariga o'xshamaydi. Ilgari vakil xalqqa aralashardi, hammaga yaqin edi. Endi esa keldi deguncha idorada raisga baqirib-chaqiradi, qishloq kengashi bilan esa mutlaqo gaplashmaydi ham. Partiya yig'ilishida so'zga chiqsa, ko'proq xalqaro ahvol haqida gapiradi, kolxozdagi ahvol esa go'yo unchalik muhim emasday. Ishlanglar, rejani bajaringlar, vassalom...

Tanaboy yaqinda bu yerga bir odam kelganligi, til haqidagi qandaydir ta'limot to'g'risida tinmay gapirganligini esladi. Tanaboy kolxozning turish-turmushi

haqida gap ochmoqchi bo'luvdi, ko'zi ola-kula bo'lib ketdi sizning fikrlaringiz shubhali, dedi. Fikrlarini ma'qul topmadi. Nima bo'lyapti-ya o'zi?

«Mana, Chora tuzalib ketadi-yu, hali, — dedi o'ziga Tanaboy, — ko'nglidagi bor gapni to'kib solishga uni majbur qilaman. O'zim ham ochiq gapiraman. Men yanglishayotgan bo'lsam, aytsin, agar yanglishmayotgan bo'lsam-chi?.. Unda nima bo'ladi? Yo'q, yo'q, unday bo'lishi kerak emas. Men yanglishyapman, albatta. Kimman men? Oddiy yilqi boqarman, cho'ponman. U yoqdagilar esa dono odamlar...»

Tanaboy o'toviga qaytib keldi va uzoq vaqtgacha uxlay olmay yotdi. Hamon bosh qotirardi: ishkal nimada ekan? O'z savoliga yana javob topa olmasdi.

Choro bilan esa shu-shu suhbatlasha olmadi. Ko'chish oldidan ishlar bilan o'ralashib qoldi.

— Ko'chmanchilar yana butun yozga, butun kuzu qishga — kelgusi ko'klamga qadar tog'larga ko'chib ketishdi. Yana qoramollar podasi, yilqilar uyuri, qo'y qo'tonlari daryo yoqalab, suvli o'tloqlar bo'ylab yurib ketishdi. Ko'ch-ko'rol ortilgan karvonlar. Xilma-xil ovozlar havoda muallaq turib qolgan, ayollarning rang-barang ro'mol va ko'ylaklari ko'zga chalinadi, qizlar ayriliq-hijron qo'shig'ini kuylaydilar.

Tanaboy o'z yilqilarini ulkan o'tloqdan, ovul yaqinidagi do'ngliklardan haydab borardi. U yo'rg'a otida kelib ketadigan o'sha uy, o'sha hovli hamon ovulning bir chekkasida o'shandog'ligicha turardi. Yuragi orziqib ketdi. Endi u o'sha juvondan ham, saman yo'rg'a Gulsaridan ham judo bo'lgan edi. Hammasi orqada qolib ketdi, ko'klamdagi kul rang g'ozlar galasi singari shovqin solib o'tib ketdi u davrlar...

... Anchadan buyon ona tuya yelib-yuguradi, bo'talogo'ini izlaydi, chorlaydi. Qaydasan qora ko'zli bo'taloq? Javob ber! Yelinimdan, tirsillagan yelinimdan oyoqlarimga tizillab sut oqmoqda. Qaydasan? Javob qaytar? Uning yelinidan, tirsillagan yelinidan tizillab sut oqmoqda. Oppoq sut...

## XII

**O**sha yilning kuzida Tanaboy Bekasovning taqdiri birdaniga o'zgarib ketdi. U dovonning narigi tomonidan qaytib kelib, yilqilar tog' oralig'idagi qishlovga jo'nab ketish uchun yonbag'irdagi kuzgi yaylovlarga qo'ydi. Xuddi shu kunlari kolxozdan chopar keldi.

— Choro yubordi meni, — dedi u Tanaboyga. — Ertaga ovulga kelsin, deb aytdi, u yerdan tumanga kengashga borarkansizlar.

Ertasiga Tanaboy kolxoz idorasiga keldi. Choro shu yerda, partorg xonasida edi. Garchand lablarining gezargani va o'zining ozg'inligidan hali kasallik undan arimaganligi bilinib tursa ham, u ko'klamdagidan ancha sog'lom ko'rinardi. U o'zini tetik tutar, ishga boshi bilan sho'ng'ib ketgan edi, xalq atrofini o'rab olgandi. Tanaboy do'stini ko'rib quvonib ketdi. Demak, sog'ayib ketibdi, yana ishga tushibdi.

Ular ikkalasi yolg'iz qolishganda Choro Tanaboyga qaradi. Qotib ketgan ozg'in yuzini kafti bilan ishqab:

— Sen, Tanaboy, qarimayapsan, hamon avvalgidaysan? Qachondan beri ko'rishmadik, ko'klamdan berimi? Qimiz va tog' havosi zo'r narsa-da... Men bo'lsam, mana, oz-ozdan so'lib boryapman. Payti kelganga o'xshaydi... — Choro bir oz jimib, ish haqida so'z boshladi: — Gap bunday, Tanaboy. Bilaman, bezbetga qoshiq bersang, u bir marta o'rniga besh marta osh oladi, deysan. Tag'in sening aytganing kelyapti. Ertaga chorvadorlar kengashiga boramiz. Chorvachilikning ahvoli chatoq, ayniqsa qo'ychilikning, ayniqsa bizning kolxozda qo'ychilikning ahvoli chatoq. Ish pachava. Raykom: kommunist va komsomollar qoloq uchastkalarga, otarlarga degan chaqiriq bilan murajaat qildi. Yordam ber! Huv o'sha paytda yilqilar masalasida yordam berganding, rahmat, endi yana ko'maklashib yubor. Otarlarni ol: cho'ponlikka o't.

— Juda ham shoshqaloqsan-da, Choro. — Tanaboy jimib qoldi. — Otlarga o'rganib qoldim, — o'yladi u. — Qo'ylarni boqish zerikarli ish! Oqibati qanday bo'larkin?

— Seni zo'rlamayman, Tanaboy, — dedi tag'in Choro. — Lekin iloj qancha — partiyaviy topshiriq. Achchig'ing kelmasin. Bir vaqti kelib do'stlarcha esimga solarsan, hammasiga birdan javob beraman!..

— Ha, vaqti kelganda esingga solib qo'yaman, o'zing ham xursand bo'lmay-san! — dedi kulib Tanaboy, Choroga hammasini eslatishga to'g'ri keladigan vaqt uncha uzoq emasligini sezmay. — Otar masalasida esa o'ylab ko'rish kerak, xotinim bilan gaplashib ko'ray.

— Xo'p mayli, o'ylab ko'r. Ammo ertalabgacha hal qil, ertaga kengash oldidan hisob berish kerak. Jaydar bilan keyin maslahatlashasan, hammasini tushuntirasan unga. Mening o'zim ham bir payti kelib qolganida unga uchrashaman, so'zlab beraman. U aqlli ayol, tushunadi. U yoningda bo'lmaganida edi, allaqachon biron yerda bo'yning uzilardi, — hazillashdi Choro. — Jaydarning ahvoli qalay? Bolalar-chi?

Ular oila haqida, kasallik haqida, u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirishdi. Tanaboy Choro bilan muhim bir gapni boshlamoqchi bo'lib turuvdi, tog'lardan chaqirilgan molboqarlar kirib kelib qolishdi, Choroning o'zi ham soatiga qarab shoshib qoldi.

— Demak, shunday. Otingni otxonaga topshir. Ertalab mashinada hammamiz birga ketishga qaror qildik. Biz axir mashina oldik-ku. Ikkinchisini ham yaqinda olamiz. Ishimiz yurishib ketadi! Men esa hozir jo' nayman, soat yettida raykomga yetib borishga buyruq berilgan. Rais hozir u yerda. Yo'rg'ada kechga qadar yetib olarman, deb o'ylayman, u mashinadan yomon yurmaydi.

— Iya, Gulsarini sen minib yuribsanmi? — hayron bo'ldi Tanaboy. — Siylabdi-da, rais...

— Nima desam ekan. Siyladimi, siylamadimi, har holda uni menga berdi. Bilasanmi nima bo'lganini? — kulib qo'llarini kerib qo'ydi Choro. — Gulsari nima uchundir raisni yomon ko'rib qoldi. Sira aql bovar qilmaydi. Uni o'ziga yaqin keltirmaydi. Unday ham, bunday ham qilib ko'rdi. Hech eplab bo'lmadi. Urrib o'ldir-sang ham yo'latmaydi. Men minsam yaxshi yuradi, uni yaxshi o'rgatibsan minishga. Bilasanmi, ayrim paytlarda yuragimning og'rig'i tutib qoladi, yo'rg'a otga o'tirib bir aylanib kelsam, og'riq bir pasda o'tadi ketadi. Birgina shu uchun umr bo'yi partorg' bo'lib ishlashga tayyorman, u meni davolayapti! — kuldi Choro.

Tanaboy kulmasdi.

— Men ham uni sevmayman, — dedi u.

— Kimni? — so'radi Choro kulgidan yoshlangan ko'zlarini arta turib.

— Raisni.

Choro jiddiylashdi.

— Nima uchun yaxshi ko'rmaysan?

— Bilmayman. Nazarimda, u po'k odam, po'k va johil odam.

— Sening ko'nglingni topish qiyin o'zi. Meni umr bo'yi bo'shangligim uchun koyib kelding, endi buni ham yaxshi ko'rmas ekansan... Bilmadim. Men ishga yaqinda chiqdim. Hali tushunib-bilib olganimcha yo'q.

Ular jimib qolishdi. Tanaboy Choroga kishan haqidagi, bichish haqidagi gapni gapirib bermoqchi edi-yu, lekin endi bu gap unga o'rinsiz bo'lib ko'rindi. Gap uzilib qolmasligi uchun Tanaboy o'zini xursand qilgan yangilik haqida gap ochdi:

— Mashinani berishganligi juda yaxshi bo'libdi-da. Demak, endi kolxozlarga ham mashina kela boshlarkan-da. Keladi, keladi. Vaqti keldi, esingdami, urushdan avval biz birinchi polutorkani olgandik. Miting bo'lib o'tgandi. Bo'lmamchi, kolxozning o'z mashinasi-ya, sen kuzovda turib nutq ham so'zlaganding: «Mana, o'rtoqlar, sotsializm samarasi!» Keyinchalik esa uni ham frontga olib ketishdi...

Ha, shunday zamonlar bo'lgandi... Quyoshning chiqishiday ajoyib zamon. Avtomashina ham gapmi! Chu kanali qurilishidan qaytishganlarida, o'zlari bilan

dastlabki patefonlarni olib kelishganlarida ovul yangi qo'shiqqa qanday qiziqqan edi! Yozning oxirlari, oqshomlari patefoni bor odamlarnikida to'planishar, ularni ko'chaga olib chiqishar, so'ng hammalari qizil durrali zarbdor qiz haqidagi plastinkani qayta-qayta eshitishgani-eshitishgan edi. «Ey qizil durrali to'lin oy, qaynatib bersang-chi menga choy!..» Bu ham ular uchun sotsializm samarasi edi...

— Bizning o'zimiz-chi, esingdami Choro, mitingdan keyin polutorkaga rosa tiqilishgandik — mashina liq to'lgan edi! — eslardi ruhlanib Tanaboy. — Men bayramdagidek, kabina yonida qizil bayroqcha ko'tarib turardim. Biz shunchaki, bekordan-bekorga stansiya tomonga qarab ketdik, u yerdan esa temir yo'l yoqalab boshqa stansiyaga, Qozog'istonga bordik. Parkda pivo ichdik. U yoqqa borishda ham, bu yoqqa qaytishda ham butun yo'l bo'yi hammamiz qo'shiq aytgandik. U yigitlardan hozir oz qoldi — hammasi urushda halok bo'lishdi. Ha... Tunda ham, bilasanmi, bu qizil bayroqchani qo'limdan tushirmagandim, tunda uni kim ko'rardi deysan? Men bo'lsam qo'limdan tushirmay hamon ushlab borardim... Bu mening bayroqcham edi. Tinmay ashula aytardim, hatto xirillab qolgandim, esimda... Nega hozir ashula aytmaymiz-a, Choro?

— Qarib boryapmiz, Tanaboy, endi negadir yarashmaydi ham...

— Yo'q, men buni so'zlayotganim yo'q — biz aytadigan qo'shig'imizni aytib bo'ldik. Xo'sh, yoshlar-chi? Mana men internatda o'g'limning oldiga borib turaman. Qanday ta'lim olarkin u yerda? Hozirdanoq boshliqqa xushomadgo'ylik qilishni biladi. Sen, ada, deydi, maktab direktoriga dambadam qimiz olib kelib tur. Xo'sh, nega? U kishi yomon emas... Qanday qo'shiq aytishlarini tinglab ko'rsang edi. Bolaligimda Aleksandrovkada Yefremovnikida batraklik. qilgandim, bir kuni u diniy bayramda meni cherkovga olib borgandi. Bizning bolalarimiz ham qo'llarini yonlariga tushirib olib, yuzlari toshdek qotgan holda, sahna rus cherkovidagiday ashula aytishadi. Bir xil ashula aytishadi... Menga yoqmaydi bu. Umuman, endi men ko'p narsaga tushunmay qoldim, so'zlashib olsak bo'lardi... Hayotdan ortda qolib ketdim, hamma narsani ham tushunavermayman.

— Mayli, Tanaboy. Boshqa vaqtda gaplashib olarmiz, fursat toparmiz. — Choro qog'ozlarini yig'ishtirib, dala sumkasiga sola boshladi. — Lekin sen ko'p kuyinaverma. Men, masalan, aminman, juda aminmanki, qanchalik qiyin bo'lmasin, baribir qaddimizni rostlab olamiz, orzu qilganimizday yashay boshlaymiz... — dedi u keta turib. Ostonada qayrildi-da, dedi: — Menga qara, Tanaboy, bir kuni men ko'chadan o'tib borayotgandim, sening uying juda huvillab qolibdi. Qarovsiz qoldiribsan uni. Sen doim tog'dasan, uying bo'lsa xo'jasiz.

Jaydar urush yillari yakka-yolg'iz bo'lsa ham uni hozirgidan yaxshiroq saqlagan-di. Bir borib ko'r. Nima kerak bo'lsa aytarsan, bahorda yordamlashib, shikastlarini tuzatib berarmiz. Yozda kanikulga kelgan bizning Shomansur ham g'ayratiga chidamay o'roqni oldi, Tanakaning hovlisidagi yavshonlarni o'rib tashlay, dedi. Suvoqlari ko'chib oynalari singan, chumchuqlar xonalarda xuddi xirmondagiday uchib-qo'nib yuribdi, deydi.

— Uy to'g'risidagi gaping to'g'ri. Shomansurga ham rahmat. Uning o'qishlari qalay?

— Ikkinchi kursda endi. O'qishi, menimcha, yaxshi. Mana sen yoshlarni gapirding, men esa o'g'limga qarab, hozirgi yoshlar yomon emas, degan fikrga keldim. Uning so'zlaridan bildimki, institutdagilar qobil bolalar ekan. Keyin ma'lum bo'lar, yoshlar bilimdon, o'zlari haqida o'ylab ko'rishar.

Choro otxonaga ketdi, Tanaboy esa o'z uyini ko'rgali jo'nadi. Hovlining hamma yerini aylanib chiqdi. Yozda Choroning student o'g'li o'rib tashlagan quruq, changli burgan oyog'i ostida shitirlardi. Uyi egasiz, qarovsiz qolganligidan uyali ketdi. Boshqa chorvadorlarning uylarida qarindosh-urug'leri qolar yoki kimdir qarab turar edi. Uning bo'lsa ikki qadrdon opa-singlisi boshqa ovullarda yashashar, akasi Quliboy bilan munosabatlari yomon edi. Jaydarning esa umuman yaqin qarindoshlari yo'q. Mana shunday qilib, uy qarovsiz qolib ketdi. Tag'in uzoq yaylovda cho'pon bo'lib ishlashga to'g'ri kelyapti. Tanaboy hali ikkilanayotgan bo'lsa ham, Choro baribir uni ko'ndirishini, uning so'zini qaytara olmasligini, har vaqtdagiday rozi bo'lishini bilardi.

Ertalab mashinada ovuldan chiqishdi va tuman markaziga jo'nab ketishdi. Yangi uch tonnali GAZ hammaga yoqdi. «Xuddi podsholariday ketyapmiz-a!» — hazillashishardi molboqarlar, Tanaboy ham xursand edi — u ko'pdan buyon, urushdan beri mashinada yurmagandi. O'shanda Amerikaning «studebeker»larida Slovakiya va Avstriya yo'llarida kezib chiqqandi. Yuk mashinalari kuchli, uch o'qli edi. «Bizga shundaylari kerak edi-da, — o'ylagandi o'shanda Tanaboy. — Ayniqsa, tog' etaklaridan g'allalarni tashib olishga juda bop ekan. Bundaylar hech qayerda tiqilib qolmaydi». Urush tugagandan keyin bizda ham shunaqa mashinalar bo'lishiga ishongandi. G'alabadan keyin hammasi bo'ladi!..

Ochiq kuzov ustida shamolda gap-so'z qovushmasdi. Tanaboy yoshlarga gap qotmaguncha hamma jim borardi:

— Qo'shiq aytinglar, bolalar. Biz keksalarga qarab o'tirmanglar. Kuylanglar, kuylash sizdan, tinglash bizdan.

Yoshlar qo‘shiq boshlab yuborishdi. Boshda ashula qovushmay turdi, keyin esa jonlanib ketdi. Yo‘l yurish zavqliroq bo‘ldi. «Mana bu yaxshi ish bo‘ldi, — o‘ylardi Tanaboy. — Shunday bo‘lgani yaxshi. Eng muhimi, bizni nihoyat to‘plashib, yaxshi ish qilishyapti. Ehtimol, ahvol qanday ekanligi, kolxozni nima qilish kerakligi haqida so‘zlashishar. Bizga qaraganda boshliqlarga ayonroq-ku. Biz faqat o‘zimizni bilamiz, boshqa ko‘p narsani bilmaymiz. Maslahatlar berishar, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishar, qarabsizki, biz ham ishni yangichasiga boshlab yuboribmiz»...

Tuman markazi shovqin-suronli va gavjum edi. Mashinalar, aravalar, juda ko‘p otlqlar klub oldidagi butun maydonni to‘ldirishgandi. Kabobchilar, choyxonachilar ham shu yerda hoziru nozir edilar. Tutatishib, is tarqatishib «kep qoling, yeb qoling» deb kelganlarni chaqirishardi.

Choro kutib turgandi.

— Tezroq tushinglar, yuringlar. Joy ishg‘ol qilinglar. Hademay majlis boshlanib qoladi. Tanaboy, sen qayoqqa?

— Hozir, — dedi Tanaboy bir to‘da miniladigan otlar orasidan o‘tib ketar ekan. U mashinadayoq o‘zining Gulsarisini payqagan, endi unga tomon ketayotgandi. Ko‘klamdan beri uni ko‘rmagandi.

Egarlog‘liq saman yo‘rg‘a o‘zining sariq guldek rangi, keng, pishiq sag‘risi va qop-qora ko‘zli, do‘ng peshonali etsiz boshi bilan boshqa otlardan ajralib turardi.

— Salom, Gulsari, salom! — pichirladi Tanaboy unga tomon turtinib-surtinib borarkan. — Xo‘sh, ahvoling qalay?

Yo‘rg‘a ot ko‘z soqqasini qiyshaytirib qarab, qari xo‘jayinini tanidi, depsinib, pishqirib yubordi.

— Ko‘rinishing yomon emas, Gulsari. Qara, ko‘kraging kengayib to‘lishib ketibdi. Ko‘p chopadiganga o‘xshaysan. O‘shanda sen qiynaliding-a, bilaman... Ha, mayli, yana yaxshi odamning qo‘liga tushibsan. Tinch yursang, hammasi joyida bo‘ladi, — derdi Tanaboy xurjundagi suli qoldiqlarini paypaslab ko‘rib. Demak, Choro uni bu yerda och qoldirmayotgan ekan. — Xo‘p, sen turatur, men boray.

Klubga kiraverishda devorda «Kommunistlar — olg‘a!», «Komsomol — sovet yoshlarining avangardi!» deb yozilgan alvonlar tovlanib turardi.

Odamlar to‘da-to‘da bo‘lib, kelib foye va tomosha zallariga tarqalib ketardi. Eshik oldida Tanaboyni Choro va kolxoz raisi Aldanov kutib olishdi.

— Tanaboy, bir chekkaga chiqaylik, — dedi Aldanov. — Mana yon daftaring. Sen so‘zga chiqishing kerak. Biz seni belgilab qo‘ydik. Sen partiya a‘zosisan, eng yaxshi yilqiboqarimizsan.

- Nima haqda gapirishim kerak?
- Sen kommunist sifatida qoloq uchastkaga borishga qaror qilganligingni ayt. Sovliq qo‘ylar suruviga cho‘pon bo‘lmoqchiligingni gapir.
- Shugina xolosmi?
- Nega shugina! O‘z majburiyatlarini aytasan. Har yuz sovliqdan yuz o‘ntadan qo‘zi olish va saqlab qolishga, har bosh qo‘ydan uch kilogrammdan jun qirqib olishga partiya va xalq oldida majburiyat olaman, deysan.
- Qo‘ylarni ko‘rmagan bo‘lsam men qanday gapiraman?
- Tag‘in gapiradi-ya! Otarni olasan. Choro gapni yumshatdi:
- O‘zingga ma‘qul kelgan sovliqlarni tanlab olasan. Xavotirlanma. Tag‘in ikkita yosh komsomol cho‘ponlarni otaliqqa olaman, deb ham ayt.
- Kimlarni?
- Odamlar turtinib-surtinib o‘tishardi. Choro ro‘yxatni ko‘zdan kechirardi.
- Bo‘latbekov Eshim va Zorliqov Bektoyni.
- Men axir hali ular bilan gaplashmadim-ku, ular bunga nima deyisharkin.
- Tag‘in o‘z bilganingdan qolmaysan-a! — jahli chiqdi raisning. — G‘alati odamsan. Ular bilan gaplashishing shartmi? Baribir emasmi? Ular hech qayoqqa qochib ketishmaydi, biz ularni senga biriktirib qo‘yganmiz, masala hal bo‘lgan.
- Masala hal bo‘lsa, men bilan gaplashib o‘tirishning nima hojati bor? — Tanaboy nari ketdi.
- Shoshma, — uni to‘xtatdi Choro. — Hammasini esda olib qoldingmi?
- Esimda olib qoldim, olib qoldim, — ensasi qotib yo‘lida gap otdi Tanaboy...

### XIII

**K**engash kechga yaqin tugadi. Tuman markazi huvillab qoldi. Odamlar har tarafga: tog‘larga — qo‘y suruvlari va qoramol podalari oldiga, fermalarga, ovul va qishloqlarga tarqalib ketishdi.

Tanaboy ham boshqalar bilan birga Aleksandrovkadagi qirdan oshib, yassi tekislik orqali yuk mashinasida jo‘nab ketdi. Qorong‘i tushib qolgan, shamol badanni junjiktirardi. Kuz. Tanaboy kuzovning burchagiga o‘tirib oldi, yoqasini ko‘tarib o‘z fikrlari bilan band bo‘ldi. Mana, kengash ham tugadi. Uning o‘zi biron bama‘ni gapni ayta olmadi-yu, ammo boshqalarning gapini tinglagandi. Demak, hamma ishlar jo‘nashib ketishi uchun hali ko‘p mehnat qilish kerak



ekan-da. To'g'ri gap aytdi axir anovi ko'zoynakli obkom kotibi: «Hech kim biza yo'lni tap-tayyor qilib qo'ygan emas, o'zimiz uni ochishimiz kerak». Uylab ko'ring-a, o'ttizinchi yillardan beri — goh yuksalish, goh pasayish, goh ko'tarilish, goh ortga qaytish... Demak, kolxoz ishi jo'n ish emas ekan. Mana, o'zining ham yarim sochi oqargan, butun yoshligi o'tib ketdi, nimalarni ko'rmadi, nimalarni qilmadi, necha bor tentaklik ham qildi, baxtli kun ana keladi, mana keladi, deb kutib yuraverasan, lekin kolxozning mashaqqatidan baribir qutulmaysan...

Ha, mayli ishlash kerakmi — demak, ishlash kerak. To'g'ri aytdi kotib — hayot bir mahallar urushdan keyin odamlar o'ylaganidek, hech qachon o'z-o'zidan yurishib ketmaydi. O'zing tirik ekansan, uni doim yelkang bilan itarib yurishing kerak... Faqat u har gal o'tkir qirralari bilan o'girilib qoladi, yelkalarimizning hamma yeri yag'ir bo'lib ketdi. Qilayotgan ishingdan, boshqalarning ishidan ko'ngling to'lsa, bu ishlar baxt keltirsa bu ham mayli edi-ya... Endi ishlari qanday bo'larkin? Jaydar nima derkin? Qizlariga loqaqal konfet olish uchun magazinga bir kirib chiqishga ham ulgur-madi. Har yuztasidan bir yuz o'nta qo'zi, har boshdan uch kilogrammdan jun olish aytishgagina oson. Har bir qo'zi tug'ilishi, uning ustiga yana tirik qolishi ham kerak. Yomg'ir, shamol, sovuq esa unga qarshi turadi. Jun-chi? Jun tolasini olib ko'r, ko'zing ilg'amaydi, puflasang yo'q bo'lib ketadi qo'yadi. Kilogrammlarni qayoqdan olasan? Uh, oltinga baravar-a, bu kilogrammlar. Lekin ba'zilar bularning hammasi qanday olinishini, ehtimol tasavvur ham qila olishmasa kerak...

Ha, Choro uni yo'ldan urdi, adashtirdi... «So'zga chiq, deydi, lekin qisqa qil, o'z majburiyatlariga haqida so'zla. Boshqa hech narsa gapirma. Maslahatim shu». Tanaboy ko'na qoldi. Minbarga chiqdi-yu, yuragi po'killadi, shunday qilib yuragida qaynab-toshib yurgan gaplarni ayta olmadi ham. Majburiyatlari haqida ming'irlab gapirdi-da, tushib ketdi. Eslasang uyalasan. Choro bo'lsa mamnun. Nega u bunchalik ehtiyotkor bo'lib qoldi? Keksaligidanmikin yoki endi kolxozga bosh bo'lmaganidanmikin? Tanaboyni ehtiyot bo'lishga chaqirishning nima keragi bor ekan? Yo'q, u aynigan, negadir o'zgargan! Ehtimol, umr bo'yi rais bo'lib kolxozni sudraganidan, boshliqlar umr bo'yi uni so'kkanlaridandir. Epchillik, ustalik qilishga o'rganib qolganiga o'xshaydi...

«Hap sanimi, to'xtab tur, do'stim, bir kunmas bir kun yuzma-yuz kelganda eslatib qo'yaman men senga...» — o'ylardi Tanaboy po'stiniga yaxshiroq o'ralar ekan. Sovuq shamoli urib turibdi, uygacha hali uzoq. U yoqda nimalar kutayotgan ekan uni?..

Choro yo'rg'a otda yolg'iz jo'nadi. Hamrohlarini kutib o'tirmadi. Uyga tezroq yetib olgisi kelar, yuragi og'riy boshlagandi. Otni o'z holiga qo'yib berdi, u kun

bo'yi dam olganidan endi bir tekis yelib borardi. Bir maromda tuyoqlarini taqilatib ketdi. Avvalgi hamma narsasidan unda faqat chopishgina qolgandi. Boshqa hamma narsa unda allaqachon o'lgan edi. U faqat egaru yo'lnigina bilsin uchun qolgan hamma fazilatlarini yo'qotishgandi. Gulsari chopish bilan tirik edi. Go'yo odamlar tortib olgan narsalarga yetib olmoqchiday, vijdonan, hormay-tolmay chopardi. Chopardi-yu, lekin yetib ololmasdi.

Shamolda Choro bir oz yengil tortdi. Yuragidagi og'riq o'tib ketdi. U kengashdan umuman mamnun edi, ayniqsa, obkom kotibining chiqishi juda yoqdi, u haqda ko'p eshitgan bo'lsa ham birinchi marta ko'rishi edi. Shunday bo'lsa ham partorg o'zini noqulay sezardi. Ko'ngli g'ash edi. Axir u Tanaboyga yaxshilik qilmoqchi edi. Axir u bunday kengashlar, majlislar va yig'ilishlarda qatnashaverib pixi qayrilgan, qayerda nima gapirish keragu, nima kerak emasligini bilardi. Tajribasi bor edi. Tanaboy esa garchand quloq solgan bo'lsa ham, buni tushunishni xohlamadi. Kengashdan so'ng unga bir og'iz ham so'z aytmedi. Mashinaga o'tirdi-yu, teskari o'girilib oldi. Xafa bo'libdi. Eh, Tanaboy, Tanaboy! Soddasan, hayot seni hech narsaga o'rgatmabdi. Sen hech narsani bilmaysan ham, payqamaysan ham. Yoshligingda qanday bo'lsang, shundayligingcha qolibsang. Hamma narsani shartta-shartta qilsang. Zamon bo'lsa hozir boshqacha. Endi hammadan ham muhimi, qanday gapirishni, kimning oldida nima gapirishni bilish, so'zing barcha odamlarniki singari zamon ruhida jaranglashi, ajralib turmasligi, yozilganday silliq bo'lishi kerak. Shunda hamma narsa joyida bo'ladi. Seni, Tanaboy, ko'nglingning ko'chasiga qo'yib yuborsang bormi, hamma narsani ag'dar-to'ntar qilib tashlaysang, yana javob berishga ham to'g'ri keladi. «O'z tashkilotingiz a'zolarini siz qanday tarbiyalamoqdasiz? Bu qanaqa tartib-intizom? Bu qanaqa boshboshdoqlik?» Eh, Tanaboy, Tanaboy...

#### XIV

**H**amon o'sha tun, ular ikkisi yo'lda. Qari odam va qari ot. Jarlik yoqasida gulxan yonmoqda. Tanaboy o'rnidan turadi, jon berayotgan Gulsari ustiga yopgan po'stinini nechanchi bor to'g'rilab qo'yadi. Yana uning bosh tomoniga o'tiradi. U xayolan butun umrini birma-bir nazardan o'tkazadi. Saman otning chopishidek tez o'tgan yillar, yillar, yillar. O'shanda u qo'ylarga cho'pon bo'lib borgan o'sha yili, o'sha kech kuzda, o'sha erta qishda nima bo'lgandi?..

**B**utun oktyabr oyi tog'larda qurg'oqchilik bo'lib, hamma yoq oltin tusga kirgan edi. Boshda faqat ikki kungina yomg'ir yog'ib, havo sovudi, tuman tushdi. Ammo keyin bir kechada bulutlar tarqalib ketdi, ertalab Tanaboy o'tovidan chiquvdi, orqasiga tisarilib ketishiga sal qoldi — tog'lar cho'qqilaridagi yangi qorlari bilan u tomon bosib kelayotganday edi. Ularga qor qanday yog'ibdi! Go'yo tangri hozirgina yaratganday, ular falakda musaffoligicha, soyada ham, yorug'liqda ham yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Qor yog'gan joydan ko'm-ko'k bepoyon bo'shliq boshlanardi. Uning tubida olis-olislardan koinotning xayoliy zumrad ufqi ko'rinib turardi. Nur va sof havoning mo'l-ko'lligidan Tanaboy junjikib ketdi va yuragi hasratga to'ldi. U yana Gulsari bilan birga borgan huv o'sha juvonnini esladi. Yo'rg'a qo'l ostida bo'lsa edi, minardi-da, zavq-shavqi va shodligidan qiyqirib, mana bu ertalabki oppoq qor kabi uning huzuriga kirib borardi...

Ammo u bu faqat orzugini ekanligini bilardi... Nimayam qilardi, umrning yarmi orzu-xayol bilan o'tadi, shuning uchun ham, ehtimol, hayot shunchalik lazzatli, orzu qilganlarining hamma-hammasi ham ro'yobga chiqavermaganligi uchun ham, ehtimol, azizdir bu hayot. U tog'lar va osmonga tikilib turib, hamma odamlarning bir xil darajada baxtli bo'la olishiga shubhalanardi. Har kimning o'z taqdiri — qismati bor. Unda, bir tog'da bir paytning o'zida ham yorug'lik, ham qorong'ilik bo'lganidek o'z quvonchlari, o'z g'amu g'ussalari bo'ladi. Hayot shular bilan to'la-to'kis... U juvon, ehtimol, endi kutmayotgandir ham. Tog'lardagi yangi qorni ko'rib eslagan bo'lmasa agar...

Odam qarib boraveradi, ko'ngil esa taslim bo'lishni xohlamaydi, ahyon-ahyonda bir ijirg'anib, o'zini eslatib qo'yadi.

Tanaboy otni egarladi, qo'ylar qo'rasini ochdi, o'tovning ichiga qarab xotini-ga qichqirdi:

— Jaydar, men qo'ylarni bir aylantirib kelay, sen ishlaringni qilib bo'lgunigacha qaytib kelaman.

Qo'ylar mayda qadam tashlab tez-tez yurib ketishdi, qo'ylar yelka, boshlarini qimirlatib tepalikka qarab ko'tarilib borardi, qo'shni cho'ponlar ham qo'ylarini haydab chiqq boshlashgandi. U yer-bu yerda tog' yonbag'ri, pastliklar, jarliklarda qo'y suruvlari yer-zaminning azaliy tortig'i — o't-o'lanlarni tera boshladi. Kuzgi tog'larning sarg'ish, qo'ng'ir rang o't-o'lanlari orasida kul rang, oqish qo'ylar to'da-to'da bo'lib daydib yurishardi.

Hozircha ishlar joyida edi. Tanaboyga yomon otar tegmadi — ular ikki va uch marta qo'zilagan sovliqlar edi. Yarim ming bosh. Yarim ming tashvish. Qo'zilagandan keyin esa ular ikki baravardan ziyodroq ko'payadi. Lekin qo'zilatishga, cho'ponlarning mashaqqatli mehnati boshlanishiga hali uzoq edi.

Yilqilarga qaraganda qo'ylarni boqish ancha tinchroq, albatta, lekin Tanaboy ularga darrov ko'nika qolmadi. Otlarni boqish boshqacha edi-da! Ammo, aytishlaricha, yilqichilik o'z ahamiyatini yo'qotgan emish. Mashinalar paydo bo'lganmish. Otlar endi, demak, foydasiz bo'lib qolibdi-da. Endi qo'ychilik: jun, go'sht, teri — asosiy narsa. Garchand bunday oqilona hisob-kitobda haqiqat borligini tushunsa ham, u Tanaboyga qattiq botardi.

Yaxshi ayg'iri bo'lgan uyurini goh paytlarda vaqtincha, yarim kunga, yoki undan ham ko'pga tashlab ketib, o'z ishlari bilan band bo'lsa bo'lardi. Qo'ylarni esa tashlab hech qayoqqa ketib bo'lmaydi. Kunduzi bir qadam ham jilmay ular bilan birga yurish, tunda qorovullik qilish kerak. Cho'pondan tashqari otarda cho'liq bo'lishi kerak edi, lekin cho'liq berishmayotgandi. Shuning uchun navbat almashmay, dam olmay, tinimsiz ishlashga to'g'ri kelardi. Jaydar qorovul hisoblanardi, kunduzi faqat ba'zi vaqtlardagina qizlari bilan qo'ylarga qaray olardi, tun yarmiga qadar miltiq bilan qo'ra atrofiga aylanib yurardi, keyin Tanaboyning o'ziga qorovullik qilishga to'g'ri kelardi. Endi kolxozdagi butun chorvachilikka xo'jayin bo'lgan Ibrohim bo'lsa bahona topishga usta edi.

— Xo'sh, men qayerdan olaman cho'liqni, Tanaka? — derdi u kuyinganday bo'lib. — Aqlli odamsiz-ku, axir o'zingiz. Yoshlarning hammasi o'qimoqda. O'qimayotganlari esa qo'y desangiz tepa sochi tikka bo'ladi, ular shaharga, temir yo'lga, hatto allaqayoqlardagi konlarga ham ketib qolishmoqda. Nima qilishga aqlim yetmay qoldi. Sizda hammasi bo'lib birgina otar — shunda ham oh-voh qilasiz. Men-chi? Butun chorvachilik mening bo'ynimda. Sudga tushaman. Bu ishga behuda o'tgan ekanman, behuda. Siz otaliqqa olgan Bektoygga o'xshash kishilar bilan ishlab bo'larmidi? Sen, deydi, meni radio, kino, gazetalar bilan ta'minla, yangi gov ber, tag'in har haftada oldimga magazin kelib tursin. Bo'lmasa boshim oqqan tomonga ketaman-qolaman, deydi. Siz u bilan gaplashsangiz bo'lardi, Tanaka!..

Ibrohim aldamayotgandi. Uning o'zi ham yuqorilashib ketganidan xursand emasdi. Bektoy haqidagi gapi ham to'g'ri edi. Tanaboy ba'zan bir amallab vaqt topib, otaliqqa olgan komsomollari oldiga borib turardi. Eshim Bo'latbekov gar-

chand unchalik epchil bo'lmasa ham ko'ngilchan, yumshoq tabiatli yigit edi. Bektoy esa chiroyli, kelishgan edi, ammo uning qora qiyiq ko'zlaridan g'azab o'ti chaqnaq turardi. U Tanaboyni qovoq osib kutib olardi, unga:

— Sen, Tanaka, kuyib-pishaverma, yaxshisi, o'z bolalaring oldida o'tir. Sensiz ham meni tekshiruvchilar ko'p.

— Senga nima, bir narsa yutqizyapsanmi bundan?

— Yutqizishga yutqizmaymanu, lekin senga o'xshaganlarni yoqtirmayman. Sizlar, o'zingizni suvga ham, o'tga ham urgansizlar. Doim haybarakallachilik, «ura, ura! qilgansizlar. O'zingiz bo'lsa odamday hayot kechirmadingiz, o'zgalarni ham odamday yashashiga yo'l qo'ymadingiz.

— Sen, yigit, juda ham haddingdan oshaverma, — Tanaboy zo'r-bazo'r o'zini tutib ijirg'anib gapirdi. — Qo'lingni menga bigiz qilib gapirma. Bu sening ishing emas O'zini suvga ham, o'tga ham urgan sen emas, biz bo'lamiz. Afsuslanmaymiz ham bundan. Sizlarni deb o'zimizni o'tga, suvga tashlaganmiz. Shunday qilmaganimizda edi, ko'rardim hozir ahvoling nima bo'lishini. Kino ko'rish, gazeta o'qish ham gapmi, o'z otingni ham bilmagan bo'larding. Uch harfdangina iborat birgina «qul» degan oting bo'lardi sening...

Tanaboy Bektoyini yoqtirmasdi, lekin mana shu to'g'ri so'zligi uchun uni ichidan hurmat qilardi. Bektoyning fe'l-atvori aynib borayotgandi. U yigitning egri yo'lga kirib ketayotganligini ko'rib, Tanaboy achinardi. Keyinchalik ularning yo'llari ajralib ketib, shaharda tasodifan uchrashib qolganlarida Tanaboy unga hech narsa demadi, uning so'zlarini tinglab o'tirmadi ham.

\* \* \*

O'sha erta tushgan qish kunlari edi...

Qish o'zining oppoq qahrli tuyasida tez yelib-yugurib kelib, cho'ponlarning beg'amligi uchun jazolay ketdi.

Butun oktyabr oyi quruq kelgandi, hamma yoq oltin tusga kirgandi. Noyabr oyida esa birdaniga qish tushib qoldi.

Tanaboy kechqurun qo'ylarni haydab kelib, ularni qo'raga qamadi, hamma narsa go'yo o'z joyidagidek edi. Ammo tun yarmida uni xotini uyg'otib qoldi:

— Tur, Tanaboy, men juda sovqotib qoldim. Qor yog'yapti.

Uning qo'llari muzday edi, hamma yeridan qor hidi kelardi. Miltiq ham nam va sovuq edi.

Hovlida oqish tun. Qor gupillab yog'yapti. Qo'ylar qo'ralarda bezovtalanib yotishardi, qorga ko'nikmaganliklaridan silkinishar, kallalarini chayqashar, qor bo'lsa hamon shig'ab yog'ardi. «Shoshmanglar, hali siz bilan bizning boshimizga bundan ham battarroq kunlar keladi, — deb o'yladi Tanaboy po'stiniga o'ralib. — Erta, juda erta kelding sen qish. Oqibati nima bo'larkin, yaxshilikmi, yomonlikmi? Balki keyinchalik yumshab qolarsan, ha? Faqat qo'ylar qo'zilaguncha o'tib ketsang bo'lgani. Bor iltimosimiz mana shugina, xolos. Hozircha esa o'z bilganingni qilaver. Bunga haqqing bor, hech kimdan so'ramasang ham bo'ladi...»

Qish indamay qorong'ida, odamlar uh tortib, u yoqdan, bu yoqqa yugurgilab qolsin deb o'z ishini qilar edi.

Tog'lar tunda qorayib bahaybat turishardi. Ular qishni pisand qilmasdi. Anovi cho'ponlar suruvlari bilan yelib chopaverishsin. Tog'lar esa qanday turgan bo'lsa, shunday turaveradi.

Esdan chiqmaydigan o'sha qish boshlandi, ammo uning oqibatini kim bilsin?

Qor erimay yotardi, bir necha kundan so'ng yana gupillab yog'ib berdi, keyin yana, yana yog'di va cho'ponlarni kuzgi manzillaridan haydab tushirdi. Otarlar daydib, tarqalishib, daralar, ovloq joylar, kam qorli yerlarga bekina boshladilar. Cho'ponlar o'z hunarlarini — boshqa bir odam bu yerda qordan bo'lak hech narsa yo'q, deb qo'l siltab ketgan joylardan otarlarga yem-xashak izlab topib berish hunarlarini ishga solishdi. Shuning uchun ham ularni cho'pon deyishadi-da... Ba'zan biron boshliq kelib qarab turadi-da, uni-buni surishtiradi, bir dunyo narsani va'da qiladi va darhol tog'dan jo'nab qoladi. Cho'pon bo'lsa yana yolg'iz o'zi qish bilan yuzma-yuz qoladi.

Kolxozdagilar qo'zilatishni qanday o'tkazish haqida nima o'ylayotganliklarini, hamma ishlar qilinganmi, hamma narsa jamg'arilganmi — shularni bilish uchun Tanaboy ko'pdan beri kolxozga bir amallab borib kelmoqchi bo'lardi. Ammo qayoqda deysiz! Bosh qashishga ham qo'li tegmasdi. Jaydar bir kuni internatga o'g'lining oldiga borib keldi, lekin u yerda uzoq turmadi: usiz juda qiyin bo'lishini bilardi, Tanaboy o'shanda qizlari bilan qo'ylarni boqardi. Kichik qizini egarning oldiga o'tqizib, po'stin bilan o'rab olardi, u issiqda tinch edi, kattasi esa sovqotardi, u otasining orqasida o'tirardi. Hattoki o'choqdagi olov ham boshqacha bo'lib g'aribona yonardi.

Ertasiga onalari qaytganda esa nima bo'ldi deng-a! Bolalar uning bo'yniga tashlanishdi, kuch bilan ajratib olishga to'g'ri keldi. Ha, ota albatta ota-yu, lekin onaning o'rni boshqa.

Vaqt shu zaylda o'tib borardi. Havo o'zgarib turadi, goh qish qahriga olar, goh bir oz yumshardi, ikki marta bo'ron ham bo'ldi, keyin tinchib, yerlar eriy boshladi. Tanaboyni xuddi mana shu narsa tashvishlantirardi. Qo'ylarning qo'zilashlari iliq kunlarga to'g'ri kelsa yaxshi-ya, agar to'g'ri kelmasa-chi, unda nima bo'ladi?

Bu orada qo'ylarning qorinlari tobora kattalashib borardi. Bolasi yirik yoki egizak bo'lgan ayrim sovliqlarning qorinlari osilib qolgan edi. Sovliq qo'ylar ehtiyotkorlik bilan zo'r-bazo'r qadam tashlashardi, juda ozib ketishgandi. Orqa suyaklari turtib chiqib qolgandi, Hayron qoladigan joyi ham yo'q buning — bola qorinda o'sib, onasining bor-yo'g'ini so'rib yetilib-to'lishardi, bu yerda bo'lsa har bitta o'tni qor ostidan timirskilab topish kerak. Cho'pon qo'ylarni ertalab va kechqurun qo'shimcha boqsa, toqqa yem-xashaklar keltirsa bo'lardi-yu, lekin kolxoz omborlarida hech narsa topilmasdi. Urug'liklar va aravaga qo'shiladigan, miniladigan otlar uchun asrab qo'yilgan sulidan bo'lak hech narsa yo'q edi.

Tanaboy har kuni ertalab qo'ylarni qo'ralardan haydab chiqarayotganda sovliqlarni ko'zdan kechirar, qorni, yelinini paypaslab ko'rar edi. Agar hamma baloqazolardan sog'-omon chiqarsa, chamalab qo'zilar bo'yicha majburiyatini bajarishi, jun bo'yicha bajara olmasligiga ko'zi yetardi. Qish ichida qo'ylarning juni yomon o'sdi, ba'zilariniki hatto siyraklashib qoldi, to'kila boshladi, ularni yanada yaxshiroq boqish kerak edi. Tanaboyning qosh-qovog'i osilardi, g'azablanardi, ammo hech narsa qila olmasdi. Shunda Choroning so'ziga kirgani uchun o'zini eng yomon so'zlar bilan koyirdi. Va'dani katta berdi. Minbarga chiqib gapirdi. «Men, falonchi-pistonchi ilg'or odam, partiya va vatan oldida so'z beraman». Lo-aqal mana shu keyingi so'zlarni gapirma ham bo'lardi! Partiya va vatanning bunga nima daxli bor-a! Odatdagi xo'jalik ishi. Yo'q, tartib-qoida shunday. Nega endi kerak bo'lsa-bo'lmasa, biz har qadamda shu so'zlarni tiqishtiraveramiz, a?..

Nima ham qilardi, o'zi aybdor. O'ylab ko'rmagan. O'zgalarning gapi bilan ish qiladigan bo'lib qolgan. Ularga nima, aldab-suldab qutulib olishadi, lekin Choroga rahming keladi. Hech omadi kelmayapti-da, uning. Bir kun sog' bo'lsa, ikki kun kasal. Umr bo'yi u yoqqa yuguradi, bu yoqqa yuguradi, unga yalinadi, buni ko'ndiradi, xo'sh, nimaning uddasidan chiqdi? Ehtiyotkor bo'lib boryapti, so'zni tanlab gapiradi. Modomiki kasal ekansan, dam olishga chiqsang ham bo'larmidi...

Qish cho'ponlarni goh umidlantirib, goh tashvishlantirib o'z maromida bora-yotgandi. Tanaboyning otarida ikki sovliq quvvatdan ketib halok bo'ldi, juda nimjon bo'lib qolgan ekan. Uning otalig'idagi yosh cho'ponlarning ham bir nechta-

dan qo'ylari o'ldi. Busiz bo'lmaydi ham. Bir qish ichida o'n sovliqni yo'qotish oddiy narsa. Eng muhimi oldinda, ko'klam arafasida.

Birdan havo iliy boshladi. Sovliqlarning yelinlari darrov to'lisha boshladi. Oriqlab ketishgan, qorinlarini zo'rg'a ko'tarib yurishgan bo'lsa ham, emchaklari esa kun sayin emas, soat sayin qizarib, shishib borardi. Nima sababdanikin? Qayoqdan bunchalik kuch-quvvat olishadi-ya! Kimningdir bir necha sovliqlari qo'zilab qo'yibdi, degan ovoza tarqaldi. Demak, qochirish davrida e'tiborsizlik, beparvolik qilingan zkan-da. Bu birinchi ogohlantirish edi. Bir-ikki haftadan keyin qo'zilar pishgan olmadek «tap-tap» tusha boshlaydi. Qabul qilib olishga ulgursang bas. Shunda cho'ponlarning tashvishlar pallasi boshlanadi. Har bir qo'zi uchun cho'pon titrab turadi va qo'ylar ketidan yura boshlagan kunini la'natlaydi, agar barra qo'zichoqni saqlab qola olsa, agar qo'zilar oyoqqa turib, qishga qadar dumlari ko'rinish qolsa uning shodlik-quvonchlarining cheki bo'lmaydi.

Shunday bo'lsa, yaxshi bo'lardi. Keyinchalik odamlardan ko'zini yashirib yurmas edi.

Qo'zilatish davrida yordam uchun kolxozdan saqmonchilarni — ko'pchiligi qari va bolasiz bo'lgan ayollarni o'z hollariga qo'ymay yuborishdi. Tanaboyning otariga ham ikki saqmonchini jo'natishdi. Ular ko'rpa-to'shaklari, chodirlari, qozon-tovoqlari bilan kelishdi. Hammaning ko'ngli ko'tarildi. Saqmonchilardan kam deganda yetti kishi kerak edi. Ibrohim otarlar Beshtol vodiysidagi qo'zilatish punktiga ko'chganida yana saqmonchilar yuborishni va'da qilib, hozircha shularning o'zi ham kifoya, degandi.

Otarlar g'imirlab qolishdi, pastroqqa, tog' yonbag'irlariga, qo'zilatish bazalariga tusha boshlashdi. Tanaboy o'zi qo'ylarni haydab borguncha ayollarning manzilga yetib, u yerda o'rnashib olishlariga yordam berishni Eshim Bo'latbekovdan iltimos qildi. Ayollarni bir karvon qilib jo'natdi, o'zi esa qo'ylarni to'pladi-da, bo'g'oz sovliqlar qiynalmasliklari uchun ularni o'z yurishiga qarab, bamaylixtir haydab ketdi. Keyinchalik Beshtol vodiysiga olib boradigan xuddi shu yo'lni tag'in ikki marta bosib o'tishi, otalig'idagi cho'ponlarga ko'maklashishi kerak edi.

Qo'ylar asta-sekin jilib borishardi, ularni shoshirib bo'lmardi. Hatto it ham zerikib ketdi, u yoqdan-bu yoqqa izg'ib chopa boshladi.

Quyosh bota boshlagandi, ammo hali tafti bor edi. Suruv tog' etaklariga tushgan sari havo shunchalik isiy boshlardi. Kungay joylarda o'tlarni o'ra boshlagan edilar.



Yo'lda bir oz to'xtab qolishdi, birinchi sovliq qo'zilab qo'ydi. Buni hech kim kutmagan edi, Tanaboy kuyib-pishib, yangi tug'ilgan qo'zining quloq va burun kovaklariga pufldardi. Qo'zilashga ham bir haftacha vaqt bor edi. Bu tomdan tushgan tarashaday bo'ldi.

Ehtimol, yo'lda tag'in qo'zilab qolishar? Boshqa sovliqlarini ko'zdan kechirdi, yo'q, unaqaga o'xshamaydi. Xotirjam bo'ldi, keyin hatto kayfi chog' bo'lib ketdi. Uning birinchi qo'zichog'iga qizlari o'zlarida yo'q quvonishar, to'ng'ich doim aziz bo'ladi-yu. Qo'zichoq ham yaxshigina edi. Kipriklari qora, tuyoqlari qora, o'zi oppoq. Otarida bir nechta yarim dag'al junli qo'ylar bor edi, xuddi ana shulardan biri qo'ziladi. Ularning qo'zilari odatda mayin junli qo'ylarning deyarli qip-yalang'och tug'iladigan qo'ylaridan farqli o'laroq baquvvat junli bo'lishardi.

— Ha, mayli, shoshilgan ekansan, ana, yorug' dunyoni ko'rib ol, — dedi Tanaboy. — Ham bizga baxt-saodat keltir! O'zingga o'xshagan qo'zichoqlardan shuncha ko'p ergashtirib keltirgilki, qadam bosishga joy topilmasin, sizlarning ovozlarigizdan quloqlarimiz bitib ketsin, hammasi tirik qolsin. — U qo'zichoqni boshi uzra ko'tardi. — Qarab qo'y, qo'ylar homiysi, mana u, to'ng'ich qo'zichoq, bizga madad ber!

Tevarak-atrofdagi tog'lar turar, ular sukut saqlashardi.

Tanaboy qo'zichoqni po'stini ostiga yashirdi va qo'ylarni haydab ketdi. Ona sovliq izma-iz chopar, bezovtalanar, ma'rar edi.

— Yur, ketdik! — dedi unga Tanaboy. — U shu yerda, hech qayoqqa ketmaydi. Po'stin ostida qo'zichoq quridi, isinib oldi,

Tanaboy otarni bazaga kechgacha yaqin haydab keldi.

Hamma joyida edi, o'tovdan tutun o'rmalardi. Chodir oldida saqmonchilar ivirsib yurishardi. Demak, bir amallab kelib olishibdi. Eshim ko'rinmasdi. Ha, rostdanam, u ertaga o'zi ko'chib kelish uchun yuk tashuvchi tuyani olib ketuvdi. Hammasi joyida.

Lekin Tanaboyning keyinchalik ko'rgan narsasi uni kuppa-kunduzi bo'lgan momaguldurakday larzaga soldi. U hamma narsa yaxshi bo'ladi, deb o'ylamagandi, ammo sovliqlar qo'zilaydigan qo'yxonaning qamish tomi chirib, o'pirilib tushganini, devorlari teshilib, derazasiz, eshiksiz bo'lishini, shamol u chekkasidan kirib, bu chekkasidan chiqayotganini xayoliga ham keltirmagan edi. Atrofdagi qorlar deyarli erib ketgan, qo'yxona ichida esa hamon uyulib yotardi.

Qachonlardir xarsang toshlardan qurilgan qo'ra ham xaroba, vayrona holda yotardi. Tanaboy shu qadar xafa bo'lib ketdiki, qizlari qo'zichoqni ko'rib qanday

xursand bo'layotganlari ko'ngliga sig'madi. Qo'zichoqni ularning qo'liga berdida, tevarak-atrofnini ko'zdan kechirgani ketdi.

Qayergaki qadam qo'ymasin — hamma yerda toqat qilib bo'lmas darajada xo'jasizlik. Urush boshlangandan beri bu yerda barcha narsa o'z holiga tashlab qo'yilgan, sovliqlarni qo'zilatishni bir amallab eplashtirib, keyin hammasini yomg'ir va shamolga tashlab ketaverishgan bo'lishsa kerak. Saroy tomi ustida bir g'aram chirigan xashak qiyshayib turardi, sochilgan somon uyumlari yotardi, agar burchakdagi ikki chala qop arpa uni, bir yashik tuzni hisobga olmaganda, butun otardagi qo'zichoqlar hamda sovliqlarga atalgan yem-xashak va to'shama-ning bori mana shugina edi, xolos. Shu burchakning o'zida shishalari singan bir necha fonus, kerosinli, zanglagan bidon, ikki bel va siniq panshaxalar tashlab qo'yilgandi. Mana shularning hammasiga kerosin quyib, yondirib kulini ko'kka sovurgisi va bu yerdan boshi oqqan tomonga ketib qolgisi keldi...

Tanaboy o'tgan yilgi go'ng va qorning yaxlab qolgan uyumlariga qoqilib-suqilib yurar va nima deyishini bilmas edi. So'z topa olmasdi. Xuddi aqldan ozgan kishiday «Shunday bo'lishi mumkinmi, a?.. Shunday bo'lishi mumkinmi, a?..» deb takrorlagani takrorlagan edi.

Keyin esa qo'yxonadan yugurib chiqib, otini egarlashga otildi. Egarlayotganida qo'llari titrardi. Hozir u anovi yoqqa otini yeldirib ketadi, tun yarmida hammani oyoqqa turg'izadi va ularga ko'rsatib qo'yadi. Anovi Ibrohimni ham, rais Aldanovni ham, Choroni ham yoqasidan tutadi: undan rahm-shafqat kutishmasin! Ular Tanaboyga shunday qilishdimi — undan ham yaxshilik ko'rib bo'lishibdi! Bo'ldi, tamom!..

— Qani, to'xta-chi! — jilovni ushlab olishga ulgurdi Jaydar. — Qayoqqa ket-yapsan? Otdan tush, gapimga quloq sol!

E, qayoqda deysiz! Tanaboyni to'xtatib bo'psiz.

— Qo'yib yubor! Qo'yib yubor! — baqirardi u jilovni tortib, xotining ustiga ot surib, qamchinini qarsillatib. — Qo'yib yubor, deyaqman! Men o'ldiraman ularni! Men o'ldiraman!

— Qo'yvormayman! Sen biron kishini o'ldirgning kelyaptimi? Meni o'ldir!

Shu orada Jaydarga saqmonchilar ko'makka yugurib kelib qolishdi, qizlari chopib kelishdi, qiy-chuv ko'tarishdi.

— Ota! Ota! Qo'ying!

Tanaboy jahldan tushdi, lekin hamon ketmoqchi bo'lib yulqinardi.

— Ushlama meni, axir sen ko'rmayapsanmi bu yerdagi ahvolni? Huv anovi qo'zichoqlar bilan turgan sovliqlarni ko'rmayapsanmi axir? Ertaga biz ularni qa-

yoqqa qo'yamiz, tom qani? Yem-xashak qani? Hammasi harom o'ladi. Kim javob beradi? Qo'yvor!

— He, to'xtasang-chi, to'xta. Xo'sh, mayli, bording ham deylik, baqirib-chaqirib janjal-to'polon qilding ham deylik. Xo'sh, bundan nima chiqadi? Agar ular shu kunga qadar hech narsa qilishmagan bo'lsa, demak, ularning bunga kuchlari yetmabdi-da. Agar iloji bo'lganda kolxoz yangi og'ilxona qurgan bo'lmasmidi?

— Tomini yopish mumkin edi-ku! Eshiklari qani? Derazalari qani? Hamma yoq vayrona, qo'yxonada qor, o'n yillik qiy chiqarilmagan. Buni qara, bu chirik xashak qancha vaqtga yetadi? Axir qo'zichoqlarga shunaqa pichan beriladimi? Qo'y-qo'zilar tagiga nima to'shaymiz? Qo'zichoqlar balchiqqa botib o'laverishsinmi, a? Shundaymi, seningcha? Qoch, yo'limni to'sma!

— Bo'ldi, Tanaboy, o'zingni bos. Nima, sen hammadan ortiqmisan? Ko'pchilik nima bo'lsa, biz ham shu-da. Tag'in seni erkak deyishadi-ya! — Uyaltirdi xotini. — Yaxshisi, nima qilish mumkinligini o'ylab ko'r, hali ham kech emas. «Tuf» de ularga. Biz javobgarmiz, biz shu ishni qilishimiz kerak. Men huv anovi jarlikka tushaverishda qalin o'sgan na'mataklarni ko'rdim, to'g'ri, tikanakli-yu, lekin ularni chopib tomni bekitsa bo'ladi, ustidan go'ng tashlaymiz. Qo'y-qo'zilar tagiga esa quvray o'rishga to'g'ri keladi. Agar havo aynib qolmasa, bir amalab qishdan chiqib olamiz...

Saqmonchilar ham Tanaboyni tinchita boshlashdi. U egardan sirg'alib tushdi, xotin-xalajlarga parvo qilmay, o'tovga kirib ketdi. Xuddi og'ir kasallikdan turganday boshini xam qilib o'tirdi,

Uyda hamma jimib qoldi. Gaplashgani qo'rqishardi. Jaydar tezak yoqib qaynatilgan qumg'onni oldi-da, achchiq qilib choy damladi. Ko'zada suv keltirib erining qo'lga suv quydi. Ozoda dasturxonni yozdi, hatto qayoqdandir qantqurslar ham topib keltirdi, likobchaga sariyog' to'g'rab qo'ydi. Saqmonchilarni taklif qilishdi va choy ichishga o'tirishdi. Eh, bu xotinlar-ey! Go'yo mehmonga kelishganday piyolalardan choy ichib har baloni gapirib o'tirishardi. Tanaboy jimgina o'tirib, choy ichdi-da, so'ng o'tovdan chiqib qo'y qo'raning qulab tushgan toshlarini qalay boshladi. Bu bitadigan ish emasdi. Lekin qo'ylarni tunda qamash uchun biron narsa qilish kerak-ku. Ayollar ham chiqishib, toshlarga yopishishdi. Hatto qizaloqlar ham toshlarni ko'tarib keltirish uchun chiranishardi.

— Uyga jo'nanglar, — dedi ularga otasi.

U nomus qilardi. Ko'zlarini yerdan ko'tarmay tosh tashirdi. Haq gapni aytgandi Choro, Jaydar bo'lmaganida Tanaboy bechora boshini omon saqlay olmasdi,

**F**rtasiga Tanaboy o'z otalig'idagi cho'ponlarni ko'chirib kelishga ketdi. Keyin butun hafta bo'yi tinmay ishladi. U hatto shunday qattiq ishlaganini eslay olmasdi. Axir frontda mudofaa liniyasini kecha-yu kunduz uxlamay qurgan emasmi. Biroq u yerda polk bilan, diviziya bilan, armiya bilan birga edi. Bu yerda-chi, o'zi, xotini va saqmonchilardan biri. Ikkinchisi yaqin oraga qo'ylarni yoygani ketgan edi.

Hammadan ham qo'yxonani go'ngdan tozalash, na'mataklarni kesib keltirish qiyin bo'ldi. Butazor qalin bo'lib, turgan-bitgani tikan edi. Tanaboyning etigi yirtilib, eskirib qolgan askarcha shineli ham ilma-teshik bo'lib ketgan edi. Kesilgan na'matak shoxlari arqon bilan bog'lanib sudrab keltirilardi; tikanli bo'lganidan na otga ortib, na orqalab bo'lardi.

— Beshtol vodiysi emish, undan beshta to'nkani ham izlab topolmaysan. — So'kinardi Tanaboy. Bu la'nati na'matakni ikki bukilib egilib, terga botib tashiyverganlaridan yo'l to qo'y qo'ragacha tirmalab tashlangan edi, Tanaboy xotin-qizlarga achinardi, biroq iloj qancha. Ular xavotirda ishlashardi, ish orasida goh-goh havoga ham qarab qo'yish zarur edi. Havoning avzoyi qalay? Qor urib bersa bularning hammasi bir pul. U qo'ylar qo'zilib qolmadimikan deb, xabar olib kelish uchun katta qizini otarga yugurtirdi.

Qo'yxonani go'ngdan tozalash ham og'ir edi. Bu yerda shunchalik ko'p go'ng bor ediki, uni yarim yil ichida ham tashib chiqarish mumkin emas edi. Agar qo'y qiyi yaxshi tom ostida quruq va shibbalangan bo'lsa, uni qirqish ham ko'ngilli bo'ladi. Bir-biriga zichlashib, qotib qolgan qiyni kessang, palaxsa-palaxsa chi-qadi. Ularni quritish uchun katta-katta uyum qilib taxlab qo'yiladi. Qo'y qiyining cho'g'i yoqimli va beg'ubor bo'ladi, qish sovg'ida cho'ponlar uni yoqib isinadilar. Ammo go'ng, bu yerdagidek, yomg'ir yoki qor ostida qolgan bo'lsa, u holda buni tozalashdan ham og'irroq ish yo'q; tinkani quritadigan ish. Vaqt esa kutib turmaydi. Kechalari is bosgan fonar yorug'ida ular bu muzdek, yopishqoq, qo'rg'oshinday og'ir balchiqni zo'r berib zambilda tashir edilar. Mana, ularning ikkinchi sutka ishlashlari.

Qo'yxona orqasiga kattakon go'ng uyumini tashib chiqarishgan edi, qo'yxonaning ichi hali go'ng bilan liq to'la. Kutib turgan qo'zichoqlar uchun, hech bo'limganda, qo'yxonaning biron burchagini ochishga shoshilishardi. Ona-bola qo'ylarning hammasini joylashtirish uchun butun bir qo'yxona torlik qilib turgan paytda,

bir burchagini ochish nima degan gap, — kuniga yigirmatadan, o'ttiztadan qo'ylar qo'zilayotgan bo'lsa! «Nima bo'ladi?» — faqat shu haqda o'ylardi Tanaboy, zambilga go'ngni solishda ham, tashiyotganda ham, uni to'kib qaytib kelayotganda ham. Shu tarzda yarim kechadan to tong otarga qadar hadeb o'ylagani-o'ylagan. Gangib qolib, qo'llari uvushdi. Buning ustiga shamol fonarni o'chirardi. Yaxshiki, saqmonchilar zorlanmadi, Tanaboy va Jaydar singari ishlashdi.

Oradan bir kun o'tdi, ikki, uch kun o'tdi va hokazo. Ular esa hamon go'ngni tashir, devor va tom teshiklarini berkitar edilar. Bir kun kechasi Tanaboy qo'yxonadan zambil bilan chiqayotib otarda qo'zichoqning ma'ragani va ona qo'yning bezovtalanib, unga javoban oyoq tepishini eshitdi. «Boshlandi!» — yuragi shuv etib ketdi.

— Eshityapsanmi? — xotiniga o'girilib qaradi Tanaboy.

Ular birdan go'ng solingan zambilni oyoqlari ostiga tashlab, fonarni ushlaganlaricha otar tomon yugurishib qolishdi. Fonarning xira nurida qo'y galasini timirskilab qaray boshlashdi. Qayoqda u? Huv ana, burchakda! Sovliq qo'y hozirgina tug'ilib qaltirab turgan uvoqqina qo'zichoqni yalab turgan edi. Jaydar uni bariga solib oldi. Yaxshiyam o'z vaqtida ulgurishdi, bo'lmasa qo'rada muzlab qolgan bo'lardi. Ularning yonginasida yana bir sovliq qo'zilaganligini ko'rdilar. U egizak tuqqan edi. Bularni Tanaboy plashining etagiga soldi. Beshtasi to'lg'oq tutib, kuchanib ma'rab yotgan edi. Demak, boshlanibdi. Ertalabgacha bular ham qo'zilaydi. Saqmonchilarni chaqirishdi. Qo'zilagan qo'ylarni qo'yxonaning haligi naridan-beri tozalangan burchagiga joylashtirmoq uchun qo'y qo'radan ajratib chiqara boshladilar.

Tanaboy devor ostiga poxol to'shab, onasining o'g'iz sutini birinchi tatib ko'rgan qo'zichoqlarni yotqizib, ularning ustini qop bilan yopib qo'ydi. Sovuq. Ona qo'ylarni ham shu yoqqa qo'yib yubordik-ku. Labini tishlagancha o'ylanib qoldi. O'ylab o'tirishdan nima foyda? Faqat bir ilojini qilarmiz degan umid qoldi. Qancha ish, qancha tashvish... Hech bo'lmasa poxol yetarli bo'lganda edi, u ham yo'q. Ibrohim unga ham uzrli sabab topadi. yo'lsiz tog'da poxol tashib ko'r-chi, deydi.

E, nima bo'lsa bo'lar, borib siyoh solingan bankani olib keldi. Bitta tug'ilgan qo'zichoq orqasiga ikki, egizaklaraga esa uch raqamini yozib qo'ydi. Ona qo'ylarni ham xuddi shunday nomerlab chiqdi. Yuzlab qo'y qo'zilagandan so'ng ularni bir-biridan ajratib ko'r-chi.

Cho'ponlar ishining eng qizg'in pallasi boshlandi. Boshlanganda ham u xuddi mudofaadagiday, bosib kelayotgan tanklarni hech nima bilan daf eta olmagan

paytdagidek shafqatsizlik bilan boshlangan edi. Sen esa okopda turasan va hech qayoqqa ketmaysan, chunki ketish mumkin emas. Ikkidan biri — yo oxirigacha tik turib olishish, yoki o'lish kerak.

Tanaboy har kun ertalab qo'y'larni yaylovga chiqarib yuborish oldidan, go'yo o'z jabhasini baholayotganday, tepalik ustida jimgina turib atrofga qarardi. Uning mudofaa liniyasi ko'hna, yaramaydigan edi. Biroq, u turib berishi kerak. Uning hech qayoqqa ketishi mumkin emas. Ichidan sayoz soy oqib turgan ilon iziga o'xshash kichik bir dara do'ngliklar orasida siqilib turar, undan keyin balandroq tepaliklar, ulardan keyin esa yana balandroq qorli tog'lar qad ko'targan edi. Oppoq yonbag'irlar tepasida yalang'och tosh qoyalari qorayib ko'rinardi. U yerdagi tog'lar ustida yoppasiga muz bilan qorejagan qish yotardi. U bu yoqqa qo'lini uzatishi mumkin. Faqat harakatga kelishi, pastga bulutlarni tushirib yuborishi va darani tumanlikka g'arq qilib yuborishi qolgan. Keyin darani qidirib topolmaysan.

Havo aynib, osmon kul rang tusga kirgan edi. Pastlab shamol esardi. Tevarak bo'm-bo'sh. Tog'lar, hamma yoqda tog'lar, qo'rquvdan kishining yuragi muzlab ketdi. Xaroba qo'yxonada qo'zichoqlar ma'rashardi. Otardan qo'zilay deb qolgan yana o'n bosh sovliqni haydab kelishdi, qo'zilasini deb qo'yxonada qoldirishdi.

Qo'y galalari jinday bo'lsa-da, xashak topish uchun sekin yurib ketdi. Endi yaylovda ham ulardan ko'z-quloq bo'lib turish kerak. Shunday paytlar ham bo'ladi, sovliqning yaqin orada qo'zilashi mumkin ekanligini bilib bo'lmaydi. Keyin, birdan butaning orqasiga boradi-da, bo'shab oladi. Agar vaqtida qaralmasa qo'zichoq zax yerda yotib, shamollab, kasallanib nobud bo'lishi mumkin.

Shunday bo'lsa ham Tanaboy tepalikda uzoq turib qoldi. Qo'lini siltab, qo'yxona tomon yurib ketdi: u yerda ishlar hali ko'ngildagidek emas edi. Hali nimalardir qilib ulgurish kerak edi.

Keyin Ibrohim yetib keldi, u un keltirgan edi. Ko'zlari hayosizlarcha boqardi...

— Qayoqdan olib beraman sizga saroyini? — derdi. Kolxozdagi qo'yxonalarning hammasi shunaqa. Boshqasi yo'q. Kommunistmga borib yetganimiz yo'q hali...

Tanaboy unga musht ko'tarib tashlanishdan o'zini arang tutib qoldi.

— Bu yerda sening pichingingga balo bormi? Men ish haqida gapiryapman, men ish haqida o'ylayapman. Men javobgarman.

— Demak, men sizningcha, o'ylamayotgan ekanman-da?, Siz qandaydir bir o'tar uchun javob berasiz, men esa hammasi uchun, siz uchun, boshqalar uchun, butun chorvachilik uchun. Menga oson deb o'ylaysizmi? — Bu olg'irning birdan yig'lab yuborganidan Tanaboy hayratda qoldi, u kaftlari bilan ko'z yoshlarini

arta turib g'oldiradi: — Men sudga tushaman! Sudga! Hech yerdan biron narsa ololmaysan. Odamlar saqmonchilikka hatto vaqtinchalikka ham borishmayapti. Mendan, boshqa hech narsani kutmang ham. Men behuda, behuda bu ishga o'tgan ekanman...

Shundan so'ng biron tayinli gap aytmay, sodda Tanaboyni xijolatga qoldirib chiqib ketdi. Keyin uni bu yerda boshqa ko'rishmadi.

Hozircha birinchi yuz bosh sovlq qo'ziladi. Vodiyning yuqori qismiga joylashgan Eshim bilan Bektoylarning otarida qo'zilash hali boshlanganicha yo'q edi, lekin Tanaboy ofat kelayotganligini sezgandi. Ularning hammasi, katta yoshdagi uch kishi hamda olti yashar katta qizi hozir qo'ylarni boqib yurgan qari cho'pon, ayolni hisobga olmaganda, qo'zichoqlarni artish, onalarining oldiga olib borish, nima bilan bo'lsa ham isitish, go'nglarni tashib chiqarish, to'shash uchun xashak tashib kelishga arang ulgurishardi. Qo'zichoqlarning ochlikdan ma'rab qichqirgan ovozlari eshitila boshladi, ularga sut yetishmasdi, holdan toygan ona qo'ylarning emizish uchun suti yo'q edi. Oldinda nimalar kutyapti?

Cho'ponlarning bosh qashishga qo'li tegmaydigan kunlari va tunlari boshlandi. Qo'ylar shu daraja ko'p qo'zilay boshladiki, ular nafas olishga ham imkon bermasdi.

Kecha havo ularni bir qo'rqitdi! Birdan qattiq sovuq boshlanib, qora bulutlar osmonda o'rimalay boshladi, quruq qor yog'a ketdi. Hamma narsa tumanlikka cho'kib, qorong'ilashdi...

Biroq bulutlar tezda tarqalib havo iliy boshladi.

Havodan ko'klam hidi, nam hidi keladi. «Xudo xohlasa, bahor ham kelib qolar. Kelganda ham turib bersin, agar bir kelib, bir ketadigan bo'lsa, undan yomoni yo'q», — o'ylardi Tanaboy panshaxada poxol ustidagi qo'yning yo'ldoshini olarkan.

Bahor ham keldi, ammo Tanaboyning kutganiday bo'lmadi... U birdan tunda yomg'ir, tuman va qor bilan kirib keldi. O'zining butun sovuq qor-yomg'irini, o'tov, qo'yxonalar, xullas, nimaiki bo'lsa, hammasining ustiga tashlay boshladi. Muzlagan loyli yerdagi ariqlar, ko'lmaq suvlar ko'pirib, toshib ketgan edi. Chirib qolgan tomdan sizib o'tayotgan suv devorlarni yuvib, qo'yxonani bosib ketdi, qo'radagi qo'y-qo'zilarni qaltiroq bosib, suyak-suyagidan sovuq o'tib ketdi. Hammani oyoqqa turg'izdi. Hamma qo'zichoqlar suvda g'uj bo'lishib bir yerga to'planishdi. Ona qo'ylar suvda qo'zilab ma'rab qichqirardi. Bahor qo'zichoqlarni tug'ilishi bilanoq muzdek suvga cho'miltirib cho'qintirdi. Plash kiyib, qo'llariga fonar ushlagan kishilar hovliqishardi. Tanaboy oyog'i kuygan tovuqday tipirchi-

lab qoldi. Katta etiklari bilan qorong'ilikda ko'lmaklar, go'ng shiltalari ustidan kechib yurardi. Plashning etaklari yaralangan qush qanotiday shapillardi. U xirillar, o'ziga o'zi va boshqalarga baqirardi:

— Tezroq misrangni ber! Belkurakni! Go'ngni bu yoqqa ag'daringlar! Suvni to'singlar!

Hech bo'lmaganda qo'yxonaga tez oqib kirayotgan suvni chetga burib yubor-moq kerak edi. Muzlab yotgan yerni chopib, ariq o'ydi.

— Fonarni tut! Bu yoqni yorit! Nega qarab turibsan!

Tun bo'lsa tuman bilan xiralashib, qor aralash yomg'ir urayotgan edi. Uni hech bir to'xtatib bo'lmasdi.

Tanaboy o'tovga yugurib ketdi. Chiroqni yoqdi. Bu yerda ham hamma yoq-dan chakka o'tayotgan edi. Biroq, qo'yxonadagidek emasdi. Bolalar uxlashardi, ularning ko'rpasi ham ho'l bo'lib qolgandi. Tanaboy bolalarni ko'rpa-to'shagi bilan bir quchoq qilib o'rab, ularni burchakka ko'tarib keldi. O'tovdan kattaroq joy ocha boshladi. Ko'rpa ivib qolmasin uchun bolalarning ustiga kigizni yopib tashladi va chiqib qo'yxonadagi xotin-qizlarni chaqira boshladi:

— Qo'zichoqlarni o'tovga olib kelinglar! — dedi-yu, o'zi ham o'sha yoqqa chopib ketdi.

Ammo o'tovga bulardan qanchasini joylashtirish mumkin? Ko'p deganda o'ttiz-qirqtasini. Qolganlarini nima qilish kerak. Eh, hech bo'lmasa qo'ldagila-rini saqlab qolsak edi.

Mana, tong ham otdi. Yog'ingarchilikning oxiri ham ko'rinmasdi. Bir oz tin-gan bo'ladi, keyin yana goh yomg'ir, goh qor, goh yomg'ir, goh qor...

O'tov qo'zichoqlarga to'lgan. Ular to'xtovsiz ma'rashardi, sassiq hid. Buyum-larni bir joyga uyib, brezent bilan yopib qo'yishdi. O'zlari esa saqmonchilarning chodiriga ko'chib o'tishdi. Bolalar sovqotib, yig'lashardi.

Cho'ponning qora kunlari keldi. U o'z taqdirini qarg'aydi. Hammani so'ka-di, olamdagi hamma narsani. Cho'pon boshidan oyog'igacha jiqqa ho'l bo'lgan qo'ylar, sovuqdan to'ngayotgan qo'zichoqlar orasida uxlamaydi, yemaydi-ich-maydi va so'nggi kuchlari bilan kurashadi. O'lim zax qo'yxonadagi qo'y-qo'zi-larni qiyrata boshladi. O'limning bu yerga kirib kelishi — o'pirilgan tom orqali, oynasiz deraza orqali, eshik o'rni orqali, istagan joydan kirib kelaverishi qiyin emas edi. U kirib keldi-yu, qo'zichoqlarni va zaiflashib qolgan ona qo'ylarni qira boshladi. Cho'pon ko'karib ketgan qo'y o'liklarini bir nechtalab tashib qo'yxona orqasiga uya boshladi.



Dalada, qo'y qo'rada esa qorni osilgan bo'g'oz sovliqlar qor va yomg'ir ostida turishardi. Ular bugun-erta tug'adigan, ularni yomg'ir savalardi, jag'lari qarishib, ho'l junlari tutam-tutam bo'lib osilib turardi.

Qo'ylar yaylovga borishni istashmasdi. Shunday sovuq va loygarchilikda yaylovda nima bor. Qop yopinib olgan keksa saqmonchi ayol ularni quvlaydi, qo'ylar esa, go'yo bu yerda o'zlariga jannat tayyorlab qo'yilganday, hadeb orqaga tisarilishadi. Ayol yig'laydi, ularni to'playdi, yana haydaydi. Ular esa tumtaraqay bo'lib yana orqalariga qochadilar. Tanaboy g'azablangan holda chopib chiqadi. Qani endi bu tentak qo'ylarni tayoq bilan savalasang. Ammo ularning qornida bolasi bor. Boshqalarni chaqirib, hammalari birgalikda ne qiyinchiliklar bilan qo'ylarni yaylovga haydab yuboradilar.

Bu ofat boshlangandan beri Tanaboy qancha vaqt o'tganini bilmaydi, qo'zilatish paytidagi hisob-kitobidan adashib qoldi. Ko'pchiligi ikkitadan, hatto uchtdan qo'zilashdi. Ammo butun boylik nobud bo'ldi, hamma mehnat zoye ketdi. Qo'zichoqlar tug'ilgan kuniyoq loy va go'ng shiltasi ustida harom o'lib qolaverdi. Qolganlari ham yo'talardi, xirillardi, ichi ketib bir-birovlarini bulg'ab iflos qilib tashlashardi. Bolasiz qolgan sovliqlar ma'rashardi, yugurishardi, to'lg'oq tutib yotganlarini turtib, bosib o'tishardi. Bularning hammasi, qandaydir, g'ayri tabiiy ofat edi. Eh, qo'zilash, hech bo'lmaganda, bir oz sekinlashganda edimi! — Tanaboyning istagi shu edi.

Sovliqlar esa xuddi maslahatlashib qo'yishganday, birining ketidan biri, birining ketidan biri qo'zilardi.

Tanaboyning qalbida dahshatli adovat o'ti yondiki, bu yaramas qo'yxonada sodir bo'lgan jamiki narsalarga: qo'ylarga ham, o'ziga ham, o'z hayotiga ham, bu yerda jon berib, jon olib yurgan ishiga ham nafrati oshib ko'z oldini qorong'ilik qoplay boshladi.

U bir oz es-hushini yo'qotib qo'ydi, o'y-xayollardan ko'ngli behuzur bo'la boshladi. Ularini qanchalik quvib yuborishga urinmasin, yana nari ketmay qalbiga, miyasiga joylashib olmoqchi bo'lardi: «Nega bunday? Bu kimga kerak edi? Nega biz qo'ylarni qo'zilataypmiz, ularni saqlay olmasak? Kim aybdor bunga? Kim? Javob ber, kim? Sen va senga o'xshagan vaysaqilar. Biz hammasini ko'taramiz, yetib olib, o'zib ketamiz, so'z beramiz. Chiroyli gapiramiz. Mana ko'tar endi, harom o'lgan qo'zichoqlarni. Chiqarib tashla ularni. Huv anovi xalqobda o'lib yotgan sovliqni sudrab kel. Ko'rsat o'zingni, kim ekanligingni...»

Ayniqsa kechalari tizzasigacha loyda va qo'y siydidida shaloplab kechib yurarkan, alamli va iztirobli o'ylardan Tanaboyning nafasi qisilardi.

O, bu qo'zilatish pallasining uyqusiz tunlari! Oyoq ostingda bijib ketgan go'ng botqog'i, tepangdan yomg'ir quymoqda. Shamol qo'yxonada xuddi daladagidek kezib yurar, fonarlarni o'chirar edi. Tanaboy yangi tug'ilgan qo'zichoqlarni bosib olmaslik uchun paypaslanib, qoqilib-surinib, kaftlarini yerga qadab, tizzalab yurib boradi, fonarni topib yoqadi va uning yorug'ida o'zining go'ngga va qonga belanib qop-qora bo'lib shishib ketgan qo'llarini ko'radi.

U ko'pdan beri o'zini oynada ko'rmagan edi. Sochlari oqarib, o'zining ancha keksayib qolganini sezmasdi. Endi uni keksalar qatoriga qo'shsa bo'lardi. O'ziga qaray olmasdi, bunga fursati yo'q edi. Ovqatlanishga, yuvinishga vaqti yo'q edi. Bir zum o'ziga ham, boshqalarga ham tinchlik bermasdi. Ishning bunday fojiali ahvolda borayotganligini ko'rib yosh saqmonchi qizni otga mingizdi:

— Yo'rtib borib Choroni topgin. Aytgin, tez kelsin, agar kelmaydigan bo'lsa u holda qaytib ko'zimga ko'rinmasin.

Kechga tomon qiz ot chopib keldi, ko'm-ko'k ko'karib, butunlay uvib ketgan holda otdan sakrab tushdi:

— Kasal ekan u, Tanaka, to'shakda yotibdi, bir-ikki kundan so'ng o'lsam ham boraman, deb aytdi.

— Bu kasaldan boshi chiqmasin! — deb so'kindi Tanaboy.

Jaydar uning tanobini tortib qo'ymoqchi bo'ldi-yu, lekin botina olmadi, hozir buning mavridi emasdi.

Oradan uch kun o'tgandan so'ng havo ochila boshladi. Bulutlar erinchoqlik bilan sudralib ketishdi, tog'lardan tuman ko'tarildi. Shamol tindi. Biroq kech kirib qolgan edi. Bu kunlar ichida bo'g'oz sovliqlar shu daraja oriqlab ketgan ediki, hatto ularga qarab bo'lmasdi. Ozib-to'zib, ingichka oyoq ustida, puflagan-day katta qorinlarini osiltirib turishardi. Ularni sut emizuvchi sovliq deb qanday ayta olish mumkin! Hozircha qo'zilab tirik qolgan sovliqlar va qo'zichoqlardan ko'pchiligi bahorga chiqib olib, ko'katga og'zi tekkandan keyin sog'ayib ketisharmikin?. Ertami-kechmi, kasallik ularni yiqitadi. Yo'qki, «xo'rda» bo'ladi: undan na jun, na go'sht olish mumkin...

Havoning endigina ochilishi bilan yana boshqa falokat yuz berdi — yer yuzi muzlay boshladi. Biroq tushga borib yumshadi. «Ehtimol, yana qolganini saqlab qolish mumkin bo'lar», quvonib ketdi Tanaboy. Yana belkurak, panshaxa, zam-bilni ishga solishdi. Oz bo'lsa ham qo'yxonaga yo'l ochish kerak, bo'lmasa qa-

dam bosishga yo'l yo'q. Bu bilan bir oz mashg'ul bo'ldi. Hali yana onasiz qolgan qo'zichoqlarni ovqatlantirishi, ularni bolasiz sovliqlarning yoniga olib borishi kerak. Ular esa bo'ysunishmas, begona qo'zichoqlarni yaqiniga yo'latishmas edi. Qo'zichoqlar tumshuqchalari bilan turtib-niqtab sut so'rashar, muzdek og'izchalari bilan barmoqlarni tortqilab so'rishardi. Tortib olguday bo'lsang plashning ifloslanib kir bo'lib ketgan o'ngirini shimishar, ovqat qidirishar edi. Ma'rab yurgan qo'y to'dalari orqasidan chopishardi.

Ko'z yoshi qilsami, yoki tars yorilib ketsami. Bu xotinlardan va yosh qizlardan yana boshqa nimani ham talab qilishi mumkin. Oyoqda arang turishibdi. Shilta ho'l plashda yurganlariga qancha bo'ldi. Ularga hech nima demasdi Tanaboy. Lekin bir safar o'zini tutib turolmadi. Keksa xotin qo'ylarni kunning yarmida qo'raga haydab keldi, Tanaboyga yordamlashmoqchi bo'ldi. Tanaboy qo'ylarning ahvolidan xabar olmoqchi bo'lib yugurib chiqdi. Ularga ko'z tashlashi bilan tutaqib ketdi. Qo'ylar turgan joyida bir-birovining yungini yamlab yeyishayotgan edi. Demak, bu qo'ylar ochligidan o'lib ketadigan bo'libdi. Tanaboy yugurib borib ayolga o'shqirdi:

— Ha kampir, senga nima balo bo'ldi? Ko'rmayapsanmi! Nega nafasing chiqmaydi? Yo'qol bu yerdan! Otarni hayda. Ularni biron yerda tutib turma. Bir-birining yungini g'ajishga ham yo'l qo'yama. Biror daqiqa ham to'xtatmagin. Bo'lmasa o'ldiraman!

Bu yerda yana boshqa falokat — egizak tuqqan sovliqlardan biri o'z bolalarini yaqiniga yo'lattirmayapti. Ularni suzib, tepib haydab yuboradi. Qo'zichoqlar bo'lsa intilib, zorlanib yig'lashardi. Bu hol ona qo'yning jon saqlab qolish uchun qo'zichoqlarni emizishdan instinktiv ravishda voz kechganida yuz berishi mumkin, chunki uning organizmi kuch-quvvatdan ketgan bo'lib, bolani boqishga holi kelmaydi. Bu hodisa yuqumli kasallik singaridir. Bitta sovliq bolasini emizmasa, boshqalar ham undan o'rnak oladi. Sarosimaga tushib qoldi Tanaboy. Ular qizcha bilan birgalikda ochlikdan bir-birini yeb qo'yish holiga kelgan ona qo'ylarni qo'zichoqlari bilan qo'y qo'raga qamab, yerda ularni o'z bolalarini emizishga majbur etdilar. Boshlab Tanaboyning o'zi sovliqlarni tutib turdi, qizi esa qo'zichoqlarni ularning yeliniga olib bordi. Biroq ona qo'y aylanib, buralib, tipirchilardi. Qizcha bu ishni uddalay olmadi.

— Ota, ular emisha olmayapti.

— Emishadi, o'zing uddasidan chiqa olmayotgandirsan.

— Yo'g'e, ko'ryapsiz-ku, ular yiqilib tushishyapti. — Qizchani yig'lab yuborishiga oz qolgan edi.

— Qani ushlab tur-chi, men o‘zim!

Koshki uning kuchi yetsa ona qo‘yni ushlab turishga. Otasi qo‘zichoqni emchagiga tutishi, u endigina ema boshlashi bilan ona qo‘y birdan o‘rnidan qo‘zg‘alib qizchani yiqitib qochib qoldi. Tanaboyning toqati toq bo‘ldi. Qizining yuziga bir shapati urdi. U hech qachon bolalarini urmagan edi. Endi esa alamini qizidan oldi. Qizcha burnini tortib yig‘lay boshladi. Tanaboy bo‘lsa uni tashlab, qo‘l siltagancha chiqib ketdi.

Bir oz yurib qaytib keldi, qizidan qanday kechirim so‘rashni bilmasdi. Uning esa o‘zi chopib keldi:

— Ota, ona qo‘y qo‘zichoqlarni emiza boshladi. Biz oyim bilan ularni sovliqlarga tuta boshladik. U endi qo‘zichoqlarni tepib haydamayapti.

— Unday bo‘lsa juda soz, yasha qizim.

Birdan o‘zini yengil his qildi Tanaboy. Go‘yo ishlar bir oz yurishganday. Ehtimol, qolganlarini yana saqlab qolish mumkin bo‘lar. Ko‘ryapsanmi, havo ham yumshayapti! Nogahonda, chinakam bahor boshlanib, cho‘ponning qora kunlari o‘tib ketsa? Yana u ishga tutindi. Ishlash, ishlash! — faqat shu yo‘l bilangina ularni saqlab qolish mumkin.

Otda o‘spirin yigit — hisobchi kelib qoldi. Xayriyat... Ahvol qalay, deb so‘radi. Tanaboyning so‘kib yuborishiga sal qoldi. Endi nimasini so‘raysan?

— Ilgariroq qayerda eding?

— Qayerdasi nimasi? Otarma-otar aylanib yuribman, yakka o‘zim ulgurolmayapman.

— Boshqa otarlarda ahvol qalay?

— Ahvol chatoq, shu uch kun ichida ko‘pi qirilib ketdi.

— Cho‘ponlar nima deyishyapti?

— Eh, so‘ramang. So‘kinishadi. Bir xillari gapirishishni ham istamaydi. Bektoy meni hovlidan haydab chiqardi. Jahli chiqib yuribdi, yaqiniga yo‘lab bo‘lmaydi.

— Ha-a. Uning oldiga chopib borib kelay desam bosh qashishga ham qo‘l tegmaydi. Ishdan bo‘shab birrov borib kelarman, sen-chi?

— Men qanday bora olaman? Hisob olib borayotgan bo‘lsam.

— Bizga biron yordam keladimi?

— Bo‘ladi. Choroni sog‘ayib chiqibdi deyishyapti. Aravalarda pichan, poxol yuborgan emish. Otxonalardagi yem-xashakning hammasini olishibdi. O‘lsa ham otlar o‘lsin degan emish. Ha, aravalarni qayerdadir tiqilib qolishgan deyishadi, yo‘llarning qanaqa ekanligini o‘zing ko‘ryapsan-ku.

— Yo'llar emish! Nega ilgariroq o'ylab ko'rishmadi? Bizda hamma vaqt shunaqa. Endi aravalarni yuborishdan na foyda. Hali men ularning adabini berib qo'yaman! — do'q urdi Tanaboy. — So'rab o'tirmasdan o'zing borib ko'rgin, hisoblab yozavergin. Endi menga baribir! — dedi va so'zni kesib, qo'yxonaga — sovliqlarni tug'dirishga ketdi. Bugun yana o'n beshta sovliq qo'zilgan edi. Tanaboy borib qo'zichoqlarni yig'ib oldi. Qarasa, hisobchi unga qog'ozni uzatyapti:

— O'lgan qo'ylarga qo'l qo'ying.

Tanaboy qaramasdan qo'l qo'ydi. U shunday zarb bilan imzo chekdiki, qalam sinib ketdi.

— Xayr, Tanaka. Balki biron gapingiz bordir, ayting yetkazaman.

— Aytadigan hech qanday gapim yo'q, — dedi, keyin shunday bo'lsa-da, yigitchani to'xtatib: — Bektoynikiga kirib o't. Aytginki, ertaga vaqt topib tushlika yetib boraman.

Tanaboy behuda tashvishlangan edi. Bektoyning o'zi ilgariroq yetib keldi. Kelganda yana qanday yetib keldi deng...

O'tgan kecha yana shamol esib, ertalabgacha pishak izi qor yog'ib chiqdi. Qo'rada, tun bo'yi oyoqda turib chiqqan qo'ylar ustini oqartirib qo'ydi. Ular endi yotishmasdi. G'uj 6o'lib olib, qimir etmasdan atrofdagi hamma narsaga beparvo turishardi. Yem-xashaksiz uzoq qolib ketishdi. Bahor bilan qish o'rtasidagi kurash juda ham cho'zilib ketdi.

Qo'yxona sovuq. Qor uchquni tomning yomg'ir yuvib ketgan joylaridan uchib tushib, fonarning xira yorug'ida parvonadek aylanib, sekingina pastga, sovuqdan qotgan qo'y va qo'zichoqlarning ustiga qo'nardi. Tanaboy bo'lsa qattiq jangdan keyin o'liklarni ko'mish komandasidagi askardek hamon qo'ylarning orasida turtinib-surtinib o'z xizmatini bajarish bilan ovora edi. Endi u o'zining og'ir ahvoliga ko'nikkan, og'ir xayollari, g'azabi alamzadalikka aylandi. Alamlari yuragiga nashtar bo'lib qadalib, egilishga ham imkon bermas edi. U etigi bilan shaltoqda shaloplab kechib, o'z ishini bajarib yurarkan, bu tungi soatlarda ba'zan o'zining o'tgan hayotini eslardi...

U yoshlik kezarida dastyor cho'pon bola bo'lib yurgandi. Akasi Quliboy bilan birgalikda bir qarindoshlarining qo'ylarini boqib yurishardi. Oradan yil — o'n ikki oy ham o'tdi, ular faqat ovqat uchun, kundalik tirikchilik o'tkazish uchun ishlab yurganlari ma'lum bo'ldi. Xo'jayin ularni aldadi. U gaplashishni ham istamadi. Shu tariqa ular oyoqlari yirtiq choriqlarni sudrab quppa-quruq, eski xaltalarini yelkalariga osgancha jo'nab ketdilar. Ketaturib, Tanaboy xo'jayinga do'q urdi:

«Qarab tur, men ulg'ayganimdan keyin buni esingga solib qo'yaman». Quliboy esa hech nima demadi. U ukasidan besh yoshlar chamasi katta edi. U bu bilan xo'jayinni qo'rqita olmasliklarini bilar edi. O'zi xo'jayin bo'lib qo'yichlarga, yerlarga ega bo'lsa unda boshqa gap. «Xo'jayin bo'lsam — ishchilarni hech qachon xafa qilmayman», deb aytgan edi u o'sha kezlarda. Shu bilan ular o'sha yili ajralishib ketdilar. Quliboy boshqa boyning qo'ylarinn boqishga ketdi, Tanaboy bo'lsa Aleksandrovkaga borib, muhojir rus dehqoni Yefremov qo'lida batrak bo'lib ishladi. Bu kishi uncha badavlat bo'lmay, bir juft ho'kizi, bir juft oti va o'z yeriga ega edi. G'alla ekardi. Avliyo ota shaharchasidagi volsovkalik tegirmonda bug'doy torttirardi. O'zi ertadan to kechgacha ishlardi. Tanaboy ko'proq uning ho'kizlariga va otlariga qarash bilan ovora bo'lardi. Talabchan edi, ammo adolatsizlik ham qilmasdi. Belgilangan haqni berib turardi. O'sha davrdagi qirg'iz kambag'allari doimo o'zlarining hamyurtlari qo'lida ishlashdan ko'ra rus xo'jayinlariga yollanishni afzal ko'rishardi. Tanaboy ruscha gapirishni o'rganib oldi. Xo'jayini bilan birgalikda Avliyoota shaharchasiga yuk tashib, dunyoning bordikeldisidan bir oz xabardor bo'lib qoldi. Ko'p o'tmay to'ntarish yuz berib, hamma narsa ostin-ustin bo'lib qoldi. Tanaboylarning zamoni keldi.

Tanaboy ovulga qaytib keldi. Endi o'zgacha hayot boshlangan edi. Yer ham, erk ham, huquq ham hammasi birdan kelgan edi. Tanaboyni batraklar komitetiga saylagan edilar. U Choro bilan o'sha yillari uchrashgan edi. Choro xat-savodli edi, yoshlarni yozishga, hijjalarga bo'lib o'qishga o'rgatardi. Tanaboy singari batraklar uchun qanday bo'lmasin xat-savod o'rganish juda zarur edi. Tanaboy Choro bilan birgalikda komsomol yacheykasiga kirishdi. Ular partiyaga ham bir vaqtda o'tishgan edilar. Hammasi o'z yo'lida ketayotgan edi, kambag'allar endi qiyinchiliklar bilan katta yo'lga tushib olayotgan edilar. Kollektivlashtirish boshlanganda Tanaboy bu ishga butun vujudi bilan berilib ketdi. Yer, qoramol, mehnat, istak-orzularning hammasi umumiy bo'lganligidan yangi dehqon turmushi uchun kurashda u jonbozlik ko'rsatmasa, kim ko'rsatardi. Yo'qolsin quloqlar! Jangu jadal, keskin kurash davri boshlandi. Kunduz egarda, tunda majlis, kengashlarda yurishar, quloqlarni ro'yxatga olishar, boylar, mullalar va boshqa boyib ketgan kishilar daladagi o'tlar singari supurib tashlangan edi. Yangi may-salarning unib chiqishi uchun dalalarni tozalash kerak edi. Quloqlarni tugatish ro'yxatida Quliboy ham borligi ma'lum bo'lib qoldi. O'sha kezlarda Tanaboy majlis va miting o'tkazib ot chopib yurar ekan, akasiga jir bitib qolgan edi. Bir bevaga uylanib oldi, xo'jaligi rivojlana boshladi. U qo'y, sigir, bir juft ot, qulunli

sogʻiladigan biya, plug, borona va boshqa narsalarga ega edi. Yigʻim-terim paytida ishchilar yollar edi. Uni boy-badavlat boʻlib ketdi deb boʻlmas edi. Ammo kambagʻal ham emas edi. Yaxshi yeb, yaxshi ishlardi.

Qishloq kengashining majlisida navbat Quliboyga kelganda Choro:

— Qani oʻrtoqlar, bir oʻylashib koʻraylik. Uni quloq qilish kerakmi yoki yoʻqmi? Quliboy singari kishilarning kolxozga foydasi tegib qolmasmikin. Uning oʻzi kambagʻallardan chiqqan boʻlsa. Teskari tashviqot olib borgan boʻlmasa, — dedi.

Quliboy haqida turlicha gaplar boʻldi. Kim uning tarafini oldi, kimlar qarshi chiqdi. Soʻzlamagan Tanaboy qolgan edi. U qaragʻa singari hurpayib oʻtirgan edi. Oʻgay aka boʻlsa ham baribir aka. Lekin unga qarshi borishi kerak. Ular bir-birovlarini kam koʻrishsa ham tinch-totuv yashashardi. Har biri oʻz ishi bilan ovora edi. Unga tegmanglar desa, unda boshqalar nima boʻladi — boshqalarning ham himoyachisi, qarindosh-urugʻlari topilishi mumkin. Oʻzlarning hal qilinglar desa-chi, iniga urib ketdi deyishlari mumkin.

Odamlar uning nima deyishini kutayotgan edilar. Ular Tanaboyning gʻazablanayotgani uchun ham kutayotgan edilar. — Sen, Choro, hamma vaqt shunaqa qilasan! — soʻzlay boshladi u oʻrnidan turarkan. — Gazetalarda kitobiy odamlar haqida, joylardagi ziyolilar haqida yozadilar. Sen ham ziyolisan. Sen doimo shubhalanasan, biron ishkal chiqib qolmasin deb choʻchiganing choʻchigan. Nima shubhalanish mumkin? Roʻyxatda bor ekan — demak quloq! Hech qanday rahm-shafqat ham kerak emas! Sovet hokimiyati uchun men oʻz otamga ham rahm-shafqat qilmayman. U boʻlsa mening akam, sizlar xijolat tortmasangizlar ham boʻladi. Sizlar yoʻq desangiz, uni mening oʻzim quloq qilaman.

Quliboy ertasiga unikiga keldi. Tanaboy akasini sovuq kutib oldi, koʻrishish uchun qoʻl ham bermadi.

— Nima uchun meni quloq qilasizlar? Axir batrak boʻlib ishlamaganmidik? Axir boy oʻz hovlisidan sen bilan meni haydab yubormadimi?

— Endi buning ahamiyati yoʻq. Sening oʻzing boy boʻlib qolding.

— Qanday boy boʻlayin men? Oʻz mehnatim bilan topdim-ku buning hammasini. Hech narsani ayamayman, kerak boʻlsa olinglar hammasini. Faqat nega meni quloqqa chiqarasizlar? Xudodan qoʻrq, Tanaboy!

— Baribir sen dushman sinfsan. Biz esa kolxoz qurishimiz uchun seni yoʻqotishimiz kerak. Sen bizning yoʻlimizda koʻndalang boʻlib turibsan, biz esa seni yoʻldan olib tashlashimiz kerak...





Bu ularning so'nggi marta so'zlashishi edi. Mana, oradan yigirma yil o'tdi, ular bir-biri bilan gaplashgani yo'q. Quliboyni Sibirga surgun qilganlarida ovulda qancha gap-so'z bo'ldi. Tanaboyni ozchilik himoya qilardi. Ko'pchilik esa: «Bunaqa ukaning bo'lganidan bo'lmagani yaxshi, xudoyim. Sadqai nasab ketsin» deb qoralardi. Ayrim kishilar to'g'ridan-to'g'ri yuziga aytardi. Ochig'ini aytganda odamlar o'shanda undan yuz o'g'irgan edilar. Oshkora suratda bo'lmasa ham, uning nomzodini ko'rsatganlarida ovoz berishdan bosh tortib, betaraf qoladigan bo'ldilar. Shu tariqa u bora-bora aktivdan chetga chiqib qoldi. Baribir, u quloqlar kolxozlarga o't qo'yib kishilarni otganlaridan so'ng o'zini oqlab oldi, eng muhimi, kolxoz jonlanib, yildan-yilga ishlar yurishib ketdi. Endi butunlay o'zgacha hayot boshlangan edi. Yo'q, o'sha topda bo'lib o'tgan ishlarning hammasi zoye ketmadi.

Tanaboy o'sha yillardagi bo'lib o'tgan hamma narsalarni to ipidan ignasigacha xotiridan o'tkazdi. Go'yo uning butun hayoti kolxozlar kuchga kirgan o'sha ajoyib damlarda o'tib ketganday edi. U yana o'sha kezlardagi «Qizil durrali zarbdor qiz» ashulasini esladi, kolxozga birinchi marta berilgan polutorka mashinasini, uning kabinasida qizil bayroq ushlab turganini esladi.

Tanaboy tuni bilan qo'yxona atrofida yurdi, o'zining og'ir vazifasini o'tadi va alamli o'ylarni o'yladi. Nega endi hammasi chok-chokidan ajralib ketyapti? Balki boshqa yo'ldan ketishgandir? Ehtimol yanglishishgandir. Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas! Tanlangan yo'l — to'g'ri yo'l edi. Bo'lmasa nega undaq bo'ldi? Adashib qolishdimikin? Yo'ldan ozishdimikin? Qachon va qanday yuz berdi bu ahvol? Mana endi musobaqa degan gaplar ham chiqib qoldi — majburiyatga yozishyapti, bu yerda ahvoling nima kechdi, senga nima bo'ldi, nima qo'ydi, bu bilan hech kimning ishi bo'lmaydi. Ilgari qizil, qora doskalar bo'lardi, har kuni qancha gap-so'z, qancha bahslashuvlar bo'lardi: kimni qizil doskaga, kimni qora doskaga yozishdi, kishilar uchun bu muhim edi. Endi bo'lsa bularning hammasi eskirgan, vaqti o'tib ketgan narsalar emish. Xo'sh, ular nima bilan almashdi? Quruq gap, va'dabozlik. Amalda hech narsa yo'q. Nega shunday? Bularning hammasiga kim aybdor?

Bunday cheksiz o'y-xayollardan Tanaboy toliqib ketdi. Kalavanning uchini topolmay gangib qoldi. Ishning ko'pligidan kalovlab qoldi. U yosh saqmonchi qizning devorga suyanib bosh qo'yganini ko'rdi. Yallig'lanib qizarib ketgan ko'zlari-ning yumilib, uyqu bilan olishayotganini va keyin sekin sirg'alib yerga o'tirib qolib boshini tizzasiga qo'yganicha uxlab qolganini ko'rdi. Uni uyqidan uyg'otmadi

O'zi ham devorga suyanganicha sekin pastga sirg'alib tusha boshladi va o'zini tuta olmay, yelkasidagi og'irlik uni ham asta-sekin pastga buka boshladi.

U bo'g'iq qiyqiriqdan va qandaydir yerga bir narsaning «gum» etib urilganidan uyg'onib ketdi. Hurkib sakrab ketgan qo'ylar uning oyoqlarini bosib o'tishdi. Tanaboy nima gap ekanligini bilmasdan o'rnidan irg'ib turib, atrofni ko'zdan kechira boshlaydi. Tong yorishib qolgan edi.

— Tanaboy, Tanaboy, yordam ber, — deb chaqirayotgan edi xotini.

U tomon saqmonchi xotinlar, ularning orqasidan Tanaboy yugurib borishdi. Qarasalar, u shiftdan qulab tushgan to'sin yog'och ostida yotardi. To'sinning bir uchi yomg'ir yuvib ketgan devordan sirg'alib chiqib, chirib qolgan tomning og'irligidan qulab tushgan edi. Uyqudan asar ham qolmadi.

— Jaydar! — baqirib yubordi u, yelkasi bilan to'sinning tagiga kirib zarb bilan ko'tararkan.

Jaydar voy-voylaganicha yog'och ostidan emaklab chiqdi. Xotinlar bir narsalar deb yig'lab uni paypaslab ko'ra boshladilar. Qo'rquvdan hech narsani tushunolmay qolgan Tanaboy ularni har tomonga surib, qaltiroq qo'llari bilan xotini-ning fufaykasi ostini paypaslay boshladi.

— Nima, nima bo'ldi senga?

— Voy, belim! Belginam!

— Lat yedimikin? Qani, qani! — u darhol plashinn yechdi, unga Jaydarni solganlaricha qo'yxonadan olib chiqdilar va o'tovga olib borib ko'ra boshladilar. Sirtidan hech qanday lat yemaganday edi. Ammo aslida qattiq shikastlangandi. Og'riq azobidan qimirlay olmasdi.

Jaydar yig'lardi:

Endi nima bo'ladi? Bu falokat qayoqda kutib turgan ekan, shunday dolzarb kunlarda-ya, endi hollaring nima kechadi?.

«Ey xudo! — dedi Tanaboy xayolan. — Tirik qolganiga shukur qilsa-chi, bu bo'lsa? Qurib ketmaydimi bu ish! Faqat sog'-omon bo'lsak bo'lgani, boyoqishim...»

U xotini boshini silay boshladi.

— Nima bo'ldi senga, Jaydar, tinchlan, sog'ayib oyoqqa turib ketsang bo'lgani. Boshqa ishlar uchun hech tashvish tortma, eplaymiz...

Shundan keyingina ayollar o'zlariga kelib, bir-birlariga gal berishmasdan Jaydarga nasihat qilib, uni tinchlantira boshladilar. Jaydar ham yengil tortgandek, ko'z yoshi aralash kulimsiradi.

— Mayli, bu voqea sodir bo'lganidan xafa bo'lmang, men uzoq yotmayman, bir-ikki kundan so'ng turib ketaman, ana ko'rasiz.

Ayollar unga o'rin solishga va gulxan qalashga hozirlik ko'rdilar, Tanaboy esa qo'yxonaga qaytib ketdi. U baxtsizlik yondamalab o'tib ketganiga hamon ishonmasdi.

Yangi yoqqan yumshoq qor uzra oppoq tong ota boshladi. Qo'yxonada Tanaboy to'sin ostida qolgan qo'yni topib oldi. Boya ular buni ko'rishmagan ekan. Qo'zichoq o'lib yotgan sovliqning yelinini tumshuqchasi bilan turtkilab yotgan edi. Xotining salomat qolganini eslab, bu hol Tanaboyga yanada qo'rqinchli va yanada quvonchli tuyuldi. Tanaboy onasiz qolgan qo'zichoqni olib unga boshqa sovliq izlashga ketdi, so'ng to'sin ostiga devorga suyab tirgovich qo'ydi, u yoqda xotining holi nima kechganidan xabar olish uchun borish zarurligi haqida o'ylardi.

Tashqariga chiqqanda yaqindagi qor ustida sekin tentib yurgan qo'ylar suruviga ko'zi tushdi. Begona bir cho'pon qo'ylarni u tomon haydab kelayotgan edi. Bu qanday otar bo'ldi? Nega u qo'ylarni bu yoqqa haydab kelyapti? Ular aralashib ketadi-yu, qandog' bo'ldi? Tanaboy bu ovsar cho'ponning bironing yaylovida yurganini aytib ogohlantirmoqchi bo'ldi.

Tanaboy yaqinroq borib, otarni Bektoy quvib yurganini ko'rdi.

— Ey, Bektoy, senmisan?

U hech nima demadi. Indamasdan qo'ylarni u tomon haydab kelaverdi, tayoq bilan qo'ylarning orqasiga do'pposlab urardi. «Ie, bu bo'g'oz sovliqlarga nega muncha azob beryapti!» — Tanaboyning jahli chiqdi.

— Qayoqdan kelyapsan? Qayoqqa? Assalom alaykum.

— Bir joydan.

— Qayoqqa borayotganimni esa, o'zing ko'rib turibsan. — Bektoy unga yaqin keldi, belini chilvir bilan mahkam bog'lab, qo'lqopini qo'yniga — plashining ostiga tiqib qo'ygan edi.

Tayog'ini orqasida tutganicha bir necha qadam narida to'xtadi, ammo salomlashmadi. Jahl bilan tupurdi-da, qor ustidagi tupugini oyog'i bilan ishqaladi. Boshini birdan ko'tardi. O'sib ketgan qop-qora soqoli xuddi uning yosh va chiroyli yuziga yopishtirib qo'yilganday edi. Javdirab turgan o'tkir ko'zlari qovoq ostidan xo'mrayib nafrat va adovat bilan qarardi. U yana tupurdi, titrab-qaqshab qo'lida ushlab turgan tayog'ini siltab, qo'ylar tomon ishora qildi.

— Ol ularni. Istasang sana, istamasang o'zing bilasan, uch yuz sakson besh bosh.

— Nima uchun?

— Ketaman.

— Ketamaning nimasi? Qayoqqa ketasan?

— Boshim oqqan tomonga.

— Axir men aybdormanmi?

— Aybing shuki, sen meni otaliqqa olgansan.

— Nima bo'пти? To'xta, to'xta deyman, qayoqqa? Qayoqqa otlanyapsan? — faqat shundagina Tanaboy o'z otalig'idagi cho'ponning niyatini anglab yetgan edi. Boshiga quyilib kelgan qondan yuragi siqilib, qizishib ketdi. — Nega bunday bo'ldi? — dedi u sarosimaga tushib.

— Bo'lar ish bo'ldi. Qo'limdan kelgani shu. Jonimdan to'ydim.

— Sen nimalar deyotganingni tushunyapsanmi? Bugun erta sovliqlaring qo'zilaydi-ku. Qanday qilib ketasan?

— Shunday qilib, biz bilan shunday muomala qilar ekanlar, biz ham shunday qilishimiz kerak. Xayr! — Bektoy tayoqni boshi uzra bor kuchi bilan aylantirib uloqtirib yubordi-da, nariga yurib ketdi.

Tanaboy hayron bo'lib, turgan joyida qotib qoldi. So'zlashga so'z ham topolmadi. U bo'lsa orqasiga qaramasdan odimlab ketayotgan edi.

— Esingni yig', Bektoy! — Tanaboy uning orqasidan yugurdi. — Bunday qilish yaramaydi. Nima qilayotibman, deb o'ylab ko'r! Eshityapsanmi?

— Qo'ysang-chi! — Bektoy keskin burildi. — Buni sen o'ylab ko'r. Men esa odamlar qanday yashayotgan bo'lsa shunday yashashni istayman. Mening boshqalardan bir yerim kammi? Men ham boshqalar singari shaharda ishlab, moyana olishim mumkin. Nega men bu yerda qo'ylar bilan birga nobud bo'lib ketay. Yem-xashak bo'lmasa, qo'yxona bo'lmasa, biron boshpana bo'lmasa. Meni tinch qo'y. Ishingga boraver. Joningni jabborga berib, go'ngga botib o'l! O'zingga bir qara, kimga o'xshab ketibsan. Bu yerda halok bo'lasan. Senga bu ham kamlik qiladi. Yana o'rtaga shiorlar tashlaysan. Boshqalarni ham o'z orqangdan ergash-tirmoqchi bo'lasan. Unaqasi ketmaydi! Meniki bo'ldi! — dedi-yu, oppoq qor ustidan shunday shiddat bilan yurib ketdiki, uning izlari qorayib suvga to'lib qoldi.

— Bektoy, sen so'zimga quloq sol! — unga yetib oldi Tanaboy. — Men senga hammasini tushuntiraman.

— Boshqalarga tushuntir, so'zingni tinglaydigan ahmoq yo'q!

— To'xta, Bektoy, gapirishib olaylik.

Bektoy uning so'zlarini eshitishni istamay jo'nab qoldi.

— Sudga tushasan!

— Bundan ko'ra sudga tushgan ham ma'qul! — jahl bilan javob qaytardi Bektoy va boshqa o'girilib qaramadi.

— Sen qochqinchisan!

U ketaverdi.

— Bunaqalarni frontda otib tashlashadi! U to'xtamay ketaverdi.

— To'xta, deymen! — Tanaboy uning yengidan ushlab oldi. U esa qo'lini tortib olib yurishda dazom etdi.

— Bunga yo'l qo'ymayman, ketishga haqqing yo'q! — Tanaboy uning yelkasidan burib tortdi va nogoh ko'z o'ngi xiralashib atrofdagi oppoq tepalar gir aylanayotganday tuyuldi. Kutilmaganda jag'iga kelib tushgan musht uni o'yoqdan qulatgan edi. U gir anlangan boshini ko'targanda Bektoy allaqachon tepalik ortida g'oyib bo'lgan edi. Uning orqasidan zanjir halqalari singari yolgiz oyoq izlari qorayib qolgan edi.

— Sob bo'ldi bu yigit, ketdi, — deya ingrardi Tanaboy kaftlarini yerga tirab qaddini yerdan ko'tararkan. O'rnidan turdi. Qo'llari qor aralash loyga botgan edi. Nafasini rostlab oldi. Bektoyning qo'ylarini to'plab, boshini quyi solganicha, o'z otari tomon haydab ketdi.

## XVII

**O**vuldan chiqqan ikki otliq tog' tomon yo'l olgan edi. Ularning biri saman otda, ikkinchisi to'riq otda. Otlarning dumi qattiq tugib qo'yilgan, aftidan, ular olisga ketishayotgan edi. Qor aralash loy parchalari tuyoq ostidan shaloplab otilib chiqib, sachrab ketardi.

Gulsari tarang jilovni tortib gijinglagancha shahdam qadam tashlab borardi. Xo'jayini sog'ayguncha u qantariqda dam olvolgan edi. Biroq hozir ham uning ustida xo'jayini emas, balki charm palto ustidan kiygan brezent plashining barlarini ochib yuborgan allaqanday notanish kishi o'tirar edi. Uning kiyimlaridan bir oz kraska va rezinka hidi kelib turardi. Choro bo'lak otda, uning yonida borardi. Yo'rg'ani u tumandan kelgan o'rtoqqa bergan edi. Gulsari unga kim mingani bilan ishi yo'q edi. Yilqidan, avvalgi xo'jayinidan ajratib olganlaridan buyon unga ko'p kishilar mingan edi. Har xil odamlar — yaxshilari ham, yomonlari ham, egarda qulay va noqulay o'tirganlar ham bor edi. Oliftalarning ham qo'liga tushdi. Ular otga mingandan keyin suyulib ketishar edi! Ular jon-jahdlari bilan otni choptirib birdan jilovini tortib to'xtatar, oldingi oyoqlari bilan tikka turg'izar va yana urib haydar va yana jilovini zarb bilan tortgancha taqqa to'xtatar edilar. Nima qilayotganini o'zlari bilmasdilar, faqat hamma uning Gulsarida ketayotganini ko'rishsa

bas. Hamma-hammasiga ko'nikib qolgan edi Gulsari. Uni otxonada saqlab zerik-  
tirib qo'yimasalar bo'lgani. U hamon avvalgi havas, avvalgi ishtiyoq: yugurish, yu-  
gurish va yana yugurish ishtiyoqi bilan yashardi. U kimni olib boryapti, buning  
unga ahamiyati yo'q. Buning ot ustida borayotgan kishi uchun farqi bor edi. Saman  
yo'rg'ani berib qo'yishibdimi, demak, uni hurmat qiladilar, undan hayiqadilar. Ku-  
chli va chiroyli ot edi Gulsari. Unga mingan kishi tinch, rohat qilib borardi.

Bu safar yo'rg'aga kolxozga vakil qilib yuborilgan tuman prokurori Segiz-  
boyev mingan edi. Unga kolxoz partorgi hamroh bo'lib borar edi — bu katta  
hurmat. Partorg og'iz ochmasdi, ehtimol cho'chiyotgandir: qo'zilatish yomon ah-  
volda. Juda yomon edi. Shunday ekan og'iz ochmagani, cho'chigani ma'qul. Qu-  
ruq so'zlar bilan gapga arlashishdan nima foyda. Past lavozimdagi kishi yuqori  
lavozimli kishidan hayiqmog'i kerak. Aks holda hech qanday tartib-intizomning  
bo'lishi mumkin emas. Shundaylari ham bo'ladiki, ular itoatlaridagi kishilarni  
o'zlari bilan teng ko'rib muomala qilishadi, keyin shu kishilarning o'zidan pand  
yeyishadi, hasratlaridan chang chiqadi. Hokimiyat — katta ish, mas'uliyatli ish,  
uni boshqarish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

Segizboyev egar ustida yo'rg'aning bir tekisda qadam tashlashiga monand  
tebranib, shularni o'ylab borardi, uning kayfiyatini yomon deb ham bo'lmasdi,  
lekin har holda cho'ponlarni tekshirishga yuborilayotgan ekan, u yerda ehtimol  
ko'ngilsiz ahvolga duch kelishi mumkin, buni bilar edi. Qish bilan bahor to'qnash  
kelib, bir-biriga yon bergisi kelmasdi, bu to'qnashuvda hammadan ko'p qo'ylar  
talofat ko'rishardi, qo'zichoqlar nobud bo'lardi, holdan toygan sovliqlar qirilardi,  
ularni saqlab qolish mumkin emas edi. Har yili ahvol shu. Bundan hamma xabar-  
dor. Modomiki, uni vakil qilib yuborishgan ekan, demak, u kimnidir javobgarlik-  
ka tortishi kerak. Tumandagi qo'ylarning katta qismi qirilib ketishi hatto unga qo'l  
kelishini ichida bilib turardi. Axir chorvachilik og'ir ahvolga tushib qolganiga u,  
tuman prokurori, raykom byurosining a'zosi javobgar emas. Birinchi kotib javob  
berishi kerak. Hali yangi, tumanga yaqindagina kelgan, boshqalarning azobini  
ham u cheksin. Segizboyev bo'lsa, chetdan qarab turadi, u yeqdan, yuqoridagi  
o'rtoqlar ham ko'rishsin, chetdan yangi kotib yuborib xato qilib qo'yishmadimi-  
kin. Bularni o'ylarkan xunobi oshardi, uni saylamaganlariga hech chiday olma-  
sdi. Prokuror bo'lib ishlayotganiga ozmuncha vaqt bo'ldimi. U, o'zining nima-  
larga qodir ekanligini necha bor isbotlab ko'rsatdi. Hechqisi yo'q, uning do'stlari  
bor, biron nima bo'ladigan bo'lsa himoya qilishadi. Vaqt yetdi, endi u partiyaviy  
ishga o'tishi kerak, prokurorlik stulida uzoq o'tirib qoldi... Yo'rg'a yaxshi, loy

demay, shilta demay, kema singari tebranib suzib borardi. Partorgning oti terlab-pishib ketgan edi, holbuki yo'rg'a endigina ter chiqara boshlagandi...

Choro bo'lsa o'z o'ylari bilan band. Uning rang-ro'yi bir holatda, so'lg'in yuzi za'faron, ko'zlari kirtayib qolgan. Yurak kasalidan necha yillardan beri azob chekadi. Vaqt o'tgan sari kasali og'irlashib borar, fikrlari mungli edi. Ha, Tanaboy haq edi. Rais baqirardi-chaqirardi, lekin bundan nima foyda. Ko'pincha tumanda qolib ketar, doimo qandaydir ish bilan band bo'lardi. Partiya majlisiga uning masalasini qo'yish kerak edi, tumanda bo'lsa orqaga siltab kutib turishni tavsiya qilishadi. Nimani kutish kerak? Go'yo Aldanov o'z istagi bilan ketmoqchi, deyishardi, ehtimol, shuning uchundir? Tezroq ketganda ma'qul bo'lardi. Choroga ham ketish vaqti yetgan edi. Undan nima foyda? Doimo kasal. Shomansur kanikulga kelgan edi, u ham ketishni maslahat berdi. Ketish mumkin-a, vijdon-chi? Shomansur aqlli bola, endi ko'p narsalar haqida otasidan ko'ra yaxshiroq muloxaza yurita olar edi. Qishloq xo'jaligini qanday boshqarish va hokazo, hammasiga aqli yetardi. Ularga yaxshi ta'lim berishyapti, vaqt kelib, ular ham ta'lim berayotgan professorlarga yetib qolishar. Biroq, hali gap nima bo'ladi, nima qo'yadi — o'lib ketadimi! Ammo o'z g'am-alamlaridan bosh olib ketolmaydi. O'zingdan qochib qutula olmasan. Ha, odamlar nima deyishadi? Va'da berdi, ishontirdi, kolxozni qarzga botirib, mushkul ahvolga solib qo'ydi. O'zi bo'lsa endi chetga chiqib olib tinchgina yashayapti, deyishadi. Yo'q, unga tinchlik yo'q, bo'lmaydi ham, yaxshisi oxirigacha turib berishi kerak. Yordamga kelishar, shuncha uzoq vaqt yordamsiz qoldirishmas — faqat tezroq kelishsa, kelganda ham manoviga o'xshamay chinakam, haqiqiy yordam kelsa. Ish barbod qilinganligi uchun sud qilamiz, deydi. Sud qilsang qilaver! Hukm chiqarish bilan ishni tuzata olarmiding. Ana kelyapti, qovog'i soliq, go'yo tog'dagilarning barisi jinoyatchilaru, faqat uning o'zigina kolxoz ishi uchun kurashadi... unga bularning hammasi bir pul, faqat xo'ja ko'rsingagina kelib-ketadi. Ammo aytib ko'r-chi.

## XVIII

**G**ira-shira tuman ichra ulkan tog'lar qad ko'tarib turadi. Ular quyosh nurini ko'rmay qovoq solgancha xo'mrayib, bahaybat pahlavonlar singari yuksaklikdan tumtayadi. Bahor havosi rutubatli, namgarchilik, tuman.

Tanaboy o'z qo'yxonasida jon olib, jon beradi, kun sovuq. Birdaniga bir necha sovliq qo'zilagan, qo'zichoqlarni qo'yishga joy yo'q, dod deb boradigan

joy yo'q. Qo'y-qo'zilar ma'rashadi, turtinishadi. Barchasi yeyish-ichishni istaydi, pashsha singari qiriladi. Bu yoqda yana beli shikastlanib xotini yotadi. Turmoqchi bo'lardi-yu, qaddini rostlay olmasdi. Mayli, nima bo'lsa shu bo'lar. Pichoq borib suyakka qadaldi.

Hamon xayolidan Bektoy ketmasdi, befoyda g'azab Tanaboyni ruhan ezib, iztirobga solayotgan edi. Bosh olib ketib qolganligi uchun emas (o'sha yoqdan daf bo'lsin), boshqalarning iniga tuxum qo'yib ketgan kakku qush singari o'z otarini unga tashlab ketganligi uchun ham emas, provardida, birontasini yuborib, uning qo'ylarini olib ketishlari ham mumkin edi. Bu muttahamning avra-astarini ochib tashlay olmagan, bir gap bilan uni uyaltirib yerga kirgizib yubormagan unga alam qilardi. Go'dak! Mishig'ini eplay olmagan go'dak! Tanaboy bo'lsa keksa kommunist, butun hayotini kolxoz ishiga sarflagan kishi unga boplab javob qaytarish uchun so'z topolmasa! Cho'ponlik tayog'ini ulotirganicha ketdi, bu ona suti og'zidan ketmagan mishiqi. Tanaboy shunday voqea yuz beradi deb o'ylagan edimi? Uning jonajon ishi ustidan birov kuladi deb o'ylagan edimi?

«Bas!» o'zini to'xtatdi u va bir daqiqadan so'ng yana o'sha fikr ko'nglini buza boshladi.

Mana, yana bitta sovlq qo'ziladi, egizak tug'ibdi, qanday chiroyli qo'zichoqlar. Ammo ularni qayerga jonlashtiramiz? Qo'ylarning yelini ham shalvirab yotibdi, ha, ularda qayoqdan ham sut bo'lsin? Demak, bulari ham nobud bo'ladi? Eh, falokat! Ana, allaqachon u yerda sovuqda qo'y-qo'zilar o'lib yotishibdi. Tanaboy o'limtik qo'zichoqlarni yig'ib olib chiqarib tashlashga ketdi. Halloslaganicha oldiga qizchasi yugurib keldi.

— Ota, boshliqlar kelishyapti.

— Mayli kelishaversin, — to'ng'illab qo'ydi Tanaboy. — Sen bor qizim, oyingga qara.

Tanaboy qo'yxonadan chiqib, ikki otliqqa ko'zi, tushdi. O! Gulsari! — quvonib ketdi u. Qalbidagi eski tor bir ovoz chiqarib qo'ydi. — Ko'rishmaganimizga qancha vaqt bo'ldi! Uning yurishiga qara, hamon o'shandog'!.. Ularning biri Choro, yo'rg'a otda kelayotgan charm paltoli kishini tanimadi. Tumandan birontasi bo'lsa kerak.

«Ha, nihoyat kelishdi», o'yladi u alamzadalik bilan. Bu yerda uning shikoyat qilishi, o'z qismatini aytib yuragini bo'shatib olishi mumkin edi, biroq uning bunday qilishi mumkin emasdi, u zorlanmaydi, mayli ular uyalishsin, ular qiza-



rishsin. Shunday ham bo'ladimi! «O'l» deb tashlab qo'yib, endi qoralarini ko'rsatishayotgan bo'lsa...

Tanaboy ularning kelishini kutib turmay harom o'lgan qo'zichoqlarni qo'yxona burchagidagi uyumga olib borib tashlash uchun ketdi. Shoshilmasdan qaytib keldi. Ular bu orada qo'raga kirishgan edi. Otlar og'ir nafas olardi. Choro gunohkor va ayanchli bir qiyofada ko'rinardi. Demak, do'sti oldida javobgarligini sezgan. Yo'rg'a ot ustidagi kishi esa g'azabli, dahshatli ko'rinardi. U hatto Tanaboy bilan salomlashmadi ham. Darhol tutaqib ketdi.

— Bu qanday yaramas ish! Qayerga borma shu ahvol! Bu yerda nimalar bo'layotganini ko'ryapsanmi! — o'shqirdi u, Choroga yuzlanib. So'ng Tanaboy tomon o'girildi. — Bu nima qilganing, o'rtoq, — dedi u qo'li bilan nobud bo'lgai qo'zichoqlarni Tanaboy olib borib tashlagan tomonga ishora qilib. — Cho'pon, kommunist, qo'ylar bo'lsa o'lyapti.

— Ular, ehtimol mening kommunist ekanligimni bilishmas, — achitib gapirdi Tanaboy va shu zahotiyiq go'yo uning ichida bir narsa shartta uzilganday ko'ngli vayron, hamma narsa unga farqsiz bo'lib, ko'z o'ngi qorong'ilasldi.

— Bu bilan nima demoqchisan? — Segizboyev qizarib ketdi va jim bo'lib qoldi. — Sotsialistik majburiyat olganmisan? — Nihoyat kalavaning uchini topib oldi.

— Ha, olganman.

— U yerda nima deyilgan edi.

— Eslay olmayman.

— Mana shuning uchun ham sening qo'zichoqlaring harom o'lyapti! — Segizboyev qamchi dastasi bilan yana haligi tomonni ishora qildi va birdan uzangidan ko'tarilib, bu surbet cho'ponning ta'zirini berib qo'ymoqchi bo'ldi.

Lekin u avval Choroga yopishib ketdi: — Siz qayoqqa qarayapsiz? Odamlar hatto o'z vazifalarini ham bilmaydilar. Rejani buzyaptilar, mollarni o'ldiryaptilar! Siz bu yerda nima ish bilan shug'ullanyapsiz! O'z kommunistlaringizni qanday tarbiyalayapsiz! Qanaqa kommunist u? Men sizdan so'rayapman?

Choro boshini quyi solib jim turar, qo'lida tizginni g'ijimlardi.

— Bo'lgani shu, — uning uchun bamaylixotir javob berdi Tanaboy.

— Ha-ha, bo'lgani shu. Sen zararkunandasan! Sen kolxoz mulkini yo'q qilib yuboryapsan. Sen xalq dushmanisan. Sening o'rning partiyada emas, turmada. Sen musobaqa ustidan kulyapsan.

— Ha, turmada, mening joyim turmada, — tasdiqladi Tanaboy boyagidek osoyishtalik bilan. Uning qalbini timdalagan alam, sabr kosasini to'ldirgan

achchiq hasratdan jilmaygan lablari pirpirab uchardi. — Xo'sh, yana nima demoqchisan? — uchayotgan lablarini qisib Segizboyevga tikilib turib oldi.

— Nega sen bunaqa gapiryapsan, Tanaboy? — aralashdi Choro, — nega? Ochiqroq tushuntirsang-chi.

— Oho! Hali senga ham tushuntirish kerakmi? Sen nima uchun bu yerga kelding, Choro? — Baqirdi Tanaboy. — Nega kelding? Sendan so'rayapman? Mening qo'zilarimning o'layotganini aytish uchunmi? Buni o'zim ham bilaman! Tomog'imgacha go'ngning ichida ko'milib o'tirganimni aytish uchun keldingmi? Buni o'zim ham bilaman! Men kolxozni deb jonimni jabborga berganim uchun aybdormanmi? Buni o'zim ham bilaman.

— Tanaboy! Tanaboy! Es-hushingni yig'ib ol! — Rangi o'chib ketgan Choro sakrab egardan tushdi.

— Nari tur! — itarib yubordi uni Tanaboy. — Men o'z majburiyatimga ham, butun hayotimga ham tupurdim. Qoch! Mening joyim turmada! Sen nima uchun manavi charm paltoli yangi manapni boshlab kelding? Meni xo'rlash, mening ustimdan kulish yoki masxara qilish uchunmi? Meni qamash uchunmi? Qani, ablah, qama meni turmaga! — Tanaboy biror narsa olish uchun olazarak bo'lib turdi, qo'liga devorga suyog'liq panshaxa ilinishi bilan Segizboyevga tashlandi. — Qani, ablah, ket bu yerdan! Yo'qol!

Jahli chiqqanidan nima qilayotganini bilmay panshaxani silkita boshladi.

Qo'rqib ketgan Segizboyev yo'rg'aning boshini goh u tomonga, goh bu tomonga tortar edi. Panshaxa gangib qolgan otning boshiga urilib sakrab ketar, sharaqlab yana uning boshiga kelib tushar edi.

Nima uchun Gulsari titrab boshini silkityotganini, nega muncha suvliq uning qizarib turgan jag'ini yirayotnini, nima uchun uning ko'zlari xonasidan chiqib ketayotganini g'azablangan Tanaboy tushunmasdi.

— Qoch, Gulsari, nari tur! Men mana shu charm paltoli manapni tutib olay, — deb baqirardi Tanaboy gunohsiz yo'rg'aning boshiga ustma-ust tushirib.

Shoshilib kelgan yosh saqmonchi ayol uning qo'liga osilib, panshaxani yulib olishga urindi. Lekin Tanaboy uni itarib yubordi.

— Qochaylik! Orqaga qochaylik! O'ldirib qo'yadi! — deb otiga minib olgan Choro Tanaboy bilan Segizboyevning o'rtasiga o'zini tashladi.

Tanaboy panshaxa bilan unga ham hamla qildi. Ikkalasi ham ot qo'yib qo'radan qochib qolishdi. Otlarning dumiga, uzangisiga sapchigan it ham hurib, ularning orqasidan yugurdi.

Tanaboy bo'lsa qoqilib-suqilib ularning izidan chopar, qo'liga tushgan kesakni uloqtirar va hamon baqirardi:

— Mening joyim turmada! Turmada! Yo'qol! Yo'qol bu yerdan! Mening joyim turmada! Turmada!

Keyin u orqaga qaytdi, nafasi bo'g'ziga tiqilib hamon o'zicha g'uldurardi: «Mening joyim turmada, turmada!» Uning yonida o'z burchini bajarganidan gerdayib ko'ppak it chopib borardi. U o'z xo'jayinining maqtovini kutardi, lekin xo'jayin unga e'tibor bermasdi.

Qo'rquvdan rangi o'chib ketgan Jaydar hassaga suyanib oqsoqlaganicha ro'paradan kelardi.

— Nima qilib qo'yding! Nima qilib qo'yding?

— E, attang! E, attang!

— Nimaga achinyapsan? Albatta, attang, deysan.

— Yo'rg'ani bekordan-bekorga urganimga.

— Aqling joyidami o'zi? Nima qilib qo'yganingni bilasanmi?

— Bilaman. Men zararkunandaman. Xalq dushmaniman, — dedi u nafasi siqilib. Keyin jim bo'lib qoldi va qo'li bilan yuzini mahkam bekitganicha ikki bukilib, ho'ng-ho'ng yig'ladi.

— O'zingni bos, o'zingni bos, — yalinar edi xotini o'zi ham unga qo'shilib yig'larkan. Lekin Tanaboy hamon u yoq bu yoqqa tebranib yig'lardi.

Hech qachon Jaydar Tanaboyning yig'laganini ko'rmagandi...

## XIX

**S**hu favqulodda hodisaning uchinchi kuni tuman partiya komitetining byurosi bo'ldi.

Qabulxonada Tanaboy Bakasov o'zini kabinetga chaqirishlarini kutib o'tirar edi. Ichkarida u haqda gap borardi. Bu kunlar ichida u ko'p o'yladi. Lekin u aybdormi yoki yo'qmi, buni hozircha bila olmasdi. Hokimiyat vakiliga qo'l ko'tarib og'ir jinoyat qilganini tushunardi. Lekin gap faqat shundagina bo'lganida-ku, hamma narsa osonlikcha hal bo'lar edi-ya. U o'zining nojo'ya xatti-harakati uchun har qanday jazo berishlariga tayyor edi.

Axir u g'azabdan o'zini bosa olmay kolxoz uchun jon kuydirib qilgan xizmatlarini shamolga uchirib yubordi, o'zining butun tashvish va ezgu-o'yларini

barbod qildi. Endi unga kim ishonadi? Uning ahvolini endi kim tushunadi? «Ehtimol, tushunishar? — Umid uchqunlari chaqnadi unda. — Hammasini gapiraman: bu yilgi qish haqida, qo‘yxona va o‘tov haqida... Mayli, tekshirib ko‘rishsin. Xo‘jalikni shunday boshqarish mumkinmi? — O‘tgan ishlarga sira afsuslanmasdi. — Mayli, meni jazolashsin, — o‘ylardi u. — Ehtimol, shunda boshqalarga yengil bo‘lar. Ehtimol shundan keyin cho‘ponlarga qarashar, bizning turmushimiz, qiyinchiliklarimizga e‘tibor berishar». Lekin bir daqiqa ham o‘tmasdan butun kechmishlarini eslab, u yana g‘azabiga chiday olmay tizzalari orasida mushtlarini qisar, g qaysarlik bilan o‘zinikini o‘zi ma‘quillard: «Yo‘q, mening hech qanday aybim yo‘q!» Keyin yana shubhalanardi...

Qabulxonada negadir Ibrohim ham o‘tirardi. «U nima qilib yuribdi bu yerda? O‘laksa ko‘rgan quzg‘unday uchib kelibdi», — Tanaboyning joni halqumiga kelib unga teskari qarab o‘tirib oldi. U ham boshini quyi solib cho‘ponga qarab xo‘rsinib, jimgina o‘tirardi.

«Nega muncha cho‘zishyapti? — stulda tipirchilab o‘tirgan Tanaboy o‘ylardi, — jazo berishadigan bo‘lsa — berishmaydimi!» Kabinetga deyarli hamma yig‘ilib bo‘lgan edi. Bundan bir necha daqiqa avval hammadan keyin Choro kirib ketdi. Tanaboy uni etigining qo‘njiga yopishib qolgan jundan tanidi. Saman yo‘rg‘aning sariq juni edi. «Juda shoshibdi, Gulsari ham terga pishib ketgan bo‘lsa kerak», o‘yladi u. Lekin boshini ko‘tarmadi. Qo‘njiga jun yopishgan, otteridan bir oz namlangan etik Tanaboy oldidan asta bosib o‘tib eshik ortida ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Kotiba qiz kabinetdan chiqquncha ancha vaqt o‘tdi.

— Kiring, o‘rtoq Bakasov.

Tanaboy cho‘chib o‘rnidan turdi-da, kabinet tomon yura boshladi. Yuragining to‘xtovsiz gupillab urayotganligi qulog‘i ostida eshitilib turardi. Uning ko‘z oldi qorong‘ilashib ketdi. U bu yerda o‘tirgan odamlarni deyarli bir-biridan ajrata olmasdi.

— O‘tiring. — Tuman partiya qo‘mitasining birinchi kotibi Qashqatoyev Tanaboyga uzun stolning oxiridan joy ko‘rsatadi. Tanaboy o‘tirdi. Og‘irlashib ketgan qo‘llarini tizzasiga qo‘yib ko‘z oldini bosgan qorong‘ilikning tarqashini kutdi. Keyin stolning narigi chetiga qaradi. Birinchi kotibning o‘ng tomonida kekkayib Segizboyev o‘tirardi. Tanaboy bu odamga shunday nafrat bilan boqdi, uning ko‘z oldini o‘rab turgan qorong‘ilik bir zumda tarqab ketdi.

Stol atrofida o‘tirganlarning yuzlari aniq-taniq ko‘rindi. Segizboyevning qovog‘i osilib, qizarib-bo‘zarib ketgan edi. Choroning yuzi esa oqarib ketgan

va butunlay qonsiz edi. U eng chetda, hammadan ko'ra Tanaboyga yaqin yerda o'tirardi. Uning oriqlik qo'llari stolga yopilgan yashil movut ustida asabiy qaltirab turardi. Choroning qarshisida o'tirgan kolxoz raisi Aldanov achchig'lanib qattiq pishillardi, atrofiga ho'mrayib nazar tashlardi. U ko'riladigan ishga o'z munosabatini yashirmasdi. Boshqalar, aftidan, nima bo'lishini kutib turardilar. Nihoyat, birinchi kotib papkadagi qog'ozlardan bosh ko'tardi.

— Kommunist Bakasovning shaxsiy ishini ko'rishga o'tamiz, — dedi u so'zlarni chertib-chertib.

— Ha, uni kommunist deb atash mumkin bo'lsa, — dedi kimdir istehzo bilan tirjayib.

«Yovuzlar! — deb qo'ydi o'zicha Tanaboy, — ulardan rahm-shafqat kutma. Nima uchun men shafqat kutishim kerak? Nima, men jinoyatchimanmi?»

U o'zi haqidagi masalaning hal qilinishida ikki yashirin raqib tomonning to'qnashib qolganini va ularning har biri bu ayanchli hodisadan o'zlaricha foydalanishga tayyor ekanliklarini bilmas edi. Birinchi tomon — Segizboyev va uning tarafdorlari, yangi kotibning qarshiligini sinab ko'rish va agar iloji bo'lsa uni qo'lga olishni o'ylardi. Boshqa, ikkinchi tomon, bu Qashqatoyev edi. Qashqatoyev o'z o'rniga Segizboyev ko'z tikayotganini bilar edi. Shuning uchun u o'z obro'sini yerga urmasligi va bu xavfli odamlar bilan bo'lgan munosabatini ham keskinlashtirmasligi kerak.

Raykom kotibi Segizboyevning axborot xatini o'qib berdi. Xatda «Oqtosh» kolxozining cho'poni Tanaboy Bakasovning haqorati va qilgan barcha jinoyati batafsil yozilgan edi. Axborotda Tanaboy rad qilishi mumkin bo'lgan biror ortiqcha narsa yo'q, lekin xatning ohangi, unga qo'yilayotgan ayblarning bayon etilish tarzi uning tarvuzini qo'ltig'idan tushirib yubordi. U o'zining mana shu dahshatli qog'oz oldida mutlaqo oqiz ekanini tushunib yetgach, a'zoyi badanidan ter chiqib ketdi. Segizboyevning axboroti o'zidan ham dahshatliroq bo'lib chiqdi. Bu qog'ozga panshaxa bilan ham tashlana olmaysan. Qarshilik ko'rsata olmaysan. Tanaboy o'zini oqlash uchun nimalarni aytishni mo'ljallagan bo'lsa hammasi bir zumda puchga chiqdi. Hammasi uning ko'z oldida o'z ahamiyatini yo'qotib, cho'ponning o'z ahvolidan nolib qilgan ayanchli arz-dodiga aylanib qoldi. Ahmoq emasmi o'zi? Bu dahshatli qog'oz oldida u o'zini oqlay olarmidi! U kim bilan olishmoqchi?

— O'rtoq Bakasov, siz byuro a'zosi o'rtoq Segizboyevning xatida keltirilgan faktlarning to'g'riligini tan olasizmi? — so'radi Qashqatoyev axborotni o'qib bo'lib,

— Ha, — bo'g'iq ovoz bilan javob berdi Tanaboy. Hamma jim o'tirardi. Hamma bu qog'ozdan vahimaga tushib qolganday. Aldanov, ko'rdingizmi nimalar bo'lyapti, deganday stol atrofida o'tirganlarga surbetlik bilan qarab chiqdi.

— O'rtoq byuro a'zolari, agar ruxsat bersalaringiz, men bu ishning tub mohiyatiga aniqlik kiritsam, — dadil gapirdi Segizboyev. — Men kommunist Bakasovning bu ishini shunchaki bezorilik deb tushunmoqchi bo'lgan o'rtoqlarni darhol ogohlantirib qo'ymoqchiman. Agar shunday bo'lganda edi, menga ishonib, bu masalani byuroga kiritmagan bo'lar edim. Bezorilar bilan kurashning bizda boshqa yo'llari bor. Gap, albatta, mening shaxsiyatimning tahqirlanishida emas. Mening orqamda tuman partiya komitetining byurosi turibdi, agar bilishni xohlasangiz, butun partiya turibdi va men uning obro'siga putur yetkazishga, uni tahqirlashga yo'l qo'ya olmayman. Yana ham muhimi — bu ish kommunistlar va partiyasizlar o'rtasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni o'z holiga tashlab qo'yilganidan, raykomning ideologiya sohasida olib borayotgan ishidagi muhim kamchiliklardan darak beradi. Bizning hamma Bakasovga o'xshash oddiy kommunistlarning mafkurasi uchun javob berishga to'g'ri keladi. Yana bizga, uning o'zi yolg'izmi yoki hamfikrlari ham bormi, degan masalani aniqlashga to'g'ri keladi. «Charm paltoli yangi manap!» bilan u nima demoqchi. Paltoni bir chetga qo'yib turaylik. Bakasovning fikricha, men — sovet kishisi, partiyaning vakili — yangi manap, boyvachcha, xalqni bo'g'uvchi emishman. Qarang-a! Tushunyapsizmi, bu nima degan gap, nima ma'no bor bu gapning tagida? Tushuntirib o'tirish ortiqcha bo'lsa kerak deb o'ylayman... Endi masalaning ikkinchi tomoni haqida. «Oqtosh»dagi chorvachilikning o'ta ketgan yomon ahvolda ekanidan xafa bo'lib, ko'zimga hech narsa qo'rinmay, go'yo o'z sotsialistik majburiyatini unutib qo'yan Bakasovning kishini g'azablantiradigan so'zlariga javoban uni zararkunanda, xalq dushmani deb atadim va uning joyi partiyada emas, turmada dedim. Tan olaman — haqorat qildim va uning oldida kechirim so'rashga tayyor edim. Endi bilsam haqiqatan ham bu shunday ekan. Aytganlarimni qaytib olmayman va dangal aytaman: Bakasov — xavfli, dushmanlik kayfiyatidagi odam.

Tanaboy nimalarni boshdan kechirmadi. U boshidan oxirigacha urushda bo'ldi. Ammo uning yuragi hozirgidek sado chiqarib urishi mumkinligini xayoliga ham keltirmagan edi. Quloqlari ostida bolg'a zarbasidek eshitilgan bu sado ruhini ezar, qalbini tinrar, o'zini o'nglab olishga imkon bermasdi. «Tayba, — boshi lo'qillardi Tanaboyning, — hayotimning butun mazmuni — ishlarimning butun mazmuni qayoqqa ketdi? Mana endi kelib-kelib xalq dushmani bo'ldim.

Men-ku qandaydir qo'yxona uchun, chala o'lik qo'zichoqlar uchun, yo'ldan ozgan Bektoy uchun azob chekyapman. Bularning kimga keragi bor!..» — Axbotimdan kelib chiqadigan xulosalarni yana bir marta eslatib o'taman, — davom etdi Segizboyev so'zlarni joy-joyiga qo'yib. — Bakasov bizning tuzumimizni ko'rolmaydi, kolxozni, sotsialistik musobaqani ko'rolmaydi, hammasiga tupuradi, bizning butun turmushimizni ko'rolmaydi. Buni uning o'zi kolxoz partorgi o'rtoq Sayoqov oldida ham ochiqchasiga aytdi. Bundan tashqari, uning harakatlari hokimiyat vakili o'z xizmat vazifasini o'tab turgan vaqtda unga suiqasd qilish kabi javobgarlikka tortiladigan jinoyat tarkibi ham bor. Meni to'g'ri tushunishingizni so'rayman, Bakasovni sud javobgarligiga tortish uchun sanksiya berishingizni va bu yerdan chiqishi bilan darhol qamoqqa olinishini so'rayman. Uning jinoyatlari ellik sakkizinchi moddaga tamoman mos keladi. Bakasovning partiya safida qoldirilishi haqida, menimcha, gap ham bo'lishi mumkin emas!..

Segizboyev ortiqcha talab qo'ygani bilardi. Lekin u shuni hisobga olgan ediki, agar byuro Tanaboy Bakasovni jinoiy javobgarlikka tortish lozim deb topmasa ham, har holda uni partiya safidan chiqarishi aniq edi. Bu taklifni Qashqatoyev quvvatlamay iloji yo'q edi. Ana shunda Segizboyevning mavqei yana ko'proq mustahkamlanardi.

— O'rtoq Bakasov, siz o'z xatti-harakatlaringiz haqida nima deysiz? — so'radi Qashqatoyev bir oz asabiylashib.

— Hech narsa. Hammasi aytildi, — javob berdi Tanaboy. — Demak, men zararkukanda, xalq dushmani ekanman, bundan keyin ham shunday bo'lib qolar-kanman. Shunday bo'lgach, nima haqda o'ylayotganimni bilishning nima keragi bor? O'zlaringiz hal qilinglar, sizlarga ravshanroq...

— Siz o'zingizni sof vijdonli kommunist deb hisoblaysizmi?

— Endi buni isbot qilib bo'lmaydi.

— Siz o'z aybingizni tan olasizmi?

— Nima, siz o'zingizni hammadan ko'ra aqlliroq deb hisoblaysizmi?

— Yo'q, aksincha, hammadan ko'ra aqlsizroq.

— Ruxsat bering, men gapiray. — Ko'ragiga komsomol znachogi taqqan yosh yigit o'rnidan turdi. U o'tirganlar ichida hammadan yosh bo'lib, nimjongina, cho'ziq yuzli, ko'rinishda yosh bolaga o'xshar edi.

Tanaboy uni endi payqagan edi.

«Fosh qilaver, bola, ayama, — dedi u o'zicha. — Men ham qachonlardir shunaqa edim, hech ayamasmim...»

— Gapiring, Karimbekov, — bosh irg'adi unga Qashqatoyev.

— Men o'rtoq Bakasovning qilmishlarini ma'qullamayman. U qilmishiga yarasha partiya jazosini olishi kerak. Shuningdek, o'rtoq Segizboyevga ham qo'shila olmayman. — Karimboyev hayajondan ovozi titrab, o'zini bosib oldi. — Men o'rtoq Segizboyevning o'zini ham muhokama qilish kerak deb hisoblayman.

— Ana xolos! — uning so'zini bo'ldi kimdir. — Nima, sizda — komsomolda tartib shunaqami?

— Tartib hammada ham bir xil, — javob berdi Karimbekov yana ham hayajonlangan holda qizarib. Uning tili tutilib qoldi va tang ahvoldan qutulishga urinib so'z qidira boshladi va birdan jon-jahdi bilan keskin va g'azab bilan shartta dedi: — Kolxozchi, cho'pon, keksa kommunistni haqorat qilishga sizning nima haqqingiz bor edi? Mana meni xalq dushmani deb ko'ring-chi... Siz buni kolxozda chorvachilikning ahvoli yomonligi uchun xafa bo'lganingiz, qayg'urganingiz bilan isbot qilmoqchi bo'lasiz. Lekin siz, cho'pon sizdan ham ko'p qayg'urganini ko'z oldingizga keltirolasizmi? Qo'zilar nega o'lyapti? Siz uning oldiga borganingizda uning turmush sharoiti bilan, ishlari qanday borayotgani bilan qiziqdingizmi? Yo'q, sizning axborotingizga qaraganda, siz to'g'ridan-to'g'ri uni haqorat qilishdan boshlagansiz. Hozir kolxozlarda qo'zilatish kampaniyasi og'ir ahvolda ekani hech kimga sir emas.

Men joylarda bo'lib turaman. Biz ulardan talab qilamiz, lekin amalda hech qanaqa yordam bermaymiz. Men komsomol cho'ponlar oldida juda noqulay ahvolda qolaman, to'g'risi uyalaman. Qarang, kolxozlarda qo'yxonalar qay ahvolda? Ozuqa masalasi-chi? Mening o'zim cho'pon bolasiman. Yosh qo'zilar o'lganda qanday ahvol yuz berishini yaxshi bilaman. Institutda bizni boshqa narsalarga o'qitishgan edi. Joylarda esa ahvol eskicha. Bularni ko'rsang joning achiydi!..

— O'rtoq Karimbekov, — uning so'zini bo'ldi Segizboyev, — rahmimizni keltirishga urinmang. His-hayajon — har xil ma'noni anglatadigan tushuncha. Faktlar kerak, faktlar, his-hayajon emas.

— Kechirasiz, bu yerda jinoyatchi ustidan sud bo'layotgani yo'q. Balki partiya safidagi bir o'rtog'imizning ishi o'rtoqlarcha muhokama qilinmoqda, — davom etdi Karimbekov. — Kommunistning taqdiri hal qilinmoqda. Kelinglar, birgalashib o'ylab ko'raylik. O'rtoq Bakasov nima uchun shunday ish qildi. Albatta, uning ishini qoralash kerak. Lekin bu hol qanday yuz berdi. Kolxozning eng yaxshi chorvadorlaridan bo'lgan Bakasov qanday qilib bu ahvolga tushib qoldi?



— O'tiring, — norizo ohangda dedi Qashqatoyev. — Siz bizni masalaning asl mohiyatidan chetga tortyapsiz, o'rtoq Karimbekov. Menimcha, bu yerda o'tirganlarning hammasiga shu narsa aniq ravshanki, kommunist Bakasov og'ir jinoiy ish qilgan. Bu qanday gap? Qayerda ko'rgansiz bunaqa ishni Biz o'z xodimlarimizning obro'sini tushirishga, bizning vakillarimizga panshaxa ko'tarib hamla qilishga hech kimga yo'l qo'ymaymiz. O'rtoq Karimbekov, siz qalb, hissiyot haqidagi o'rinsiz tortishuvlar o'rniga komsomol ishlarining qanday borayotgani haqida o'ylab ko'rsangiz bo'lardi. Tuyg'u-tuyg'u bilan, ish-ish bilan. Bakasovning qilgai ishi bizni sergaklantirishi kerak va albatta, unga partiya safida o'rin yo'q. O'rtoq, Sayoqov, siz kolxoz partorgi sifatida bu voqealarning hammasini tasdiqlaysizmi? — so'radi u Chorodan.

— Ha, tasdiqlayman, — dedi rangi oqarib ketgan Choro sekin o'rnidan turib. — Lekin men bir narsani aytmoqchi edim...

— Nima demoqchisiz?

— Birinchidan, men Bakasovni o'zimizning partiya tashkilotimizda muhokama qilishimizni so'rardim.

— Bu shart emas. Partiya tashkilotining a'zolariga raykom byurosi qarori haqida axborot berasiz. Yana nima kerak?

— Shuni aytib o'tmoqchi edimki...

— Nimani, o'rtoq Sayoqov? Bakasovning partiyaga qarshi xatti-harakatlari ko'rinib turibdi. Endi buni tushuntiradigan joyi yo'q. Siz ham javobgarsiz. Kommunistlar tarbiyalash sohasida ishlarni barbod qilganingiz uchun sizga ham chora ko'ramiz. Nima uchun siz o'rtoq Segizboyevni bu masalani byuroga qo'ymaslikka ko'ndirishga harakat qildingiz? Xaspo'shlamoqchimidingiz? Bema'nigarchilik! O'tiring!

Munozara boshlandi. MTS direktori va tuman gazetasining redaktori Karimbekovni quvvatlab chiqdilar. Bir on hatto Tanaboyni himoya qilish mumkindek ko'rindi. Tanaboyning o'zi esa ruhi tushgan va hayajonlanganidan hech kimning gapini eshitmasdi. U hadeb o'z-o'ziga savol berardi: «Mening butun orzu-umidlarim qayoqqa ketdi? Bizning otarlarda, podalarda bo'layotgan ahvol bilan bu yerdagilarning ishlari ham yo'q. Men ahmoq bo'lib yurgan ekanman. O'z umrimni kolxozni deb, qo'y-qo'zilar deb o'tkazdim. Hozir esa bularni hisobga olmayptilar. Endi men xavfli odamman. Jin ursin senlarni! Bilganlaringni qilinglar — agar shu bilan ishlar yaxshilanib ketadigan bo'lsa — achinmayman, meni urib haydanglar, mening kunim bitgan, uringlar, ayamanglar...»

Kolxoz raisi Aldanov soʻzga chiqdi. Uning basharasi va harakatlaridan Tanaboy kimnidir koyiyotganini sezdi. Lekin kimni? U «Kishan... yoʻrgʻa, Gulsari...» degan soʻzni eshitmaguncha buni tushunib yetmadi.

— ... Nima boʻldi deysizmi? — dedi Aldanov jahl bilan. — Biz otni tushovlab qoʻyishga majbur boʻlganimiz uchun u ochiqdan-ochiq menga, boshingni urib yoraman, deb doʻq urdi. Oʻrtoq Qashqatoyev, oʻrtoq byuro aʼzolari, men kolxoz raisi sifatida bizni Bakasovdan qutqarishlaringizni soʻraymai. Haqiqatan ham uning joyi turmada. U rahbar xodimlarning hammasini ham koʻrolmaydi. Oʻrtoq Qashqatoyev dahlizda Bakasovning menga qilgan doʻq-poʻpisalarini tasdiqlovchi guvohlar oʻtirishibdi. Ularni bu yerga taklif qilish mumkinmi?

— Yoʻq, hojati yoʻq, — jirkanganday yuzini burushtirdi Qashqatoyev. — Shu ham yetadi. Oʻtiring.

Keyin ovozga qoʻyishdi.

— Bitta taklif kiritildi. Oʻrtoq Bakasov partiya aʼzolari safidan oʻchirilsin. Kim qoʻshiladi?

— Bir daqiqa, oʻrtoq Qashqatoyev, — yana irgʻib oʻrnidan turdi Karimbekov. — Oʻrtoq byuro aʼzolari, biz bu bilan ogʻir xatoga yoʻl qoʻyayotganimiz yoʻqmi? Boshqa taklif bor. Bakasovning shaxsiy delosiga yozib qoʻyish sharti bilan, qattiq hayfsan berish bilan chegaralansin. Shu bilan birga byuro aʼzosi Segizboyevga ham kommunist Bakasovning insonlik shaʼnini tahqirlagani, raykomning vakili sifatidagi qoʻllagan yaramas ish metodi uchun hayfsan eʼlon qilinsin.

— Demagogiya, — baqirdi Segizboyev.

— Tinchlaninglar, oʻrtoqlar, — dedi Qashqatoyev. — Sizlar raykomning byurosida oʻtiribsizlar, uylaringda emas, tartibga rioya qilishingizni soʻrayman. — Bu yogʻi endi raykomning birinchi kotibiga bogʻliq edi. U masalani Segizboyev moʻljallagan tomonga burib yubordi. — Bakasovni jinoiy javobgarlikka tortishni menimcha keragi yoʻq. Lekin u partiya safida qolishga loyiq emas. Bu masalada oʻrtoq Segizboyev butunlay haqli. Ovozga qoʻyaman. Bakasovni partiyadan oʻchirilsin, degan oʻrtoqlar qoʻl koʻtarsin.

Byuro aʼzolari yetti kishi edi. Uchtasi oʻchirilsin, deb qoʻl koʻtardi, uchtasi qarshi. Faqat Qashqatoyevning oʻzi qoldi. U bir oz kechikib, oʻchirilsin deb qoʻl koʻtardi. Tanaboy hech narsani koʻrmadi. U oʻz masalasining hal qilinganligini faqat Qashqatoyevning kotiba ayolga aytgan soʻzlaridan keyingina eshitdi.

— Protokolga yozib qoʻying. Raykom byurosining qarori bilan oʻrtoq Bakasov Tanaboy partiya safidan oʻchirildi.

«Tamom!» — dedi ichida Tanaboy, murdaday sovib.

— Men Segizboyevga hayfsan berilishini talab qilaman, — dedi bo'sh kelmasdan Karimbekov.

Buni ovozga qo'ymasa ham bo'lardi. Lekin Qashqatoyev ovozga qo'yish kerak, degan qarorga keldi. Bunda o'zining yashirin maqsadi ham bor edi.

— Kim o'rtoq Karimbekovning taklifiga qo'shilsa qo'l ko'tarishlaringizni so'rayman. — Yana uch kishi uni yoqlab, uch kishi qarshi qo'l ko'taradi. Yana Qashqatoyev to'rtinchi bo'lib qo'l ko'tarib Segizboyevni hayfsandan qutqarib qoldi. «Lekin u buni bilarmikan, bu xizmatning qadriga yetarmikan? Kim biladi buni... Makkor, quv».

Odamlar ketishga tayyorlanib, o'rinlaridan qo'zg'alishdi. Tanaboy endi hamma narsa tamom bo'ldi deb o'yladi va indamay o'rnidan turdi, hech kimga qaramay eshik tomon yura boshladi.

— Bakasov, qayoqqa? — To'xtatdi uni Qashqatoyev. — Partiya biletingizni qoldirib keting.

— Qoldirib ketay? — Nima hodisa bo'lganini Tanaboy endi tushungan edi.

— Ha. Stolga qo'ying. Endi siz partiya a'zosi emassiz va uni olib yurishga haqingiz yo'q. Tanaboy partibiletini olish uchun qo'yniga qo'l soldi. Oraga cho'kkan jimlikda u ancha ivirsidi. Uning partibileti fufaykasi, kostyumi ostidagi charm sumkachada bo'lib, buni Jaydar tikib bergan edi. Bu sumkachani Tanaboy qayish o'tkazib yelkasiga taqib yurardi. Xullas, u sumkachani oldi. Qo'ynidan ko'ksiga tegib, badanining iliq hid urib qolgan partiya biletini oldi va Qashqatoyevning sovuq, yarqiroq stoli ustiga qo'ydi. Hatto o'zi ham sovuqqa qotgandek junjikib ketdi. Yana hech kimga qaramasdan sumkchasini qo'yniga solib ketmoqchi bo'ldi.

— O'rtoq Bakasov, — orqadan Karimbekovning ozozi eshitildi. Uning yuragi achigani bilinib turardi.

— O'zingiz nima deysiz? Axir siz bu yerda hech gap aytmadingiz-ku. Ehtimol sizga qiyin bo'lgandir? Biz o'ylaymizki, yuzingizga eshik yopilgani yo'q, ertami, kechmi yana partiya safiga qaytishingiz mumkin. Ayting-chi, hozir nima haqida o'ylaysiz?!

Tanaboy noqulay ahvolga tushib, hali ham qanday bo'lmasin o'z yelkasiga tushgan g'am yukini yengillatishga harakat qilayotgan notanish yigitga alam bilan qayrilib qaradi,

— Men nima ham derdim. Bu yerda hammasini gapirib bo'lmaydi, — dedi g'amgin. — Faqat bir narsani aytishim mumkin. Agar qo'l ko'targan bo'lsam

ham, yomon gaplar aytgan bo'lsam ham, hech aybdor emasman. Buni men sizlarga tushuntira olmayman. Gapning bo'lgani shu.

Oraga og'ir jimlik cho'kdi.

— Hm, demak, sen partiyadan xafa bo'lyapsanmi? — jahli chiqib dedi Qashqatoyev. — Lekin o'zing bilasan, o'rtoq. Partiya senga maslahat berib to'g'ri yo'lga soldi, seni suddan asrab qoldi. Sen bo'lsang bundan rozi emassan, qaytaga xafa bo'lyapsan. Demak, sen haqiqatan ham partiya a'zosi degan nomga munosib emassan. Bundan keyin senga eshik ochiq bo'lishi dargumon.

Tanaboy raykomdan ko'rinishidan bamaylixotir chiqdi. Haddan ziyod xotirjam ko'rinardi. Bu yomon alomat edi. Havo iliq, quyosh charaqlab turardi. Kech kirmoqda. Odamlar o'z ishlari bilan o'tib ketayotgan edilar. Klub oldidagi maydonda bolalar yugurib o'ynashardi. Tanaboy bularga qaragan sari o'z-o'zidan yuragi ezilardi. Bu yerdan tezroq jo'nash kerak, toqqa, o'z uyiga. Bundan ham yomonroq hodisa yuz bermasdan jo'nab qolish kerak.

Ot bog'laydigan g'ov oldida uning oti bilan yonma-yon Gulsari turardi. Tanaboy yaqinlashishi bilan katta, uzun baquvvat ot bir oyog'ini qo'yib, ikkinchi oyog'ini bosdi, qora, osoyishta ko'zlari ishonch bilan unga tikilib turdi. Tanaboy panshaxa bilan uning boshiga qanday urganini yo'rg'a allaqachon unutgan edi. Shuning uchun ham u ot-da.

— Esingdan chiqar, Gulsari, xafa bo'lma, — shivirladi yo'rg'aga Tanaboy. — Mening qayg'um og'ir. Juda og'ir. — Otning bo'ynidan quchoqlab xo'rsindi, o'tib turgan odamlardan uyalganidan o'zini zo'rg'a yig'idan tiydi.

Otiga minib uyga jo'nadi. Aleksandrovka tepaligidan o'tgandan keyin Choro unga yetib oldi. Orqadan yelib kelayotgan yo'rg'aning tanish tuyoq tovushlarini eshitishi bilan Tanaboy zarda bilan labini qimtib, o'shshaydi. Qayrilib ham qaramadi. Alamidan uning ko'ngli g'ash, ko'z oldi qorong'i edi. Endi Choro butunlay boshqa, avvalgiga sira o'xshamasdi. Mana bugun Qashqatoyev bir baqirib berishi bilan u xuddi intizomli o'quvchidek itoatkorona o'rniga o'tirib qoldi. Keyin nima bo'ladi? Odamlar unga ishonishadi, u bo'lsa to'g'ri gapni aytishdan qo'rqadi. Har gapida o'zini ehtiyot qilib gapiradi. Buni unga kim o'rgatdi? Mayli, Tanaboy qoloq odam, oddiy kolxozchi bo'lsin, ammo u savodli, hamma narsani biladi, butun umr rahbar bo'lib yuradi-ku. Bularning hammasi segizboyevlar va qashqatoyevlar aytganidek emas ekanligini nahotki Choro payqamasa! Ularning so'zlari sirti yaltiroq, aslida esa yolg'on va safsatadan iborat ekanligini nahotki bilmasa. U kimni aldayapti, nima maqsadda?

Choro chopaverib qizib ketgan yo'rg'ani jilovidan tortib yetib olganida, yonma-yon ketayotganlarida ham Tanaboy unga o'g'irilib qaramadi.

— Men birga qaytamiz deb o'ylagan edim, Tanaboy — dedi u nafasini rostlab. — Qarasam, sen jo'nab qolibsani...

— Senga nima? — dedi hamon unga qaramay Tanaboy. — O'z yo'lingga ketaver.

— Kel, gapirishib olaylik. Yuz o'girma, Tanaboy. Do'stona, kommunistlarcha gapirishamiz, — gap boshladi Choro va gapi og'zida qoldi.

— Men senga do'st emasman, buning ustiga endi kommunist ham emasman. Ha, sen ham ko'pdan beri kommunist emassan. Tilyog'lamalik qilyapsan.

— Sen buni jiddiy gapiryapsanmi? — so'radi Choro, past ovoz bilan.

— Albatta, jiddiy. So'z tanlashni ham o'rganganim yo'q. Nimani, qayerda va qanday gapirishni ham bilmayman. Xayr bo'lmasa, sen to'g'riga ketasan, men esa bu yoqqa burilaman. — Tanaboy otni yo'ldan chetga burdi, qayrilmasdan va do'stining yuziga biron marta ham qaramasdan otni to'g'ri dala orqali toqqa haydab ketdi.

U Choroning murdaga o'xshab oqarib ketganini, qo'lini cho'zib buni to'xtatishni istaganini va keyin tomirlari tortishib, ko'kragini ushlaganicha, yo'rg'aning yoliga yotib olganini, og'zini kappa-kappa ochib nafas olayotganini ko'rmadi.

— Ahvolim chatoq, — pichirladi Choro, chidab bo'lmas og'riqdan g'ujanak bo'lib, — voy, ahvolim yomon! — xirillardi u ko'karib, nafasi qisilib. — Tezroq, ovulga, Gulsari, tezroq, ovulga.

Yo'rg'a qorong'i, kimsasiz dashtda ovul sari uchib borardi, ustidagi odamning ovozi otni cho'chitardi, ovozida allaqanday qo'rqinchli, vahimali narsa bor edi. Chopib borayotib Gulsari qo'rquvdan pishqirar va quloqlarini chimirardi. Odam esa egar ustida azob chekar, g'ujanak bo'lib, titragan qo'llari va tishlari bilan otning yoliga mahkam yopishib olgan edi. Tizgin chopib borayotgan Gulsarining bo'ynida osilib borardi.

## XX

**K**ech payti edi, Tanaboy hali yo'lda toqqa ketayotganida, ovul ko'chalaridan bir otliq chopib o'tdi, bezovtalangan itlar huriy boshladi.

— Hoy, bu hovlida kim bor? Bu yoqqa chiq! — chaqirdi u hovli egasini. — Idoraga, partiya majlisiga.

— Nima gap o'zi? Nega muncha shoshilinch?

— Bilmadim, — javob berdi xabarchi. — Choro chaqiryapti. Tezroq kelishsin dedi.

Choroning o'zi esa shu mahal idorada o'tirgan edi. Yelkalarini stol chetiga qo'yib hansirab nafas olar, panjasi bilan ko'ylagi ostidan ko'kragini qattiq g'ijimlardi. Og'riq azobidan ingrar, lablarini tishlardi. Ko'karib ketgan yuzlaridan sovuq ter chiqdi. Qovoqlari ko'kargan, ko'zlari ichiga tushib ketgandi. Ba'zan u hushidan ketib, nazarida yana qorong'i dashtlikda yo'rg'a ustida kelayotganday edi, Tanaboyni chaqirishni istardi-yu, u nishtarday botadigan so'zlarni aytib, orqasiga ham qaramay ketardi. Tanaboyning so'zlari uning yurak-bag'rini yondirib, o'rtar edi...

Pichan ustida yotib bir oz dam olgandan so'ng partorgni qo'ltig'idan ushlab otxonadan bu yoqqa olib keldilar. Otboqarlar uni hovlisiga olib ketmoqchi bo'ldilar, lekin u bunga ko'nmedi. Kommunistlarni chaqirib kelishga odam yuborib, endi ularni ana keladi, mana keladi deb kutardi.

Qorovul ayol chiroqni yoqib, Choroni holi qoldirdi-da, dahlizdagi pechkaga o't qo'yish bilan ovora bo'ldi, u ba'zan qiya ochilgan eshikdan qarab uh tortib, boshini chayqab qo'yardi.

Choro odamlarni kutardi, vaqt esa imillab o'tayotgan edi. Unga ato qilingan va ko'pgina qismini yashab bo'lgandan keyingina qadriga yeta boshlagan bu hayot endi har daqiqa sayin achchiq va alamli tomchilar singari tomib tamom bo'layotganday edi. U kunlari va yillari qanday o'tganini payqamay qoldi. Hashpash deguncha ular mehnat bilan o'tib ketdi. Uning kutgan narsasining hammasi ro'yobga chiqmadi: hamma narsa u istagancha bo'lmadi. Harakat qildi, kurashdi, biroq mushkuldan qutulish uchun, yurish bunchalik xatarli bo'lmasin uchun allaqayerlarda chekindi, chetlab o'tdi. Ammo ularni chetlab o'tolmadi. To'qnash kelib qolishdan qo'rqib yurgan kuch uni boshi berk ko'chaga siqib qo'ygan edi, endi chekinish mumkin emasdi, yo'l tamom bo'lgandi. Eh, agar u o'z xatosini ertaroq tushungandami, hayot ko'ziga tik qarashga o'zini vaqtliroq majbur etgandami... Hayot achchiq va alamli tomchilar singari tomib tugab borayotgandi. Odamlar tezroq kelaqolsa bo'lmaydimi! Muncha uzoq kuttirishyapti!

«Faqat ulgursam bo'lgani, — qo'rquv aralash o'ylardi Choro. — Hammasini aytishga ulgursam bas! — Bu umidsiz, unsiz nido bilan so'nib tugallanayotgan hayotini saqlab turardi. O'zini dadil tutishga harakat qilib, so'nggi jangga hozirlanardi. — Ishning qanday sodir bo'lganligini, byuroning qanday o'tganligini, Tanaboyning partiyadan qanday chiqarganliklarini hammasini gapirib beraman. Bilib qo'yishsin: men raykomning bu qaroriga qo'shila olmayman. Bilib qo'yi-

shsin: men Tanaboyning partiyadan chiqarilishiga rozi emasman. Aldanov haqida qanday fikrda bo'lsam, barisini aytib beraman. Mayli, mendan keyin uning ma'ruzasini eshitishsin. Mayli, kommunistlar hal qilishsin.

Men kim ekanligimni batafsil so'zlab beraman. Kolxozimiz haqida, kishilar haqida gapiraman... Faqat ulgurish kerak, tezroq kelishsa edi, tezroq...»

Birinchi bo'lib xotini dori bilan yetib keldi. U juda qo'rqib ketgan edi, bir narsa deb yig'lardi.

— Aqling joyidami o'zi? Nahotki shu majlislardan to'y mangan bo'lsang. Yur uyga. Rang-ro'yingga qara, hech bo'lmasa o'zing to'g'ringda o'ylab ko'rsang-chi!

Choro eshitishni istamasdi. Dorini icha turib qo'l siltadi. Tishlari stakanga urilib, ko'kragiga oqib tushdi.

— Hech qisi yo'q, endi o'zimni yaxshi sezyapman, — deyardi u bir maromda nafas olishga harakat qilib. — Sen meni u yerda kutib tur, keyin boshlab olib ketasan. Qo'rqma, boraver.

Ko'chada kishilarning oyoq tovushi eshitalishi bilan Choro stol yonida qad-dini rostladi, o'zining so'nggi burchi deb hisoblagan narsalarni ado etish uchun og'riqqa bardosh berib, bor kuchini to'pladi:

— Nima hodisa yuz berdi? Senga nima bo'ldi, Choro? — so'rashardi undan.

— Hech nima. Hozir aytaman, hammasi kelishsin, — javob berdi u.

Umr achchiq va alamli tomchilar singari tomib, tugab borayotgandi.

Kommunistlar to'planishganda partorg Choro Sayoqov stoldan turib, boshidan telpagini oldi va partiya majlisi ochiq deb e'lon qildi...

## XXI

**T**anaboy uyiga tunda yetib keldi. Jaydar hovliga fonar ko'tarib chiqdi. Kutaverib ko'zlari to'rt bo'lgandi. U eriga ko'zi tushishi bilanoq allaqanday musibat yuz berganini angladi. Tanaboy jimgina otining suvlig'ini chiqardi, egarini olib qo'ydi. Jaydar esa chiroqni tutib turardi. Tanaboy lom-mim demasdi. «Tumanda ichib olganida ehtimol, o'zini yengil sezarmidi», dilidan o'tkazdi xotin. Tanaboy esa hamon gapirmasdi. Uning bu sukuti tobora dahshatliroq bo'lib tuyulardi. Bechora Jaydar bo'lsa uni xursand qilmoqchi edi: tumandan bir oz xashak, somon va arpa uni keltirishgandi. Havo ham ancha isib, qo'zilarni yaylovga chiqardilar, ular endi maysalarni chimtib yemoqdalar.

— Bektoyning otarini olib ketishdi, yangi cho'pon yuborishdi. — dedi u.

— E xudo ursin, o'sha cho'poningni ham, Bektoyu otaringni ham.

— Charchadingmi?

— Nega charchar ekanman? Partiyadan haydashdi!

— Sekinroq, saqmonchilar eshitib qolishadi.

— Eshitsa nima? Nega yashirar ekanman. Daydi itdek haydab yuborishdi. Shunday qilishlari kerak edi. Seni ham shunday qilish kerak. Bizdaqangilarga bu ham oz. Nega turib qolding? Muncha ag'rayasan?

— Borib dam olgin.

— Buni o'zim ham bilaman.

Tanaboy qo'yxona tomon ketdi. Qo'ylarni ko'zdan kechirdi. So'ng qo'raga chiqib, qorong'ida tentirab yurdi-da, yana qo'yxonaga qaytib keldi. O'zini qo'yarga joy topolmasdi. U ovqatlanishdan ham, gapirishdan ham bosh tortgan edi. Bir burchakdagi somon ustiga o'zini tashlab qimir etmay yotdi. Tikchilik, kundalik tashvish, hadiksirashlar endi bir pul edi. Uning ko'ngliga qil sig'masdi. Yashashni ham, o'ylashni ham, atrofda biron narsani ko'rishni ham istamasdi.

Tanaboy u yoqqa ag'anardi, bu yoqqa ag'anardi, hamma narsani esdan chiqarib uxlamoqchi bo'lardi. Biroq hamma narsani unutib bo'larmidi? U yana o'tgan ishlarni esladi. Bektoyning qay tarzda otarni tashlab ketganligi, oppoq qorda uning qora izlari qolganligi, Bektoyning so'ziga javoban og'iz ocha olmaganligini birma-bir esga oldi, yana Segizboyevning yo'rg'a ustidan turib baqirib, og'izga olib bo'lmaydigan so'zlar bilan uni so'kkani, turmaga solaman deb do'q urgani, tuman partiya qo'mitasining byurosida Tanaboyni zararli shaxs va xalq dushmani deb ataganlarini xayoldan o'tkazdi. Shu bilan hamma narsa, uning butun hayoti tugaganday edi. Yana biron bir jarga yiqilib tushib bo'yni sinmaguncha panshaxani ushlab, qorong'i tun qa'riga qarab chopish, dodini falakka yetkazib faryod chekishni istardi.

Ko'zi uyquga ketarkan, u bunday hayotdan ko'ra o'lim afzal deb o'ylardi. Ha, ha, o'lim afzal!

...Boshi og'rib uyqudan turdi. Bir necha daqiqa o'zining qayerdaligini, nima bo'lganligini anglay olmadi. Yon-atrofida qo'ylar yo'talishar, qo'zichoqlar ma'rashardi. Endi bilsa qo'yxonada yotgan ekan. Hovlida tong yorishib kelmoqda. Nega uyg'ondi? Nima uchun? Uyg'onmagani ma'qul edi. Birgina o'limdan boshqa iloj qolmadi, o'zini o'ldirishi kerak.



...Shundan so'ng u ariqdan hovuchlab suv ichdi. Suv nihoyatda sovuq bo'lib, yuzi yupqagina muzlagan edi. Qaltiroq barmoqlari orasidan suv shildirab oqib tushar, u bo'lsa yana hovuchini suvga to'ldirib, sipqarib ichardi. Bir oz nafasini rostlab o'ziga keldi, faqat shundagina u o'zini o'ldirish haqidagi fikri ahmoqona fikr ekanligini tushunib yetdi. Insonga bir marta beriladigan hayotdan qanday qilib o'zini mahrum etish mumkin?! Segizboyevlar shunga arziydimi? Yo'q, hali Tanaboy yashashni xohlaydi, hali u tog'ni talqon qiladi...

Uyiga qaytib kelib miltiq va patrontoshni sekingina bekitib qo'ydi va shu kuni kechgacha ishladi. Xotini bilan, qizchalari va saqmonchi ayollar bilan shirin muomalada bo'lmoqchi edi-yu, lekin xotinlar biron narsani sezib qolishmasin deb o'zini qo'lga oldi. Xotinlar esa, go'yo hech narsa ro'y bermaganday, hamma ish joyida ekanday, o'z ishlari bilan mashg'ul edilar. Tanaboy ularning bu qilg'idan g'oyat xursand edi va lom-mim demasdan ishni davom ettiraverardi. U yaylovga chiqib, qo'ylarni haydab kelishga yordam berdi.

Kechqurun havo ayniy boshladi. Qor yoki yomg'ir yog'ishi aniq edi. Chor atrofdagi tog'larni tuman qoplab, ko'k yuzini esa qalin bulutlar chulg'ab olgan edi. Yana qo'zichoqlarni sovuqdan asrash haqida bosh qotirish kerak edi. Yana qirg'in boshlanmasin uchun qo'yxonani tozalab, ostiga somon sochish lozim edi. Tanaboy diqqat bo'lar, lekin o'tgan voqealarni imkoniyati boricha unutishga, umidsizlikka tushmaslikka harakat qilardi.

Havo qorong'ilashganda qo'rada bir otliq paydo bo'ldi. Jaydar uni qarshi oldi. Ular allanimator haqida gaplashishardi. Bu vaqt Tanaboy qo'yxonada ish bilan band edi.

— Bir daqiqaga bu yoqqa chiq, — xotini uni chaqirdi, — bir odam kelibdi. — Tanaboy xotining ovozi qandaydir ko'ngilsiz voqea ro'y berganini sezdi.

Hovliga chiqib, otliq bilan ko'rishdi. U odam qo'shni ovulning cho'poni ekan.

— E, Aytboy, senmisan? Otdan tush. Qayerlardan so'raymiz?

— Ovuldan kelayotirman. Bir ish bilan borgan edim. Aytishlaricha, Choro qattiq kasal ekan. Sen albatta oldiga borarmishsan. Shunday deb tayinladilar.

«Yana Choro». Unutilgan g'am-alamlar yana qaytadan yangilanadi. Tanaboy uning diydorini ko'rishni istamasdi.

— Nima, men do'xtirmidim? U hamisha kasal. Usiz ham tashvishim boshimdan oshib yotibdi. Ko'rib turibsanku, havoning avzoyi ham buzilib kelyapti.

— Borasizmi, bormaysizmi, bu yog'ini o'zingiz bilasiz. Menga tayinlagan gaplarini kelib aytdim. Xayr, vaqtim ziq, kech tushib qoldi.

Aytboy otini yo'lga burdi-yu, lekin yana jilovnni tortib dedi:

— Tanaka, yana bir o‘ylab ko‘r. Ahvoli yomon. O‘g‘lini o‘qishdan chaqirtirib-dilar. Vokzalga kutib olgani ketishibdi.

— Xabar keltirganing uchun rahmat. Ammo men bormayman,

— Boradi, — uyalib-qizarib gapga aralashdi Jaydar, — tashvish tortmang, boradi u.

Tanaboy indamadi. Ammo Aytboy bir oz uzoqlashgach xotiniga o‘shqirdi:

— Sen bu odatingni tashla. Nega mening nomimdan sen javob berasan? Nima qilishimni o‘zim bilaman. Bormayman, dedimmi, bormayman!

— Nima deyaotganingni bilyapsanmi, Tanaboy?

— Uylab o‘tirishimning hojati yo‘q. Yetar endi. Andisha qila-qila partiyadan ham chiqib qoldim. Mening endi hech kimim yo‘q. Men kasal bo‘lsam, biron kimsa ko‘rgani kelmasin. Bir o‘zim peshonamdagini ko‘rarkan! — dedi g‘azab bilan qo‘l siltab va qo‘yxona tomon odimlab ketdi.

Lekin ko‘ngli hamon joyiga tushmasdi. Ona qo‘ylar oldidan yangi tug‘ilgan qo‘zichoqlarni ko‘tarib, ularni bir burchakka eltib qo‘yar, qo‘ylar orasida yurib borayotib, ma‘rayotgan qo‘ylarga «chu» deb, o‘z-o‘zicha do‘ng‘illab qo‘yardi:

— Allaqachonlar ketganida bunchalik azob tortmasdi. Qachon qarasang yuragini changallab yuradi-yu, lekin egardan tushmaydi. Boshliq emish! Yelkamning chuquri ko‘rsin seni. Xafa bo‘lsang bo‘laver, men ham sendan xafaman. Hech kim bilan ishim yo‘q...

Hovli qorong‘i. Qor asta-sekin yog‘a boshladi. Koinot shu darajada xomush va sokin ediki, hatto qor zarrachalarining yerga tushayotgani ham eshitalardi.

Tanaboy o‘tovga kirmadi, xotini bilan gaplashishdan o‘zini olib qochib yurdi. Jaydar ham uning oldiga kelmasdi. «O‘sha yerda o‘tirsang o‘tiraver, — deb o‘yladi Tanaboy. — Lekin meni borishga majbur etolmaysan. Endi men uchun bularning hammasi ahamiyatsiz. Men bilan Choro mutlaqo begona kishilarmiz. Uning yo‘li boshqa-yu, mening yo‘lim boshqa. Oldin do‘st bo‘lsak ham endi begonamiz. Agar men uning do‘sti bo‘lsam shu mahalgacha u qayerda edi? Yo‘q, men uchun endi bu ahamiyatsiz...»

Oxiri Jaydar uning oldiga keldi. U erining qishlik chakmoni, yangi etik, belbog‘, qo‘lqop va telpagini keltirgandi.

— Kiyimingni kiy, — dedi u.

— Bekorga urinyapsan. Hech qayerga bormayman.

— Vaqtini o‘tkazma, biron hodisa sodir bo‘lsa, keyin o‘zing umr bo‘yi pushaymon bo‘lib yurasan.

— Pushaymon qilmayman. Hech qanday hodisa ham ro‘y bermaydi. Bir oz yotadi-da, yana ishiga chiqib ketadi. Biz uni endi ko‘ribmizmi.

— Tanaboy, men sendan hech vaqt biron narsa iltimos qilmagan edim. Mana endi sendan iltimos qilaman. Alam-qayg‘ularingni menga qoldirginu, o‘zing borigin, bir odamgarchilik qil!

— Yo‘q! — qaysarlik bilan bosh chayqadi Tanaboy. — Bormayman. Endi men uchun bularning hammasi baribir. Sen odob va odatni o‘ylaysan. «Odamlar nima deydi» deb o‘ylaysan endi. Mening hech narsa bilan ishim yo‘q.

— Esingni yig‘ib ol, Tanaboy. Men borib olovdan xabar olay, yana kigizga cho‘g‘ sachramasin.

Jaydar erining ust-boshlarini uning oldida qoldirib ketdi. Lekin Tanaboy o‘rni-dan qimirlamadi. Bir burchakda xayolga cho‘mib o‘tira berdi, o‘z qarorini buzishga jur‘at etolmadi, Choroga aytgan so‘zlarini ham xotirasidan chiqarib tashlay olmasdi. Endi-chi: «Assalomu alaykum, bir ko‘rib ketay deb keldim, sog‘liging qalay? Biron yordamim kerak emasmi» deb borsinmi? Yo‘q-yo‘q, u bunday qila olmaydi, bunga odatlanmagan. Jaydar qaytib keldi.

— Hali kiyimlaringni kiymadingmi?

— Jonimga tegaverma. Bormayman dedim-ku...

— O‘rningdan tur! — G‘azab bilan baqirdi Jaydar. Tanaboy xuddi koman-dirning buyrug‘ini bajargan askardek o‘rnidan sakrab turganini sezmay qoldi. Jaydar yaqin kelib fonarning xira shu‘lasida g‘am cho‘kkan g‘azabli ko‘zlarini eriga tikdi. — Agar sen erkak bo‘lmasang, inson bo‘lmasang, mushtipar bir ojiza bo‘lsang, sen uchun men boraman, sen esa lab-lunjingni osiltirib o‘tiraver! Hozi-roq jo‘nayman. Bor, otni darhol egarla.

Tanaboy xotini-ni-ni farmoniga bo‘ysunib, otni egarlagani ketdi. Eshikda maydalab qor yog‘ayotgan edi. Zulmat go‘yo girdobdek charxpalaksimon tovu-shsiz aylanardi. Zim-ziyo qorong‘ilikda hatto tog‘lar ham ko‘rinmasdi. «Endi bu ko‘rgilik ham bor ekan! Shunday qorong‘i kechada tanho o‘zi qayerga bora-di? — qorong‘ida ot ustiga egar tashlar ekan, dilidan o‘tkazdi u, — koshki gapga kirsang. Aytganini qilmasdan qo‘ymaydi. O‘ldirsang ham qaytmaydi. Yo‘lda biron hodisa yuz bersa nima bo‘ladi? He, o‘zidan ko‘rsin...»

Tanaboy otni egarladi-yu, o‘z-o‘zidan uyalib ketdi. «Rostdan ham odam emas-man. Meni xafa qildilar deb aqlimni yeb qo‘yibman. Ranjiganimni hammaga namoyish etib yuribman: mana ko‘ring, men qanday g‘amgin, ahvolim naqadar og‘ir deb jar solmoqdaman. Bechora xotinimni ham qiynab yubordim. Unda

nima gunoh bor? Nega uni bunchalik qiynayman? Bu ishim yaxshilikka olib bormaydi. Men yaramas odamman. Hayvonman, ha hayvon!»

Tanaboy ikkilanib qoldi. Lekin o'z gapidan qaytish xam oson emas edi. U boshini quyi solganicha uyga qaytib keldi.

— Egarladingmi?

— Ha!

— Bo'lmasam min, — dedi-da, Jaydar plashni uzatdi.

Tanaboy indamay kiyina boshladi. U xotining birinchi bo'lib murosaga kelganidan xursand edi. Ayni vaqtda u xo'ja ko'rsinga sarkashlik qilib:

— Ertaga borsam-chi? — dedi.

— Yo'q, hozir yo'lga tush. Keyin kech bo'ladi.

Tog'larni sekin-asta tun zulmati qoplab olayotgan edi.

Laylak qor sekin-asta, bir maromda uchib tushayotgan edi. Tanaboy qop-qorong'i yonbag'irlar bo'ylab bir vaqtlari tark etgan do'sti tomon tanho yelib borardi. Boshiga, yelkalariga, soqoli va qo'llariga qor uchqunlari yopishib qolardi. Tanaboy egarda qimirlamay o'tirar, ustidagi qorlarni ham qoqmasdi. Shu zaylda xayol surish qulay edi. U Choro haqida, ularni bir-biriga uzoq yillar do'st qilib qo'ygan narsalar haqida o'ylardi, Choro unga savod o'rgatgan paytlarini, keyin esa birgalikda komsomolga va so'ngra partiyaga kirgan kezlarini o'ylardi. Bir vaqtlari Choro bilan kanal qurilishida birga ishlaganlarini, kunlardan birida Choro Tanaboyning surati bilan u haqda kichik maqola bosilgan gazetani hammadan oldin olib kelib, hammadan oldin Tanaboyning qo'lini siqib tabriklaganligini esladi.

Tanaboyning ko'ngli borgan sari yumshar va qalbini allaqanday nogahoniy tashvishli his qamrab olar edi: «Hozir ahvoli qanday ekan-a? Bordi-yu, haqiqatda ham ahvoli og'ir bo'lsa-chi? Nega o'g'lini chaqirtirdi ekan? Yoki unga biron narsa demoqchimikan? Vasiyat qilib, vidolashmoqchimikan?..»

Tong yorishib kelmoqda. Hamon charx urib qor yog'ardi. Tanaboy otini haydab yeldirib ketdi. Hademay anavi tepaliklar etagidagi pastqamlikda ovul ko'rinadi. Choroning holi nima kechdi ekan? Tezroq yetib borish kerak.

Nogoh ovul tomondan tong sukunati ichida allanechuk mungli nola qulog'iga chalindi. Go'yo kimningdir faryodi eshilib yana jimib qoldi. Tanaboy otning jilovini tortib, shamol kelayotgan o'sha tomon quloq solib turdi. Hech narsa eshiltimasdi. Ehtimol, uning qulog'iga shunday eshiltgandir.

Ot Tanaboyni tepalikka olib chiqdi. Pastlikda, qor ostida qolgan polizlar va yang'och daraxtlar orasida kimsasiz ovul ko'chalari cho'zilib yotardi. Hali erta

bo'lgani uchun ko'chalarda hech kim ko'rinmasdi. Faqat bir hovli oldida odamlar to'dasi qorayib ko'rinar, otlar daraxtlarga qantarib qo'yilgan edi. Bu Choroning hovlisi edi. Nega u yerda odamlar bunchalik ko'p. Nima bo'ldi ekan? Nahotki...

Tanaboy uzangida qomatini rostlab, entika-entika muzdek havodan chuqur bir nafas oldi-da, jimib qoldi va shu zahityoq otini pastlikka qarab soldi. Yo'g'e. Bunday bo'lishi mumkin emas. Ko'ngli behuzur bo'la boshladi, go'yo u yerda sodir bo'lgan biron voqea uchun o'zini gunohkor deb his etar edi. Yagona do'sti abadiy ko'z yumish oldida vidolashmoq uchun chaqirsa-yu, u qaysarlik qilib, o'jarlik qilib, arazlab yursa. Endi u nima degan odam bo'ldi. Nega xotini uning yuziga «tuf» demadi? Jon talvasasida yotgan kishining oxirgi iltimosiga quloq solishdan ham sharaffiroq narsa bormi bu dunyoda?

Tanaboyning ko'z o'ngida yana o'sha Choro yo'rg'a samanda orqasidan yetib kelgan dasht yo'li namoyon bo'ldi. O'shanda u Choroga nimalar demagandi? Uning bu gunohlarini kechirib bo'ladimi endi?

Tanaboy ot ustida o'z aybi va or-nomus yuki ostida egilganicha qorli ko'chadan es-hushidan ayrilib borardi.

U birdan Choro hovlisi ro'parasida bir guruh otliqlarni ko'rdi. Ular ovoz chiqarmasdan to'planishib kelishardi. Kutilmaganda ular egarda to'lg'anishib baravariga dod-faryod cheka boshladilar.

— Oybay, bavrimary! Oybay, bavrirm!

«Qozoqlar kelishibdi», — dedi Tanaboy va do'stidan judo bo'lganini endi bildi. Daryoning naryog'idan kelgan qo'shni qozoqlar Choro uchun eng yaqin birodarlari va qo'shnilari uchun butun okrugda mo'tabar bo'lgan, o'zlarining yaqin do'stlari uchun ko'z yoshi to'kar edilar. «Rahmat sizlarga, do'stlar, — ko'nglidan o'tkazdi Tanaboy. — Ota-bobolarimiz davridan beri sizlar shodligimizga ham, g'am-anduhimizga ham sherik edingiz, to'yu uloqlarni birga o'tkazar edik. Ha, do'stlar yig'lang, biz bilan yig'lang!»

Ularga qo'shilib Tanaboyning o'zi ham bor ovoz bilan faryod chekib butun tonggi ovulni larzaga keltirdi.

— Choro-oo! Choro-o-o-o! Choro-o-o-o!

U otini yo'rttirib borar ekan, egar ustida u yoqdan-bu yoqqa chayqalib bu dunyodan ko'z yumgan do'sti xotirasi uchun zor-zor yig'lar edi.

Mana Choroning hovlisi. Gulsarini eshik oldiga bog'lab qo'yibdilar, uning ustida motam yopig'i. Sag'risiga tushayotgan qor uchqunlari asta-sekin erib ketayotgan edi. Gulsari endi egasiz qoldi. Quruq egar bilan turardi.

Tanaboy o'zini otining yoliga tashlar, qaddini ko'tarib, yana tashlanar edi. Kishilarning yuzini tuman bosgandek zo'rg'a ajrata olardi. Hamma yoqda yig'isig'i. G'alag'ovur ichida kimningdir:

— Tanaboyni otdan tushirib, Choroning o'g'li oldiga olib boringlar, — deganini ham eshitmasdi.

Bir necha kishi uni otdan tushirishga yordamlashdi, qo'ltig'idan olib, odamlar orasidan olib o'tishdi.

— Meni kechir, Choro, meni kechir! — yig'lardi Tanaboy.

Hovlida Choroning o'g'li student Shomansur uy devoriga yuzini qo'rganicha turardi. U o'girilib jiqqa yoshga to'lgan ko'zlarini Tanaboyga tikdi. Ular yig'lab quchoqlashib ko'rishishdi.

— Sen otangdan, men do'stimdan judo bo'ldik! Meni kechir Choro! Meni kechir! — Entikib ho'ngrab yig'lardi Tanaboy.

So'ngra ularni ajratishdi. Shu payt Tanaboyning ko'zi yonida turgan xotinlar orasidagi Bibijonga tushdi. U Tanaboyga qarab ko'z yoshlarini duv-duv to'kardi. Uni ko'rish bilan Tanaboy yanada ho'ngrab yig'lab yubordi.

U Bibijonning yaqinroq kelib, tasalli berishini, ko'z yoshlarini artishini istardi. Ammo u yaqin kelmadi. Joyida turganicha yig'lardi. Tanaboyni boshqalar ovutmoqchi bo'lishardi.

— Bas qil, Tanaboy, yig'idan naf yo'q, bo'ldi endi. Bundan uning dard-alami oshib, yana zor-zor yig'lardi.

## XXII

**P**eshindan so'ng Choroni dafn etdilar. Quyoshning so'nik gardishi harakatsiz oqish bulutlar orasidan zo'rg'a ko'rinardi. Hamon havodan yumshoq ho'l qor parchalari uchib tushayotgan edi. Ko'mishga ketayotganlar kumushdek oppoq dalada tinch oqar qoramtil daryo kabi oqib borayotgan edi. Bu daryo go'yo bu yerda kutilmaganda paydo bo'lib, birinchi daf'a o'ziga yo'l ochib borayotganday edi. Oldinda bortlari ochiq mashinada dafn etiladigan oppoq namatga mahkam o'rab qo'yilgan Choroning jasadini olib ketayotgan edilar. Uning yonida xotini, bola-chaqalari, qarindosh-urug'lari o'tirishardi. Qolgan boshqa otliqlar esa mashinaga ergashib borardi. Tanaboy va Shomansur mashina orqasidan piyoda borishardi. Tanaboy marhum do'stining oti — egarlog'liq Gulsarini yetaklab olgandi.

Ovuldan chiqaverishda yo'l yumshoq qor bilan qoplangan edi. U ot tuyoqlari ostida toptalib, odamlar ketidan qora bir tasma singari cho'zilib borardi. Bu yo'l go'yo Choroning so'nggi yo'lini belgilab berayotganday, tepalik orqali qabristonga burildi. Endi bu yerda Choroning yo'li tugar edi.

Tanaboy otni jilovidan ushlab yetaklab borar ekan, unga qarab o'z ichida shunday deyardi:

«Ikkovimiz Choromizdan ajraldik, Gulsari. Endi u yo'q, endi uni topib bo'lmaydi... O'sha kuni meni nega chaqirmading, meni yo'lda to'xtatmading? Xudo senga til bermagan-da. Men inson bo'lsam ham sendan tuban ekanman. O'z do'stimni yo'l o'rtasida tashlab ketdim, unga qayrilib ham qaramadim, yo'limdan ham qaytmadim, o'ylab ham ko'rmadim. Choroni men o'ldirdim, ha, so'z bilan o'ldirdim, so'z bilan...»

Tanaboy yo'l bo'yi to qabristonga bora-borguncha Chorodan kechirim so'rab bordi. Qabristonda, Shomansur bilan birgalikda lahadga tushib Choroning jasadini mangu yotog'iga qo'yayotganda ham:

— Alvido, Choro! Meni kechir, eshityapsanmi, Choro, meni kechir! — der edi.

Avval odamlar kaftlarida siqimlab tuproq tashlashdi. So'ng chor tarafdan belkuraklar bilan tuproqni surib tushira boshlashdi. Birpasda go'r to'lib, ustida yangi bir qabr hosil bo'ldi.

Kechir, Choro!..

\* \* \*

Fotihadan so'ng Shomansur Tanaboyni bir chekkaga chaqirib:

— Sizda ishim bor, Tanaka, gaplashib olishimiz kerak, — dedi.

Ular hovli orqali odamlar orasidan, tutab yotgan samovarlar va gulxanlar oldidan o'tib, boqqa chiqishdi. Ariq labidan yurib polizning narigi yog'idagi yangi yiqitilgan daraxt tanasiga borib o'tirishdi. Ular bir oz jim o'tirishdi, har biri o'zi-cha xayol surardi. «Inson hayoti shu ekan-da, — o'ylardi Tanaboy. — Kechagina bola bo'lgan Shomansur bugun ajabtovur yigit bo'lib qopti. G'am-g'ussa uni yana ulg'aytirib qo'yibdi. Endi u Choroning o'rniga o'rinbosar bo'lib qoldi. Endi bir-birimiz bilan teng odamlardek gaplashamiz. Shunday ham bo'lishi kerak. O'g'illar otalarining o'rnini egallaydi. O'g'illar otaning ishini davom ettirishadi. Ilohi, otasidek bo'lsin. Lekin bizlardan ilgarilab ketishsin, aql-farosatda, ishbilarmonlikda bizdan yuksak ko'tarilishsin, xalqqa xizmat qilib o'zlari ham baxtli bo'lishsin. Biz,

otalar bizdan o'zib ketsinlar, bizdan ko'ra yaxshiroq ishlab, yaxshiroq yashasinlar degan umidda farzand o'stiramiz... Ha, bizning umidimiz shu».

— Shomansur, sen endi oila boshlig'isan, — keksalardek soqolini silab dedi Tanaboy. — Endi sen Choroning o'rnini bosasan. Men esa sening gaplaringga quloq solaman.

— Tanaka, men otamning vasiyatini sizga aytmog'im kerak, — dedi Shomansur.

Tanaboy bir seskanib tushdi, o'g'lining gapirishi va ovozidan otasining so'z ohangi eshitildi, o'sha yigit Choroning ruhiyatini his etdi. Choroning yoshlik yillarini Shomansur bilmasdi, Tanaboy esa uni bilardi va esda yaxshi saqlab qolgan edi. Tanishlari tirik ekan, inson o'lmaydi, deb bekorga aytishmagan ekan.

— Qulog'im senda, o'g'lim.

— Men otamni ko'z yummasdan oldin ko'rishga muyassar bo'ldim, Tanaka. Kecha tunda o'limidan bir soat ilgari yetib kelishga ulgurdim. Oxirgi nafasga qadar es-hushi o'zida edi. Ko'zlari, Tanaka, sizga intizor edi. «Tanaboy qani? Kelmadimi?» deb hadeb so'rardi. Biz esa sizni yo'lda, hozir yetib keladi, deb tasalli berardik. Aftidan sizga nimadir aytmoqchi edi, lekin muyassar bo'la olmadi.

— Ha, Shomansur. Bizning bir-birimiz bilan ko'rishishimiz juda zarur edi. Bir umrga dilimda armon bo'lib qoldi. Bunga men aybdorman. Ertaroq yetib kelolmadim.

— Xo'sh, otam menga bir narsani tayinladi. O'g'lim, Tanakangga aytgin, kechirim so'rayman, gina-kudurat saqlab yurmasin, mening partiya biletimni uning o'zi tuman partiya qo'mitasiga olib borib topshirsin. Mening biletimni Tanaboyning o'zi, o'z qo'li bilan eltib topshirsin, yana unutmagin, albatta unga yetkazgin.

Shundan so'ng hushidan ketdi. Qiynaldi. Jon berayogganda ham kimnidir kuyayotganday qaradi. Yig'i aralash allanimalarni uqtirdi, ammo biz anglay olmadik.

Tanaboy indamay o'tirar, hiq-hiq yig'lab, soqolini silardi. Choro ketdi. Ha, Tanaboyning dilini yarimta qilib, hayotining bir qismini olib ketdi.

— So'zlaring uchun rahmat, Shomansur, baraka top. Otangga ham rahmat, — dedi nihoyat Tanaboy o'zini qo'lga olib. — Lekin mening ko'nglimni bir narsa g'ash qilmoqda. Sen meni partiyadan chiqarganlarini bilasanmi?

— Bilaman!

— Partiyadan haydalgan bo'laturib Choroning partiya biletini qanday qilib raykomga eltaman. Bunday qilishga haqqim yo'q-ku!



— Bilmadim, Tanaka. O'zingiz bilasiz. Men otamning vasiyatini bajarmog'im lozim. Men sizdan yana o'tinib so'rayman, otamning so'zini yerda qoldirmang.

— Men jon-dilim bilan bajarar edim. Ammo boshimga musibat tushgan. O'zing eltib topshirsang durust bo'lmasmikan-a, Shomansur?!

— Yo'q, bo'lmaydi. Otam so'ragan narsasini o'zi yaxshi bilgan. Modomiki, u sizga ishonibdi, nega endi men ishonmas ekanman? Tuman partiya qo'mitasiga borib ayting, Choro Sayoqovning vasiyati shunday ekan, deng.

Hali tong otganicha yo'q edi, Tanaboy kallayi saharlab turib ovuldan chiqdi. U o'sha uchqur otga minib olgandi, ha, o'sha yaxshi va yomon kunlarida sadoqatli hamdami Gulsarining ustida o'tirardi. Saman yo'l chetidagi muzlab qolgan yerni oyoqlari bilan ezib-sachratib yelib borardi. U bu safar o'zining sobiq xo'jayini, marhum kommunist do'sti Choro Sayoqovning maxsus topshirig'i bilan tumanga borayotgan Tanaboyni eltardi.

Oldinda, cheksiz sahro etagidan asta-sekin tong yorishib kelardi. Subh og'ushidan tug'ilgan shafaq g'ira-shira ufqni tobora nurafshon etardi...

Yo'rg'a ot o'sha shafaq tomon, hanuz falak etagida yolg'iz o'zi yog'du sochayotgan yulduz tomon intilardi. Uning tanho o'zi do'pir-do'pir yo'rg'alab, kimsasiz yolg'iz oyoq dasht yo'llariga jon kiritib borardi, Tanaboy ko'pdan beri saman yo'rg'ani minmagan edi. Gulsari odatdagiday juda ham tez va tekis yo'rg'alab borar edi. Shamol otning yolini tarab, Tanaboyning yuzlariga urilardi. Ha, Gulsari kuchga to'lgan ajoyib ot edi.

Tanaboy yo'lda xayol surib bordi, o'y-xayollarining boshiga yetolmadi: Nega Choro o'limi oldidan o'z partbiletini raykomga eltib topshirishni unga — partiyadan chiqarilgan Tanaboyga vasiyat qildi? Choroning bundan maqsadi nima edi? Yoki uni sinamoqchi bo'ldimikan? Yo ehtimol, bu bilan Tanaboyning partiyadan haydalisiga aslo rozi emasligini bildirmoqchimi? Endi bu muammoni hecham yecha olmaysan. Choro endi hech qachon hech narsa deya olmaydi. Ha, bu dunyoda «hech qachon» kabi dahshatli so'zlar mavjud. Shu bilan gap tamom...

Yana allaqanday fikrlar uning miyasini chulg'ab oldi. Butunlay xayolidan chiqarib tashlamoqchi bo'lgan narsalar yana jonlana boshladi. Yo'q, hali «tamom» deyishga erta.

Choroning vasiyati edida. U do'stining bileti bilan tumanga boradi, do'sti haqida nimaiki bilsa, hammasini to'kib-sochadi, xalq uchun, Tanaboyning o'zi uchun Choroning qilgan yaxshiliklarini birma-bir aytib beradi. O'zi haqida ham gapirib beradi, zeroki, do'sti bilan u bir qo'lning etu tirnog'idek edilar.

Ha, ularning yoshlik kezlarida qanday bo'lganliklarini va qanday hayot yo'lini bosib o'tganliklarini hamma bilib qo'ysin. Zoraki, odamlar Tanaboy bilan Choroni hayot vaqtlarida ham, vafotlaridan keyin ham bir-biridan ajratish insofdan emasligiga tushunib yetsalar. Faqat gapiga quloq solsalar bas, ko'ngil dardini izhor etishga imkon bersalar bo'lgani.

Tanaboy raykom kotibi qoshiga qanday kirib borishni, Choroning partiya biletini uning stoli ustiga qo'yib barcha bo'lib o'tgan voqealarni qanday aytib berishini o'ylab borardi. O'z gunohini bo'yniga olib kechirim so'raydi, o'zini yana partiya safiga qaytarishni iltimos qiladi, chunki u partiyasiz yashay olmaydi, busiz o'z hayotini ham tasavvur qila olmaydi.

Bordiyu partiyadan o'chgan shaxsning partiyaviy hujjatni keltirishga nima haqqi bor, deyishsa-chi. «Sen kommunistning partibiletiga qo'l tegizmasliging, bunday ishlarga aralashmasliging kerak edi. Sendan boshqa odam topilardi», deyishsalar-chi! Choroning so'nggi istagi shu edi-ku axir! U o'limi oldidan shunday vasiyat qilgan edi. Buni o'g'li Shomansur ham tasdiqlaydi. «He, jon talvasada, behushlikda odam nimalarni gapirmaydi deysan». Unda Tanaboy nima deb javob bergan bo'ladi.

Gulsari muzlab yotgan yo'ldan tasirlatib chopib borardi. Mana u bepoyon dashtni orqada qoldirib, Aleksandrovka tepaligiga chiqib oldi. Gulsari yelib boradi. Tanaboy tuman markaziga qandan yetib borganini bilmay qoldi.

Tuman tashkilotlarida ish kuni endigina boshlangan edi. Tanaboy hech qayerda to'xtamasdan jiqqa terga botgan yo'rg'ani to'g'ri raykom binosi tomon haydadi. Otni qoziqqa bog'ladi, ust-boshini qoqdi va yuragi «duk-duk» urib raykom binosiga kirdi. Unga nima der ekanlar? Qanday qabul qilishar ekan? Koridorda hech kim ko'rinmasdi. Hali kishilar ovullardan kelib ulgurmagandi. Tanaboy Qashqatoyevning qabulxonasiga kirdi.

— Salom, — dedi u kotiba qizga.

— Salom!

— O'rtoq Qashqatoyev o'zlaridami?

— Ha, o'zlarida.

— Unday bo'lsa, kirib u kishiga ayting, partiya tashkilotimizning kotibi Choro Sayoqov vafot etdi. U o'limi oldida partiya biletini raykomga eltib berishimni iltimos qilgan edi, shuni keltirgan edim.

— Juda yaxshi. Bir zum kutib turing.

Kotiba qiz Qashqatoyev kabinetida uzoq turib qolmagan bo'lsa-da, Tanaboyning toqati toq bo'ldi, o'zini qo'yarga joy topolmadi.

— O'rtoq Qashqatoyev band ekanlar, — dedi kotiba qiz kabinetdan chiqib eshikni jiplab yopar ekan. — U kishi Sayoqovning partbiletini hisobga olish sektoriga topshirishingizni aytdilar. Hu ana, koridor bilan borsangiz o'ng qo'lda.

«Hisobga olish sektori... Koridor bilan borsangiz o'ng qo'lda». Bu nima degan gap? — Tanaboy hech narsaga tushuna olmasdi. Shu payt voqeani darhol tushundi-yu, ruhi birdan tushib ketdi. Nahotki shunday bo'lsa? Nahotki bu shunday osongina ish bo'lsa. U o'ylagandiki...

— Mening unga gapim bor. Iltimos, kirib aysangiz, juda zarur gapim bor.

Kotiba qiz istar-istamas kabinetga kirdi va qaytib chiqib, yana dedi:

— U kishi juda ham band. — Keyin xayrixohlik bilan qo'shib qo'ydi: — Axir sizning masalangiz hal etilgan edi-ku?! U sizni qabul qilmaydi, yaxshisi qayta qoling, — yana ilova qildi past ovoz bilan kotiba qiz.

Tanaboy koridordan yurib, o'ngga burildi: «Hisobga olish sektori» degan yozuv. Eshikda darcha. Tiqillatdi. Darcha ochildi.

— Sizga nima kerak?

— Sizga biletni topshirgani keldim. Partorgimiz Choro Sayoqov vafot etdi. «Oqtosh» kolxozidan. — Tanaboy kamzuli ostidagi tasmali charm xaltachani olguncha hisobot sektorining mudiri sabr bilan kutib turdi. Tanaboy unda yaqin kunlarga qadar o'zining partiya biletini olib yurgan edi, bu safar esa unda Choroning partiya biletini olib keldi. Biletni darchadan uzatarkan: «Alvido, Choro!» — dedi. U vedomostga Choroning partiya bileti nomerini, familiyasini, ismini, otasining otini, partiya safiga kirgan yilini qanday yozayotganligiga qarab turdi. Bular u haqdagi oxirgi xotira edi. Keyin vedomostni qo'l qo'yishga uzatdi.

— Bo'ldimi? — so'radi Tanaboy.

— Bo'ldi.

— Xayr.

— Xayr. — Darcha qattiq yopildi.

Tanaboy ko'chaga chiqdi. Yo'rg'aning tizginini yecha boshladi.

— Tamom, Gulsari, — dedi u otga, — vassalom. Tolmas yo'rg'a uni orqaga — ovulga uchirib olib ketdi.

Keng bahor dashti ot tuyog'ining dupur-dupuri ostida shamol bilan birga uni qarshilar edi. Faqat otning chopishigina Tanaboyni tinchlantirib, uning dardiga malham bo'ldi.

Shu kuni kechqurunoq Tanaboy o'z joyiga, toqqa qaytib keldi.

Xotini uni jimgina kutib oldi. Otning jilovidan tutib, erining qo'ltig'idan ushlab egardan tushishga yordamlashdi. Tanaboy o'girilib xotining kiftiga o'zini tashlab quchoqladi. Xotini ham uni quchoqlab yig'lardi.

— Choroni dafn etdik! U yo'q oramizda, Jaydar, yo'q mening do'stim! — deydi Tanaboy yana ko'z yoshlariga erk berib.

Keyin u o'tov oldidagi xarsang toshga jimgina o'tirdi. O'zi xoli bo'lishini istardi. Oppoq qorli tog'ning qirrali cho'qqilaridan sekin ko'tarilib kelayotgan oyning chiqishini ko'rishni istardi. Xotini o'tovda bolalarini yotqizayotgan edi. O'choqda olovning charsillab yonayotganligi eshitalardi. Keyin temir qo'buzzing yurakni ezuvchi ohangi yangradi. Go'yo shamol alam bilan ingrayotganday, go'yo bir odam dalada yig'i aralash ashula aytib yugurayotganday, atrofdagi hamma narsalar esa nafasni ichiga yutib, sukut saqlab turganday va faqat insoniy qayg'u-hasrat nola chekayotganday edi. Go'yo u yugurar va o'zining qayg'u-alami bilan qayerga bosh urishni bilmas, bu sokin va kimsasiz yerda alamlarini aytib, ko'nglini qanday bo'shatishni bilmas, unga hech kim javob qilmasdi. U o'zi yig'lar, o'zini o'zi tinglardi. Tanaboy xotining «Keksa ovchining qo'shig'i»ni aytayotganini angladi...

Men seni o'ldirdim, o'g'lim Qoragul,  
Holimga yig'lar kim, o'g'lim Qoragul.  
Taqdir jazoladi, o'g'lim Qoragul,  
Qismat o'ch oladi, o'g'lim Qoragul,  
Ovchilik kasbiga, o'g'lim Qoragul,  
O'rgatdim, oh, nega, o'g'lim Qoragul.  
Qush, hayvonni qiyratding, o'g'lim Qoragul,  
Jonivorni otding, o'g'lim Qoragul?  
Har bir tirik mavjudot, o'g'lim Qoragul,  
Dastingdan o'lsa nahot, o'g'lim Qoragul.  
Yolg'iz qoldim olamda, o'g'lim Qoragul,  
Hech bir inson shu damda, o'g'lim Qoragul  
Yig'imga solmas quloq, o'g'lim Qoragul,  
Men seni o'ldirdim, o'g'lim Qoragul,  
Joningga qasd qildi qo'lim, Qoragul..»

... Tanaboy o'tov oldida o'tirib, qadimiy qirg'iz marsiyasini tinglar, xomush turgan qop-qora tog'lar ortidan oyning sekin-asta suzib chiqayotganligini, o'tkir

qirrali qorli cho'qqilar tepasida, bir-birovlarining ustiga qalashib ketgan qoyalar tepasida uning muallaq turib qolganligini tomosha qilar edi. Shunda u marhum do'stidan kechirim so'rab yana iltijo qilardi,

Jaydar esa o'tov ichida qo'buzda hamon ulug' ovchi Qoragul haqidagi marsiyasini chalardi:

Men seni o'ldirdim, o'g'lim Qoragul,  
Holimga yig'lar kim, o'g'lim Qoragul.

### XXIII

**T**ong otib qolgandi. Gulxan yonida, jon berayotgan yo'rg'a otning bosh tomonida o'tirib, kekxa Tanaboy keyin bo'lib o'tgan voqealarni esladi.

O'sha kunlari u viloyat markaziga borganligini hech kim bilmagan edi. Bu uning oxirgi marta urinib ko'rishi edi. U tumandagi kengashda nutqini eshitgan viloyat partiya qo'mitasi kotibini ko'rgisi va unga o'zining hamma qayg'u-alamlarini so'zlab bergisi kelardi. Bu odam uni tushunishiga va unga yordam berishiga ishonardi. Choro ham u haqda yaxshi gaplar aytgan edi, boshqalar ham uni maqtashardi. Viloyatkomga kelgandagina bu kotibni boshqa viloyatga ishga o'tkazilganligini bildi u.

— Eshitmovdingizmi hali?

— Yo'q.

— Agar ishingiz juda muhim bo'lsa, men yangi kotibimizga aytaman, ehtimol, u sizni qabul qilar, — taklif qildi qabulxonadagi ayol.

— Yo'q, rahmat, — rad etdi Tanaboy. — Men axir shunday, o'zimcha, shaxsiy ishim bilan keluvdim. Men axir uni tanirdim, u ham meni bilardi. Bo'lmasa uni bezovta qilib o'tirmasdim. Kechirasiz, xayr. — U dilida avvalgi kotibni yaxshi bilganligiga, u ham buni — cho'pon Tanaboy Bakasovni shaxsan taniganligiga ishongan holda qabulxonadan chiqdi. Nega tanishmasin axir? Ular bir-birlarini tanishlari va hurmat qilishlari mumkin edi, u bundan shubhalanmasdi, shuning uchun ham shunday dedi.

Tanaboy ko'chaga chiqib, avtobus stansiyasi tomon yo'l oldi. Pivo do'koni oldida ikki ishchi mashinaga pivodan bo'shagan bochkalarni ortishmoqda edi. Ku-

zovda turgan sherigiga bochkani g'ildiratib chiqarib berayotgan pastdagi ishchi yonidan o'tib borayotgan Tanaboyga tasodifan ko'zi tushib qoldi, aft-basharasi o'zgarib ketdi. Bu Bektoy edi. U mashina kuzoviga qiya qilib tirab qo'yilgan taxta ustida bochkani ushlab turib Tanaboyga qisiq ko'zlarini adovat bilan tikkanicha, uning nima deyishini kutib turardi.

— Hey, nima bo'ldi senga, uxlab qoldingmi, nima balo? — deb so'z otdi Bektoyga, mashina ustida turgan sherigi g'ijinib.

Bochka pastga dumalab tushib borar, Bektoy esa uni ushlab, bochkaning og'irligidan bukchayib, Tanaboydan ko'zini uzmay qarab turardi. Lekin Tanaboy u bilan salomlashmadi. «E-e, shu yerdamidig. Shu yerda ekansan-da. Tuzuk, ishingni topibsan. Pivo korxonasiga o'rnashibsan-da, — o'yladi Tanaboy va to'xtamay o'tib ketdi. — Yigit bu yerda nobud bo'ladi-yu! — o'yladi u keyinchalik qadamini sekinlatib. — Yaxshi odam bo'lishi mumkin edi, yo gaplashib ko'rsammikin?» — orqasiga qaytmoqchi bo'ldi, Bektoyga rahmi keldi, uning hamma gunohini kechirishga tayyor edi, faqat aqlu hushini yig'ib olsa, bas. Ammo bunday qilmadi. Agar Bektoy uning partiyadan o'chirilganligini bilsa, suhbatdan foyda bo'lmasligini tushundi. Tanaboy bu tili zahar yigit oldida o'zini, o'z taqdirini, o'zi hamon sodiq bo'lgan ishini xor qilishni istamasdi. Indamay, shu bo'yicha ketdi. Shahardan yo'lovchi mashinada qaytdi va yo'l bo'yi Bektoy haqida o'ylab bordi. Dumalab tushayotgan bochkaning og'irligi ostida uning bukchayib turganligi, nimanidir kutib Tanaboyga tikilib qaraganligi uning ko'z ongidan ketmadi.

Keyinchalik Bektoyni sud qilishganida Tanaboy faqat Bektoyning otarni tashlab ketganliginigina aytdi. Boshqa hech narsa demadi. U Bektoyning pirovardida o'z xatosini tushunib yetishini va tavbasiga tayanishini juda xohlardi. Lekin u tavba qilishni xayoliga ham keltirmaydiganga o'xshardi.

— Qamoq muddatingni o'tagach, mening oldimga kel, — dedi Tanaboy Bektoyga, — keyin nima qilishing to'g'risida maslahatlasharmiz.

— U hech narsa demadi, hatto ko'zini ham olmadi yerdan. Tanaboy undan nari ketdi. Partiyadan chiqarilgandan keyin u o'ziga ishonqiramay qoldi, hammaning oldida o'zini gunohkor his etardi. Negadir qo'rqadigan, hadiksiraydigan bo'lib qoldi. U shunaqa narsalar yuz berishini umrida hech qachon xayoliga keltirmagandi. Hech kim uning yuziga solmasdi-yu, lekin baribir o'zini odamlardan chetga olar, gap-so'zlarga aralashmas, ko'proq sukut saqlab yurar edi.

**Y**o'rg'a Gulsari kallasini yerga tashlab, gulxan yonida qimir etmay yotardi. Hayot uni asta-sekin tark etmoqda edi. Uning bo'g'zi xirillar, ko'zlari katta-katta ochilar va so'nar, olovga bo'zargancha tikilib, tayoqday cho'zilgan oyoqlari qotib borar edi.

Tanaboy o'zining yo'rg'asi bilan vidolashar, unga so'nggi so'zlarini aytardi: «Sen buyuk ot eding, Gulsari. Sen mening do'stim eding, Gulsari. Sen o'zing bilan birga mening eng yaxshi yillarimni olib ketyapsan, Gulsari. Men umrbod seni eslayman, Gulsari. Hozir ham seni tilga olayotganimning sababi shuki, sen jon beryapsan, dongdor otim Gulsari, qachonlardir sen bilan u dunyoda uchrashamiz. Lekin men u yoqda sening tuyoqlaringning tapir-tupurini eshita olmayman. Axir u yoqda yo'llar yo'q, u yoqda yer yo'q, o't-o'lan yo'q, u yoqda hayot yo'q. Ammo men tirik ekanmanki, sen o'lmaysan, chunki men seni eslab yuraman Gulsari. Tuyoqlaringning tapir-tupuri men uchun sevimli qo'shiq singari jaranglaydi...»

Keksa Tanaboy shunday xayollarga botarkan, zamon yo'rg'aning chopishi singari tez o'tib ketganidan, ular negadir tez qarib qolganliklaridan xafa bo'lar edi. Ehtimol, Tanaboy o'zini qari deb hisoblashiga hali ertadir ham, lekin odam keksaligidan yoshining ulg'ayganidan emas, balki, o'zining qariligi, zamonasi, davri o'tib ketganligi, endi faqat bundan buyongi umrini yashab tamomlashgina qolganligini his etishdan ham qariydi.

Hozir, yo'rg'a jon berayotgan mana shu tunda Tanaboy o'tgan umrini qaytadan diqqat bilan ko'z o'ngidan o'tkazarkan, qarilikka bunchalik barvaqt taslim bo'lganidan, uni unutmagan va o'zi Tanaboyni qidirib topib, o'zi uning oldiga kelgan odamning maslahatiga darrov quloq solmaganidan afsuslandi.

Bu voqea uni partiyadan o'chirganlaridan so'ng yetti yil o'tgandan keyin yuz bergandi. Tanaboy o'sha vaqtlarda Sarihovuz dasida kolxoz ekinzorlariga nazoratchi bo'lib ishlardi, u yerdagi qorovulxonada o'zining kampiri Jaydar bilan birga yashardi. Qizlari o'qishga ketishdi, keyin esa kuyovga chiqishdi. O'g'li texnikumni bitirgach, tumanda ishga tayinlandi, u ham endi oilali edi.

Yoz kunlaridan birida Tanaboy daryo bo'yida o't o'rib yurgandi. Pichan o'radigan issiq va quyoshli kun edi. Dara jimjit. Chigirtkalar chirillardi. Qariyalarining oppoq keng ishtoni ustidan ko'ylagini tushirib olgan Tanaboy shig'illatib o'rayotgan o'tlarni bir tekis yotqizib borayotgan chalg'i o'roq ortidan odimlab

borardi. Zavq bilan ishlardi. Sal nariroqda yengil «gazik» to'xtaganligini, mashina ichidan ikki kishi chiqib u tomon yo'l olganligini sezmay ham qoldi.

— Assalom alaykum, Tanaka, hormang! — degan so'zlarni eshitdi u yon tomondan. Qayrilib boqib Ibrohimni ko'rdi, U hali ham uddaburon, ikki beti qip-qizil, semiz, qorinli edi. — Mana biz sizni oxir topdik, Tanaka, — og'zi qulog'iga yetib tirjaydi Ibrohim. — Raykom kotibining o'zlari keldilar, sizni ko'rgilari kelibdi.

«Ha, tulki-ey! — Tanaboy beixtiyor zavqlanib o'yladi u haqda. — Har qachon ham o'ziga issiq o'rin topa oladi. Qara, qanday xushomad qilyapti. Eng yaxshi, oq ko'ngil odamday-a. Hammaning ham ko'nglini oladi, hammaning ham tilini topadi!»

— Vaalaykum assalom, — Tanaboy ularning qo'lini siqib ko'rishdi.

— Tanimayapsizmi, ota? — xushmuomalalik bilan so'radi Ibrohim bilan birga kelgan o'rtoq, uning qo'lini baquvvat panjasidan qo'yib yubormay.

Tanaboy javob berishga shoshilmasdi. «Qayerda ko'rgan ekanman uni?» deb o'ziga savol berardi. Uning oldida qandaydir juda tanish, shu bilan birga, nazarida juda o'zgarib ketgan odam turardi. Yosh, sog'lom, baquvvat, oftobda qoraygan, ochiq yuzli, qarashlari dadil, kul rang movutdan kostyum, poxol shlyapa kiygan yigit. «Shaharlik, kimdir birov», — o'yladi Tanaboy.

— Axir bu o'rtoq... — yordam bermoqchi bo'ldi Ibrohim.

— To'xta, to'xta, o'zim aytaman, — to'xtatdi uni Tanaboy va o'zicha kulib dedi: — Tanidim, o'g'lim. Tanimay ham bo'ladimi? Yana bir marta ko'rishib qo'yaylik. Seni ko'rganimdan xursandman.

Bu Karimbekov edi. Tanaboyni partiyadan o'chirayotganlarida raykomda uni dadil himoya qilgan komsomol kotibi edi.

— Agar tanigan bo'lsangiz, keling, bir gaplashib olaylik, Tanaka. Yuring, qirg'oq yoqalab bir aylanib kelaylik. Siz esa chalg'ini olib, o'rib tura turing, — taklif qildi Karimbekov Ibrohimga.

Ibrohim ustidan kamzulini yechib, bu ishni bajarishga bajonu dil roziday tikipirchilab qoldi:

— Albatta, jonim bilan, o'rtoq Karimbekov.

Tanaboy va Karimbekov pichanzor bo'ylab yurib ketishdi, daryo yoqasidagi tosh ustiga o'tirishdi.

— Ehtimol, men sizning oldingizga qanday ish bilan kelganligimni sezayotgandirsiz, Tanaka, — so'z boshladi Karimbekov. — Ko'rib turibman, siz hamon ilgirigiday tetiksiz, pichan o'ryapsiz, demak, sog'ligingiz joyida. Shunga xursandman.

— Qulog'im senda, o'g'lim, men ham sendan xursandman.



— Gap shunday, sizga ochiq-ravshan bo'lsin uchun shuni aytayki, Tanaka, hozir, o'zingiz bilasiz, ko'p narsa o'zgarib ketgan. Ko'p narsalar o'nglanib ketdi. Buni mendan kam bilmaysiz.

— Bilaman. Haq gap haq-da. Kolxozimiz ishlaridan ham bilsa bo'ladi. Ishlar yaxshiroq yurishib ketganday. Hatto ishonging ham kelmaydi. Yaqinda men Beshtol vodiysida bo'ldim, huv o'sha yili men naq shu joyda cho'ponlik azobini tortgandim. Havasim kelib ketdi. Yangi qo'yxona qurishibdi. Besh yuz bosh qo'y sig'adigan shifer tomli yaxshi qo'yxona. Xo'-o'sh, cho'ponlarga uy qurishibdi. Yonida esa saroy, otxona. Avvalgisiga sira o'xshamaydi. Qo'ylar qishlaydigan boshqa joylarda ham xuddi shu ahvol. Ovulning o'zida ham xalq uy-joy qurib yotibdi. Qachon borsam, ko'chada yangi uy qad ko'targanini ko'raman, iloyim bundan buyon ham shunday bo'lsin.

— Biz ham shuning g'amida, shuning tashvishida yuribmiz, Tanaka. Hali hammasini ham joyida deb bo'lmaydi. Ammo vaqt-soati kelib hammasini ham to'g'rilaymiz. Men sizning oldingizga bir ish bilan keldim. Partiyaga qayting. Ishingizni qayta ko'ramiz. Siz haqda byuroda gap bo'ldi. Hechdan kech yaxshi, deyishadi odamlar.

Tanaboy indamadi. Xijil bo'ldi. Quvonib ham ketdi, alam ham qildi unga. Butun kechmishlarini xotirladi, alam-iztirob unga chuqur o'rnashib qolgandi. O'tmishni titkilagisi, u haqda o'ylagisi kelmasdi.

— Yaxshi so'z uchun rahmat, — minnatdorchiilik bildirdi Tanaboy raykom kotibiga. — Cholni unutmaganliging uchun rahmat. — So'ng bir oz o'ylanib ochig'ini ayta qoldi. — Endi men qarib qoldim. Partiyaga endi mendan nima foyda? Uning uchun men nima qilib bera olardim? Hech narsaga yaramayman. Davrim o'tdi, sen xafa bo'lma. Uylab ko'rishga ruxsat ber.

\* \* \*

Tanaboy ancha vaqtgacha bir qarorga kelolmadi — ertaga boraman, indinga boraman, deb ishni paysalga soldi. Vaqt esa o'tib borardi. Dovondan o'tish qiyin bo'lib qolgan edi unga.

Nihoyat bir safar otni egarlab yo'lga tushdi ham, biroq yarim yo'ldan qaytib keldi. Nega? Nodonlik qilib qaytib kelganini o'zi tushunardi. O'ziga o'zi: «Qari-ganda es-hushimni yo'qotib, yosh bolaga o'xshab qoldim», dedi. Bularning ham-masiga aqli yetardi, lekin o'ziga kuchi yetmay qolgan edi.

U dashtda chopib borayotgan yo'rg'aning chang-to'zonini ko'rdi. Gulsari ekanligini darhol bildi. Endi uni kamdankam ko'radi. Gulsari yozgi quruq dashtlikda oppoq iz qoldirgan edi. Tanaboy unga uzoqdan qarab turib ma'yuslana boshladi. Ilgari tuyoqlari ostidan ko'tarilgan chang-to'zon yo'rg'aga hech qachon yetib ololmasdi. U qora qush singari oldinda uchib borar, orqasida quyruq shaklidagi uzun chang to'zonini qoldirib ketardi. Endi bo'lsa yo'rg'ani hadeb chang-to'zon bulutlari qoplab olmoqda. U oldinga yorib chiqib oladi, bir nafas o'tmay o'zi ko'targan quyruq chang ichida yana g'oyib bo'ladi. Yo'q, endi u chang-to'zondan o'zib ketolmaydi. Demak, juda qarib qolibdi, holdan ketib taslim bo'libdi. «Ahvoling chatoq, Gulsari», qayg'u bilan o'yladi Tanaboy.

Uning changda nafasi qisilayotganini, chopish, qanchalik og'irligini, chavandozning jahl bilan uni qamchilayotganini tasavvur qildi. U ko'z o'ngida yo'rg'aning sarosimaga tushib qolgan ko'zlarini, uning quyruq chang tumani ichidan chiqib olishga bor kuchi bilan qanchalik urinmasin, lekin chiqa olmayotganligini ko'rib turardi. Chavandoz masofaning uzoqligidan uning qichqirgan ovozini eshitmasa ham, Tanaboy: «To'xta, otni qattiq haydama!» deb qichqirdi va o'z otini choptirgancha uning yo'lini kesib chiqmoqchi bo'ldi.

Biroq yetolmasdan, tezda to'xtadi. Agar chavandoz uni tushungan bo'lsaku, yaxshi-ya, bordi-yu, tushunmagan bo'lsachi? «Sening ishing nima? Sendaqa buyruq beradigandan o'rgildimu? Qanday istasam, shunday ketaman. Yo'qol bu yerdan, qari tentak!» deb javob qaytarsa-chi.

Yo'rg'a esa bu orada dam chang-to'zon orasida ko'rinmay qolar, dam undan otilib chiqib, uzoqlashib borardi. Tanaboy uning orqasidan uzoq qarab turdi. Keyin otini burib orqaga qaytib ketdi. «Biz endi qaridik, yoshimizni yashadik, Gulsari. Endi biz kimga kerak bo'lamiz? Endi mening ham oldingidek kuch-quvvatim yo'q. Oxirgi kunlarimizni kechirish qoldi, Gulsari», — derdi u,

Tanaboy bir yildan keyin yo'rg'ani aravaga qo'shilgan holda ko'rdi. Tanaboyning ko'ngli yana huzildi. U safdan chiqib qolgan va bo'yniga kuya tushgan bo'yincha urilgan, eski aravani tortayotgan uchqur yo'rg'aga qarab achinar edi. Tanaboy qarashni ham istamay orqasiga o'girildi.

Tanaboy yo'rg'ani yana uchratdi. Uning ustida yetti yoshlardagi trusik va yirtiq mayka kiyib olgan bola ko'cha bo'ylab borardi. U yalang'och oyoqlari bilan otni niqtab, uni o'zi hoshqarayotganidan quvonib mag'rurlanardi. Aftidan, bolaning otga birinchi marta minishi edi, shuning uchun ham uni juda yuvosh va itoatkor bo'lib qolgan eski yo'rg'a Gulsariga mingizib qo'yishgan edi.

— Bobo, menga qarang! — keksa Tanaboyga maqtanardi bola. — Men Chayevman! Men hozir soydan o'taman.

— Qani-qani, o'tkin-chi, men ko'rayin! — dadillantirdi uni Tanaboy.

Bola ot jilovini dadil ushlab soydan kecha boshladi. Ammo ot narigi qirg'oqqa chiqayotganida bola o'zini tutolmay suvga shaloplab yiqilib tushdi.

— O-yi! — deb qichqirdi u qo'rqqanidan.

Tanaboy uni suvdan tortib oldi va otning yoniga keltirdi. Gulsari so'qmoq yo'lda og'irligini navbat bilan dam u oyog'iga, dam bu oyog'iga tashlab turardi. «Otning oyog'i og'riyapti, demak, ahvol chatoq» deb o'yladi Tanaboy. U bolani qari yo'rg'aga mingizdi.

— Haydayver, endi yiqilma.

Gulsari yo'l bo'ylab sekin yurib ketdi.

Shundan so'ng oxirgi marta yo'rg'a yana Tanaboyning qo'liga tushdi. U otni parvarish qilib oyoqqa turgizgach, uni oxirgi marta Aleksandrovkaga olib bordi, ot yo'lda o'ldi.

Tanaboy o'g'li va kelini ikkinchi bola ko'rishlari munosabati bilan bordi. Ularga sovg'a qilib bir nimta qo'y, bir xalta kartoshka va xotini yopgan non hamda boshqa har xil yemishlarni olib kelgan edi. U Jaydarning kasalman degan bahona bilan kelmaganligining sababini keyinchalik tushundi. U hech kimga aytmagan bo'lsa-da, kelinini yoqtirmas edi. O'g'li esa irodasiz, bo'shang yigit. Unga shafqatsiz, o'ktam xotin tushgan edi. Uyida o'tiradigan bu ayol erini «gah» desa, qo'liga qo'nadigan qilib olgandi. Odatda arzimagan narsa uchun kishini xafa qiladigan, haqorat qiladigan, faqat o'zini yuqori tutib, so'zini o'tkazadigan odamlar ham bo'ladi-ku. Kelini ham xuddi shunday edi. Uning o'g'lini ishi bo'yicha yuqori lavozimga ko'tarishlari kerak ekan, ammo keyin negadir boshqasini ko'tarib, uni esa chetda qoldiribdilar. Kelini hech bir gunohsiz bo'lgan cholga tashlandi:

— Butun umring cho'ponlikda, yilqichilikda o'tar ekanu partiyaga kirishning nima hojati bor edi. Baribir oxirida haydadir, shu vajdan o'g'lingga ham yo'l yo'q. U endi yuz yil bir lavozimda qoladi. Sizlar u yoqda tog'da o'z uyingizdasiz, siz keksalarga bundan ortiq nima kerak! Biz bo'lsak, bu yerda sizlarning kasofatingizga qolyapmiz.

Qolgan gaplari ham shu mazmunda edi. Tanaboy kelganiga pushaymon bo'ldi. Kelinini tinchlantirish maqsadida ishonchsizlik bilan dedi:

— Agar ish shunday bo'ladigan bo'lsa, ehtimol men yana partiyaga kirishni so'rarman.

— Sen partiyaga juda keraksan, ularning senga juda ko'zi uchib turibdi. Sanaqa qari-qartanglarsiz ish bitmas emish! — piqirlab kulib yubordi kelini unga javoban.

Agar u kelini bo'lmay, kimdir boshqa odam bo'lganda Tanaboy shunaqa gaplarga chidab o'tirarmidi. Ammo yaxshimi, yomonmi, ular o'zingniki bo'lgandan so'ng nima ham qila olarding. Keksa chol jimgina o'tirardi, eringning yuqori lavozimga ko'tarmaganlariga sabab otasining aybdor bo'lganligi emas, balki uning o'zi hech narsaning uddasidan chiqa olmaganligi va shunaqa xotinga duch kelganligidir, o'z qadrini bilgan kishi boshini olib qochib qutulishi mumkin edi, gap qaytarib o'tirmadi. Xalq: «Erni er qiladigan ham, qora yer qiladigan ham xotin» deb bekorga aytmagan. Biroq chol o'g'lini yana xotini oldida bebro' qilishni istamadi. Mayli, ular chol aybdor deb yuraversinlar.

Shuning uchun ham Tanaboy tezroq turib jo'nadi, Ularnikida qolishga yuragi bo'lmadi.

«Ahmoqsan, ahmoq! — so'kardi u endi kelinini gulxan oldida o'tirib. — Ajabo, qayoqdan ham bu yorug' dunyoga kelarkin shunaqa betamizlar? Na ornomus, na izzat-hurmat, na boshqalarga yaxshilik qilishni bilasizlar? Faqat o'zlaringizni o'ylaysizlar! Hammani ham o'z gazlaring bilan o'lchaysizlar. Ammo sening o'ylaganingcha bo'lmaydi. Men hali odamlarga kerakman, kerak bo'laman...»

## XXV

**S**ubhidam. Tog'lar uyqudan bosh ko'tarib, qomatini rostlay boshladi, dasht kengayib, ravshanlasha boradi. Jarlik yoqasidagi o'chib qolgan gulxanning qorayib qolgan cho'g'lari sekin so'nar edi. Uning yonida yelkasiga po'stinini tashlab, sochlari oqarib ketgan chol turardi. Endi po'stin bilan yo'rg'aning ustini yopishga hojat yo'q edi. Gulsari narigi dunyoga — jannat otlari orasiga ketgan edi...

Tanaboy o'lgan otga qarab turib hayratda qoldi — unga nima bo'ldi! Gulsari kallasini orqaga tashlab, yonboshlab yotardi, unda yuganning chuqur botib ketgan o'rni ko'rinib turardi. Tars-tars yorilib ketgan tuyoqlaridagi taqalari yeyilib ketgan, bukilmis oyoqlari cho'zilib yotardi. U endi yerda boshqa yura olmaydi, yo'llarda o'z izlarini qoldira olmaydi. Ketish kerak edi. Tanaboy otga oxirgi mar-

ta egilib qaradi, uning sovib qolgan ko'zlarini bekitdi. Tanaboy yuganni olgani-cha, orqasiga qaramasdan odimlab ketdi.

U dashtlik orqali toqqa yo'l oldi. Ketarkan chuqur o'yg'a toldi. Qarib qolganligini, kuni bitib qolganligini o'yladi. U qanotlaridan ajralib qolgan yolg'iz qush kabi tez uchar sheriklaridan orqada qolib o'lishni istamasdi. U parvoz qila turib o'lishni istaydi, toki bir oshyonda o'sib birga yo'l olganlar uning tepasida xayrlashuv qichqiriqlari bilan aylanib yurishsin.

«Shomansurga yozaman, — deb jazm qildi Tanaboy. — Xatga shunday deb yozaman: Yo'rg'a Gulsari esingdami? Albatta esingdadir. Men unga minib raykomga otangning partbiletini olib borgan edim. Sening o'zing meni jo'natgan eding. Xo'sh, men o'tgan kechasi Aleksandrovkadan qaytib keldim, yo'lda mening ajoyib yo'rg'am o'lib qoldi. Tun bo'yi otning yonida o'tirib butun hayotimni o'ylab chiqdim. Xudo ko'rsatmasin, yo'rg'a Gulsari singari men ham yo'lda o'lib qolarman. Sen mening partiyaga qaytishimga yordamlashishing kerak, o'g'lim Shomansur. Mening sanoqli kunlarim qoldi. Ilgari qanday bo'lgan bo'lsam shunday bo'lishni istayman. Sening otang Choro o'zining partbiletini raykomga olib borishni menga bekorga vasiyat qilmaganini endi tushunib turibman. Sen esa uning o'g'lisan va meni — kekxa Tanaboy Bakasovni bilasan...»

Tanaboy yuganini yelkasidan oshirib tashlab, dasht bo'ylab ketib borardi. Yuzlaridan oqib tushayotgan ko'z yoshlari soqolini ho'l qilib yuborgandi. Lekin Tanaboy uni artmasdi. Bu yo'rg'a Gulsari uchun to'kilayotgan yoshlar edi. Ko'z yoshlari orqali yangi tongga, tog' etagida tez uchib borayotgan tanho kul rang g'ozga boqdi. Kul rang g'oz o'z galasiga yetib olish uchun shoshilardi.

— Uchaver, uchaver! — shivirlardi Tanaboy. — Qanoting tolmay turib, sheriklaringga yetib ol. — Keyin xo'rsinib dedi: — Alvido, ey Gulsari!

U ketar ekan, qulog'iga qadimgi qirg'iz ashulasi eshitila boshladi.

... Ona tuya bir necha kundan beri yelib-yuguradi. Bolasini chaqiradi, izlaydi. Qaydasan, qora ko'zli bo'talog'im? Javob ber! Yelinimdan, to'lib ketgan yelinimdan sut oqyapti, oyoqlarimdan oqib tushyapti. Qaydasan? Javob ber. Yelinimdan, to'lib ketgan yelinimdan sut oqyapti. Oppoq sut...

## JAMILA

**H**ar gal safarga chiqishim oldidan kichkina yog'och ramkaga solingan surat oldida turish menga odat bo'lib qolgandi. Ertaga ovulga jo'nashim kerak. Mana, hozir ham o'sha suratga tikilib, go'yo undan oq yo'l tilayotgandek ko'zimni uzolmay, uzoq termilib qoldim.

Suratni hali biron marta ham ko'rgazmaga qo'yganim yo'q. Ovuldan qavm-qarindoshlarim kelishganida ko'rib qolishmasin, deb yashirib qo'yaman. Demak, suratda biror nojo'ya narsa tasvirlangan ekan, deb o'ylamang tag'in, uning iymanadigan, shuningdek, bu bir nodir asar, «ko'z tegadi» deydigan hech joyi ham yo'q, shunchaki o'rgamchikka chizilgan bir surat. Unda oddiy dala manzarasi-ning aynan tasviri berilgan, xolos.

Suratning orqa planida so'lg'in kuz osmonining chekkalari oqarib ko'rinadi. Shamol parqu bulutlarni uzoq-uzoqlarga, qorayib ko'ringan tog' cho'qqilari sari haydab borardi. Suratning old qismida sarg'ish libos kiygan bepoyon dala, keng daryo tasvirlangan. Yog'in-sochindan keyin po'rsillab yotgan, chekkalaridagi qamishlar bir-biriga ayqashib ketgan yo'lda ikki yo'lovchining oyoq izlari ko'zga tashlanadi. Yo'lovchilar uzoqlashgan sayin, oyoq izlari xiralasha boradi, go'yo yana bir-ikki qadam yurishsa ramkadan chiqib ketadigandek tuyulardi. Ha, aytmoqchi, yo'lovchilardan biri... Keling, bir boshdan gapirib bera qolay.

Bu voqea bolaligimda yuz bergan edi. Ulug' Vatan urushi uchinchi yilga qadam qo'ygan, ayniqsa Kursk bilan Oryol ostonalarida dahshatli janglar borardi. O'shanda biz bir gala o'spirin bolalar kolxozda ekin sug'orib, arava haydab, o't o'rib yurar edik, xullas, urushga ketgan erkaklarning og'ir mehnati bizning zimmamizga tushgan edi.

Ayniqsa hosil yig'im-terimida haftalab uy betini ko'rmasdik, kechayu kunduz xirmonda bo'lardik yoki stansiyaga g'alla tashirdik.

Stansiyaga qatnab yurib, ko'pdan beri uydagilarni ko'rmaganim uchun o'roqning ayni qizigan, saraton kunlarining birida yo'l-yo'lakay uyga kirib o'tay, deb bo'sh aravamni yo'ldan burdim.

Biz azaldan ko'chaning boshidagi yonma-yon tushgan ikki uyda turardik. Ularning balandligi uch metrcha keladigan, devorlari juda pishiq qurilgan bo'lib,

daryo tomoni daraxtlar bilan o'ralgan hovli bizniki edi. Men katta uyning o'g'li edim. Akalarim urushga ketgan, ulardan xat-xabar yo'q edi. Ikkalasi ham bag'atga yetib, ayni uylanadigan vaqtda ketishgan. Keksa otam — duradgor-usta. Tong saharda namozini o'qirdi-da, ustaxonaga jo'nardi, shu ketganicha qosh qorayganda kelardi. Kolxozdagi barcha aravalari uning qo'lidan o'tardi. Uyda onam bilan singilcham qolardi, xolos.

Berigi kichik uyda esa yaqin qarindoshlarimiz turishardi. Qarindoshimiz deyishimning boisi, oradan ikki-uch avlod o'tib ketgan bo'lsa ham, ular bilan azaldan mol-jonimiz bir edi. Ota-bobolarimiz birga ko'chib, birga qo'nib, juda ahil yashagan ekan, bu odatni muqaddas bilib, biz ham oraga sovuqlik tushirmay, apoq-chapoq bo'lib kelardik. Kolxoz tuzilganda otalarimiz bir joyda o'troqlashganlar. Bugina emas, ikki suv o'rtasidagi Orol ko'chada turuvchilarning hammasi bir otaning farzandlari edi.

Keyinchalik berigi uyning egasi dunyodan o'tib, xotini ikki go'dak bolasi bilan qoldi. Eski odat bo'yicha qarindosh-urug'lar yesirning boshini bog'lab qo'yaylik, deb arvoq va xudoni pesh qilib, uni otamga nikohlab qo'yganlar. Garchi u uyning qozon-tovog'i, mol-joni, chorbog'i bo'lak bo'lgani bilan, aslida biz bir xonadon edik. Ularning ham ikki o'g'li askarga ketgan edi. Sodiq degan katta o'g'li uylanishi bilan ketgandi. Ular, biz frontdamiz, deb onda-sonda xat yozib turishardi. Kichik uyda kichik oyim bilan kelini qolgan edi. Men uni doim «kichik oyi» deb chaqirardim. Ikkalasi ham ertadan qora kechgacha kolxozda ishlashardi. Kichik oyim (uni ovuldagilar ishchan ayol, baraka topsin, bunaqasi topilmaydi, deb maqtashardi) brigadir bilan adi-badi aytishib o'tirmas, buyurgan ishini qilaverar, yur deganiga yuraverar, anovi yosh kelinchaklar qatori ariq chopishga ham, ekin sug'orishga ham yo'q demasdi, qo'lidan sira ketmon tushmasdi. Xudo bilib berganmi, deyman, uning kelini Jamila ham serg'ayrat, baquvvat bo'lib, biroq fe'li atvori sal boshqacharoq edi.

Jamila yangamni chin qalbidan yaxshi ko'rardim. Bir tomoni yangam, ikkinchi tomoni mendan bir oz katta, lekin biz xuddi tengqur do'stlardek edik. Meni «kichkina bola», deb o'z ukasidek erkalatganini aytmaydiz.

Xullas, ikkala xonadonning tirikchiligini, ro'zg'orini oyim bilan singilcham tebratib turardi. Singilcham juda sho'x qiz edi, lekin o'sha og'ir kunlarda ancha quyilib, oyimga jon-dili bilan yordamlashganini sira-sira unutmayman. Ikki xonadonning qo'y-echkilariga qaragan ham o'sha, tezak terib, o'tin-cho'p g'amlagan ham o'sha, dom-daraksiz ketgan bolalarini qo'msab g'amgin xayollarga

cho'mgan yolg'iz oyimning ko'ngliga tasalli bergan ham o'sha edi. Endi, har ikkala oilaning boshini qovushtirib, rizq-ro'zini saqlagan ham oyim, bilarmoni ham oyim edi. U, o'lganlarning arvochini hurmatlab, seniki-meniki demay, ikki xonadonga baravar qarab turgan, ovulning ko'pni ko'rgan obro'li, dindor xotinlaridan biri edi. Bizga taalluqli har qanday ishni oyim hal qilardi. Otam bo'lsa hech kimning esiga ham kelmasdi. «Hoy, usta akangga bormay qo'ya qol, uning g'il-dirakdan boshqa hech narsa bilan ishi yo'q, har ikki ro'zg'orni ham boyvuchcha xotini tebratib turibdi, o'shanga bor» deyishardilar. Men ham yosh bo'lishimga qaramay, uncha-muncha ishlarga aralashib turardim. Darvoqe, akalarim armiyaga ketib qolganidan, men ikki uyning dastyor yigiti bo'lib qolgandim. Shuning uchun ham o'zimda qandaydir mas'uliyat his etardim. Bu oyimga juda yoqardi, pishiq bo'lsin, yog'ochdan boshqani bilmaydigan otasiga o'xshamay, ro'zg'or ishlariga aralashib, ko'zi pishsin, der edi. Men aravamni chorbog'ning chetiga, ko'lankaga haydab kelsam, qamchisini qanjig'asiga qistirib olgan brigadir O'rozmot og'a bilan oyim eshik oldida negadir aytishib turgan ekan. Ularga yaqinlashganimda oyimning ovozi eshitildi:

— Bormaydi! Axir, bu insofdan emas-ku. Xudodan qo'rqishsin! Xotin kishining arava haydagani nimasi. Xudo xayringni bersin, aylanay, kelinimga tegma, o'rog'ini o'rib yuraversin, shusiz ham yolg'izlik azobini tortib, ikkala xonadonning tirikchiligidan bosh qashirga ham qo'li tegmaydi! Buning ustiga, bir haftadan beri belim sanchib, anovi jo'xorilar qarovsiz qoldi. Baxtimga, yaxshiyam o'sha mushtdek qizcha bor ekan...

Oyim odaticha ro'mol uchlarini ko'ylagining yoqasi ostiga qistirar edi.

O'rozmotning chayqala-chayqala tinkasi quridi.

— Obbo siz-ey, — dedi u, — agar to'rt muchalim sog' bo'lib, qo'limdan kelsa, o'zimoq ilgariyidek qoplarni aravaga irg'itib-irg'itib, otlarni choptirib ketmasmidim! Hloji yo'q-da, yosh kelinlarga arava haydatib bo'ladimi, desak, o'zi rozi bo'lgan kelinigizni siz yo'ldan ursangiz, bunaqada plan to'larmidi: boshliqlar frontga yuboriladigan g'allani nega to'xtatdinglar, deb stolni mushtlab, bizga do'q ursal, axir nima qilaylik, siz ham tushuning-da!

Brigadir mening qamchinni sudratib kelayotganimni ko'rib, go'yo miyasiga bir yaxshi fikr kelgandek xursand bo'lib ketdi.

— Agar kelinimga yo'lda-po'lda tentak aravakashlar tegajaklik qiladi, deb qo'rqsangiz, mana, qayin inisi bor-ku, — dedi meni ko'rsatib. — Bu inim yangasiga birovni yaqin yo'latish u yoqda tursin, qaragani ham qo'yimas. Seit ham cha-



kana emas, azamat yigit-ku. Sadag'asi ketay, jonimizga oro kirayotganlar mana shu bolalarda...

Oyim meni ko'rgach, brigadirning so'zini bo'lib, yalina boshladi:

— Qayoqlarda tentirab yuribsan, bolam? Sochlaring o'sib, devonaga o'xshab ketibsan-ku. Otasi tushmagur bolasining sochini olishga ham qo'li tegmaydi... Ota emish...

— Unday bo'lsa mayli, bugun sochini olib, chol-kampirlar yonida bir dam olsin, — dedi O'rozmat chehrasi ochilib, — Seitjon, uka, bugun uyda qolib, otlaringga bir oz dam ber. Ertaga Jamilaga arava beramiz, yangangni birga olib, unga o'zing bosh bo'l. Siz esa, onasi, Seit bor ekan, ko'nglingiz to'q bo'lsin, kamlik qilsa yangi kelgan Doniyorni ham qo'shib beray, o'zingiz bilasizki, u birovga ziyoni tegmaydigan xokisor odam... O'zlaricha uch arava bir brigada bo'lib, stansiyaga qatnay berishsin, mayli, bularning yoniga boshqalarni qo'shmay. Xo'sh, Seit, sen nima deysan? Bu, oying, Jamilaga arava haydataylik, desak, ko'nmayapti. Qani, o'zing bir narsa de-chi...

Bir tomoni, brigadir meni rosa ko'klarga ko'tarib maqtagani, ikkinchidan, katta kishilardek mendan aql so'ragani, buning ustiga, yangam yonimda arava haydab yursa qanday maza bo'ladi, degan bolalarcha xayol bilan ishbilarmon odamlardek oyimga dedim:

— Haydasa haydayversin, nima, bo'ri yeb ketarmidi! — deb xuddi katta aravakashlardek chirt etkizib tupurdim-da, qamchinni sudraganimcha salmoq bilan qadam tashladim.

— E, jin ursin seni, bo'ri yeb ketarmidi, deydi-ya! Qo'y, bolam, sen nimani bilarding! — dedi oyim achchiqlanib.

— Ie, nega bilmas ekan, ikki uying azamat yigiti bo'ladi-yu, bilmaydimi? — deb yubordi O'rozmat. Oyim endigina ko'nganda yana aynib qolmasmikin degan shubha bilan nima deyarini bilmay shoshib qoldi.

Oyim bo'lsa og'ir bir uh tortib qo'ydi.

— E, xudoyim, shu tirnoqdek bolamizga o'zing umr ber... Devdek azamat yigitlarimiz qayerlarda yuribdi: uylarimiz ularsiz huvillab qoldi...

Shundan keyin men ularning gapini eshitmadim. Bora turib uying muyulishiga bir qamchi urdim, kokillarini selkillatib, kichkina qo'lchalari bilan shipilatib devorga tappi yopayotgan, menga ochiq chehra bilan jilmayib turgan singilchamga ham nazar solmay o'tib ketdim, dahlizda turgan cho'yan qumg'onni engashtirib, shoshilmay qo'limni yuvdim-da, qo'ltig'imga artdim, keyin uyga ki-

rib, xash-pash deguncha katta kosadagi ayronni simirib tashladim, ikkinchisini esa deraza oldiga olib borib non to'g'rab yedim. Oyim bilan O'rozmat hali ham tashqarida suhbatlashib turishardi. Biroq, bu safar ular hasratlashayotgandek ko'rindi. Oyim yenglari bilan yig'idan qizarib ketgan ko'zlarini artib, tasalli berayotgan O'rozmatning so'zlarini bosh iring'ab ma'qullar, ich-ichiga botib ketgan ko'zlari bilan dom-daraksiz ketgan bolalarini go'yo ko'rmoqchi bo'lgandek olis-olisarga tikilardi. Haytovur, ancha dardlashib ko'ngli yumshagan oyim Jamilaning arava haydashiga ko'ndi shekilli, bir ozdan keyin brigadir ko'ngli tinchib yo'rg'a baytalini yo'rttirib ketdi.

O'shanda bu ishning oqibati nima bilan tugashini oyim ham, men ham bilmagan edik.

\* \* \*

Jamilaning ikki ot qo'shilgan aravani bermalol haydab ketishiga hech ham shubha qilganim yo'q. Chunki u yoshligidan yilqichilar orasida o'sib, katta bo'lgan, tog' etagiga joylashgan Baqayir ovulidagi yilqichining qizi edi. Sodiq akam ham chavandoz bo'lgan ekan, u bir kuni yaylovdagi chorvadorlar to'yi munosabati bilan o'tkazilgan poygada Jamilaga yetolmay qolgan ekan. Shundan keyin izza bo'lib, uni olib qochib ketganligini bilardim. Ovsin-ajinlar bo'lsa, hecham-da, ular bir-birlarini yaxshi ko'rib topishishgan, deyishardi. Har qalay, nima bo'lsa ham ular uch-to'rt oy birga turishgan, keyin Sodiq akamni armiyaga olib ketishgan edi. Bilmadim, yoshligidan otasi bilan birga dala-dashtlarda yilqi haydashib, ot chopishib erka o'sganidanmi, yoki bitta-yu bitta qiz bo'lganligi uchunmi, ishqilib, Jamilaning xatti-harakatlarida allaqanday jo'shqinlik, erkaklarga xos fazilat bor edi. Har bir ishga astoydil kirishar, boshqa kelinlardek boshim, belim og'riyapti deb sira zorlanmasdi. Biroq o'zi ham birovga haqini ketkazmaydigan, aytishgan bilan aytishib, so'kishgan bilan so'kishadigan o'jar ayollardan edi. Uning ovuldagi kelinlar bilan yumdalashgan vaqtlari ham bo'lgandi.

Yon-atrofdagi odamlar:

— E, bu qanday shaddod kelin o'zi! Tushganiga hech qancha vaqt bo'lmay, tilidan zahar sochadi-ya! — deganlarida, oyim:

— Mayli, shunisi yaxshi! Kelinimiz ochiq-yoriq, sira bo'sh kelmaydi... Ana shunday ko'nglida kiri yo'q odam yaxshi, indamay yurgan pismiqlardan qo'rqish kerak, hamma fisq-fasod o'shalardan chiqadi, — deb javob qaytarardi.

Otam bilan haligi «ishchan» degan oyim boshqa qayin ota, qayin onalardek Jamilani turtmay, so'kmay, aksincha, o'z farzandlaridek erkalatishib: «Xudo ishqilib o'ziga insof bersin, to'g'ri yurib, to'g'ri tursa bo'lgani!» — deyishardi. Ular voyaga yetgan to'rt o'g'illarini armiyaga jo'natishib, ikki xonadondagi yakka-yu yagona kelinini ranjitishadimi? Biroq men oyimning ba'zi ishlariga hayron qolardim. Boshqalarni qo'yib turaylik, oyim birovlarining qo'liga qaraydigan ayollardan emas edi. Har yili kuz kelishi bilan odati bo'yicha otam tayyorlagan olti qanotli qora o'tovni tikib, archa tutatardi. Bizlarni chizgan chizig'idan chiqmaydigan qilib tarbiyalab, hargiz ikki oilaning boshini qovushtirib kelardi. Oyimning aytgani-aytgan, degani-degan edi. Ammo Jamila oramizda ajralib turardi. To'g'ri, u kampilardan bir oz tortinar, ularning hurmatini joyiga qo'yar, biroq ovuldagi ko'pchilik kelinlardek indamay boshini quyi solib o'tirmas yoki teskari qarab po'ng'illamas, ko'nglida borini yashirib o'tirmay, shartta gapirib qo'ya qolar edi. Gaplari o'rinli bo'lsa, oyim uni ko'pincha ma'qullar, lekin o'shanda ham o'z gapini ikki qilmasdi. Nazarimda, oyim uni bir so'zligi, to'g'riligi uchun o'ziga yaqin tutar, kelajakda uni ikki xonadonning boshini qovushtirib, ro'zg'orning rizq-barakasini o'zidek saqlay oladigan uddaburon o'rinbosar qilib qoldirish niyatida bo'lsa kerak.

— Xudoga shukur, tagli-joyli yerga tushding, bolam. Bu ham bo'lsa sening baxting, buni sira ham yodingdan chiqarma. Xotin degan tangrining berganiga shukur qilib, ro'zg'orida birini ikki qilib yursa, shuning o'zi katta davlat. Biz chol-kampir topgan-tutganimizni o'zimiz bilan birga go'rga olib ketarmidik... O'z qadr-qimmatingni bilsang, sira kam bo'lmaysan, doim martabang baland bo'ladi, bolam, — deb eslatib turardi.

To'g'ri, chol-kampirlarning cho'chiganicha bor edi: Jamila juda sho'x, yosh bolaga o'xshardi. Bir qarasangiz o'zidan-o'zi kampirlarga suyaklab erkalanar, yo bo'lmasa birdan qah-qah urib kular, yoki ko'chadan kirib kelayotganida xuddi yosh qizchalardek ariqdan larsillab sakrab o'tar, yoxud o'zicha xirgoyi qilib yurardi. Kampirlar Jamilaning bu qiliqlarini o'zlaricha gap qilib: «Hali bolada, bora-bora quyulib qoladi» deb qo'yishardi.

Menga bo'lsa yangamning shunaqaligi yoqardi. Ba'zida ikkovimiz olishib, kurashib, quvlashib ham ketaverardik.

Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi. Ikki o'rim qora sochini boshiga chamberak qilib o'rib, ustidan tang'ib olgan oppoq durrasi uning bug'doyrang kulcha yuziga shunday yarashib tushar ediki, asti qo'yaverasiz! Jamila kulganda uning shahlo ko'zlarida navqiron yoshlik barq urar, shunda u beixtiyor qaddini rostlab, ovul-

ning sho'x laparlarini kuylab yuborardi. Ovuldagi yigitlar, ayniqsa frontdan qaytib kelgan yigitlarning Jamilani ko'z ostiga olishib, tegishib yurganlarini necha bor payqardim. Hangomatalab yangam ular bilan bemalol hazil-huzul qilishardi-yu, biroq haddidan oshganlarning ta'zirini berib qo'yardi. Bari bir bu mening izzat-nafsimga qattiq tegar, yangamni rashk qilardim. Shuning uchun ham haligi «bezo-rilarga» o'zini ko'rsatib qo'yay deb: «Hoy, bilib qo'yinglar, bu mening yangam bo'ladi-ya, ko'p pashshaxo'rda bo'lavermanglar» degandek, ularning so'zini shart-ta bo'lib, viqor bilan xo'mrayib qarardim. «Endi nima qildik, buning yangasi ekan-ku!» deb yigitlar masxara qilib kulishganida, qizarib-bo'zarib, azbaroyi xo'rligim kelganidan yig'lab yuboray derdim. Buni sezgan yangam xursand bo'lib, kulgidan o'zini tiyolmay jilmayib: «Ishlaring bo'lmasin, nima, yanga degan yerda qolibdimi? Yur ketdik, qayinim!» deb ularning battar qitig'iga tegar, so'ngra boshini mag'rur ko'targancha dadil qadam tashlab ketardi. U yigitlarning ta'zirini berganidan ham xursand bo'lib, ham o'ziga xo'rliqi kelib, menga qarab bir kulimsirab qo'yardi. Bal-ki u: «E tentak, yangamga ko'z-kuloq bo'laman deysanmi? Agar buzilaman desam, ming ko'z-quloq bo'lsang ham buzilaman. Axir men chumchuq emasman-ku» degan xayolga borganmikin? Men ham o'shanday vaqtlarda aybdor kishidek g'ing demasdim. Ammo bir ozdan so'ng yangam xiyol yozilib: «Obbo kichkina bola-ey, juda g'alatisan-da!» deb meni yana bag'riga bosib peshonamdan o'pard.

Ha, chindan ham yangamni hech kimga ravo ko'rmay rashk qilardim, uning quvnoqligi, o'zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. Biz u bilan juda apoq-chapoq, bir-biridan hech narsani yashirmaydigan sirdosh do'stlardek edik. Nega shundayli-gini o'zim ham bilmasdim. O'sha kezlarda ovulda erkaklar juda oz edi. Shu sababli ba'zi yigitlar ko'krak kerib, balandparvoz gapirib, ovulda «mendan boshqa yigit yo'q» degandek, ayollarni hecham nazar-pisand qilishmasdi. Bir kuni pichan o'ri-mida, yur desam bo'ldi, orqamdan ergashib kelaveradi, deb o'ziga ishonganlarning biri — uzoq qarindoshimizning o'g'li Usmon yangamga tegajaklik qilavergan edi, u Usmonning qo'lini siltab yubordi-da, g'aram soyasida o'tirgan joyidan turarkan:

— Tur yo'qol! — deb o'shqirdi va teskari qarab oldi. — Qo'llaringdan moda-bozlik qilishdan boshqa ish kelarmidi.

G'aram ostida taltayib yotgan Usmon qalin lablarini nafrat bilan burishtirib to'ng'illadi:

— Ol-a, mushukning bo'yi shiftda osig'liq turgan go'shtga yetmay, puf sas-siq degan ekan... Shunga o'xshab, ko'p noz qilaverma. Ichingda jon-jon deb turibsanu, yana...

Jamila unga yalt etib qaradi-da:

— Jon-jon deb tursam turgandirman. Lekin peshonamga yozilgani shu ekan, nima qilay. Ey, ahmoq, buning kuladigan joyi bormi? Jon-jon deyish u yoqda tursin, ming yil toq o'tsam ham senga o'xshagan shumshuklarga nazarimni solmayman. Ahmoqsan. Ilgarigidek tinch zamon bo'lganda shunday deb bo'psan edi! — dedi.

— Shuni aytyapman-da! Urushning kasofati bilan qamchi yemay quturib yuribsan-da, — dedi istehzo bilan Usmon ko'zlarini o'ynatib tamshanarkan. — Mening xotinim bo'lganingdami, nima qilishimni o'zim bilardim!

Jamila lablari dir-dir titrab, Usmonga yeb qo'ygudek bo'lib qaradi, unga bir narsa demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, lekin «shu ahmoq bilan aytishib nima obro' topdim» deb o'yladi shekilli, jirkanch bilan «tfu» dedi-da, yerda yotgan panshasini yelkasiga tashlab, indamay nari ketdi. Men berigi tomonda aravaning ustidan xashak tushirayotgan edim, Jamila meni ko'rishi bilan boshqa tomonga burilib ketdi. Yangam mening qay ahvolda ekanimni sezgan edi. Nazarimda, yangamni emas, meni haqorat qilishganlaridek izza bo'lib, g'azabim qaynab ketdi. «Nega ularga yondashasan, nega ular bilan gaplashasan?» — deb yangamga jonim achidi-yu, ichimda uni koyidim.

Jamila o'sha kuni kechgacha noxush yurdi, kulmadi ham, gapirmadi ham. Men shoti aravani haydab g'aram oldiga borganimda, Jamila meni gapirmasin deb ataylab ishga alahsitib, dilini o'rtayotgan o'y-fikrlarini yashirishga harakat qildi, u panshasini kattakon pichan g'aramiga sanchdi-da, go'yo tog'ni ag'darayotgandek uni yerdan shartta ko'tarib, yuzini yashirganicha g'ayrat bilan pichanni aravaga otaverdi. Undan uzoqlashar ekanman, qayta-qayta orqamga qayrilib qarardim: yangam panshaxa dastasiga suyanib bir oz xomush turar, o'ylanib qolar, keyin yana ishga tushib ketardi.

Men aravaga oxirgi marta pichan bosar ekanman, Jamilaning botib borayotgan quyoshga uzoq tikilib turganini payqadim. Quyosh daryoning narigi yog'ida, qozoq dashtlarining allaqayerida o't yoqilgan tandirning og'zidek alangalanib, holdan toyib, osmonda suzib yurgan pag'a-pag'a bulut parchalarini qizg'ish rangga bo'yab, binafsharang dashtlikka so'nggi shu'lalarini sochib, asta-sekin ufq orqasiga o'tib borardi. Jamila qo'li bilan quyoshni to'sib, o'sha tomonda ajib bir manzara bordek, ko'zlarini uzmay, kulimsirab qarab turardi. Endi uning chehrasi ochilib, ko'ngli ancha ko'tarilgan edi.

O'shanda Jamila mening aytmagan, lekin yuragimda tugilib, tilim uchida turgan: «Nega ularga yondashasan, nega ular bilan gaplashasan!» — degan ta'namga javob berayotgandek:

— Haligi gaplarimni ko'nglingga olma, kichkina bola, — deb qo'ydi, eng yaqin sirdoshi bilan dardlashayotgandek. — Usmon ham odammi? It ham bir, u ham bir.

Jamila botib borayotgan quyoshdan ko'zini uzmay, indamay qoldi, keyin go'yo menga emas, o'ziga gapirayotgandek, yana shunday dedi:

— Bunday kishilar ko'nglingdagini bilarmidi... Buni hech kim bilmaydi. Xudo bilsin, bunday erkaklar dunyoda yo'qdir ham!

Men aravani qaytarishga ham ulgurmasdan qarasam, Jamila allaqachon nari-gi tomonda ishlayotgan kelinlar oldiga yugurib borib, ular bilan chaqchaqlashib, quvalashib yuribdi. Olovdek tovlanib turgan kechki shafaqqa qarab ko'ngli ochildimi yoki bugun yaxshi ishlaganidan xursand bo'ldimi, bilmadim, har qalay, kayfi chog' edi. Xashak ortilgan arava ustida o'tirar ekanman, Jamilaning qo'llarini keng yozgancha oppoq durrasini hilpiratib chopib borayotganini ko'rib, ko'nglim ancha taskin topdi: «Ha, Usmon o'zi kimu uning so'zi nima bo'lardi?»

— Chuh, jonivor, chuh! — deb otga qamchi urdim.

\* \* \*

Brigadir O'rozmat og'a aytgandek, sochimni oldirib ketayin, deb otamning ustaxonadan qaytishini kutdim. Lekin u kelguncha bekor o'tirmay, deb Sodiq akamning xatiga javob yozdim.

Darvoqe, xat yozishda bizlarning o'zimizga xos bir taomilimiz bor. Armiya-dagi akalarim xatni otamning nomiga yozishardi, pochtachi bo'lsa ularni onam-ga berardi, xatlarni o'qib berish, ularga javob yozish mening vazifam edi. Xatni o'qiy boshlashim bilanoq unda nimalar yozilganini darrov bilib olardim. Chunki hamma xatlar egiz qo'zilardek bir-biriga o'xshardi. Sodiq akam har doim xatni «Sog'inchli salom xat» degan so'zdan boshlardi. Keyin: «Yetib ma'lum bo'lsinki, u tomonda, ya'ni gullab-yashnayotgan Tolosning salqin havosida sog'-salomat, o'ynab-kulib yurgan jondan aziz, mehribon otajonim Yo'lchiboyga» — deb salomni otamdan boshlardi, keyin katta oyimni, so'ngra ishchan oyimni, ana undan keyin qavm-qarindoshlarimizning sog'ligini so'rab, eng oxirida: «shuningdek xotinim Jamila ham eson-omon yuribdimi?» — deb bir og'iz qistirib o'tardi,

Ota-onasi, qavm-qarindoshlari turganda dastlab xotinini esga olish, xatni uning nomiga yozish odobdan emas, albatta, bu narsa faqat Sodiqqa emas, balki, umuman erkak zotiga to'g'ri kelmaydi. Biroq biz shu ikki enlik xat olib turgani-

mizga ham ming qatla shukur qilamiz, ovuldagilar uchun bu bir katta baxt edi. Oyim xatni menga ikki-uch marta o'qitib olgandan keyin, qozon-tovoq, issiq-sovuqqa uraverib yorilib ketgan qo'llariga olib, go'yo uchirib yuborishdan qo'rq-qandek uni avaylab uch burchak qilib buklab qo'yardi.

— E-e, tumordek xatlaringdan onang aylansin, — derdi u ko'ziga yosh olib, og'ir xo'rsinib. — Ota-ona, qarindoshlarning ahvolini so'raydi-ya! Axir, biz uydami-ku, bizni jin urarmidi! Baxtimizga, ishqilib, sizlar omon bo'linglar, xudo o'z panohida saqlasin. Ikki enlik xat yozib: sog'-salomat yuribman, deb qo'ysalaring, shuning o'zi ham katta g'animat.

Oyim xatga yana bir oz termilib qarab turardi-da, so'ngra uni sandiqdagi xatlar saqlanadigan xaltachaga yashirib qo'yardi.

Agar shu payt Jamila uyda bo'lib qolsa, u ham xatni bir karra ichida o'qib chiqardi. Jamila har safar xatni qo'lga olishi bilan o'z-o'zidan qizishib ketar, uni harislik bilan tez-tez o'qiy boshlardi. Lekin xatning oxiriga yaqinlashgan sayin yuzidagi quvonch alangalari so'nib, rangi o'chib, qoshlari yana chimirilib qoldi. Ba'zida xatni oxirigacha o'qib chiqishga ham sabri chidamay, hafsalasi pir bo'lardi-yu, g'ing demasdan, go'yo qarz olgan narsasini qaytarib berayotgandek bo'shashib, xatni oyimning qo'lga tutqazardi.

Xat saqlanadigan xaltachani sandiqqa bekitakan, kelinining tumshayib qolganini payqagan oyim unga tasalli bergan bo'lardi:

— Xabar kelganiga quvonish o'rniga xafa bo'lganing nimasi, bolam. Yoki faqat sening kuyoving askarlikka ketganmi? Barchaga barobar musibat, sabr qil... Ko'z ochib ko'rgan yorini kim sog'inmaydi deysan. Sog'insang ham sir boy berma, ichingda saqla.

Jamila bo'lsa miq etmasdi. Lom-mim demasa ham, parishon chehrasi go'yo: «Eh, koshki edi tushunsangiz!» deyayotgandek bo'lardi.

Sodiq akam bu xatini ham Saratovdan, gospitaldan yozgan edi. Xudo xohlasa, kuzning o'rtalariga borib qolarman, debdi. Ilgari ham shunday deb yozganida biz juda quvongan edik.

Otam ishdan qaytgach, tezda sochimni oldirdim-u uyda qolmay, otlarni bedazorga qo'yib yubordim-da, o'zim har kungidek xirmonda tunadim. Raisimiz mollarni bedazorga yoyishga ruxsat bermasdi, biroq men otlarim yaxshi to'ysin deb ularni ko'zdan ovloq joydagi bedazorga tushovlab qo'yardim. Buni hech kim bilmasdi. Bu safar, aravani xirmonda qoldirib borsam, pastlikda yana to'rt ot o'tlab yuribdi. Jahlim chiqib, ularni chekkaroq joyga haydab yubormoqchi

bo'ldim. Biroq otlarning ikkitasi brigadir aytgan o'sha Doniyorniki ekanini tanib qoldim. Men, ertadan boshlab barimiz bir brigada bo'lib, stansiyaqa birga qatnaymiz, degan o'y bilan otlarga tekkanim yo'q. So'ngra xirmonga kelsam, Doniyor ham shu yerda ekan. U endigina aravasining g'ildiraklarini moylab bo'lib, o'qning gaykalarini burayotgan ekan.

— Doniyor aka, otlar siznikimi? — deb so'radim undan.

U menga bir qarab qo'ydi-da:

— Ikkitasi meniki, — dedi.

— Qolgan ikkitasi-chi?

— Haligi, ha, oti nima edi, Jamilamidi, o'sha kelinniki. Aytmoqchi, u sening yangang bo'ladimi?

— Ha, yangam bo'ladi.

— Bo'lmasa, bugun kechasi Seit qarab tursin, deb brigadirning o'zi tashlab ketdi.

«Yaxshiyam ularni haydab yubormagan ekanman-a!» — deb qo'ydim ichimda.

Kech kirib, tog'dan esgan mayin shabada ham tinib, xirmon jimjit bo'lib qoldi. Doniyor ham men yotgan somon ustiga kelib yonboshladi. Lekin ko'p o'tmay yana o'rnidan turdi-da, soy bo'yiga tomon ketdi. U tik jar yoqasiga bordi-da, boshini sal qiyshaytirib, qo'llarini orqasiga qilganicha turib qoldi. Orqasidan qaraganda uning gavdasi oy yorug'ida ko'zga aniq tashlanib turardi. Doniyor, aftidan, mudroq, sokin tun uyqusini buzib, toshlardan toshlarga urilib, sharillab oqayotgan soy suvining musiqiy ohangini yo bo'lmasa boshqa bir quloq ilg'amas tovushlarni tinglayotgandek qimir etmay turardi.

«Odaticha soy bo'yiga borib tunamoqchi shekilli», deb kulib qo'ydim men o'zimcha.

Doniyor ovulimizga yaqindagina kelgandi. Pichan o'rog'i endi boshlangan kezlar edi. Bir kuni bitta bola chopib keldi-da, ovulga bir yarador askar qaytdi, lekin kimligini o'zim ham bilmayman, deb qoldi. Ovulda birov askardan qaytib kelgudek bo'lsa, ko'rgani hamma yopirilib borardi. Ammo bu safar frontdan kelgan kishining nasl-nasabi noma'lum bo'lgani uchun, o'roqchilar tozayam shovshuv ko'tarishdi.

— Begona deyishadi-ku.

— Begona bo'lsa, bizning ovulga kelarmidi?

— Shuni ayt-a?

Shunday qilib, u kim ekan, o'zimizning qarindosh-urug'imizdan bitta-yarimtasining bolasi bo'lmasin tag'in, deyishib, bir to'da odam ovulga ham borib kelishdi.



Keyin bilishsa, Doniyor asli shu yerlik ekan. Aytishlaricha, u yoshligidan yetim qolib, har kimlarning eshigida yurgan, oxiri Chaqmoqdagi qozoq tog'alarinikiga ketib qolgan, shu-shu, bolani izlab borgudek bironta ham jonkuyari bo'lmagan ekan. Shunday qilib, u el-urug'ning yodidan ham chiqib ketgan ekan. Ovuldan ketib qolganidan keyingi hayoti to'g'risida esa Doniyor unchalik yozilib gapirmaganmish. Biroq hozir o'ylab ko'rsam, uning tortmagan azob-uqubatlari qolmaganga o'xshardi.

Turmush bu mushtdek bolani ne ko'ylarga solmagan, tirikchilik dardida u qayerlarga bosh urmagan. Doniyor ko'p vaqt Chaqmoq dashtida qo'y boqib yurib, voyaga yetgach, jazirama cho'llarda kanal qazigan, yangi tuzilgan paxta sovxozlarida paxta ekib, ekin sug'orib, oxiri Toshkent yaqinidagi Ohangaron shaxtalarida ishlab, o'sha yerdan armiyaga ketgan edi.

Xullas, Doniyorning armiyadan qadrdon ovuliga qaytib kelganiga ovuldagilar xursand bo'lishgandi. Bechoraning tuz-nasibasi uzilmagan ekan, mana oxiri o'z eliga qaytib keldi! Shuncha yil chetda yursa ham, tilimizni esdan chiqarmabdi-ya. Biroq tili sal-pal qozoqchaga tortib ketadi, deyishardi.

«Ot aylanib qozig'ini topadi, deganlar. Tug'ishgan yer, el-yurtini unutish osonmi? Kelganingga biz ham, ota-bobolarining arvohi ham xursand; girmonni yengib, tinchlik bo'lsa, sen ham uy-joy qilarsan, bola-chaqali bo'larsan» — deyishardi keksalar. Ular Doniyorning yetti pushtini surishtirib, uning qaysi urug'dan ekanligini, ovuldagi ba'zi bir tug'ishganlarining kimligini ham aytib berishdi. Xullas, ovuldagilar: «Doniyor dunyoga yangi kelgandek bo'ldi», deyishadigan bo'lishdi.

Oradan ko'p o'tmay bir kuni brigadir O'rozmat shinelini yelkasiga tashlab, chap oyog'iga sal oqsoqlagan novcha, bo'yni uzun bir kishini ergashtirib keldi. Yo'rg'a baytalini gijinglatib kelayotgan pakana O'rozmatning yonida haligi novcha askar salmog'ini o'ng oyog'iga solib, orqada qolmay, tez-tez yurib kelardi.

Bizlar, pichan o'radigan mashinada ishlayotgan bolalar Doniyorini birinchi ko'rishimiz edi. Doniyor yarasi yaxshi bitib ketmaganidan oyog'ini bukolmasdi. Uni o'roqqa yaramaydigan bo'lgani uchun biz bilan birga mashinaga qo'yishdi. Rostini aytsam, biz uni avvaliga unchalik yoqtirmadik. Chunki Doniyor juda odamovi edi, gapirishganda ham uning butunlay boshqa, faqat o'zigagina ma'lum bo'lgan narsalar to'g'risida xayol surayotgani, kishiga tikilib tursa ham, ko'ngli boshqa yoqda ekanligi shunday sezilib turardi. U og'ir xayolga botgandek angrayib turardi. Buni payqagan kishilar: «Bechora, frontdan keyin hali ham o'zini o'nglab ololmasa kerak», deb yurishdi. Lekin Doniyorning o'zini tutishiga, qo'li qo'lga tegmay chaqqon ishlashiga, harakatchanligiga qarab, uni ochiq-yoriq, aqlli, gapga

chechan odam ekan, deb o'ylaysan kishi. Balki yetimlik azob-uqubatini ko'p tortganidan u mehnatchan, lekin kamgap, sir-asrorini hech kimga aytmaydigan bo'lib qolganmikin? Ehtimol, shundaydir. Sersavlat, bo'y-basti kelishgan Doniyorning jag'i bir-biriga yopishib ketgan, qovog'i sira ochilmas, ko'zlari bir xilda g'amgin boqardi. Faqat doim uchib turadigan qoshlari uning yuziga husn berib turardi.

Goho-goho u qandaydir bir sirli tovush eshitgandek hushyor tortar, qoshlari uchib, go'yo bir narsadan xursand bo'lgandek ko'zlari yaraqlab ketardi. Lekin biz buning sababini bilmasdik. Bugina emas, uning boshqa qiziq odatlari ham bor edi. Qosh qorayganda otlarni aravadan chiqarib, ovqat qachon tayyor bo'larkin, deb o'choq atrofida dam olib o'tirardik. Doniyor bo'lsa yonimizdagi Qorovul tepaga chiqib, qorong'i tushganga qadar o'sha yerda o'tirardi.

«U yerda nima bor ekan? U kimni qo'riqlaydi, u nimani qo'riqlayapti», deb kulishardik biz. Kunlardan birida men ham qiziqib, uning yoniga chiqib o'tirdim. Bu yerda aytarli hech narsa yo'q edi. Tog' etaklari bo'ylab yastanib yotgan bepoyon dashtlik chuqur dengizga cho'kib borayotgandek, oqshom qo'ynida yo'qolib borardi. Doniyor mening kelganimga parvo qilmadi. U chehrasi yorishib, bir tizzasini quchoqlaganicha xayol surib o'tirardi. U men anglab yetmagan, ma'nosiga tushunmagan allaqanday sirli tovushlarni butun vujudi bilan berilib tinglayotgandek tuyulardi. Ba'zan qoshlari chimirilib, ko'zlari chaq nab, kuchi tanasiga sig'mayotgandek to'lg'anar, go'yo o'rnidan irg'ib turib, qulochini yozgancha butun borliqni ko'ksiga bosib, quchoqlamoqchi bo'layotgandek tuyulardi. Bir qarasang, qattiq charchagan odamday yana bo'shshib, g'amgin bo'lib qolardi.

Kolxozimizning pichan o'radigan mashinalari buralib-buralib oqayotgan kat-takon Gurkurov soyining bo'ylarida xuddi shu Gurkurov soyidek gurkirab yurardi. Pichan o'rog'i soylarning to'lib-toshib oqayotgan davriga to'g'ri keldi. Toshdan toshga urilib, ko'piklanib, pishqirib oqqan suv kech kirishi bilan yana ko'payardi va yarim kechaga borib sharillab oqqan ovozidan kapada yotgan yerimda uyg'onib ketardim. Qaymog'i olingan sutdek osmonda muzdek shabada g'ir-g'ir esib, ko'kda-gi yulduzlar shu'la sochib mo'ralab turardi. Tun og'ushida hayqirib oqqan soy suvining to'liqini yana ham kuchliroq sezilib, go'yo ustimizga bosib kelayotgandek tuyulardi. Biz qirg'oqdan olisda bo'lsak-da, kapamizni suv oqzib ketmasmikim, degan vahima beixtiyor ko'ngilga g'ulg'ula solardi. Do'stlarim hech narsadan xabarsiz, dong qotib uxlashardi, men tashqariga chiqib ketaman.

Tunda soy bo'yi ham ko'rkam, ham vahimali bo'ladi. O'tloqning u yer, bu yerida o'tlab yurgan otlar qorayib ko'rinaradi. Hamma yoq jimjit. Otlar shabnam tushgan



o'tlarga to'yib, dam-badam pishqirishar va yengil mudrashardi. Sal narida Gurku-rov suvi quturib, mayda tol novdalarini egib, toshlarni yumalatib, sokin tun jimligi-ni buzib, go'yo yer qa'ridan qaynab chiqayotgandek dahshat bilan sharillab oqardi. Shunday kechalarda men doim Donyorni eslardim. «Darvoqe, Donyor qayerda qoldi ekan?» deb so'rardim o'zimdan o'zim. U doim yakka o'zi suv bo'yidagi pichan g'aramlari ustiga borib yotardi. «Nima balo, u kechasi qo'rqmaydimi, suvning sha-rillashidan qulog'i bitmaydimi?» — degan fikr xayolimdan o'tardi. «U hozir ham uxlayotganmikin yoki uyg'oqmikin? Tavba, yolg'iz suv bo'yiga borib yotishning nima hojati bor ekan? Buning nima halovati bor? Qiziq, sira odamlarga qo'shil-maydi-ya. U hozir qayerda ekan?» — deb atrofga nazar tashlab, quloq solaman, hamma yoq jimjit. Qirg'oq bo'ylab qiya tepalik cho'zilib ketgan tog' etaklariga qo-rong'ilik cho'kmoqda, osmonning u yer-bu yerida yulduzlar miltillab ko'rinmoqda.

Ovulga kelganiga bir necha kun bo'lsa ham, o'zini chetga tortib, hech kimga qo'shilmay yurgan Donyor oshna-og'ayni orttira olmadi. Birovga yondashmas, janjallashish, tortishish nimaligini bilmas, birovga yaxshi ham gapirmas, yomon ham gapirmas edi. Ovulga yaxshilik ham qilib, yomonlik ham qilib, yig'ilishlar-da so'zlab, to'y va ma'rakalarda qariyalar bilan yonma-yon o'tirib, elning issiq, sovug'iga aralashib yurgan o'ktam yigitlar qadr-qimmatli bo'lib, darrov og'izga tushadigan, xotin-qizlarning nazariga ilinadiganlar ham shular bo'lardi.

Donyorga o'xshab ertadan kechgacha ter to'kib ishlaydigan, lekin o'zini boshqalardan chetga olib yuradigan, o'zi bilan o'zi bo'lib, birovga zarari ham, foydasi ham tegmaydigan kishilar to'g'risida: «Bir amallab kun ko'rib yurgan be-chora-ku», deyishardi. Bizlarga o'xshagan o'zi bilarmon, mahmadana bolalar esa haligidek chinakam, asl yigitlardek bo'lishni havas qilib, Donyorning yuz-ko'zi oldida bo'lmasa ham, orqasidan mazax qilardik. Uning ko'ylagini o'zi yuvganiga ham kular edik: u armiyadan bitta ko'ylak bilan kelganligi uchun ham uni qurir-qurimas kiyib olardi. Biroq, qizig'i shundaki, Donyor mo'minqobil bo'lsa ham, biz u bilan bemaolol, botinib gaplasha olmasdik. Gap uning kattaligida emas edi, albatta. Chunki u, juda nari borsa, akalarim bilan teng kelardi. Shuning uchun ham biz u bilan sensirab gaplashar edik. Nima, o'zimizni pastga urarmidik. Gar-chi Donyor ulug'sifat bir odam bo'lmasa-da, uning shunday hech kim bilan ga-pirishmay, vazmin yurishida qandaydir bir xosiyat bordek, sho'x, shayton bolalar undan hayiqib turishardi.

Bunga qisman o'zim ham sababchi bo'ldimmi deymanda. Chunki men odamlar-dan, ayniqsa frontga borib kelganlardan ko'rgan-bilganlarini ipidan-ignasigacha ga-

pirib berishni iltimos qilib, ularni hol-joniga qo'ymasdim, savolman deganni yog'dirib yuborardim. Shuning uchun ham men «Seit xira» degan laqab orttirganman.

Doniyor kelgan dastlabki kunlarda, men undan urush to'g'risida ko'p narsalarni so'rab bilib olaman deb yurdim. Bir kun ishdan so'ng gulxan atrofida ovqat ichib dam olib o'tirganimizda Doniyordan so'rab qoldim:

— Doniyor aka, urushda ko'rgan-kechirganlaringdan bir gapirib bermaysanmi?

Doniyor hadeganda gapira qolmadi. Chamamda, mening bu gapim unga yoqmadi shekilli.

— Urush deysanmi? — dedi u va xuddi o'ziga javob berayotgandek past ovoz bilan qo'shib qo'ydi: — Urushning nomi o'chsin, uni bilmaganlaring yaxshi!

Doniyor narida yotgan xashakdan katta bir tutam olib gulxanga tashladi va olovni tez-tez puflab yondirdi-da, hech kimga qaramay qo'llarini o'tga toblay boshladi. U alanganlab yonayotgan olovga tikilganча uzoq jim qoldi.

Doniyorning nega bunday qilganini kim bilsin, lekin uning o'sha ikki og'iz gapidan ham urushni ertakdek ermak qilib gapirib bo'lmasligi, u odamning yurak yuragiga singib ketishi, u haqda gapirish nihoyatda og'ir ekanligi shunday sezilib turardi. Uyalganimdan boshimni yerdan ko'tara olmadim. Shu-shu Doniyordan urush haqida so'ramaydigan bo'ldim. Bolalar ham unga tegajaklik qilmaydigan bo'lishdi.

Biroq, ko'rinishi tund, odamga aralashmaydigan Doniyor o'zicha yakka-yolg'iz yuravergani uchun uning armiyadan kelganligining qizig'i ham qolmadi. Qay bir kishilar: «Shunchaki bir odam-da», degandek qilib uni nazariga ilmas, boshqa birovlar esa undan ro'yi rost kulib, ko'pchilik esa rahmi kelib: «Boshpanasiz, bir amallab jon saqlab yurgan bir g'arib-da... Kolxozning dalada beradigan issiq ovqati bo'lmasa, tentirab ketib qolarmidi... O'ziyam, qo'ydek yuvosh ekan...» — deb achinib gapirishardi. Bora-bora odamlar Doniyorga ko'nikib qolishdi shekilli, uni boshqa gap qilmaydigan bo'lishdi. Odamlarning u bilan ishi bo'lmay qo'ydi.

\* \* \*

Ertasi saharlab Doniyor ikkalamiz otlarni xirmonga olib keldik, shu payt Jamila yangam kelib qoldi. U bizni ko'rishi bilan uzoqdan qichqirdi:

— Ey, kichkina bola, qaysisi mening otlarim, bu yoqqa haydab kel! Xomutlari qani? — deb umri bo'yi aravakashlik qilgan odamdek, g'ildiraklari joyidamikin degandek tepib ko'rar, u yoq-bu yog'ini sinchiklab ko'zdan kechirardi. Biz Do-

niyor bilan otlarni yetaklab, xirmonga yaqinlashib kelganimizda, ikkalamizning afti-angorimiz Jamilaga g'alati ko'rindi shekilli, u bir kulimsirab qo'ydi. Doniyorning uzun va oriq oyoqlaridan qo'nji keng harbiycha etiklari chiqib ketgudek bo'lib shalvirab turardi, men bo'lsam, qorayib, toshdek qotib ketgan oyoqlarim bilan otni niqtab kelardim.

— O'xshatmaguncha uchratmas, deganlaridek, juda topishibsizlar-ku. Shu-shu go'yo bizning jilovimizni qo'lga olgandek, u buyruq qilaverdi: — qani tez-tez bo'linglar, urushda turish yo'q, ertaroq salqinda jo'nay qolaylik, — deb otlarini aravaga qo'sha boshladi.

Jamila Doniyorning bori ham, yo'g'i ham bilinmaydi, degandek, uni nazariga ilmasdi. Gapirishsa ham men bilan gaplashardi. U bizdan qolishmay yelib-yugurib ishlardi. Jamiladagi bu jasorat, ayniqsa o'zini katta olib gapirishi Doniyor-ga qattiq tekkandek bo'ldi. Doniyor chakkasi tirishib, uni ham yoqtirmagandek, ham hayratda qolgandek, tumshayib teskari burilib oldi. Jamila buni payqagani ham yo'q. Doniyor tarozi ustidagi qoplardan og'irini indamay dast ko'tarib aravasiga tashlaganda, Jamila unga yopisha ketdi:

— Bu nima qiliq, har kim o'z bilganicha ishlayveradimi? Qani, qo'lingni ber, qo'llashganni xudo qo'llaydi! Hoy kichkina bola, aravaga chiq, qoplarni joylashtir!

Jamila Doniyorning qo'lidan shartta ushlab, qopni ikkovlashib ko'targanida, Doniyor uyalganidan qip-qizarib ketdi. Shundan keyin ham ular qoplarni ikkovlashib ko'tarib bosishdi, qo'llari bir-biriga chirmashib, qop ustidan asta sirpanib tusharkan, Doniyor o'ng'aysizlanib, unga qaramaslikka harakat qilardi. Jamila bo'lsa parvoyi falak, har safar tarozibon xotinning yoniga kelganida, u bilan hazil-huzul qilib, hiring-hiring kulishardi. Jo'nash oldidagina u ko'zini bir qisib qo'yib, Doniyorga:

— Hoy yigit, isming nima, Doniyormidi, ko'rinishdan erkakka o'xshaysan-ku, qani yo'l boshla! — dedi.

Doniyor bu safar ham miq etmadi, Jamilaga cho'chigandek bir qarab qo'ydi-da, aravani haydab ketdi. «Obbo sho'ring qurg'ur-ey, muncha uyalmasang!» — deb achinib qo'ydim unga.

Yo'l olis, dashtdan yigirma chaqirimcha yo'l bosib, Qoratog' darasidan o'tib, stansiyaga borish kerak. Shunisi yaxshiki, xirmondan to stansiyagacha yo'l qiya-lab boradi, otlarga ham ancha yengil edi. Ulug'tog' tog'ining etagidagi ko'm-ko'k daraxtlar ichiga ko'milgan ovulimiz to daradan chiqib ketguncha, xuddi kaftda-gidek aniq ko'rinib turardi. Daraning etagidan esa temir yo'l kesib o'tadi.

Shunday qilib, biz har kuni stansiyaga g'alla tashib yurdik. Ovuldan ertalab chiqib, stansiyaga peshinda yetib boramiz. Taqir yo'ldagi shag'al arava g'ildiraklari ostida g'ichirlardi. Kun isigan sayin otlarning yag'rinlaridan ter quyilib oqardi.

Saratonning jazirama quyoshi hammayoqni qovjiratib kuydiradi. Stansiyaga kelsang ot-aravaning ko'pligidan qadam bosolmaysan. Tog' etagidagi uzoq kolxozlardan eshak va ho'kizlarga g'alla ortib kelgan bolalar bilan xotinlarning kiyimlari terdan sho'ri chiqib, chang bosgan betlari qorayib kuyib, shamoldan lablari yorilib, yalangoyoq, yalangbosh horib-tolib kelardilar, Zagotzernoning hovlisi qiy-chuv bo'lib, uning darvozasiga: «Hamma g'alla front uchun!» degan shior yozib qo'yilgandi. Paxsa bilan aylantirib olingan pastqam hovlining tashqarisida vagonlarni bir-biriga ulab yurgan parovoz qaynoq bug' chiqarib, qumursqadek tinmay harakat qilardi. Sal naridan poyezdlar quloqni kar qilgudek darajada bo'kirishib o'tishadi. Xuddi darvoza oldiga cho'ktirilgan tuyalar o'rnidan turgisi kelmay, jini qo'zib, ko'pik sochib ovozining boricha bo'kirardi.

Kattakon kopponning ichiga g'alla tog'-tog' qilib uyib tashlangan. G'alla solingan qoplarni orqalab taxta trapdan ana shu uyumlarning tepasiga olib chiqib to'kish kerak. Kopponning qizigan tunuka tomidan chiqqan bo'yoq aralash temir hidi bug'doy changi bilan birga qo'shilib dimog'ni qichitardi.

Uyqusizlikdan ko'zlari qizarib ketgan omborchi pastda qo'lini paxsa qilib so'kinardi:

— Hoy bola, ko'zingga qara, ustiga chiqarib to'ksangchi!

U nega so'kinadi? So'kinmasa bo'lmaydimi? O'sha yerga olib chiqib to'kish kerakligini o'zimiz ham bilamiz-ku.

Biz bu yerdagina emas, balki dalaning o'zida, yerga don tashlangan kundan mehnat qilamiz. Yosh-yalang, xotin, bolalarimiz yoz bo'yi tinmay parvarish qiladi, kombaynchilarimiz har kuni yuz martalab bo'ziladigan, parti ketib, sharti qolgan kombaynni bir nafas ham to'xtatmay, saratonning jazirama kunlarida ham daladan chiqishmaydi. Hozir ham dalada o'roqchilar tong sahardan qorong'i kechgacha zir-qirab og'rigan bellarini yozolmay g'alla o'rmoqdalar, bir qarich bolalar bitta ham boshqoni qoldirmay terib olmoqdalar. O'sha kunlarda biz barcha topgan-tutganimizni frontga jo'natamiz, bu bizning g'alabaga qo'shgan ter bilan qonimizdir.

Hali-hali esimda, yosh bola ekanman, zabardast yigitlar ko'taradigan katta-katta qoplarni yelkamga tashlab, uning bir burchagidan mahkam tishlab trapdan yuqoriga chiqar ekanman, qovurg'alarim mayishib, ko'zlarim tinib ketardi. Qadam sayin trapning taxtalari egilib, koppon ichidan ko'tarilayotgan chang ara-

lash g'ubor o'pkani qisardi. Necha marta holdan toyib, orqamdan sirg'alib tushib borayotgan qopni yelkandan irg'itib, o'zim ham sakrab yuborgim kelardi. Lekin orqamdan ham qop ko'targan odamlar kelardi. U ham menga o'xshagan bir yosh boladir, yo bo'lmasa tushib-chiqib yurgan ayollarning biridir. Agarda urush bo'lmaganda bunday og'ir yukni ularga kim ko'tartirib qo'yardi. Shunday og'ir ishga ayollar chidash berayotganda nolishga haqqim bormi?

Ana, oldinda Jamila yangam boryapti. Etagini qistirib olgan, uning bug'doy rang chiroyli oyoq muskullari tarang tortilib, paylari uzilib ketgundek bo'ladi. U go'yo yukini yengillatayotgandek bukilib, egilib og'ir qadam tashlab borardi. Goh-goh u mening holdan toyib borayotganimni sezgandek to'xtab qolardi-da:

— Bo'shshama, kichkina bola, oz qoldi! — deb qo'yardi. Biroq o'zi ham qattiq charchaganidan ovozi bo'g'ilib chiqardi.

Bug'doyni to'kib, orqaga qaytayotganimizda, doim Doniyorga duch kelardik. U odati bo'yicha hech kimga qo'shilmay, jimgina, salmoq bilan oyog'ini oqsoqlanib bosardi. Biz unga yondashganimizda, og'ir tortgan bo'ynini cho'zib, qistirilgan ko'ylagining barini yozib kelayotgan Jamilaga Doniyor enkayganicha qovoq ostidan tikilib o'tardi. U Jamilani go'yo birinchi marta ko'rayotgandek hamisha ana shunday tikilib qarardi. Lekin Jamila bunga sira e'tibor bermasdi. Birga ishlaganimizdan buyon ularning biron marta ham ochilib gaplashganini ko'rganim yo'q. Jamila ba'zan shunchaki hazillashib, tegishib kulib gapirsa, ba'zida mutlaqo ishi bo'lmasdi. Bu uning kayfiyatiga bog'liq edi. Hushi kelsa, yo'lda kelayotib Jamila menga: «Qani, chuh de, kichkina bola, ketdik!» — derdi-da o'tirgan yeridan sapchib turib, qiyqirib, qamchinini o'ynatganicha aravani haydab ketardi. Men ham undan qolishmasdim. Hash-pash deguncha oldinda borayotgan Doniyorni quvib o'tib ketardik. Doniyor orqada chang-to'zon ichida qolardi. Aslida bu hazil bo'lsa-da, lekin bunday hazilga hamma ham chidayvermasdi. Biroq Doniyor g'ing demas, ranjimas edi. Biz chang-to'zon ko'tarib, uning yonidan tasira-tusur qilib o'tib ketsak ham, u go'yo aybdor kishidek muloyimgina kulimsirab, aravada tik turganicha otlarga ustma-ust qamchi bosib borayotgan Jamilaga ajablanib, indamay qarab qolardi. Uning jahli chiqdimikin deb orqamga qayrilib qaraganimda, chang quyuni ichida qolgan Doniyorning mamnun bo'lgandek Jamiladan ko'zini olmay tikilib turganini payqardim. Uning bu qarashida o'ta ko'ngilchanlik, olijanoblik bilan birga, yuragini kuydirayotgan allaqanday sirli bir hasrat borligi sezilib turardi. Jamilaning bu qiliqlarini, istehzoli kulishlarini, yonidan go'yo mensimagan kishidek indamay o'tishlarini Doniyor hech ham



ko'ngliga og'ir olmas, bariga chidab, bir og'iz so'z qaytarmas edi. Ba'zida Doniyorga rahmim kelib:

— Qo'yday yuvosh odamning dilini og'ritganing nimasi, yanga? — desam, Jamila menga:

— Ke, qo'y, shuni gapirma! — deb qo'lini siltab kulib qo'yardi. — E, shunchaki bekorchilikdan hazillashaman-da. Nima biron joyi kamayib qolarmidi!

Bora-bora yangamga qo'shilib men ham hazil-huzul qiladigan bo'ldim. Chunki Doniyorning Jamilaga ma'noli tikilib qarashlari menga g'alati tuyula boshladi. Ayniqsa Jamila qop ko'targanida Doniyor ko'zining qiri bilan unga tikilib qolardi. Har kim o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, ko'pchilik ish bilan alahsib, buni payqamaydi, deb o'ylaydi shekilli. Aravakashlar qiyqirig'i, ot-aravalarining ko'pligidan stan-siyaning xuddi bozorga o'xshab ketgan to's-to'polon hovlisida Jamila qanchalik qiynalmasin, sira bo'sh kelmay yelib-yugurib ishlaganidan, qahqaha urib kulganidan u hammadan ajralib ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Jamila arava chetiga qo'yilgan qoplarni ko'kragini kerib yelkasiga olarkan, qop-qora, qo'ng'ir soch o'rirlari yerga tegay-tegay deb ketar, salmoq bilan orqasiga burilganida esa, qisiq ko'zlarining qorachig'lari kipriklari orasidan yalt etib ko'rinardi. O'shanda qop ko'targan Jamila kopponning eshigiga yetgunga qadar Doniyor uni zimdan kuzatib qolardi. Men buni payqab yurardim. Hadeganda ko'nglimga og'ir olmagani bo'lsam ham, lekin keyinchalik Doniyorning yangamga bunday zimdan nazar tashlab yurishi menga yoqmadi, hatto izzat-nafsimga tekkandek bo'ldi, hech kimga ravo ko'rmay, qizg'anib yursam-u, Jamilaga boshqalar qolib, Doniyorboy ko'z tiksa-ya. «Doniyorki Jamilaga ko'z tikdimi, boshqalardan xafa bo'lmasam ham bo'larkan! Tavba!» — derdim jahlim chiqib o'zimga o'zim.

Endi Doniyorni mo'min-qobil yigit deb ayamoq u yoqda tursin, yomon ko'ra boshladim. Shundan keyin men yana yangamga qo'shilib, uni masxara qila boshladim. Ammo bu hazilimizning tagi zil bo'ldi.

G'alla tashib yurgan qoplarimiz orasida olachadan tikilgan yetti pudlik katta bir qop bor edi. Hamisha yangam ikkovimiz uni kopponga olib borib yerga to'kardik, chunki uni bir kishi ko'tarolmasdi. Bir kuni xirmonda aravalarga yuk ortayotib, yangam bilan birga haligi katta qopni Doniyorning aravasiga tashladik-da, ustidan boshqa qoplarni bostirib qo'ydik. Qani, nima qilar ekan, deb o'yladik o'zimizcha.

Xirmondan kun chiqarda jo'nab ketdik. Yo'lda rus qishlog'ida bironing bog'iga kirib, Jamila ikkovimiz olma o'g'irlab chiqdik-da, yo'l-yo'lakay

qahqahlab kulishib ketdik: Jamila bora-borguncha Doniyorga «ilib ol!» deb olma otib bordi. Olma tugagandan keyin biz odatdagicha uni chang-to'zonda qoldirib, ancha uzoqlashib ketdik. Doniyor daradan chiqaverishdagina bizni quvib yetdi, temir yo'l berk ekan, uning ochilishini kutib turishga to'g'ri keldi. Bu yerdan to stansiyagacha birga keldik. Bu orada haligi yetti pudlik qop yodimizdan ko'tarilib ketibdi, xayolimizda hech gap yo'q, g'allani tashib bo'lay deb qoldik. Bir mahal Jamila biqinimga turtib, Doniyorni ko'rsatib bir kulib qo'ydi. Doniyor arava ustida turgan ekan. «Buni nima qilsam ekan?» degandek haligi katta qopning u yoq bu yog'iga qarab turardi. So'ngra u Jamilaning qiqir-qiqir kulayotganini payqab qolib, bizning sinamoqchi bo'lganimizni sezdi shekilli, qip-qizarib ketdi.

— Hoy, ishtoningni baland ko'tar, tushib ketmasin tag'in! — deb qichqirdi Jamila.

Doniyor unga bir o'qrayib qaradi-da, qopni nari-beri surib aravaning chetiga keltirdi, so'ngra uni bir qo'li bilan suyab turib, yerga sakrab tushdi. Hash-pash deguncha bo'lmay, zildek qopni bir siltab yelkasiga oldi-da, koppon tomon yura boshladi. Biz, qani, nima qilar ekan, deb o'zimizni go'llikka solib, sir bermay turdik, boshqalar ham unga parvo qilishgani yo'q. Hamma ham qop ko'tarib yurishibdi-da, kim bilan kimning ishi bor deysiz. Ammo Doniyor trapga yaqinlashganda Jamila uning orqasidan yugurib ketdi:

— Buni qayerga olib boryapsan, esing joyidami o'zi, shu yerga tashla, nima, hazilni tushunmaysanmi?

— Nari tur! — deb Doniyor uni jerkib soldi.

Shoxi singan Jamila o'ng'aysizlanib, trapdan chiqib ketayotgan Doniyorning orqasidan kulib qarab:

— Bu o'larmonni qaranglar, ko'tarib ketdi-ya! — deb xuddi aybli kishidek iljayib, o'zicha to'ng'illab qo'ydi. Garchi Jamila hadeb qiqir-qiqir kulsa ham, borgan sari uning kulgisi sun'iylashib, o'zini o'zi zo'rlab kulayotgandek bo'lib tuyuldi. Doniyor qopni ko'tarib borar ekan, yarador oyog'iga zo'r kelib, oqsay boshlaganidagina, biz uni qanday azobga qo'yganimizni tushundik.

Doniyorning oyog'i yarador ekanini nega ilgariroq o'ylamadik axir? Eh, botaligim qursin-a, shu gap mendan chiqdi-ya!

— Orqangga qayt! — deb qichqirdi Jamila kulgi aralash. Biroq endi huning iloji yo'q edi. Chunki orqasidan ham qop ko'targan odamlar kelishayotgan edi.

Men esimdan og'ayozib, keyin nima bo'lganini bilmayman. Ko'z o'ngimda o'sha kattakon qora qopni ko'targan Doniyor. U bukilib, trapdan yer bag'irlab yuqoriga chiqib borardi. Yarador oyog'ini avaylab bosar, unga zo'r kelmasin

deb qanchalik urinmasin, baribir, har qadam tashlaganda og'riqqa chidayolmay, tishini-tishiga qo'yib, boshini chayqardi. U yuqorilagan sari ustidagi og'ir qop yelkasiga minib olgan balo-qazodek uni battar bosar, u tobora ko'p chayqalardi. Yangam bilan o'ylamay qilgan bu qilmishimizga azbaroyi uyalganimdan yer yorilsa-yu, yerga kirib ketgundek bo'ldim, qo'rqqanimdan yuragim orqamga tortib ketdi, Qop ko'targan Doniyor emas-u, go'yo men o'zimdek, oyoqlarim zirqirab, ko'z o'ngim qorong'ilashib ketdi.

Doniyor yana to'xtab, qopni tishladi-da, ko'zini yumdi. Mening ham boshim aylanib, yer o'pirilib ketayotgandek bo'ldi. Bir nafas hech narsani bilmay qoldim. Kimdir bilagimni changallab, sindirib yuborgudek siqib ushladi. Bunday qarasam, Jamila ekan. Qo'rqqanidan murdadek oqarib ketgan, lablari dir-dir titrab, ko'zlarini katta ochgancha Doniyorga termilib turardi. Atrofimizni omborchi va boshqalar o'rab olishibdi. Ular ham nima gapligiga tushunmay, Doniyorga hayron bo'lib qarashardi.

Mana, Doniyor yurib borayotib sirg'alib ketayotgan qopni o'nglab olay deb bir silkidi-yu, lekin og'irlikka ortiq tob bera olmay cho'kkalay boshladi.

— Tashla! Tashla qopni! — deb qichqirib yubordi Jamila. Doniyor quloq solmadi. Orqada kelayotganlarga tegib ketmasligi uchun qopni trapping chetidan pastga tashlab yuborsa bo'lardi. Biroq u o'jarlik qilib qopni ko'targanicha tura-verdi. Jamilaning ovozi eshitishi bilan yana oyoqlarini rostlab, oldinga qarab intildi. Bir-ikki qadam yurib orqaga tisarila boshlaganida, tarozibonning jonponi chiqib ketib, ovozi boricha qichqirib yubordi:

— Tashla! Tashlasang-chi, it emgan!

— Tashla! — deb boshqalar ham qichqirishdi.

Doniyor bu safar ham o'z bilganini qilib, chayqalib-surinib ilgari bosdi.

— Yo'q, u qopni tashlaydigan emas, o'z aytganini qiladigan yigitga o'xshaydi, — dedi kimdir qo'l siltab.

Endi, faqat haligi odamgina emas, balki yonimizda turgan boshqa odamlar ham, uning orqasidan qop ko'tarib borayotgan kishilar ham bunda bir sir borligini sezishib, Doniyor qop bilan birga qulab tushmaguncha uni tashlamasligiga ishonch hosil qilishdi.

Hamma bir zum jim bo'lib qoldi.

Kopponning orqasida paravoz zir yugurib vagonlarni bir-biriga ulamoqda. Doniyor yuqoriga yuk tortib chiqib ketayotgan otdek ilgarilab borardi. U chayqalib yiqiladigandek bo'lsa, shartta to'xtab, kuch to'plar, keyin yana oldinga qarab inti-

lardi. Doniyorning orqasidan kelayotgan odamlar ham noiloj u to'xtaganda to'xtab, u yurganda yurishardi. Ularning ham tinkasi qurib, qora terga botib ketishgandi. Biroq ulardan bittasi ham Doniyor bilan sen-menga bormadi. Ular toyg'oq yo'ldan go'yo bir-birlariga ko'rinmas ip bilan bog'langandek turnaqator bo'lib jim bori-shardi. Bordi-yu, bittasi toyib ketgudek bo'lsa, boshqalar ham xarob bo'ladigandek tuyulardi. Ularning indamay qadam tashlashlarida, bir xil chayqalishlarida kuchli g'ayrat va shijoat, hamkorlik sezilib turardi: Doniyorning orqasidan kelayotgan ayolning oyog'i chalishib, yiqilishiga sal qoldi-yu, shunda ham u o'ziga emas, Doniyorga xudodan madad so'rayotgandek unga rahmdillik bilan termilib qaraydi. Mana, oz qoldi. Doniyor yana bir zo'r bersa marraga yetadigandek ko'rinardi. Lekin Doniyor yana gindiraklab, yarador oyog'i unga itoat qilmay qo'ydi. Agar u yelkasidagi qopni tashlab yubormasa, o'zi ham qulab ketishi mumkin edi.

— Yugur! Orqasidan suyashib yubor! — deb qichqirdi Jamila menga. O'zi bo'lsa go'yo Doniyorni ushlab qolmoqchi bo'lgandek qo'llarini oldinga cho'zardi. Men trapdan yuqoriga yugurdim; qop ko'targanlar orqasidan siqilib o'tib, Doniyorga yetib oldim. U qo'ltig'i ostidan menga bir qarab oldi. Betidan ter quyilib, manglay tomirlari bo'rtib chiqib, ko'ziga qon to'lib ketgan edi. Men unga ko'maklashmoqchi bo'lgan edim, Doniyor menga:

— Nari tur! — dedi zarda bilan, keyin qopni bir silkidi-da, bor kuchini to'plab, yana oldinga intildi.

Doniyor qavarib, qadoq bo'lib ketgan qo'llarini shalviratib, oqsoqlanib trapdan tushganda, pastdagilar lom-mim deyishmasdan yo'l berishdi. Faqat tarozibongina o'zini tutolmay jahli chiqib Doniyorni koyib ketdi:

— Nima, seni jin urdimi, yo esingni yedingmi? Yoki meni odammas deb o'yladingmi, axir bir og'iz aysang, pastga to'ktirardim-ku. Bunday og'ir qopni ko'tarsin deb senga kim aytdi?

— Ishing bo'lmasin, o'zim bilaman, — dedi Doniyor sekingina, so'ngra, chirt etkizib tupurdi-da, aravasi tomon ketdi. Orqasidan Jamila: — hazilni tushunmagan tentak! — deb pichirlab qo'ydi.

Shunday dedi-yu, boshini yerdan ko'tara olmadi. Doniyor buni uqdimi-uqmadimi, har qalay, yangam ikkovimiz uning yuziga tik qaray olmas edik. Yo'l bo'yi ham birontamiz og'iz ochganimiz yo'q. Doniyorning-ku kamgaplighi hammaga, ma'lum, so'zga no'noq. Ayniqsa, bugungisiga tushunolmay hayron edik, u bizdan xafami, yuz ko'rishmaydigan bo'ldimi, yo oqko'ngillik qilib, hamma gapni unutib yubordimi, bilmasdik. Bizning sukut saqlashimizning boisi bor

edi: bir tomoni, uyalganimizdan yuziga qarayolmasak, ikkinchidan, hazilimizni ko'ngliga og'ir olib yurgani uchun undan xafa edik.

Ertalab g'alla qoplayotganda Jamila bu kasofat qopni oldi-da, uni chok-chokidan shir-shir yirtib yubordi.

— Ma, topgan matohingni boshingga ur! Brigadiringga aytib qo'y, ikkinchi marta bunday qoplarni bera ko'rmasin, — deb haligi yirtilgan qop parchalarini tarozibonning oldiga otib yubordi.

— Hoy, aqling joyidami, bu nima qilganing?

— Hech nima!..

\* \* \*

Ertasiga har kungidek stansiyaga kelib, qosh qorayganda yana ovulga yo'l oldik. Doniyor oldinda ketib borar edi. Uning ko'nglidagi xijili yozildimi-yo'qmi, bila olmadik, zotan, buni bilish oson emasdi. Xuddi o'rtamizda hech gap o'tmagandek, Doniyor indamay ishini qilaverdi. Shunisi borki, yarador oyog'i ko'proq lat yegan bo'lsa kerak, u qattiqroq oqsab, ayniqsa qop ko'targanda qiynalib yurdi. Garchi u hech narsa demasa ham, uning yurish-turishi gunohkor ekanligimizni eslatib, ko'nglimizni og'ritar edi. Loaqal Doniyor sal-pal hazillashib, kulib qarasa ham mayli edi, ko'nglimiz ravshan tortardi.

Jamila otdan tushsa ham, egardan tushmay, go'yo ko'nglida hech gap yo'qday hazil-huzul qilib yuraverdi. Lekin ich-ichidan ezilib, xafa bo'lib yurganini aniq sezardim.

Mana, ovulga ketib boryapmiz. Latofatli ajoyib tun.

Sutdek oydin avgust kechalarini kim hilmaydi deysiz. Osmondagi yulduzlar uzoq-uzoqlardan mo'ralashsa ham, go'yo ular shunday yaqindan har biri o'zicha nur sochayotgandek tuyulardi.

Yulduzlar charaqlagan shunday go'zal kechada biz dara bo'ylab kelardik. Otlar go'yo uyga shoshilayotgandek tobora tez yo'rg'alardi. Mayda shag'al ot tuyoqlari va arava g'ildiraklari ostida g'irchillab, atrofga uchib chiqardi. G'ir-g'ir esib turgan mayin shabada ermanning achchiq isi bilan g'arq pishgan g'allaning xushbo'y hidini dimoqqa keltirib urardi. Bularning hammasi otlarning terga botgan egar-jabdug'idan chiqayotgan hid bilan qo'shilib boshni aylantirar edi. Yo'lning bir tomonida na'mataklar bilan qoplangan qoyalar qad ko'tarib turardi, yo'lning ikkinchi tomonida, pastlikda, tol va yovvoyi teraklar orasidan Gurkurov jo'sh

urib oqardi. Orqada ko'prikdan taraqa-turuq qilib o'tayotgan poyezdlarning yangroq ovozi olis-olislardan ham eshilib turardi.

Bunday so'lim tunda yo'l yurishning o'ziga yarasha gashti bor. Tun quchog'ida baliqdek suzib borayotgan otlarning sag'risiga qarab borish, son-sanoqsiz hasharotlarning yoqimli «chir-chiriga» quloq solish, shamol dimoqqa urayotgan xushbo'y hidlarni to'yib-to'yib shimirish qanday yaxshi!

Jamila oldimda ketib borardi. U tizginni bo'sh qo'yib, atrofga suqlanib qarar, o'zicha allaqanday ashulani xirgoyi qilardi. Bizning og'zimizga talqon solgandek jim kelayotganimizdan Jamilaning toqati-toq bo'layotganini sezib turardim. Shunday kechada jim yurib bo'ladimi? Yuragida o'ti bor odam shunday go'zal tabiat manzarasini ko'rib jim tura oladimi?!

Yo'q, Jamila jim turolmadi, u ovozini baralla qo'yib kuylab yubordi. Menimcha, uning yana bir boshqa niyati — Doniyorning ko'nglini ochib, xafachiligini yozmoqchi bo'lsa kerak. Zotan, odamlar bir-birlarining gunohlarini kechirmas-mikin, deb ikkilanib turgan paytda qandaydir bir turtki kerak bo'ladi-ku. Ehtimol, Jamila shu fikrga borgandir, xullas, u bir silkinib qo'ydi-da, qalbidan qaynab chiqayotgan yangroq ovoz bilan kuylab yubordi:

Shohi ro'moling bog'lab,  
Yonimda yursang yayrab...

Jamila bunday sho'x-sho'x laparlarni juda ko'p bilardi. Uning ashulasi kishiga orom bag'ishlardi. Jamila, ashulasini bir zum bo'lib, oldinda borayotgan Doniyorga qichqirdi:

— Hoy, bo'shang yigit, ovozingni bir chiqarsang-chi! Yigitmisan o'zing?

Doniyor aravasini to'xtatdi-da, orqasiga qayrilib:

— Kuylay ber, Jamila, qulog'im senda, — deb qo'ydi tortinib.

— Nima, hoshqalarning qo'shiq eshitgisi kelmaydi, deb o'ylaysanmi? — dedi kesatib Jamila. — Aytmasang-aytma, tarang qilishini qara-yu!

Shundan so'ng u «sen aytmasang men aytaman» degandek, Doniyorga o'chakishib yana ashulani oldi. Uning nima uchun Doniyorni ashula ayt, deb qistaganini bilolmadim. Gapga solmoqchi bo'ldimikin? Shunday bo'lsa kerak, chunki bir ozdan keyin Jamila yana iltimos qila boshladi:

— Hoy, Doniyor, umringda birovni sevganmisan? — dedi-yu, nima uchundir kulib yubordi.

Doniyor javob qaytarmadi, Jamila ham churq etmay qoldi. Dara ichiga bir nafas jimlik cho'kdi. Faqat g'ildiraklarning dukur-dukur ovozi, otlarning pishqirgani eshitalardi, xolos.

«Juda odamini topib so'rading-da» — deb kulib qo'ydim men.

Yo'lni kesib o'tib, sharqirab oqayotgan soyga yetganimizda, Doniyor aravani sekinroq haydab, ot taqalarining kechuvdagi kumushdek yaraqlagan toshlarga tegib shaqillashiga diqqat bilan quloq sola boshladi. So'ngra «chuh» deb otlarga bir qamchi urdi-da, birdan titroq ovoz bilan:

Eh, Olatog', Olatog',  
Ota-bobom o'sgan yer! —

deb kuylab yubordi. Biroq u yana to'xtab, yo'talib qo'ydi, lekin keyingi ikki misrani yurakdan chiqarib zavq bilan aytdi:

Ey, Olatog', Olatog',  
Oq bulut qalqib ko'chgan yer!

Doniyor nimadandir cho'chigandek yana jim bo'lib qoldi. Kishi degan uyalmasa-da, nima endi, shu ham ashula aytish bo'ldimi, bundan ko'ra, aytmagani tuzuk edi. Xudo biladi, yuzi olov bo'lib yonib ketgandir. Negadir uning uchun o'zim ham mulzam bo'ldim.

Lekin Doniyorning shu bir og'iz kuylashida ham qandaydir bir joziba, nafasat borligi aniq sezilib turardi. Ha, ovozi ham yaxshi edi.

«Qoyilman!» — deb qo'ydim ichimda hayratlanib. Jamila ham qichqirib yubordi:

— Ie, durustsan-ku, ilgari qayerda yurgan eding? Qani ayt, yaxshilab ayt!

Doniyor miq etmay kelaverdi. Oldimizda daradan vodiyya chiqadigan joy oqarib ko'rinardi, o'sha tomondan shabada esardi. Doniyorning hali boshlagan kuyini yana davom ettirishini sabrsizlik bilan kutardim. Doniyor yana kuylay boshladi, men o'zimda yo'q quvonib ketdim.

Doniyor avvaliga tortinib-tortinib sekin kuylay boshladi. Ammo bora-bora ovozini baralla qo'yib, erkin ayta boshladi, uning ashulasi darada qo'ng'iroqdek yangrab, uzoq-uzoqlardagi qoyalarda aks sado berdi. Doniyorning qo'ng'iroqdek ovoziga emas, balki kuyning ohangraboligi, jo'shqin his-tuyg'ularga boyligi

ham kishini maftun etardi. Buning nimaligini aqlimga sig'dira olmay lol bo'lib qoldim, bu ashulachining ovozimi yo bo'lmasa yurakdan qaynab chiqayotgan boshqa bir narsami? Kishi qalbining eng nozik torlarini chertib, unda ezgu niyatlar uyg'otayotgan bu nima o'zi? Rostini aytsam, bu savolga hozir ham javob bera olmayman.

Qani endi, qo'limgan kelsa-yu, bularning hammasini qog'ozga bitib o'tirmay, iloji bo'lsa o'sha ajoyib kuyning o'zginasini yaratib bersam.

Unda deyarli so'z yo'q, lekin bu kuy so'zsiz ham samimiy, sof niyatli qalb egasining butun quvonchi, umid-orzulari va tilaklarini ifodalab berardi. Men umrim bino bo'lib bunday kuyni eshitgan emasman. U qirg'izchaga ham, qozoqchaga ham o'xshamasdi, biroq bu kuyga azaldan bir-biriga qondosh-jondosh bo'lgan qirg'iz bilan qozoq xalqining kuylaridagi eng nafis, eng dilrabo ohanglar singdirilgandek bo'lib tuyulardi. Bu kuy goh qirg'iz tog'laridek baland-balandlarga parvoz qilsa, goh poyoni yo'q qozoq dalalaridek uzoq-uzoqlarga taralardi. «yo tavba, Doniyorni shunchalik ashulachi deb kim o'ylagan edi» — derdim men o'zimga-o'zim.

Darani bosib o'tib keng dalaga chiqqanimizdan keyin, Doniyorning ashulasi qanot yozib, yana ham kuchliroq yangradi. Bu dilrabo kuy bir-biriga ulanib, bir-biri bilan almashinib borardi. Bugun Doniyorga nima bo'ldi, tinchlikmi o'zi, hech narsa tushuna olmasdim. Go'yo u shu kunni, shu damni ko'pdan beri orziqib kutgandek, qalbidagi butun sir-asrorini to'kib soldi. Doniyorning nima uchun merov odamday elga kulgi bo'lib yurganini, nima uchun kechqurunlari Qorovul tepaga chiqib olib yolg'iz o'yga cho'mib o'tirganini, nima uchun kishi ilg'amas tovushlarga quloq osganida, qoshlari chimirilib, ko'zlari quvonchga to'lganini endi bir qadar tushuna boshlagan edim. U — qalbida yuksak insoniy muhabbat tug'yon urgan bir inson edi! Menimcha, uning sevgisi biror kishiga ishq tushib, o'sha odamga ato qilingan sevgi emas, balki insonni yaratib, uni kamolga yetkazgan keng olamga, yorug' dunyoga bo'lgan cheksiz, jo'shqin sevgi edi! Ha, u bu sevgini o'z qalbida ardoqlab saqlagan, ana shu sevgi bilan yashagan edi. Agar u shunday yuksak qalb egasi bo'lmay, didi past, yuragi muz bir kishi bo'lganda edi, tabiat uni qanchalik iste'dodli qilib yaratgan bo'lmasin, bari bir, u bunchalik kuylay olmas edi.

Doniyorning kuyi tungi dasht ustida yana jo'sh urib, mudroq dalani uyg'otayotgandek bo'lardi. Keng, bepoyon dala o'zi yaratib, o'zi ardoqlab o'stirgan qadrdon kuychisining ashulasiga jim quloq solardi. Bug'doyzor oydinga dengiz kabi chayqalar va mo'l hosildan darak berib, o'z o'roqchilarini kutardi. Yo'l chetida



joylashgan eski tegirmon atrofidagi mirzateraklarning yaproqlari ham nimalarnidir shivirlashardi. Soyning narigi tomonida, uzoq-uzoqlarda xirmonchilar o't yoqishib, go'ja pishirmoqdalar. Huv ana, kimdir allaqanday ish bilan qishloqqa shoshib ketmoqda. Oldinda qishloq bog'i ko'rinar, shabada g'arq pishgan olmalarning, ayni gullagan makkajo'xorilarning yoqimli hidlarini hovlilarda yoyilgan tezaklarning hidiga aralashtirib dimoqqa keltirib urardi.

Doniyor yana ancha vaqtgacha kuylab keldi. Avgust tuni uning ashulasiga mahliyo bo'lgandek jim quloq solardi. Hatto otlar ham go'yo maroqli kuyni buzishdan qo'rqqandek yurishini sekinlashtirgandi. Kishiga cheksiz orom baxsh etib, zavq-shavq bilan kuylab kelayotgan Doniyor ayni avjiga chiqqanida, birdan jim bo'lib, otlarni choptirib ketdi. O'zimcha, Jamila yana uning orqasidan ergashsa kerak, deb o'ylab, men ham hozirlanib turdim-u, biroq Jamila boshini quyi solgancha chuqur xayolga cho'mib, qimir etmay o'tirardi. U havoda uchib yurgan ashula sadolariga hamon quloq solayotgandek edi.

Doniyor shu bo'yi to'xtamay, bir ozdan so'ng ko'zdan g'oyib bo'ldi. Biz to ovulga yetguncha og'iz ochmadik. Ba'zida kishi o'z dardini so'z bilan ifodalashga ojiz bo'lib qoladi.

Shu kundan boshlab, hayotimizda qandaydir bir o'zgarish yuz bergandek bo'ldi. Endi ko'nglim allaqanday yaxshi narsalarni qo'msab, yuragim g'alati his-hayajonlarga to'lib, o'zimdan-o'zim xursand bo'lib yurdim. Ertalab xirmondan jo'nab, stansiyaga kelib, g'allani topshirib bo'lgach, Doniyorning sehrli ashulasini qachon eshitarkinmiz, deb ketishga shoshilar, o'sha damni sabrsizlik bilan kutar edik.

Uning ashulasi yurak-yuragimga singib, qayerga bormay, qayerda turmay, qulog'im tagida jaranglayotgandek bo'lardi.

Tong saharda turib, yalangoyoq, yalangbosh shabnam tushgan bedazor orqali o'tloqdagi tushovlangan otlarning oldiga borayotganimda ham bu kuy menga hamroh bo'lardi. Tog' orqasidan mo'ralab ko'tarilgan quyosh xuddi mening quvonchimga sherik bo'lgandek jilmayib nur sochardi.

Oltin donalari kabi kekxa xirmonchilarning panshaxalaridan sachrab tushayotgan bug'doy donalarining mayin shildirashida ham, ko'kda parvoz qilib yurgan yolg'iz kalxatning qanot qoqishida ham, xullas, ko'rib, uqib, sezib yurgan narsalarimning hammasidan Doniyorning kuyi eshitalayotgandek bo'lardi.

Kechqurun darada arava haydab borayotganimizda men o'zimni xuddi boshqa bir olamga kirib borayotgandek his qilardim. Ko'zlarimni yumib Doniyorning ashulasiga quloq solar ekanman, ona suti bilan qonimga singib, bir qarich-

ligimdan tanish bo'lgan manzaralar ko'z o'ngimdan birma-bir o'ta boshlardi: goh ovulning zumrad osmonidan pag'a-pag'a bulutlar suzib o'tishar, goh o'tlab yurgan yilqilar uyuri dukurlashib, kishnashib yaylovda chopib qolishar, qulunlar kokillarini o'ynatib qop-qora ko'zlarini jovdiratganlaricha onalarini qidirishib qolar, goh suruv-suruv qo'ylar tepaliklarda o'tlab yurishar, goh qoyalardan oqib tushayotgan shalola oynadek yarqirab ko'zlarni qamashtirar, dengizdek mavjlanib yotgan qamishzorlar orasiga cho'kib borayotgan quyoshni lolarang ufq sari yo'rtib borayotgan yolg'iz otliq mana hozir qo'li bilan ushlab oladigandek bo'lib tuyulardi, keyin o'zi ham quyosh bilan birga butalar orasiga kirib g'oyib bo'lardi.

U, jonajon, bepoyon dalam! Qozoq jondoshimning yeri bilan payvand bo'lgan azamat dalam. Mana, tog'larimizni ikki yoqqa ayirib tashlab, qamish va shuvoqlarga ko'milib, buyuk bir dengizdek chayqalib yotasan. Nimalarga qodir ekanligingni kim biladi sening! Qarog'im, sirtingdan qarasa qimirlagan jon yo'qdek bo'zarib yotganing-yotgan. Ammo kechagina qon-qardoshlaring unib-o'sgan bag'ringda urush boshlanib, dushmanlar o'lkamizga chang solganda, qucho'gingdagi giyohlar yonib, dovyurak chavandozlaring dushman ustiga sherdek tashlanganda, musaffo osmoningni issiq chang qopladi, yer-ko'k larzaga keldi. O'shanda qirg'oqning narigi betidan ot o'ynatib kelgan qozoq xabarchisi:

— O'tlan, qirg'iz, o'tlan! Yov keldi! — deb saraton quyuni ichida yana qayoq-qadir otini yeldek uchirib ketdi.

O'shanda keng dalam, daryolarim, tog'larim larzaga kelib, o'z elini otga mingizdi. Yigitlar jangga o'tlanganda osmon-u zamin titrab, yovni mahv etishga chorlab bong urildi. Minglab uzangilar bir-biriga tegib shaqirlashib, son-sanoqsiz chavandozlarning ko'zlaridan qahr va g'azab o'ti chaqnab, el bilan, yurt bilan xo'shlashdi. Ularning oldida qizil bayroqlar hilpirab, orqada otlarning tuyog'idan chiqqan chang orasida onalar va juvonlar: «Keng dalamiz madadkor bo'lsin! Xosiyatli ona-Yer madad bersin! Buyuk Manasning ruhi yor bo'lsin!» — deb bo'zlab qolishdi.

Senga jonim fido, ey muqaddas dalam, tog'larim! Elimga shu kuch-qudratni sen o'zing berding.

Mana shularning barisini Doniyor kuyga solib, ko'z o'ngimda yorqin gavdalantirib, sermazmun keng olamning butun zeb-ziyatini, ko'rkini ochib ko'rsatdi. «Yopiray, bularning barini u qayerdan o'rgandi ekan», deb hayron bo'laman. O'zimcha, chet yerlarda ko'p yillar sarson-sargardon bo'lib, o'z el-yurtini ko'rish ishtiyoqi bilan yashagan, shu quvonchli damni intizorlik bilan kutgan odamgina o'z ona tuprog'iga shunchalik mehr qo'yishi, uni shu qadar seva olishi mumkin,

degan fikrga keldim. Doniyorning bu kuylarini tinglar ekanman, uning boshpana izlab o'tkazgan mashaqqatli yetimlik yillarini ham, qonli jang maydonlarida bosib o'tgan yo'llarini ham ko'z oldimga keltirar edim. Ehtimol, uning ona-Vatan haqidagi jo'shqin kuylari o'shanda tug'ilgandir. Doniyorning ashulalarini tinglab o'tirib, inson bolasi o'z ona tuprog'ini shunchalik seva olganligi uchun ham, tiz cho'kib, o'sha tuproqni xuddi o'z onangdek quchoqlab o'pging keladi. Ana shunda, birinchi marta yuragimda qandaydir yangi bir his uyg'onib, qalbimni o'rtab, qani endi o'sha yerning muqaddasligini, uning ko'rkini Doniyorchalik seza bilsam, seva bilsam, uning madhiyasini Doniyorchalik tarannum qilolsam, degan bir havas uyg'onganligini sezdim. Nimanidir orziqib kutardim, lekin nimaligini o'zim ham bilmasdim. Bunga ham xursand, ham xunob bo'lardim. O'shanda menda rassomlik san'atining ilk kurtaklari paydo bo'lganini, kelajakda hayotni bo'yoqlar, suratlar orqali tasvirlashga havas uyg'onayotganini bilmagan ekanman.

Men bolaligidan surat solishni yaxshi ko'rardim», bolalar o'qish kitoblari-dan ko'chirib solgan rasmlarimni ko'rishib: «Voy, xuddi o'zi-ya!» — deyishardi. Muallim-larimiz ham maktab devoriy gazetasini menga topshirishar edi. Lekin keyinchalik surat solishni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yishga to'g'ri keldi. Urush boshlanib, akalarim armiyaga ketgach, men o'qishni tashlab, o'z tengqurlarim qatori kolxozda ishlay boshladim, o'sha vaqtlarda surat solmoq kimning ham esiga kelardi deysiz. Kelajakda rassom bo'laman, degan o'yim yo'q edi, ammo Doniyorning kuylari meni hayajonlantirib, hayotning butun go'zalligini sezishga ilhomlantirdi.

Men o'ngimda emas, go'yo tushdagidek bu totli xayolga berilib, xuddi dunyoga yangi kelib, ko'zim endi ochilgandek atrofga suqlanib qarardim. Mening uchun bu juda katta turmush sabog'i edi.

Jamilaning o'zgarib ketganini aytmysizmi! Oldingi sho'x, hazilkash, gappa chechan kelindan go'yo asar ham qolmagandek edi. Uning o'ynoqi o'tkir ko'zlari endi go'yo bulutli kundagi quyosh singari negadir g'amging boqardi. Yo'lda ketib borayotganimizda Jamila doimo chuqur o'yga tolar, lablarida bilinar-bilinmas tabassum o'ynab, u faqat o'zigagina ma'lum bo'lgan allaqanday latif bir narsadan huzur qilayotgandek, undan suyunayotgandek tuyulardi. Ba'zan esa, aksincha, xayolini bir narsa buzgandek, qopni aravadan yelkasiga silkib olib, shu turganicha qotib qolardi. U shu turishida, go'yo quturib oqayotgan suvga duch kelib, uni kechib o'tishini ham, o'tmasligini ham bilmay lol bo'lib turgan odamga o'xshardi. Doniyorga esa u nima uchundir yaqin yo'lamay, uning ko'ziga tushishdan

qochib, chetlab yurdi. Jamila o'zini uni avvalgidek nazariga ilmayotgandek qilib ko'rsatishga qanchalik urinmasin, oxiri bir kuni sabri chidamay xirimonda Doni-yorga gap otdi.

— Ustingdan ko'ylagingni yechsang bo'lardi. Yuvi berardim.

Ko'ylakni soyga olib horib yuvdi-da, quritish uchun yozib qo'yib, burishgan joylarini tekislagan bo'lib, uni ancha vaqtgacha mehr bilan siladi. Ko'ylakning to'zigan joylarini quyoshga tutib ma'yus tikilar, nimadandir koyingandek boshini chayqab qo'yardi.

Keyingi kunlarda Jamila bir oz ochilib, qah-qah urib kuladigan, hazil-huzul qiladigan bo'ldi. Bir kuni heda o'rog'idan kelishayotgan bir to'p qiz-juvonlar bilan yigitlar xirmonga burilishdi. Oralaridagi armiyadan qaytib kelgan yigitlar:

— Hoy qizlar, bug'doy nonni o'zlaring yeyaverasizlarmi, qani, bizning ulushimizni beringlar, bo'lmasa hammangni suvga pishamiz! — deyishdi hazillashib va panshaxalarini o'qtalishdi.

— Bizlarni panshaxalar bilan qo'rqitilmaysizlar. Mana bu qiz-juvonlarni nima bilan mehmon qilishni o'zim bilaman, sizlar tuyoqlaringni shiqillatib qolinglar, — dedi Jamila o'rnidan sapchib turib. Yigitlarning hafsalasi pir bo'ldi shekilli:

— Unday bo'lsa, qiz-juvoning bilan baringni qo'shib suvga pishamiz, — deyishdi battar o'chakishib.

Shu zahotiyiq tapir-tupur olisha ketgan yoshlar shovqin-suron ko'tarishib, bir-birini suvga itara boshlashdi.

— Ushla, qo'yib yuhorma! — deb qichqirardi Jamila, hech kimga bo'sh kelmay, ustalik bilan chap berib. Yigitlar ham shuncha qiz-juvonning ichida faqat Jamilani ko'zlari ko'rgandek, nima uchundir, hammasi ham unga yopishar, tortqilashar, har biri uni quchoqlab bag'riga bosishga harakat qilardi. Mana, uch yigit birgalashib Jamilani yerga yiqitishdi-da, oyoq-qo'ldan ko'tarib, suv bo'yiga olib borishdi.

— Hozir hammamizni o'pasan, bo'lmasa, suvga tashlaymiz! Qani, bo'l tez! — deyishib xoxolab kulishgan yigitlar uni enkaytira boshladilar.

— Qo'ymanglar, yigitlar, bo'sh kelmanglar!

Ichagi o'zilib kulgan Jamila baliqdek sirg'anib, qo'ldan chiqib ketar, xotinlarni yordamga chaqirib qichqirar, lekin ular qiy-chuv ko'tarishib, o'zlarining suvda oqib borayotgan ro'mollarini ushlab bilan ovora edilar. Yigitlar xoxolashib Jamilani suvga otib yuborishdi, osmonga sachragan suv tomchilari xuddi kumush donalaridek tovlanar edi. Hali ham kulgidan o'zini to'xtata olmagan Jamila suvdan

chiqib kelar ekan, uning to'zg'igan ho'l sochi yana ham chiroyiga chiroy qo'shib yuborgan edi. Chit ko'ylagi badaniga yopishib, siynasi olmaday dirkillab turardi. Jamila bo'lsa parvovi falak, qiqir-qiqir kular, ust-boshidan sirqib tushayotgan suvni ham payqamasdi!

— O'p, darrov o'p! — deb qistashardi yigitlar!

Jamila ularni o'par, yigitlar uni yana suvga otishar, u bo'lsa go'yo buni xush ko'rgandek, suvdan chiqib, sochini silkitib, yana qotib-qotib kulardi. Yoshlarning bu qilig'iga xirmonda kulmagan odam qolmadi. Xirmon sovurayotgan chollar ham o'zlarini yigirma besh yashar bo'z bolalardek his qilib, ajin bosgan yuzlari sevinchdan porlab: «Ha, ha, bo'sh kelma, ushla! Etagidan tort!» — deb ko'pkarida uloq tortishgandek zavq-shavq bilan qichqirishar, sharaqlab kulishardi. Men ham o'zimni to'xtata olmay qotib-qotib kulardim. Bu safar yangamni qo'riqlash esimga ham kelmabdi. Birgina Doniyor indamay, qovog'ini solib o'tirardi. Unga ko'zim tushishi bilan men ham jim bo'ldim. U xirmonning bir chekkasida yolg'iz o'zi o'tirgan ekan. Doniyor yigitlarga yeb qo'ygudek o'qrayib qarar, vajohatidan go'yo hozir yugurib borib Jamilani ularning qo'lidan ajratib oladigandek edi. Yuziga tik boqishga botinolmay, farishtadek pok deb bilgan Jamilani yigitlarning quchoqlab o'pishi, tortqilashib o'ynaganlari Doniyorning ko'ngliga juda qattiq botdi. Uning butun fikri zikri, es-hushi Jamilaning husni jamolida edi. Doniyor yigitlardan qanchalik qizg'anmasin, xandon otib kulayotgan Jamiladan ko'zini olmay, uning bu qilig'iga ham koyinib, ham maroqlanib, xo'mraygan qovoqlari ostidan muloyim boqib, tishini tishiga qo'yib o'tirdi. Yigitlar Jamilaga har tomondan yopishib, betlarini o'ptirganlarida Doniyor quti o'chib, turib ketmoqchi bo'lar, lekin oyoqlari itoat qilmayotgandek qimir etolmasdi. Bir vaqt Jamila uning qarab turganini payqadi shekilli, qanoti qayrilgandek bo'shashib xiralik qilavergan yigitlarni siltab tashladi.

— Yetar, hazilning tagi zil bo'lmasin tag'in!

— Ie, senga nima bo'ldi, — deb kimdir xoxolab kulib, uni yana quchoqlamoqchi bo'lgan edi, Jamila uning ko'krigidan itarib yubordi:

— Nima ishing bor? Nari tur!

Keyin Doniyorga yalt etib bir qaradi-da, ko'ylagini siqqani butalar orasiga kirib ketdi.

Doniyor bilan Jamila o'rtasidagi munosabatning qanday oqibatlariga olib kelishini o'shanda men bilmagan edim. Rostini aytsam, bu haqda chuqurroq o'ylashga qo'rqib, ko'pincha o'zimni boshqa narsalarga alahsitishga harakat qilardim. Lekin

Jamiltoning Doniyordan chetlab yurgani va bunga o'zi yana ich-ichidan kuyingani, negadir ko'nglimni g'ash qilar edi. Bundan ko'ra ilgariidek hazillashib yuraversa bo'lmasmidi? O'zim shunday deyman-u, biroq kechalari ovulga qaytayotganimizda Doniyorning ashulasini eshitarkanman, ularni o'ylab, qalbim quvonchga to'lib-toshar, haligi g'amgin o'y-fikrlar xayolimdan ko'tarilib, dunyoning butun laz-zati shu ashulada deb bilardim. Daradan o'tib, daryo bo'yiga chiqqanimizda Jamila aravadan tushib, piyoda yurardi. Men ham aravadan tushib yurardim, yayov yurib, miriqib kuy tinglaganga nima yetsin! Bunday paytda yo'ldagi chang-to'zonlar orasida emas, xuddi osmonda, bulutlar qo'ynida ketib borayotgandek bo'lasan kishi! Avval yangam ikkalamiz aravalarimiz yonida boramiz, so'ngra asta-sekin beixtiyor Doniyorga yondashib qolganimizni o'zimiz ham sezmay qolamiz. Qandaydir sehrli bir kuch bizni Doniyor sari yetaklardi. Qorong'ida uning yuz ifodasini, ko'z qarashini ko'rishni istardik, nahotki shu qadar yurak bilan kuylayotgan kishi o'sha o'zimizning kamgap, odamovi Doniyor bo'lsa! Yuragi talpinib, kuydan orom olgan Jamila har doim unga yaqinlab borganida Doniyor tomon sekin qo'l cho'zganini o'zi ham sezmay qolardi. Lekin zavq-shavq bilan kuylayotgan Doniyor buni payqamas edi. Uning o'y-xayoli qayerlardadir, osmonda kezib yurgandek uzoq-uzoqlarga ko'z tikib, qo'llarini ko'ksiga qovushtirganicha, kuy ohangiga chayqalib o'tirardi. Jamiltoning qo'li shilq etib tushib, arava chetiga tekkanda xuddi hushiga kelgandek qo'lini tortib olar va yo'l o'rtasida serrayib turib qolardi. Jamila hangu mang bo'lib, anchagacha Doniyorga mo'ltayib qarab turar, keyin yana qadam tashlardi.

Ba'zan menga yangam ikkovimizni ham bir xil, allaqanday ajib his-tuyg'u hayajonga solayotgandek bo'lib tuyulardi. Ehtimol, bu his-tuyg'ular ikkovimizning ham qalbimizda ko'pdan buyon yashirinib yotib, endi vaqt-soati kelib tug'yon urayotgandir.

Jamila ish bilan alahsirab, uncha sir boy bermaslikka harakat qilardi. Lekin xirmonda qolib, qo'li ishdan bo'shadi deguncha, Jamila o'tirgani joy topolmay kalovlanib qolardi. Bekorchilikdan nima qilarini bilmagan odamdek shu o'rtada aylanib yurar, so'ngra xirmon sovurayotganlarning yoniga borar, ularga yordamlashmoqchi bo'lib, uch-to'rt kurak g'alla tashlardi-da, keyin birdan kurakni chetga irg'itib, somon g'arami oldiga ketardi. U dam olmoqchi bo'lgandek g'aram soyasiga o'tirardi-yu, go'yo yakka-yolg'iz o'tirishdan qo'rqqandek meni chaqirardi:

— Bu yoqqa kel, kichkina bola!

Men, yangam hozir menga butun sir-asrorini ochib, yuragidagi dardini aytsa kerak, deb kutardim. Lekin u hech narsa aytmaz, erkalatib boshimni o'z tiz-

zasiga qo'yardi-da, o'zi olis-olislarga uzoq tikilganча qaltiragan issiq kaftlari bilan sochimni, yuzimni sekin-sekin silardi. Men yangamning tashvishi, g'amgin chehrasiga qarar ekanman, negadir o'zimni unga o'xshatardim. Chunki uning ham qalbini allaqanday bir hissiyot o'rtayotganini, uning ham yuragida yangi umid-orzular uyg'ona boshlaganini sezib qolgandim. Nazarimda, Jamila bu otashin hisni qalbidan chiqarib tashlashga urinayotgandek bo'lardi. Biroq o'z sevgisini tark etolmay, uning barcha zahmatlariga chidashga majbur bo'lardi. Men ham bunga o'xshab, bir ko'nglim Jamila Doniyorni sevsa yaxshi bo'lardi, desa, bir ko'nglim, sevmagani yaxshi, derdi. Axir, ming qilsa ham kelinimizku, akamning xotini-ku. Uni birovga qanday ravo ko'ray. Biroq bu xil fikrlarni darrov xayolimdan chiqarib tashlashga harakat qilardim. Jamilaning tizzasiga bosh qo'yib yotib, uning sal ochilgan g'uncha lablariga, yosh to'la shahlo ko'zlariga termilib qarash menga dunyo-dunyo rohat bag'ishlar edi. Jamila o'shanda naqadar go'zal, naqadar latofatli edi. Qalbining naqadar pok, beg'uborligi, o'yayollarining naqadar teran, yorqin ekanligi uning nur yog'ilib turgan chehrasidan ko'rinib turardi. O'sha kezlarda men shularning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rib yurgan bo'lsam ham, ammo tub mohiyatiga uncha tushunib yetmagan edim. Lekin hozir oradan qancha vaqtlar o'tib ketgandan keyin o'sha voqealarni eslab, ko'pincha o'zimga-o'zim savol beraman: balki sevgi degan narsa — inson har tomonlama kamolotga yetib, aql-idroki to'lgandan keyin paydo bo'ladigan bir tuyg'umikin? Bu ham shoir yoki rassom ilhomiga o'xshab insonga kuch-qudrat bag'ishlab, yangi orzu-umidlar, istiqbol sari yetaklovchi bir kuch emasmikin? Ehtimol, oshiqlikning butun siri ham shundadir. Jamilaning yuziga qarab, ba'zi paytlarda o'zim ham his-hayajonlariga sherik bo'lgandek, qandaydir sirli bir narsa yuragimga quvonch bag'ishlagandek bo'lar edi. O'rnimdan sapchib turib, yurgim kelar, ovul chetidagi keng dalaga chiqib yuragimga g'ulg'ula solayotgan tashvish bilan quvonchning siri nimadaligini yer va samodan qichqirib so'ragim kelardi. Bir kun men bu savolimga javob topgandek bo'ldim.

Kunlardan birida biz stansiyadan ovulga qaytib kelayotgan edik. Qosh qorayib qolgandi. Ko'kda yulduzlar jimirlardi, atrof jimjit, bu sukunatni Doniyorning vodiy bo'ylab yangragan ashulasigina buzardi. Jamila ikkovimiz uning orqasidan borardik. Doniyorning ashulasi bu safar negadir yolg'izlik dard-alamlarini ifoda qilgandek juda mungli eshitilib, kishi qalbini poralar edi. Ko'zimga qaynoq yosh kelib, tomog'imga bir narsa tiqilgandek bo'ldi. Jamila bu safar qo'llarini Doniyor tomon uzatib, unga yaqin bordi-da, aravaga suyanib, boshini quyi sol-

ganicha indamay ketaverdi. Doniyorning ovozi tobora kuchayib, tungi dashtda yangidan to'liqlana boshlaganda, Jamila qaddini rostlagancha aravaga sakrab chiqib oldi. U Doniyor bilan yonma-yon o'tirdi-da, qimirlashdan qo'rqqandek, qo'lini ko'ksiga qovushtirgancha qotib qoldi. Qani, bu yog'i nima bo'larkin, degandek, men ham ulardan ko'zimni uzganim yo'q. Jamilaning chiqib o'tirganini Doniyor payqamadi shekilli, unga qaramay kuylayverdi. Bir ozdan so'ng Jamila qo'llarini asta-sekin Doniyorning yelkasiga tashladi-da, unga suyanib, boshini yelkasiga qo'ydi. Shunda Doniyorning tovushi bir zum titradi-yu, keyin yana ham kuchayib, qo'ng'iroqdek yangradi. U sevgi haqida kuylardi.

Tong otib, gullagan vodiy yuzidan qora parda ko'tarilganda, men o'sha keng dala o'rtasida sevishgan ikki yoshni ko'rdim.

Ular menga hech nazar solmasalar ham, ko'z ostidan qarab, sehrlangandek ergashib borardim. Sevishganlar men bilan ishi bo'lmay, faqat menigina emas, balki butun borliqni ham unutib yuborgandek, jonga orom beruvchi kuy oqimida chayqalib, bir-biriga termilishib sekin borishardi. Nazarimda, Doniyor bilan Jamila butunlay boshqacha bo'lib qolgandek edi.

Bular men ilgari ko'rmagan-bilmagan qandaydir yangi, baxti kulib boqqan kishilar edi.

Ha, ularning biri, ko'zi qorong'ida o'tdek yonib, eski ko'ylagining yoqasini ochib yuborib, dala-dashtga yangroq kuy taratib borayotgan Doniyor edi.

Ha, ikkinchisi, Doniyorga erkalanib jimgina o'tirgan mening yangam Jamila edi! Uning kipriklarida sevinch yoshlari miltirar, yuzida baxt nuri porlar edi.

Chinakam baxt shu emasmi? Doniyor o'zidagi ona-Vatanga, yorug' dunyoga bo'lgan otashin, yuksak mehr-muhabbatini ham, ana shu ulug' sevgi tug'dirgan dilrabo kuyni ham Jamilaga tortiq etdi. U Jamila uchun, Jamila haqida kuylardi. Axir baxt degani shu emasmi?! Ularga yuragimdan baxt-saodat tiladim. Doniyorning kuylari meni yana hayajonga soldi-da, birdan, kutilmaganda miyamga g'alati bir fikr keldi: «Men ularning suratini chizaman!» — dedim o'zimcha va go'yo nodir bir narsa topib olganday o'zimda yo'q suyunib ketdim. Lekin shu zahoti o'z fikrimdan o'zim cho'chib ketdim: «Bu ish mening qo'limdan kelmikim, eplay olarmikinman?» Lekin orzu-istak qo'rquvdan kuchli keldi. «Ha, men ularning suratini albatta chizaman, men ularni xuddi hozirgidek baxtiyor qilib tasvirlayman!» derdim.

Men shunday shirin orzu-xayollar og'ushida mast bo'lib, atrofga nazar tashlar ekanman, avgust tuni ko'zimga yana ham go'zal ko'rinib, dala gullab-yashnayot-



gandek bo'lib tuyulardi. Orzu-niyatimga xuddi hozir yetadigandek bo'lardim. Lekin endi bilsam, o'shanda juda g'o'r, yosh bola ekanman, kelajakda qanchadan-qancha qiyinchiliklarga duch kelishimni bilmagan ekanman. Men o'zimga, ona-Yerni Doniyor ko'zi bilan ko'ra bilish, Doniyor qalbi bilan seva bilish kerak, derdim. Men uning ajoyib ashulararini bo'yoqlar yordamida hikoya qilib bera-man. Menda ham o'sha tog'lar, dalalar, maysazorlar, bulutlar, daralarning jonli tasviri beriladi. Buning uchun juda katta mahorat kerakligini o'ylamay, «bo'yoqlarni qayerdan olsam ekan, maktabdan so'rasam berishmas, axir o'zlariga kerak-ku!» — deb tashvishlankb yurardim. Endi bilsam, o'shanda chuchvarani xom sanab, bolalik qilib yurgan ekanman.

Doniyorning ashulasi nima uchundir birdan uzilib qoldi. Bunday qarasam, Jamila Doniyorni mahkam quchoqlab, uni bag'riga bosib olgan ekan. Biroq, shu zahotiyiq nimadandir cho'chigandek tisarilib, aravadan sakrab tushdi. Doniyor shoshib qolganidan tizginni tortib aravani to'xtatdi. Jamila teskari qaraganicha yo'lning qoq o'rtasida serrayib turib qoldi, so'ng boshini shartta burdi-da, yig'i aralash:

— Nega qaraysan? Menda nimang bor? Qarama menga, aravangni hayda, jo'na! — dedi-da, orqada qolgan aravasi tomon ketdi. Men lol bo'lib, og'zimni ochib qolgan ekanman, yangam meni ham koyib berdi:

— Xo'sh, sen-chi, sen nega angrayib turibsan, aravangga min! Boshimga bitgan balo bo'ldilaring-da!

«Qiziq, unga nima bo'ldi, chap yonidan turganmi», deb o'ylardim yo'l-yo'lakay. Albatta chuqurroq o'ylagan odam Jamilaning rostdan ham iztirob chekayotganini izohsiz ham tushunar edi: ko'z ochib ko'rgan eri Saratov gospitalaridan birida yotsa, yaqinda qaytib boraman, desa, axir bu oson gapmi? Men hech narsa to'g'risida o'ylagim kelmasdi. Men o'zimdan ham, Jamiladan ham xafa bo'ldim, agar Doniyorning bundan keyin ashula aytmasligini, uning ovozi boshqa eshitmasligimni aniq bilsam, Jamiladan butun vujudim bilan nafratlangan bo'lardim.

Hozir o'lgudek charchab, ko'nglim negadir g'ash bo'lib, tezroq xirmonga yetib, somonga cho'zilsam derdim. Arava tinmay silkinib, tinkani quritar, tizgin qo'limdan chiqib-chiqib ketardi. Xirmonga yetib kelganimizda bir amallab otlarning xomutlarini yechdim-da, ularni aravaning tagiga tashlab, keyin somon g'arami ustiga borib cho'zildim. O'sha kecha otlarni Doniyor tushovlabdi.

Lekin ertalab juda xursand bo'lib turdim, ko'nglim musaffo tong singari ravshan, quvonchga to'la edi. Ha, men Jamila bilan Doniyorning suratini chizaman.

Lekin «o'xshata olarmikinman?» degan gumon butun miyamni chulg'ab olgan edi. Ko'zimni yumib, ularni qanday tasvir qilmoqchi bo'lsam, ana o'shunday tasavvur etdim. O'rnimdan irg'ib turdim-da, kattakon soy bo'yiga tushib, qo'l-betimni yuvdim. Keyin o'tloqqa tushovlangan otlarni ko'zdan kechirdim. Ertalab shudring tushgan muzdek beda oyoqlarimni savalab, tizzamgacha shilta ho'l qilgandi. Lekin men buni pisand qilmay, oldinga chopib borar, tevarak-atrofdagi har bir narsani sinchiklab ko'zdan kechirar, yodimda saqlab qolishga urinar edim. Mana, quyosh tog' orqasidan ko'tarilib kelar, ariq bo'yidagi yolg'iz kungaboqar esa unga tomon bo'y cho'zardi. Uni kakralar o'rab olgan, biroq kungaboqar bo'sh kelmay ko'kka intilar, sariq gulli boshlarini mag'rur ko'tarib, quyosh nurini shimirardi. Mana ariqning arava o'tgan joyidan — g'ildiraklar izidan suv jimirlab oqmoqda. Suv o'rtasida ko'karib turgan binafsha rang yalpizdan atrofga muattar hid taralardi,

«Qani endi rassom bo'lsamu musaffo go'zal tongni, Ko'k bilan o'pishgan azamat tog'larni, shudring qo'ngan ko'm-ko'k bedazorni, ariq bo'yidagi bir tup kungaboqarni suratga solsam!»

Biroq xirmonga kelishim bilan bu shirin xayollarimdan asar ham qolmay, ko'nglim g'ash bo'ldi. Aftidan, Jamila o'tgan kechasi uxlamay chiqqan bo'lsa kerak, ko'zlari kirtayib, qovog'idan qor yog'ilib turardi. Menga u hech narsa demadi, qayrilib qaramadi ham. Xirmonga brigadir O'rozmat kelib, endi otidan tushayotganida, Jamila uning yoniga bordi-da, salom-alik ham qilmay, tomday tarasha tushgandek gapirib qoldi:

— Aravangizni oling! Qayoqqa yuborsalaring ham mayli, lekin stansiyaga g'alla tashimayman!

— Ie, senga nima bo'ldi, Jamilaxon, jin tegdimi? — dedi O'rozmat hazillashib.

— Jin tekkani yo'g'-u, lekin bormayman dedimm, bormayman.

O'rozmatning jahli chiqdi!

— Bu gapingni qo'y, g'alla tashiysan, vassalom! — dedi u qo'ltiqtayog'ini yerga do'q etkizib urib. — Agar birov xafa qilgan bo'lsa, ayt, mana shu tayog'im bilan gardaniga bir tushiray. Bo'lmasa, ishingga jo'na. G'alla menga emas, frontga kerak, ering ham frontda-ku.

Brigadir jahl bilan shartta burildi-da, tez-tez odimlab ketdi.

Jamila g'ing deyo'lmay, qo'lidagi qamchinni o'ynatib, aybdor odamdek, qizarganicha turib qoldi. Berigi yoqda turgan Doniyorni ko'r-di-yu, sir boy bermay, og'ir xo'rsinib qo'ydi. Doniyor hamma gapni eshitdi-yu, lekin sezdirmedi, u teskari qaragancha xomut iplarini qattiq tortib bog'lay boshladi. Jamila ham

xirmon o'rtasida birpas turdi-da, so'ng: «E, nima bo'lsa bo'lar» degandek qo'l siltab aravasi tomon ketdi.

O'sha kuni biz ovulga har kungidan barvaqt qaytdik.

Chunki borayotganda ham, kelayotganda ham Doniyor otlarini zovtalar haydab bordi. Jamila g'amgin, gapirmas edi. Men qaqragan biyday dalani ko'rib ko'zlarimga ishonmasdim: axir kuni kecha u xuddi afsonalarda tasvirlangandek gullab-yashnab turgandi-ku. Kechagi ajoyib manzara, Doniyor bilan Jamilaning aravada yonma-yon o'tirganlari sira ko'z o'ngimdan ketmas edi. Go'yo hayotning eng go'zal bir lavhasini qo'limda ushlab turgandek bo'lardim. O'sha ajib bir lavha butun fikri-yodimni band qilgan edi. O'ylagan maqsadimga yetmagunimcha jonim tinch topmaydigandek edi. Xirmondagi hisobchining bir varaq qalin qog'ozini o'g'irlab olib, g'aram orqasiga yashirib, g'alla sovuradigan kurak ustiga qo'yganimda yuragim chiqib ketayotgandek dukillab bo'g'zimga tiqildi. Otam meni birinchi marta ot ustiga mingizgandagi kabi «bismillo!» dedim-da, qalamni qog'ozga tekkizdim. Ana-mana deguncha Doniyorning qiyofasini qog'ozga chiza boshladim. Lekin bu hali mukammal bo'lmagan, shunchaki o'rgamchikka chizilgan surat edi. Lekin, Doniyorning qomati o'ziga ancha o'xshay boshlaganida boshim ko'klarga yetib, qayerdaligimni, nima ish qilayotganimni ham unutib qo'ydim. O'sha avgust tuni, yastanib yotgan bepoyon dala qog'oz betida jilolangandek, Doniyorning dilrabo kuyi hozir ham qulog'im ostida jaranglab turgandek bo'ldi. Ko'z o'ngimda harbiycha ko'yilgining yoqasi ochiq Doniyor bilan uning yelkasiga bosh qo'ygan Jamila gavdalandi. Bu mening umrimda birinchi marta chizgan mustaqil suratim edi! Mana arava, mana yonma-yon o'tirishgan Doniyor bilan Jamila, mana bo'sh tashlab qo'yilgan tizginlar, mana qorong'ida sag'risi zo'rg'a ko'rinish yo'rtib borayotgan otlar, undan narida biyday dala, uzoq-uzoqlarda yulduzlar miltillaydi... Ishga shunchalik berilib ketibmanki, kimningdir tepamga kelib jahll bilan qichqirganidan hushimga keldim. Qarasam, Jamila ekan:

— Nima balo, kar bo'lib qoldingmi? U meni izlab yurgan ekan, shoshganimdan suratimni berkitishga ham ulgurolmay qoldim.

— Bug'doyni allaqachon yuklab bo'ldik, bir soatdan beri qichqiramiz-a, ovozing chiqsa-chi!.. Qo'lingdagi nima? — deb Jamila suratni mendan tortib oldi va: «Bu nima qiliq!» — deb avzoyi bo'zilib, qog'ozga termilganicha qoldi.

O'shanda hijolatdan juda mulzam bo'ldim. Jamila suratga uzoq tikilib turdi-da, keyin yoshlangan ko'zlari bilan menga ma'yus boqib.

— Shuni menga bergin-a, kichkina bola! — dedi u sekingina. — Sendan menga yodgor...

Jamila surat solingan qog'ozni ikki buklab qo'yniga solib qo'ydi.

Biz yo'lga chiqib, ovuldan ancha uzoqlashib ketguncha o'zimga kela olmadim. Qalbimni shu qadar to'lqinlantirgan o'sha lavhani chindan ham qog'ozda aks ettira oldimmi yoki bu bir tush — xayolmi deb gumonsiradim. Lekin shunday bo'lsa ham qalbimning chuqur bir joyida chizgan suratimdan faxrlanish hissi uyg'onib, yuragim sevinchdan to'lib-toshar, yaqinda bo'yoq topsam, juda ko'p suratlar chizib, maktabga ilib qo'yardim, degan shirin xayollar meni mast qilardi. Endi bilsam, bu bolalikka xos bir fazilat ekan. Men o'z xayollarim bilan band bo'lib, juda tez ketayotganimizni ham payqamabman. Chunki oldinda borayotgan Doniyordan orqada qolmaylik deb Jamila otlarga ustma-ust qamchi urardi. Keyingi paytlarda Doniyor aravasini har qachongidan ham tez haydaydigan bo'lib qolgandi.

Jamila Doniyor bilan yonma-yon borardi. U goh o'ngga, goh so'lga qarar, ba'zan esa biron ayb ish qilib qo'ygandek ayanchli jilmayib turardi. Buni ko'rib men ham jilmayardim va: «Chizgan suratim yangamga yoqdi shekilli, xafaligi tarqab, ko'ngli yozildi. Jamila Doniyorga ashula ayt desa, u albatta aytib beradi... Demak, bugun Doniyorning ashulasini maza qilib tinglar ekanmanda... Eh, tezroq ayta qolsa ekan», degan o'y ko'nglimdan kechardi!

Bu safar biz stansiyaga ancha barvaqt yetib keldik, lekin otlarimiz qora terga tushib ketgan edi. Tarozi ham bo'sh ekan, Doniyor aravadan tusha solib, qoplarini tashiy boshladi. Uning buncha shoshib-pishib ishlashiga indamay tumshayib yurganiga hayron edik. Poyezdlar o'tganda Doniyor to'xtab qolib, ularning orqasidan uzoq vaqt qarab turar, negadir chuqur o'ylanib qolardi. Jamila ham go'yo uning ko'nglidagini bilmoqchi bo'lgandek Doniyor boqqan tomonga qaradi. Jamila aravasining yoniga borib Doniyorni chaqirdi:

— Beri kel-chi, Doniyor, qashqa otning taqasi tushay deb turibdi, shuni yulib tashlagin.

Doniyor otning tuyog'ini tizzalari orasiga qisib, taqani yulib olib, qaddini rostlayotganida Jamila sekin shivirladi:

— Nima, hech narsani tushunmaysanmi deyman? Yo mendan boshqa qiz-juvon qurib qolganmi?

Doniyor qiyo boqdi-yu, lekin hech narsa demadi,

— Nima, menga oson deb o'ylaysanmi? — dedi Jamila xo'rsinib.

Doniyor Jamilaga mehr bilan boqib, allanima dedi-yu, lekin men eshitmay qoldim, chunki yuganidan ushlab turgan otim boshini siltab pishqirib yubordi. Doniyor nimadandir mamnun bo'lgandek qo'lidagi taqani silab, o'z aravasi tomon ketdi. Men unga qarab, nahotki uning yuragi Jamilaning haligi so'zlaridan taskin topdi ekan, deb hayron bo'lardim. Axir «menga oson deb o'ylaysanmi?» degan so'zining nimasiga xursand bo'ladi.

Biz qoplarni tashib bo'lib, endi ovulga qaytmoqchi bo'lib turganimizda, hovliga egniga g'ijimlangan eski shinel kiygan, yelkasiga xalta ilib olgan bir ori q yarador soldat kirib keldi. Undan sal oldin stansiyaga bir eshelon kelib to'xtagan edi. Haligi askar chor-atrofga alang-jalang qaradi-da:

— Gurkurov ovulidan kim bor?! — deb qichqirdi. Bu kim bo'ldiykin, deb o'yladim-da:

— Men Gurkurovdan bo'laman, — dedim.

Askar quvonib ketdi-da:

— Kimning bolasisan, ukajon? — deb so'rab oldimga kelmoqchi bo'lgan edi, birdan Jamilaga ko'zi tushib, turgan joyida dong qotib qoldi.

— Karimmisan? — dedi Jamila shodlanib.

— Voy, Jamila, singiljonim! — deb soldat Jamilaning yoniga yugurib borib, u bilan qo'sh qo'llab ko'risha ketdi.

Bu kelgan yigit Jamilaning uzoq qarindoshi, hamqishlog'i ekan.

— Buni qara, xuddi bilgandek shu yoqqa qayrilibman-a! — dedi u hayajon bilan, — Sodiqning yonidan chiqqanimga atigi besh kun bo'ldi, gospitalda u bilan birga yotdik. Xudo xohlasa, u ham bir-ikki oyda kelib qoladi. Men kelayotganimda xotiningga xat yozib ber, o'z qo'lim bilan topshiray deb xat yozdirib olgandim. Juda yaxshi, qilgan ekanman-da, mana, omonatingni ol! — deb xursand bo'lib, soldat shinelining ichidan uch burchak xatni olib, Jamilaga uzatdi. Jamila xatni shosha-pisha oldi-da, quvonganidanmi, yo uyalganidanmi avvaliga qizarib, so'ngra rangi quv o'chib, indamay Doniyorga ko'z qirini tashladi. U boyagi xirmondagidek oyoqlarini kerib, aravasining yonida yolg'iz turarkan, Jamilaga ma'yus boqardi. Bu orada har tomondan yugurib kelishgan kishilar soldatni o'rab olib, ba'zisi qarindosh, ba'zisi hamqishloq chiqib, hol-ahvol so'rashib qolishdi. Jamila o'z hamqishlog'iga minnatdorchilik bildirishga ulgurmagan ham ediki, Doniyor uning yonidan aravasini taqir-tuqur qilib o'tdi-da, chang-to'zon ko'tarib yo'lga tushdi. Kishilar uning orqasidan:

— Nima balo, uni jin urdimi? Esi joyidami o'zi? — deb qichqirib qolishdi.

Askarni ham tanish-bilishlari olib ketishdi shekilli, hovlida yangam ikkalamizdan boshqa hech kim qolmabdi. Biz Doniyorning aravasi ko'zdan g'oyib bo'lguncha, olisda ko'tarilayotgan changga qarab turdik.

— Yur, yanga, uyga ketaylik, — dedim men.

— O'zing ketaver! — dedi Jamila.

Ana shunday qilib, biz birinchi marta alohida-alohida ketdik.

Havoning dimligidan nafas olish qiyin edi. Yerdan ko'tarilgan harorat lablarimni qabarsitib, tomog'imni quritib yubordi. Jazirama quyosh nuri ertalabdan kuydirib, qovjiratib yotgan yer beti endi sho'rxok tuz bilan qoplanib, asta-sekin soviyotgandek bo'lardi. Quyosh sho'rxok yerdan ko'tarilayotgan sarob singari parda ichida ufq sari cho'kib borardi.

Uzoqda, ufq tepasida qizil-sur bulutlar yig'ila boshladi. Ba'zan kuchli garm-sel esib, otlarning tumshuqlariga chang aralash oqish sho'rxoklarni keltirib urar hamda ularning chang bosgan yol va dumlarini yulqib, yo'l bo'yidagi ermanlarni uchirib ketardi.

«Yomg'ir yog'adi shekilli» deb o'yladim. Shunda yolg'izlik dardi ichimni o'rtab, allanimadan qo'rqqandek otlarni jadal haydab ketdim. Mengina emas, hatto uzun oyoqli tuvaloq qushlar ham bir narsadan cho'chigandek qamishzorlar orasiga kirib yashirinishdi. Shamol jazirama issiqdan qovjiragan qariqiz yaproqlarini allaqayerlardandir yo'l ustiga uchirib kelardi. Biz tomonlarda bunday o'simliklar o'smaydi. Chamamda, bu yaproqlar qozoq cho'llaridan uchib kelgan bo'lsa kerak. Tevarak-atrofdagi qimirlagan jon yo'q. Doniyor ham ko'rinmaydi, orqada qolgan Jamiladan ham darak yo'q. Quyoshning oxirgi nuri ham so'ndi. Toliqqan dala ham mudrab uyquga ketdi.

Men xirmonga qosh qorayganda yetib keldim. U yer tinch, g'ir etgan shabada yo'q, Doniyorini chaqirgan edim, qorovul javob berdi.

— U soyga ketdi, nima ishing bor edi? — dedi-da, so'ngra bir yutinib olib, o'zicha ming'irladi. — Havoning dimligini-chi, hamma uy-uyiga ketishdi. Shamol bo'lmasa, xirmonda ish bo'larmidi.

Otlarni bedazorga tushovlab, soyga burildim. Doniyor odatdagidek tik tushgan jar tepasida tizzasini quchoqlab, boshini quyi solgancha jar ostida suvning shovillab oqishiga quloq solib o'tirardi. Uning mustar bo'lib o'tirishi yuragimni ezib yubordi. Doniyorning yoniga borib, uni mahkam quchoqlab, tasalli bermoqchi, iliq so'zlar bilan ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldim. Lekin nima ham deya olardim, uni qanday yupataman axir. Anchagacha ikkilanib turdim-da, so'ngra xirmonga qaytib ketdim.

O'shandan keyin g'aram ustida yotib ancha vaqtgacha uxlay olmay, osmonni qoplab kelayotgan bulutlarga qarab xayol surib ketdim. «Inson hayoti nega bunchalik murakkab, sira tushunib bo'lmaydi-ya». Jamilaning bo'lsa hamon daragi yo'q. Nega buncha hayalladi ekan, qayerlarda yurganikin, deb aravaning g'il-dirak tovushlarini eshitishga zor bo'lib quloq solib yotdim. Qattiq charchagan bo'lsam ham, sira uyqum kelmadi. Tog'lar tepasidagi bulutlar orasidan yashin yalt-yult etib chaqnardi.

Doniyor kelganda hali uyg'oq edim. U nima qilarini bilmay, qayta-qayta yo'lga qarab, xirmonda bir oz aylanib yurdi-da, so'ngra yonimga kelib, o'zini yuz tuban otdi.

«Endi u ovulda qolmaydi, boshini olib ketsa kerak» deb o'ylardim. Lekin bechora qayerga ham borardi? Boshpanasiz bir musofir kimga ham kerak? Bechoraga qiyin bo'ldi-da, endi nima qilar ekan?

Endi ko'zim ilingan ekan, xirmon tomondan arava tovushi eshitildi. «Jamila bo'lsa kerak» deb o'yladim uyqu aralash.

Qancha uxlaganimni bilmayman, bir vaqt naq qulog'im tagida shitirlagan tovush eshilib, birov kelayotgandek bo'ldi. Qanot serpigandek qandaydir bir sovuq narsa betimni silab o'tdi. Ko'zimni ochsam Jamila ekan. Cho'milib kelgan bo'lsa kerak, ko'ylagini ham ho'llab olibdi, shuning uchun ham yonimdan o'tayotganida salqin shabada esgandek bo'ldi. Jamila to'xtab qoldi-da, u yoq-bu yoqqa alanglab, Doniyorning bosh tomoniga o'tirdi.

— Doniyor, mana men o'zim keldim! — dedi u sekin shivirlab.

Atrof jimjit, osmonni gumburlatib yashin chaqnadi.

— Xafa bo'ldingmi? Qattiq xafa bo'ldingmi?

Yana jimlik cho'kdi, qirg'oqdan tuproqning suvga «sho'lp» etib tushgani eshitildi.

— Lekin mening aybim nima? Senda ham gunoh yo'q.

Tog'lar ustida yashin gumburladi. Jamila cho'chib yalt etib qaraganida, yashin uning yuzini yoritib yubordi. Jamila atrofga bir qaradi-da, o'zini Doniyor ko'ksiga tashladi, uning yelkasi Doniyorning baquvvat qo'llari ostida dir-dir uchardi. Jamila ham g'aramga cho'zilib, Doniyor bilan yonma-yon yotdi.

Kuchli shamol somonni ko'kka sovurib, xirmon chetida qiyshayib turgan o'tovni yalab o'tdi-da, quyun bo'lib osmonga ko'tarildi. Chaqmoq bulutlar orasida ko'kimtir iz qoldirib, qarag'ay singandek qasira-qusur qilib hamma yoqni larzaga soldi. A'zoyi badanim titrab, ham qo'rqib, ham quvonib ketdim. Moma-

qaldiriq, yozniig oxirgi momaqaldirog'i yopirilib kelar, ilk kuz nafasi dimoqqa urilardi. Endi Jamilani hech qanday kuch to'solmasdi. U Doniyorga sekin shivirladi:

— Chindan ham gumonsiradingmi, nahotki men seni unga almashtirsam! U meni hech qachon sevgan emas, sevmaydi ham! Mayli, kim nima desa deyaversin, lekin men senikiman! Yolg'izim, azizim, men seni hech kimga bermayman. Men seni ko'pdan beri sevaman. G'oyibona oshiq bo'lib kelishingni intizorlik bilan ko'zim to'rt bo'lib kutgandim. Kutganligimni bilgandek, mana, sen ham meni izlab kelding...

Jarlik orqasidagi soy qirg'oqlaridan ivib suvga qulab tushayotgan tuproq chaqmoq yorug'ida ko'rinib turardi. Dastlabki yirik yomg'ir tomchilari somon ustiga shitirlab yog'a boshladi.

— Jamilam, jonginam, sevgilim, Jamilaxon! — deb Doniyor qirg'izcha va qozoqcha eng nafis so'zlar bilan o'z ma'shuqasini erkalatardi. — Men ham seni ko'pdan beri sevib yurardim. Umrimda ko'rmagan bo'lsam ham, okoplar-da yotib seni o'ylardim. Sevgan yorim Vatanimda ekanligini bilardim. Bu sen ekansan, Jamilam!

— Shunqorim, mard lochinim! Bu yoqqa qara-chi, ko'z'laringga to'yib boqay!

Yomg'ir sharros quyib berdi. Qora uy tepasiga yopilgan namatlar xuddi qanot qoqqan qushdek shamolda uchib ketdi. Goh qiyalab, goh tik quygan jala yerni orziqib kutgandek ustma-ust o'pard. Ketma-ket momaqaldiroq gumburlab, butun osmon qa'rini tilib o'tgandek bo'lardi. Uzoq-uzoqlardagi tog'lar bahor lolalaridek qizarib ko'rinardi.

Yomg'ir kuchaya bordi. Men bo'lsam, somonga ko'milib olib, yuragimning duk-duk urishini sezib yotardim. Men nihoyatda baxtiyor edim! O'zimni uzoq kasallikdan keyin birinchi marta ko'chaga chiqqan odamdek his etib, har bir narsaga suqlanib qarar, go'yo hayot lazzatini endi bilayotgandek edim.

Yog'in ham, chaqmoqlarning yorug'i ham somon ostida yotgan joyimga yetib borardi, lekin men o'zimni juda yaxshi his etardim, uyquga ketar ekanman, o'zimcha kulimsirab qo'yardim. Qulog'imga chalingan sharpaning nimaligini bilmasdim. Bu Jamila bilan Doniyorning shivirlashimi yo bo'lmasa, tinayotgan yomg'irning somonga shitirlab tushishimi?

«Mana endi yomg'ir tinmaydi, hademay kuz ham kiradi!» derdim o'zimga-o'zim. Nam somon bilan erman hidi dimoqqa urib, kuzdan darak berardi.

Lekin bu kuzda bizni nimalar kutayotgani haqida o'ylamabman.



O'sha kuzda men ikki yillik tanaffusdan keyin yana maktabga qatnay boshladim. Darsdan bo'sh vaqtlarimda ko'pincha haligi soy bo'yidagi jar tepasiga borib o'tirardim. Xirmon huvillab bo'shab qolgan edi. Bu yerda men maktabdan olgan bo'yoqlar bilan o'zimning dastlabki etyudlarimni chizdim. Chizgan suratchalarimdan o'zimning ham ko'nglim to'lmas edi. «Bo'yoqlarimning mazasi yo'q. Qani endi chinakam, asl bo'yoqlar bo'lsa!» — deb o'ylardim ichimda. Yaxshi bo'yoqlarning qanday bo'lishini bilmasdim ham. Rassomlar ishlatadigan moy bo'yoqlarni faqat keyingi vaqtlardagina ko'rishga muyassar bo'ldim.

Bo'yoq o'z yo'li bilan-u, lekin muallimlarning gapida ham jon borgan o'xshardi: rassom bo'lish uchun o'qish kerak. Bu gap to'g'riligini bilib tursam ham, o'qishimga sira ko'zim yetmasdi.

O'qish qayoqda deysiz: akalarim dom-daraksiz ketgan bo'lsa, men ikki uyni yolg'izgina dastyori bo'lsam, o'qishga yuborisharmidi. Shuning uchun o'qish to'g'risida og'iz ham ochmasdim. Lekin o'qishni qo'msab, borolmasligimga ich-ichimdan achinardim, buning ustiga, bu yil kuzning bu qadar ko'rkam kelishini aytmaysizmi!

Qo'lingdan kelsa, o'tirsang-u, chizsang, ajoyib surat chiqardi-da.

Gurkurovning suvi kamayib, qozondek-qozondek toshlar turtib chiqib, ularning usti yam-yashil, sap-sariq yo'sin bilan qoplangandi. Ertalabki izg'irindan yalang'och tolchalarning nozik tanalari qizarib ketgandi, biroq teraklarning sap-sariq yaproqlari hali to'kilmagan edi.

Yilqichilarning yozi bilan o't yoqilaverib tutundan qorayib ketgan o'tovlari katta soyning u yer-bu yerida ko'zga tashlanardi, o'tovdan buralib-buralib chiqayotgan ko'k tutun xuddi to'y-to'ylagan xotinlardek ovulma-ovul suzib yurishardi. Toychalar atrofga yoyilib ketgan onalarini qidirishib, zo'r berib kishnashardi. Endi toychalar kishnagani-kishnagan. Chunki biyalarni to bahorgacha uyurda saqlash qiyin. Tog'lardan qaytgan mollar hosili yig'ib olingan dalalarda podapoda bo'lib yurishardi. Dasht sahni tuyoq izidan ilma-teshik bo'lib ketgan edi.

Bu yil ham kuz kuzligini qildi: hamma yoqni to'zitib izg'irin shamol qo'zg'aladi va osmonning avzoyi bo'zilib, qor aralash yomg'ir yog'a boshladi. Bir hafta surunkasiga yoqqan yomg'ir bir kun sal tinishi bilan, men Gurkurov tomonga qarab jo'nadim. Toshloqdagi bir tup tog' chetani qip-qizil cho'g'dek yonib, «meni suratga ol» degandek bo'y cho'zib turardi.

Men soy bo'yidagi butalar orasida surat chizib o'tirganimda, qosh qorayib qolgan edi. Bir vaqt boshimni kutarib qarasam, narigi sohilda ikki kishi turibdi, dar-yoning sayoz joyidan kechib o'tishgan bo'lsa kerak. Ularning Doniyor bilan Jamila ekanini darrov tanidim. Men ularning jiddiy va tashvishli yuzidan ko'zimni uza olmay tikilib turdim. Doniyor har galgidek dadil qadam tashlar, yurgan sayin shi-nelining bari ohori to'kilgan soldatcha etigining qo'njlariga shartillab tegardi. Jami-la bo'lsa egniga bozorga borganda kiyadigan parcha-parcha qizil gullik ko'ylagini, chiybaxmal choponini kiyib, boshiga oq jun ro'molini o'rab olgandi. Bir qo'liga tugunchak ko'tarib, ikkinchi qo'li bilan Doniyorning xaltasidan ushlab bormoqda. Ular yo'l-yo'lakay nimalar to'g'risidadir o'zaro gapirishib borishardi.

Ularning ovulimizni tashlab, qayoqqadir ketishayotganini sezib, yuragim «qiz» etib ketdi.

Mana, ular jarlikdan o'tib, qamishzor oralab ketib borardi. Men bo'lsam, xud-di bir narsani yo'qotgan kishidek ularning orqasidan qarab, nima qilarimni bil-may qoddim. Qichqirayin desam, nafasim siqilib, ovozim chiqmasdi.

Quyosh tog'lar yoqalab suzib borayotgan bulutlarga qizg'ish nurlarini so'nggi bor sochdi, atrofni qorong'ilik qoplay boshladi.

Doniyor bilan Jamila orqa-oldilariga qaramay, temir yo'l raz'ezdini ko'zlab tez odimlab borishmoqda. Bora-bora ularning qoralari uzoqlashib, bir ozdan keyin qamishzor orasiga kirib, butunlay g'oyib bo'ldi.

Ana o'shandagina men o'zimga kelib, orqalaridan ovozimning boricha:

— Jamila-a-a-a! — deb qichqirdim.

Dala ustida ancha vaqtgacha: «a-a-a» degan aks sado eshutilib, bir ozdan so'ng tinar edi. Yana bir marta jahl bilan:

— Jamila-a-a-a! — deb qichqirdim-da, so'ng ularning orqasidan yugurib qoldim. Suvni suv demay, oyoq yalang, bosh yalang, ularning orqasidan quvib borardim, ust-boshim jiqqa ho'l bo'lgandi. Shunga qaramay, yana tezroq chopa boshladim. Birdan oyog'im nimagadir chalinib ketdida, yuz tuban yiqildim. Bo-shimni ko'tarmay, ikki qo'lim orasiga olib, o'ksib-o'ksib yig'lab yubordim. Ko'z yoshlarimdan namlangan mayin tuproq qo'limni, betimni muzlatib g'ira-shira qorong'ilik ko'nglimga g'ulg'ula solgandek, o'pkam qisilib, achchiq-achchiq yig'ladim, qamishlar go'yo mening qayg'u-hasratimga hamdard bo'lgandek tin-may shitirlashar edi.

— Jamila! Jamila! — derdim men o'pkamni bosolmay piq-piq yig'lab. Men eng yaqin, eng aziz odamlarim bilan xayrlashar edim. Mana hozirgina, yerda



yotib, o'zim ham Jamilani sevib qolganligimni tushundim. Bu mening ilk, bolalikdagi sevgim edi.

Yuzimni ko'z yoshidan ho'l bo'lib ketgan yengimga artib, yana anchagacha yig'lab o'tirdim. Men faqat Jamilalar bilangina emas, balki o'zimning bolalik davrim bilan ham xayrlashar edim.

Qorong'ida timirskilanib uyga kelganimda hovlimizda shovqin-suron avjida edi: it egasini tanimasdi. Kimdir otga egar urardi. Bezori Usmon bo'lsa, har kungidek mast, otini gijinglatib, ovozing boricha baqirardi:

— Aytmaganmidim, mana oqibati nima bo'ldi. Yo'lchiboy ota sharmandayi sharmisor bo'ldi. Qani ketdik, bu sayoq it, chala qozoqni ushlab bo'ynini uzmasam, otimni boshqa qo'yaman. O'n yilga kesilsam, kesilamanu, lekin har qanday yalangoyoqning xotinarimizni olib ketishiga yo'l qo'ymayman. Qani ketdik, yigitlar! Qayerga ham borardi deysan?

Ular qaysi tomonga ketisharkin degan fikr xayolimdan o'tdi-yu, yuragim shuv etib, a'zoyi badanim muzlab ketdi. Nima qilarimni bilmay, otliqlarning orqasidan men ham ovul chekkasigacha yugurib bordim-da, ularning raz'ezd tomonga emas, stansiyaga olib boradigan katta yo'l tomonga qarab burilib ketganlarini ko'rib, jonim o'rniga tushdi. So'ngra uyga qaytib keldim-da, yig'laganimni hech kim bilmasin, deb, otamning to'niga o'ralib yotdim.

Ovulda har xil mish-mish gaplar tarqaldi. Hamma xotinlar Jamilani qoralashardi:

— **Abmoq**-da! Aqli bo'lsa tuz ichgan joyiga tuflab, sanqib yurgan bir musofirga ergashib ketarmidi.

— Shunisiga kuyaman-da! Uning nimasiga qiziqdi ekan deyman-da! Eski shineli bilan, teshik etigidan bo'lak hech balosi yo'q edi-ku!

— Qo'tan-qo'tan qo'yi bormidi! Uyi yo'q, joyi yo'q, nasl-nasabi betayin bir daydi-da! Mayli, uvoli o'ziga, hali attang deydi... Bu tannoz xotinning holini o'shanda ko'rmiz.

— Tavba, Sodiqdan ortiq erni topib bo'пти.

— Qayin onasini aytmaysanmi, qayin onasi-chi? Bunday yuvosh qayin onani qayerdan topadi! O'ziga-o'zi qildi, juvonmarg, mayli!

Burungi yangamni, Jamilani qoralamay, uning qilmishini to'g'ri deb topgan yolg'iz men bo'lsam kerak. Doniyorning eski shineli bilan teshik etigidan boshqa hech narsasi bo'lmasa ham, lekin uning ma'naviy boy, qalbi yuksak odamligini men bilmaganda kim biladi. Jamila Doniyorning etagini ushlab ketib, o'z baxtini

toptadi, degan gaplarga ishonish u yoqda tursin, aksincha, men, u o'z baxtini endi topdi, deb ishonardim. Faqat oyimga achinardim, xolos. Jamila bilan birga uning butun kuch-quvvati ketgandek. Oyim g'amgin bo'lib, o'zini ancha oldirib, qaddi bukilib qoldi. Oh, bechora oyim. Hayot oqimi ba'zida eskilik ildiziga shafqatsiz bolta urib, yangi baxt sari intilishini oyim tushunmasa kerak-da. Agar bo'ron azim chinorni tag-tomiri bilan qo'porib tashlasa, u qaytib qaddini rostlayolmaydi.... Oyimning har bir xatti-harakatidan uning oldingi kuch-quvvati qolmaganligi sezilib turardi. Ilgarilari u hech kimdan ignaga ip o'tkazib berishni iltimos qilmas, qarilik g'ururi bunga yo'l qo'ymas edi. Bir kuni uyga kirib kel-sam, oyim ignaning ko'zini topolmay, qiynalib yig'lab o'tiribdi.

— Ma, ipni o'tkazib ber-chi! — dedi u qaltiragan qo'llari bilan igna va ipni menga uzatib. So'ngra og'ir xo'rsindi-da, ko'z yoshlarini artib, o'zicha ming'irladi: — E-e, sho'rlik kelinim, ko'ra-bila turib o'zingni o'tga tashlading-a. Uyimizning to'ri seniki, yeganing oldingda, yemaganing ketingda edi... O'zingni o'zing juvonmarg qilding... Bizni dog'da qoldirib ketding... Nega ketding? Uyimizda nima kamchilik ko'rding... Sho'rlik Jamila...

Oyimning shunday mung'ayib o'tirganini ko'rib, o'zimni tutolmay, beixtiyor: «Yo'q, oyi, u sho'rlik emas!» — deb qichqirib yuborgim keldi-yu, lekin o'zimni bosdim. Oyimni mahkam quchoqlab, Doniyorning kimligini, uni jonimdan aziz ko'rishimni aytib, yig'lab yuborishimga oz qoldi. Lekin bu so'zlarni aytishga tilim borarmidi. Bu gapim bilan oyimni bir umrga xafa qilgan bo'lardim.

Lekin bari bir bu begunoh «qilmishlarim» sir bo'lib qolmadi.

Oradan ko'p o'tmay Sodiq akam armiyadan qaytib keldi. Rostini aytganda, u ko'rinishda unchalik sir boy bermasa ham, lekin nomusdan qattiq kuyinib, jig'i-biyron bo'lib yurdi, Usmonlar bilan ichishib qolgudek bo'lsa:

— Ketgan bo'lsa sadqayisar! Sarson-sargardon bo'lib yurib, oxiri bir kun ochidan o'ladi-ketadi. Xotinman degani to'lib yotibdi, chertib-chertib olish mumkin. Oltin boshli xotindan, baqa boshli er yaxshi! — derdi jahl bilan.

— Gapingk-u to'g'ri-ya, — deb javob qaytarardi Usmon. — Afsuski, o'shanda qo'limga tushmadi-da: unisining ichak-chavog'ini ag'darib, bunisining sochlaridan otga bog'lab sudratardim! Ehtimol, ular janubda, paxta dalalarida, yo bo'lmasa qozoq yerlarida tentib yurishgandir. Sayoqlik Doniyorga kasb bo'lib qolgan. Shunisiga dog'manki, buni hech kim bilmay, hech kim sezmay qolgan-a, qanday bo'lganiga kishining sira aqli yetmaydi-ya... Bu ishing hammasini o'sha qanjiqning o'zi qilgan, isini ham chiqarmadi-ya, la'nati, bo'lmasa men uni naql..

Bunday gaplarni eshitganimda qonim qaynab, mushtlarimni qisardim. Kuchim yetsa, o'sha Usmonning basharasiga tuflab: «Pichan o'rog'ida adabingni bergani esingdan chiqibdi-da... Eng yaramas, eng razil odam sensan-ku!» degan bo'lardim.

Bir kuni uyda maktab devoriy gazetasiga surat chizib o'tirgan edim, oyim ham pechka oldida cho'qqayib o't yoqib o'tirardi, bexosdan eshik ochilib, uyga rangi ko'karib, g'azabidan ko'zlariga qon to'lgan Sodiq akam kirib keldi. U meni ustimga yopirilib kelayotganda, yelkasiga tashlab olgan shineli yerga tushib ketdi.

— Buni sen chizdingmi? — deb so'radi u bir varaq qog'ozni tumshug'imga tiqib. Qog'ozdagi suratni ko'rib yuragim orqamga tortib ketdi: bu o'sha xirmonda o'tirib qalamda chizgan Doniyor bilan Jamilaning surati edi. Suratga ko'zim tushishi bilan, go'yo ular menga qarab turishgandek bo'ldi. «Qiziq, Jamila buni nega tashlab ketdiykin? Uni bir yerga yashirib qo'ygan-u, keyin esidan chiqarib ketgan bo'lsa kerak!» — deb o'yladim ichimda.

— Ha, men chizgan edim! — dedim.

— Bu-chi, bu kim o'zi?

— Doniyor.

— E, ablah, sotqin! — deb o'shqirdi Sodiq akam menga va suratni mayda-mayda qilib yirtirdi-da, oyog'i ostiga olib toptab, keyin eshikni qattiq yopib chiqib ketdi.

Uy ichiga og'ir jimlik cho'kdi.

— Sen buni bilarmiding? — deb so'radi oyim bir mahal.

— Ha, bilardim.

Oyim pechkaga o't yoqib o'tirib, menga shunday ta'na va hayrat nazari bilan qaradiki, men nima qilishimni bilmay, bosh barmog'imni uzib olgudek bo'lib:

— Men ularning suratini yana chizaman! — dedim. Oyim g'ing demay boshini ma'yusgina chayqab, yerga boqdi.

Yerda sochilib yotgan suratga qarab, ichimni o'tdek o'rtayotgan xo'rlikka hech chiday olmadim. Mayli, men oilamiz, urug'imiz uchun «sotqin» bo'layin, biroq, men odamgarchilikka, haqiqatga, hayot haqiqatiga xiyonat qilganim yo'q, aksincha, adolat tarafdori bo'ldim. Mening ko'nglim sof, niyatim xolis ekanligini hech kim bilgan emas, buni odamlarga ham aytib bo'lmaydi, boshqalar tugul, hatto oyim ham buni tushunmas edi, albatta.

Oyim indamay o'tiraverdi. Izza bo'lganimdan ko'zlarimga yosh keldi, yirtib tashlangan surat parchalari to'yo jonliday yerda aylanib yurardi. Doniyor bilan Jamilaning yorqin qiyofasi sira ko'z o'ngimdan ketmas, Doniyorning o'sha av-

gust kechasi aytgan orombaxsh qo'shiqlarini yana eshitayotgandek bo'lardim. Ularning ovuldan ketganlarini eslaganimda, g'ayratga to'lib men ham ular kabi o'z istiqbolim yo'lida qiyin safarga o'tlanishga qat'iy bel bog'lardim.

— Men o'qishga ketaman! — dedim oyimga. — Rassom bo'lgim keladi, rassomlik o'qishiga boraman, otamga ham aytib qo'ying...

Men, hozir oyim urushda halok bo'lgan akalarimni eslab, faryod ko'tarib yig'lasa kerak, deb o'ylagan edim. Lekin, baxtinga oyim yig'lagani yo'g'-u, faqat g'amgin, eshitar-eshitilmas qilib gapirdi:

— Mayli, o'zing bilasan, borsang bora qol... Uchirma qanot bo'lganlaringdan keyin gapimizga kirarmidilaring, har qaysing o'z bilganlaringni qilasizlar. Biz nimani bilamiz, balki sizlarning bilganlaring to'g'ridir, balki juda katta odam bo'lib ketarsanlar... Hozir zamon o'zi shunaqa-ku. Mayli, boraver... Ehtimol, o'sha yoqlarga borganingdan keyin suratlashlik yaxshi kasb emasligini o'zing tushunib olarsan... Uyingni, ota-onangni unutma, nasihatim shu...

Shu kundan boshlab kichik uy o'z-o'zidan bo'linib ketdi. Hademay men ham o'qishga jo'nardim.

Rassomlik maktabini bitirib, o'z mahoratimni oshirish uchun yana Leningrad akademiyasiga o'qishga borganimda, o'z diplom ishimi topshirdim. Bu diplom ishi — ko'pdan beri orzu qilib, yuragimda saqlab yurgan suratim edi.

Albatta, sizlar bu suratda Doniyor bilan Jamila tasvirlanganini darrov fahmlagandirsizlar. Ular daladagi yolg'izoyoq yo'ldan yonma-yon ketishar edi. Doniyorning shineli shamolda yelpinib, yuzidan sevinch balqigan Jamila uning xaltasidan ushlab olgandi.

Ularning oldida Doniyor kuylagan poyonsiz, yorug', keng dala yastanib yotardi. Hozir olamda Jamila bilan Doniyordan baxtli odam bo'lmasa kerak!

To'g'ri, suratimni har tomonlama mukammal, bekami-ko'st ishlangan deb aytolmayman, axir, mahorat degani o'z-o'zidan darrov kelmaydi-ku. Bu — og'ir, mashaqqatli mehnat mevasi. Lekin bari bir bu surat men uchun dunyoda eng aziz, eng qimmatli narsa edi. Chunki o'zimdagi san'atga bo'lgan barcha mehr-muhabbatim, ixlosim, zavqimni men birinchi marta ana shu suratga bergandim.

Mana endi ancha tajribali bo'lib qolgan bo'lsam ham, ba'zan chizgan suratlarim ko'nglimdagidek bo'lib chiqmaydi, o'zimga yoqmaydi, o'shanda o'z kuchimga o'zim ishonmay, gumonsirab qolaman. Shunday og'ir damlarda o'sha surat — Doniyor bilan Jamila meni o'ziga chorlaydi. Ularga uzoq tikilib, har gal ular bilan maslahatlashgandek bo'laman.

«Hozir qayerdasiz, qaysi yoʻldan ketyapsiz? Hozir dalemizda yangi yoʻllar koʻp. Qozogʻistondan tortib Oltoy va Sibirga qadar choʻzilib ketgan! Hozir u yerlarda choʻlni boʻstonga aylantirish, yangi yerda yangi turmush qurish uchun koʻplab azamatlar mardona mehnat qilmoqdalar! Balki sizlar ham oʻsha yoqqa ketgandirsizlar! Unday boʻlsa, oq yoʻl! Safarlaring bexatar boʻlsin! Jamila, mening Jamilam, sen boshingni baland koʻtarib, keng daladan magʻrur qadam tashlab ketding... Hozir ham oʻshandaymisan, hozir ham yoʻl yurishdan toliqmaysanmi? Yo oʻz kuchingga oʻzing ishonmay, charchagan, ikkilanib qolgan kunlaring ham boʻladimi? Boʻsh kelma, bardam boʻl, Doniyordan madad ol! Doniyor senga sevgi, vafo, ona-Yer, hayot toʻgʻrisidagi joʻshqin kuylarini kuylab bersin! Oʻshanda koʻz oʻngingda keng dala gullab, avgust tunidagi kuchli boʻron guvillasin! Olis yoʻldan qoʻrqma, Jamila, sening yoʻling baxt yoʻlidir, sen oʻz baxtingni topding!»

Men ularga qarab, Doniyorning ovozini eshitaman, demak, Jamila ikkisi meni safarga chorlaydi. Ha, men yoʻlga chiqishim kerak! Ha, keng dala bagʻridan oʻtib, ovulimga boraman! Tugʻilib oʻsgan yerim — kuch-quvvatim. Men undan yangi-yangi boʻyoqlar topaman. Chizgan suratimning har bir boʻyogʻidan, har bir lavhasidan Doniyorning kuyi eshilib tursin! Chizgan suratimning har bir boʻyogʻida, har bir chizigʻida Jamilaning qalbi urib tursin!

*1953 yil.*



## OQ KEMA (ERTAKDAN SO'NG)

### I

**U**ning ikki ertagi bo'lardi. Biri o'ziniki bo'lib, uni hech kim bilmasdi. Ikkinchisini esa, bobosi so'zlab bergandi. Keyin birortasi ham qolmadi. Gap shu xususda.

O'sha yili u yetti yoshga to'lib, sakkizga qadam qo'ygandi.

Avval portfel sotib olindi. Qop-qora dermantin portfelni ochib-yopganda shiqillaydigan qulfi yaltirab turardi. Yonida mayda-chuyda soladigan kissasi ham bor. Qisqasi, g'aroyib, ayni paytda oddiy maktab portfeli edi. Hamma narsa, ehtimol, shundan boshlandi.

Bobosi uni ko'chma do'kondan sotib oldi. Ko'chma do'kon tog'dagi chorvadorlarga mol sotib, aylanib yurganda, ularga ham, San-Toshdagi o'rmonchilik qorovulxonasiga ham birrov burilgandi.

U bu yerdan, dara va nishab yo'llar bo'ylab tog'dagi qatag'on o'rmonga ko'tarildi. Qorovulxonada bor-yo'g'i uch oila yashaydi. Lekin shunday bo'lsa-da, vaqti-vaqti bilan ko'chma do'kon o'rmonchilarni ham yo'qlab turardi.

Uch hovlida yolg'iz bitta bola bo'lib, u har safar ko'chma do'konni birinchi bo'lib ko'rar edi.

— Kelyapti! — deb qichqirdi u eshik va derazaga qarab chopib. — Mashinamagazin kelyapti!

Issiqko'l bo'ylaridan bu tarafga cho'zilgan aylanma yo'l kela-kelguncha dara, daryo sohili bo'ylab, toshloq va o'nqir-cho'nqirlardan o'tib kelardi. Bu yo'llardan yurish hazilakam ish emas. Qorovultoqqa yetguncha yo'l pastdan yuqoriga torayib, qiyalab borardi-da, keyin tikka taqir nishablik bo'ylab o'rmonchilar hovlisiga tushardi. Qorovultog' shundoq yonginalarida — yozda bola durbindan ko'lni tomosha qilgani deyarli har kuni o'sha yoqqa chopardi. U yerdan esa, yo'lda kelayotgan piyodayu otliq, albatta, mashina ham, hamma narsa kaftdagidek ko'rinib turardi.

O'sha safar — issiq yoz kunlaridan birida bola o'z ko'lobida cho'milib turgan edi, shunda qiya yo'lni changitib kelayotgan mashinani ko'rib qoldi. Ko'lob daryoning chetroq sayoz joyida, qumloq yerda bo'lib, bobosi tosh qalab to'sib bergan edi. Agar shu to'siq bo'lmaganda, kim biladi, balki, bola ham allaqachonlar tirik qolmagan bo'larmidi? Buvisining aytishicha, daryo allaqachon uning suyaklarigacha yuvib, to'g'ri Issiqko'lga eltib tashlarmidi va u yerda baliqlar hamda suvdagi har xil baloi battarlarga yem bo'larmidi? Hech kim uni qidirib, jon koyitmas, dardida kuyib, ado bo'lmas edi, rost-da, suvda pishirib qo'yibdimi? Sirasini aytganda, u kimga ham kerak. Hali hozircha bu falokat bo'lganicha yo'q. Sodir bo'lsa, kim biladi, buvisi balki, chindan ham uni qutqargani urinib ko'rmas, kampir tug'ishgan buvisi bo'lganda boshqa gap edi, axir, uning o'zi, o'gaysan, deb yuradi-ku. O'gay esa, qancha yedirib-qancha ichirma baribir o'gayligiga boradi. O'gay... Agar u o'gay bo'lishni istamasa-chi? Xo'sh, nega endi u o'gay bo'lishi kerak? Balki u emas, buvisining o'zi o'gaydir?

Lekin bu to'g'rida ham, bobosi yasagan to'siq haqida ham keyinroq gap bo'ladi.

Shunday qilib, u o'shanda ko'chma do'konni uzoqdan ko'rib qoldi, mashina ketidan to'zon ko'tarib tog'dan tushib kelayotgan edi. Shunda u quvonib ketdi, o'ziga portfel olinishini bilganday quvonib ketdi. Shu zahotiy oq suvdan sakrab chiqdi, chillakdek oyoqlarini ishtonining pochalariga tiqdi-yu, suvning sovuqligidan ko'karib ketgan badanining ho'li bilan ko'chma do'konning kelayotganini birinchi bo'lib yetkazish uchun so'qmoqdan uylar tomon chopib ketdi.

Bola butalar ustidan hatlab, sakrab o'tish qiyin bo'lgan xarsang toshlarni yonlab o'tib, na o'siq o'tlar, na xarsang toshlar oldida, bular shunchaki narsalar emasligini bilsa-da, bir daqiqa ham to'xtamay chopib borardi. Ular ranjib qolishi, hatto chalib yiqitishi ham mumkin edi. «Mashina-magazin keldi. Men keyin kelaman», — yo'lyo'lakay u cho'kib «yotgan tuya»ga gap qotdi. U bag'rini yerga berib yotgan sarg'ish bukri toshni shunday deb atardi. Odatda bola o'z «tuya»sining yonidan o'tganda uning o'rkachini silamasdan o'tmasdi. Xuddi bobosi dumi cho'ltoq axta otini shapatilangani kabi, u ham ishning ko'zini biladigan kishilar singari o'z «tuya»sining yonidan o'tib borayotib naridan-beri, sen sabr qilib turasan endi, mening ishim chiqib qoldi, deb uni shapatilab qo'yardi. Uning xarsang toshida «egar» ham tayyor edi. Yarmi oq, yarmi qora bu chavkar toshdagi egarchada xuddi otda o'tirgandek o'tirgan bo'lardi. Yana «bo'ri» degan tosh bor — bo'riga juda o'xshash qo'ng'ir, oq oralagan, yoldor va cho'ng peshonali. Bola uning oldiga pisib emaklab borardi-da, mo'ljalga olardi. Lekin eng sevimli tosh, bu suv yuvib ketgan qirg'oqdagi

kattakon xarsang «tank» edi. Qarab tursang «tank» qirg'oqdan otilib chiqadi-yu, daryoni shovqin-suronga solib, to'qinlantirib, ko'piklantirib, yurib ketadigandek. Tanklar kinolarda axir shunday yuradi-ku, qirg'oqdan suvga otiladi: ketdi! Bola kinolarni kam ko'rgan, shuning uchun ham ko'rganlari yodida qattiq o'rnashib qolgan. Bobosi ba'zan uni kino ko'rsatgani tog' ortidagi — qo'shni daradagi sovxoz naslchilik fermasiga olib borardi. Shu sababli ham qirg'oqda daryoni har qachon kesib o'tishga shay turgan «tank» paydo bo'ldi. Yana boshqa — «yaxshi» va «yomon» toshlar, hatto «ayyor» va «ovsar»lari ham bor.

O'tlar orasida ham — «sevimli», «botir», «hurkak» va «yovuz» hamda boshqa har xillari mavjud edi. Chaqirtikan, masalan, — eng birinchi dushman. Bola u bilan kuniga o'n martalab jang qilgan, chopib tashlagan. Lekin bu jangning oxiri ko'rinmasdi — chaqirtikan hadeb o'saverar va ko'payaverardi. Mana, daladagi pechak gullar, to'g'ri, ular ham yovvoyi, shunga qaramay bular eng aqlli va quvnoq gullardir. Ular ertalab quyoshni hammadan ortiq yayrab qarshi oladi. Boshqa o'tlarga — tong nima, tun nima, baribir. Pechakgullar esa, kun ilishi bilanoq ko'z ochadi, kulib boqadi. Oldin bir ko'zini, keyin ikkinchisini ochadi, shundan so'ng bag'ridagi barcha gullar birin-ketin ochila boshlaydi. Oq, och ko'k, binafsha va yana har xil rangda... Agar ularning oldidasukut saqlab o'tirsang, go'yo bu gullar uyqudan uyg'onib, allanimalar haqida shivirlashayotgandek tuyuladi. Chumolilar ham buni sezadi, Ular ertalabdan pechakgullar huzuriga chopib, quyosh nurlaridan ko'zlarini qisib, gullarning o'zaro nimalar haqidadir shivirlashayotganiga quloq soladi. Balki, ko'rgan tushlarini so'ylashayotgandir?

Kunduzlari, odatda tush vaqtiga borib bola serpoya shiroljinlar g'uj bo'lib o'sgan tomonga jo'nashni yaxshi ko'rardi. Shiroljin baland bo'yli, gulsiz, lekin xushbo'y hidli bo'ladi. Ular yon-veriga boshqa o'simlikni yo'latmay to'da-to'da bo'lib, alohida o'sadi. Shiroljin — sadoqatli do'stdir. Ayniqsa biror ko'ngilsizlik yuz berib, pinhona yig'laging kelganda shiroljin ostidan yaxshi panoh topish mumkin. Ular o'rmon yoqasidagi qarag'ayzorlar singari yoqimli hid taratib turadi. Shiroljinlar quchog'i qaynoq va sokin. Eng muhimi, ular osmonni to'sib qo'ymaydi. Chalqancha yot-da, osmonni tomosha qilaver. Avval ko'z yoshlari orasidan hech nimani ajrata olmaysan. Keyinchalik esa, bulutlar suzib ketadi va sen o'ylayotgan narsalar osmonda, ko'z oldingda aniq namoyon bo'la boshlaydi. Bulutlar yaxshi biladi: ko'ngling ancha noxush, qayoqlargadir jo'nab qolging yoki uchib ketging keladi, toki seni topolmay, oh-voh qilishsin: «Eh bolagina, bedarak ketdi-ya, endi uni qayerdan topamiz», deb kuyib yurishsin.

Bunday bo'lmisligi uchun — yo'qolib qolmasliging va jimgina yotib, bulutlardan zavqlanishing uchun sen nimani istasang bulutlar o'shanga aylanib qoladi. O'sha birgina bulutning o'zidan turli-tuman shakllar yuzaga kela boshlaydi. Faqat bulutlar qanday shaklga kirayotganini ko'ra bilsang bas.

Shiroljinlar tagi jimjit, ular osmonni to'smaydi. Shiroljinlar mana shunaqa, iliq qarag'ayzor hidini ufuradi.

U o'tlar to'g'risida ko'p narsa bilardi. Suv bosadigan pichanzordagi kumushrang supurgi o'tlarga rahmi kelardi, juda g'alati-da bu supurgi o'tlar, havoyi juda. Ularning ipakdek mayin popuklari shamolsiz yasholmaydi. Shamolni kutgani-kutgan, shamol qayoqqa essa, o'sha yoqqa egilib xuddi komandaga bo'ysungandek, yoppasiga salom beradi. Agar yomg'ir quyib bersa yoki momaqaldiroq boshlanib qolsa bormi, giyohlar qayerga bosh suqishni bilmay qoladi. To'lg'ana-di, tiz cho'kadi, yer bag'irlab qoladi. Oyoqlari bo'lganda-yu, ehtimol, ko'z yetgan joygacha qochib qolisharmidi... Yo'q, ular o'zlarini mug'ambirlikka solyapti. Momaqaldiroq tinsin-a, havoyi supurgi o'tlar yana shamolning hukmida — shamol qayoqqa essa, ular ham o'sha yoqqa egila boshlaydi.

Bola yolg'iz, jo'ralarsiz mana shu soddabayov narsalar qurshovida yashardi, avtolavkagina hamma narsani unutishga, ko'ringanda chopishga majbur qila olardi. Shuning uchun, ko'chma do'konni ko'rgan zahoti hamma narsani unutib o'zini o'sha tomonga otardi. Nimasini aytasan, ko'chma do'kon — bu senga allaqanday tosh yoki o'tlar emas. Unda kishining jonidan bo'lak hamma narsa bor!

Bola uyiga yetib kelganida ko'chma do'kon ham orqa tomondan hovliga yaqinlashib qolgan edi. O'rmon xo'jaligi qorovulxonasiga qarashli bu uylar daryoga qaratib solingan. Hovlilar qiyalab qirg'oqqa tutashar, daryoning narigi qirg'og'ida esa o'rmon suv yuvgan jar chetidan boshlanib toqqa qarab ko'tarilib ketar edi. Shuning uchun ham o'rmon xo'jaligiga qarashli qorovulxonaga yo'l bitta — uylarning orqa tomonidan aylanib kelinardi. Bola o'z vaqtida yetib kelmaganida ko'chma do'kon kelganini hech kim bilmay qolardi.

Bu payt erkaklardan hech kim yo'q, hammalari ertalaboq tarqab ketishgan, ayollar uy ishlari bilan mashg'ul edi. Bola ochiq turgan eshiklarning oldidan qu-loqni qomatga keltirib qichqirib o'tdi:

— Keldi! Mashina-magazin keldi!

Ayollar tipirchilab qolishdi. Yashirib qo'ygan pullarini topish uchun yugurib qolishdi, uylaridan otilib chiqqanlaricha bir-birlaridan o'zib ketishdi. Mashina oldiga chopishdi, hatto buvisi uni maqtab qo'ydi:

— Ko'zi o'tkir-da, bizning bolaning!

Bola ko'chma do'konni o'zi boshlab kelganday boshi osmonga yetgan edi. Bu xushxabarni ularga u yetkazgani, birga hovlidan chopib chiqqani, eshigi ochiq turgan avtofurgon oldida ular bilan tiqilishib turganidan xursand edi. Lekin ayollar bu yerda uni tez unutib qo'yishdi. Unga qarashga vaqt bormidi. Ming xil mol — ko'z qamashadi. Ayollar bor-yo'g'i uch kishi: buvisi, bu yerning eng kattakon kishisi — o'rmon qorovuli O'razqulning xotini Bekey (Bekey — onasining opasi, unga xola) va yordamchi ishchi Seydahmadning xotini yoshgina Guljamol qizchasini ko'tarib olgandi. Bor-yo'g'i uch ayol. Lekin ular hovliqib, mollarni shunday titib tashlashdiki, oxiri sotuvchi ularning navbat kutishini va hammalari baravariga javramasliklarini talab qilishga majbur bo'ldi.

Ammo uning so'zi ayollarga unchalik ta'sir qilmadi. Avval boshda ular bor narsani bir chekkadan tortqilay boshlashdi, keyin tanlashga tushishdi, oxiri tanlaganlarini ham qaytarishdi.

Bir chetga olib qo'yishadi, o'lchashadi, bahslashishadi, shubhalanib, bir so'ragan narsalarini o'n qaytalab so'rashadi. Biri yoqmaydi, ikkinchisi qimmat, uchinchisining rangi unchamas... Bola bir chetda turardi. U zerikdi. Zero u kutgan g'aroyib narsa yo'qqa chiqqan, tog' yo'lida ko'chma do'konni birinchi bor ko'rgandagi quvonchi g'oyib bo'lgandi. Ko'chma do'kon kutilmaganda har xil lash-lushlar tiqilgan oddiy mashinaga aylanib qoldi.

Sotuvchining qovog'i solina boshladi: bu xotin-xalaj biron narsa sotib olish uchun to'rejaishganga o'xshamaydi. Tog' oshib, buncha uzoq manzilga nima uchun ham keldi-a?

Shunday bo'ldi ham. Ayollar shaxtlaridan qaytib shalvirab qolishdi. Bir oz charchaganday ham bo'lishdi. Negadir bir-birlarining oldidami yoki sotuvchi oldidami, o'zlarini oqlashga tushishdi. Buvi birinchi bo'lib, puli yo'qligidan shikoyat qildi. Puli yo'qning — xaridi yo'q. Bekey xola eri yo'qligi sababli kattaroq xarid qilishga botina olmadi. Bekey xola olamdagi hamma ayollar ichra eng baxtsiz — sababi, farzandi yo'q. Shuning uchun eri O'razqul mast bo'lganida uni do'pposlaydi, bundan bobo ham jabr tortadi: axir Bekey uning qizi-da, Bekey xola mayda-chuyda va ikki shisha aroq oldi. Bekorga oldi, o'ziga jabr. Buvi o'zini tutib turolmadi. Sotuvchi eshitmasin deb pichirlab so'radi.

— Nega o'z boshingga o'zing baloni sotib olyapsan?

— O'zim bilaman, — qisqa javob qildi Bekey xola.

— Ahmoq, — yana ham sekinroq, lekin badxohlik bilan shivirladi buvi. Sotuvchi bo'lmaganidami, Bekey xolaning boplab adabini berardi. E-he, ularning qarg'ashganini bir ko'rsangiz...

Ularning joniga yosh juvon Guljamol ora kirdi. U o'zining Seydahmadi shaharga tushishga tayyorlanayotganini, pulsiz shaharga borib bo'lmasligini, shu sabbdan pul sarf qilolmasligini sotuvchiga tushuntira ketdi.

Shu tariqa ular ko'chma do'kon oldida ivirsib turishdi-da, sotuvchi aytgandek, «uch pul»ga narsa xarid qilib uylariga tarqalib ketishdi. Shu ham savdo bo'ldimi axir! Sotuvchi jo'nab ketgan ayollarning orqasidan tupurib qolarkan, tezroq rulg'a o'tirib jo'nab ketish uchun qo'qitib tashlangan mollarini yig'ishtira boshladi. Shu payt bolaga ko'zi tushdi.

— Nimaga turibsan, shal pang quloq? — so'radi u. Bolaning quloqlari osilgan, bo'yni ingichka, boshi katta va yum-yumaloq edi. — Biron nima olasanmi? Olsang, tezroq kel, bo'lmasa hozir yopaman. Puling bormi?

Sotuvchi shunchaki o'zi, bekorchilikdan so'radi, lekin bola uzrli javob qildi:

— Yo'q, amaki, pulim yo'q, — deb bosh chayqab qo'ydi.

— Men bo'lsam puling bormi deb o'ylabman, — soxta ishonchsizlik bilan gap qotdi. — Siz bu yerdagilar hammangiz boysizlar, lekin o'zlaringni kambag'alga solib yurasizlar... Cho'ntagingdagi nima u, pul emasmi, axir?

— Yo'q, amaki, — dedi bola oldingidek samimiy va jiddiylik bilan yirtiq cho'ntagini ag'darib ko'rsatarkan (ikkinchisi tikib tashlangandi).

— Demak, pullaring tushib qolibdi-da. Chopgan joylaringni qidir. Topasan. Ular jim qolishdi.

— Kimning bolasisan? — yana so'roqqa tuta boshladi sotuvchi. — Mo'min cholnimi, a?

Bola bosh irg'ab javob qildi.

— Nabirasi bo'lasanmi?

— Ha, — bola yana bosh silkidi.

— Onang qayoqda?

Bola hech nima demadi. Uning bu haqda gapirgisi kelmasdi.

— Onang o'zi haqida hech xabar bermaydimi? O'zing bilmaysanmi?

— Bilmayman.

— Otangni-chi? Uni ham bilmaysanmi?

Bola jim qoldi.

— E, og'ayni, qanaqasan o'zing, hech nimani bilmaysan, — hazilomuz o'pka qildi sotuvchi. — Ha, mayli, agar shunday bo'lsa... Ushla. — U bir siqim konfet uzatdi. — Sog' bo'l.

Bola iymanib turardi.

— Ol, ol. Meni yo'ldan qo'yma. Ketishim kerak. Bola konfetlarini cho'ntakka solib, ko'chma do'konni yo'lga kuzatib qo'yish uchun mashina orqasidan chopishga shaylandi. U o'ta baroq, tanbal ko'ppagi Baltekni yoniga chaqirib oldi. O'razqul hamisha uni otib tashlayman deb do'q qilib yuradi: bunday ko'ppakni boqishning nima keragi bor. Bobosi har doim avval birona ovcharka topish kerak, Baltekni esa biror joyga eltib tashlash lozim, deb sabr qilishni so'raydi. Baltekning qornidan bo'lak tashvishi yo'q. To'ysa — uxlar, och bo'lsa, o'zinikimi, begonami, farq qilmay, duch kelgan kishiga tama bilan suykalanar edi.

Mana shunaqa ko'ppak edi Baltek. Ba'zida zerikkanidan mashina orqasidan chopib qolardi. To'g'ri, uzoqqa bormasdi. Jinday chopgach, orqasiga qaytardi. Dardisar it. Lekin, bari bir, it bilan chopish yolg'iz chopishdan yuz marta ma'qul. Har nima bo'lmasin, it-da.

Bola, sotuvchi ko'rmasin deb, sekingina, Baltekka bitta konfet tashladi. «Bilib qo'y, — ko'ppakni ogohlantirib qo'ydi u, — uzoq chopamiz». Baltek unga osilib, dumini likillatardi: yana umidvor edi. Lekin bolaning boshqa konfet tashlagisi yo'q edi: axir sotuvchini xafa qilib qo'yishi mumkin, u bir siqim konfetni itga bergani yo'q-ku.

Xuddi shu mahal lop etib bobo kelib qoldi. Chol asalari qutilari tomonga ketgandi. U yerdan uylar orqasida nimalar bo'layotgani ko'rinmasdi. Ish o'ngidan keldi, bobo ayni mahalda ko'chma do'kon ketmay turib yetib keldi. Tasodif. Aks holda nabiraga portfel nasib qilmagan bo'lardi. Shu kuni bolaga baxt kulib boqdi.

Ko'pni ko'rgan kishilar kekxa Mo'minni — Mo'min chaqqon deb atashardi. Bu atrofda uni hamma tanirdi, u ham hammani bilardi. U ochiq ko'ngilligi, hatto sal-pal biladigan odamiga ham biron yaxshilik qilishga tayyorligi, har kimning xizmatiga hoziru nozirliigi, hammaga sadoqati va xushmuomalaligi tufayli shunday laqab olgandi. Ammo, tillani tekin tarqatishganda hech kim uchun qadri qolmaganidek, uning jonbozligining qadriga ham hech kim yetmasdi. Uning yoshidagi kishilarga qanday hurmat va izzatda bo'lishmasin, Mo'minga hech kim bunday munosabatda bo'lmasdi. U bilan betakalluf muomala qilishardi. Bug'i avlodining mashhur oqsoqollaridan birortasining ulug' ma'rakalarida — Mo'min bug'i avlodidan bo'lib, bu bilan g'oyatda faxrlanar va o'z qabiladoshlaridan bi-

rortasining ma'rakasidan qolmasdi — unga mol so'ydirishar, martabali mehmonlarni qarshi olib, otdan tushirish, choy uzatishu o'tin yorib, suv keltirishgacha hamma ishni unga topshiraverishardi. Turli tarafdan son-sanoqsiz mehmonlarni kutib olish lozim bo'lgan bunday katta ma'rakalarda ozmuncha tashvish bo'ladi-mi? Mo'minga nima xizmat buyurilmasin, u ana-mana deguncha barini saranjom-sarishta qilar, eng muhimi — boshqalardek bo'yin tovlayvermasdi. Bu tumonat mehmonlarni kutib va ovqatlantirib jo'natishi lozim bo'lgan ovul yoshlari Mo'minning bu ishlarni qanday joyiga qo'yayotganini ko'rib qoyil qolishardi:

— Mo'min chaqqon bo'lmasa, biz nima qilardik-a?

Ba'zida esa, o'z nabirasi bilan uzoqdan kelgan chol choyxonachi yigitga qarashib ketardi. Mo'minning o'rnida boshqa odam bo'lganda bu ishni haqorat deb bilardi, lekin Mo'min parvo ham qilmaydi.

Keksa Mo'min chaqqonning mehmonlarga yelib-yugurib xizmat qilishi hech kimni ajablantirmas — shuning uchun ham o'z nomi bilan Mo'min chaqqon-da. Mo'min chaqqon bo'lishiga o'zi sababchi. Agar chet odamlardan birontasi ajablani, — hey qariya, nega xotinlarga dastyorlik qilib yuribsan, bu ovulda yosh yigitlar qurib ketganmi, — deb qolguday bo'lsa, Mo'min shunday javob qilardi:

— Marhum mening og'am edi (u bug'i avlodining hammasini o'z og'asi sanardi. Lekin boshqa mehmonlar uchun ham ular yot emas, «og'a» edi). Ularning ma'rakasida men xizmat qilmasam kim xizmat qiladi? Biz, bug'i avlodi, bosh onamiz — Shoxdor ona bug'idan tarqalganimizdan buyon ana shundaymiz. Karomatli Shoxdor ona bug'i esa, bizga tirikda ham, o'likda ham do'stlikni vasiyat qilib qoldirgan.

Mo'min chaqqon mana shunaqa odam edi!

Keksa ham, yosh ham uni «san»lab gapirar, qaltis hazil ham qilaverishardi — chol beozor edi, u bilan hisoblashmasa ham bo'laverardi — chol bezabon edi. O'z hurmatini talab qilishning uddasidan chiqmagan kishini odamlar oyoq osti qilaveradi, deb bekorga aytishmagan-da. U shuning uddasidan chiqmasdi.

Uning qo'li gul edi. Duradgorlik, egarchilik qilardi, yoshligidanoq pichan g'aramlashning ustasi edi, kolxoz uchun shunday g'aramlar yasardiki, qishda ularnn buzishga ko'z qiymasdi: yomg'ir uning ustidan xuddi g'ozning patida sirg'angandek silliq tushar, qor esa tomning ikki nishabiga tushgandek tushib ketardi. Urushda mehnat frontida Magnitogorskdagı zavodlarning g'ishtini terdi, staxanovchi bo'lib shuhrat qozondi. Qaytib kelgach, qorovulxonada yog'och uy qurdi, o'rmonchilik bilan mashg'ul bo'ldi. Yordamchi ishchi bo'lib hisoblan-



sa ham, aslida, o'rmonga ko'z-quloq edi, uning kuyovi O'razqulning esa umri ko'pincha mehmondorchilik bilan o'tardi. Boshliqlar bostirib keldimi, bas, O'razqull ularni darhol o'rmonga boshlar, ov uyushtirar, xullas, hamma narsaga mutasaddilik qilardi... Mollarga ham Mo'min qarar, asalarilar ham uning bo'ynida edi. Mo'minning butun umri, erta tongdan qora kechgacha ishda, tashvishda o'tdi, lekin hurmat talab qilishni o'rganolmadi.

Mo'minning tashqi ko'rinishi ham mo'ysafid keksalarga o'xshamasdi. Sipogarchiligi ham, jiddiyligi, badjahlligi ham yo'q. Oq ko'ngil edi u. Uning qadr topmaydigan bu insoniy xususiyatini bir qarashdayoq payqab olsa bo'lardi. Bunday qismat hamisha unga: «Oq ko'ngil bo'lma, yovuz bo'! Mana senga oqibat! Yovuz bo'!» deb ta'kidlab kelsa ham, u o'z xushfe'lligini tashlamaydi. Uning yuzlari kulimsirab turar, ajinlari qat-qat edi. Ko'zlari esa har doim: «Nima istaysan? Biror og'iringni yengil qilaymi? Men tayyorman, faqat aytasang bas, nimaga muhtojсан?» — degandek mo'ltirab turardi.

Burni ham yumshoq, o'rdaknikiday yalpoq, bamisoli kemirchagi yo'qday. Bo'yi ham ko'p baland emas, o'smirlarday chaqqongina chol. Soqol nima degan gap — shu ham nasib qilmagandi. Qip-qizil ko'sa. Yaydoq iyagida ikki-uchtagina sariq tuk bor, xolos. Bor-yo'q soqol shu.

Bot-bot yo'lda basavlat cholg'a duch kelasanu soqoli ko'ksiga tushgan, kengmo'l po'stinining yoqasiga serbar barra qorejagan, boshida qimmatbaho telpak, ostida egarlari kumushdan arg'umoq — bir qarasang donishmand, bir qarasang payg'ambar, bunday kishiga ta'zim qilgani hech tortinmaysan, bunday kishi hamma joyda izzatda! Mo'min esa, faqat Mo'min chaqqon bo'lib tug'ilgan. Ehtimol, uning yolg'iz ustunligi shunda ediki, u qanday o'tirdim, bilib gapirdimmi, qanday javob qildim, qanday kulimsiradim deb tashvishlanmas, birovlarining oldida obro'si to'kilishidan cho'chimasdi. Mo'min mana shu ma'noda, o'zi sezmag'an holda, kamdan-kam uchraydigan baxtli odam edi. Ko'p odamlarni kasallik emas, o'z nazdida o'zini o'zligidan kattaroq qo'yishdek xudbinlik, alamzadalik balosi kemirib ado qiladi. (Dono, boobro', xushro'y, buning ustiga qattiqqo'l, adolatli va jasur degan nom chiqarishni kim istamaydi?..)

Mo'min esa, bunday emasdi. U afandi fe'l edi va unga afandiga muomala qilgandek muomala qilishardi.

Faqat bir narsa Mo'minni qattiq xafa qilishi mumkin edi: birontasining ma'arakasini o'tkazish uchun qarindoshlar to'planadigan kengashga uni chaqirishni unutilib qo'yishsa... U qattiq ranjir va buni unutilmay azob chekardi, gap — uni

chetlab o'tganlarida emas, u kengashda bari bir hech nimani hal qilmas, faqat qatnashardi, xolos. Buning boisi qadimiy urf-odatning poymol bo'lgani edi.

Mo'minning o'z tashvishlari bor, u bularning azobini tortardi, oqshomlarni ko'z yoshi bilan o'tkazardi. Begonalar bundan deyarli xabarsiz. Yaqin kishilari esa, bilishardi.

Mo'min nabirasini ko'chma do'kon oldida ko'rgandayoq uning nimadandir xafa ekanligini darhol fahmladi. Sotuvchi musofir bo'lgani uchun chol dastlab u bilan so'rashdi. Egardan tezgina sakrab tushib, darhol ikki qo'lini sotuvchiga uzatdi:

— Assalomu alaykum, katta savdogar! — dedi u yarim hazil, yarim chin. — Karvoning omon-eson yetib keldimi, savdo-sotig'ing yaxshi bo'lyaptimi? — Mo'min ochiq ko'ngillik bilan sotuvchining qo'llarini silkitdi. — Qancha suvlar oqib o'tdi ko'rishmaganimizdan beri. Xush ko'rdik!

Sotuvchi uning so'zlari va ko'rimsiz kiyim-boshi ustidan takabburona kulib qo'ydi — o'sha-o'sha beso'naqay kirza etik, kampir tikkan bo'z ishton, titilib ketgan kamzul, yomg'ir va o'tobda sarg'ayib ketgan kigiz qalpoq. Sotuvchi Mo'min-ga javob qildi:

— Karvon but. Faqat shunisi chatoqki, savdogar bu yoqqa kelganda, dumingizni tutqazmaysiz, o'rmonga, qirga qochasiz. Xotinlaringizga bir tiyinni o'n joyidan tugib saqlab qo'yishni tayinlaysiz. Bu yerda molni uyub tashlasang ham biron kishi bir tiyin chiqargisi kelmaydi.

— Aybga qo'shma, qadrdon, — xijolatomuz kechirim so'radi Mo'min. — Sening kelishingni bilganimizda, ketmasdik. Pulni aytadigan bo'lsang, yo'qni yo'ndirib bo'lmaydi. Mana kuzda kartoshkalarni sotamiz...

— Gapir-a, — uning so'zini bo'ldi sotuvchi. — Siz qurumsoq boylarni yaxshi bilaman. Tog'da yashaysiz, yer, pichan istaganingcha. Chor atrofiging o'rmon — uch kunda aylanib chiqolmaysan. Moling bormi? Asalaring bormi? Hammasi bor. Bir tiyin ustida esa azon aytasan. Mana, xarid qil, shoyi ko'rpa, tikuv mashinasidan bitta qoldi...

— Xudo haqqi, bunaqa pul yo'q menda, — o'zini oqladi Mo'min.

— Shu gaplarimga ishonadi deb o'ylaysanmi? Qurumsoq chol, pul yig'asan. Xo'sh, qayerga olib ketasan?

— Xudo haqqi, yo'q, Shoxdor ona bug'i haqqiga qasam ichaman!

— Hay, mayli, chiy baxmal ol, yangi shim tikdirib olasan.

— Olgan bo'lardim, Shoxdor ona bug'i haqqi...

— E-e, sen bilan tortishib o'tirishdan foyda yo'q, — sotuvchi qo'l siltadi. — Bekor kelibman. O'razqul qayoqda?

— Ertalab barvaqt Oqsoyga ketgandi. Cho'ponlarda ishi bor...

— Mehmondorchilikda yurgan chiqar, — o'zicha tushungan bo'ldi sotuvchi.

Noqulay jimlik cho'kdi.

— Sen xafa bo'lmagin, chirog'im, — yana gap boshladi Mo'min. — Kuzda, xudo xohlasa, kartoshkani sotamiz...

— Kuzgacha uzoq.

— Bunday bo'lsa, kechirgin. Xudo xayringni bersin, uyga kir, choy ichib ketasan.

— Choy ichgani kelganim yo'q, — rad etdi sotuvchi.

U furgonning eshikchasini yopib turib, cholning yonida ko'ppagingning qu-log'idan ushlab mashina orqasidan chopishga shay bo'lib turgan bolaga ko'zi tushdi-da, dedi:

— Hech bo'lmasa portfel olgin. Bola hademay maktabga borar, albatta? Yoshi nechida?

Mo'minga bu maslahat ma'qul tushdi: hafsalasi pir bo'lgan sotuvchidan nima-dir xarid qilishi shart edi, qolaversa, nabirasiga chindan ham portfel kerak, bu yil kuzda maktabga boradi.

— To'g'ri aytasan, — bezovtalanib qoldi Mo'min, — mening xayolimda ham yo'q edi. Bo'lmasa-chi, yetti-sakkizga chiqdi. Qani, bu yoqqa kel, — nabirasini chaqirdi u.

Bobo cho'ntagini kovlashtirib, yashirib yurgan besh so'mlikni chiqardi. Ko'pdan beri yonida yurgan bo'lsa kerak, g'ijimlanib ketibdi.

— Ushla, shalpanq quloq, — sotuvchi bolaga ayyorona ko'z qisib portfelni uzatdi. — Endi o'qishni qotirgin. Xat-savodingni chiqarmasang, bobong bilan mana shu tog'larda abadiy qolib ketasan.

— O'qiydi! Uning zehni o'tkir, — qaytimni sanarkan, javob qildi Mo'min. Keyin yangi portfelni avaylab ushlab turgan nabirasiga ko'z yugurtirdi-da, uni bag'riga bosdi. — Mana, yaxshi bo'ldi. Kuzda maktabga borasan, — deb qo'ydi sekingina.

Bobosi qadoq qo'lini bolaning boshiga mayingina qo'ydi. Shu dam bolaning tomog'iga nimadir tiqilganday bo'ldi va qotma bobosi kiyimlarining o'ziga tanish hidi dimog'iga urildi. Undan quruq pichan va mehnatkash kishining ter hidi kelardi. Sadoqatli, ishonchli, mo'ttabar kishi u. Ehtimol, yer yuzida bolani jon-dilidan yaxshi ko'radigan, aqllilik balosiga uchragan kishi — Mo'min chaqqon

deb atalgan bu chol shunday sodda, afandi fe'l edi... Xo'p, nimasi yomon buni? Har nima bo'lmasin, o'z bobong bo'lgani yaxshi.

Cheksiz quvonchga to'lishini bola xayoliga ham keltirmagandi. Shu paytgacha maktab haqida o'ylab ko'rmagandi. Shu paytgacha faqat bobosi bilan bug'i avlodidan mashhur keksalarning ma'rakasiga borganida — tog'lar ortidagi Issiqko'lda qishloqlaridan maktabga qatnagan bolalarni ko'rgandi.

Bola shu ondan boshlab portfeldan ayrilmay qoldi. Shodligidan terisiga sig'may, maqtanib qorovulxonaning butun hovlisini aylanib chiqdi. Avval buvisiga ko'rsatdi. Mana, bobom olib berdi! Keyin Bekey xolasiga ko'rsatdi. U ham portfelni ko'rib xursand bo'ldi va bolani maqtab qo'ydi.

Bekey xolaning xushnud damlari kamdan-kam bo'lardi. Ko'pincha g'amgin va tajang yurar, jiyaniga e'tibor ham qilmasdi. Bunga vaqti ham bo'lmasdi. Uning o'z dardi bor. Buvisi, farzandi bo'lganda butunlay o'zgacha yurardi, derdi. Eri, O'razqul ham, Mo'min bobo ham hozirgiday emas, balki boshqacha odam qiyofasida yurgan bo'lardi. Uning ikkita qizi — Bekey xola va bolaning onasi — bo'lsa-da, baribir, cholga og'ir edi; o'z bolang bo'lmasa — bir balo, bolangda bola bo'lmasa — ming balo. Buvisi shunday deb zorlanadi. Kim bilsin...

Bola Bekey xolasidan so'ng olgan narsasini ko'rsatish uchun yoshgina Guljamol bilan uning qizchasi oldiga yugurdi. Bu yerdan esa pichan o'rayotgan Seydahmad oldiga tushib ketdi. Jigar rang «tuya» oldidan chopib o'tarkan, uning o'rkachlariga urib qo'yishga ham vaqti bo'lmadi, «egar» yonidan, «bo'ri» va «tank» yonidan o'tib, keyin qirg'oq bo'ylab yugurib borardi. Yopishqoq butazor orasidagi so'qmoq yo'ldan chopib o'tdi. So'ngra esa o'tloqdagi uzun yo'lakdan Seydahmadning oldigacha chopqillab keldi.

Bugun bu yerda Seydahmadning yolg'iz o'zi edi. Bobo allaqachon o'zining tegishini, bir yo'la O'razqulning ham tegishini o'rib qo'ygandi. Pichanni ham allaqachon tashib bo'lishdi — buvisi bilan Bekey xola tashib turdi, bobosi bosaverdi, u esa bobosiga yordamlashdi. Molxonaning oldiga ikkita g'aram uyishdi. Bobosi ularni shunday ixcham bosdiki, bir tomchi yomg'ir ham o'tmasdi. G'aramlar xuddi taroq bilan tarab qo'yilgandek silliq edi. Har yili shu. O'razqul pichanga qo'lini urmaydi, hammasi qaynotasining bo'ynida — har holda u amaldor. — Istasam, — deydi u, — senlarni bir zumda ishdan haydab yuboraman. — U bobo bilan Seydahmadga shunday do'q qilardi. Bu ham mastlikning kasofati. Boboni haydab bo'пти. Unda kim ishlaydi? Bobosiz ishlab ko'rsin-chi! O'rmonda ish oshib-toshib yotibdi, ayniqsa, kuzda. Bobom aytadiki, o'rmon qo'y suruvi emas, tarqalib ketmaydi, lekin tashvishi undan oz emas.

Shunga ko'ra o't tushsa yoki tog'dan sel quyilsa bormi — daraxt bir yoqqa sakray olmaydi, joyidan qo'zg'almaydi, turgan joyida nobud bo'laveradi. Kimki daraxtlarni asrab qololsa, o'sha haqiqiy o'rmonchi bo'la oladi. O'razqul Seydahmadni haydab bo'пти, unday yuvosh odam bormi. Hech nimaga aralashmaydi, talashib-tortishmaydi. Biroq Seydahmad har qancha yuvosh, baquvvat yigit bo'lmasin, yalqov, uyquni yaxshi ko'radi. O'rmonchilikka ham shu vajdan kelib qolgan. Bobo, bunday yigitlar sovxozda mashina quvib, traktorda yer ag'darib yurishibdi, deb kuyinadi. Seydahmad esa tomorqasidagi kartoshkani sho'ra bostirib yubordi. Guljamolning bir o'zi qo'lda bolasi bilan tomorqada ishlashiga to'g'ri keldi.

Seydahmad pichan o'rimini ham kechiktirib yubordi. Bobo hatto o'tgan kuni uni koyib berdi. «O'tgan qishda, — dedi u, — senga emas, mollarga ichim achidi. Shuning uchun pichan berdim. Agar yana men keksa cholning pichaniga ko'z tikadigan bo'lsang, hoziroq ayta qol, sen uchun ham o'rishga tayyorman».

Gap ta'sir qildi, Seydahmad bugun ertalabdan o'rimga tushib ketdi.

Orqadan kelayotgan qadam tovushini eshitib, Seydahmad qayrildi, ko'yilgining yengi bilan yuzini artdi.

— Nimaga kelyapsan? Meni chaqirishyaptimi?

— Yo'q. Portfel oldim. Mana. Bobom olib berdi. Men maktabga boraman.

— Shunga shunchalik chopib keldingmi? — Seydahmad xaxolab kuldi. — Mo'min boboning esi kirarli-chiqarli bo'lib qolgan, — u barmog'ini chakkasiga bosib aylantirdi, — sen ham shunaqa chog'i! Qani, qanaqa portfel? — U qulfchasini shiqillatib, portfelni u qo'lidan bu qo'lga oldi-da, kallasini liqillatganancha kulimsirab qaytarib berdi. — To'xta, — xitob qildi u, — sen qaysi maktabga ham borarding? Qayerda senga maktab tayyor turibdi?

— Qayerda bo'lardi? Fermadagi-da.

— Jilisoyga qatnamoqchimisan? — hayratlandi Seydahmad. — Axir u yoqqa tog' osha besh kilometrcha yurish kerak, bundan kam emas.

— Bobom, otda olib borib kelaman, — dedi.

— Har kuni u yoqqa borib, bu yoqqa kelarkanmi? Esini yebdi chol. Uning o'zini ham o'qitish kerak. Sen bilan bir partaga o'tiradi, dars tugadimi — qaytaveradi! — Seydahmad Mo'min boboni nabirasi bilan bir partada o'tirishini ko'z oldiga keltirib qotib-qotib kuldi.

Bola o'yligacha tolib jim qoldi.

— Ha, men buni shunchaki kulgu uchun aytayapmanda! — tushuntirdi Seydahmad.

U bolaning burniga og'ritmaygina chertib, boshidagi bobosining furajkasini tortib, qoshi ustiga bostirib qo'ydi. Mo'min o'rmon mahkamasining odatdagi furajkasini kiyishga or qilardi («Nima, men biron-bir boshliqmanmi? Men o'zimning qirg'iz qalpog'imni boshqa hech qanaqasiga almashmayman»). Yozda ham Mo'minning boshida qora sidirg'a satin bilan hoshiyalangan yo'l-yo'l oq qalpoq — almisoqdan qolgan eski kigiz qalpoq, qishda ham shunday daqqiyunusdan qolgan teri taqiya bo'lardi. O'rmon ishchilarining odatdagi yashil furajkasini u nabirasiga berardi.

Seydahmadning yangilikni masxaraomuz qarshi olishi bolaga yoqmasdi. U xo'mrayib furajkasining soyabonini manglayi ustiga ko'tardi va Seydahmad yana burniga chertmoqchi bo'lganda boshini burib g'ijindi:

— Tegishma!

— Obbo sen-e, jahling tez ekan-ku! — miyig'ida kuldi Seydahmad. — Ha, sen xafa bo'lmay qo'ya qol. Portfeling ajoyib. — Keyin uning yelkasiga qoqib qo'ydi. — Endi tuyog'ingni shiqillat. Hali men ancha-muncha o'rishim kerak...

Seydahmad kaftiga tufladi-da, yana o'rishga tushib ketdi.

Bola esa yana chopganicha o'sha so'qmoqdan, yana o'sha toshlar yonidan uyga qaytdi. Toshlar bilan ovunishga hali-beri vaqti yo'q edi. Portfel — jiddiy narsa.

Bola o'z-o'zi bilan so'zlashishni yaxshi ko'rardi. Lekin bu safar o'ziga emas, portfeliga so'z qotdi: «Sen uning gapiga ishonma, bobom unaqa emas. Uning sira shumligi yo'q, shuning uchun ham undan kulishgani-kulishgan. Chunki, quvlik-shumlikni bilmaydi. U biz ikkalamizni maktabga olib borib yuradi. Sen hali maktab qayerdaligini bilmaysan-a? U unchalik uzoq emas. Men senga uning qayerda ekanligini ko'rsataman. Biz unga Qorovultog'dan durbinda qaraymiz. Men yana senga oq kemani ko'rsataman. Faqat biz avval molxonaga kirib chiqamiz. U yerda durbinimni yashirib qo'yanman. Men unda buzoqchamni kuzatib turishim kerak, lekin men har kuni oq kemani ko'rishga chopaman. Buzog'imiz katta bo'lib qoldi, tortib ketsa to'xtatolmaysan, sigirni emib qo'yadigan odat chiqardi. Sigir uning onasi, sutini undan ayarmidi. Tushundingmi? Onalar hech qachon hech nimani ayashmaydi. Mana, Guljamol shunday deydi, uning qizchasi bor... Tezda sigirni sog'ib bo'lishadi, keyin biz buzoqni yaylovga haydaymiz. O'shanda biz Qorovultoqqa chiqamiz-da, tog'dan turib oq kemani ko'ramiz. Men axir durbin bilan ham xuddi ana shunday gaplashaman. Endi biz uchtamiz — men, sen va durbin...

U shu zaylda uyga qaytdi. Portfel bilan gaplashish unga juda yoqib qoldi. U bu suhbatni davom ettirib, hali portfeliga noma'lum bo'lgan o'zi haqidagi voqealar-

dan soʻzlab bergisi kelib turganda, unga xalaqit berishdi. Yon tomonda otning dupur-dupuri eshitilib qoldi. Qishloq tarafdin boʻz otliq kelardi. Bu Oʻrazqul. U ham uyga qaytayotibdi. Uning oʻzidan boshqa hech kimga minishga ruxsat etmaydigan Olabosh boʻz otiga toʻy-hashamlarda uriladigan mis uzangili egar urilgan, koʻkrak qayishlari tortilib, qoʻngʻiroqli popukchalar osilgandi.

Oʻrazqulning qalpogʻi ensasiga surilib tushib, soch qoplagan bir enli qizil, past manglayi ochilib qolgan. Issiq elitgan uni. Tuman rahbarlari kiyadigan nusxadagi uncha kelishtirib tikilmagan chiy baxmal kitelining tugmalari boshdan-oxirigacha yechilib ketgandi. Oq koʻylagi kamari tagidan chiqib yotardi. Qorni toʻq, kayfi baland. Bundan sal oldin mehmonda oʻtirib, qimizga toʻygan, burnidan chiqquncha goʻsht yegan edi.

Yon-atrofidagi choʻponlar va yilqichilar yozda yaylovga kelishlari bilanoq Oʻrazqulni tez-tez mehmonga chaqirishardi. Uning eski oshna-ogʻaynilari bor edi. Lekin bu takliflar tama bilan qilinardi. Oʻrazqul kerakli odam. Ayniqsa, togʻda yashab uy qurmoqchi boʻlganlar uchun u judayam kerak: molni tashlab biron yerga ketolmaysan, qurilish materiallarini qayerdan qidirasan, birinchi navbatda oʻrmonga kelishga majbursan. Oʻrazqulning koʻnglini topsang, qarabsanki, daraxt kesish taqiqlangan oʻrmondan ikkita-uchta yogʻochni tanlab olib ketasan-da.

Aks holda, togʻda bir umr molning orqasidan sarson-sargardon boʻlib yurave-rasan, uy qurishing ham bir umr choʻziladi...

Lohas boʻlgan, karaxt Oʻrazqul xrom etigining uchini uzangiga ehtiyotsiz tirab, egarda mudrab borardi.

Bola qoʻlidagi portfelini silkitib roʻparasidan chopqillab chiqib qolganda, bu tasodifdan uning otdan uchib ketishiga sal qoldi.

— Oʻrazqul amaki, portfelimni koʻring! Men maktabga boraman. Mana mening portfelim!

— Obbo falokat-e! — Oʻrazqul seskanib jilovni tortarkan, koyiy boshladi.

U bolaga uyqu aralash qizargan, shishgan, shirakayf koʻzlarini tikdi:

— Nima qilib yuribsan, qayoqdan kelyapsan?

— Uyga ketyapman. Portfelimga qarang, uni Seydahmadga koʻrsatib kelyapman, — dedi bola mingʻirlab.

— Mayli, oʻynayver, — toʻngʻilladi Oʻrazqul va egarda omonatgina tebranib yoʻlida davom etdi. U oʻz taqdiridan ranjib yurgan, xudo uni farzand dogʻida kuydirib, boshqalarga saxiylik bilan besh-oʻntalab bola berib qoʻygan bir payt-

da, bu ahmoqona portfelu ota-onasi tashlab ketgan, xotiniga jiyani bo'lmish bu bola bilan qanchalik ishi bor...

O'razqul pishillab, xo'rsinib qo'ydi. Afsus-nadomat va qahr u g'azabdan u bo'g'ilib borardi. U ich-ichidan ezilardi, negaki umri zoye o'tyapti, shularni o'ylaganda, befarzand xotiniga nisbatan g'azabi qaynab-toshardi. Buning bariga o'sha la'nati xotini aybdor, mana bir necha yildirki tug'mayapti...

«Shoshmay tur hali!» — O'razqul go'shtdor mushklarini siqib xayolan do'q urdi va ho'ngrab yig'lab yuborishdan o'zini arang tutib qoldi. U uyga yetishi bilan xotinini tutib urishni bilardi. O'razqul mast bo'lganda hamisha shunday qilardi; bu ho'kiz tabiat erkak g'am va jahldan aqlini yo'qotib qo'yardi...

Bola so'qmoqdan izma-iz bora turib, oldinda birdan O'razqulning g'oyib bo'lganiga hayron qoldi. O'razqul esa daryo tomon burilib, otdan tushdi-da, jilovni tashlab, o'siq o'tlarni bosib-yanchqilagancha pastga tushib ketdi. U chayqalib va bukilib, yuzlarini qo'llari bilan siqqanicha, boshini yelkalariga ichiga tortib borardi. O'razqul qirg'oq bo'yida cho'nqayib o'tirib oldi. Daryodan hovuchlab suv olib yuziga sepa boshladi.

«Balki, issiqdan boshi og'rigandir», — O'razqulning qilayotgan harakatidan shunday xulosaga keldi bola. O'razqulning yig'layotganini va hech o'pkasini bosib ololmayotganini u bilmasdi. U shuning uchun yig'ladiki, unga peshvoz chiqqan bola uning o'g'li emas, shuning uchun yig'ladiki, portfelli bu bolaga hech bo'lmaganda bir og'iz shirin so'z aytish uchun o'zida kuch topolmadi.

## II

**O**rovultog' cho'qqisidan hamma yoq yaqqol ko'rinib turardi. Bola qorni bilan yotib olib durbinni ko'ziga to'g'riladi. Bu o'tkir dasht durbini edi. Qachonlardir boboga qorovulxonadagi uzoq yillik xizmatlari uchun mukofotga berishgandi. Chol durbinni olib yurishni yoqtirmasdi. «O'zimning ko'zlarim undan qolishmaydi», derdi. Biroq durbin nabirasiga yoqib qoldi.

Bu safar u toqqa durbin va portfel bilan birga keldi. Boshda hamma narsa yumaloq oynachada sakrab aralashib ketaverdi, keyin birdan tiniqlik va To'rg'aylik kasb etdi. Mana shunisi hammasidan zavqli edi. Bola topilgan fokusni buzib qo'ymaslik uchun nafasini ichiga yutar, manzaralarni go'yo o'zi yaratayotgandek mahliyo boqardi. Keyin u nigohini boshqa nuqtaga ti-



kdi, yana hamma narsa aralashib ketdi, tiniqlik yo'qoldi. Bola yana okulyarni aylantirishga tushdi.

Bu yerdan atrofdagi hamma narsa, hatto osmono'par yuksak qorli cho'qqilar ham ko'rinib turardi. Ular hamma tog'larning ortida, hamma tog'lardan baland, butun yer uzra yuksaklikka bo'y cho'zgandi. Qorli cho'qqilar poyidagi o'rmonzor tog'lar, pastroqdagi serbarg butazorlar, yuqorida qalin qarag'ayzorlar bilan burkangan tog'lar ham ko'rinib turardi. Kunga qaragan Kungay tog'i ham shunday edi; Kungayning pastki tomonlarida o'tdan bo'lak hech nima o'smasdi. Tog'ning ko'lga qaragan tomonidan yanada pastroq tushilganda nuqul mayda toshlar ko'chmasiga duch kelinardi. Bu ko'chmalar vodiya quyilib tushgan, vodiya esa, ko'l bilan tutashib ketgandi. Bu tarafda dalalar, bog'lar, qishloqlar yastanib yotardi... Yam-yashil ekinzorlarning u yer-bu yeri sarg'ish tus olgan, o'rim payti yaqilashyapti. Yo'llarda zig'irday ko'rinayotgan mashinalar xuddi sichqonlardek g'izillar, ular orqasidan uzun dum — chang-to'zon ko'tarilardi. Dalaning arang ko'z ilg'ab oladigan uzoq chekkasida, qumloqdan tasma tortgan qirg'oq ortida ulkan ko'l to'q samoviy rangda tovlanardi. Bu Issiqko'l. U yerda suv bilan osmon bir-biriga tutashib turardi. Undan narida hech nima yo'q. Ko'l harakatsiz, shu'lador, kimsasiz. Faqat qirg'oqqa urilayotgan to'lqinlarning oppoq ko'pigini arang ilg'ab olish mumkin.

Bola o'sha tomonga uzoq qarab turdi. «Oq kema hali ko'rinmayapti, — dedi u portfelga. — Kel, yana bir marta maktabimizga qaraylik».

Bu yerdan tog'ning ortidagi qo'shni pasttekislik ravshan ko'rinardi. Hatto durbinda uy oldidagi deraza ostida o'tirib olib, qo'lda kalava yigirayotgan kampirgacha kuzatsa bo'lardi.

Jilisoy bag'ri daraxtsiz, faqat onda-sonda qirqilmay qolgan, yakkam-dukkam qarag'aylar o'sib yotardi. Qachonlardir bu yerlar o'rmonzor bo'lgan. Endi usti shifer bilan yopilgan qator molxonalar turar, katta qoramtir go'ng va somon uyumlari ko'zga tashlanardi. Bu yerda sut fermasining zotdor buzoqlarini saqlashar va boqishardi. Molxonalardan uncha uzoq bo'lmagan joyda bir parchagina qishloq — chorvadorlar posyolkasi joylashgandi. Qishloqcha tepalikdan pastga tomon cho'zilib tushgan edi. Qishloqning eng chekkasida, ko'rinishdan turar joyni eslatmaydigan kichkinagina uy turardi. To'rt yillik maktab mana shu edi. Yuqori sinflarning o'quvchilari sovxozga, maktab-internatga qatnashardi. Bu yerda esa kichkintoylar o'qishardi.

Bola tomog'i og'riganda bobosi bilan shu posyolkadagi feldsher huzuriga kelgandi. Endi u kulrang cherepitsa bilan yopilgan, yolg'iz trubasi qiyshayib tur-

gan, qo'lda yasalgan taxta-lavhada: «Mektep» deb yozib qo'yilgan kichkinagina maktabga durbindan uzoq tikilib turdi. U o'qiy olmasa-da, xuddi shu so'z yozilganini faraz qildi. Durbindan hamma mayda-chuyda narsalar aniq-taniq ko'rinib turardi. Devor suvog'iga tirnab yozilgan allaqanday so'zlar va deraza romlariga yelimlab yopishtirilgan oynalar, ayvonning g'adir-budur taxtalari ko'zga chalinar edi. U qo'lda portfeli bilan bu yerga kelishni va hozir kattakon qulf osig'lik turgan anovi eshik ostonasidan qanday hatlab o'tishini tasavvur qilib ko'rdi. O'sha eshik orqasida nima bor, nima bo'ladi?

Bola maktabni tomosha qilib bo'lgach, durbinni yana ko'lga to'g'riladi. Lekin u yerda hamma narsa ilgari gidek edi. Oq kema hali ko'ringancha yo'q. Bola teskari o'girildi-da, durbinni bir chetga qo'yib, pastga, tog' tubiga qaray boshladi. Pastda, shundoq tog'ning tagida cho'zinchoq pastqamlik bo'ylab jo'shqin, serostona daryo kumushdek tovlanib oqardi. Qirg'oqdan daryo bo'ylab yo'l ketgan va u daryo bilan birga qoya burilishida ko'zdan g'oyib bo'ladi. Ro'para-dagi qirg'oq jarlik va o'rmonzor edi. Naq tog'lar tepasidagi qorlargacha cho'zilib ketuvchi noyob San-Tosh o'rmonzori mana shu yerdan boshlanardi Eng tepada qarag'aylar o'sardi. Ular toshlar va qorlar orasida tog' tizmalarining qirrasidagi qoramtir taroqlardek dikkayib turardi.

Bola uylarga, bostirmalarga, qorovulxona hovlisidagi qurilishlarga masxaralomuz qarab chiqdi. Ular yuqoridan kichkina va omonat ko'rinardi. Qorovulxonadan nariroqda, qirg'oq bo'yida u o'zining tanish toshlarini topdi. «Tuya», «bo'ri», «egar», «tank» — hammasi joyida, ularning hammasini birinchi marta durbinda mana shu yerdan, Qorovultog'dan turib kuzatgan, o'shanda ularga ot qo'ygandi-da.

Bola miyig'ida kulib o'rnidan turdi va uylar tomonga tosh yumalatdi. Tosh shu yerning o'zida, tog'ning ustidayoq qola qoldi. Bola yana joyiga o'tirdi-da, durbindan qorovulxonaga qaray boshladi. Avval linzalarning kattasidan kichigi tomonga tutib qaray boshladi — uylar uzoq-uzoqlarga siljib, o'yinchoq qutichalarga aylanib qoldi. Xarsanglar kichkina toshchalar holiga keldi. Daryoning' qirg'oqqa yaqin yerdagi sayoz joyida bobosi qilgan ko'lob esa, kulgili, chumchuqning inicha kelardi. Bola bosh chayqab kulimsiradi-da, durbinni tez aylantirib, okulyarni to'g'rilay boshladi. Uning ulkan shaklga kengaygan suyukli xarsang toshlari durbinning oynalariga manglayini tirab turganday tuyuldi. «Tuya», «bo'ri», «egar», «tank» kemtik yoriqlari, yon-veridagi sarg'aygan otquloqlari bilan juda haybatli va eng muhimi, ular haqiqatan ham bola atagan narsalarga juda o'xshardi. «Eh, sen qanday zo'r «bo'ri»san! «Tank»ni qara, dahshatli!..»

Xarsang toshlar ortidagi sayozlikdan bobo ko'lob qilgandi. Durbindan qirg'oqdagi mana shu joy yaqqol ko'rinib turardi. Shitob bilan oqqan suv bu yerdan, keng toshloq sayozlikdan qiyalab o'tar va toshlar ustidan ko'pirib o'tardi-da, yana shiddatli oqimga kelib qo'shilib ketardi. Sayozlikdagi suv tizzadan kelar, lekin oqimi shunchalik kuchli ediki, bolalarni daryoga oqizib ketishi hech gap emasdi. Oqim surib ketmasligi uchun bola qirg'oq bo'yidagi tolning shoxini ushlab olardi. Tol butalari ayni qirg'oqning chekkasida o'sib chiqqan bo'lib, bir shoxi yerda, bir shoxi suvda, naq suvga botib turardi. Buning nimasi cho'milish? Bog'lab qo'yilgan otdan farqi yo'q. Buning ustiga yana qancha dilsiyohlik, so'kish eshitishlar! Buvisi bobosiga uqtirardi:

«Daryoga oqib ketsa o'zidan ko'rsin — qo'limni cho'zmayman. Endi shunisi yetmay turgan edi. O'z ota-onasi tashlab ketdi. Menga boshqa tashvishlar ham yetib ortadi, majolim yo'q»,

Unga nima deb bo'ladi? Kampir bir hisobda to'g'ri gapirayotir. Lekin bolaga ham rahming keladi-da: daryo yonginasida, naq eshigining ostida. Kampir qancha qo'rqitmasin, bola bari bir suvga tushaverdi. Mana shundan keyin Mo'min chol bola bexatar cho'milsin deb sayozlikda toshlardan ko'lob qilishga qaror qildi.

Mo'min chol oqim yumalatib ketmasligi uchun qanchadan-qancha katta toshlarni tanlab ko'tarib keldi. Ularni qorniga qo'yib tashidi, toshlar orasidan suvning bemalol o'tib turishini hisobga olgan holda ularni suvning ichida tik turib, shunday taxlab terdiki, suv haqiqatan ham bemalol oqadigan bo'ldi. Siyrak soqolli qotma chol ho'l ishtonlari badaniga yopishgan, kulgili holda kun bo'yi shu to'siq bilan ovora bo'ldi. Kechqurun esa zo'riqib yo'taldi, belini ololmay qoldi. Shunda buvisi javrab berdi:

— Kichkina ahmoq-ku — o'z oti bilan kichkina, katta ahmoqqa kim qo'yibdi bu ishlarni? Namuncha jon kuydirmasang? Yedirasan, ichirasan, yana nima kerak? Buncha erkalatmasang. Eh, bu yaxshilikka olib bormaydi...

Nima bo'lmasin, sayozlikda ajoyib ko'lob paydo bo'ldi. Endi bola hech qo'rqmasdan cho'milardi. Shoxchadan ushlaganicha qirg'oqdan pastga tushar va oqimga o'zini otardi, otganda ham hamisha suvga ko'zini ochgan ko'yi tushardi. Shuning uchun ko'zini ochiq tutardiki, baliqlar ochiq ko'z bilan suzib yuradi-da. Uning g'alati orzusi bor: u baliqqa aylanib qolishni va uzoq-uzoqlarga suzib ketishni xayol qilardi.

Bola hozir durbindan ko'lobga qarab turib, ko'ylak-ishtonini yechib, qip-yalangoch junjikib suvga tushishini tasavvur qildi. Tog' daryolarining suvi hami-

sha sovuq, entiktiradi, lekin keyin ko'nikib qolasan. Tolning shoxchasini ushlab, oqimga yuzi bilan otishini ko'z oldiga keltirdi. Boshi uzra suv shovillagancha qo'shilib ketadi, qorni ostidan, yelkalari, oyoqlari ustidan suv qaynab oqib o'tadi. Suv ostida tashqaridagi hamma tovushlar tinib, quloqlarda faqat suvning shildirashi qoladi. U ko'zlarini katta-katta ochib, suv ostida nimaiki ko'rinsa bariga jon-jahdi bilan tikiladi. Qo'zlari sanchib ketadi, og'riydi, lekin u mag'rur jilmayadi, hatto suvda turib tilini ko'rsatadi. Buni u buvisiga ko'rsatmoqchi. Bilib qo'ysin, u hech qayerda ham cho'kmaydi va hech qayerda hech nimadan qo'rqmaydi. Keyin u qo'lidagi shoxchalarni qo'yib yuboradi, toki u oyoqlari bilan to'siqdagi toshlarga tiralib qolmagunga qadar suv uni surib ketaveradi. Shu yerda nafasi ham qaytadi. U suvdan sapchib turadi-da, qirg'oqqa chiqadi va yana tol shoxchasi tomon chopqillab ketadi. Bu takrorlanaveradi. U bobosi yasagan ko'lobda kuniga yuz marta cho'milishga ham tayyor. Xullas, baliqqa aylanmaguncha cho'milaveradi. Qanday bo'lmasin, uning baliqqa aylanishi shart...

Bola daryo qirg'og'ini tomosha qila turib, durbinni o'zlarining hovlisiga to'g'riladi. Tovuqlar, kurka tovuqlar jo'jalari bilan, to'nkaga suyab qo'yilgan bolta, tutab yotgan samovar, hovlidagi turli-tuman narsalar aql bovar qilmaydigan darajada kattalashib, shunday yaqinga kelib qoldiki, bola beixtiyor ularga qo'lini cho'zdi. Shu payt, falokat bosib arqonga yoyilgan kirni bamaylixotir yamlayotgan qo'ng'ir buzoqcha durbinda filday ko'rinib qoldi-yu, jon-poni chiqib ketdi. Buzoqcha huzur qilganidan ko'zlarini qisib olgan, lablaridan so'lak oqib turardi — u kampirning ko'ylagini og'iz to'ldirib chaynashda mazza qilayotgandi.

— Eh, sen jinni! — Bola durbinni ushlagancha o'rnidan turdi va qo'lini silkiy hoshladi. — Qani yo'qol, eshityapsanmi, yo'qol naryoqqa! Baltek, Baltek! (Kuchuk ob'ektivda uyning tagida pinagini buzmay yotardi). Tishla, tishla uni! — jon achchig'ida itga buyruq qilardi u. Lekin Baltek parvo ham qilmay, go'yo hech nima bo'lmagandek soyada cho'zilib yotardi.

Xuddi shu mahal uydan buvisi chiqib qoldi. Nima bo'layotganini ko'rib qolgan kampir qars urdi. Supurgini qo'lga oldi-da, buzoqqa tashlandi. Buzoq qochdi, kampir orqasidan quvdi. Bola durbindan ularga tikilgan ko'yicha tog'dan ko'zga tashlanib qolmaslik uchun o'tirib oldi. Buzoqni quvgan kampir alamdan va yugurishdan bo'g'ilib javragancha uyga jo'nadi. Bola uni xuddi yonma-yon turgandek, hatto yonma-yon turganidan ham yaqinroq ko'rdi. Bola buvisini xuddi ob'ektivda biror kishini katta qilib ko'rsatgandek ravshan ko'rib turdi. Bola uning jahldan qisilgan sarg'ish ko'zlarini, qat-qat burishgan ajinli yuzining qizarib ketganini ko'rdi.

Xuddi birdan ovozi yo'qolib qolgan kinodagidek, durbinda kampirning yakkam-dukkam tishlari ko'rinib, lablari ovozsiz tez-tez qimirladi. Kampirning nima deb qichqirayotganini uzoqdan eshitib bo'lmagdi, lekin bola uning so'zlarini xuddi qu-log'fi ostida jaranglayotgandek aniq va barala eshitardi. Uh, kampir uni rosa koyirdi! Bola nima deb qarq'ayotganini yoddan bilardi: «Qani, qarab tur. Qaytib kelarsan-ku. Dodingni beraman. Bobonga ham qaramayman. Necha marta aytdim-a, shu jinnilarning o'yinchog'ini yo'qotgin deb. Yana toqqa qochib ketgan. Xudo ko'tarsin o'sha kemangni, o't tushsin, cho'kib ketsin».

Bola tog' tepasida og'ir xo'rsindi. Portfel olgan, maktabga qanday o'tlanishni orzu qilib turgan shunday bir kunda buzoqni ko'zdan qochirsa-ya...

Kampir javrashni qo'ymasdi. U koyib turib, chaynab tashlangan ko'ylagiga tikilib qaradi. Uning oldiga Guljamol qizchasini olib chiqdi. Buvi unga shikoyat qila turib tutoqib ketdi. Mushtini tugib tog' tomonga do'laytirdi. Uning qoq suyak bo'lgan johil mushti okulyar oldida uzoqdan dag'dag'a solib turardi. «Ermak topding o'zingga. Xudo ko'tarsin kemangni. O't tushsin, cho'kib ketsin...»

Hovlidagi samovar qaynadi. Qopqoq ostidan burqsib ko'tarilayotgan bug'durbinda ko'rinib turardi. Bekey xola samovarni olib ketgani chiqdi. Buvisining yana jazavasi tutdi. Ma, jiyanchangning qilmishini ko'rib qo'y degandek, chaynab tashlangan ko'ylagini uning burniga tiqdi.

Bekey xola uni tinchitmoqchi, yupatmoqchi bo'ldi. Bola uning nimalar deb taskin berayotganini bilib turardi. Har qachongidek, bu safar ham shunday de-yayotgandir: «Xafa bo'lmang, enajon. Esi yo'q, go'dak hali — nimasidan xafa bo'lasiz. Bu yerda bironta jo'rasi yo'q, bir o'zi. Qichqirish, go'dakni qo'rqitishdan nima foyda». Bunga buvining ham javobi shubhasiz, aniq: «Sen menga o'rgatma. Sen oldin o'zing tug'ib ko'r, bolalarni terqashni o'shanda bilasan. U nima qilib tog'da sanqib yuribdi? Buzoqni arqonlab qo'yishga vaqti yo'q. Tog'da u nimaga buncha tikilgani-tikilgan? Sayoq ota-onasining yo'ligami? Uni tuqqanlar turli tara-faqa qochib ketishdi. Senga yaxshi-da, bepusht...»

Bola hatto shunday uzoq masofadan turib durbinda Bekey xolaning ich-ichiga hotgan yuzlarining qanday oqarib-bo'zarib ketganini, butun vujudi bilan titrab-qaqshab o'gay onaning yuziga — bola xolasining qanday javob qilishini aniq bilardi — to'rsillatib gapirib tashlaganlarini bilib turdi: «Sen o'zing, jodugar kampir, qancha o'g'il-qiz o'stirib qo'yding? O'zing kim bo'libsan?».

G'ala-g'ovur boshlandi! Buvi jahldan uvvos sola boshladi. Guljamol ayollarni yarashtirishga urinib, buvini quchoqlab, yupatgani uyga olib kirmoqchi bo'lar,

u esa, battar tutoqib, hovlida jinnilardek u yoqdan bu yoqqa zir yugurardi. Bekey xola qaynab yotgan samovarni ko'targancha dog' suvli to'kib-sochib, chopgan ko'yi uyga olib kirib ketdi. Buvi esa toliqib, mollarga suv quyiladigan nov tomonga tushib ketdi. U ho'nragancha yig'lab o'z taqdiridan qattiq kuyinardi. Bolani unutdi, endi yaratgan parvardigorning o'ziga, bu foniy dunyoning beparvoligiga yopishib ketdi. «Hali menga osilyapsanmi? Sen mening kimligimni so'rayapsanmi? — buvi o'gay qizining orqasidan g'azablanardi. — Agar meni xudo jazolamaganda, agar u mening besh go'dagimni bag'rimdan yulib olmaganda, yolg'iz o'g'lim o'n sakkiz yoshida urushda o'qqa uchmaganda, cholginam, mehribonginam Tayg'ar suruv bilan bo'ronda qotib qolmaganda men siz, o'rmon odamlarining orasida yurarmidim? Men senga o'xshaymanmi, senga-ya, tug'mas? Men qarigan chog'imda sening jinnisifat otang Mo'min bilan yashab yurarmidim? Qaysi aybim-gunohlarim uchun sen meni buncha qiynading, la'nati xudo?»

Bola o'zidan durbinni olib, g'amgin bosh egdi. «Biz endi uyga qanday qaytamiz? — sekingina portfelga so'z qotdi u. — Buning hammasiga men sababchi, jinni buzoq sababchi. Yana sen ham sababchisan, durbin. Oq kemaga qaragani har safar meni sen chaqirasan. Sen ham aybdorsan».

Bola atrofga razm soldi. Chor atrof tog' — qoya, o'rmon. Tepalikdan, muzlar qo'ynidan boshlangan irmoqlar yarqirab jilvalanganicha ohista pastga oqib tushar va faqat shu yerga, pastga tushgandan keyingina daryo bo'lib tinimsiz hayqirib yotish uchun ovoz paydo qilgandek bo'lardi. Tog'lar esa, ulkan va nihoyasiz, ko'krak kerib turardi. Bola o'zini shu daqiqalarda bag'oyat kichik, bag'oyat yolg'iz, butunlay unutilgan his qilardi. Faqat tog'lar bor uning yonida, tog'lar, chor atrofda baland tog'lar.

Quyosh ko'l tomonga og'a boshladi. Havo unchalik issiq emasdi. Sharq tarafdagi qiyaliklarga birinchi, kalta soyalar tushdi. Quyosh endi tobora pastga yo'nalaveradi, soyalar esa, pastga, tog'lar poyiga cho'zilaveradi. Odatda, kunning ayni shu mahalida, Issiqko'lda oq kema ko'rinardi.

Bola durbinni ko'zga tashlanib turgan o'sha eng uzoqdagi joyga burdi va nafasini yutib kutib turdi. Ana u! Hamma narsa birdan unutildi: u yerda, oldinda, Issiqko'lning ko'm-ko'k sathida oppoq kema paydo bo'ldi. Mana, qalqib chiqdi. Ana u! Trubalari qator tizilgan, o'zi kuchli va chiroyli. U xuddi ip tortib qo'ygandek to'g'ri va bir tekis suzib borardi. Bola shosha-pisha durbin oynalarini ko'ylagining etaklari bilan artirdi-da, yana okulyarni to'g'riley boshladi. Kemaning ko'rinishi yanada tiniqroq bo'la boshladi. Endi uning to'lqinlararo qanday

chayqalib, quyrug'i ortidan qanday oppoq ko'pikli iz qoldirib ketayotganligini ilg'asa bo'lardi. Bola oq kemadan ko'z uzmay unga zavq bilan tikilardi. Bola-ning ixtiyorida bo'lganda edi, u suzayotgan odamlarni ko'rmoq mumkin bo'lishi uchun oq kemani yaqinroq suzib kelishga yolvorib ko'ndirgan bo'lardi. Lekin kema bulardan bexabar edi. U o'z yo'lidan, kim biladi, allaqayoqdan chiqib allaqayoqqa, ohista va ulug'vor suzib borardi.

Kemaning suzib borishi uzoq vaqt ko'rinib turdi, bola ham uzoq vaqt baliqqa aylanib, daryo ho'ylab unga, oq kemaga qarab suzib ketishi haqida xayol surib qoldi...

Bola bir kun Qorovultog'dan turib ko'm-ko'k Issiqko'lda oq kemani birinchi marta ko'rib qolganida uning go'zalligidan yuragi gupirib, darhol otasini — issiqko'llik matrosni — xuddi shu oq kemada suzayotir degan qarorga kelgandi. Bola o'zi bunga ishonar, chunki u shunday bo'lishini juda-juda istardi.

U na otasini, na onasini eslay olardi. Bola ularni biron marta ham ko'rmagan. Ularning hech qaysisi uni biron marta yo'qlab kelmagan. Lekin bola bilardi: otasi Issiqko'lda matros, onasi esa, otasidan ajrashganidan so'ng, o'g'lini boboda qoldirib, o'zi shaharga ketgan. Ketgan-u, shu bo'yi g'oyib bo'lgan. Tog' ortidagi, ko'l ortidagi, yana tag'in tog' ortidagi uzoq shaharga ketgan.

Mo'min bobo kunlardan birida o'sha shaharga kartoshka sotgani borgandi. Rosa bir hafta yo'q bo'lib ketib, qaytgach, choy ustida Bekey xola bilan buviga qizini, ya'ni bolaning onasini ko'rganini gapirib bergan. U allaqanday katta fabrikada to'quvchi bo'lib ishlar ekan. Uning yangi oilasi — ikki qizi bo'lib, ularni bolalar bog'chasiga topshirar va haftada bir martagina ko'rar ekan. Katta turar joyda, lekin katalakdek xonada yashashar ekan. Hovlisida esa, xuddi bozordagiday birov birovni tanimasmish. Hamma uyiga kirdi deguncha eshigini qulflab olarmish. Xuddi turmadagiday, hamisha qamalib o'tirisharmish. Eri shofer bo'lsa kerak, avtobusda odamlarni ko'chama-ko'cha tashib yurarkan. Ertalab soat to'rtida ketib, kech qaytarkan. Ishi og'ir ekan, deb hikoya qilardi chol. Zor yig'lab, kechirim so'radi. Ular yangi kvartira olish uchun navbatda turishibdi. Qachon olishadi — noma'lum. Lekin qachon olishsa, eri ko'nsa o'g'lini olib ketmoqchi. Mendan picha kutib turishni iltimos qildi. Mo'min bobo unga, g'am yemagin, debdi. Eng muhimi — er bilan murosa qilib yashash, boshqasi bitib ketaveradi. O'g'lining ham ko'p g'amini tortmasin. «Toki men tirik ekanman, bolani hech kimga bermayman, agar o'lsam — xudo uni o'zi bir yo'lga solar, tirik odam o'z taqdirini topib ketar...»

Cholning gaplarini eshitgan Bekey xola bilan buvi darhol xo'rsinib va hatto barobariga jinday ko'z yoshi qilib olishdi.

Xuddi shu o'tirishda gap aylanib kelib bolaning otasi haqida ham so'z ochib qolishdi. Boboning aytishicha, uning avvalgi kuyovi, bolaning otasi, hali ham allaqaysi kemada matros bo'lib xizmat qilarmish, uning ham yangi oilasi, ikkita-mi, uchtami bolasi bor emish. Pristan yaqinida yasharmish. U chamasini ichishni tashlaganmish. Yangi xotini har safar bolalari bilan uni qarshi olgani pristanga chiqarmish. «Bundan chiqdi, — o'yladi bola, — ular mana shu kemani — uning kemasini qarshi olishar ekan-da...»

Kema sekin uzoqlashib borardi. Trubasidan tutun burqsitib, ko'lining ko'm-ko'k silliq sathida suzib borayotgan bu oppoq va uzun kema, baliqqa aylangan bolaning o'zi tomon suzib kelayotganini bilmasdi.

U shunday baliqqa aylanib qolishni orzu qilardiki, baliqning hamma joyi — tanasi, dumi, suzgich qanotlari, tangachalari unga o'tsa-yu, faqat ingichka bo'yinli, shalpanq quloqli, tirnalgan burunli boshi o'zida qolsa bas. Ko'zlari ham o'zicha qolsin. Lekin xuddi hozirgiday emas, chin baliqlarday ko'radigan bo'lishsin.

Bolaning kipriklari xuddi buzoqnikiga o'xshash uzun-uzun bo'lib, hamisha o'zidan-o'zi nimagadir pirpirab turardi. Guljamol, qizimning ham kipriklari shunday bo'lgandami, qanday chiroyli bo'lardi! — deydi. Chiroyli bo'lishning nima keragi bor? Shaxsana unga chiroyli ko'zlarning keragi yo'q, unga suv ostida ko'ra oladigan ko'zlar kerak.

Bobo yasagan ko'lobga kelganda u baliqqa aylanadi. Bir qarabsizki — u baliq-da. So'ngra ko'lobdan daryoga, naq pishqirib shiddat bilan oqayotgan daryoga sakrab o'tardi va oqim bo'ylab suv ostiga sho'ng'ib ketardi. Keyin ham shu tarzda sakrab-sakrab atrofga nazar tashlab boradi, qizig'i yo'q joylarda faqat suv ostida suzardi. U jo'shqin daryo oqimida qizil tuproqli katta jarlik bo'yidan, daryo ostonalari va to'lqinlaridan, tog'lar va o'rmonlar yonidan oqib o'tadi. U o'zining suyukli xarsang toshlari bilan xayrlashadi: xayr «yotoq tuya», xayr «bo'ri», xayr «egar», xayr «tank». Qorovulxona yonidan suzib o'tayotganda esa, suvdan sakrab chiqib, suzgich qanotlarini bobosiga silkitadi: «Xayr, bobo, men tezda qaytaman». Bobo shunda hayratdan dovdirab, nima qilishini bilmay qotib qolarmidi. Buv, Bekey xola, Guljamol qizchasi bilan — hammasi og'zini ochib qolarmidi. Qayerda kim ko'ribdi — kallasi odamu tanasi baliqni!

Bola esa ularga suzgich qanotlarini silkiib qo'yardi: «Xayr, men Issiqko'lga, oq kemaga suzib boraman. U yerda mening matros dadam bor». Baltek, ehti-



mol, qirg'oq bo'ylab chopsa kerak. It umrida bunaqa hodisani ko'rmagan-da, axir. Agar Baltek u tomonga suvga o'zini tashlaguday bo'lsa, u qichqiradi: «Qayt, Baltek, qayt. Cho'kib ketasan!» — o'zi esa suzib ketaveradi. Osmo ko'prikning sim arqoni ostidan, keyin to'qaylar yonidan, so'ng gumbirlab turgan daradan o'tib, to'g'ri Issiqko'lga suzib boradi.

Issiqko'l deganlari — bu butun bir dengiz. U Issiqko'l to'lqinlarida suzib yuradi, to'lqindan to'lqinga ko'chadi va shunda oq kemaning qarshisidan chiqib qoladi. «Salom, oq kema, bu menman! — deydi u poroxodga. — Durbindan har doim senga qaragan menman». Kemadagi odamlar hayratdan yoqa ushlab, mo'jizani ko'rgani yugurishadi. Shunda u o'zining matros otasiga so'z qotadi. «Salom, dada, men sizning o'g'lingizman. Men sizning oldingizga suzib kel-dim». — «Sen qanaqa o'g'ilsan? Sen yarim baliq, yarim odamsan-ku!» — «Siz meni o'z oldingizga, kemaga chiqarib oling, men shunda sizning o'g'lingiz bo'lib qolaman». «Voy tavba. Qani ko'raylik-chi». Otasi to'r tashlab, uni suvdan palubaga tortib oladi. Shunda u o'z asliga qaytadi. Keyin-chi, keyin...

Keyin oq poroxod o'z yo'lida suzib ketaveradi. Bola otasiga hamma narsa haqida, butun hayoti davomida nimaiki bilgan bo'lsa hikoya qilib beradi. O'zi yashab turgan tog'lar haqida, o'sha xarsang toshlar haqida, daryo va noyob o'rmon haqida, baliqlarday ko'zi ochiq suzishni o'rgangan yeri — bobosining ko'lobi haqida so'zlaydi.

Mo'min bobosinikida qanday yashayotganligini ham aytib beradi, albatta. Bu odamni Mo'min chaqqon deb atashsa ham, uning yomon odam emasligini otasi bilib qo'ysin. Bunaqa bobo hech joyda yo'q, bobolarning eng yaxshisi. Uning hech shumligi yo'q, shuning uchun hamma undan kulib yuradi. Birovga hech yomonlikni ravo ko'rmaydi. O'razqul amaki esa, cholga hadeb tirg'ilaveradi! Ba'zan odamlarning oldida ham boboga qichqiraveradi. Bobo esa, gapiga boplab javob qilish o'rniga, O'razqul amakini kechirgani-kechirgan va hatto uning o'rniga o'rmon xo'jaligi ishlarini ham o'zi boshqaradi. Faqat shugina deysizmi! O'razqul mast-alast bo'lib kelganda, uning hayosiz ko'zlariga tupurish o'rniga, unga peshvoz chiqib, otdan tushirib qo'yadi, uyga suyab kiradi, karavotga yotqizib qo'yadi, sovuq yemasin, boshi og'rimasin deb ustiga po'stin tashlaydi, otining esa egarini oladi, yuvib-taraydi, yem beradi. Hammasiga sabab — Bekey xolaning tug'masligi. Nega shunday, dada? Istasang tuqqin, istamasang keragi yo'q, deb qo'ya qolsa bo'lmaydimi? O'razqul amaki Bekey xolani urganda boboga rahming keladi. Boboning o'zini ursa yengil bo'lardi. Bekey xola qichqirganda u bi-

ram qiynaladiki. Qo'ldan nima ham kelardi? Qizining orasiga tushgisi keladi-yu, lekin buvi bunga yo'l qo'ymaydi: «Aralashma, — deydi u, — o'zlari murosaga keladi. Sen cholga kim qo'yibdi. Xotin seniki emas, joyingda o'tir». «Axir, u mening qizim-ku!» desa, buvi: «Xo'sh, uying uyiga tutash bo'lmay, uzoqda yashaganingda nima qilarding? Har safar ot choptirib borib ajratib kelarmiding? Shundan keyin kim sening qizingni xotin qilardi!» — deydi.

Men aytayotgan buvi — bu ilgarigisi emas. Siz, uni, dada, balki bilmassiz ham. Bu boshqa buvi. O'z tug'ishgan buvim yoshligimda vafot etgan. Bu buvi bo'lsa keyin kelgan. Bizning havolarga sira tushunib bo'lmaydi — bir qarasang ochiq, bir qarasang bulutli, bir qarasang yomg'ir aralash do'l. Buvi ham xuddi shunday, tushunib bo'lmaydi. Bir qarasang mehribon, bir qarasang berahm, hech tushunolmaysan. Jahli chiqqanda — naq yeb qo'yadi. Biz bobom bilan jim bo'lamiz. Buvi: «Begonani qancha yedirma, qancha ichirma, undan yaxshilik ko'rmaysan», deydi. Men, axir bu yerda o'gay emasman-ku, dada. Men hamisha bobom bilan birga yashab keldim. Uning o'zi o'gay bu yerda, u bizga keyin kelib qo'shildi. Endi esa meni o'gay deydi.

Qishda biz tomonda qor meni ko'may deydi. Eh, qor uyulib ketadi! Agar o'rmonga borish kerak bo'lsa, faqat bo'z ot Olaboshdagina borib bo'ladi, u ko'kra-gi bilan qor uyumini surib ketadi. Shamollar ham shunday zo'rayadiki, oyog'ingda turolmaysan. Ko'lda to'lqinlar ko'tarilib qolsa, kemani yong'oq po'chog'idek o'ynatsa, bilingki, bizning San-Tosh shamoli ko'lni chayqaltiryapti. Bobom hikoya qilgandilar, juda qadim zamonda dushman lashkarlari bizning o'sha yerlarimizni bosib olgani yurish qilibdi. Ana shunda bizning San-Toshdan shunday shamol turibdiki, dushmanlar egarda o'tirolmay qolishibdi. Otlardan tushishibdi, lekin piyoda ham yurisholmabdi. Shamol ularning yuzini qonga belabdi. Shunda ular shamolga orqa o'girishibdi, shamol esa ularning yelkalariga urilib, qayrilib qarashiga imkon bermabdi, to'xtagani qo'ymabdi va ularni bitta qo'ymay Issi-ko'ldan haydabdi. Mana qanday bo'lgan. Biz ana shu shamolda yashayapmiz! U bizdan boshlanadi. Butun qish bo'yi o'rmon daryo ortida shamoldan g'ichirlab, ingrab chiqadi. Hatto vahimali bo'ladi.

Qishda o'rmonda ish unchalik ko'p emas. Qishda biz tomonlar odamsiz huvillab qoladi — yozda ko'chmanchilar keladigan mahallarga sira o'xshamaydi. Yozda katta yaylovda oqshomlari suruv yoki yilqi uyurlari bilan odamlarning qo'nishini juda yaxshi ko'raman. To'g'ri, ular ertalab toqqa jo'nab ketishadi. Lekin, baribir, ularning kelishi yaxshi. Ularning bolalari va xotinlari yuk mashina-

larida kelishadi. Yuk mashinalarida o'tovlarni va boshqa turli-tuman narsalarni olib yurishadi. Ular sal-pal joylashib olishgach, biz bobom bilan so'rashgani boramiz. Hammalari bilan qo'l berib ko'rishamiz. Men ham. Bobom, kichiklar o'zlaridan kattalarga doim birinchi bo'lib qo'l uzatishlari kerak, deydi. Kimki qo'l uzatmasa, u odamlarni hurmat qilmagan bo'ladi. Keyin, bobom, yettining biri avliyo bo'lib chiqishi ham mumkin, deydi. Avliyo — bu juda xushfe'l va aqlli odam. Kimki u bilan qo'l berib ko'rishishga muyassar bo'lsa, bir umr baxtiyor bo'ladi. Men, shunday ekan, nega u o'zining avliyo ekanligini ayta qolmaydi, biz hammamiz u bilan qo'l berib ko'rishgan bo'lardik, desam, bobom kuladi: hamma gap shunda-da, deydi u, avliyo o'zining avliyoligini bilmaydi — u oddiy odam. Faqat qaroqchigina o'zining qaroqchiligini biladi. Bular menga uncha tushunarli emas, lekin bir oz uyalingirasam ham, men hamisha odamlar bilan qo'l berib ko'rishaveraman.

Bobom bilan birga yaylovga kelganimda esa, uyalmayman.

«Ota-bobolaringizning yozgi qo'nog'iga xush kelibsizlar! Molu jon sog'-salomatmi, bola-chaqa omon-esonmi?» — bobom ana shunday so'rashadi. Men esa faqat qo'l cho'zib ko'rishib qo'ya qolaman. Bobomni hamma biladi, bobom ham hammani biladi. Unga yaxshi. Uning o'z suhbat mavzusi bor, u ko'chmanchilarning hol-ahvolini so'raydi va o'zi biz qanday yashayotganligimizni gapirib beradi. Men esa bolalar bilan nimani gaplashishni bilmayman. Keyinchalik biz bekinmashoq, urush-urush o'ynab ketamiz va o'yinga shunday berilib ketamizki, ketgim kelmay qoladi. Qani endi hamisha yoz bo'lsa, hamisha bolalar bilan o'tloqda o'ynab yursang!

Biz o'yinga kirishib ketguncha gulxanlar bo'y cho'zadi. Gulxanlardan yaylov toza yorishib ketadi deb o'ylaysizmi, dada? Hamma joy emas. Olovning atrofi yorug', undan nari esa avvalgidek qop-qorong'i. Biz esa urush-urush o'ynaymiz, shu qorong'ilik qo'ynida yashirinamiz va hujum qilamiz, xuddi kinodagidaqa. Agar sen komandir bo'lsang, hamma senga itoat qiladi. Komandirlik komandirning o'ziga ham yoqsa kerak...

Keyin tog'lar ustiga oy suzib chiqadi. Oy chiqqanda o'yin yana gashtli bo'ladi, lekin bobom meni olib qaytadi. Biz uyga yaylovdan, butazordan qaytamiz. Qo'ylar jimgina yotishadi. Yilqilar atrofda o'tlab yuradi. Biz ketayotib kimningdir qo'shiq aytayotganini eshitamiz. Yosh cho'pondir, balki keksadir. Bobom meni to'xtatadi: «Quloq sol. Bunday qo'shiqlarni hamisha eshitavermaysan». Biz to'xtaymiz, qo'shiqni tinglaymiz. Bobom kuyga mahliyo bo'lgancha bosh chayqaydi.

Bobom hikoya qiladi: eski zamonda bir xon boshqa bir xonning qo'liga asir tushibdi. Xon asir tushgan xonga debdi: «Agar istasang — mening qulim bo'lib tirik qolasan, bo'lmasa, eng so'nggi tilagingni bajo keltiraman-da, keyin o'ldiraman». Xon o'ylab turib javob qilibdi: «Qul bo'lib yashashni istamayman. Yaxshisi, meni o'ldirgin, lekin avval mening vatanimdan birinchi duch kelgan cho'ponni chaqirtirib ber».

— «Uni senga nima keragi bor?»

— «O'lim oldidan uning qanday kuylashini tinglamoqchiman».

Bobom aytadi: ona yurt qo'shig'i uchun odamlar jonini beradi. Qanday odamlar ekan-a, bir ko'rsang ularni. Ehtimol, katta shaharlarda yashashar?

Eshitish yoqimli. Bobom: bular eski qo'shiq deydi. «Qanday odamlar bo'lgan-a! — shivirlaydi u. — Qanday qo'shiqlar kuylashgan-a, ey xudoyim-ey...»

Negaligini bilmayman-u, bobomga shunday rahmim keladi va uni shunchalik yaxshi ko'rib ketamanki, oxiri yig'lagim keladi...

Tong sahardayoq yaylovda hech kim qolmaydi. Qo'y va yilqilarni yoz bo'yi boqqani nariga, toqqa haydab ketishadi. Ular ortidan izma-iz boshqa kolxozlardan boshqa ko'chmanchilar kelishadi. Kunduzlari to'xtashmaydi, yonimizdan o'tib ketishadi. Tunda esa yaylovga qo'nishadi. Biz yana bobom ikkovimiz odamlar bilan uchrashgani boramiz. Bobom odamlar bilan ko'rishishni juda yaxshi ko'radi. Bu odatni men undan o'rgandim. Ehtimol, vaqti kelib bir kun yaylovda haqiqiy avliyo bilan uchrashib qolarman...

Qishda O'razqul amaki bilan Bekey xolam shaharga, doktorga qaratgani ketishadi. Balki doktor yordam qilar, bir dori bersa-yu, bola tug'ilib qolsa, deb umid qilishadi. Lekin buvim hamisha, aziz joylarga borgan ma'qul, deydi. Bu qayerdadir, tog'ning ortida, dalalarida paxta o'sadigan joyda emish. Tep-tekis yerda, tog' bo'lishi mumkin bo'lmagan tekislikda aziz bir tog' — Sulaymon tog'i bor emish. Ana shu tog' poyiga bir qora qo'chqor so'yib, xudoga iltijo qilsa, toqqa chiqib har qadamda xudoga sig'inib, yolvorsa hamda chin ko'ngildan so'rasa, xudoning rahmi kelib farzand ato etarmish. Bekey xolam o'sha yoqqa, Sulaymon tog'iga borishga juda intizor. O'razqul amaki esa, unchalik istamaydi. Uzoq. Ko'p pul kerak, deydi. U yoqqa faqat samolyot bilan tog'dan oshib borish kerak, axir. Samolyotgacha ham qancha yurish kerak, bu ham pul...

Ular shaharga ketishsa biz shumshayib qolamiz. Axir ko'pchilik emasmiz-da, bor qo'shnilarimiz — Seydahmad, uning xotini Guljamol va ularning kichkina-gina qizchasi, xolos.

Kechqurunlari, ishdan qo'l bo'shaganda, bobom menga ertaklar aytib beradi. Bilaman, uydan tashqarida zim-ziyo, sovuq tun. Izg'irin izillab turibdi. Eng ulkan tog'lar ham bunday tunlarda vahimaga tushib bir to'p bo'lib to'planishib, uyimiz oldiga — deraza ostidagi yoruqqa yaqinroq kelib olishadi. Menga bu ham qo'rqinchli, ham sevinchli tuyuladi. Pahlavon bo'lganimdami, katta po'stin kiyardim-da, tashqariga chiqardim. Men u tog'larga bor ovoz bilan derdim: «Qo'rq-mang, tog'lar! Men shu yerdaman. Mayli, izg'irin, qorong'u zulmat, dovul bo'lsin, men hech nimadan qo'rqmayman, sizlar ham qo'rqmanglar. Bir yerga g'uj bo'lib to'planishmasdan joylaringda turaveringlar».

Men keyin qor uyumlaridan yurib, daryodan hatlab o'tib — o'rmonda paydo bo'lardim. Tunda o'rmon daraxtlar uchun juda vahimali, axir. Ular yolg'iz, bir so'z aytadigan jon zoti ham yo'q. Sovuqda yalang'och daraxtlar muzlaydi, ularga bosh suqadigan joy qayda. Men esa o'rmonga borib, ularga aytarlik vahimali bo'lmasligi uchun har bir daraxtning tanasiga qo'lim bilan urib-urib qo'yardim. Ko'klam ko'karmay qoladigan daraxtlar — bu o'sha, qo'rqinchdan qotib qolgan daraxtlar bo'lsa kerak. Keyin biz bu qurib qolgan daraxtlarni o'tinga kesamiz.

Bobom menga ertak aytayotganda men mana shularning hammasi haqida o'ylayman. U uzoq hikoya qiladi Ular har xil — kulgililari ham bor, ayniqsa, ochko'z bo'ri sho'ri qurib yutib yuborgan Chipalak otli jimjiloqday bola haqidagisi kulgili. Yo'q, avval uni tuya yutib yuboradi. Chipalak barg-xazonlarning ostida uxlab qoladi, tuya esa shu atrofda tentirab yurgan bo'ladi, «hap» etkizib barg-marglarga qo'shib yutib yuboradi. Shuning uchun ham aytishadi-da: tuya nima yutganini bilmaydi deb. Chipalak chinqirib, odamlarni yordamga chaqiradi. Keksalar o'zlarining Chipalaklariga yordam berish uchun tuyani so'yishga majbur bo'lishadi. Bo'ri bilan ham shunga o'xshagan voqea sodir bo'ladi. U ham o'zining ovsarligi tufayli Chipalakni yutib yuboradi. Oxirida bo'zlab yig'laydi. Bo'ri Chipalakka duch kelib qoladi. «Oyog'im ostida o'ralashgan qanaqa pashsha? Seni bir yamlab yutib yuboramai». Chipalak esa deydi:

— «Tega ko'rma menga, bo'ri, aks holda, kuchukka aylantirib qo'yaman».

— «Ha-ha, — xaxolaydi bo'ri, — bo'ring kuchuk bo'lib qolganini kim ko'ribdi. Shu dag'alliging uchun men seni yeyman». Shunday debdi-da, uni yutib yuboribdi. Yutibdi-yu, esidan ham chiqarib yuboribdi. Lekin shu kundan boshlab bo'rilik rizq-ro'zidan ayrilibdi. Bo'ri pisib qo'ylarga endi yetdim deganda, Chipalak uning qornida turib qichqirarkan: «Ey, cho'ponlar, uxlamanglar! Bu, men qo'ng'ir bo'riman, qo'yaringni bo'g'izlagani pisib kelyapman!»

Bo'ri nima qilarini bilmaydi. O'zining biqinini tishlaydi, yerga dumalaydi. Chipalak esa hech jim bo'lmabdi. «Ey, cho'ponlar, chopinglar bu yoqqa, uringlar meni, do'pposlanglar!» Cho'ponlar tayoq ko'tarib bo'riga tashlanishibdi, bo'ri qochibdi. Cho'ponlar hayratga tushib quvisharmish. Bo'ri aqlan ozibdi, o'zi qochadi-da, tag'in o'zi qichqiradi, deb hayron bo'lisharmish. Bo'ri esa qichqirarmish: «Meni quvib yetinglar, og'alar, uringlar, rahmingiz kelmasin!» Cho'ponlar kulgidan yiqilib qolisharmish, bo'ri esa arang qochib qutilarmish. Lekin bu bilan uning holi yengillashmabdi. Qayoqqa tumshuq suqmasin, Chipalak unga pand beraveribdi. Hamma joydan uni quvishaveribdi, hamma joyda undan kulishaveribdi. Bo'ri ochlikdan ozib ketibdi, terisi bilan suyagigina qolibdi. Tishlarini shaqirlatib ulibdi: «Bu qanaqa jazo bo'ldi menga? Nega men o'z boshimga o'zim baloni sotib oldim? Qariganda jinni bo'ldim, esimni yeb qo'ydim». Chipalak esa uning qulog'iga shivirlabdi: «Toshmatga chop, uning qo'ylari semiz! Boymatga chop, uning itlari kar. Ermatga chop, uning cho'ponlari uxlab yotibdi». Bo'ri esa o'tirib olib hiqillarmish: «Hech qayoqqa bormayman, yaxshisi, bitta-yarimtaga kuchuk bo'lib yollanaman...»

Kulgili ertak-a, dada, to'g'rimi? Bobomning hoshqa ertaklari ham bor — mungli, dahshatli, qayg'uli. Lekin mening eng sevimli ertagim Shoxdor ona bug'i haqidagi ertak. Bobom, Issiqko'lda yashagan har bir kishi bu ertakni bilishi kerak, deydi. Bilmaslik — gunoh. Balki, siz bilarsiz buni, dada? Bobomning aytishicha, buning hammasi rost, bo'lgan ish, deydi. Qachonlardir shunday bo'lgan ekan. Biz hamma-miz Shoxdor ona bug'ining bolalari ekanmiz. Men ham, siz ham, boshqalar ham...

Qishda biz mana shunday yashaymiz. Qish uzoq cho'ziladi. Bobomning ertaklari bo'lmasa, qishda men juda zerikib qolardim.

Bahorda biz tomonlar yaxshi bo'ladi. Kunlar isib ketgach, yana toqqa cho'ponlar kelishadi. O'shanda biz tog'da yana ko'payishib qolamiz. Faqat daryoning u tomonida, bizdan narida hech kim yo'q. U yoqda faqat o'rmon va o'rmondagi narsalar bor, xolos. U yoqqa hech kim oyoq bosmasin, hech kim bironta novdaga tegmasin deb biz qorovulxonada yashaymiz-da. Biz tomonga hatto olimlar kelishgandi. Shim kiygan ikkita ayol, chol va bir yoshgina yigit. Bu yigit ularning shogirdi. Rosa bir oy yashashdi. O't, yaproq va novda yig'ishdi. Ular aytishdiki, bizning San-Toshdagiga o'xshagan o'rmonlar yer yuzida juda oz qolibdi. Deyarli yo'q emish. Shuning uchun ham o'rmonimizdagi har bitta daraxtni asrash kerak.

Men esa, bobom har bitta daraxtni shunchaki ehtiyot qiladi deb o'ylardim. Bobom, O'razqul amaki qarag'aylarni yog'och o'rnida birovga bersa juda yomon ko'radi...

**O**q kema uzoqlashib ketdi. Uning trubasini durbinda ham ko'rish mumkin bo'lmay qoldi. Hademay u ko'zdan yo'qoladi. Endi bolaga otasining kemada suzishi haqidagi o'ylariga nuqta qo'yish payti keldi. Hammasi yaxshi boshlangan edi, mana, oxiri uncha xush kelmadi. U baliqqa aylanib, daryodan ko'lga suzishni, oq kemaning unga qanday duch kelishini, otasi bilan qanday uchrashishini osongina tasavvur qilardi. Otasiga nimalar haqda so'zlab berishni ham bilardi. Biroq ishning oxiri yurishmadi. Chunki, qirg'oq ham deyarli ko'rinib qoldi. Kema pristan tomon yo'l oldi. Matroslar qirg'oqqa tushishga hozirlana boshlashdi. Ular uy-uyiga ketishadi. Otasi ham uyiga jo'nashi kerak. Pristanda uni xotini va ikki bolasi kutmoqda. Endi nima qilsin? Otasi bilan boraversinmi? U o'zi bilan birga olib ketarmikan? Mabodo olib ketadigan bo'lsa, xotini: «Kim bu, qayerdan kelgan, nima keragi bor?» deb qolsa-chi. Yo'q, yaxshisi bormagani ma'qul...

Oq kema ko'zga elas-elas ilashuvchi bir nuqtaga aylanib, tobora uzoqlashib boradi. Quyosh suvga bosh qo'ydi. Ko'l yuzasidagi ko'zni qamashtiruvchi olovli binafsha rang yog'du durbindan ko'rinib turardi.

Kema ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shunday qilib, oq kema haqidagi ertak ham tugadi. Uyga jo'nash kerak.

Bola portfelini yerdan oldi, durbinni qo'ltig'iga qisdi. Qirdan tezgina, ilon izi so'qmoqdan qiyalab chopib tushib ketdi. Uyga yaqinlashgan sari yuragi po'killay boshladi. Buzoq yamlab qo'ygan ko'ylak uchun endi javob berish kerak. Jazodan bo'lak hech nima xayoliga kelmasdi. Ruhan butunlay tushib ketmaslik uchun bola portfelga murojaat qildi:

«Sen qo'rqma. Xo'sh, bizni koyishadi. Axir men atay qilganim yo'q-ku. Men, to'g'risi, buzoqcha bo'shalib ketganini bilmabman. Xo'sh, meni savashar ham. Chidayman. Agar seni polga qarab uloqtirishsa, cho'chima. Axir sen portfelsan-ku, sinib qolmayсан. Agar kampirning qo'lga durbin tushsa bormi, omon qolmaydi. Biz avval durbinni molxonaga berkitib qo'yamiz-da, keyin uyga boramiz...»

U shunday qildi ham. Lekin ostonadan hatlab o'tishga yuragi dov bermasdi.

Ammo uyda vahimali sukunat hukmron edi. Hovli shunday jim-jit, kimsasiz ediki, egasi ko'chib ketgandek huvillab yotardi. Ma'lum bo'lishicha, Bekey xolani eri yana do'pposlabdi. Mo'min bobo yana qizining kaltaklanganligi, sochlari to'zg'ib faryod chekayotganligi ustidan chiqibdi va yana bu sharmanda-

garchilikning oldini. olish uchun jinniligi tutgan kuyovini tinchitishga, uning mushtiga yopishib yalinib-yolvorishga kirishibdi. Buning ustiga otasi turibdi demay, uning ko'zi oldida, qizini eng tuban so'zlar bilan haqorat qilibdi. Uni bepusht mochg'ar, yaramas qisir eshak va yana maza-bemaza so'zlar bilan so'kibdi. Qizining yovvoyi va telbalarga xos ovozi bilan: «Xudo meni befarzand qilib yaratgan bo'lsa, mening gunohim nima! Bu dunyoda qo'yday tug'ib yotgan ayollar ozmi, faqat meni xudoyim farzanddan qisgan. Nega? Nima uchun mening taqdirim shunday?! Bundan ko'ra o'ldir meni, yirtqich. Mana, ur, ur!..» degan hayqirig'ini ham eshitgan.

Mo'min chol burchakda g'ujanak bo'lib o'tirganicha, hamon entikib-entikib nafas olar, tizzasi ustiga tashlangan qo'llari iztirob va alamdan titrardi. Yuzlari dokaday oqarib ketgan edi.

Mo'min nabirasiga qaradi-yu, so'z qotmadi, yana horg'in ko'zlarini yumdi. Buvisi uyda yo'q edi. U Bekey xolani eri bilan yarashtirib qo'ygani, ularnikida tinchlik o'rnatgani, singan idish-tovoqlarni yig'ishtirgani ketgandi. Buvisining shunaqa fe'li bor: O'razqul xotinini savalayotganda, oraga tushmaydi, cholni ham qaytaradi. Janjaldan keyin esa, yarashtirgani boradi. Shunisiga ham rahmat.

Hammadan ko'ra bolaning cholga rahmi kelardi. Har safar shunday damlarda cholning joni halqumiga kelardi. Burchakka tikilganicha karaxt o'tirar, hech kimning ko'ziga ko'ringisi kelmasdi. Hech kimga, hech bir zotga qalbidan nimalar kechayotganini bildirmasdi. Aslida, bunday paytlarda Mo'min juda qartayib qolgani, yakkayu yolg'iz o'g'li urushda halok bo'lgani haqida xayol surardi. O'g'lini hozir hech kim bilmaydi, eslamaydi ham. O'g'li yonida bo'lganida balki bunchalik xo'rlanmasmidi. Mo'min umr bo'yi bir yostiqaqa bosh qo'yib yashagan xotinini ham qo'msardi. Lekin eng katta baxtsizligi — uning qizlariga baxt kulib boqmadi. Kenjatoyi, nabirasini unga qoldirib shaharga ketdi, endi u yerda katta oilasi bilan bir xonaga tiqilib o'tiribdi. Ikkinchisi bunda O'razqulning jabrini tortyapti. U keksayib qolgan bo'lsa ham, farzandi huzurida bo'lib, qizi uchun hamma xo'rliklarga bardosh beradi, alam qiladigan joyi shundaki, qiziga ona bo'lishdek baxt nasib qilmayapti. O'razqul bilan turmush qurganiga ham mana qancha yillar bo'ldi. Bu turmush qizining joniga tegdi, lekin qochib qayoqqa ham borardi?.. O'zi ham qarib qoldi, kuni bitib bir kun o'lib-netib qolsa, unda nima bo'ladi, baxti qaro qizining holi nima kechadi?



Bola birpasda kosadagi qatiqni bo'shatdi-da, bir burda nonni kavshab, dera-za ostiga jimgina cho'kdi. Chiroqni yoqmadi, bobosini bezovta qilgisi kelmadi» Qo'y, o'zicha o'tirib xayol sursin.

Bola ham o'z o'ylariga berildi. U hech tushunolmasdi, Bekey xola nega eriga aroq tutgani-tutgan. Eri bo'lsa buning evaziga do'pposlagani-do'pposlagan, xola bo'lsa yana yarimta topib kelaverardi.

Eh, Bekey xola, Bekey xola! Necha marta eri chala jon qilib ursa ham, bari bir kechiraveradi. Mo'min bobo ham uni hamisha kechiraveradi. Nega kechirishadi? Bunaqa odamlarni kechirmaslik kerak. U yaramas, sayoq odam. Bizga uning keragi yo'q. Usiz ham kunimiz o'tadi.

Shiddatli bolalik tasavvurlari uning xayolida adolatli jazo hukmini jonlantirardi. Bu hukmning hammasi O'razqulga qaratilgan bo'lib, bular uni, yo'g'on, beso'naqay, iflos odamni daryoga sudrardi. Keyin esa, havoda silkitib-silkitib daryoning naq o'rtasiga itqitadi. U esa, Bekey xola va Mo'min bobodan kechirim so'raydi. Axir u baliqqa aylanib qololmaydi-da...

Bola ancha yengil tortdi. U o'z tasavvurida O'razqulning daryoda qanday g'arq bo'lib borayotganini va yonginasida kigiz qalpog'i suzib ketayotganini ko'z oldiga keltirganda o'zini kulgidan tiyolmadi.

Ammo kattalar, ming afsuski, bola o'ylagandek odil ish tutishmadi. Ular hammasini aksincha qilishdi. O'razqul uyga yana mast bo'lib qaytdi. Uni hech nima bo'lmaganday qarshi olishdi. Boboy otini ushladi. xotini samovarga yugurdi. Hamma yoq faqat uni kutayotgandek. U esa jinnilik qila boshlaydi. Oldiniga ma'yuslanib, yig'laydi. Nega yig'lamasin, axir bu qanaqasi, qo'l berib so'rashishga arzimaydigan eng jo'n odamning ham istaganicha bolasi bor. Beshta, hatto o'nta, O'razqulni-chi? Uning nimasi kam boshqalardan? Nimasi yetmaydi uning? Yoki martabasi pastmi? Xudoga ming qatla shukur, noyob o'rmonning katta qorovuli! Yoki u qandaydir daydi zotmi? Axir lo'lining ham lo'livachchasi bor. Yoki u betayinmi, obro'si yo'qmi? Hammasi bor. Hammasiga yetishgan. Egarlangan oti bor, qo'lidan qamchi tushmagan, har yerda uni hurmat bilan kutib olishadi. Xo'sh, uning tengdoshlari o'z farzandiga to'y qilishadi, u-chi? O'g'ilsiz, urug'siz, kim u?

Bekey xola ham yig'laydi, jonini hovuchlab, erining ko'nglini topishga ti-rishadi. Yashirib qo'ygan «yarimta»sini oladi. Alamidan o'zi ham ichadi. Bor-gan sari ichish ortadi, keyin oxiri O'razqul hayvonga aylanib o'zining butun alamini. ana shu ayoldan, o'zining xotinidan oladi. U esa uning hamma guno-hini kechiradi. Bobo ham kechiraveradi. Hech kim O'razqulga bas kelolmaydi.

Hushiga kelib qarasaki, momataloq bo'lib ketgan xotini erta turib samovar qo'ygan bo'ladi. Chol esa otini to'yg'azib, egarlab qo'yibdi. O'razqul choyni ichib, otga mingach, yana boshliq, San-Toshdagi barcha o'rmonning xo'jayini. Lekin O'razquldaka odamni allaqachon daryoga uloqtirish kerakligi hech kimning xayoliga ham kelmaydi...

Qosh qoraydi. Hali-zamon qorong'i tushadi.

Bolaga birinchi portfel olib berilgan kun ana shunday o'tdi.

U uxlash oldidan portfelini qo'ygani joy topmasdi. Oxiri bosh tomoniga qo'ydi. Xuddi shunday portfeldan sinfdagilarning yarmisida bo'lishini bola hali bilmasdi. Lekin bu ham baribir uning ko'nglini buzolmaydi, uning portfeli go'yo boshqacha, alohida portfelday tuyulardi. Xuddi shunday, uning jajji hayotida katta voqealar yuz berishi, bir kun kelib, yorug' jahonda yolg'iz o'zi, faqat mana shu portfel bilan qolishini hali bilmasdi. Buning hammasiga uning o'zi sevgan Shoxdor ona bug'i haqidagi ertak sabab bo'lishidan bexabar edi...

Bu oqshom ham o'sha ertakni yana bir bor eshitgisi keldi. Mo'min cholning o'zi bu afsonani sevar, go'yo hammasini o'z ko'zi bilan ko'rganday, xo'rsinib, yig'lamsirab, jim qolib va o'yg'a tolib hikoya qilardi.

Biroq bola bobosini bezovta qilishga botinmadi. U bobosining ertak aytishga holi yo'qligini sezardi. «Biz undan boshqa safar iltimos qilamiz, — dedi bola portfeliga. — Hozir esa senga Shoxdor ona bug'i haqidagi ertakni xuddi bobomdan eshitganimdek so'zma-so'z o'zim aytib beraman. Shunday sekin so'zlaymanki, boshqa hech kim eshitmaydi, sen esa eshitgin. Men hamma narsani kinodagiday so'zlashni va ko'rishni sevaman. Mana shunday. Bobom buning hammasi bo'lgan ish, deydi. Shunday bo'lgan ekan...»

#### IV

**B**u juda qadimda bo'lib o'tgan. Zamonlarning zamonida, yer yuzida mayzalardan ko'ra dov-daraxtlar ko'p bo'lgan, qurg'oq yerlardan ko'ra o'lkamizda obihayot mo'l bo'lgan davrlarda bir qirg'iz qabilasi ulkan va muzday daryo bo'yida yashardi. Bu daryoni Enasoy deb atashardi. U bu yerlardan uzoqda, Sibirdan boshlanadi. U yerlarga otda uch yilu uch oyda yetib borish mumkin. Bu daryoni hozir Yenisey deyishadi, ilgari Enasoy deb yuritishgan. U haqda shunday qo'shiq ham to'qilgan:

Sendan ulkan daryo bormi, Enasoy,  
Sendan aziz tuproq bormi, Enasoy.  
Sendan chuqur dard ham bormi, Enasoy,  
Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy.

Sendan ulkan daryo yo'qdir, Enasoy,  
Sendan aziz tuproq yo'qdir, Enasoy,  
Sendan chuqur dard ham yo'qdir, Enasoy,  
Sendan ozod quchoq yo'qdir, Enasoy.

Mana shunaqa edi, bu Enasoy daryosi.

Enasoy bo'yida turli xil elat yashardi. Ular g'oyat og'ir hayot kechirardi, chunki ular bir-birlariga doimo adovat ko'zi bilan qarar edilar. Qirg'iz qabilasini dushmanlar turli tomondan qurshab olgandi. Goh ular, goh bular hujum qilishar, goho qirg'izlarning o'zi ham boshqalarga chovut solib, mollarini haydab ketishar, uylariga o't qo'yishar, odamlarni o'ldirishardi. Qulay kelib qolganda bir tomon ikkinchi tomon odamlarini o'ldirib yuborar edi. Zamon shunaqa edi. Odamning odamga ichi achimasdi. Odam odamni g'ajirdi. Shu darajaga borildiki, hech kimning dehqonchilik qilgisi, mo'l boqqisi, ov qilgisi kelmay qoldi. Qaroqchilik bilan kun kechirish oson tuyulardi: qo'qqisdan bosasan, o'ldirasan, olasan-ketasan. Bir qotillikka qasdma-qasd o'n qotillik bilan javob berishga harakat qilishardi. Shu zaylda kun o'tgan sayin ko'proq qon to'kilardi. Odamlarda aql o'tmaslashib borardi. Dushmanlarni yarashtiradigan, insofga keltiradigan odam yo'q edi. Dushmanga qiron keltirib, o'zga qabilaning so'nggi odamigacha qonini oqizgan, molu mulkini qo'lga kiritgan odam eng aqlli va uddaburon sanalardi.

O'rmonda bir g'aroyib qush paydo bo'lib qoldi. Inson ovoziga o'xshash ayanchli ovoz bilan tundan tonggacha sayrar va yig'lar, shoxdan-shoxga sakrab so'ylardi: «Katta baxtsizlik bo'ladi! Katta baxtsizlik bo'ladi». Shunday bo'ldi ham, o'sha qora kun keldi.

O'sha kuni qirg'iz qabilasi Enasoy bo'yida o'zining buyuk oqsoqolidan judo bo'ldi. Botir Qulchi ko'p yillar yo'lbo'shchilik qildi, ko'pgina yurishlarda, jang-jadallarda qatnashdi. Janglarda omon qoldi, lekin ajali yetdi. Qabiladoshlar ikki kun katta g'am-alamda o'rtandilar, uchinchi kuni esa, botirning jasadini yerga topshirgani yig'ildilar. Eski odatga ko'ra, buyuk oqsoqolni Enasoyning o'nqircho'nqirli qirg'og'i bo'ylab so'nggi yo'lga kuzatish lozim edi, toki, marhumning

ruhi Enasoy daryosi bilan yuksalikda judolashsin, axir «Ena» — bu ona demak, «soy» esa — bu daryoning o'zani-ku. Uning qalbi Enasoy haqidagi qo'shiqni so'nggi bor kuylasin,

Sendan ulkan daryo bormi, Enasoy,  
Sendan aziz tuproq bormi, Enasoy.  
Sendan chuqur dard ham bormi, Enasoy,  
Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy.

Sendan ulkan daryo yo'qdir, Enasoy,  
Sendan aziz tuproq yo'qdir, Enasoy,  
Sendan chuqur dard ham yo'qdir, Enasoy,  
Sendan ozod quchoq yo'qdir, Enasoy.

Dafn etish lozim bo'lgan tepalikda yorug' jahonning to'rt tomonini ko'rsatmoq uchun botirning jasadini bosh uzra ko'tariladi: «Mana sening daryong. Mana sening osmoning. Mana sening yering. Sen biz bilan, hammamiz bir urug' odamlarimiz. Osuda uxla. Biz hammamiz seni kuzatgani keldik». Kelajak avlod xotirasi uchun botirning qabri ustiga marmar tosh qo'yiladi.

Botirning jasadini dafn etishga olib o'tishganda har bir oila o'z ostonasi oldida u bilan vidolashishadi, oq motam yalovini egib, uv tortib yig'lashadi, keyin boshqalar bilan birga qo'shilib yana oq motam yalovlarini egiltirgan holda, aytib yig'lashayotgan kelgusi o'tov tomon ilgarilab borishadi va shu zaylda so'nggi manzilga, to qabristongacha yetib borishlik uchun motam kunlarida barcha qabildoshlar o'tovlarini daryo yoqasiga qator tikishdi.

O'sha kuni hamma tayyorgarlik ko'rib bo'linganda quyosh uyqudan bosh ko'targandi. Uchiga otning dumi bog'langan tug' va botirning urush aslahalari — nayza va qalqoni olib chiqildi. Uning oti dafn etish yopiq-lari bilan burkalgan edi. Karnaychilar jangovar kuy chalishga, barabanchilar barabanga tayoqni jon-jahdlari bilan urishga shay edilarki, toki o'rmon larzaga kelsin, qushlar bulut yanglig' osmonga ko'tarilib, shovqin-suron va nola solsinlar. Yirtqich hayvonlar bo'kirib-hayqirib chakalakzorlarga chopib qolsin, maysalar yerga qapishib ketsin, sadolar jaranglab, tog'larni larzaga keltirsin. Motamsaro ayollar sochlarini yoyib botir Qulchiga aza ochishga shay turishardi. Yigitlar zabardast yelkalarida botirning katta, og'ir jasadini bezovta qilmay ko'tarish uchun tiz cho'kkan edilar. Hamma narsa botirni oxir-

gi yo'lga kuzatib qo'yishga tayyor edi. O'rmon etagida esa to'qqizta biya, to'qqizta ho'kiz, to'qqizta to'qqizlik qo'y qurbonlik uchun hozirlab qo'yilgandi.

Shunda kutilmagan hodisa ro'y berdi. Enasoyliklar bir-biriga har qancha dushman bo'lmasin, oqsoqollarning dafn marosimi kunlarida bir-biri bilan urush qilishni rasm qilmagandi. Mana hozir esa, bir to'da dushman g'am-anduhga botgan qirg'oqdagilarni tong chog'i to'rt tomondan sezdirib o'rab kelib, pistirmalardan barobariga otilib chiqib hamlaga o'tdilar, oqibatda hech kim otga ham mina olmadi, qo'lga qurol ham ola olmadi. Shu tariqa ko'z ko'rmagan qirg'in urush boshlandi. Hammani bir chekkadan o'ldira boshlashdi. Yengilmas qirg'iz qabilasini bir hamla bilan qirib tashlash — dushman rejasi ana shunday edi. Hammani bir boshdan qilich damidan o'tkazishdi, toki bu yovuzlikni eslab hech kim yodga olmasin, qasoskor qolmasin, vaqt esa o'tmish izlarini qumlar bilan ko'mib yuborsin. Tuya ko'rdingmi — yo'q...

Insonni tug'ish va o'stirish qanchalar qiyin, o'ldirish esa — hammasidan oson. Ba'zi birovlar o'z qoniga botib qiymalanib yotishar, birovlar esa qilich va nayzadan qutulib qolmoq uchun o'zini daryoga otar, Enasoy to'lqinlari orasida cho'kib ketardi. Daryo yoqalab jarliklari tikka kesib tushgan qirg'oqlar bo'ylab butun bir chaqirim yo'lda olovga qoplangan qirg'iz o'tovlari lovillab yonardi. Hech kim qochib qutula olmadi, hech kim omon qolmadi. Hammasi o'ldirildi va kuydirildi. O'lib yotganlarning jasadini qirg'oqdan Enasoyga uloqtirdilar. Dushmanlar: «Endi bu yerlar bizniki! Endi bu o'rmonlar bizniki! Endi bu mollar bizniki!» — deb quvonishardi.

Ular boy o'lja bilan qaytishar ekan, o'rmondan ikki bola — bir o'g'il va bir qizning qanday chiqib kelganini payqashmadi. Bu o'zboshimcha va sho'x bolalar otanalaridan yashirincha ertalaboq yaqin o'rmonga qo'lsavat uchun po'stloq shilgani ketishgandi. Ular o'ynab yurishib, o'rmonning ancha ichkarisiga kirib ketishganini sezmay qolishdi. Jang suronini eshitib orqaga otilgan go'daklar na otasini, na onasini, na akasini, na opasini tirik topa oldilar. Go'daklar ota-onasidan va elatidan judo bo'lib qoldi. Ular bo'zlab kul tepadan kul tepaga chopishar, lekin bironta tirik jonni topib bo'lmasdi. Bir zum ichida yetim bo'lib qolishdi. Yorug' jahonda yakayu yolg'iz qoldilar. Uzoqlarda esa jang to'zoni ko'kka o'rlardi, dushmanlar qonli kurash natijasida qo'lga kiritgan mol va qo'ylarini haydab ketishardi.

Bolalar tuyoqlar ostidan ko'tarilgan changni ko'rib, o'sha tomonga yugurishdi. Ular qonxo'r dushman izidan yig'lab, qichqirib chopishardi. Faqat bolaning qalbigina shunday soddadil bo'ladi. Jallodlardan yashirinish o'rniga ularga ye-

tib olishga shoshilishardi. Har nima bo'lsa ham yolg'iz qolishmasa, bu vayronadan, la'nati joydan nari ketishsa bas. Bir-birining qo'lidan ushlab olishgan bola va qizcha ketayotganlar orqasidan quvib, jindakkina kutishni, o'zlari bilan birga olib ketishlarini yolvorib so'rashardi. Biroq qiy-chuv va tuyoqlarning dupur-dupuriyu haydovchilarning hayqirig'ida bu ojiz ovozlarni kim eshitardi!

Bolalar jon-jahdi bilan uzoq chopishdi. Lekin baribir, yetib olisholmadi. Keyin esa, yiqilib qolishdi. Atrofga boqishga, qimirlashga qo'rqishardi. Hamma yoq vahimali edi. Shu zaylda bir-birining pinjiga kirib ko'zlari yumilganini bilmay qolishdi.

Yetimcha yetti ko'cha, deb bekorga aytmaganlar. Tun bexatar o'tdi. Hayvon ularga tegmadi, o'rmon maxluqlari ko'tarib ketmadi. Ular uyg'onishganda, tong otgandi. Quyosh nur sochib, qushlar sayrardi. Bolalar o'rinlaridan turib, yana mol haydovchilarning izidan yo'lga tushishdi.

Yo'lma-yo'l meva va ildiz terib yeb jon saqlashdi. Yo'l yura-yura uchinchi kuni bir tog' tepasida to'xtashdi. Pastga qarashsa — keng, yam-yashil maysazorda katta tantana bo'layotibdi. Bu yerda tikilgan o'tovlarning, gurillab yonayotgan gulxanlarning, gulxan atrofida o'tirgan odamlarning son-sanog'i yo'q. Qizlar hayinchak uchib, qo'shiq aytishmoqda. Davra tortgan odamlar o'rtasida polvonlar xuddi burgutday gir aylanib, bir-birini itqitib otishyapti. Dushmanlar o'zlarining g'alabasini nishonlashardi.

Bola bilan qiz yaqin borishni ham, bormaslikni ham bilmay tog' tepasida turishardi. Lekin go'sht qovurdoq, non, sarimsoqning yoqimli hidi ufurib turgan gulxan atrofida paydo bo'lib qolishni istashardi.

Bolalar chidab turisholmadi, tog'dan tusha boshlashdi. Tantana egalari hayron bo'lishdi, ularni to'da bo'lib o'rab olishdi:

— Kimsanlar? Qayoqdan?

— Biz ochmiz, — javob berdi bola bilan qizcha, — bizga yeydigan bir nima bersangiz.

Ular bolalarning tilidan kim ekanligini darrov payqab qolishdi. Baqirib-chaqirib, shovqin solishdi. Tugatilmagan dushman oilasining omon qolgan a'zolarini hozir o'ldirish kerakmi yoki xonning oldiga olib borish kerakmi, deb bahsga tushib ketishdi. Ular bahslashib turganda rahmdilgina bir ayol bolalarga jindek pishgan ot go'shti uzatdi. Bolalarni xon huzuriga sudrab borishar ekan, ular qo'llaridagi ovqatini yutoqib yeyaverishdi. Ularni ostonada oybolta ushlab turgan yasovullar xonning baland qizil o'toviga olib kirishdi. Butun qarorgoh bo'ylab

esa, allaqayoqdan paydo bo'lib qolgan qirg'iz zotlari haqidagi tashvishli xabar tarqaldi. Bu nimadan darak berishi mumkin? Hamma o'z uyini va tantanani tark etib, ur-to'polon bilan xonning o'tovi tomon chopib ketdi. Bu payt xon mashhur lashkarlari bilan qorday oppoq namat to'rida savlat to'kib o'tirardi. U asal qo'shilgan qimizni simirib, maqto'v qo'shiqlarini sel bo'lib tinglab o'tirardi. Xon odamlar nima uchun to'planishganini bilgach, g'azabdan quturib ketdi: «Meni bezovta qilishga qanday jur'at etdilaring? Biz axir qirg'iz zotini butunlay qirib tashlamagan edikmi? Men senlarni Enasoyning abadiy hukmroni qilib qo'ymadimmi? Namuncha o'pkalaringni qo'litiqlab yugurib kelmasalaring, qo'rzoqlar? Qaranglar, oldilaringda kim turibdi! Ey, cho'tir yuzli Baymoq kampir, — qichqirdi xon. U olomon orasidan ajralib chiqqanda esa, unga dedi:

— Mana bularni o'rmonga oborib shunday qilginki, shu bilan qirg'iz zoti tugasin, xayolda ham qolmasin, nomi abadiy o'chsins. Boshla, Cho'tir Baymoq kampir, aytganimni darhol bajo keltir...»

Cho'tir Baymoq kampir jimgina itoat qilib, bola bilan qizni qo'lidan ushladi-da, olib ketdi. Ular o'rmon oralab uzoq yurgach, Enasoy qirg'og'idagi baland jarlikka yetib kelishdi. Cho'tir Baymoq kampir bolalarni shu yerda to'xtatib, ularni jar yoqasiga olib keldi. So'ng, ularni jarlikka itarib yuborish oldidan shunday dedi:

— O, muazzam Enasoy daryosi! Sening qa'ringga tog'ni qulatsa, u bir xarsangday jo bo'ladi. Agar yuz yillik qarag'ayni tashlasa, uni cho'pday oqizib ketasan. Kel, endi ikki qum zarrasini — ikki inson bolasini o'z bag'ringga olgin. Ularga yer yuzida joy yo'q. Senga men aytib o'tirishim kerakmi, Enasoy? Agar yulduzlar odamga aylanib qolsa bormi, osmon ularga torlik qilib qoladi. Agar baliqlar odamga aylanib qolsa bormi, ularga daryo va dengizlar torlik qilib qoladi. Senga men aytib o'tirishim kerakmi, Enasoy? Ol, bu bolalarni, uloqtirib ket. Qo'y, ular bu manfur dunyomizni go'daklikda toza qalb bilan, bolalik hayosi bilan, yovuz niyat va yovuz ishlar bilan o'z nomiga isnod keltirishga ulgurmasdanoq tark etishsin, toki inson azob-uqubating ko'rish va boshqalarning ham g'am-alamiga sababchi bo'lish ularga nasib qilmasin. Ol bularni, ola qol bularni qudratli Enasoy...

Bolalar zor qaqqash, ho'ngrab yig'lardi. Tik qirg'oqdan pastga qarash qanchalik dahshatli ekanligini ko'rib turgan bolalarning qulog'iga kampirning so'zi kirmasdi. Pastda esa quturgan to'lqinlar sapchiydi.

— Quchoqlashinglar, bolalar, oxirgi marta xayrlashib olinglar, — dedi Cho'tir Baymoq kampir. O'zi esa ularni jarga irg'itish qulay bo'lsin uchun yenglarini shimardi. Keyin shunday dedi:

— Endi meni kechiringlar, bolalar. Peshanangizga yozgani shu ekan. Bu ishinni hozir o'z ixtiyorim bilan qilmayotgan bo'lsam ham, lekin sizlarning baxtingizga...

U gapini tugatmagan ham ediki, yonginasidan bir ovoz keldi:

— To'xta, dono, oqila kampir, gunohsiz bolalarni juvonmarg qilma.

Cho'tir Baymoq kampir qayrilib qaradi-yu, hayratda qoldi: qarshisida g'aroyib ona bug'i turardi. Uning yirik-yirik ko'zlari ta'nali va g'amgin boqardi. U sutdek oq, qorni bo'taloqning yungidek qo'ng'ir yung bilan qoplangan. Shoxlari bo'lsa go'zallik timsoli: serbutoq go'yo kuzgi daraxtning bir bo'lak shoxi. Yelini emizikli ayolning ko'kragidek top-toza va silliq.

— Kimsan? Nega odamga o'xshab gapiryapsan? — so'radi Cho'tir Baymoq kampir.

— Men ona bug'iman, — javob berdi u. — Shuning uchun odamga o'xshab gapirdimki, bo'lmasa sen tushunmaysan, quloq ham solmaysan.

— Nima istaysan, ona bug'i?

— Qo'yib yubor bolalarni, donolarning donosi. Sendan iltimos qilaman, ularni menga ber.

— Nima qilasan ularni?

— Odamlar mening ikki egizimni, ikki bug'i bolasini o'ldirishdi. Men o'zimga bola izlab yuribman.

— Sen bularni boqmoqchimisani?

— Ha, donolarning dono ayoli.

— Sen yaxshilab o'ylab ko'rdingmi, ona bug'i? — masxaraomuz kuldi Cho'tir Baymoq kampir. — Bular axir odam bolasi-ku. Bular katta bo'lishadi, keyin se-ning bolalarini o'ldirishadi.

— Ular katta bo'lishsa, mening bolalarimni o'ldirishmaydi, — javob qildi unga bug'ilar onasi. — Men ularga ona bo'laman, ular esa mening bolalarim. Axir ular o'z aka-ukalarini o'ldirishadimi?

— Eh, nimasini aytasan, ona bug'i, sen odamlarni bilmaysan, — bosh tebratdi Cho'tir Baymoq kampir, — ular o'rmon hayvonlarigagina emas, hatto o'z-o'zlariga ham rahm-shafqat qilishmaydi. Bu yetimchalarni senga berardim, shunda mening so'zlarim qanchalik rostligiga o'zing guvoh bo'larding, lekin odamlar bari bir qo'lingdan tortib olib bu bolalarni o'ldirishadi. Buncha g'amning senga nima keragi bor?

— Men bolalarni uzoq o'lkalarga olib ketaman, u yerdan bolalarni hech kim qidirib topolmaydi. Bolalarga rahm qil, donolarning donosi, ozod qil ularni. Men



ularga sadoqatli ona bo'layin. Yelinlarim to'lib turibdi. Sutim bolalarni orziqib kutyapti. U bolalarga intizor.

— Ha, mayli, shunday bo'ladigan bo'lsa, — dedi oxiri Cho'tir Baymoq kampir, o'ylab turib, — bularni tezroq olib jo'na. Yetimlarni o'zingning uzoq yurtingga olib ket. Agar ular uzoq yo'l yurib toliqib halok bo'lsa yoki duch kelgan qaroqchilar o'ldirib ketsa, yoki bo'lmasa bu odam bolalari sening yaxshiligingga yomonlik bilan javob qaytarishsa — o'zingdan ko'r.

Ona bug'i Cho'tir Baymoq kampirga minnatdorchilik bildirdi. Bola bilan qizga esa:

— Endi, men sizlarning onalaringman, sizlar esa mening bolalarimsizlar, — dedi. — Sizlarni uzoq yurtga, qorli tog' va daraxtzorlar qo'yniga joylashgan iliq dengiz — Issiqko'lga olib ketaman.

Bola va qizcha shodlanib, Shoxdor ona bug'i ortidan chopqillab ketishdi. Lekin asta-sekin charchab, holdan toyishdi, yo'l esa olis — dunyoning bu chetidan u chetiga cho'zilgan. Ona bug'i bolalarni o'z suti bilan boqib, kechalari bag'riga bosib isitmaganda ular hech qayerga ham yetisholmas edi. Ular uzoq yurishdi. Ona yurt bo'lmish Enasoy tobora ortga chekinib borar, lekin yangi vatan bo'lmish Issiqko'lga hali juda uzoq edi. Yo'l yurishdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishdi. Yozu qish, ko'klamu yoz va kuz, yana yozu qish, yana bahoru yana yoz va kuz qalin o'rmonlardan, jazirama cho'llardan, ko'chma qum sahrolardan, baland tog'lardan va hayqirib oqqan daryolardan ne mashaqqat bilan o'tishdi. Ularning izidan bo'rilar galasi quvdi, Shoxdor ona bug'i esa bolalarni ustiga mindirib yovuz yirtqichlardan qutqarib ketdi. Ularning izidan tushgan otliq ovchilar o'q uzib, qichqirishardi: «Bug'i odam bolasini o'g'irlab ketyapti! Ushla! Tut!» va ketma-ket o'q uzishardi. Shoxdor ona bug'i bolalarni opichib, g'izillab uchayotgan o'qlarga, chaqirilmagan qutqaruvchilarga yetkazmay borardi. U o'qdan ko'ra tezroq chopar va shivirlardi: «Mahkamroq ushlanglar, bolalarim — bosqinchilar!»

Oxiri Shoxdor ona bug'i o'z bolalarini Issiqko'lga yetkazib keldi. Ular tog' tepasida turib, hayratlanishardi. Chor atrof qorli tog'lar bilan qoplangan, tog'lar o'rtasida ko'm-ko'k o'rmon, ko'z ilg'agan hamma joyda dengiz chayqalib shovillab turardi. Ko'm-ko'k suv yuzida oppoq to'lqinlar yugurar, shamol ularni uzoqlardan haydab kelib, yana yiroqlarga haydab ketardi. Issiqko'l qaydan boshlanib, qayda tugaydi — bilib bo'lmasdi. Bir chekkasida quyosh bosh ko'tarsa, ikkinchisida hali tun pardasini yig'ishtirolmasdi. Issiqko'lning chor atrofni qancha tog' qurshab olgan — sanab bo'lmasdi, u tog'lar ortida yana shunga o'xshash qanchadan-qancha qorli tog'lar bo'y cho'zib turibdi.

— Mana shu yangi vataningiz bo'ladi, — dedi Shoxdor ona bug'ı. — Mana shu yerda yashaysizlar, yer haydaysizlar, baliq tutasizlar, molu hol qilasizlar. Ming yillar tinch-totuv yashanglar. Ha, sizlarning avlodingiz yashaydi, ko'payadi. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutishmaydi. Ularga o'z ona tillarida so'zlash va kuylash yoqimli bo'ladi. Insonlarga qanday yashash lozim bo'lsa shunday yashanglar. Men esa sizlar va sizlarning bolalaringizning bolalari bilan hamisha birga bo'lay...

Mana shunday qilib, bola va qizcha qirg'iz avlodining ajdodlari sifatida, mang u jannatmakon Issiqko'lda o'zlariga yangi makon topdilar.

Vaqt tez o'tib boraverdi. Bola baquvvat yigit bo'ldi, qiz bo'yiga yetdi. Shunda ular qovushib, er-xotin bo'ldilar. Shoxdor ona bug'ı esa Issiqko'lni tark etmasdan, yaqin o'rtadagi o'rmonda yashay boshladi.

Bir kun tong mahali Issiqko'l qo'qqisidan notinchlanib, shovillay boshladi. Qizni to'lg'oq tutib, azoblanmoqda edi. Er esa cho'chib ketdi. Qoya ustiga chopib chiqdi-da, ovozining boricha chaqira boshladi:

— Qayerdasan, Shoxdor ona bug'ı? Issiqko'l qanday shovqin solyapti, eshitmayapsanmi? Qizing tug'yapti. Tezroq kel, Shoxdor ona bug'ı, bizga yordam qil...

Shunda uzoqdan xuddi karvonlarning qo'ng'irog'iday jarangdor tozush eshiltildi. Bu tovush tobora yaqinlashib kelaverdi. Shoxdor ona bug'ı yetib keldi.

U shoxlarida beshik keltirdi. Beshik oppoq qayindan yasalgan bo'lib, bandida kumush qo'ng'iroqcha jaranglab turardi. Bu qo'ng'iroq Issiqko'l beshiklarida hozirgacha ham yangrab turibdi. Onalar beshiklarni tebratar, kumush qo'ng'iroq jaranglar, go'yo Shoxdor ona bug'ı uzoqlardan chopib, shoshib, shoxlarida qayin beshik ko'tarib kelayotganday tuyuladi...

Shoxdor ona bug'ı yetib keldi-yu, shu payt qizning ham ko'zi yoridi.

— Bu beshik sizlarning to'ng'ichlaringiz uchun, — dedi Shoxdor ona bug'ı. — Hali ko'p farzand ko'rasizlar. Yetti o'g'il, yetti qiz!

Ota-ona xursand bo'lishdi. To'ng'ich farzandlarini Shoxdor ona bug'ı sharafiga — Bug'iboy deb atashdi. Bug'iboy o'sib-ulg'aydi, qipchoqlar avlodidan bo'lgan go'zal qizga uylandi, shu bilan Bug'iboy avlodi — Shoxdor ona bug'ı avlodi ko'paya boshladi. Bug'iboy avlodlari Issiqko'lda ko'p va qudratli bo'lib qoldi. Bu avlod Shoxdor ona bug'ini muqaddas deb bilishardi. Bug'iboy avlodlarining o'tovida eshik tepasiga bug'ı shoxi osib qo'yilar, bu esa, uzoq-uzoqlardan ham o'tovning Bug'iboylar avlodiga mansub ekanligidan darak berib turardi. Bosqinchi dushmanlarni daf etganda yoki poyga musobaqalarida Bug'iboy avlodlarini «Bug'ı!» degan bitta laqabning o'zidanoq anglab olishar, ular esa har doim

g'olib chiqishardi. O'sha kezlar Issiqko'l o'rmonlarida oppoq shoxdor bug'ilar bo'lardi, go'zallikda hatto ko'kdagi yulduzlar ham ularga rashk qilardi. Ular Shoxdor ona bug'ining bolalari edi. Ularga hech kim tegmasdi, hech kim hurkitmas edi. Bug'iboy avlodlari bug'iga duch kelgan joyda otdan tushib, unga yo'l berardi. Oshiqqlar suygan qizlarini suluvlikda go'zal oq bug'iga qiyos qilishardi...

Bug'iboy avlodining oshib-toshib ketgan mashhur bir boyi to o'lguniga qadar shu odat saqlanib qoldi. Uning ming-minglab qo'ylari, ming-minglab yilqilari bo'lib, mollariga qaraydigan qancha-qancha cho'ponlar ham uning izmida edi. O'g'illari unga katta ma'raka qilishdi, Ular bu ma'rakaga yer yuzining hamma ma'lum va mashhur kishilarini chaqirishdi. Mehmonlar uchun Issiqko'l qirg'o-g'iga bir ming bir yuzta o'tov tikdilar. Qancha mol so'yildi, qancha qimiz ichildi, qanchalab qashqarcha nozne'matlar berildi, sanog'iga yetib bo'lmasdi. Boyning o'g'illari gerdayib yurishardi: axir otadan bitmas-tuganmas meros qolganligini, farzandlar otani qanday hurmatlab, uning xotirasini qanday e'zozlashlarini odamlar ko'rib qo'ysin-da... («E bo'tam, odamlar aql o'rniga boyligini ko'z-ko'z qilishsa, bu qanday yaramaslik»).

Marsiya aytuvchilar esa, marhumning o'g'illari taqdim etgan arg'umoqlarda yelib, sovg'aga berilgan suvsar telpak va shoyi to'n'larga o'ralib, marhumni va uning merosxo'rlarini ko'klarga ko'tarib maqtashardi.

— Bu olamda bunday baxtli hayot va shukuhli ma'rakani ko'rgan bormi? — deb kuylardi biri.

— Dunyo bino bo'lgandan beri bunaqasi hali bo'lmagan! — derdi ikkinchisi.

— Hech qayerda bo'lmagan! Faqat bizdagina ota-onalarni shunday hurmatlashadi, ota-ona shon-sharafini yuksak tutishadi, ularning muqaddas nomini ulug'lashadi, — kuylardi uchinchisi.

— Ey, qaqildoq marsiyachilar, nima deb valdirayapsiz! Olamda bu hotamtoylikning ta'rifiga loyiq so'z, marhumning shon-shuhratiga teng keladigan shuhrat bor ekanmi? — kuylardi to'rtinchisi...

Ular shu zaylda kecha-kunduz kim o'zarga bahslashardi. («E-e, bo'tam, ho-fizlar hamdu sano o'qishda bahslashsa, qanday yaramaslik, ular qo'shiqchidan qo'shiq kushandasiga aylanishadi».)

Dovruq solgan ma'raka ko'p kunlik bayramday o'tdi. Boyning maqtanchoq o'g'illari boshqalarni lol qoldirishni, shuhratlari olamga yoyilishini orzu qilishdi. Yana buning ustiga mangu uyquga ketgan shavkatli otalari Shoxdor ona bug'i avlodidan ekanligini hamma bilishi uchun uning qabriga bug'i shoxini o'rnat-

shni o'ylab topishdi. («E bo'tam, qadimgi odamlardan qolgan gap bor: boylik — takabburlikni, takabburlik esa — telbalikni tug'diradi».)

Boyning o'g'illari ota xotirasiga ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yodgorlik o'rnatishni istashgani uchun ham hech nima ularga to'sqinlik qila olmadi. Aytilgan so'z — otilgan o'q. Ovchilarni yo'llashdi. Ovchilar bug'i otib, shoxini tanasidan ayirishdi. Bug'i shoxlarining tepaga taralib turishi ko'kda parvoz qilayotgan burgutning qanotlariga o'xshardi. Bug'i shoxlari o'g'illarga yoqib tushdi: ularning har biri o'n sakkiz butoqqa bo'lingan — demak, o'n sakkiz yoshda ekan. Yaxshi! Ular shoxni qabr ustiga o'rnatish uchun ustalarga farmon berishdi.

Qariyalar hayratda qolishdi:

— Bug'ini o'ldirishga qanday haddingiz sig'di? Shoxdor ona bug'i avlodiga qo'l ko'tarishga kim jur'at etdi?

Boyning merosxo'rlari ularga javoban:

— Biz o'z yerimizdagi bug'ini o'ldirdik. Bizning saltanatimiz ostidagi yerlarda nimaiki qimirlagan, uchgan tirik jonzot bo'lsa, pashshadan tortib tuyagacha — hammasi bizniki. O'zimizga qarashli jamiki narsalarni nima qilish-qilmaslikni o'zimiz yaxshi bilamiz. Yo'qolinglar! — deyishdi.

Xizmatkorlar qariyalarni qamchi bilan savalab, otga teskari mindirishdi-da, sazoyi qilib haydashdi.

Hamma balo shundan boshlandi. Shoxdor ona bug'i avlodlarining boshiga katta baxtsizlik tushdi. Deyarli har bir kishi o'rmonlarda oq bug'ilarni ovlashga tushib ketdi. Bug'iboy avlodidan bo'lgan har bir kishi o'z ajdodlari qabriga bug'i shoxi o'rnatishni burch deb bilar edi. Bu ish endi marhumlar xotirasiga bo'lgan muqaddas vazifa, alohida hurmatga aylandi. Kimki bug'i shoxlarini topolmas ekan, endi uni odam o'rnida sanamay qo'yishdi. Bug'i shoxlari bilan savdo qilish, ularni oldindan g'amlab qo'yish odat tusiga kirib qoldi. Shoxdor ona bug'i avlodlari orasida shunday kishilar paydo bo'ldiki, ular bug'i shoxlaridan o'lja yig'ishni va pullashni hunar qilib oldilar. («E, bo'tam, pul hukmron bo'lgan joyda ezgu so'zga o'rin yo'q, go'zallikka o'rin yo'q».)

Issiqko'l o'rmonlarida bug'ilarga qirg'in keldi. Ularga shafqatsiz bo'lishdi. Bug'ilar qadam yetmagan joylarga qochdi, lekin u yerda ham qo'yishmadi. Ovchilar tozilarni qo'yib pistirma tomon haydashar, o'zlari esa pistirmalarda berkinib yotib, yaqinlashgan bug'ilarni bexato otib olishardi. Bug'ilarni to'da-to'dasi bilan qirishdi. Shox butoqlari eng ko'p bo'lgan bug'ini kim otarga garov bog'lashardi.

Bug'ilar g'oyib bo'ldi. Tog'larni tark etdi. Na tunda, na tongda bug'i ovozi eshitalardi. Na o'rmonda, na yaylovda uning qanday irg'ishlab, qanday sapchishlarini, shoxlarini yelkasi ustiga tashlab, parvozdagi qushday jarliklardan qanday sakrab o'tishlarini endi hech kim ko'rmasdi. Butun umri bo'yi bug'i nima ekanligini ko'rmagan yangi insonlar tug'ildi. Faqat u haqdagi ertaklarni eshitib, qabrlar ustidagi shoxlarni ko'rishdi, xolos.

Shoxdor ona bug'iga nima bo'ldi?

U odamlardan ranjidi, juda qattiq ranjidi. Aytishlaricha, son-sanoqsiz o'qlar va tozilar dastidan bug'ilarga kun qolmagan, ularning eng so'nggi avlodi barmoq bilan sanarli darajada oz qolgan chog'da Shoxdor ona bug'i eng baland cho'qqiga ko'tarilib, Issiqko'l bilan vidolashibdi va so'nggi bolalarini ulkan dovon ortiga, boshqa yurtlarga, boshqa tog'larga boshlab ketibdi.

Mana, olamda qanday ishlar bo'ladi. Mana, ertak ham tugadi. Xoh ishon, xoh ishonma.

Shoxdor ona bug'i esa, ketishi oldidan, bundan buyon bu yerlarga aslo qadam bosmayman, debdi...

## V

**Y**ana tog'lar qo'yniga kuz kirib keldi. Yana shovqin-suronli yozdan so'ng hamma narsa kuzgi sokinlikka moslasha boshladi. Mol qamaydigan qo'ralar atrofidagi changlar bosildi, gulxanlar o'chdi. Mollar qishlovga ko'chdi. Odamlar jo'nab ketishdi. Tog'lar huvillab qoldi.

Burgutlar bazo'r qur-qurlab, yolg'iz ucha boshladi. Yoz bo'yi o'z o'zanidan shovillab oqqan daryo sayozlanib, ovozi pastlashib qoldi. O'tlar o'sishdan to'xtadi, ildizlardan jon ketdi. Barglarning shoxlarda osilib turishga ortiq madori qolmay uzilib tusha boshladi.

Eng baland cho'qqilarga esa kechalari kumush rang yupqa qor yog'ib chiqardi. Ertalab g'ira-shira tog' tizmalari qaraburul tulkining yoliday oppoq tusga kirardi.

Sovuq tushib, daralarda izg'irin shamol esa boshladi. Lekin hamon kunlar charog'on va quruq edi.

Daryo ortida, qorovulxona ro'parasidagi o'rmon tezda kuz og'ushiga kirdi. Daryodan to yuqoriga, Qora qarag'ayzor chegarasigacha cho'zilib ketgan chakalakzorlarni dudsiz olov yanglig' kuzgi xazonrezgi bosgandi. Eng chidamli dara-

xtlar — to‘q sariq rangli tog‘ teragi va qayin o‘rmonlari ayniqsa ko‘zga yaqqol tashlanib turardi. Ular ulkan o‘rmonning qor bosgan baland cho‘qqilarigacha — qayrag‘och va archalar qorayib turgan yergacha cho‘zilib ketgan edi.

Qarag‘ayzor qo‘yni hamma vaqt top-toza va qasrlardagidek salobatli. Qayoqqa qaramang, faqat qattiq daraxtlarning jigjar rang tanasi, smolali quruq hid, butun o‘rmon poyiga to‘kilgan qoramtir igna yaproqlar. Keksa qarag‘aylarning uchida g‘ir-g‘ir shamol esadi.

Lekin bugun erta tongdanoq tog‘lar boshida chag‘illab, bezovtalangan zag‘chalar aylanib qoldi. Jon-jahdi bilan chag‘illagan zag‘chalarning kattakon galasi qarag‘ayzor o‘rmon tepasida betinim aylanaverdi. Ular bolta ovozi eshitgan zahotiyog bezovtalangan bo‘lsa, so‘ng xuddi birov ozor bergandek bir-birlariga gal bermay chag‘illab, qirqilgan qarag‘aylarni tog‘dan olib tushayotgan ikki kishining izidan ta‘qib etardi.

Yog‘ochlarni otlarga bog‘lab sudratib kelishardi. O‘razqul otning jilovini tutib oldinda borardi. U turtinib, plashining bari butalarga ilinib, qo‘shga qo‘shilgan ho‘kizday hansirardi. Uning ortidan, yog‘och orqasidan Mo‘min bobo yelib kelardi. Bunday balandlikda unga ham osonmasdi, cholning nafasi qisilib qolgandi. Uning qo‘lida qarag‘ay pishang bo‘lib, bu bilan u yo‘l-yo‘lakay yog‘ochlarni o‘nglab borardi. Yog‘ochlar goh to‘nkalarga, goho toshlarga hadeb qadalib qolaverar, qiyalikka kelganda esa nishabga ko‘ndalang burilar va pastga yumalab ketguday bo‘lardi. Unda falokatdan qochib qutulib bo‘psan — naq majaqlab o‘ldiradi.

Pishang bilan yog‘ochlarni to‘g‘rilab borayotgan kishiga ayniqsa xavfli, har halo yuz berishi mumkin. Qo‘rquvdan bir necha bor yuganni tashlab qochgan O‘razqul har safar chol o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib, yog‘ochni qiyalikda tutib, uning ot yoniga qaytishini va yugandan tutishini kutayotganini ko‘rib uyalib ketardi. Lekin o‘z aybingni yashirmoq uchun, uni birovga to‘nkamoq kerak deb bekorga aytishmagan-da.

— Sen nima, meni narigi dunyoga jo‘natmoqchimisani? — O‘razqul qaynotasiga qichqirdi.

Atrofdagi O‘razqulning ovozi eshitadigan va unga dakki beradigan hech kim yo‘q edi: keksalarga shunday muomala qilishni kim ko‘rgan? Qaynotasi, buni men ataylab qilibmanmi, axir o‘zim ham yog‘och tagida qolib ketishim mumkin-ku, xuddi buni qasddan qilayotgandek, menga buncha qichqirishning nima keragi bor, deb qo‘rqa-pisa pichirladi.

Bu hol O‘razqulning yana battar jahlini chiqardi.

— Eh, seni qara-ya! — g'azablendi u. — Seni bosib qolsa axir sen yoshingni yashagansan. Senga nima? Men mayib bo'lsam, qizing kimga qoladi, uni kim oladi? Shaytonning qamchisiday bu bepusht kimga kerak...

— Tushunib bo'lmaydigan odamsan, o'g'lim. Senda odamlarga hurmat degan narsa yo'q, — dedi bunga javoban Mo'min.

O'razqul hatto to'xtab, cholga razm soldi:

— Bunday chollar allaqachon o'choq oldida yonboshlab, o'zini olovga toblab yotibdi. Senga esa maosh oqib kelib turibdi. Qayoqdan kelyapti bu maosh? Mening sharofatim bilan kelyapti. Senga yana qanaqa hurmat kerak?

— Kel, qo'y endi, aytdim qo'ydim-da, — muloyimlashdi Mo'min.

Shunday qilib ular yurishda davom etishdi. Yana bir dovon oshib, qiyalikda tin olgani to'xtashdi. Ot butunlay terga tushib, ko'pikka qoplandi.

Son-sanoqsiz zag'chalar esa hamon tinchimas, charx urib aylangani-aylangan. Go'yo bugun kun bo'yi chag'illashga qasd qilganday zo'r berib chag'illardi.

— Qishning erta tushishini sezyapti, — dedi Mo'min ohista gapni boshqa yoqqa burib va bu bilan O'razqulni jahldan tushirmoqchi bo'lib. — Uchib ketishning payida bo'lyapti. Xalaqit berganni yoqtirmaydi, — deb qo'shib qo'ydi, xuddi aqlsiz qushlar uchun uzr so'ragandek.

— Kim ularga xalaqit beryapti? — keskin burilib qaradi O'razqul. Birdan qizarib ketdi. — Allanimalar deb aljiysan, chol, — dedi sekin do'q urgan ohangda.

«Eh, — xayoliga keltirdi u, — nimaga ishora qilyapti! Bu nimasi, uning zag'chalari dastidan qarag'ayga tegmaslik, bir shoxini ham sindirmaslik kerak ekanda? Yo'q, bekor aytibsan? Hozircha bu yerga men xo'jayinman». U g'azab bilan uymalashayotgan zag'chalar galasiga qaradi:

— Eh, pulemyot bo'lgandami! — dedi va burilib uyatsiz so'z bilan so'kindi.

Mo'min jim qoldi. U kuyovining so'kinishini ko'p eshitgandi.

«Yana ayniyapti, — ich-ichidan g'am tortdi chol. — Ichdi — hayvonga aylanadi. Nahorda bosh og'rig'iga tortsa ham — bir so'z qotma. Odamlar nega shunday bo'lib qolishar ekan-a? — o'yga toldi Mo'min. — Sen unga yaxshilik qilasan, u senga yomonlik qaytaradi. Uyalmaydi ham, uyalishni xayoliga keltirmaydi ham. Xuddi shunday bo'lishi lozimdek. Hamisha o'zinikini to'g'ri deb biladi. Faqat unga yaxshi bo'lsa bo'lgani. Hamma uning atrofida girdikapalak bo'lishi kerak. Agar istamasang majbur qiladi. Yaxshiyamki, mana bunday tog'da, o'rmonlar orasida o'tiradi, uning qo'li ostida bitta, ikkita odami bor. Kattaroq amalga minsa bormi? Xudo ko'rsatmasin... Bundaylarni joyidan siljitib ham bo'lmaydi.

Hamisha o'z ulushini changallab qoladi. Sen bunaqalardan hech joyga qochib qutulolmaysan ham. Hamma joyda u seni kutib turadi, izlab topadi. O'zining dorilomon yashashi uchun sening joningni sug'urib oladi. Hamisha haq bo'lib chiqadi. Ha, bundaylarni siljitib bo'psan...»

— Xo'sh, yetar qaqqayib turish, — O'razqul cholning xayollarini tarqatib yubordi. — Ketdik! — buyruq qildi u. Ular yo'lda davom etishdi.

Bugun ertalabdanoq O'razqulning kayfiyati joyida emasdi. Ertalab, asbob-uskunalar bilan narigi qirg'oqqa, o'rmon tarafga o'tish kerak bo'lgan chog'da, Mo'min nabirasini maktabga olib borishga shoshardi. Bugun aqlidan ozib bo'ldi! Har kun ertalab otni egarlaydi, bolani maktabga eltib qo'yadi, keyin uni yana olib keltani boradi. Bu tashlandiq daydi bilan ovora. Qarang-a, maktabga kechikish mumkin emasmish. Bu yerdagi ish shundayki, xudo biladi oxiri nima bo'larkin, bundan chiqdi — bu ishni keyinga qoldirib tursa bo'larkan-da? Shunday emasmi? «Men, deydi, bir zumda qaytib kelaman, bola maktabga kechiksa muallimning oldida uyalaman». Uyaladigan odamingni topibsan! Ahmoqsan-da! Bu muallimang o'zi kim bo'libdi? Besh yildan beri ustidan bitta palto tushmaydi. Faqat daftar bilan, sumka bilan ko'rasan... Doimo yo'lda qo'l ko'tarib mashina kutgani-kutgan — hadeb tumanga tushadi, hamisha unga nimadir yetishmaydi, goh maktabga ko'mir deydi, goh oyna, goh bo'r, hatto lattagacha so'raydi. He, nomusli muallima bunday maktabga kelarmidi? Qanaqa ot topishibdi-ya — «mitti maktab». U chindan ham mitti-da. Undan nima naf kelardi. Haqiqiy o'qituvchilar shaharda. Maktablari oynadan. O'qituvchilari galstuk taqib olgan. Lekin shaharda shunday-da... Boshliqlar u yerda hashamatli mashinalarda ko'chalardan qanday o'tishadi. Mashinalarni aytmaysanmi?! Qop-qora, yaltiroq, bu mashinalarni «lip» etib o'tib ketguncha to'xtab tomosha qilging keladi. Shahar odamlari esa, xuddi bu mashinalarni ko'rmayotgandek parvo ham qilishmaydi. Vaqtlari yo'q — shoshilishadi, qayoqqadir chopishadi. Ana u yerda, shaharda, hayotni — hayot desa bo'ladi. Qani endi o'sha yoqqa yetishsang, biron joyga o'rnashib olsang ekan. U yerda odamlarni amaliga qarab hurmat qilishni bilishadi. Lozimi — demak, hurmat qilishing shart. Katta amalga — katta hurmat. Madaniyatli odamlar. Shuning uchun ham u yerda mehmonma-mehmon yurish yoki u-bu sovg'a qilish, yog'och tashish, yoki shunga o'xshash allaqanday ishlarni qilishga to'g'ri kelmaydi. Bu yerdagiga o'xshab — ellik so'm, ko'pi bilan yuz so'm berib, yog'och olib, ustingdan shikoyat yozib yurmaydi: O'razqul poraxo'r, falon-piston... Nodonlik!





Ha, shaharda bo'lgandami... Eh, tog'iga ham, o'rmoniga ham, mana bu dardisar yog'ochlarga ham, pushtsiz xotinga ham, manavi valakisalang, beaql cholga ham qo'l siltab yuborgan bo'lardim. Eh, suliga to'ygan otdek jo'sh urib ketardim-da! O'zimni hurmat qilishga majbur etardim. «O'razqul Balajanovich, kabinetigizga kirishga ruxsat eting». U yerda shaharlikka uylanib olardim. Nega mumkin emas ekan? Aytaylik, bironta qo'lida mikrofoni bilan o'ynab ashula aytadigan go'zal artistkaga: aytishadiki, ular uchun eng muhimi odamning amaldor bo'lishimish. Mana shunaqasini qo'ltig'idan olib galstuk taqib yursang. Kinoga borsang. U bo'lsa tufisini tiqillatib, atir taratib yursa. O'tgan-ketgan burnini cho'zib qolaveradi. Qarabsanki, bolalar tug'iladi... O'g'limni yuristlikka o'qitardim, qizim esa royal chalsin. Shaharlik bolalar darrov ko'zga tashlanadi — aqlli bo'lishadi. Uyda faqat ruscha gaplashishadi: ular kallalaridan eski qishloq so'zlarini chiqarib tashlashadi. U o'z farzandlarini shunday tarbiyalagan bo'lardi: «Papo-chka, mamochka, uni olib ber, buni olib ber...» O'z jigarbandedandan biron narsani ayab o'tirarmiding? U ko'plarni boplardi-da, kim ekanini ko'rsatib qo'yardi. Boshqalardan nimasi kam uning? Nima, yuqoridagilarning undan biron joyi ortiqmi? Ular ham o'ziga o'xshagan odamlar-da. Ularning omadi kelgan faqat. Uning esa omadi kelmagan. Baxt kulib boqmagan. O'zida ham ayb bor. O'rmonchilar kursini bitirgach, shaharga ketishi kerak edi, texnikumga kirishi kerak edi yoki bo'lmasa institutga. Shoshdi — amalga uchdi-da. Kichkina bo'lsa ham, har holda amalda. Mana endi tog'ma-tog' yur, eshakka o'xshab yog'och tashi... Buning ustiga mana bu qarq'alar ortiqcha. Nimaga buncha qag'illashadi, nimaga aylanib qolishdi? Eh, pulemyot bo'lgandami...

O'razqulning avzoyi buzilishiga arzigulik sabablar bor edi. Yozni yallo qilib o'tkazdi. Kuz yetib keldi, yoz bilan birga cho'ponlar va yilqiboqarlar davrasidagi mehmondorchilik davrlari ham o'tib ketdi. Xuddi qo'shiqda aytilganday: «Yaylovdagi chechaklar ochilib bo'ldi, etagingni yig'ishtirib qol...»

Kuz keldi. O'razqulga ko'rsatilgan hurmatlar uchun, ziyofatlar uchun, qarzlilar uchun, va'dalar uchun hisoblashadigan payt keldi. Buning ustiga maqtanib katta ketganlari-chi: «Senga nima kerak? Xari bo'ladigan ikkita qarag'ay yog'ochmi, faqat shummi? Shuning nimasini gapirib o'tiribsan. Mashina olib kelasan-da, olib ketaverasan».

Og'zidan gullab, hadyalar olib, aroqni ichaverdi, mana endi bo'g'ilib, terga botib, yer yuzidagi hamma narsaga la'nat o'qib, tog'ma-tog' yog'och sudrab yuribdi. Bu yog'ochlarning daxmaza bo'lganini aytmaysizmi? Umuman, butun ha-

yotida roʻshnolik koʻrmadi. Bexosdan kallasiga lop etib bir fikr keldi: «Hammasiga tupuraman-da, boshim oqqan tomonga ketaman». Lekin u shu zahotiy oq hech qayoqqa ketolmasligini tushundi. Hech kimga hech qayerda keraklik joyi yoʻq va koʻngli tilayotgandek hayotni hech qayerdan izlab topolmaydi.

Bu yerdan ketib yoki vaʼdangdan tonib koʻr-chi! Uni oʻz oshna-ogʻaynilari tutib berishadi. Odamlar yaramas boʻlib ketgan. Oʻtgan yili oʻzining bugʻi avlodli qarindoshiga hadya qilingan qoʻzichoq uchun qaragʻay yogʻoch vaʼda qilgandi, kuzda esa qaragʻay uchun yuqoriga chiqqisi kelmadi. Bu aytmoqqa oson, qani u yoqqa bir chiqib boq, yogʻochlarni arralab, yumalatib koʻr, keyin bilasan qanaqa ekanligini. Yana buning ustiga qaragʻaylar besh yil-oʻn yillik boʻlsa, qani, ularni eplab koʻr-chi! Oltin bersa ham bu ishga qoʻl urging kelmaydi. Aksiga oʻsha kunlari Moʻmin choʻlining tobi qochib, koʻrpa-toʻshak qilib yotib oldi. Bir kishi uddasidan chiqolmaydi bunday ishni. Ha, biron kimsa umrida yolgʻiz oʻzi togʻdan yogʻoch olib tushishning uddasidan chiqqan emas. Yiqitish-ku mumkin, lekin yiqitgan bilan qaragʻayni pastga olib tushib boʻlmaydi... Nima boʻlishini oldindan bilganda, Seydahmadni yoniga olib chiqqan boʻlardi. Lekin Oʻrazqul toqqa tirmashib chiqib yurishga erindi-da, birinchi duch kelgan qaragʻay bilan qarindoshidan qutulib qoʻya qolmoqchi boʻldi. Lekin u ancha-munchasiga koʻnmadi: unga haqiqiy qaragʻay kerak emish, vassalom. «Qoʻzichoqni olishni bilasan, gapingning uddasidan chiqishni bilmaysanmi?» Oʻrazqul jahli chiqib, hovlidan uni haydab chiqardi: olmay-sanmi — joʻnab qol. U yigit ham boʻsh kelmadi. San-Tosh oʻrmonchilik qoʻriqxonasining qorovuli Oʻrazqul Balajanov ustidan darhol shikoyat xati yozib, unga shunday toʻgʻri va no-toʻgʻri gaplarni qoʻshdiki, oqibat-natijada Oʻrazqulni «sotsialistik oʻrmon kushandasi» sifatida otish lozim edi. Keyin tumanning va oʻrmonchilik vazirligining turli xil tekshiruv komissiyalari Oʻrazqulni uzoq vaqt sarson qilishdi. Zoʻrgʻa qutuldi. Mana senga qarindosh! Yana: «Biz hammamiz Shoxdor ona bugʻi bolalarimizmish. Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun!» emish. Hammasi bekor gap, qachonki bir tiyin uchun bir-birimizning yoqamizdan olib, turmaga tiqishga tayyor boʻlsak. Qanaqasiga bugʻi avlodidan boʻlaylik. Bu ilgari vaqtda boʻlgan, odamlar bugʻiga ishonishgan. Naqadar befahm va sodda boʻlishgan-a, oʻsha zamonning odamlari, kulgili! Endi esa hamma madaniyatli, hamma savodli. Kimga keragi bor buni, bu ertakni yosh bolalarga aytisa boshqa gap.

Shu voqeadan keyin Oʻrazqul boshqa hech kimga, hech qanaqa tanishga, hech qanday qabiladoshga, hatto Shoxdor ona bugʻining ming tuqqani boʻlsa hamki, bironta novdani, bironta choʻpni bermaslikka ont ichdi.

Yana yoz keldi. Ko'm-ko'k tog'li yaylovlarda o'tovlar oqarib, yer-ko'kni podalarning shovqin-suroni tutib, ariqlarda va daryoda suv tortilib qoldi. Quyosh porlagan, sarxush qimiz hidi kelar, gul bo'yi ufurardi. Ochiq havoda o'tovlarning oldida, ko'm-ko'k maysalar ustida, oshna-og'aynilar davrasida o'tirib qimiz ichib, qo'zi go'shtiga to'yib kayf qilishga nima yetsin. Keyin esa boshni aylantirish uchun bir stakan aroqni simirib shunday kayfga kelasanki, o'zingni go'yo daraxtlarni ildizi bilan qo'porib tashlagudek yoki bo'lmasa anovi tog'ning boshini uzib olgudek his qilasan...

Bunday kunlarda O'razqul ichgan ontini unutardi. Katta o'rmonning katta xo'jayini deb atashlari unga naqadar xush kelardi. Yana va'dalar berdi, yana hadyalar qabul qildi. Yana qadimiy qarag'aylar qaysi birlarining kuni bitib, kuz kelganda umri tugashini sezmasdi.

Kuz esa hosili o'rib olingan dalalardan sezdirmay kelib, tog' sari pinhona siljidi-da, butun atrofni qoplab oldi. U bosib o'tgan yo'lda, maysalar sarg'aydi, o'rmonni xazonrezgi bosdi.

Mevalar pishdi. Qo'zilar to'qli bo'ldi. Ularni alohida otarlarga — to'qlilarni alohida, qo'ylarni alohida to'daga ayirishdi. Ayollar yig'ilgan sariyog'ni meshga joylab olishdi. Erkaklar vodiya kim birinchi bo'lib qaytishi haqida gurung qilishardi. Ketish oldidan esa, yozda O'razqul bilan gaplashganlar, falon kuni, falon soatda va'da qilingan yog'ochga mashina olib o'rmonga kelishlari haqida uni ogohlantirib qo'ydilar.

Mana shu bugun kechqurun ikkita qarag'ay yog'och olib ketgani pritseptli mashina keladi. Qarag'ayning bittasi pastda tayyor turibdi, mashina keladigan joyga daryodan o'tkazib qo'yilgan. Ikkinchisini mana, pastga olib tushishyapti. Agar O'razqul hozir ushbu yog'och ustidan yeb-ichganlarini qusish imkonini top-gandami, hozir chidashga majbur bo'layotgan — bu azob-uqubatlardan qutulish uchun shu zahotiyog' qusib tashlagan bo'lardi.

Afsuski, o'zining tog'dagi la'nati bu taqdirini o'zgartirishga qodir emas: mashina tunda yog'och olib ketish uchun shu bugun kechqurun pritsepti bilan keladi.

Hamma ish o'ngidan kelsa yaxshiku-ya: yo'l sovxoz o'rtasidan, to'g'ri idora-ni oldidan o'tadi, boshqa yo'l yo'q, sovxozga esa militsiya, gosinspeksiya kelib turadi. U yerda yana tumandan kelganlar ham bordir? Ularning ko'ziga yog'och ortgan mashina duch kelib qolsami: «Xo'sh, yog'ochni qayoqdan olib kelyapsiz va qayoqqa?» — deb surishtira boshlashadi.

Bu xayoldan O'razqulni sovuq ter bosib ketdi. Hamma-hamma narsaga — boshi ustida aylanayotgan zag'chalarga, baxtsiz Mo'min cholga, bundan uch kun burun shaharga kartoshka sotgani ketgan dangasa Seydahmadga g'azabi jo'sh urib ketdi. U tog'dan yog'och olib tushilishini bilardi-ku, axir! Demak, sezdirmay jo'nab qolgan... Endi faqat bozordagi ishlarini bitirgandan keyingina qaytadi. Bo'lmasa O'razqul, chol bilan ikkalasini yog'och sudrab kelishga jo'natib, o'zi bu azobdan qutulgan bo'lardi.

Lekin Seydahmad uzoqda, zag'chalarga ham qo'l yetmaydi. Hammasining alamini xotinidan olishi mumkin — lekin uyga yetish amri mahol. Birgina Mo'min chol bor. Tog'dan nafasi bo'g'ilib, qabri-g'azabi ortib, har qadamda og'zidan oq it kirib, qora it chiqib kelayotgan O'razqul otga ham, uning orqasidan kelayotgan cholga ham rahm qilmay, changallar orasidan yo'l soldi. Bu ot harom o'lsa mayli, bu chol o'lsa ham mayli, yuragi yorilib o'zi o'lsa ham mayli. O'razqulning sha'ni va amaliga yarashmagan, uning ko'nglidagidek bo'lmagan bu dunyoga o't tushsin.

O'razqul o'zini tutolmay, otni qiyalikdan tikka changallar orasiga haydab ketdi. Mayli, Mo'min chaqqon yog'ochlar atrofida girdikapalak bo'lib qolsin. Qani u yog'ochni eplamay ko'rsin-chi! «Majaqlab tashlayman, ahmoq cholni, vassalom», ko'nglidan o'tkazdi O'razqul. Boshqa vaqtda u hech qachon yog'och bilan bunday xavfli nishablikka o'zini urishga yuragi betlamagan bo'lardi. Bu safar shayton yo'ldan ozdirdi. Mo'min ham uni to'xtatib qolishga ulgurmadi, faqat qichqirib qololdi xolos: «Qayoqqa ketyapsan? Qayoqqa? To'xta!» — yog'och chirpirak bo'lib aylanib, butalarni yanchib pastga yumalab ketdi. Yog'och ho'l va og'ir edi. Mo'min yog'ochni ushlab qolish uchun pishang solmoqchi bo'ldi. Lekin zarb shunday kuchli ediki, pishang cholning qo'lidan otilib chiqib ketdi.

Hamma ish ko'z ochib yumguncha bo'lib o'tdi. Ot yiqildi va yoni bilan pastga surilib ketdi. Ot surinayotib O'razqulni ham urib yiqitdi. U titrab-qaqshab butalarga firmashib, ilinib, yumalab ketdi. Shu payt qalin xazon ustidagi allaqanday shoxli jonvorlar hurkib qochib qoldi. Ular talvasaga tushib, jon-jahdi bilan sakray-sakray qayinzorlar ichida g'oyib bo'ldi.

— Bug'ilar! Bug'ilar! — qo'rquv va shodligidan o'zida yo'q xursand bo'lib qichqirdi Mo'min. Keyin go'yo o'z ko'zlariga ishonmagandek jim bo'lib qoldi.

Nogoh tog' qo'yniga sukunat cho'kdi. Zag'chalar birdan g'oyib bo'ldi. Yumalab ketayotgan yog'och yoshgina baquvvat qayinni bosib, ezib qiyalikda ilinib qoldi. Ot egarabzali og'ib, oyoqqa turdi.

Hamma yog'i yirtilib ketgan O'razqul emaklab bir tomonga chiqib oldi. Mo'min kuyoviga yordamlashgani tashlandi:

— O, muqaddas Shoxdor ona bug'i! Bizni hozir u qutqazdi! Ko'rding-ku. Bu Shoxdor ona bug'ining bolalari. Bizning onamiz qaytib kelibdi! Qara-ya!

O'razqul yuz bergan voqeaga hali ham ishonqiramay joyidan g'amgin holda xijolat chekib turdi-da, qoqina boshladi:

— Ko'p vaysama, chol. Yetar endi, otning abzalini chiqar.

Mo'min itoatkorona shoshilinch ravishda otning abzalini ola boshladi.

— O, qudratingdan o'rgilay, Shoxdor ona bug'i! — U xursandligidan g'o'ldirashini qo'ymasdi. — Bug'ilar bizning o'rmonimizga qaytibdi. Shoxdor onamiz bizni unutmabdi! Bizning gunohimizdan o'tibdi...

— Hali ham g'o'ldirayapsanmi? — do'q qildi O'razqul. U endi qo'rquvni unutgan va yana eski g'azabi bo'g'ziga kelgandi. — Ertagingni aytyapsanmi? O'zing jinni bo'laturib, boshqalar ham ahmoqona ertagingga ishonaveradi, deb o'ylaysanmi!

— Men o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bular bug'ilar edi, — bo'sh kelmasdi Mo'min bobo. — Nahot sen ko'rmagan bo'lsang, o'g'lim? Sen o'zing ko'rding-ku.

— Xo'sh, ko'rdim. Uchtasi chopqillab ketdi, shekilli.

— Rost, uchta. Menga ham shunday tuyuldi.

— Nima qipti shunga? Bug'i bo'lsa bug'i-da. Mana bu yerda odam o'z jonidan judo bo'lishiga sal qoldi. Nimasiga quvonish kerak ekan. Bular agar bug'ilar bo'lsa, demak, dovon ortidan kelgan. U yoqda Qozog'istonda, tog'ning narigi tomonida, o'rmonlarda hali bug'ilar bor, deyishadi. U yer ham qo'riqxonona. Qo'riqxonaning bug'ilari bo'lsa ehtimol. Kelsa kelibdi-da. Bizning nima ishimiz bor. Qozog'istonning bizga daxli yo'q.

— Balki, bizda yashab qolar ular? — orzu qilib gapirdi Mo'min bobo. — Qani endi qolsa...

— Bas endi, — uning so'zini bo'ldi O'razqul. — Ketdik!..

Yog'ochni hali ancha pastga sudrab tushish, keyin esa yana otda daryodan sudrab olib o'tish kerak edi. Bu ham og'ir ish. Agar yog'och daryodan omon-eson olib o'tilsa, so'ngra yana mashinaga ortiladigan tog' yonbag'rigacha yetkazish darkor.

Eh, qancha mehnat.

O'razqul o'zini butunlay baxtsiz his qildi. Butun borliq unga nohaq yaratilganday tuyuldi. Tog'lar bo'lsa, hech nima sezmaydi, hech nima istamaydi, hech nimadan zorlanmaydi, bir joyda turgani-turgan, o'rmonlar esa avval kuzga, un-

dan keyin qishga o'tadi, buning hech qanday mashaqqatli joyi yo'q. Zag'chalar ham o'z erkicha uchib yuradi. Istagancha chag'illaydi. Bug'ilar, agar ular haqiqatan ham bug'ilar bo'lsa, dovonning narigi yog'idan keladi-da, o'rmonda daydib yuraveradi, qanday yuradi, qanaqa yuradi, o'zining ishi. Shaharda odamlar asfalt ko'chalarda beparvo qadam tashlashadi, taksilarda yurishadi, restoranlarda o'tirishadi, vaqtichog'lik qilishadi. Uning peshanasiga mana shu tog'larda yurish bitilgan, u bebaxt... Hatto uning mana shu hech nimaga yaramaydigan qaynotasi Mo'min chaqqon ham undan baxtliroq, chunki u ertakka ishonadi. Ovsar odam. Ovsarlar hamisha o'z hayotidan mamnun.

O'razqul o'z hayotini ko'rarga ko'zi yo'q. Hayoti o'zi istagancha emas. Bu hayot Mo'min chaqqonga o'xshaganlarga xos. Unga esa, nima ham kerak? Umri mehnatda o'tyapti, bir kun dam olish yo'q. Umrda esa biron inson unga qaram bo'lgan emas, u esa hammaga qaram bo'lib kelgan,; hatto o'zining kampiriga ham — chol hatto unga bir so'z qaytarmaydi. Shunday sho'rpehona ertak bilan ham baxtiyor bo'laveradi. O'rmonda bug'ilarni ko'rib, xuddi yuz yil dunyoda izlagan aka-ukalarini uchratgandek, ko'z yoshi qilib yuribdi-ya.

Eh, nimasini gapirasan...

Ular ahiri so'nggi manzilga chiqishdi, u yerdan uzun tik yo'l daryoga tushib boradi. Tin olgani to'xtashdi.

Daryoning narigi betida, qorovulxona yonidagi O'razqulning uyi oldida qandaydir bug' ko'tarilardi. Bug'ga qarab samovar qaynab turganini bilsa bo'lardi. Demak, uni xotini kutayotibdi. Lekin bundan O'razqul yengil tortmadi. U og'zi bilan entikib nafas olar, havo yetishmasdi. Ko'kragi, boshi og'rir, yuragi gupillab urardi. Peshanasidan ter quyilardi. Oldinda esa, hali uzoq va tik nishab turibdi. Uyda esa pushtsiz xotin kutib o'tiribdi, samovar qo'yib o'tirganlariga kuyaymi ko'nglimni topmoqchi... Birdan chopib borib, bu qorindor samovarni bir tepib, uchirib yuborgisi kelib ketdi Keyin esa xotiniga tashlanib, o'lguday ursal. U xayolan xotining dod-faryodini eshitib, uning baxtsiz qismatini tasavvur qilib huzur qildi.

«Yaxshi bo'пти, — o'ylardi u. — Ajab bo'пти. Men qiyналганимда nega u rohat qilib o'tirishi kerak?»

Uning xayollarini Mo'min bo'ldi.

— Men esimdandan chiqarayozibman, o'g'lim, — shosha-pisha xatosini tuzatmoqqa urinib O'razqulning oldiga keldi. — Men bolani olgani maktabga borishim kerak axir. Darslari tugadi-ku.

— Xo'sh, nima bo'пти? — atayin vazmin ohangda so'z qotdi O'razqul. — Nima qil deysan?

— Jahling chiqmasin, bolam. Yog'ochni shu yerda qoldiramiz. O'zimiz pastga tushamiz. Sen uyingga borib ovqatlanasan. Men shu paytda otda chopib maktabga borib kelaman. Bolani olib qaytaman. Keyin kelib yog'ochni olib ketamiz.

— Shuni o'ylab topguncha ancha bosh qotirdingmi, chol? — zaharxandalik bilan gap qotdi O'razqul.

— Bola axir yig'laydi-da.

— Nima bo'пти shunga? — qizishdi O'razqul. Nihoyat cholni xumordan chiqquncha so'kishga bahona topildi. Kun bo'yi O'razqul janjalga bahona axtardi, mana endi Mo'minning o'zi unga bahona topib berdi. — U yig'lar ekan deb biz ishimizni tashlab ketaylikmi? Ertalab, maktabga olib boraman, deb boshni qotirding. Olib bording, yaxshi. Endi maktabdan olib kelaman deysan. Men nima senga? Yo biz maynabozchilik o'ynayapmizmi bu yerda?

— Keragi yo'q, o'g'lim, — zorlandi Mo'min. — Shunday kunda. Menga-ku mayli-ya, bola kutadi-da, shunday kunda yig'laydi-da...

— Nima shunday kunda? Bu qanaqa xosiyatli kun o'zi?

— Bug'ilar qaytdi. Nima keragi bor edi shunday kunda...

O'razqul dovdirab, hatto hayratidan jim bo'lib qoldi. U tikanli butalar orasida yumalab, qo'rquvdan yuragi yorilayozganda sakragan soyalari lip etib o'tganday ko'zga tashlangan bu bug'ilarni allaqachon unutgan edi. Yog'och bilan pastga yumalaganda birgina daqiqada taqdiri hal bo'lib ketardi. Uning bug'ilarga qarashga ham, cholning vaysashiga quloq solishga ham holi kelmay qolgandi.

— Sen meni nima deb o'ylayapsan? — dedi u sekin va jahl bilan cholning yuziga pishqirib. — Afsus, soqoling yo'q, bo'lmasa boshqalarni o'zingdan ko'ra ahmoqroq deb o'ylamasliging uchun yulib tashlardim. Sening bug'ilaringni boshimga uramanmi. Nimasiga yana men ularni o'ylashim kerak ekan. Sen meni gap bilan chalgitma. Qani tur, yog'ochni ushla, To daryodan olib o'tmaguni-mizcha, biron nima haqida g'ing dema. U yoqda kim maktabga boryapti, kim yig'layapti — mening ishim yo'q. Bas, endi ketdik...

Mo'min har safargidek bo'ysundi. U toki yog'och joyiga bormaguncha O'razqulning qo'lidan qutulib ketolmasligini bilib, sukut saqlagancha jon-jahdi bilan ishlardi. Qalbi tug'yon urib yotsa ham, u boshqa biron so'z qotmadi. Nabirasi uni maktab oldida kutib turibdi; hamma bolalar uy-uyiga tarqab ketishgan, faqat yolg'iz uning yetim nabirasigina yo'l poylab, bobosini kutmoqda.



Chol barcha sinfnining bolalari maktabdan qanday yer tepinib otilib chiqishini, qanday uy-uyiga chopqillab ketishini ko'z oldiga keltirdi. Och qolishgan. Ular yo'ldayoq o'zlariga tayyorlangan ovqatning hidini sezishadi va quvonchga to'lib, hayajonlanib uylarning derazasi ostidan chopib o'tishadi. Onalari allaqachon kutib o'tirishibdi. Har birining chehrasida odamni quvontiradigan tabassum. Ona o'ziga og'irimi, yengilmi, bolasi uchun tabassum qilishga har qachon o'zida kuch topa oladi. Hatto ona: «Qo'llaring-chi? Qo'llaringni kim yuvadi?» — deb o'shqirib turganda ham bari bir, uning ko'zlarida o'sha tabassum yashiringan bo'ladi.

Mo'minning nabirasi o'qishga tutingan kundan beri qo'li siyohdan arimay qoldi. Bu bobosiga hatto yoqib tushardi: demak yigitcha ish bilan mashg'ul. Ana, hozir uning nabirasi siyohli qo'llarida shu yil yozda sotib olingan portfelini ushlab yo'lda turibdi. U, ehtimol, kutaverib charchagan va endi ko'zini uzmay, otda yo'rtib kelayotgan bobom do'nglikda ko'rinib qolmasmikan deb bezovtalanib turgandir. Axir u hamisha o'z vaqtida kelardi-ku. Bola har safar maktabdan chiqqanida bobosi sal narida uni toqatsizlik bilan kutib turardi. Hamma uy-uyiga tarqab ketar, u esa bobosi tomonga chopardi. «Ana bobom turibdi, chopdik!» derdi bola portfeliga. Chopib borayotib hayajonga to'lganicha to'xtab qolardi. Agar yon-verida hech kim bo'lmasa, u bobosiga tashlanib, eski ust-boshlarining va yozgi quruq pichanning o'zi ko'nikib ketgan hididan nafas olib, yuzlarini uning qorniga ishqab quchoqlab olardi. O'sha kunlari bobosi narigi qirg'oqdan pichan tashirdi, qishda qalin qorda u yerga yetib bo'ladimi. Yaxshisi kuzda tashib keltirgan ma'qul-da. Keyin ancha paytgacha Mo'mindan to'zg'igan pichanning achqimtir hidi kelib yurdi.

Bobo bolani o'zining orqasiga, otning sag'risiga mingashtirib olar, shu bilan u yoqdan-bu yoqdan gaplashib yetib kelib qolganlarini sezishmasdi. Tog' tepaligining ikki cho'qqisi orasidagi pastqamlikdan oshib to'g'ri San-Toshga kelishardi.

Bolaning maktabga qattiq berilgani buvisining achchig'ini keltirardi. Bola ko'zini ochgan zahoti, apil-tapil kiyinib, portfeliga kitob-daftarlarni solardi. Kechasi ham portfelini yoniga qo'yib yotishidan buvisining jahli chiqardi:

— Bu yaramas portfelga buncha yopishib qolding? Shu senga xotin bo'lib qolgandami, qaliniga bizni sotib yer ekansan-da.

Buvisining gapi bolaning u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketar, qolaversa, gap nima haqda borayotganini ham uncha tushunib yetmasdi.

Uning uchun eng muhimi — maktabga kechikmaslik edi. U hovliga otilib chiqib bobosini shoshirardi. Faqat maktab ko'zga tashlangandagina tinchlanardi.

Bir safar ular baribir kechikib qolishdi. O'tgan haftada tong xiyol yorishganda Mo'min otda narigi qirg'oqqa yo'l oldi. Ertalab barvaqt pichanga bir qatnov qilishga qaror qilgandi. Hammasi joyida bo'layotgandi, lekin yo'lda pichan sochilib ketdi. Yana hamma pichanni qayta bog'lab, yana otga ortish kerak edi. Shoshib bog'langan pichan qirg'oqning o'zida yana sochilib ketdi.

Nabirasi esa narigi tomonda kutib turardi. U g'adir-budur toshning ustiga chiqib, portfelini silkir va qichqirib allakimni chaqirardi. Chol shoshar — arqon chalkashib ketgan, yechib bo'lmas, ko'r tugun tushib qolgandi. Bola esa hamon qichqirardi, shunda chol uning yig'layotganini angladi. Pichanni ham, arqonni ham tashladida, tezroq nabirasining oldiga yetib borish uchun otga minib, uni kechuvdan haydab ketdi. Daryodan o'tguncha ham ancha vaqt o'tdi: kechuvdan o'tish osonmas, suv ko'p, oqim tez. Kuzda hali uncha qo'rqinchli emas, yozda otni chappa ag'daradi. Mo'min nihoyat daryodan o'tib nabirasining oldiga yetib borganida u ho'ngrab yig'lardi. Bobosiga qaramas, faqat yig'lar va so'ylanardi: «Kechikdim, maktabga kechikdim». Chol otdan engashib, bolani egarga ko'tarib oldi-da, yo'rtib ketdi. Bu maktab qurg'ur yaqin orada bo'lgandami, bolaning o'zi g'iz etib borib kelaverardi. Shuning uchun butun yo'l bo'yi to'xtamay yig'ladi, chol uni hech nima bilan ovutolmadi. Maktabga ham ho'ngrab yig'lagan holida olib keldi. Dars boshlanib ketgan edi. To'g'ri sinfga olib kirdi.

Mo'min muallima oldida qayta-qayta uzr so'rab, buning boshqa takrorlanmasligini aytib so'z berdi. Lekin hammasidan ham chol kechikkani uchun nabirasining kuyib-pishganini va zorlanib yig'laganini ko'rib iztirob chekdi. «Ilohim maktabni hamisha shunday sevsin-da», — xayoliga keltirdi u. Har holda bolapiqir nimaga bunchalik yig'ladi. Demak, yuragida bir armon bor-da...

Hozir ham, yog'ochning atrofida charx urib, goh u tomoniga, goh bu tomoniga chopib o'tar, tog'dan tezroq pastlikka sirg'alib tushsin, hech qayerga ilinib qolmasin deb yog'ochning ostiga pishang solib, itarib borarkan, Mo'minning xayolidan nabirasi ketmasdi — nima bo'ldi ekan-a?

O'razqul esa shoshmasdi. U otni yetaklab borardi. Bu yerda ko'p shoshib bo'lmaydi — uzun, tik nishablikdan qiyalab yurishga to'g'ri keladi. Lekin uning gapini inobatga olib, yog'ochni shu yerda qoldirib, keyin kelib olib ketish mu-

mkin emasmi? Eh, kuch-quvvat bo'lgandami, yog'ochni shartta yelkasiga qo'yib, daryodan o'tgan va mashinaga ortiladigan joyga eltib tashlagan bo'lardi. Mana e, olinglar yog'ochlaringni va yo'qolinglar. Mo'minning o'zi bo'lsa nabirasining oldiga otilgan bo'lardi.

Qayoqda deysiz, bular xomxayol. Hali toshlar va shag'alliklardan yurib qirg'oqqa yetish, so'ng kechuvdan yog'ochni ot bilan sudrab narigi tomonga olib o'tish kerak. Otning sillasi quridi — u tog'da qancha past-balandliklarga chiqib tushmadi... Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin, agar yog'och daryo o'rtasida toshlarga ilinib yoki ot qoqinib yiqilib tushsa ish chatoq.

Ular suvdan kechib o'tishayotganda Mo'min bobo duo qilib turdi: «O'zing qo'lla, Shoxdor ona bug'i, ilohim yog'och ilinmasin, ilohim ot yiqilmasin». Etiklarini yelkasiga tashlab, ishtonining pochasini tizzasidan yuqori shimarib olgan yalang oyoq Mo'min bobo qo'lda pishang bilan suvda suzib borayotgan yog'och ortidan arang yetib ulgurardi. Yog'ochni oqimga qiya qilib sudrashardi. Daryo suvi qancha toza va tiniq bo'lsa, shuncha sovuq ham edi. Kuzning suvi-da.

Chol bunga bardosh berardi: mayli, oyoq uzilib tushmaydi. Ishqilib, yog'och tezroq olib o'tilsa bo'lgani. Baribir yog'och ilinib qoldi, aksiga olganday, sertoshli yerga kelganda taqqa to'xtadi. Bunday hollarda otga jinday dam berib, keyin yaxshilab bir «chu!» deyilsa — kuchli siltov bilan yog'ochni toshlar panjasidan tortib olsa bo'ladi. Lekin otga minib olgan O'razqul toliqib kuchdan ketgan jonivorni qamchi bilan ayamay savaladi. Ot orqa oyoqlari bilan cho'qqayib, sirg'alib, qoqinib ketar, lekin yog'och joyidan qo'zgalmasdi. Cholning oyoqlari muzlab qoldi, ko'zi tina boshladi. Boshi aylandi. Jarlik, jarlik ustidagi o'rmon, osmondagi bulutlar pastga tusha boshladi, pasga sho'ng'ib, sho'x oqimda suzib, yana joyiga qaytdi. Mo'minning mazasi qocha boshladi. La'nati yog'och! U qurib yotganda edi, boshqa gap edi, suvda o'zi suzib ketardi. Buni esa hozirgina qirqishdi-yu, darrov daryoga sudrab tushishdi. Kim axir shunday qiladi! Oqibati shu bo'ladi-da. O'ylanmay qilingan ishning oxiri voy. Qarag'ayni qurisin deb tashlab kelishga O'razqulning ra'yi yo'q. Inspeksiyaning ko'zi tushib qolsa, taqiqlangan o'rmondan qimmatli daraxtlarni o'g'irlikcha qirqqan, deb akt tuzadi. Shuning uchun ham qirqilgan yog'ochni shu zahotiyog gumdon qilishi kerak.

O'razqul o'kchasi bilan otni niqtar, qamchi bilan boshiga urar, so'kinar, xuddi hammasi uchun go'yo u, Mo'min aybdordek, cholga baqirardi, yog'och

esa joyidan jilmasdi, u battar toshga o'rnashib borardi. Cholning sabr-toqati tugadi. U butun umrida birinchi marta g'azab bilan ovozi bilan balandlatdi.

— Tush otdan! — u O'razqulning yoniga jiddiy borib, uni egardan tortdi. — Otning tortolmayotganligini ko'rmayapsanmi? Hoziroq tush!

Hayron qolgan O'razqul jimgina bo'ysundi. Egardan etigi bilan to'g'ri suvga sakradi. Xuddi shu daqiqadan boshlab, u garang va qulog'i bitib qolganday, o'zini yo'qotgan edi.

— Qani kel. Ko'tardik! Qani ol! — Mo'minning komandasi bilan ular yog'ochni joyidan bir oz ko'tarib, uni toshlarning siquvidan bo'shatib pishangning ustiga mindirdilar.

Ot naqadar aqlli jonivor! U ayni shu paytda toshlarga qoqinib, toyinib pastromkani torday tarang tortib oldinga silkindi. Lekin yog'och o'rnidan bir qo'zg'aldi-yu, toyib yana botib qoldi. Ot yana bir silkindi va o'zini tutib qololmay suvga yiqilib tushib, tipirchilagancha egar-jabdug'iga o'ralashib qoldi.

— Otni! Otni ko'tar! — Mo'min O'razqulni turtdi. Ular birgalikda otni bazo'r oyoqqa turg'azib qo'yishga muayassar bo'lishdi. Ot sovuqdan titrar, arang suvda turardi.

— Yech otni!

— Nimaga?

— Yech deyapman senga. Boshqatdan bog'laymiz. Pastromkani ol.

Yana O'razqul jimgina bo'ysuna qoldi. Otni yechib bo'lgach, Mo'min uning yuganini qo'lga oldi.

— Endi ketdik, — dedi u. — Keyin kelamiz. Ot damini olsin.

— Qani, to'xta-chi! — O'razqul cholning qo'lidan yuganni tortib oldi. U xuddi uyqudan ko'z ochgandek bo'ldi. Birdan yana asl holiga qaytdi.

— Sen kimning boshini qotiryapsan. Hech qayoqqa bormaysan. Yog'ochni hozir chiqaramiz. Kechqurun yog'ochga odamlar kelishadi. Gap-so'zsiz otni egarla, eshityapsanmi?

Mo'min jimgina burildi-da, sovuq qotgan oyog'i bilan oqsagancha sayozdan qirg'oq tomon yurdi.

— Qayoqqa ketyapsan, choi? Qayoqqa, deyapman?

— Qayoqqa! Qayoqqa! Maktabga. Nabiram u yerda rosa tushdan beri kutyapti.

— Qani qayt-chi! Qayt!

Chol quloq solmadi. O'razqul otni daryoda qoldirib, sal kam qirg'oqda, toshloq ustida Mo'minga yetib oldi, yelkasidan ushlab o'ziga tortdi.

Ular yuzma-yuz turib qolishdi.

O'razqul epchillik bilan cholning bo'yniga osilgan eski kirza etikni yulib oldi-da, qaynotasining boshiga, yuz-ko'ziga ikki marta qulochkashlab urdi.

— Qani yur! — xirilladi O'razqul etiklarni bir chekkaga uloqtirarkan.

Chol etik oldiga borib, uni ho'l qumdan ko'tarib, qaddini rostlaganda lablaridan qon tirqirab oqardi.

— Yaramas! — dedi Mo'min qonni tupurarkan, etikni yana yelkasiga ilib.

Bu hech kimning so'zini qaytarmagan Mo'min chaqqonning so'zi edi. Bu suvuqdan ko'kargan, eski etiklarini yelkasiga ilgan, lablari qonab ketgan bechora cholning so'zi edi.

— Yur!

O'razqul uni sudradi. Lekin Mo'min kuch bilan uning qo'lidan siltanib chiqqida, orqasiga qaramay jimgina nariga ketdi.

— Xap sanimi, qari ahmoq! Endi kuningni ko'rsataman! — O'razqul uning orqasidan mushtini do'laytirib dag'dag'a qildi.

Chol qayrilib qaramadi. U «yotoq tuya»ning oldidagi supachaga borib o'tirdi, etigini kiydi va uyiga tez yurib ketdi. Hech yerda to'xtamay, to'g'ri otxonaga kirdi. U yerdan O'razqulning daxlsiz, mehmonga miniladigan, poygada chopadigan, biron egarlashga botinolmaydigan bo'z oti — Olaboshni yetaklab chiqdi. Xuddi yong'in chiqqandek Mo'min uni hovlidan egarsiz, uzangisiz minib chiqib ketdi. U derazalar yonidan, hali ham shaqillab qaynab yotgan samovar yonidan ot choptirib o'tganida tashqariga otilib chiqqanlar — Mo'minning xotini, qizi Bekey va yosh Guljamol cholga bir gap bo'lganini darrov fahmlashdi. U hech qachon Olaboshga minmas va hech qachon hovlidan bunchalik shoshilib chiqmagandi. Bu Mo'min chaqqonning isyoni ekanligini ular hali bilishmasdi. Keksaygan chog'idagi bu isyon uni nimalarga giriftor qilishini ham bilishmasdi.

Qirg'oq tomondan esa otni yetaklab O'razqul uyga qaytardi. Ot oldingi oyog'ini oqsab bosardi. Ayollar jim turib, uning hovliga yaqinlashib kelishiga ko'z tikib turishardi. O'razqulning ko'nglidan nimalar kechayotganini, u o'sha kuni ularga qanday g'am-alamlar keltirayotganini ayollar xayoliga ham keltirishmasdi...

U ho'l, shaloplagan etikda, ho'l ishtonda vazmin va og'ir qadamlar bilan ular oldiga yaqinlashib, ayollarga g'amgin nazarda xo'mrayib qaradi. Xotini Bekey bezovtalanib qoldi:

— Nima qildi, O'razqul? Nima bo'ldi? Hamma yog'ingiz ho'l bo'lib ketibdi-ku. Yog'och oqib ketdimi?

— Yo'q, — qo'l siltadi O'razqul. — Ma. — U yuganni Guljamolga uzatdi. — Otni otxonaga olib bor. — Shunday deb o'zi eshik tomonga yurdi. — Yur uyga, — dedi u xotiniga. Kampir ham ular bilan birga bormoqchi edi, O'razqul uni ostonaga yo'latmadi.

— Sen nari tur, kampir. Senga hech qanday ish yo'q bu yerda. Uyingga bor-u, xap o'tir.

— Nima bo'ldi senga? — xafa bo'ldi kampir. — Bu nimasi? Cholimga nima bo'ldi? Nima gap?

— Uning o'zidan so'ra, — javob qildi O'razqul. Uyda Bekey erining ho'l ust-boshlarini yechib, unga po'stin berdi, samovarni olib kirib, choy quyishga tutindi.

— Choyni qo'y, — qat'iy rad qildi O'razqul. — Aroq ber.

Xotini ochilmagan yarimtalikni olib, stakanga quydi.

— To'ldirib quy — buyruq qildi O'razqul. Bir stakan aroqni suvdek ichib yuborgach, po'stinga o'raldi-da, kigizga cho'zilib, xotiniga dedi:

— Qo'ydim, sen mening xotinim emassan, men sening ering emasman. Jo'na, bu uyda sening izing qolmasin. Qorangni ham ko'rsatma. Vaqt g'animatida jo'nab qol!

Bekey uh tortdi, karavotga o'tirdi va har galgidek ko'z yoshlarini ichiga yutib, sekin gapirdi:

— Yanami?

— Nima, yanami? — bo'kirib yubordi O'razqul. — Yo'qol!

Bekey uydan otilib chiqdi va har doimgidek qo'llarini bukib, hovlini boshiga ko'tarib ho'ngrab yig'lay boshladi:

— Men, baxti qaro, bu dunyoga nega kelgan ekanman-a...

Bu choq Mo'min chol Olaboshda nabirasi oldiga yo'rtib borardi. Olabosh — chopqir ot. Lekin baribir Mo'min ikki soatdan ziyodroq kechikdi. U nabirasini yo'lda uchratdi. Bolani muallimaning o'zi uyiga olib kelayotgandi. O'sha muallima beshinchi yil kiyayotgan, shamol yalab ketgan, yenglari qo'pol — hech o'zgarmas paltosida. Horigan ayolning qovog'i soliq ko'rinar edi. Anchadan beri yig'layverib ko'zlari shishgan bola qo'lida portfeli bilan bechora va xo'rlangan qiyofada uning yonida kelardi. Muallima Mo'min cholni qattiq so'roqqa oldi. Chol esa ayolning oldida otdan tushib, boshini quyi solib turardi.

— Agar vaqtida kelib olib ketmaydigan bo'lsangiz, — dedi muallima, — bo'langizni maktabga olib kelmang. Menga ishonmang, o'zimdā ham to'rttasi bor.

Mo'min yana uzr so'radi, bunday hol boshqa takrorlanmaydi deb, yana so'z berdi.

Muallima Jiliso'ya qaytib ketdi, bobo bilan nabira esa uyga yo'l olishdi.

Bola otda bobosining oldiga o'tirib jimgina borardi. Chol ham unga nima deyishini bilmasdi.

— Juda och qoldingmi? — so'radi u.

— Yo'q, muallimamiz non berdi, — javob berdi nabira.

— Nega bo'lmasa miq etmay kelyapsan? Bola shunda ham gapirmadi. Mo'min gunohkorona jilmaydi:

— Oh, arazgo'y bolaginam. — U bolaning furajkasini olib, boshidan o'pdi va yana furajkasini boshiga kiygizib qo'ydi.

Bola qiyo ham boqmadi.

Ikkalasi ham shunday ma'yus va jim ketishdi. Mo'min jilovni mahkam tutib, salt otda bola urinib qolmasin deb, Olaboshning boshini bo'shatmay borardi. Endi shoshishning ham keragi yo'qday edi.

Ot tezda undan nima talab qilinayotganini payqadida, yarim yo'rg'alab yurib ketdi. U yerga nag'alni taqillatib urib, pishqirib borardi. Shunaqa otda qani endi yolg'iz o'zing xirgoyi qilib ketsang. Odamning yolg'izlikda o'z kuylaydigan qo'shig'i ozmi? Ro'yobga chiqmay qolgan orzular haqida, o'tgan umr haqida, sevgan chog'laring, boshdan kechirgan voqealaring haqida...

Inson ko'nglida armon bo'lib qolgan narsalarni eslashni xush ko'radi. Aslini olganda insonning o'zi ham nimadan armon qilayotganini unchalik tushunib yetmaydi. Lekin har zamon-har zamon shu haqda o'ylab qo'ygisi, uning tagiga yetgisi keladi,

Yaxshi ot — mehribon hamroh...

Mo'min chol nabirasining sochi taqir olingan ensasiga, ingichka bo'yni-yu shalpanq quloqlarigacha qarab, o'ngmagan hayotida butkul ishi-yu mehnatidan, chekkan barcha tashvish va g'amlaridan endi faqatgina yolg'iz mana shu hozircha nochor bola qolganini o'ylardi. Bobosi uni oyoqqa turg'izishga ulgursa yaxshiku-ya. Lekin u yolg'iz qolsami — og'ir bo'ladi. O'zi mushtdek-ku, ammo fe'lli-huyli. Uning oddiygina, mo'mingina bo'lgani yaxshi edi...

Axir O'razqulga o'xshaganlar uni o'lguday yomon ko'rib, bo'ringa ta'qibiga tushgan bug'ichaday burda-burda qilib tashlaydi-ku...

Shunda Mo'min boyagina lip etib shitobli soya solib o'tgan va ko'ksidan hayrat va shodlik xitoblari otilib chiqishiga sababchi bo'lgan o'sha bug'ilarni esladi.

— Bilasanmi, o'g'lim, nima? Bug'ular yurtimizga qaytib keldi, — dedi Mo'min bobo.

Bola yelkasi ustidan yalt etib qaradi:

— Rostmi?

— Rost. O'zim ko'rdim. Uch bosh.

— Qayoqdan kelganikin ular?

— Menimcha, dovon orqasidan. U yerda ham o'rmon bor. Hozirgi kuz xuddi yozdagiday-da, dovon ochiq. Shuning uchun bizga mehmon bo'lib kelgan.

— Ular biz tomonda qoladimi?

— Yoqsa qoladi. Hech kim tegmasa, yashab yuraveradi. Ozuqa serob bizda. Bu yerda xohla mingta bug'i boq. Ilgari vaqtlarda, Shoxdor ona bug'i davrida, bu yerda ularning son-sanog'i bo'lmagan...

Bu xabarni eshitib bolaning muzlagan ko'ngli erib, xafaligi tarqalganini sezgan chol yana o'tgan zamonlar haqida, Shoxdor ona bug'i haqida hikoya qilishga tushib ketdi. O'zining ertagiga o'zi ham berilib ketib, qani endi birdan shunday baxtli bo'lib qolsang-da, boshqaga ham baxtingni ulashsang! — deb qoldi. Butun umr shunday yashasang. Mana shunday, xuddi hozirgiday, xuddi hozirgi soatdagiday. Lekin hayot bunday qurilmagan, baxt bilan yonma-yon, izingdan izma-iz yuradigan, hech mahal arimaydigan baxtsizlik qalbingga, hayotingga bemavrid daxl qilib turadi. Hatto hozirgi damda, u nabirasi bilan baxtiyor bora-yotgan chog'ida ham, cholning qalbida shodlik bilan tashvish yonma-yon turardi: u yoqda O'razqul nima qildi ekan? U yana nima shumlikni tayyorlab turgan ekan, qanaqa zulm? Unga, itoatsizlik qilishga jur'at etgan cholga qanaqa jazo o'ylab qo'ydi ekan? Axir O'razqul buni shunday qoldirmaydi-ku. Bo'lmasa uni O'razqul deyishmasdi-da.

Qizini va uning o'zini kutayotgan baxtsizlik to'g'risida o'ylamaslik uchun Mo'min nabirasiga bug'ilar, bu jonivorlarning karomati, marhamati, go'zalligi va uchqurligi, xuddi shularning sharofati bilan har qanday baloni daf qilishlari haqida hikoya qilardi.

Bolaga yaxshi edi. U uyda nima kutayotganligini bilmasdi. Uning ko'zi va quloqlari yonardi. Nahotki bug'ilar qaytib kelgan bo'lsa? Demak, hammasi to'g'ri ekan-da! Bobosining aytishicha, Shoxdor ona bug'i odamlarning yovuzligini ke-



chirgan emish va o'z bolalariga Issiqko'l tog'lariga qaytishga ruxsat etganmish. Bobosi aytadiki, bu yer qandayligini bilish uchun hozircha uchta bug'i kelgan, agar ularga yoqsa, unda hamma bug'ilar yana vataniga qaytadi.

— Bobo, — deb bobosining so'zini bo'ldi bola, — balki, Shoxdor ona bug'ining o'zi ham kelgandir? Balki, bu yer qandayligini uning o'zi ko'rib, keyin bolalarini chaqirmoqchidir?

— Ehtimol, — dedi Mo'min ishonchsizgina. U tutilib qoldi, o'zini noxush seza boshladi: ortiqcha berilib ketgani yo'qmi, bola uning so'zlariga ortiqcha ishonib yuborgani yo'qmi? Lekin Mo'min chol nabirasini ishonchdan qaytarishga urinmadi. Bu endi juda kech edi. — Kim biladi, — yelkalarini qisdi Mo'min. — Balki, balki, Shoxdor ona bug'ining o'zi ham kelgandir. Kim biladi...

— Hozir bilamiz-da. Yuring, buva, siz bug'ilarni ko'rgan joyga boramiz, — dedi bola. — Men ham bir ko'ray.

— Ular axir bir joyda turmaydi-da.

— Biz izidan boramiz. Ularning izidan uzoq-uzoqlarga izlab boraveramiz. Ularga ko'zimizning qiri tushdi deguncha, qaytamiz. Shunda, ular odamlar tegmasligini bilib oladi.

— Go'daksan-da, — kulimsiradi bobo. — Uyga boraylik, o'sha yerda ma'lum bo'ladi.

Ular qorovulxonaga yaqinlashib, uylar ortidagi so'qmoqdan borishardi. Uylar orqa tomondan xuddi yelkasini o'girib turgan odamga o'xshardi. Uchala uy ham ichida nima bo'layotganidan hech bir nishon bermay turardi. Hovli ham bo'm-bo'sh va jimjit. Mo'minning yuragini noxush vahm bosdi. «Nima yuz bergan bo'lishi mumkin? O'razqul uning baxtsiz qizi Bekeyni urdimikin? Yoki mast bo'lguncha ichganmikin? Yana qanday falokat yuz berishi mumkin? Nega buncha jimjitlik, nega shu mahalda hovlida hech kim yo'q? Agar hamma narsa joyida bo'lsa, bu mash'um yog'ochni daryodan sudrab chiqish kerak, — o'yladi Mo'min. — Qo'y, shu O'razqulni, yaxshisi u bilan aloqani uzish kerak. Bilganini qilib, qolgan hammasiga tupurish darkor. Eshakka uning eshak ekanligini isbotlab berolmaysan-ku».

Mo'min otxonaning oldiga keldi.

— Tusha qol. Mana, yetib ham keldik, — u nabirasiga hayajonlanganini bildirmaslik uchun xotirjam gapirdi. Bola qo'lida portfeli bilan uyga chopmoqchi bo'lganida, Mo'min bobo uni to'xtatdi:

— To'xta, birga boramiz.

U Olaboshni otxonaga bog'lab chiqdi-da, bolani qo'lidan ushlab, uyga qarab yurdi.

— Menga qara, — dedi bobo nabirasiga, — agar meni so'kishsa, sen qo'rqmagin va u yerdagi har xil gaplarga ahamiyat qilmagin. Buning senga daxli yo'q. Sening ishing maktabga qatnash.

Biroq aytadigan hech nima sodir bo'lmadi. Ular uyga kelishganda, faqat kampir Mo'minga xushlamaygina tikildi-da, labini tishlab, yana o'zining tikayotgan ishiga berildi. Mo'min chol ham unga hech nima demadi. U xona o'rtasida qovog'ini solgan holda sergak turib, keyin qozondan katta kosadagi un oshini olib, non va qoshiq keltirdi-yu, nabirasi ikkalasi kechikkan tushlikka o'tirishdi.

Jimgina ovqatlanishdi, buvisi esa hatto ular tomonga qayrilib ham qaramadi. Uning jigar rang so'lg'in yuzida g'azab to'ngib qolgandi. Bola qandaydir mudhish hodisa sodir bo'lganini payqadi. Chol-kampir esa jim edi.

Bolaga shunday vahimali, shunday tashvishli tuyuldiki, tomog'idan ovqat ham o'tmay qoldi. Ovqat ustida odamlarning jim qolib, o'zlarining allaqanday yomon va shubhali xayollariga berilishidan yomoni yo'q. «Balki, bunga biz sababchidirmiz?» — dedi bola xayolida portfeliga. Portfel deraza tokchasida turardi. Bola xayolan portfeli bilan shivirlasha boshladi:

«Sen hech nima bilmaysanmi? Bobom nega buncha g'amgin? Uning gunohi nima? Bugun nega u kechikdi, nega Olaboshni egarsiz minib bordi? Axir hech qachon bunday bo'lmagandi-yu. Balki u o'rmonda bug'ilarni ko'rib qolib, ushlab qolganidir?.. Ehtimol, hech qanday bug'i yo'qdir. Bu yolg'ondir? Unda nima? Nega bo'lmasa gapiradi? Agar u bizni aldagan bo'lsa, Shoxdor ona bug'i qattiq ranjiydi-ku...»

Mo'min ovqatlanib bo'lgach, bolaga sekininga dedi:

— Sen hovliga chiqavergin, bir ish bor. Menga yordamlashasan. Men hozir chiqaman.

Bola itoatkorona chiqib ketdi. U eshikni yopgan zamon, buvisining ovozi keldi:

— Qayoqqa?

— Yeg'ichni keltirgani boraman. Boya daryoda tiqilib qolgandi, — javob qildi Mo'min.

— Ha, payqab qoldingmi! — qichqirdi kampir. — Esingga tushdi! Sen bo'rib qizingning holini ko'r. Uni Guljamol uyiga olib ketdi. Sening tug'mas telba qizing kimga kerak endi. Bor, kimga o'xshab qolganini endi o'zi aytsin. Eri uni uyidan qutirgan itday haydadi.

— Xo'sh, nima bo'пти, haydasa haydapti-da, — dedi qiziq ustida Mo'min.

— Eh, seni qara! Kimsan o'zing! Qizlaringni bari sayoq, nabirangni o'qitib amaldor qilmoqchi bo'lasanmi? Kutaver. O'zingni baloga giriftor qilganingga arzisa edi. Tag'in Olaboshni minib chopibdi. Seni qara-yu! Ko'rpangga qarab oyoq uzatganingda edi, kim bilan o'ynashayotganingni bilarding... U sening bo'yningni sapchaday uzib tashlaydi. Sen qachondan beri odamlarga gap qaytaradigan bo'lib qolding? Qachondan beri botir bo'lib qolding? Qizingni biznikiga yetaklab kelishni xayolingga ham keltirma. Ostonaga yo'latmayman...

Bola ma'yus bosh egib hovlida sekin-sekin yurardi. Uydan kampirning qich-qirig'i kelardi, keyin eshik taraqladi va Mo'min uydan otilib chiqdi. Chol Seydahmadning uyiga yo'l oldi, yo'lda esa unga Guljamol duch keldi.

— Yaxshisi hozir emas, keyin, — dedi u cholga. Mo'min bo'shshib to'xtab qoldi. — Yig'layapti. Urdi uni, — pichirladi Guljamol. — Aytadiki, ular endi birga yashamasmish. U sizni qarg'ayapti. Hammasiga otam aybdor, deydi.

Mo'min churq etmadi. Nima desin? Endi uni hatto o'z qizi ham ko'rishni istamaydi.

— O'razqul o'zinikida ichib yotibdi. Hayvon hayvonligini qiladi-da, — pichirlab gapirdi Guljamol.

Ular o'y surib qolishdi. Guljamol achinib xo'rsindi.

— Hech bo'lmasa, bizning Seydahmad tezroq kela qolsa edi. Bugun qaytishi kerak. Birgalashib shu yog'ichni olib chiqsalarining bir balodan qutuldilarining.

— Gap yog'ochdami? — boshini chayqadi Mo'min. U o'ylab qoldi va yoniga kelib turgan nabirasini ko'rib, unga:

— Bor, sen o'yna, — dedi.

Bola nariga ketdi. U molxonaga kirib, yashirgan durbinini oldi. Uni artди. «Ishlarimiz yomon, — u durbinga g'amgin so'zlay boshladi. — Bunga biz portfel ikkalamiz aybdorga o'xshaymiz. Biron-bir joyda boshqa maktab bo'lganda edi. Biz portfelim bilan o'sha yoqqa o'qishga ketardik. Hech kimga bildirmasdik. Faqat, bobomga qiyin bo'ladi, qidiradi. Sen-chi, durbin, kim bilan oq kemaga qaraysan? O'ylaysanki, men baliq bo'lolmaymanmi? Mana ko'rasan. Oq kemaga suzib boraman...»

Bola pichan g'aramining orqasiga berkinib, durbinda atrofga qaray boshladi. Uzoq qarash ko'ngliga sig'madi. Boshqa vaqtda bo'lsa, qarab ko'zing to'ymaydi: kuz o'rmonlariga qorejagan tog'lar ko'rinadi, yuqori oppoq qor, past yal-yal yonadi, qip-qizil cho'g'.

Bola durbinni joyiga qo'yib, saroydan chiqarkan, bobosining egar-jabduqli otni hovlidan olib o'tib ketayotganini ko'rib qoldi.

Bola bobosining oldiga chopaman deb turgandi, uni O'razqulning qichqirig'i to'xtatdi. O'razqul ichki ko'ylakda, yelkasiga po'stin tashlagan, basharasi sigirning shishgan yeliniday qip-qizil edi.

— Ey! — dag'dag'a bilan qichqirdi u Mo'minga. — Otni qayoqqa olib ketyapsan? Qani, joyiga kiritib qo'y. Sensiz olib chiqamiz. Qo'lingni tegiza ko'rma. Endi sen bu yerda hech kim emassan. Men seni ishdan bo'shataman. Xohlagan tomoningga jo'na.

Bobo alamli kulimsirab otni qaytarib otxonaga olib kirdi. Mo'min qo'qqisdan behad keksayib va cho'kib qolgandek bo'ldi. U chorig'ini shapillatib, atrofga boqmay borardi.

Bola bobosi tortgan jabrdan bo'g'ilib, yig'laganini hech kimga ko'rsatmaslik uchun daryo qirg'og'i bo'ylab chopib ketdi. Oldidagi so'qmoqni tuman bosganidan goh ko'z ilg'amas, goh yana oyog'i ostida ko'rinib qolardi. Bola ko'z yoshlarini oqizib chopib borardi. Mana uning suyukli xarsanglari: «tank», «bo'ri», «egar», «yotoq tuya». Bola ularga hech nima demadi: ular hech nima tushunmaydi, joyida qotib turgani-turgan. Bola faqat «yotoq tuya»ning o'rkachini quchoqladi va sarg'ish toshga engashib, ilojsiz dardu hasrat o'tida o'rtanib ho'ngrab yig'ladi. U yig'lay-yig'lay yuragini bo'shatdi va tinchlandi.

Oxiri boshini ko'tarib, ko'zini artdi-da, oldinga qarab dong qotib qoldi.

Naq uning ro'parasida, narigi qirg'oqda, suvda uchta bug'i turardi. Haqiqiy bug'ilar. Tirik. Ular suv ichgani kelgan, endi tashnalikni qondirganga o'xshardi. Bittasi — eng katta shoxlisi yana suvga boshini egib suv simirar ekan, suvga go'yo shoxlarini oynada ko'rmoqchi bo'lib tikilayotgandek tuyulardi. U qo'ng'ir tusli, ko'krakdor va kuchli edi. Boshini silkitganda yungli, oqish labidan suvga tomchilab sachrab tushdi. Erkak bug'i quloqlarini qimirlatib bolaga diqqat bilan razm soldi.

Lekin hammasidan ham ko'ra mayda shoxli, ikki biqini do'ppaygan oq bug'i bolaga ko'proq tikildi. Uning shoxlari kaltaroq, lekin juda chiroyli, xuddi Shoxdor ona bug'ining o'zginasi edi. Ko'zlari shahlo, tip-tiniq. O'zi esa — har yili bittadan qulunlaydigan qomatdor biyaga o'xshaydi. Shoxdor ona bug'i bu xum kalla, shalpanq quloq bolani qayerda ko'rganini eslayotganday, unga ko'z uzmay qarab turdi. Uning ko'zlari namli yaltirab, uzoqdan yonib turardi. Burnidan yengil hovur ko'tarilardi. Uning yonginasida, shoxsiz bug'icha orqasini o'girib tolning novdasini kemirardi. Uning hech nima bilan ishi yo'q. Semiz, g'ayratli, qu-

vnoq. U birdan novda kemirishni tashladi-da, dikirlab yelkasi bilan ona bug'iga turtinib ketdi va uning atrofida o'ynoqlab, erkalana boshladi. O'zining shoxsiz boshini Shoxdor ona bug'ining biqiniga ishqaladi. Shoxdor ona bug'i bo'lsa hamon bolaga tikilib turardi.

Bola nafasini ichiga yutib, toshlar panasidan chiqdi va xuddi tushdagiday, qo'llarini oldinga cho'zib qirg'oqqa, suvning o'ziga yaqin keldi. Bug'ilar hech bir hurkmadi, narigi qirg'oqdan unga bamaylixotir qarab turaverdi.

O'rtada, suv ostidagi toshlar ustidan irg'ishlab, tezoqar, ko'm-ko'k tiniq daryo qaynab oqib yotardi. Agar ularni ayirib turgan shu daryo bo'lmaganda go'yo bug'ilarning oldiga borib, ularga qo'l tekkizish mumkinday edi. Bug'ilar tekis, toza shag'al ustida turishardi. Ularning orqasida, shag'al tugagan joyda zich o'rmonning kuzgi xazon rezgisi alvon tusda tovlanardi. Undan yuqorida — jar tepasida qarag'ay va tog' teragi yal-yal yonadi.

Undan ham yuqoriroqda cheksiz o'rmonu tog' tizmasidagi oppoq qor ko'zga tashlanadi.

Bola ko'zlarini yumdi va yana ochdi. Ko'z oldida hamon o'sha manzara, oltin yaproqli daraxtzordan sal beriroqda, top-toza shag'al ustida hamon o'sha ertaklardagi bug'ilar turardi.

Mana ular burildi-da, tizilganча shag'aldan o'rmon tomonga yurib ketdi. Oldinda — katta bug'i, o'rtada shoxsiz bug'icha, ular ortida Shoxdor ona bug'i. U qayrilib, bolaga yana bir bor qarab qo'ydi. Bug'ilar daraxtzorga kirib, butalar oralab ketdi. Ular tepasida qizil novdalar chayqalar va oltin yaproqlar ularning tarang va silliq yelkasiga to'kilardi.

Keyin ular so'qmoqdan jar tomon yuqoriga ko'tarildi va shu yerda to'xtadi. Bolaga go'yo bug'ilar yana qarab turgandek tuyuldi. Katta bug'i bo'ynini cho'zdi va shoxlarini orqasiga tashlab xuddi karnayday sado soldi: «Ba-ba!» Uning ovozi jar va daryo ustida uzoq aks sado berib taraldi: «A-a!»

Shundagina bolaning hushi joyiga keldi. U oyog'ini qo'lga olib tanish so'qmoqdan uyga chopib ketdi. U jonining boricha chopardi. Hovlidan g'izillab o'tib, eshikni lang ochib, entikkancha, ostonadan turib qichqirdi:

— Bobo! Bug'ilar keldi! Bug'ilar! Ular shu yerda!

Bir burchakda g'amgin va jimgina o'tirgan Mo'min bobo unga bir qarab qo'ydi-yu, hech nima demadi, gap nima haqda ekanligini aniq tushunmadi.

— O'chir ovozingni! — do'q qildi kampir. — Kelsa kelibdi-da, hozir ulardan ham boshqa tashvish ko'p.

Bola jimgina chiqib ketdi. Hovli kimsasiz edi. Kuz quyoshi g'ira-shira yalang'och tog' tizmalari — Qorovultog' ortiga botdi. Quyosh haroratsiz quyuuq shafag'i bilan tog'larni lola rangiga burkardi. Muz qotgan shafaq bu yerdan kuzgi tog' cho'qqilariga beqaror shu'la sochib turardi. O'rmonga g'ira-shira qorong'ilik cho'kdi.

Izg'irin turdi. Bola eti uvushib qaltiray boshladi.

## VI

**T**o'shakka kirganida ham eti uvushishi qolmadi. Anchagacha uxlay olmadi. Hovliga allaqachon qorong'ilik cho'kkan. Boshi zirqirardi. Lekin u miq etmasdan yotardi. Uning og'rib qolganini hech kim bilmasdi. Unutgandilar. Bu yerda uni unutmay ham nima qilishsin!

Bobo butunlay tinchini yo'qotib qo'ydi. O'zini qo'yarga joy topolmasdi. Goh tashqari chiqar, goh ichkari kirar, goho achinish bilan chuqur nafas olib o'tirib olar, goho turardi-da, qayergadir ketardi. Kampir bo'lsa cholga dakki berar va ayni paytda u ham tinmay goh u yoqqa, goh bu yoqqa yurar, hovliga chiqar va yana zum o'tmay qaytib kirardi. Hovlida qandaydir noaniq, uzuq-yuluq ovoz eshitildi, kimningdir shoshilinch oyoq sharpasi, kimningdir so'kinishi quloqqa chalinardi, aftidan, O'razqul yana so'kina boshlagandi, allakim entikib-entikib yig'lardi...

Bola o'rinda jimgina yotar, barcha ovoz va oyoq sharpalaridan, uyda va hovlida yuz berayotgan butun voqealardan charchog'i ortar edi.

U ko'zini yumib oldi. O'zining yolg'izligini, unutilganini sezdirmay, bugun ko'pdan beri orzu qilib yurgan narsasini ko'rganini eslay boshladi. U katta daryo qirgog'ida turardi. Suv shunchalik tez oqardiki, unga uzoq tikilib turish mumkin emasdi, ko'z tinib, bosh aylanib ketardi. Daryoning narigi qirg'og'ida esa unga bug'ilar qarab turardi. U kechga yaqin ko'rgan o'sha uchala bug'i hozir ham o'sha joyida edi. Hamma-hammasi, uning ko'z oldida qayta takrorlana boshladi. Shoxlari katta erkak bug'i boshini suvdan ko'targanda uning namli lablaridan yana o'sha suv tomchilari oqib tushdi. Shoxdor ona bug'i esa, xuddi u avval ko'rgani singari mehribonlik bilan tikilib turardi. Uning ko'zlari katta-katta, qop-qora va namli edi. Bola hayratda qoldi, Shoxdor ona bug'i xuddi odamlarga o'xshab, xuddi bobosi singari g'amgin va ayanchli xo'rsinar edi. Keyin ular butalar orqali daraxtzorlarga kirib ketdi. Bug'ilar ustida qizil novda chayqalar va oltin yapro-

qlar ularning tarang, silliq yelkasiga uchib tushardi. Ular jar bo'yiga ko'tarilib, shu yerda to'xtadi. Katta bug'i bo'ynini cho'zib, shoxlarini yelkasi osha orqasiga tashlab: «Ba-ba!» deya karnayday sado soldi. Bola uning ovozi daryo ustida uzoq yangrab turganini eslab, o'zicha jilmayib qo'ydi. Shundan keyin bug'ilar o'rmonga kirib, g'oyib bo'ldi. Lekin bola ulardan ajralishni istamasdi, u o'zi istagan narsalarni yana ko'rish uchun xayol sura boshladi.

Yana tezoqar ulkan daryo ko'zi oldidan shiddat bilan oqib o'ta boshladi. Oqim tezligidan uning boshi aylandi. U bir sakradi va daryo ustidan uchib o'tdi. Hamon qumloqda yotgan bug'ilar yaqiniga yengil va ohista qo'ndi. Shoxdor ona bug'i uni yoniga chaqirdi:

— Sen kimning bolasisan?

Bola indamadi. U kimning bolasi ekanligini aytishga uyalandi.

— Biz bobom bilan seni juda yaxshi ko'ramiz, Shoxdor ona bug'i. Biz seni anchadan beri kutayotgan edik, — dedi.

— Men ham seni bilaman. Sening bobongni ham. U yaxshi odam, — dedi Shoxdor ona bug'i.

Bola sevinib ketdi. Lekin o'z minnatdorchiligini qanday bayon etishni bilmasdi.

— Istaasang, baliqqa aylanaman-u, daryo bo'ylab suzib Issiqko'lga, oq kemaga yetib boraman, — dedi bola to'satdan.

U buning uddasidan chiqa olardi. Biroq Shoxdor ona bug'i unga hech nima demadi. Shunda bola yechina boshladi va xuddi yozdagidek, daryo yoqasida tolning shoxidan ushlab, suvga tushdi. Suv issiq va dimiqqan edi. U ko'zi ochiq xolda suv tagidan suzib ketdi. Son-sanoqsiz oltin qum donachalari mayda suv osti o'tlari bilan qo'shilib girdob hosil qilardi. Uning nafasi bo'g'ila boshladi. Lekin issiq oqim esa uni hamon olib ketardi.

— Yordam ber, Shoxdor ona bug'i, yordam ber menga, men ham sening farzandingman, Shoxdor ona bug'i! — deya baqirdi u.

Shoxdor ona bug'i uning ortidan qirg'oq bo'ylab yugurdi. U shunday tez yugurdiki, havo vizillab ketdi.

Bola ustidagi ko'rpani otib tashladi va darhol yengil tortdi. U terlab-pishgan edi. Lekin bunday paytlarda bobosi uni yana yaxshiroq o'rab qo'yishini eslab, ko'rpaga o'ralib oldi. Uyda hech kim yo'q edi. Chiroq piligi yonib tugagan, shuning uchun ham u xonani xiragina yoritib turardi. Bola o'rnidan turmoqchi, suv ichmoqchi bo'ldi, lekin tashqaridan qandaydir keskin ovoz eshitildi. Kimdir bi-

rovga baqirdi, allakim yig'ladi, kimdir uni yana yupantirdi. G'ala-g'ovur, oyoq sharpasi eshitildi. Keyin naq deraza tagidan uh tortib ikki kishi o'tdi. Ular birini yetaklab borayotgandek edi. Eshik taraqlab ochildi, kampir jahl bilan harsillaganicha Mo'min boboni uy ichiga itarib yubordi. Bola bobosining bunchalik qattiq qo'rqqanligini hech qachon ko'rmagan edi. Aftidan, u hech narsani anglamasdi. Cholning ko'zlari besaranjom javdirardi. Kampir uni ko'krigidan itarib, o'tirishga majbur qildi:

— O'tir, o'tir, ahmoq chol, so'ramasa aralashib nima qilasan. Birinchi marta shunday bo'lyaptimi ularda. Hammasi yaxshi bo'lsin desang, tumshug'ingni suqmay tek o'tir. Nima desam, shuni qil. Eshityapsanmi? U biz bilan do'stlashmoqchi emas, balki dunyodan bezdirmoqchi, tushunyapsanmi? Keksayganda qayerga ham boramiz? Qayerga? — kampir shunday dedi-yu, eshikni taraqlatib yopib, shoshganicha chiqib ketdi.

Uy yana jimib qoldi. Faqat cholning xirillagan, uzuq-yuluq nafas olishi eshilib turardi. U o'choq yonida cho'nqaygan boshini qaltirayotgan qo'llari orasiga olib o'tirardi. Birdan chol tiz cho'kdi va qo'llarini cho'zib, kimgadir zorlanganicha iltijo qila boshladi:

— Ol meni, olib ket, bu tolei pastni! Unga farzand ato qil! Unga qarasam yurakbag'rim qon bo'ladi. Hech bo'lmasa bittagina tirnoq ato et, rahming kelsin bizga...

Chol yig'laganicha gandraklab o'rnidan turdi-da, devorni ushlab borib, eshikni ochdi. U tashqari chiqdi, eshikni yopdi va eshik ortida kafti bilan og'zini berkitib ich-ichidan o'ksinib yig'ladi.

Bola nochor ahvolda qoldi. U yana qaltiray boshladi. O'zini goh issiqqa, goh sovuqqa otardi. U turmoqchi, bobosi yoniga bormoqchi bo'ldi. Lekin qo'l-oyoqlari unga itoat qilmas, boshi zirqirab og'rirdi. Chol eshik orqasida yum-yum yig'lar, hovlida esa yana badmast O'razqul to'polon ko'tarardi, Bekey xola dodfaryod solib yig'lardi. Ikki tomonni ham Guljamol bilan buvi yalinib-yolvorib tinchitishdi.

Bola o'z xayol daryosiga cho'mgan edi.

U yana o'sha tezoqar daryo yoqasida. Ikkinchi sohilda, shag'al ustida esa xuddi o'sha bug'ilar turibdi. Shunda bola iltijo qildi: «Shoxdor ona bug'i, Bekey xolaga shoxingda beshik olib kel. Sendan o'tinib so'rayman, ularga beshik olib kel. Ularda ham farzand bo'lsin», o'zi bo'lsa suv yuzasidan Shoxdor ona bug'i tomon yugurgilab ketdi. U suv yuzasidan chopib borar ekan, qulab tushmasdi, shu bilan birga, sohilga ham yaqinlasholmasdi, xuddi bir joyda depsinib turib



qolgandek edi. U hamma vaqt Shoxdor ona bug'iga yalinib-yolvorardi. «Sen shoxingda beshik olib kel. Shunday qilginki, bobomiz yig'lamasin, shunday qilginki, O'razqul amaki Bekey xolani urmasin, shunday qilginki, ularda farzand tug'ilsin. Men hammalarini sevaman, O'razqul amakini ham sevaman, sen unga faqat farzand ber. Ularga shoxingda beshik olib kel...»

Bolaga uzoqdan qo'ng'iroqcha jaranglaganday eshitildi. U tobora kuchliroq jaranglardi. Ona bug'i tog' bo'ylab yugurardi, u beshikni — qayindan yasalgan qo'ng'iroqchali bola beshigini bandidan shoxlarida ko'targancha keltirayotgan edi. Beshik qo'ng'iroqchasining jarangi hamma yoqqa tarala boshladi. Shoxdor ona bug'i juda shoshilayotgan edi. Qo'ng'iroqcha ovozi tobora yaqinlasha boshladi.

Bu nimaning ovozi? Qo'ng'iroqcha jarangiga motorning uzoqdan gurillagan ovozi jo'r bo'ldi. Qayerdadir yuk mashinasi kelardi. Mashinaning gurillashi tobora kuchayib, aniqroq eshitalardi, qo'ng'iroqchanning jarangi xuddi undan cho'chiganday uzuq-yuluq eshitila boshladi, ko'p o'tmay esa, uni motorning gurillashi butunlay bosib ketdi.

Bola temirlarni sharaqlatib, hamma yoqni larzaga solib hovliga og'ir mashina kelib to'xtaganini eshitdi. It hurgancha tashqariga otildi. Deraza oynasiga bir zum chiroq yorug'ining aksi tushib turdi-yu, shu zahotiyoyq o'chdi. Ayni choqda motorning ovozi ham jimib qoldi. Kabina eshigi taraqlab yopildi. Kelgan kishilar, aftidan, uchovlon bo'lsa kerak, o'zaro gaplashib, bola yotgan deraza yonidan o'tib ketishdi.

— Seydahmad keldi, — birdan Guljamolning quvonchli ovozi yangradi, uning eri tomon shoshilayotgani eshilib turardi. — Biz bo'lsak kutaverib, toqatimiz toq bo'ldi!

— Assalomu alaykum, — javob qilishdi unga notanish kishilar.

— Xo'sh, tinch o'tiribsizlarmi? — so'radi Seydahmad.

— Shukur. Nega muncha kech?

— Shunisiga ham shukur. Sovxozgacha yetib keldim, yo'lovchi mashinalarni kutaman-kutaman, qani kela qolsa. Hech bo'lmasa Jilisoygacha yetib olsam deyman. Bir mahal mana bular yog'och olib ketgani bizning tomonimizga kelishayotibdi, — deya hikoya qilardi Seydahmad. — Tog' oralig'i qorong'i. Yo'lni o'zing bilasan...

— O'razqul qani? Uydami? — qiziqib so'radi kelganlardan biri.

— Uyda, — ikkilanib dedi Guljamol. — Sal tobi qochibdi. Tashvishlanmanglar. Bizda tunab qolasiz, joy bo'lsa bor. Yuringlar.

Ular rozi bo'lishdi. Lekin bir necha qadam bosgach, to'xtab qolishdi.

— Assalom, oqsoqol. Assalomu alaykum, boybicha.

Kelganlar Mo'min bobo va kampir bilan salomlashishdi. Chol bilan kampir ham uyatga qolmaslik uchun ularni hovlida kutib olishdi. Balki O'razqul ham uyalar? Ishqilib, o'zini va boshqalarni uyatga qo'ymasin-da.

Bola bir oz tinchlandi. Umuman, u o'zini yengil his eta boshladi. Boshi ham unchalik og'rimayotgan edi. Hatto o'rnidan turib, mashinani ko'zdan kechirmoqchi bo'ldi: u qanaqa, to'rt g'ildiraklimi yoki olti g'ildiraklimi? Yangimi, eskimi? Pritsepi qanaqa? O'tgan yozda ularning uyiga hatto harbiy yuk mashinasi ham kelgandi — g'ildiraklari baland, xuddi tumshug'i kesib olingandek edi. Yosh askar shofyor bolani kabinaga o'tirg'izgan edi. Qanday yaxshi! Oltin rang pogonli harbiy kishi esa O'razqul bilan birga o'rmonga tushib ketishdi. Qanaqasi bu? Hech bunaqasi bo'lmagandi-ku.

— Sizlar josusni izlayapsizmi? — so'radi bola askardan. U jilmayib qo'ydi.

— Ha, josusni izlayapmiz.

— Biznikiga hali bironta ham josus kelgani yo'q, — dedi bola g'amgin.

Askar kulib yubordi.

— Nimaga kerak u senga?

— Men uni izidan quvlab, tutib olardim.

— Obbo izquvar-e, hali yoshlik qilasan.

Oltin rang pogonli harbiy kishi O'razqul bilan o'rmonni aylanib yurishganda, bola shofyor bilan gaplashib oldi.

— Men hamma mashinalarni, hamma shofyorlarni yaxshi ko'raman, — dedi bola.

— Nima uchun? — qiziqib so'radi shofyor.

— Mashinalar — yaxshi, kuchli va tez yuradi. Ulardan yoqimli benzin hidi keladi. Shofyorlar bo'lsa yosh, ularning hammasi ham Shoxdor ona bug'ining bolalari.

— Nima? Nima? — tushunmadi askar. — Qanday Shoxdor ona?

— Sen hali bilmaysanmi?

— Yo'q. Bunaqa g'aroyibotni hech qachon eshitmaganman.

— Sen o'zing kimsan?

— Men qarag'andalik qozoqman. Shaxtyorlar maktabida o'qiganman.

— Buni so'rayotganim yo'q, sen kimning farzandisan?

— Ota-onamni.

— Ular kimniki?

— Ular ham ota-onasining farzandlari.

— Ular-chi?

— Ey, og‘ayni, shu zaylda to‘xtovsiz savol berib surishtiraverish mumkinmi, axir.

— Men bo‘lsam Shoxdor ona bug‘i farzandlarining farzandiman.

— Buni kim aytdi senga?

— Bobom.

— Har qalay, to‘g‘ri emas, — askar ikkilanib, bosh chayqadi.

Bu katta boshli, shalpanq quloq bolaning Shoxdor ona bug‘i avlodi ekanligi uni qiziqtirib qo‘ydi. Askar o‘z avlodi qayerdan tarqalganini bilmasligi ma‘lum bo‘lib qolganligidangina emas, hatto yetti pushtini bilmasligidan bir oz xijolat ham tortdi. Askar faqat o‘z otasini, bobosini va bobokalonini bilardi, xolos. Boshqalari-chi?

— Senga yetti ota-bobolarning nomlarini esda tutishni o‘rgatishmaganmi? — deb so‘radi bola.

— O‘rgatishmagan. Nimaga kerak bu? Men ular haqida hech nimani bilmasam ham, hamma qatori binoyidek yashayapman.

— Bobom, agar odamlar o‘z ota-bobolarini bilmasalar, ular aynib ketadi, deydi.

— Kim ayniydi? Odamlarmi?

— Ha.

— Nima uchun?

— Bobom aytadiki, unda hech kim yomon ishlardan hazar qilmaydi, chunki bolalar va bolalarning bolalari ham uni eslamaydi. Shuningdek, hech kim yaxshi ish ham qilmaydi. Chunki, baribir, bolalar uning yaxshi ishlari haqida eslamaydi-da.

— Bobong qiziq ekan-ku! — Askar chinakam hayratda qoldi. — G‘aroyib. Ammo u sening boshingni bo‘lmag‘ur narsalar bilan gangitib qo‘yayotganini bilmasa kerak. Axir, sening boshing katta-ku... Quloqlaring ham shunchalik kattaki, xuddi bizning poligonimizdagi lokatorlarga o‘xshaydi. Sen uning gaplarini tinglama. Kommunistmga boryapmiz, kosmosga uchyapmiz, u bo‘lsa seni nimga o‘rgatyapti? Uni bizga, siyosiy mashg‘ulotga olib borishsa bormi, bir zumda ma‘lumotli qilib qo‘yardik. Sen o‘sib, o‘qib-o‘rganib olganingdan so‘ng bobongan voz kechib qo‘ya qol. U nodon, madaniyatsiz kishi.

— Yo‘q, men hech qachon bobomni tashlab ketmayman, — e‘tiroz bildirdi bola. — U yaxshi.

— Hozircha shunday. Keyinroq tushunib olasan.

Hozir ovozlarga quloq solib turar ekan, bola o'sha harbiy mashinalarni esladi. U o'shanda askarga nima uchun bu yerdagi shofyorlar, ayniqsa u bilgan shofyorlar Shoxdor ona bug'ining farzandlari ekanligini yaxshilab tushuntirib berolmagan edi.

Bola unga to'g'risini aytdi. Uning so'zlarida hech qanday uydirma yo'q edi. O'tgan yili xuddi shunday kuz pallasida, ehtimol, sal kechroqmidi, pichan olib ketish uchun toqqa sovxoz mashinalari kelgan edi. Ular qorovulxonaning yonidan emas, balki unga bir oz yetmasdan Archadaraga olib boradigan yo'lga buri-lishdi, so'ng yuqorilab borib, yozda o'rib qo'yilgan pichanlar tomon ketishdi. Qorovultog'dagi motorlarning mislsiz gurillashini eshitgan bola yo'lning ayrilishiga qarab chopib ketdi. Birdaniga shuncha mashina! Birining ketidan biri tizilishib ketgan. Butun bir kolonna. U mashinalardan o'n beshtachasini sanadi.

Havo aynib turibdi. Bugun-erta qor yog'ib qolish siyoqi bor. Unda «xayr, xashaklar, kelgusi yilgacha» deyaverish mumkin. Bu joylarda pichanni o'z vaqti-da tashib olmasang, keyin dog'da qolasan. O'tib kelolmaysan bu yerga. Aftidan, sovxozda turli xil ishlar ko'payib, vaqt ziq kelib qolganligi uchun o'rib tayyorlab qo'yilgan pichanni bir yo'la tashib keltirishga qaror qilingan edi.

Biroq bola buni bilmasdi. To'g'risini aytganda, uning nima ishi ham bor? U hovliqib, quvonganidan har bir mashinaning qarshisiga chiqdi, bir oz kim o'zarga chopishdi, so'ng boshqasini qarshi ola boshladi. Yengil yurib borayotgan yuk mashinalarining hammasi yap-yangi, kabinalari chiroyli, oynalari esa keng edi. Kabinada yosh yigitlar o'tirishibdi. Ularning hammasi bir xilda murt-siz, ayrim kabinalarda esa ikkitadan o'tirishibdi. Bu sherik bo'lib o'tirganlar pi-channi yig'ish va bog'lash uchun borishayotgan edi. Ularning hammasi bolaga chiroyli, quvnoq, jasur bo'lib tuyuldi.

Umuman-ku bola yanglishmagandi. Haqiqatda ham shunday edi. Mashinalar soz edi, ular Qorovultog'dagi shag'alli, zarang yo'ldan o'tgach, yelday uchib bo-rardi. Bolalarning vaqti chog' edi — havo ham yomon emasdi, bu yerda yana qa-yoqdandir paydo bo'lib qolgan shalpanq quloq, katta boshli tirmizak bola yoshlik sho'xliklarini ichiga sig'dirolmay quvonganidan har bir mashina qarshisida girdi-kapalak bo'lardi! Bola yana ko'proq sevinsin va sho'xlik qilsin uchun uning xatti-harakatlariga kulmasdan, hazil aralash qo'l silkib, po'pisa qilmasdan bo'larmidi...

Eng oxirida kelayotgan yuk mashinasi hatto to'xtadi ham, kabinadan pogon-siz, harbiy furajkasiz, ammo kepka kiyib olgan askar kiyimidagi yosh shofyor yigit boshini chiqarib qaradi.

— Yaxshimisan, nima qilib yuribsan bu yerda, a? — ochiq yuz bilan bolaga ko'z qisib qo'ydi u.

— O'zim, shunday, — bamaylixtir javob berdi bola.

— Sen Mo'min boboning nabirasi emasmisan?

— Ha.

— O'zim ham shunday deb o'ylagan edim. Men ham Bug'iboy avlodidanman. Bu borayotgan bolalarning hammasi Bug'iboy avlodidan. Pichanga boryapmiz. Endigi Bug'iboy avlodlari bir-birini bilishmaydi ham, tarqalishib ketgan... Bo-bongga salom ayt. Qulibekni, Cho'tboyning o'g'li Qulibekni ko'rdim deb ayting. Qulibek armiyadan qaytib kelib, sovxozda shofyor bo'lib ishlayapti ekan, degin. Xayr, omon bo'l, — xayrlashish oldidan u bolaga qandaydir harbiy znachok sovg'a qildi. Juda g'alati. Ordenga o'xshab ketadi.

Mashina qoplon kabi bo'kirib sheriklari ortidan shamolday uchib ketdi. Nogahon bolada Bug'iboy avlodidan bo'lgan akasi — bu oq ko'ngil, mard yigit bilan birga ketish ishtiyoqi tug'ilib qoldi. Ammo yo'l huvillab qolgan bo'lib, u uyga qaytishga majbur bo'ldi. Qaytarkan, bobosiga uchrashuv haqidagi taassurotlarini gapirib berdi. Znachokni bo'lsa ko'kragiga taqib oldi.

O'sha kuni kechqurun osmon gumbazi ostidagi tizma tog'lardan qattiq shamol — San-Tosh shamoli tura boshladi. U bo'ronga aylandi. O'rmon yap-roqlari quyundek osmonga uchib chiqib tobora ko'kka o'rlar, guvillagancha tog' cho'qqisida o'ynardi. Zum o'tmay havo shunday buzildiki, ko'z ochib bo'lmay qoldi. Birdan qor uchqunlay boshladi. Ana-mana deguncha yer yuzi oq choyshabga burkandi, o'rmonlar chayqaldi, daryo jo'sh urdi. Qor tushdi, u buralib-buralib yog'ardi.

Bir amallab mollarni haydashga, hovlidagi u-bu narsalarni yig'ishtirishga, iloji boricha uyga mo'l o'tin olib kelishga zo'rg'a ulgurishdi. Keyin esa uydan chiqmay qamalib olishdi. Bunday erta tushgan izg'irin sovuqda kim ham eshikka chiqadi deysiz.

— Buning kimga keragi bor? — hayratlanib tashvishlanardi Mo'min bobo, o'choqqa o'tin qalarkan. U shamolning hushtak chalishiga hamon quloq tutar, deraza oldiga borib tashqarini kuzatardi. Darcha ortida gir aylanib yog'ayotgan qor hash-pash deguncha uyulib qolgan edi.

— O'tir o'rningga! — ming'illadi buvi. — Birinchi marta shunday bo'lyaptimi? «Buning kimga keragi bor?» emish. — Taqlid qilib masxaraladi kampir. — Qish qishligini qilishi kerak-da.

— Bir kunda-ya...

— Bo'lmasa-chi? Sendan so'rab o'girarmidi? Vaqt-soati kelibdi, yog'adi-da.

O'choq mo'risi uvillay boshladi. Bola oldin bobosiga xo'jalik ishlarida yordam berib, sovuqqa qotdi, biroq o'tin tezda qizishib yonib ketgandan so'ng uy ichi isib qoldi. Hamma yoqni dud aralash qarag'ay smolasining hidi qopladi. Isinib olgach, bolaning ham ko'ngli joyiga tushdi.

Keyin ovqatlanishdi. So'ng uxlash uchun o'ringa kirishdi. Hovlida esa qor bo'ralar, shamol uvillardi.

«O'rmonda balki juda qo'rqinchlidir», — o'yladi bola oyna ortidagi guvilashga quloq solib, u banogoh qandaydir anglab olish qiyin bo'lgan ovozlarni, shovqin-suronlarni eshitib, o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Kimdir birovni chaqirdi, kimdir unga javob qaytardi. Dastlab bolaga shunday tuyulayotganday bo'ldi. Shunday paytda qorovulxonaga kim ham kelardi? Biroq Mo'min bobo va kampir hushyor tortishdi.

— Odamlar, — dedi kampir.

— Ha, — ishonqiramay dedi chol. Keyin bezovtalana boshladi: — Bemahalda kim bo'ldi? — u tezgina kiyina boshladi.

Kampir ham shoshib qoldi. Turib, lampa chiroqni yoqdi. Bola ham nimadanidir cho'chib, turib kiyindi. Bu orada odamlar uyga yaqinlab kelishdi. G'ovurg'uvur, oyoq tovushlari. Noma'lum odamlar qorni g'archillatib bosib, anvonga kelganlarida oyoqlarini qoqib, taqillata boshladilar.

— Oqsoqol, eshikni oching! Sovqotdik!

— Kimsizlar?

— O'zingizniki.

Mo'min eshikni ochdi. Qorda, izg'irin shamolda sovqotgan kishilar uyga bostirib kirib kelishdi. Bular kunduzi Archadara tomonga pichan ortishga ketgan o'sha yosh shofyorlar edi. Bola ularni darhol tanidi. Unga harbiy znachok taqdim qilgan Qulibek ham bor edi. Ular birovni qo'ltig'idan ushlab olib kirishdi. U ingrardi, oyog'ini sudrab bosardi. Uyda birdan qiy-chuv ko'tarildi.

— Astag'frullo! Nima bo'ldi sizlarga? — Mo'min bobo bilan kampir baravar tashvishlanib so'rashdi.

— Keyin gapirib beramiz! U yoqda yana bizdan yetti kishi kelyapti. Yo'ldan adashishmasa bo'lgani. Qani, bu yerga o'tir-chi. Oyog'i qayrilib ketdi, — oqsoq yigitni pechka yoniga o'tirg'izarkan, tez gapirdi Qulibek.

— Qolgan odamlaringiz qayerda? — shoshib qoldi Mo'min bobo. — Men hozir borib, ularni boshlab kelaman. Sen esa yugur, — dedi u bolaga. — Seydahmadga ayt, tezlik bilan elektr fonarini olib kelsin.

Bola uydan otilib chiqdi va hovliqqanidan nafasi bo'g'ziga tiqilib qoldi. Umri-ning oxirigacha u, bu dahshatli daqiqani esdan chiqarmadi. Qandaydir hurpaygan, basharasi sovuq, chinqirib dahshat soluvchi bahaybat maxluqning tomog'idan bo'g'ib olib siltay boshladi. Lekin bola o'zini yo'qotmadi. U dahshatli changaldan sitilib chiqdi va qo'li bilan boshini to'sib himoya qilganicha Seydahmadning uyiga yugurdi. Hammasi bo'lib yigirma-o'ttiz qadamlik yo'l unga juda uzoq bo'lib tuyuldi. Go'yo jangchilarga ko'maklashmoq uchun olis yerga shamoldek yelib borayotgandek edi. Uning qalbi mardlik va jasurlik ko'rsatish ishtiyoqi bilan to'lib-toshgan edi. U nazarida o'zini qudratli va yengilmas kuchga ega ekandek his etdi, hatto Seydahmadning uyiga yetib borguncha ham shunday qahramonona ishlar qilishga ulgurdiki, qoyil qolmay iloj yo'q. U tubsiz jarliklar orqali tog'dan-toqqa sakrab o'tdi, qilich bilan dushman to'dasini yakson qildi, daryoga cho'kayotganni, o'tda kuyayotganni xalos etdi, qizil bayrog'i hilpirab turgan reaktiv qiruvchi samolyotda dara va qoyalar sari undan qochib borayotgan dahshatli qora maxluqni quvdi. Uning reaktiv qiruvchi samolyoti maxluq ortidan o'qdek uchib o'tardi. Bola pulemyotdan o'q uzib, «fashistlarni qir!» deb qichqirardi. Hamma joyda Shoxdor ona bug'i uni qo'llab-quvvatladi. Bug'i o'z farzandi bilan faxrlanardi. Bola Seydahmadning uy eshigiga kelib yetganda, ona bug'i unga: «Endi mening bolalarimni, yosh shofyorlarni qutqarib qol!» — dedi. «Men ularni qutqaraman, Shoxdor ona bug'i, azbaroyi xudo, qasam ichaman!» dedi bola ovoz chiqarib va eshikni qoqa boshladi.

— Tezroq, Seydahmad amaki, biznikilarni qutqarib qolaylik, yuring! — U bu so'zlarni shunday ta'sirli qilib aytdiki, Seydahmad va Guljamol qo'rquvdan joyida turganicha turib qolishdi.

— Kimni qutqarish kerak? Nima bo'ldi?

— Bobom elektr fonari bilan tezda chopib kelsin, sovxozdan kelgan shofyorlar yo'lda adashib qolishibdi deb aytgin, dedilar.

— Ahmoq, — so'kib berdi uni Seydahmad. — Shunday desang bo'lmaydimi? — U o'tlanish uchun yugurib ketdi.

Lekin bu holat bolani hech qancha ranjitmadi. Seydahmad uning bu yerga kelguncha qanchalik jasorat ko'rsatganini, qasam ichganini qayerdan bilsin. Bola shofyorlarning yettalovi ham Mo'min bobo bilan Seydahmad tomonidan

qorovulxonaning yonidan tezda topilib uyga olib kelinganda ham unchalik ajablanmadi. Shunday uchrashuv sodir bo'lmashligi ham mumkin edi-ku! Xatarning oldi olinsa u yengil ko'chishi mumkin... Umuman olganda bu adashgan kishilar ham topildi. Seydahmad ularni uyiga olib ketdi. Hatto O'razqulnikida tunash uchun ham besh kishi yuborildi. Uni ham uyg'otishga to'g'ri keldi. Boshqalari esa Mo'min boboning uyiga tiqilib qolishdi.

Qor bo'roni tog'da hali ham to'xtamagandi. Bola ayvonga yugurib chiqdi va daqiqa o'tmay, o'ng va so'li qaysi, baland va past qaysi, tushuna olmay qoldi. Havoning qovog'i soliq, go'yo doira shaklida aylanayotgandek edi. Qor esa tizza bo'yi bo'lib qolgandi.

Mo'min bobo sovxoz shofyorlarining hammasi topilib, isinib olgach va sovuqdan, xavf-xatardan qutulib ko'ngillari tinchigach, voqea tushunarli bo'lsa ham yo'lda, qor bo'ronida qanday hodisa yuz berganini sekin-asta surishtira boshladi. Yigitlar hikoya qilib berishdi, chol-kampir esa xo'rsinib-xo'rsinib qo'yishardi.

— Bay, bay-ey, — deya sodir bo'lgan hodisadan hayratda qolishar va qo'llarini ko'ksiga qo'yib xudoga shukronalar aytishardi.

— Bunchalik yengil kiyinmasalaring-a, bolalar, — o'pkaladi kampir issiq choydan quyarkan. — Toqqa shunday kiyim bilan kelish mumkinmi, axir. Bolasizlarda, bola. O'zingizga zeh berasiz, shaharliklardek bo'lay deysiz. Agar yo'l topa olmay ertalabgacha qolib ketganlaringizda bormi, xudo ko'rsatmasin! Naq muzlab qolardilaringiz.

— Kim bilsin bunday bo'lishini, — deb javob berdi Qulibek. — Issiq kiyinish nega kerak? Biron narsa bo'lsa ichkarida mashina isitib qo'yadi. Xuddi uyingdagedek o'tirib, barankani aylantiraver. Samolyotda-chi, mana bu tog'lar u yerdan tepachalardek ko'rinadi — bort tashqarisida qirq daraja sovuq bo'lsa, ichkarida odamlar ko'ylakchan yurishaveradi.

Bola po'stinga o'ralib shofyorlar o'rtasida yotardi. U Qulibekning yoniga tiqilib olib, kattalarning suhbatini butun vujudi bilan tinglardi. Birdan bo'ron ko'tarilib, bu yigitlar ularning uyidan boshpana izlashga majbur qilganidan hatto u xursand bo'lganini hech kim xayoliga ham keltirmadi. U bo'ron uzoq kunlar, hech bo'lmaganda uch kun davom etishini ich-ichidan juda istardi. Mayli, ular shu yerda yashayversinlar. Ular bilan vaqt o'tkazish qanday yaxshi. Qiziqarli. Bobosi, aftidan hammasini tanirkan. O'zlarinigina emas, otalari va onalarini ham bilarkan.

— Mana, ko'rdingmi, — bobo nabirasiga hatto bir oz g'ururlangandek dedi, — o'z akalaringni, Bug'iboy avlodlarini ko'rding. Ularning kimligini bilib olasan.



Qara, qanday ular! Ey, hozirgi yigitlar bo'ychan bo'lib o'sishyapti-da. Xudoyim sizlarni o'z panohida asrasin. Qirq ikkinchi yili qishda bizni Magnitogorskka qurilishga olib kelishgani esimda...

Bobo nabirasiga yaxshi tanish bo'lgan tarixni hikoya qilishga tutinib, ularni mamlakatning turli burchaklaridan chaqirilgan mehnat armiyasini bo'yga qarab uzayib ketgan safga tortishganida qirg'izlarning deyarli hammasi past bo'yli bo'lganligi va safning oxiriga tushib qolganligi haqida so'zlab berdi. Yo'qlama o'qib bo'linganidan so'ng papiros chekishga ruxsat berildi. Sarg'ishdan kelgan davangirdek bir yigit kelib, baland ovozda:

— Bular qayerdan? Manjurlarmi yo? — dedi.

Ularning orasida keksa o'qituvchi ham bor edi. U shunday javob berdi:

— Biz qirg'izlarmiz. Biz bu yerdan uncha uzoq bo'lmagan joyda manjurlar bilan jang qilganimizda Magnitogorskdan nom-nishon ham yo'q edi. Bo'yimiz esa xuddi senikidek edi. Urushni tamomlaganimizdan so'ng yana o'ssamiz...

Bobo o'sha o'tmish voqeani esga oldi. Jilmayib, qoniqish bilan yana bir bor o'zining tungi mehmonlariga ko'z tashladi.

— O'sha o'qituvchi to'g'ri aytgan ekan. Shaharda bo'lganimda yoki ko'chada kelayotib nazar tashlayman: hozirgi avlod ilgarigisiga o'xshamaydi, bo'ychan va ko'rkam bo'lib yetishmoqda.

Tushungan yigitlar sekin kulib qo'yishdi. Chol chaqchaqlashishni yaxshi ko'radi.

— Ha, bo'ychanmiz, bo'ychan, — dedi ulardan biri. — Mashinani bo'lsa pastlikka ag'darib yubordik. Shuncha kishi bo'la turib kuchimiz yetmadi...

— Xashak yuklangan bo'lsa, buning ustiga yana shunday qor bo'ronida uddasidan chiqib bo'larmidi, — ularni oqlay boshladi Mo'min bobo. — Shunaqasi ham bo'ladi. Xudo xohlasa, ertaga hammasi joyida bo'ladi. Eng muhimi, shamol tinsin.

Yigitlar boboga yuqoridagi, Archayassi tog'idagi pichanlarga mashinada qanday yetib borganlarini gapirib berishdi. U yerda uchta katta pichan g'arami turardi. Uchala g'aramni ham bir yo'la yuklashga kirishdilar. Yuklaganda ham baland qilib, hatto tomdan ham baland qilib yuklashdi. Keyin yuqoridan arqonga osilib tushishga to'g'ri keldi. Shunday qilib, birin-ketin hamma mashinalarga pichan yuklandi. Kabina ko'rinmas, faqat old oynalar, kapot va g'ildiraklar ko'rinib turardi. Kelarga kelindimi, yana ovora bo'lib yurmasdan hammasini birato'la olib ketishmoqchi bo'lishgandi. Ular hozir olib ketishmasa bu pichanlar kelgusi yilgacha qolib ketishini bilardilar. G'ayrat bilan ishladilar. Kimning mashinasi tayyor bo'lsa, chetga chiqarib qo'yib, boshqasiga yuklashga yordamlashar edi-

lar. Ular qariyb hamma xashakni yuklashdi, biroq ikki aravachasi qoldi, xolos. Chekib olishdi, kim kimning ortidan haydashini kelishib olishdi va hammalari bir kolonna bo'lib yo'lga tushishdi. Mashinani sekin-asta haydashdi. Qorong'ida tog'dan sirg'alib ketishlariga oz qoldi. Pichan yengil yuk bo'lsa ham olib borish qiyin, ayniqsa tor joylarda, burum yo'llarda xavfli.

Ular borisharkan, oldinda nima kutayotganini xayollariga ham keltirishmasdi.

Ular Archa tepaligidan tushib, dara bo'ylab ketishardi. Daradan chiqishda esa kechga yaqin bo'ronga duch kelishdi. Qor ura boshlagan edi.

— Shundan boshlab birpasda yelkalar uvib qoldi, — deya hikoya qila boshladi Qulibek. — Birdan qorong'ilik bosib shunaqangi shamol urib berdiki, naq bo'lmasa qo'lingdan barankani tortib olgudek edi. Ana-mana deguncha mashinani ag'darib yuborayotgandek odamni vahima bosadi. Yana buning ustiga yo'l shunaqa yomonki, hatto kunduz kuni ham yurish xavfli.

Bola nafasini ichiga yutib, chaqnoq ko'zlarini Qulibekdan uzmay jimgina tinglardi. Hikoya qilinayotgan o'sha shamol, o'sha qor oyna ortida avjiga chiqmoqda edi. Ko'pchilik shofyorlar va yuk tashuvchilar etiklarini ham yechmay polda yotib uxlashmoqda. Ular nimani boshidan kechirgan bo'lsalar, buni qiltiriq bo'yinli, katta boshli, shalpanq quloq bu bola ham qayta boshidan kechirdi.

Bir necha daqiqadan so'ng yo'l ko'rinmay qoldi. Mashinalar, chetga chiqib ketmaslik uchun bir-birining izidan qolmay nuqul signal berardi. Mashina dera-zalarini va faralarini qor bosdi. «Tozalagichlar» esa oynadagi qorni tozalab ulgura olmasdi. Kabinadan bosh chiqarib haydashga to'g'ri keldi. Biroq bu ahvolda qancha ham yo'l bosish mumkin? Qor bo'lsa zaptiga olib yog'ardi! G'ildiraklar og'irlashib deyarli joyidan jilmasdi. Kolonna tikka tepalikka yetganda to'xtadi. Motorlar o'kirardi — lekin foydasiz edi... Mashinalar toqqa chiqa olmay taqqa to'xtab qoldi. Kabinadan sakrab tushishib, bir-birlariga ovoz qilganlaricha bir mashinadan ikkinchisiga chopib o'tishib, kolonna boshida to'planishdi. Nima qilish kerak? Gulxan yoqish mumkin emas. Kabinada o'tirilaversa qolgan yonilg'i ham yoqib bitiriladi. Usiz ham sovxozgacha arang yetib borish mumkin. Kabina isitilmasa muzlab qolish hech gap emas. Yigitlar nima qilishlarini bilmay dovdirab qolishdi. Hamma narsaga qodir bo'lgan texnika hozir ojiz. Nima qilish kerak? Kimdir mashinalardan birining xashagini ag'darib, ichiga kirib yotishni taklif qildi. Biroq arqonni bo'shatish bilanoq xashakdan bir tutam ham qolmasligi aniq edi: ko'z ochib-yumguncha bo'ron uchirib ketardi. Bu orada mashinalar qor uyumiga tobora chuqurroq kirib borar, g'ildiraklar ostidagi qor ancha ko'tarilib

qolgan edi. Yigitlar o'zlarini butunlay yo'qotib qo'yishdi, izg'irin suyak-suyaklaridan o'tib ketdi.

— Bir mahal esimga tushib qoldi, oqsoqol, — deb hikoya qilardi Qulibek Mo'min boboga. — Biz yo'lda Archadaraga ketayotib mana bu Bug'iboy avlodidan bo'lgan ukamizni uchratdik. — U bolani ko'rsatdi va erkalab uning boshini siladi. — Yo'lda chopib yurgan ekan. Men uni to'xtatib salomlashdim. Gaplashdik. To'g'rimi? Nima, hali uxlaganing yo'qmi? Obbo, azamat-e!

Bola jilmayib bosh irg'adi. Uning qalbi quvonch va iftixordan gursillab urayotganini biron bilganda edi. Buni yigitlar ichida eng kuchlisi, eng botiri va eng chiroylisi — Qulibekning o'zi gapirib berdi. Mana shunaqa bo'lsa kishi.

Bobo ham o'choqqa o'tin tashlarkan, uni maqtab qo'ydi:

— U shunaqa. Gap tinglashni yaxshi ko'radi. Angrayib quloq solishini ko'ryapsanmi!

— O'sha daqiqada u qanday esimga tushib qoldi, o'zim ham bilmayman, — davom etdi Qulibek. — Bolalarga deyarli baqirib gapiraman, ovozimni bo'lsa shamol olib qochadi. Kelinglar, qorovulxonaga yetib olaylik. Bo'lmasa, nobud bo'lamiz deyman. Bolalar bo'lsa qanday yetib boramiz deb shundoqqina yuzimga kelib qichqirishadi. Piyoda borib bo'lmaydi. Mashinani ham tashlab ketish mumkin emas. Men bo'lsam, kelinglar, mashinani itarib dovondan olib o'tamiz, u yog'i qiyalik deyman. San-Toshgacha yetib borsak bo'lgani, u yog'iga piyoda borish ham mumkin, o'rmonchilarimizning uyi yaqin qoladi deyman. Bolalar buni ma'qul ko'rishdi. Qani, boshla, deyishdi. Ish shundan bo'lgach... Birinchi mashinadan boshladik: «Usmonali, kabinaga chiq!» Boshqa hammamiz mashina ortidan yelka tirab itara boshladik. Dastlab ish yurishgandek bo'ldi. Keyin darmonsizlanib qoldik. Orqaga chekinish ham mumkin emas. Biz mashinani emas, butun tog'ni yuqoriga ko'tarayotgandek sezardik o'zimizni. Ortilgan yuk ham qanaqa deng — pichan g'arami! Faqat kuchimning boricha: «Qani! Qani!» deb baqirganimni bilaman, lekin ovozimni o'zim ham eshitmayman. Shamol, qor — hech narsani ko'rib bo'lmaydi. Mashina xuddi joni bordek ingrab nola qiladi. Mashina ham, o'zimiz ham so'nggi kuchni sarfladik. Go'yo yurak yorilib parcha-parcha bo'lib uchib ketadiganga o'xshaydi. Bosh aylanadi.

— Bay, bay, bay, — achindi Mo'min bobo. — Rosa qiynalibsiz-da. Shoxdor ona bug'i o'z farzandlarini panohida asrabdi. Falokatdan qutqaribdi. Bo'lmasa, kim bilsin... Eshityapsanmi? — Tashqarida hamon bo'ron quturadi, bo'ralab qor yog'yapti. Bolani uyqu bosa boshladi. U uxlamaslikka harakat qilsa ham,

bari bir ko'zlari yumilib ketaverdi. Uyqu aralash ora-sira chol bilan Qulibekning suhbatini tinglar ekan, bola sodir bo'lgan voqea bilan tasavvuridagi manzarani aralastirib yubordi. Go'yo o'zini ham tog'dagi bo'ronga duch kelgan bu yosh yigitlarning orasida his qildi.

Uning ko'z oldida oppoq qor bilan qoplangan tog' tomon yuqorilab ketgan yo'l gavdalanardi. Qor bo'roni yuzni achishtiradi, ko'zga qadaladi. Ular tom bo'yi pichan ortilgan ulkan avtomashinani yuqoriga qarab itarishardi. Ular dovon tomon arang ko'tarilishadi. Mashina endi butunlay jilmay qoldi, tisarila boshladi, shunday qo'rqinchli, shunday qorong'i. Shamol etni junjitadi. Bola qo'rqqanidan g'ujanak bo'lib oldi, u mashinaning orqaga surilib, yanchib ketishidan cho'chirdi. Biroq shu payt qayoqdandir Shoxdor ona bug'i paydo bo'ldi. U shoxini mashinaga tirab uni yuqoriga olib chiqishga yordam qildi. «Qani, qani, qani!» — deb qichqira boshladi bola. Mashina sekin-asta siljiy boshladi. Ular dovonga chiqib olishdi, so'ng pastga qarab mashinaning o'zi yurib keta boshladi. Ular shu zaylda ikkinchi mashinani, keyin uchinchisini, xullas, ko'pgina mashinalarni yuqoriga itarib chiqishdi. Har gal ham ularga Shoxdor ona bug'i yordam qildi. Uni hech kim ko'rmasdi. Hech kim u bilan yonma-yon turganini bilmasdi. Bola esa ko'rib, bilib turardi. U har gal ilojisiz qolgan paytda, kuch yetmasdan qo'rqinchli bo'lib qolgan chog'da Shoxdor ona bug'i chopib kelib shoxi bilan mashinani yuqoriga surib chiqarishga yordam berganini ko'rdi. «Qani, qani, qani!» — madad berardi bola. Har gal ham u Qulibekning yonida turdi. Keyin Qulibek unga: «Rulga o'tir», — dedi. Bola kabinaga chiqdi. Mashina silkinib guvillardi. Rul bo'lsa uning qo'lida yengilgina, o'z-o'zidan, xuddi u yoshligida mashina qilib o'ynagan bochka halqachasi singari aylanardi. Bola xijolatdan aziyat chekardi, rul unga o'yinchoqdek bo'lib tuyulgandi. Bir mahal mashina yonboshga qarab og'a boshladi. U gumbirlab yiqildi va parchalanib ketdi. Bola qattiq yig'lab yubordi. Qulibekning ko'ziga qarashga uyalardi.

— Nima bo'ldi, a, senga nima bo'ldi? — Qulibek uni uyg'otdi.

Bola ko'zini ochdi. Ko'rganlarining hammasi tushida ekanligini anglab quvonib ketdi. Qulibek bo'lsa uni qo'lida ko'tarib, bag'riga bosdi.

— Tush ko'rdingmi? Qo'rqdingmi! Seni qara-yu, yana qahramon emish! — u bolaning shamolda qotib yorilib ketgan lablaridan o'pdi. — Kel, men seni o'rningga yotqizib qo'yay, uxlash kerak.

U bolani kigiz solingan polga, uxlab yotishgan shofyorlar o'rtasiga yotqizdi va o'zi ham uning yoniga yotdi. Qulibek bolani o'ziga yaqinroq tortib, po'stini-ning bari bilan o'rab qo'ydi.

Ertalab bolani bobo uyg'otdi.

— Tura qol, — sekingina gapirdi chol. — Issiqroq kiyingin. Menga yordam-lashasan. Tura qol.

Deraza ortida hali tong pardasi ko'tarilganicha yo'q. Uydagilar hali ag'anashib, uxlab yotishardi.

— Ma, kigiz etikni kiyib ol, — dedi Mo'min bobo. Bobodan yangi xashak hidi kelib turardi. Demak, u otlarga xashak solib kelgan. Bola kigiz etikni kiydi va ular tashqari chiqishdi. Qor binoyigina yoqqan edi. Shamol ham tinchigandi. Faqat ahyon-ahyonda achchiq yel esib turardi.

— Sovuq! — seskanib tushardi bola.

— Hechqisi yo'q. Havo ochilayotganga o'xshaydi, — ming'irladi chol. — Buni qara-ya! Birinchisidayoq shunchalik qahriga olmasa. Ha, mayli, falokat yuz bermadi...

Ular qo'yxonaga kirishdi. U yerda Mo'min boboning beshta qo'yi bor edi. Chol qorong'ida ustunni paypaslab topib chiroqni ildi va yoqdi. Qo'ylar burilib qaradida, bir burchakka borib qisildi.

— Buni ushla, meni yoritib turasan, — dedi chol bolaga chiroqni tutqazar-kan. — Qora to'qlini so'yamiz.

Uy to'la mehmon. Ular turguncha go'sht tayyor bo'lishi kerak.

Bola bobosiga chiroqni tutib turdi. Shamol hali ham tirqichlardan hushtak chalar, havo sovuq, tund edi. Chol avvalo eshik oldiga bir quchoq toza pichan olib kelib tashladi. Bu joyga qora to'qlini yetaklab keldi va uni yiqitib, oyoqlarini bog'lashdan oldin cho'qqayib o'tirgancha xayol surib qoldi.

— Chiroqni qo'y. Sen ham o'tir, — dedi bolaga u. O'zi bo'lsa kaftlarini ochib shiviray boshladi: — O, avlodning katta onasi, Shoxdor ona bug'i. Qora qo'yni sen uchun qurbonlikka, senga so'yayotirman. Xatarli damlarda bolalarimiz-ning omon bo'lishi, avlodimizni oq sut berib boqqaning, saxiy qalbing, onalik mehning uchun bu. Bizni dovonlarda, toshqin daryolarda, toyg'oq so'qmoqlarda yolg'iz qo'yma. Bizni o'z yerimizda hech vaqt tashlab ketma, biz sening farzandlaringmiz. Omin!

U fotiha o'qib, qo'lini yuziga tortdi. Bola ham xuddi shunday qildi. So'ng bobo to'qlini yerga ag'darib, uning oyoqlarini bog'ladi va o'zining qadimgi osi-yocha pichog'ini qinidan chiqardi. Bola esa uni chiroq bilan yoritib turardi.

Nihoyat havo tinchidi. Quyosh chok-chokidan sitilib suzib borayotgan bulutlar orasidan bir-ikki marta cho'chigandek nigoh tashladi. Tevarak-atrofdagi bo'ronli tun-

dan qolgan qing'ir-qiyshiq qor uyumlari, yanchilgan butalar, qor bosib yoy shakliga kelgan yosh daraxtchalar, qulab yotgan eski daraxtlar. Daryo ortidagi o'rmon sukut saqlab, jimgina, ma'yuslanib turardi. Daryoning o'zi ham pasayib ketganday sohillari qor bilan ko'pchib, unchalik shovqin solmay g'amgin oqardi.

Quyosh ham beqaror bo'lib qolgan edi — goh ko'rinadi, goh yashirinadi. Biroq hech nima bolani qayg'uga solib tashvishlantirmasdi. O'tgan tundagi tashvishlar unutilgan edi. Bo'ron ham esdan chiqarilgan edi, qor bo'lsa unga xalal bermas, hatto zavqli edi. U yoqdan-bu yoqqa yugurib yurdi, oyoq ostidan qor parchalari otilib chiqardi. Bola shuning uchun ham xursand ediki, uyi to'la odam edi. Shuning uchun ham quvnoq ediki, yigitlar uyqudan turib, baland ovoz bilan gapirishar, hazillashib-kulishardi. U yana shundan xursand ediki, o'zlari uchun pishirilgan qo'y go'shtini ishtaha bilan yeyishardi.

Bu orada quyosh ham olislarga musaffo nur tarqata boshlagandi. Bulutlar asta-sekin tarqalib, havo ham iliy boshladi. Bemahal yoqqan qor, ayniqsa yo'l va so'qmoqlardagisi tezda erib keta boshladi.

To'g'ri, shofyorlar va yuk tashuvchilar ketish uchun hozirlik ko'rayotganlarida bola bir oz hayajonlandi. Hammalari hovliga chiqishdi, mezbonlar bilan xayrlasharkanlar, uy-joy va non-tuz uchun minnatdorchiilik bildirishdi. Ularni Mo'min bobo bilan Seydahmad otda kuzatib qo'yishdi. Muzlab qolgan motorlarni isitish uchun chol otga bir bog'lam o'tin, Seydahmad esa katta bakda suv ortib olgandi.

Hammalari hovlidan chiqa boshlashdi.

— Ota, men ham boraman, meni ham olib keting, — deya bola bobosi yoniga chopqillab bordi.

— Ko'ryapsan-ku, men o'tin ortib olganman, Seydahmad bo'lsa bak ortib olgan. Qaysi birimiz olamiz seni. Nima bor senga u yerda? Qorda yurib charchaysan.

Bola xafa bo'ldi. Qovog'i osildi. Shunda Qulibek unga:

— Yur, biz bilan, — dedi va bolani qo'lidan ushlab oldi, — qaytishda bobong bilan birga kelasan.

Ular Archadaradan qiyalab o'tishadigan yo'l tomon ketdilar. Hali xiyлагina qor bor edi. Bu baquvvat yigitlar bilan birgama-birga qadam tashlab borish oson emasdi. Bola toliqa boshladi.

— Qani, yelkamga o'tir-chi, — taklif qildi Qulibek. U bolani qo'lida azot ko'tarib, epchillik bilan yelkasiga mindirib oldi va uni xuddi har kuni ko'tarib odatlangandek yurib ketdi.

— Juda evini keltiribsan-ku, Qulibek, — dedi u bilan yonma-yon borayotgan shofyor.

— Umrim uka va singillarimni ko'tarib o'tgan, — maqtanib qo'ydi Qulibek. — To'ng'ichi edim-da. Biz oilada olti kishi bo'lib, onam ham, otam ham dalada bo'lishardi. Endi bo'lsa singlim bolalik bo'ldi. Armiyadan qaytdim, uylanmagan edim, ishga ham hali joylashganimcha yo'q edi. Singlim biznikiga kel, sen bolaga yaxshi qaraysan deydi. Qo'ysang-chi, deyman, bo'ldi, endi o'zimnikini ko'tarib yuraman...

Ular shu zaylda turli-tuman narsalar to'g'risida gapirishib borishdi. Bola Qulibekning baquvvat yelkasida rohat qilib xotirjamgina borardi.

«Mening ham shunday akam bo'lsaydi, — orzu qilardi bola, — hech kimdan qo'rqmasdim. O'razqul Qulibekning oldida bobomga baqirib yoki qo'l tekkizib ko'rsin-chi. U O'razqulni darhol tinchitib qo'ygan bo'lardi».

Pichan ortilgan mashinalar yo'l ayrilishidan ikki kilometr yuqorida turardi. Qor bilan qoplangan bu mashinalar daladagi qishki g'aramlarga o'xshab ko'rinar-di. Aftidan, ularni hech kim hech qayerga qo'zg'ata olmaydigandek.

Mana, gulxanni ham yoqishdi. Suvni isitishdi. Motorni o't oldiruvchi ruchka bilan aylantira boshladilar, motorga jon kirdi, aksirib ishlab ketdi. Shundan keyin ish tezlashib ketdi. Navbatdagi har bir mashina shatakka olib yurg'izildi. O't olib qizdirilgan mashina kolonna ortidan borib tizila boshladi.

Hamma yuk mashinalari yurgizilgach, qo'shaloq shatakka olingancha ke-chasi xandaqqa tushib ketgan mashinani tortib chiqarishdi. Bor odamlarning hammasi uni yo'lga chiqarib olish uchun ko'maklashdi. Bola ham yordamlashdi. U kimningdir: «Sen nega oyoq ostida ivirsib yuribsan, qani, qochib qol-chi bu yerdan», deyishini kutib, xavfsirab turdi. Lekin hech kim bunday demadi, uni hech kim quvlamadi. Balki Qulibek unga yordam berishga ruxsat etgani uchun shunday bo'lgandir. U bu yerda hammadan kuchlisi, uni hamma hurmat qiladi.

Shofyorlar yana bir bor xayrlashishdi. Mashinalar qo'zg'aldi. Dastlab asta-sekinlik bilan, keyin tezlashib ketdi. Qorga burkangan tog'lar orasidagi yo'ldan ular karvon bo'lib, tizilishib borardi. Shoxdor ona bug'i farzandlarining farzandlari ketishdi. Ular oldilarida, yo'lda ko'rinmasdan Shoxdor ona bug'i chopib borayotganini bilishmasdi. Bolaning tasavvurida xuddi shunday edi. U shiddat bilan uzun-uzun sakrab, kolonnani olg'a boshlab borardi. Ularni og'ir yo'lda falokat va baxtsizliklardan qo'riqlardi. Har qanday qulashlardan, har qanday ko'chmalardan, bo'ronu tumanlardan va qirg'iz xalqi o'zining ko'chmanchilik

hayotida uzoq asrlar mobaynida boshidan kechirib kelgan har qanday boshqa falokatlardan qo'riqlardi. Mo'min bobo erta tongda qora to'qlini olib kelib unga qurbon qilganida Shoxdor ona bug'idan shularni so'ramaganmidi, axir?

Ketishdi. Bola ham xayolan ular bilan birga ketdi. U kabinada Qulibek bilan yonma-yon o'tirib borardi. «Qulibek aka, — dedi bola, — oldinda Shoxdor ona bug'i yugurib boryapti». — «Yo'g'-e?» «Rostim. Ana u!»

— Nimani o'ylab qolding, nega serrayib turibsan? — Mo'min bobo uni o'ziga kelishga majbur etdi. — Mingash, uyga ketish kerak. — U otdan engashib, bolaga cho'zildi va uni egarga ko'tarib oldi. — Sovqotdingmi? — dedi chol va po'stini bilan nabirasini yaxshiroq o'rab qo'ydi.

Bola o'sha kezlarda maktabga qatnamasdi.

Endi esa, og'ir uyqudan asta-sekin uyg'onib, tashvish tortib o'ylardi: «Ertaga maktabga qanday boraman? Axir mening tobim qochdi-ku, mazam yo'q...» Keyin u unutdi. Go'yo unga muallima doskaga yozgan: «Ot. Ota. Taqa» so'zlarini o'z daftariga ko'chirib yozganday tuyuldi. «Ot. Ota. Taqa. Ot. Ota. Taqa». Birinchi sinf o'quvchisi shu so'zlarni yozib butun bir daftarni to'ldirdi. U nihoyat charchadi, ko'zlari jimirlashib, juda ham isib ketdi. Ustini ochib tashladi va usti ochiq holda yotib sovqotdi, yana ko'z o'ngida turli narsalar namoyon bo'ldi. Goh u baliq bo'lib muzdek suvda suzardi. Oq kema sari borardi. Lekin unga hech yetolmasdi. Goho qor bo'roniga duch kelardi. Tog' yo'lining tikka tepaligiga kelib pichan ortgan avtomashinalar izg'irinli qor quyunida taqqa to'xtab qolardi. Mashinalar xuddi odam ingragani singari ingrashardi. Lekin ular joyidan qo'zg'alishmasdi. Parraklar haddan tashqari tezlik bilan aylanaverganidan laxcha cho'g'dek bo'lib ketgan edi. Shoxdor ona bug'i shoxlarini kuzovga tirab pichan ortilgan mashinalarni yuqoriga g'ildiratib chiqarardi. Bola butun kuch-quvvati bilan unga yordamlashardi. Issiq terga botib ketdi. Bir payt beda g'arami bolalar beshigiga aylanib qoldi. Shoxdor ona bug'i bolaga: «Tezroq yuguraylik, beshikni Bekey xola bilan O'razqul amakiga eltib beraylik», — derdi. Ular yugura boshladilar. Bola orqada qolib ketdi. Biroq oldinda — qorong'ilikda beshik qo'ng'iroqchasi tinimsiz jaranglardi. Bola uning ohanrabo jarangi sari chopib borardi.

U ayvonda oyoq sharpasi eshitilib, eshik ochilganda uyg'ondi. Mo'min bobo va kampir bir oz tinchlangandek bo'lib qaytib kirishdi. Chet kishilarning qorovulxonaga kelishi, aftidan, O'razqul bilan Bekey xolani tinchlanishga majbur etdi. Balki O'razqul mast-alastlikdan charchab oxiri uxlab qolgandir. Hovlida shovqin-suron, so'kish ovozlari eshitilmasdi.



Yarim tunga borib tog' tepasida oy ko'rindi. U eng baland muzli cho'qqilar tepasida xiragina gardish yasab muallaq turardi. Abadiy muzliklar bilan qoplangan tog' tun qorong'isida notekis qirralari bilan g'amgin yuksalib turardi. Atrofida esa pastki tog' tizmalari, qoyalar, qop-qora va jim-jit o'rmonzor osoyishtalik saqlab turardi. Eng quyida esa toshdan-toshga urilib, shovillagancha daryo oqardi.

Derazadan oynning nursiz shu'lasini qiyat tushib turardi. U bolaga xalal berayotgandi. Bola ag'darilib, ko'zini qisib oldi. Buvisidan pardani tushirib qo'yishni so'ramoqchi bo'ldi. Lekin aytgisi kelmadi: buvisining bobosidan jahli chiqib turgan edi.

— **Ahmoq,** — pichirladi u to'shakka kirarkan. — Odamlar bilan yashashni bilmaganingdan so'ng jim tursang bo'lmaydimi. Boshqalarni tinglasang bo'lardi. Sen uning qo'lidasan-ku. Mayda pul bo'lsa hamki, maosh o'shandan oqib kelib turibdi-ku! Yana har bir oyda. Moyanasiz — sen kimsan? Qarib quyilmagan chol...

Chol javob bermadi. Buvi jim bo'lib qoldi. Keyin kutilmaganda baland ovozda dedi:

— Agar kishini oylikdan mahrum qilishsa, u odam emas, hech kim emas.

Chol yana hech nima demadi.

Bola esa uxlay olmasdi. Boshi og'rir, o'ylari chalkashib ketgandi. Maktab haqida o'ylab tashvishlanardi. U hali biron kun ham o'qishni qoldirmagan edi, endi ertaga maktabiga — Jilisoyn borolmasa qanday bo'lishini tasavvur qila olmasdi. Bola, bordi-yu, O'razqul ishdan bobosini haydab yuborsa, u holda buvisi tinchlik bermasligi haqida o'ylardi. Unda ularning ahvoli nima kechadi?

Odamlar nega shunday yashashadi? Nega birovlar qahr-g'azabli, birovlar mo'min-muloyim! Nega baxtli va baxtsizlar bor? Nega shundaylar borki, ulardan hamma cho'chiydi, yana shundaylar borki, ulardan hech kim hayiqmaydi. Nega birovlarning bola-chaqasi bor, birovlarda yo'q? Nega ayrim kishilar boshqalarga maosh bermaslikka haddi sig'adi? Ehtimol, eng katta moyana oluvchilar eng yaxshi kishilardir. Mana, bobosi oz oladi, shuning uchun uni hamma ranjitadi. E, boboga ham ko'proq moyana berishlari uchun nima qilish kerak ekan-a? Balki o'shanda O'razqul cholni hurmat qila boshlarmidi.

Bu o'y-xayollardan bolaning boshi battar sirqirab og'ridi. U yana kechga yaqin daryo sohilida ko'rgan bug'ilarni esladi. Tunda ularning holi ne kechdiyin? Ular nuqul sovuqda, tog'-toshlarda, qop-qorong'i o'rmonlarda yashaydi. Bu nihoyatda qo'rqinchli-ku. Bo'rilar hujum qilib qolsa nima bo'ladi? Bekey xolaga sehrli beshikni shoxida kim olib keladi keyin?

U tashvish aralash uyquga ketdi va uxlayotib Shoxdor ona bug‘idan O‘razqul va Bekey xolaga qayindan yasalgan beshik olib kelishni yolvorib so‘radi: «Ular ham farzand ko‘rishsin, ular ham farzand ko‘rishsin», deb iltijo qildi. U uzoqdan beshik qo‘ng‘iroqchasining ovozi eshitdi. Shoxdor ona bug‘i shoxida sehrli beshikni ko‘tarib olganicha shoshib kelardi...

## VII

**S**aharda bola qo‘l sharpasidan uyg‘ondi. Bobosining qo‘llari sovuq, daladan kelgandi. Bola beixtiyor junjikdi.

— Yot, yotaver. — Bobo kufiab qo‘llarini isitdi, uning peshanasini siladi, keyin kaftini uning ko‘kragiga, qorniga qo‘ydi. — Tobing qochgan shekilli, — achindi bobo. — Issig‘ing bor. Men shunchaki yotibsan deb o‘ylabman. Maktab vaqti ham bo‘ldi.

— Men hozir, hozir turaman, — bola boshini ko‘tardi, shu payt hamma narsa ko‘z o‘ngida gir aylanib ketdi va quloqlari g‘uvilladi.

— Turishni xayolingga ham keltirma. — Bobo bolani yotqizdi. — Sen kasalni maktabga kim olib boradi? Qani, tilingni ko‘rsat-chi.

Bola o‘zinikini ma‘qullashga urinib ko‘rdi:

— Muallima urishadi. Darsni qoldirganni juda yomon ko‘radi u...

— Urishmaydi. Men o‘zim aytaman. Qani bo‘l, tilingni ko‘rsat.

Bobo diqqat bilan bolaning tili va tomog‘ini ko‘rdi. Tomir urishini uzoq kuzatdi: bobosining qora mehnatda qotib ketgan qattiq qo‘llari bolaning issiq terga botgan qo‘llaridan tomir urishini arang tutib oldi. Chol nimagadir ishonch hosil qildi-da, tinchlantirgan ohangda dedi:

— Xudo mehribon. Ozgina shamollabsan, xolos. Sovuq o‘tgan. Bugun to‘shakda yotib tur, uyqungdan oldin men sening tovoning bilan ko‘kragingga issiq dumba yog‘i surtib qo‘yaman. Terlaysan, xudo xohlasa ertalabgacha otdek bo‘lib ketasan.

Kechagi voqealarni va yana o‘zini nimalar kutayotganini eslab, cholni g‘am bosdi, nabirasining to‘shagida o‘tirib xo‘rsindi va o‘ylab qoldi.

— Xudo podsho, — shivirladi xo‘rsinib turib. — Qachon tegdi senga bu kasal? Nega aytmay yurding? Kechqurun chog‘i?

— Kechga yaqin. Daryoning sohilida bug‘i ko‘rganimda. Men siz tomonga chopdim. Shundan keyin sovqotib ketdim.

Chol nima uchundir aybdor ohangda dedi:

— Ha, mayli... Sen yot, men esa boray.

U o'rnidan turdi, lekin bola uni to'xtatib:

— Bobo, o'sha Shoxdor ona bug'ining o'zi-a? Xuddi sutday oppoq, ko'zlari mana bunday, xuddi odamga o'xshab qaraydi...

— Tentakkina, — jilmaydi Mo'min chol. — Ha, sen aytgandek bo'la qolsin. Balki, u o'sha karomatli ona bug'idir, — dedi u past ovoz bilan, — kim bilsin? Men o'ylaymanki...

Chol gapini tugata olmadi. Eshik oldida kampir paydo bo'ldi. U hovlidan shoshilib kirdi, nimanidir payqagan edi.

— Huv anuv yoqqa bor, chol, — ostonadan turib chadirdi kampir. Mo'min bobo shu zahoti birdan qalbi cho'kib, biron yeri lat yegandek, achinarli bir holga tushib qoldi.

— U yoqda odamlar yog'ochni daryodan mashina bilan chiqarmoqchi bo'lishyapti, — dedi kampir. — Sen albatta bor, nima buyurishsa qil... Voh, esim qursin, sut hali pishirilgani yo'q-ku, — kampir xatosini payqadi-da, plitaga o't yoqib, idish-tovoqni taraqlatishga tutindi.

Cholning qovog'i osildi. Unga qandaydir e'tiroz bildirgisi, nimanidir aytgisi kelardi. Lekin kampir og'iz ochirgani qo'ymadi.

— Nimaga endi turib qolding? — g'azabga mindi kampir. — Nimaga o'jarlik qilyapsan? Sen bilan menga kim qo'yibdi o'jarlikni, boshimga bitgan balo bo'lding-ku. Ularga qarshi turishga qanday holimiz bor? Ana O'razqulning oldiga qanaqa odamlar kelishdi. Mashinalariyam antiqa. Ortsanglar bo'ldi, o'nta yog'ochni tog'ma-tog' olib keta oladi. O'razqul esa bizga qiyo boqmay qo'ydi. Men uni ko'ndirish uchun qanchalik harakat qilmadim, qanchalik o'zimni yerga urmadim. Qizingni ostonaga yo'latmadi. Pushtsiz qizing Seydahmadnikida o'tiribdi. Ko'zlari shishib ketgan. U ham seni — miyasi achigan chol deb qarg'ayapti...

— Yetar endi, — chol eshikka yo'l olarkan, dedi: — Qaynoq sut ber, bolagina kasal bo'lib qolibdi.

— Beraman, qaynoq sut beraman, bor, bora qol, xudo xayringni bersin. — U cholni kuzatgandan keyin ham hamon javrardi: — Nimaga bunday qiliq chiqarib qoldi? Hech qachon hech kimga gap qaytarmasdi, mo'min-qobil, xoksor edi, mana endi bo'lsa... Tag'in O'razqulning otiga minibdi-ya, yana chopganiga kuyaymi. Buning hammasi sening kasringga, — u bola tomonga o'qrayib qaradi. — Kim uchun baloga giriftor bo'lyapti o'zi...

Keyin bolaga u jizg'irilgan yog' bilan qaynoq sut olib keldi. Sut bolaning labini kuydirdi. Kampir esa uni zo'rlar, majbur qilardi:

— Ich, issiqroq ich, qo'rqma. Shamollashni faqat issiq bilan haydaysan.

Bola kuyib borar, ko'zlariga yosh qalqib chiqqandi. Kampir ham birdan shafqatliroq bo'lib qoldi:

— Xo'p, sovut, ozroq sovutgin... Menga endi shu yetmay turgan edi, kasalini shunday paytga to'g'ri kelganini qara! — xo'rsindi u.

Bolaning qachondan beri siygisi qistardi. U o'rnidan turib butun badanida allaqanday g'ayri tabiiy, shirin horg'inlik sezdi. Biroq kampir buni payqagan edi:

— Nima, yozilmoqchimisan?

— Ha, — tan oldi bola.

— To'xtab tur, hozir. Kampir uyga tog'ora olib keldi.

Bola o'ng'aysizlanib teskari o'girilib jomga choptirdi, siydigining bunday sariq va qaynoqligiga ajablanardi.

Endi u o'zini ancha yaxshi his qildi. Boshining og'rig'i ham kamaydi. Bola to'shakda tinchgina yotar, buvisining xizmatidan minnatdor bo'lib turib, xayoldan o'tkazdi: ertaga ertalab sog'ayib, albatta maktabga borishi kerak. U yana maktabida yaqinda o'zlarining o'rmonida paydo bo'lgan uch bug'i haqida qanday qilib hikoya qilib berishigacha o'ylab qo'ydi, ya'ni bug'ilarning oq urg'ochisi — bu o'sha Shoxdor ona bug'i, uning kattagina va baquvvat bolasi ham bor, ular bilan ulkan shoxli bahaybat qo'ng'ir bug'i ham birga, u juda kuchli bo'lib, Shoxdor ona bug'i va uning bolalarini bo'rilardan qo'riqlaydi. U yana shular bilan birga, agar bug'ilar shu yerda qolib, hech qayoqqa ketib qolmasa, unda Shoxdor ona bug'i tezda O'razqul amaki bilan Bekey xolaga sehrli beshik keltirib berishini ham hikoya qilishni ko'ngliga tugib qo'ygan edi.

\* \* \*

Bug'ilar esa ertalab suv ichgani tushdi, Qisqa kuz quyoshi tog' tizmalarining yarmiga ko'tarilganda ular yuqoridagi o'rmondan chiqib keldi. Quyosh ko'tarilgan sari pastda tog'lar orasi shuncha yorug' va iliq bo'lib borardi. Tungi g'avg'odan so'ng o'rmon jonlangan, nur va bo'yoqlar jilva qilar edi.

Bug'ilar daraxtlar orasidan o'tib, oftobro'y yalangliklarda isinib, shabnamli barglarni butog'i bilan chimdib shoshmay kelardi. Ular o'sha tartibda: — oldinda erkak bug'i, o'rtada bug'icha va oxirida — ikki biqini do'ppaygan Shoxdor ona bug'i.

Bug'ilar kecha O'razqul Mo'min bobo bilan la'nati qarag'ay yog'ochni daryoga olib tushgan o'sha so'qmoqdan kelishardi. Sudrash natijasida chimzor yuzasida qoldirilgan bir tekisdagi taram-taram izlar tog'li qora tuproqda hali ham boyagi-boyagidek turardi. Bu so'qmoq kechuvga, yog'och tashlab ketilgan joyga olib borardi.

Bug'ilar bu yer suv ichishga o'ng'ay bo'lgani uchun shu joyga yo'l soldi. O'razqul, Seydahmad va yog'ochga kelgan ikki kishi tros bilan daryodan yog'ochni sudrab chiqish uchun mashinani qulayroq joyga haydab kelishni ko'zdan kechirish uchun shu tomonga kelishardi. Mo'min bobo boshini quyi solib, imirsilab orqaroqda kelardi. U kechagi janjaldan so'ng nima bo'lishini, o'zini qanday tutishini, nima qilishini bilmasdi. O'razqul uni ishga qo'yadimi? Kechagidek haydab solmasmikin? Agar: «Senga nima bor bu yerda? Aytdim-ku, sen ishdan bo'shatilgansan!» desa-chi. Odamlar oldida so'kib, uyg'a jo'natib yuborsa-chi? Shubhalar cholni iztirobga solar, u azobda, arang jon hovuchlab borardi. Orqadan kampir kuzatib kelardi. U go'yo shunchaki qiziqsinayotgandek edi. Biroq aslida u cholga soqchilik qilib borardi. Mo'min chaqqonni O'razqul bilan yarashtirishga, O'razqulning kechirishiga muassar bo'lishi kerak edi.

O'razqul xo'jayinchasiga gerdayib odimlardi. Hansirab, pishillab atrofga o'q-rayib nazar tashlardi. Ko'p ichganidan boshi zirqirab og'rib tursa ham, u o'zida qasoskorona qoniqish sezardi. U qayrilib qaraganida Mo'min boboning g'izillab kelayotganini ko'rdi, xuddi egasidan kaltak yegan sadoqatli itning o'zginasi. «Hechqisi yo'q, hali mening sovunimga kir yuvmabsan. Endi senga qiyo ham boqmayman. Sen men uchun yo'qsan. Sen hali o'zing oyog'imga bosh urib kelasan, — ichi qoralik bilan quvondi O'razqul o'tgan kecha xotinini tepib ostonadan haydab chiqarganida xotini oyog'i ostida qanday dahshatli ovoz bilan chinqirganini eslarkan. — Mayli. Mana bularni yog'och bilan jo'natay, men hali ularning kunini ko'rsataman, mayli, menga desa bir-biri bilan g'ajjishib o'lishsin. Endi qizi atasining ko'zini o'yadi. Vahshiydashib ketgan, naq bo'ri-ya». — O'razqul kelgan kishi bilan oraliq masofada gaplasha bora turib, yo'l-yo'lakay shularni xayoldan o'tkazdi.

Bu odamni Ko'katoy deb atashardi. U qop-qora, baquvvat kishi bo'lib, ko'l bo'yidan edi, kolxozda hisobchilik qilardi. O'razqulning eski qardoni edi. Bundan o'n ikki yil avval Ko'katoy o'ziga uy qurgandi. O'razqul yog'ochdan yordam qildi. Taxta tildirishi uchun yo'g'on yog'ochlarni arzunga sotdi. Keyin bu odam katta o'g'lini uylantirdi, yoshlarga ham uy qurdi. Yana O'razqul uni yog'och bilan ta'minladi. Endi Ko'katoy kichik o'g'lini ayirgandi va yana qurilish uchun yog'ochga muhtoj bo'lib qoldi. Yana eski oshna — O'razqul kuniga yaradi.

Hayot qanchalik og'ir-a. Birini qilasan — shu bilan, ha, endi tinch yashayman deb o'ylaysan. Hayot esa yana nimanidir o'ylab chiqaradi. Shuning uchun ham O'razqulga o'xshagan odamlarsiz qo'ling hech qayoqqa yetmaydi.

— Xudo xohlasa, tezda uy to'yiga taklif qilamiz. Borgin, xursandchilik qilamiz, — dedi Ko'katoy O'razqulga.

U o'z-o'zidan mag'rurlanib, pishillagancha, papirosni burqsitardi.

— Rahmat. Aytilgan joydan qolmaymiz, aytmagan joyga bormaymiz. Chiqirsang, boraman-da. Senikida birinchi mehmon bo'lishim emas. Men hozir, sen kech bo'lishini kutsang qalay bo'larkin, deb o'ylayapman, qorong'ida jo'nasang deyman-da! Eng muhimi, sovxoz ichidan bilintirmay o'tib ketish. Agar sezib qolishsa ish chatoq...

— Bu-ku to'g'ri-ya, — ikkilandi Ko'katoy. — Biroq kechgacha ancha kutish kerak-da. Sekin ketaveramiz. Yo'l yoqasida postlar yo'q-ku, bizni tekshirib ko'rsa?.. Favqulodda militsiyaga duch kelib qolinsa yoki yana boshqa birortasiga...

— Ha-ha, bunisi ham bor, — to'ng'illadi O'razqul, jig'ildon qaynashidan va bosh og'rig'idan aftini bujmaytirib. — Yuz yil ish bilan qatnaysan, yo'lda bitta ham itga duch kelmayсан, agar yuz yilda bir marta yog'och ortib o'tsang bas, qo'lga tushasan. Hamisha shunday bo'ladi...

Har kim o'zicha o'ylab, jim qoldi. Kecha yog'ochni daryoga tashlab ketishga to'g'ri kelgani O'razqulga qattiq alam qildi. Agar yog'och tayyor bo'lganidami, tundayoq ortib bo'lishardi-da, tong saharda mashinani jo'natib yuborardi... Eh, kecha falokatni sotib oldi-ya. Buning hammasi qari jinni Mo'minning kasriga bo'ldi, g'alayon ko'tarmoqqa qaror qildi. Qaramlikdan, bo'ysunishdan qutulmoqchi bo'ldi. Xo'p, ko'ramiz! Hammasi ham mayli-ya, ammo bu niyatingga osonlikcha erisha olmayсан...

Odamlar daryoning qarama-qarshi qirg'og'iga kelishganda bug'ilar suv ichardi. G'alati zot bu odamlar — hovliqma, g'ala-g'uvurli. O'z ishlari va suhbatlari bilan band bo'lib, qarshilarida — daryoning narigi yog'ida turgan jonivorlarni sezishmadi.

Bug'ilar daryo bo'yidagi ertalabki shafaq rangli butalar orasida, top-toza mayda shag'alli qirg'oqda to'piqqacha suvga botib turardi. Ular shoshmasdan, to'xtab-to'xtab qultum-qultum suv ichardi. Suv muzdek edi. Quyosh esa tepadan tobora yoqimli qizitardi. Tashnalikni qondirib, bug'ilar oftobdan huzur qilardi. Yo'lda shox-butoqlardan to'kilgan quyuq shabnam yelkalarida qurirdi. Bug'ilar yelkasidan yengil hovur ko'tarilardi. Osoyishta va saxiy edi shu kun ertasi.

Odamlar esa shunda ham bug'ilarni sezishmadi. Ulardan biri mashinaga qaytdi, boshqalari esa qirg'oqda qolishdi. Bug'ilar quloqlarini qimirlatib, ahyon-ahyon ulargacha yetib kelgan ovozlarni hushyor tinglab turdi va qirg'oqning u yuzida pritseptli avtomashina paydo bo'lganida etlari junjikib, qotib qolishdi. Mashina guvillab hayqirardi. Bug'ilar bezovtalanib ketishga chog'landi. Lekin mashina birdan to'xtab qoldi, guvillash ham bosildi. Jonivorlar sekinladi. Har holda ular sekin-asta joylaridan qo'zg'alaverdi — odamlar narigi qirg'oqda baqirishib gaplashishar va shoshilinch ravishda harakat qilishardi.

Bug'ilar mayda toshloqdagi so'qmoqchadan sekingipa jo'nashdi, ularning yelkalari, shoxlari va harakatlari ham butalar orasidan ko'rinib turardi. Odamlar shunda ham ularni payqashmadi. Faqatgina bug'ilar ochiq yalanglikdagi sel yuvib ketgan quruq qumni kesib o'tayotganida, binafsha rang qum ustida, of-tobning ravshan nurida, odamlar ularni ko'rib turli holatda og'iz ochgancha angrayib qolishdi.

— Qara, qara, nima u! — birinchi bo'lib qichqirdi Seydahmad. — Bug'ilar! Qayoqdan kelib qoldi bu yerga?

— Nega qichqirasan, nega to'polon ko'tarasan! Qanaqasiga senga bug'i bo'ladi, kiyik-ku ular. Biz ularni kecha ham ko'rgan edik, — beparvo gapirdi O'razqul. — Qayoqdan keldi emish. Keldi-da, keladigan bo'lib qoldi.

— Bay, bay, bay! — zavqlanib ketdi Ko'katoy va zavqidan tomog'ini bo'g'ib turgan ko'ylak yoqasining tugmalarini bo'shatdi. — Silliqligini qarang-a, — dedi u maftun bo'lib, — semiribdi...

— Urg'ochisini qarang, qanaqa! Qadam tashlashini ko'ring, — dedi shofyor, ko'zlarini chaqchaytirib. — Voh xudo, ikki yoshli urg'ochi bolasi. Birinchi marta ko'rishim.

— Erkagi-chi! Shoxlarini ko'r! Qanday ko'tarib yurganikin? Ular hech nima-dan qo'rqishmaydi. Qayoqdan kelib qoldi bular, O'razqul? — to'ng'iz ko'zlarini chaqnatib, nafs balosida surishtirishga tushdi Ko'katoy.

— O'rmondan chog'i, — javob qildi O'razqul viqor bilan, egalik obro'sini his qilgan holda. — Dovonning orqasidan kelgan, narigi tomondan. Cho'chimaydi. Chunki hurkitilmagan.

— Eh, miltiq bo'lgandami hozir! — og'ziga kelganini gapirdi Seydahmad. — O'n pud go'sht qilarmidi, a?

Shu damgacha qo'rqib-pisib bir chekkada turgan Mo'minning sabri chidamadi:

— Nima deyapsan, Seydahmad. Ularni ovlash taqiqlangan, — dedi sekingina.

O'razqul qosh-qovog'ini uyib, cholga ko'z qirini tashlab qo'ydi. «Mening oldimda ovozingni chiqaryapsanmi!» — nafrat bilan xayoldan o'tkazdi u. Uni so'kkisi va bir urib o'ldirib qo'ya qolgisi keldi, lekin o'zini tiydi. Har holda begona odamlar bor.

— Befoyda o'rgatishning keragi yo'q, — jahl bilan so'z qotdi u Mo'minga qaramay. — Ular yashaydigan joyda ovlash taqiqlangan. Bizda esa ular yashamaydi. Biz bo'lsak ular uchun javob bermaymiz. Tushunarlimi? — u o'zini yo'qotib qo'ygan cholga vajohat bilan qaradi.

— Tushunarli, — itoatkorona javob qildi Mo'min va bosh eggancha chetga chiqdi. Kampir yana yashirincha uning qo'liga turti.

— Jim bo'lsang-chi, — ta'na bilan shivirladi u. Hamma qandaydir xijolatda qolganday yerga qarab turardi.

Yana so'qmoq orqali jo'nab ketayotgan jonivorlar orqasidan kuzatishga tushishdi. Bug'ilar qoyaga ketma-ket ko'tarilib borardi. Oldinda qo'ng'ir erkak bug'i o'zining qudratli shoxlarini mag'rur tutib borar, uning orqasidan shoxsiz bug'icha va bu namoyishga ergashib Shoxdor ona bug'i borardi. Qirdan siljib tushgan tuproqning tiniq qo'ynida bug'ilar ravshan va latif ko'zga tashlanardi. Ularning har bir harakati, har bir qadami yaqqol ko'rinib turardi.

— Eh, qanday go'zallik! — shodligini ichiga sig'dira olmadi shofyor. Bu soq-qako'z yosh yigit ko'rinishdan juda yosh edi. — Afsus, fotoapparatni olvoganimda zo'r ish bo'lardi-ya.

— Xo'p mayli, go'zalligini qo'ya tur, — uning so'zini bo'ldi norozilik bilan O'razqul. — Hech narsaga arzimaydi. Go'zallikka qorning to'yarmidi. Qani bo'l, mashinani orqasi bilan qirg'oqqa hayda, to'g'ri suvga, yoni bilan albatta. Sen esa, Seydahmad, oyog'ingni yech, — o'z hukmidan ichida lazzatlanardi u. — Sen ham, — shofyorga buyruq qildi u. — Bo'linglar, yog'ochni trosga bog'langlar. Qani ildamroq. Hali ish ko'p.

Seydahmad etikni yechishga tutindi. Etigi unga kichikroq edi.

— Nimaga qarab turibsan, yordamlash unga, — cholni sekingina turtib qo'ydi kampir. — O'zing ham yech etigingni, suvga tush, — g'azabli pichirladi u.

Mo'min bobo Seydahmadning etigini tortdi, o'zinikini ham bir zumda yechib bo'ldi. Shu paytda O'razqul bilan Ko'katoy mashinaga komanda berishardi:

— Bu yoqqa hayda, u yoqqa hayda.

— Chapga ozroq, chapga. Mana shunday.

— Yana ozgina.



Mashinaning ko'nikilmagan hayqirig'ini eshitib, bug'ilar so'qmoqda qadami ni tezladi. Olazarak nazar tashlab, jarlikdan sakrab o'tdi va qarag'aylar orasiga yashirindi.

— O, g'oyib bo'ldi! — xatosini birdan anglab qoldi Ko'katoy. U shunday afsus bilan entikardiki, xuddi qo'lidagi o'ljasidan ayrilganday edi.

— Hechqisi yo'q, hech qayoqqa ketmaydi ular! — uning xayolidagini topib va bundan xursand bo'lib O'razqul kerilib qo'ydi. — Bugun kechgacha jo'naymaysan, mening mehmonim bo'lasan. Xudoning o'zi kam qilmasin. Izzat-hurmat bilan men seni mehmon qilaman. — U xaxolab turib oshnasining yelkasiga urib qo'ydi. O'razqul xushchaqchaq ham bo'la olardi.

— Xo'p, sen aytgancha bo'la qolsin, sen mezbon, men mehmon, — ko'na qoldi azamat Ko'katoy, iljayarkan yo'g'on sariq tishlarini ko'rsatib.

Mashina allaqachon orqa g'ildiraklarining yarmigacha suvga botib qirg'oqda turardi. Chuqurroq kirib borishga shofyorning yuragi dov bermadi. Endi trosni yog'ochga olib borish qolgan edi. Agar tros kaltalik qilmasa, yog'ochni suv ostidagi toshlarning asirligidan tortib olish unchalik qiyinchilik tug'dirmasdi.

Tros po'latdan — uzun va og'ir. Uni suv ichidan yog'ochga tortib borish kerak. Shofyor istamaygina etigini yecha boshladi, cho'chinqirab suvga qarab qo'ydi. U hali qat'iy qarorga kelolganicha yo'q: suvga etik bilan tushishga arziyormikin yoki yaxshisi yechsammikin. «Yalang oyoq bo'lganim ma'qul shekilli, — o'yladi u. — Baribir suv qo'njimdan oshib ketadi. Chuqurligi sal kam songa keladi. Keyin kun bo'yi ho'li etikda yurish osonmi». Lekin u shu bilan birga hozir daryoda suv qanchalik sovuq bo'lishini ham o'zicha tasavvur qildi. Bu holdan Mo'min bobo foydalanib qoldi.

— Sen yechinma, o'g'lim, — otilib keldi uning oldiga. — Biz Seydahmad bilan o'zimiz tushamiz.

— E, qo'yavering, arzimaydi, oqsoqol, — qarshilik qildi uyalib ketgan shofyor.

— Sen mehmonsan, biz shu yerning odamimiz, sen rulga o'tir, — ko'ndirdi Mo'min bobo uni.

Seydahmad bilan ikki kishi po'lat trosni o'ramdan bo'shatib suvning ichiga ko'tarib kirishganda Seydahmad dodlab, boloxonali qilib so'kindi:

— Uh, uh, suv emas, muz!

O'razqul bilan Ko'katoy muruvvatli kulishib, uni g'ayratlantirishdi:

— Chida, chida! Seni isitadigan narsa topamiz! Mo'min bobo esa churq etmasdi. U hatto muzday sovuqni sezmedi. Ko'zga ko'p tashlanmaslik uchun boshini

yelkalari ichiga tortib, sirganchiq suv osti toshlari ustidan yalang oyoq borarkan, xudodan yolg'iz bir nimani so'rardi — ishqilib, O'razqul uni qaytarmasin, ishqilib, quvib yubormasin, ishqilib, odamlar oldida haqorat qilmasin, bu ahmoq baxti qaro cholni kechirsin.

O'razqul hech nima demadi. U Mo'minni odam o'rnida ko'rmaganidan go'yo uning g'ayratiga ham e'tibor qilmaganday edi. Qalbida esa tantanavor hissezar, axir har qanday bo'lmasin isyonkor cholni bo'ysundirdi-ku. Qandaydir ichi qoralik bilan kuldi O'razqul o'zicha, — emaklab, oyog'imga yiqilding-ku. Eh, kattaroq amaldor bo'lganimdami, bundan ham kattaroqlarning shoxini qayirib qo'yardim. Shunaqalarni tiz cho'ktirib, tuproqda emaklattirib qo'yasmidim. Menga hech bo'lmasa kolxoznimi yoki sovxoznimi berishsa ekan. Tartibga solib qo'ygan bo'lardim. Odamlarni izdan chiqarib yuborishdi. Endi esa o'zlari, voh, raisni hurmat qilishmayotir, direktorni hurmat qilishmayotir, deb shikoyat qilishadi. Qandaydir cho'pon ham boshliq bilan xuddi tengdek gaplashadi. Satqai amal ket, ahmoqlar! Ular bilan shunaqa muomala qilib o'tirish kerakmi? Zamonal bo'lganku, axir, boshlar uchib ketgan, hech kim churq etmagan. Aksincha, ko'proq yaxshi ko'rishgan, ko'proq kuylashgan. Mana bu xo'p zamon bo'lgan-da! Endi-chi? Yaramaslarning eng yaramasi hisoblangan mana shu chol ham dabdurustdan gap qaytarishni o'ylab topdi. «Xo'sh, xo'sh, emakla oyog'im ostida, emakla», — badxohlik bilan kuldi O'razqul, har zamon-har zamonda Mo'min chol tomonga qarab qo'yarkan.

U esa, muzday suvda xayolga cho'mib, tomirlari tortishib, Seydahmad bilan birga trosni ko'tarib borarkan, O'razqul meni kechirgan ko'rinadi deb mamnun bo'lardi. «Sen endi men qari cholni kechir, shunday bo'lib chiqqani uchun, — xayolan O'razqulga murojaat qilardi u. — Kecha chiday olmadim. Maktabga nabiram oldiga ot choptirib ketdim. Axir u yolg'iz, mana shuning uchun ham iching achiydi-da. Mana bugun esa, u maktabga ham bormadi. Tobi qochibdi nimagadir. Esingdan chiqar, kechirgin. Axir sen ham menga begona emassan-ku. O'ylaysanki, men senga va qizimga baxtni ravo ko'rmaymanmi? Xudo bersa qani, nabiramning ingalaganini eshitsam — xudo ursin, baxtimdan ko'zimga yosh kelardi. Faqat sen xafa qilma qizimni, kechir meni. Agar ishlash bo'lsa toki tanimda jonim bor ekan, ishlaganim bo'lsin. Hamma ishni qilaman. Sen faqat buyursang, bas...»

Kampir qirg'oqning bir burchida tikka turib, o'zining imo-ishoralari va butun harakatlari bilan cholga: «Harakat qilgin, chol! Ko'rdingmi, u seni kechirdi. Mening aytganimni qilaver, hammasi joyiga tushadi», derdi.

Bola uxlardi. U bir martagina allaqayerdandir otilgan miltiq ovozidan uyg'onib ketdi va yana uyquga cho'mdi. Kechagi mashaqqatli uyqusizlik va bemorlikdan so'ng bugun u birmuncha tinch va miriqib uxlati. U uyquda ekan, isitma aralash badan qaqshog'i azobini tortmay, oyoqlarini erkin uzatib to'shakda yotib dam olishning naqadar rohat ekanligini his etdi. Agar buvisi bilan Bekey xola bo'lmaganda u shu uxlagancha uxlab yotaverardi. Ular ovoz chiqarmay gaplashishga harakat qilishsa-da, idish-tovoqlarning shaqir-shuquridan bola uyg'onib ketdi.

— Mana bu katta kosani ushlagin-da, ovqat olgin, — deb jonlanib gapirdi kampir narigi xonada. — Men esa chelak bilan elakni olib kelay. Voy belim, madorim qurib ketyapti. Ozmuncha ish qildikmi? Xudoga shukur, juda xursandman.

— Eh, buvijon, nimasini aytasiz, men ham shunchalik xursandmanki, kecha shundayam jonimdan to'yib ketgandim. Agar Guljamol bo'lmaganda o'zimni o'zim o'ldirardim, — dedi Bekey.

— U haqda uni-buni deb yurasan yana, — tinchitib qo'ydi kampir. — Qalam-pirni oldingmi? Ketdik. Sening tinchishing uchun xudoning o'zi yordam qo'lini cho'zdi. Ketdik, ketdik.

Uydan chiqayotib bo'sag'ada Bekey xola kampiridan bola to'g'risida so'radi:

— U hamon uxlayaptimi?

— Mayli, uxlab tura qolsin, — javob berdi kampir.

— Sho'rva tayyor bo'lganda issiqqina keltirib beramiz.

Bola ortiq uxlay olmadi. Hovlidan oyoq tovushlari va odamlarning gaplashgani eshilib turardi. Bekey xola kulib yubordi, Guljamol va kampir ham unga qo'shilib kuldi. Qandaydir notanish ovozlari quloqqa chalindi. «Ha, bular, hoynahoy kecha oqshom kelgan odamlar, — deb o'yladi bola. — Demak, ular hali ketishmabdi-da». Faqat bobosi Mo'mingina ko'rinmasdi, ovozi ham eshiltimasdi. U qayoqda ekan? Nima qilyapti ekan?

Bola tashqaridagi ovozlarga quloq solib, bobosini kutib yotdi. U bobosi bilan kechagi ko'rgan bug'i haqida juda gaplashgisi kelardi. Hademay qish kiradi. Ular uchun ham o'rmonda ko'proq yem-xashak hozirlash kerak. Yeb yayrasin. Ularni shunday o'rgatish kerakki, odamlardan hech qo'rqmaydigan, to'ppa-to'g'ri daryodan o'tib hovliga kelaveradigan bo'lsin. Bu yerda ham ularga shunday xo'rak berish kerakki, ular uchun bu juda tansiq bo'lsin. Qiziq, ular hammadan ko'ra niman yaxshi ko'rishar ekan-a? Urg'ochi bug'i bolasini o'rgatib olsang-da, u doim

orqangdan qolmay ergashib yursa. Qanday ajoyib bo'lardi. Sen bilan maktabga ham birga borib kelgan bo'larmidi?..

Bola bobosini kutardi, lekin undan darak yo'q. Bir vaqt Seydahmad kelib qoldi. U nimadandir juda mamnun. Og'zi qulog'ida edi. Seydahmad kallasini chayqab o'z-o'zicha iljayardi. U yaqinroq kelganda dimog'idan spirt hidi anqib ketdi. Bola O'razqulning o'zboshimchaliklarini, bobosi va Bekey xolaning azob chekishlarini eslatuvchi bu badbo'y hidni juda yomon ko'rardi. Lekin Seydahmad ichganda aqliy jihatdan uncha hushyor bo'lmasa ham juda saxiy, muloyim va kishi qalbiga ozor bermaydigan hazil-mutoyibalari bilan O'razquldan farq qilardi. Bunday vaqtlarda u bilan bobosi Mo'min o'rtasida taxminan shunday suhbat ketardi.

— Nega buncha tentaklarga o'xshab kulasan, Seydahmad? Kayfing taraqmi deyman?

— Oqsoqol, men sizni shunday sevamanki. Rostini aytsam, xuddi o'z otamdek.

— E-e, seni qara-yu, sening yoshingda... Boshqalar mashina haydab yuribdi. Sen bo'lsang gapingni uddalab gapira olmaysan. Agar men sening yoshingda bo'lganimdami, hech bo'lmaganda traktor haydagan bo'lardim.

— Oqsoqol, menga armiyada komandirimiz bu ishga layoqatsizligimni aytgan edi. Biroq piyodalar safida xizmat qildim. Piyoda askarsiz ish bitmaydiku, axir...

— Piyoda askar emish! Piyoda askar emas, ishyoqmassan. Xotining bo'lsa... Xudo ham tengiga qo'shmas ekan. Senga o'xshaganning yuztasi bitta Guljamolga arzimaydi.

— Shuning uchun ham biz er va xotin bu yerda yuribmiz-da, oqsoqol.

— Ha, seni gappa qo'ysa... Ho'kizday kuching bor, aql esa... — Umdsiz qo'l siltab qo'ydi Mo'min bobo.

— Mu-u-u, — deb ma'raganday kulib qo'ydi Seydahmad.

Shundan keyin u hovlining o'rtasida turib olib o'zining allaqanday eshitib olgan g'alati ashulasini kuylay boshladi:

Sariq-sariq tog'lardan,  
Sariq otda men keldim.  
Och eshiging, ey sariq savdogar,  
Biz ichamiz sariq vinodan.

Qo'ng'ir-qo'ng'ir tog'lardan,  
Qo'ng'ir otda men keldim.  
Och eshiging, ey, qo'ng'ir savdogar,  
Biz ichamiz, o'tkir vinodan...

Shu tarzda davom etib ketaverardi, chunki u ba'zan tog'dan tuyada kelgan bo'lsa, ba'zan xo'rozda, sichqonda, toshbaqada, xullas, nimaiki jonivor bo'lsa o'shalarda kelaverardi. Mast Seydahmad bolaga hushyorligiga qaraganda yoqimlir ko'rinayotgandek edi. Shuning uchun ham Seydahmad shirakayf bo'lib kelganda bola ochiq ko'ngillik bilan iljayib qo'yardi.

— E-ha! — xitob qildi Seydahmad ajablanib. — Seni kasal deyishgan edi-ku. Ha, sen umuman kasal bo'lmaysan. Sen hovlida nega o'ynamay qolding? Bunaqasi ketmaydi. — Seydahmad bolaning to'shagiga ag'anab yotdi. Uning qo'llaridan va ust-boshidan spirt va yangi so'yilgan xom go'shtning hidi anqib turardi. U bolani quchoqlab o'pa boshladi. Uning o'sib ketgan dag'al soqoli bolaning yuzlarini timdalab achitardi.

— Bo'ldi endi, Seydahmad amaki. — Iltimos qildi bola. — Bobom qani, ko'rmadingizmi?

— Bobong, anovi yoqda, — Seydahmad qo'lini havoda noaniq aylantirdi. — Biz mana shu... Yog'ochni suvdan olib chiqdik. Va bir oz isib olish uchun ichdik. Hozir esa u go'sht pishirayotir. Tur o'rningdan. Kiyimlaringni kiy, birga ketamiz. Bu nimasi! Yaxshi emas. Biz hammamiz u yerda bo'lsag-u, sen bu yerda yolg'iz yotsang.

— Bobom turmagin degan, — dedi bola.

— Qo'ysang-chi bo'lmagan gapni. Yur, tomosha qilamiz. Bu har doim bo'la-vermaydi-ku. Bugun katta ziyofat. Qozon ham moy, cho'mich ham moy! Tura qol. — Seydahmad mastlarga xos qo'pollik bilan bolani kiyinishga majbur etdi.

— Men o'zim, — deb e'tiroz bildirdi boshi aylanayotganini his etayotgan bola. Biroq shirakayf Seydahmad uning so'ziga quloq solmadi. Modomiki bola yolg'iz uyga tashlab qo'yilgan ekan, Seydahmad o'zining unga qilayotgan yaxshiligidan juda mamnun edi, ayniqsa bugun shunday kunki, tovoq ham moy, qoshiq ham...

Gandiraklab bola ham Seydahmad bilan birga uydan chiqdi. Tashqari shamol, havo bulut. Bulutlar osmonda tez-tez bir-biriga qo'shilishib ketdi. Bola ayvondan chiqquncha havo ikki bor keskin o'zgardi. Charaqlab turgan quyoshli havoni ko'ngilni g'ash qiluvchi qorong'ilik bosdi. Bola bundan boshi og'riyotganini

sezdi. Shamol yuziga gulxanning tutunini olib kelib urardi. Ko'zlari achishdi. «Bugun kir yuvishayotgan bo'lsa kerak», — o'yladi bola, chunki kir yuvish kunlarida odatda shunday gulxan yoqilib, uchala uydagi katta qora qozonlarda suv isitilardi. Bunday qozonlarni bir kishi ko'tara olmaydi. Bekey xola bilan Guljamol ikkovlashib ko'tarishardi bu qozonlarni.

Bola bunday kir yuviladigan kunni yaxshi ko'rardi. Birinchidan, bunday kunlarda gulxan uyidaga singari o'choqlarda emas, balki ochiq o'choqlarda yoqilib, uning atrofida o'ynash mumkin edi. Ikkinchidan, yuvilgan kiyimlarni ilish juda gashli bo'lardi. Oq, ko'k, qizil matolarning arqonda osilib turishi hovliga zeb berib turardi. Bola arqonda osilib yotgan kiyimlarga bildirmasdan sekingina kelib yuzlarini tekkizib o'tishni yaxshi ko'rardi.

Bu gal hovlida hech qanday yuvilgan buyumlar ko'rinmadi. Ammo katta go'sht bo'laklari bilan liq to'ldirilgan qozon ostiga kuchli o't yoqilgan bo'lib, qaynayotgan qozondan quyuq bug' ko'tarilardi. Go'sht pishib qolgan edi: go'shtning dami va gulxanning isi birga qo'shilishib, ishtahani qitiqlardi. Bekey xola bo'lsa, yangi qizil ko'ylak, yangi xrom etikda gulli shol ro'molni yelkasiga tashlab olgancha qozonga engashib, cho'mich bilan ko'piklarni olib tashlayotgan edi, Mo'min bobo esa uning yonida cho'kka tushgan holda o'choqdagi yonayotgan tarashalarni ag'darib qo'yardi.

— Ana, bobong, — dedi Seydahmad bolaga. — Ketdik. O'zi bo'lsa:

— Sariq-sariq tog'lardan,  
Sariq otda men keldim, —

deb endigina xirgoyi qila boshlagan edi, sochi ustarada taqir olingan, yenglari shimarilgan va qo'lida bolta ushlaganacha saroydan chiqib kelayotgan O'razqulga ko'zi tushdi.

— Sen qayoqda tentirab yuribsan? — dahshatli qichqirdi u Seydahmadga qarab. — Mehmon bu yerda o'tin yorsin, — u bosh irg'ab o'tin yorayotgan shofyorini ko'rsatdi, — sen bo'lsang qo'shiq aytib yur.

— E, hozir ana-mana deguncha, boplaymiz, — tinchlantirdi uni Seydahmad, shofyorga qarab yo'nalar ekan. — Qani, uka, men o'zim.

Bola esa o'choq boshida cho'kka tushib o'tirgan bobosi tomon yaqinlashdi. U orqa tomondan kelgan edi.

— Bobo, — dedi u.

Bobosi uni eshitmadi.

— Bobo, — deb takrorladi bola va bobosining yelkasiga qo'lini tegizdi. Chol o'g'irilib qaradi, bola bobosi mast ekanligini sezmad. U bobosining loaqal biron marta shirakayf bo'lganini ko'rmagan edi. To'g'ri, issiqko'llik biror cholning ma'rakasida hammaga — hatto ayollarga ham ichirishardi. Biroq bobosida bunday odat hali sodir bo'lmagan edi.

Chol bolaga qandaydir hegonaday, g'ayri tabiiy va yovvoyi qarash qildi. Uning yuzlari qizarib ketgandi, u nabirasini ko'rib yana ham qizarib ketdi. Qizillik nim pushti rangga kirdi va shu zahotiyiq boboning yuzlari oqara boshladi. Chol shoshilib o'rnidan turdi.

— Ie, senmi? — dedi u bo'g'tiq ovoz bilan nabirasini bag'riga bosib. — Ie, senmi? — bundan boshqa biron so'z ayta olmadi. Undagi to'lqinlanish bolaga o'tgan edi.

— Tobingiz qochdimi, bobo? — Tashvishlanib so'radi bola.

— Yo'q-yo'q. O'zim shunday, — ming'illadi Mo'min. — Sen bor, o'ynab kel. Men bu yerda o't yoqayapman, bu hammadan...

U nabirasini deyarli itarib yuborib go'yo butun olamdan yuz o'g'irganday, yana o'choqqa qarab o'g'irilib oldi. U tiz cho'kkancha, go'yo faqat o't bilan banddai biron yoqqa burilib qaramasdi. Chol nabirasining tarvuzi qo'ltig'idan tushgancha, hovlida o'tin yorayotgan Seydahmad tomon yo'l olganini ham ko'rmadi.

Bola bobosiga nima bo'lganini, umuman, hovlida nima bo'layotganini tushunmasdi. U saroyga yaqinlashgandagina yungi yerga qaratib yoyilgan teri ustida yangi so'yilgan molning uyib qo'yilgan go'shtiga ko'zi tushdi. Terining chekkalaridan hamon xira qon tomchilari sizib tushayotgan edi. Sal nariroqda it ichak-chovoqlarni. irillagancha silkilab tortardi. Uyulgan go'sht yonida allaqanday qoradan kelgan, harvasta notanish kishi to'nkaga o'xshab do'ppayib o'tirardi. U Ko'katoy edi. U bilan O'razqul ikkalasi pichoqni olvolib go'sht maydalashardi. Ular qismlarga ajratilgan yog' va go'shtlarni yozib qo'yilgan terining turli joylariga xotirjamlik bilan, shoshmasdan irg'itib tashlamoqda edilar.

— Maza! Hidini aytmaysanmi! — dedi yo'g'on ovoz bilan haligi barvasta kishi, go'sht hidlab ko'rarkan.

— Ol, ol, o'z ulushingga tashla, — saxiy-larcha taklif etdi O'razqul. — Buni sening kelishing sharafiga xudo yetkazdi. Bu har doim bo'lavermaydi. — O'razqul bu orada pishillab, ishdan boshini ko'tarib taranglashgan qornini silab qo'ydi, uning ko'p yeb, ko'p ichganligi bilinib turardi. Uning nafasi qisilib xirillab qoldi,

erkin nafas olish uchun hoshini birdan yuqori ko'tardi. Uning sergo'sht, sigirning yelinidek yaltiroq yuzidan o'ziga bino qo'rganligi va to'qlik alomati sezilib turardi.

Bola devor tagidagi shoxli bug'i kallasini ko'rib esankirab qoldi, badani muzlab ketdi. Kesilgan kalla qop-qora qon tomchilarini oqizib changda yumalab yotardi. Bu — yo'lda yotgan egri-bugri daraxtni eslatardi. Kalla yonida tizzadan qirqilgan to'rtta tuyoq yotardi. Bola bu dahshatli manzarani ko'rib cho'chib ketdi. U o'z ko'zlariga ishonmasdi. Uning oldida Shoxdor ona bug'ining kallasi yotardi. U bu yerdan qochib ketishni istardi, lekin oyoqlari unga itoat etmasdi. U kalla-pocha qilingan oq bug'ining qarshisida turardi. Kechagina Shoxdor ona bug'i bo'lib yurgan, unga oqko'ngillik bilan suqlanib qaragan, xayolan gapirishgan va shoxida qo'ng'iroqcha taqilgan sehrli beshik keltirishni iltijo qilib so'ragani o'sha bug'i edi. Nabotki bularning hammasi nogoh shaklsiz bir uyum go'shtga, shilingan teriga, kesilgan oyoqqa va ulotirib tashlangan kallaga aylanib qolsa. Bolaning ketishi kerak edi, lekin u toshdek qotib, bu voqeaning qanday va nega sodir bo'lganini tushuna olmay turardi. Haligi go'sht bo'layotgan qora barvasta kishi uyulib turgan go'shtning ichidan buyrak oldi-da, uni pichoqning uchiga sanchib bolaga uzatdi.

— Ma, bola, kabob qil, lazzatli bo'ladi, — dedi u. Bola qimirlamay turardi.

— O! — Buyruq qildi O'razqul.

Bola beixtiyor qo'lini cho'zdi, so'ng muzdek qo'lida Shoxdor ona bug'ining hali ham issig'i ketmagan yumshoq buyragini g'ijimlagancha ushlab turdi. Shu payt O'razqul oq bug'ining kallasini shoxidan ushlab ko'tarib ko'rdi.

— Eh, og'irligini qarang-a, — u kallani tebratib, og'irligini salmoqlab ko'rdi, — bitta shoxining o'zi qancha keladi-ya. — U kallani g'o'laga ko'ndalang qilib qo'ydi va boltani olib shoxini ajratishga kirishdi.

— Mana shox! — ishlab turib gapirardi u, o'tkir boltani shoxlarning tubiga qadab. — Bu sening bobongga. — U bolaga qarab ko'z qisib qo'ydi. — O'lishi bilan bu shoxni uning qabriga qo'yamiz. Qani, endi kim bizga u kishini hurmat qilmay-sizlar deb ayta olar ekan. Yana nima kerak! Bunday shox uchun hatto bugunoq o'lsang arziydi! — deya boltani mo'ljalga olarkan, O'razqul xaxolab kulardi.

Shoxni osonlikcha olib bo'lmaydi. Uni olish juda qiyin edi. Mast O'razqulning boltasi nishonga borib tegmasdi, bu esa battar uning jahlini chiqarardi. Kalla g'o'la ustidan dumalab tushdi. Shunda O'razqul uni yerdayoq chopi boshladi. Qalla sirg'alib chiqib ketaverdi. O'razqul bolta ko'targancha uning orqasidan chopib yurdi.



Bola seskanib ketdi, har gal ketmoqchi bo'lib beixtiyor tisarilsa-da, bu yerdan ketishga o'zini majbur etolmasdi. Juda yomon tush ko'rib, uni allaqanday dahshatli bir kuch tutib turganday edi, u o'z joyida turganicha shu narsaga ajablanar ediki, kiprik qoqmay baqrayib turgan Shoxdor ona bug'ining ko'zlari boltadan o'zini olib qochmasdi. Qo'rquvdan qisilib yumilmasdi. Kalla allaqachon loy va tuproqqa belangan bo'lsa ham, ko'z qorachig'i musaffoligicha boqib turardi, aftidan, u o'zini o'limga mahkum etgan shu yorug' jahonga tilsiz, unsiz hayratda qolib, hamon boqib turgandek edi. Bola mast-alast O'razqul bilan ko'zi-ko'ziga tushib qolishdan cho'chirdi.

Shox hamon bo'sh kelmasdi. O'razqul esa borgan sari tutaqib boltaning goh tig'i bilan, goh orqasi bilan kallaning duch kelgan joyiga urardi.

— Bunaqada shoxni sindirib qo'lasan. Bu yoqqa ber, — yaqinlashdi Seydahmad.

— Nari tur! O'zim! Qo'lingdan kelmaydi, sindirib qo'lasan! — xirillab nafas lardi O'razqul boltani qulochkashlab urarkan.

— Xo'p, xo'p, o'zing bilasan, — Seydahmad tupurganicha uyi tomon odimlab ketdi. Uning orqasidan haligi qoradan kelgan barvasta kishi borardi. U qopda o'z ulushini olib ketayotgan edi.

O'razqul molxona orqasida mast-alast holda, qaysarlik bilan Shoxdor ona bug'ining kallasini tilkalashda davom etardi. Uning bu holati uzoq kutilgan qasosini endi bajo keltirgandek tuyulardi.

— Eh, yaramas! La'nati!.. — deb xuddi jonsiz kalla eshitayotganday etigining tovoni bilan uni tepib, jahl ustida og'iz ko'pirtirganicha so'kinardi. — Kimni ahmoq qilmoqchisan! — U boltani ushlaganicha kallaning tepasiga qayta-qayta xezlanib kelardi. — Dabdala qilmasam otimni boshqa qo'yaman. Mana senga! Mana senga! — Shunday deb bolta bilan kallani urardi. Kalla chirsillab yorilib, mayda suyaklar har tomonga uchib ketardi.

Boltaning tig'i ko'zga ko'ndalang kelib tekkanda bola qichqirib yubordi. Ochilib qolgan ko'z chanog'idan qop-qora quyuq suyuqlik oqib tushdi. Ko'z so'ndi, barbod etildi...

— Men bundan zo'rroq kallalarni ham maydalay olaman! Bundan boshqa shoxlarni ham sug'urib ola bilaman! — deb jazavasi tutib bo'kirardi O'razqul gunohsiz kalladan nafratlanganicha.

Nihoyat bu kallaning peshana suyaklarini ham maydalashga muvaffaq bo'ldi. U endi boltani tashlab, kallani oyog'i ostiga olib, shoxdan ikki qo'llab ushlaganicha vahshiyona kuch hilan buray boshladi va shoxlarni yulib oldi. Ular

sug'urib olingan ildiz singari qarsillardi. Bu shoxlar — bolaning iltimosiga ko'ra, O'razqul bilan Bekey xolaga sehrli beshik keltirishi lozim bo'lgan o'sha Shoxdor ona bug'ining shoxlari edi...

Bolaning ko'ngli behuzur bo'ldi. U burildi va qo'lidagi buyrakni tushirib yuborib, sekingina nari ketdi. U qulab tushayotgandek yoki bo'lmasa odamlar ko'zi oldida qayt qilib yuborayotgandek juda qo'rqdi. U oqarib-gezarib manglaylari yopishqoq terga botgancha o'choq yonidan o'tib borardi. O'choqda lo-villab o't yonib, qozondan burqirab qaynoq bug' ko'tarilardi. Baxtsiz Mo'min bobo bo'lsa hamon avvalgidek yuzini o'tga tutib, hammasiga chap berib o'tirardi. Bola bobosini bevosita bezovta qilgisi kelmadi. U tezroq o'ringa yetib bori-shni va to'shakka boshi bilan burkanib yotishni istardi. Qani endi hech narsani ko'rmasa, eshitmasa, unutsa.

Qarshisidan Bekey xola chiqib qoldi. U o'ziga oro berib yasangan, biroq yu-zida O'razqulning kaltaklashi natijasida hosil bo'lgan ko'm-ko'k qontalash izlar ko'zga tashlanib turardi. Bemavrid quvonib, jonsaraklik bilan «katta go'shtga» yugurib kelayotgan edi.

— Senga nima bo'ldi? — U bolani to'xtatdi.

— Boshim og'riyapti.

— Boshingandan aylanay, — dedi mehri toshib va ustma-ust o'pa boshladi.

U ham mast edi. Undan ham la'nati aroq hidi anqib kelardi.

— Boshingasi og'ribdi-da, — ming'irladi u rahmdillik qilib. — Jigargo'sham mening. Balki ovqatlanging kelayotgandir.

— Yo'q, hech narsa yemayman. Yotgim kelyapti.

— Ketdik bo'lmasa, o'zim yotqizib qo'yaman. Nima, sen yakkayu yolg'iz yo-taverar ekansanmi. Axir hamma odam biznikida. Mehmonlar ham. Go'sht ham tayyor bo'lay deb qoldi, — dedi u va bolani o'zi bilan birga olib ketdi. Bular yana o'choq boshidan o'tib ketayotganlarida yelin singari qizarib to'lishib ketgan hol-da molxonadan chiqib kelayotgan O'razqulga ko'zlari tushdi. U Mo'min bobo yo-niga o'zi kesgan bug'i shoxlarini kekkaygancha uyib qo'ydi. Chol sapchib tushdi.

O'razqul unga qaramasdan suv to'la paqirni boshi uzra ko'tardi va orqaga egilgancha egniga to'kib-sochib icha boshladi.

— Endi o'lsang ham bo'laveradi, — dedi u boshini paqirdan ko'tarib, yana paqirga tiqarkan. Bola cholning g'o'ldirab gapirayotganini eshitdi:

— Rahmat, o'g'lim, rahmat. Endi o'lsam ham armonim yo'q... Men uchun shunchalik izzat-hurmat...

— Men uya ketaman, — dedi o'zini uncha yaxshi sezmayotgan bola.  
Bekey xola ko'nmadi.

— Bir o'zing nima qilasan u yerda. — Bolani holijoniga qo'ymasdan uyiga olib ketdi va burchakdagi karavotga yotqizdi.

O'razqulning uyida dasturxon muntazir edi. Har xil taomlar muhayyo edi. Bularning hammasi bilan kampir va Guljamol band edi. Uy bilan hovlidagi o'choq orasida Bekey xola qatnagani-qatnagan. O'razqul bilan barzangi Ko'katoy go'shtni kutib, gulli ko'rpachada yostiqaqqa yonboshlagancha choydan maydamayda ichishib o'tirishardi. Ular to'satdan o'zlariga bino qo'yib, o'zlarini to'ra his etishardi. Seydahmad ularga piyolaning tagida choy quyib o'tirardi.

Bola bo'lsa bir burchakda ipsiz bog'langanday, betoblik zarbiga bardosh berib jimgina yotardi. Uni yana qaltiroq bosdi. U turib ketishni istardi. Biroq karavotdan tushishi bilanoq qayt qilib yuborishdan qo'rqardi, shuning uchun ham u titrab-qaqshagancha tishini-tishiga qo'yib qimir etmay yotardi. Ortiqcha qimirlashdan qo'rqardi.

Shu orada xotinlar Seydahmadni hovlidan chaqirishdi. Katta sirlangan tovoqda tog' singari uyulib, bug'lanib turgan go'shtni ko'targancha Seydahmad paydo bo'ldi. U uzoq kutilgan bu taomni zo'rg'a ko'tarib kelib, O'razqul bilan Ko'katoyning oldiga qo'ydi. Xotinlar uning orqasidan yana turli xil ovqatlarni keltirishdi.

Hamma joy-joyiga o'tirdi, pichoq va tarelkalar tayyorlandi, Shu orada Seydahmad stakanlarga aroq quydi.

— Aroqning raisi men bo'laman, — deya shaqillay boshladi u burchakdagi shishalarga ishora qilib.

*Hammadan keyin Mo'min bobo keldi. Chol bugun har qachongidan ko'ra g'alati va ayanchli qiyofada ko'rinardi. U biror chetroq joyga borib omonatgina o'tirmoqchi edi, lekin qora, barvasta Ko'katoy himmat qilib uni o'z yoniga taklif qildi.*

— Bu yoqqa keling, oqsoqol.

— Rahmat. Biz mana bu yerga, o'zimizniki-ku axir, — e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi Mo'min bobo.

— Har qalay siz oqsoqolimizsiz, — qattiq turib oldi Ko'katoy va o'zi bilan Seydahmadning o'rtasiga o'tqazdi. — Qani, ichamiz, oqsoqol, sizning shunday muvaffaqiyatlaringiz uchun. Birinchi so'z sizga.

Mo'min bobo yo'talib qo'ydi.

— Mana shu uylarda tinchlik bo'lsin, — dedi u qiynalib. — Qayerda tinchlik bo'lsa, baxt ham o'sha yerda, bolalarim.

— To'g'ri, to'g'ri! — deb hamma o'z qadahini ko'tardi.

— A, siz-chi! Yo'q, bunaqasi ketmaydi! Kuyovingiz va qizingizga baxt tilasangiz-u, yana o'zingiz ichmasangiz, — deb Ko'katoy xijolat tortib o'tirgan Mo'min bobodan o'pkaladi.

— Shularning baxti uchun bo'ladigan bo'lsa, — chol shoshib qoldi va hammani hayratda qoldirganicha sal kam to'la stakanni oxirigacha ko'tarib yubordi va garang bo'lib qolganday boshini chayqay boshladi.

— Obbo, shovvoz-ey!

— Bizning bobo unaqalardan emas.

— Qoyil, qoyilmiz cholingizga!

Hamma shodlanib kulardi, cholni maqtardi.

Uy isib dimiqib ketgan edi. Bola iztirob chekib yotardi, boshi aylanardi. U ko'zini yumib yotganicha mast-alast kishilarning Shoxdor ona bug'ining go'shtini chapillab, pishillashib ovoz chiqarib yeyayotganliklarini, bir-birovlariga mazali go'sht qismlarini uzatishib siylashayotganlarini, kir stakanlarning urishtirilayotganini, kemirib tozalangan suyaklarning tovoqqa qanday terib qo'yilayotganini eshitib turardi.

— Bay-bay, munchayam mazali-a! — maqtardi Ko'katoy labini chapillatib.

— Nima, biz ahmoqmizmi tog'da yashab shunday go'sht yeya olmasak, — dedi O'razqul.

— To'g'ri-da, nega bo'lmasa bu yerda yashayapmiz, — ma'qulladi Seydahmad.

Hamma Shoxdor ona bug'ining go'shtini maqtay ketdi. Kampiru Bekey xoladan tortib, Guljamolu Mo'min bobogacha — hamma-hammasi maqtashardi. Bolaga ham tarelkada go'sht va boshqa taomlardan keltirib berishdi. Lekin u rad etdi. Mast odamlar uning tobi qochganligini hisobga olib bezovta qilmadilar.

Bola tishini-tishiga qo'yib yotardi. U shunday yotganda ko'ngil behudligidan bir oz qutulganday bo'ladi. Biroq Shoxdor ona bug'ini o'ldirgan bu odamlar bilan biron ish qilishga qodir emasligi uni hammadan ko'ra qiynayotgan edi. U bolalarga xos haqgo'ylik g'azabi va dilxastaligi bilan ulardan o'ch olishning turli yo'llarini — qanday bo'lmasin ularni jazolash, gunohini tushunishga majbur etish, qanday yovuz ishga qo'l urganliklarini ko'rsatib qo'yish yo'llarini o'ylardi. Biroq xayolan Qulibekni yordamga chaqirishdan bo'lak biror durustroq yo'l topolmadi. Ha, o'sha bo'ronli tunda askarcha kamzul kiyib, yosh shofyorlar bilan birga pichan ortishga kelgan o'sha yigitni chaqirmoq kerak. U bolaning ko'rib

yurgan odamlari ichida O'razqulga bas kela olishi va butun haqiqatni aytib solishi mumkin bo'lgan birdan-bir kishi edi.

Bolaning chorlashi bo'yicha Qulibek mashinada g'izillab yetib keldi va avgomatni oldinga qarata qiya ushlagancha kabinadan sakrab tushdi: «Qani ular?» — Ular mana bu yoqda! Ular ikkalasi O'razqullarning uyi tomon yugurib ketishdi. Eshikni zarb bilan ochishdi. «Qo'zg'ala ko'rma! Qo'lingni ko'tar!» — bo'sag'adan turib dahshat bilan buyruq berdi Qulibek, avtomatni to'g'rilagancha. Hammaning kapalagi uchib ketdi. Hamma o'tirgan joyida dong qotib, og'izdagi go'shtlar bo'g'izlarida qoldi. Ko'p yeb, qo'llari, yuzlari, og'izlari moyga botib, bo'kib qolgan mast-alast kishilarning esa umuman qimir etishga majollari qolmagan edi.

«Qani, o'rningdan tur-chi, murdor!» — Qulibek avtomatini O'razqulning chakkasiga tiradi. Qaltiroq bosgan O'razqul duduqlanganicha Qulibekning oyog'iga yiqildi. «Rahm qil, o'ldirmagin». Lekin Qulibek rahm qilmadi. «Chiq bu yoqqa, murdor! Endi tamom bo'lding!» — U O'razqulning chotiga zarb bilan tepib yubordi ya o'rnidan turg'izib uydan chiqishga majbur etdi. Kayfi uchib sarosimaga tushib qolgan jamiki kishilar jimgina hovliga chiqishdi...

«Devorga borib tur! — buyruq berdi Qulibek O'razqulga. — Shoxdor ona bug'ini o'ldirganing uchun va uning beshik ko'tarib kelgan shoxlarini kesib olganing uchun senga o'lim!» O'razqul tuproqqa yiqilib tushdi. Emaklab ingragancha zorlana boshladi: «O'ldirma meni, mening hech kimim yo'q-ku axir. Olamda tanhoman. Na o'g'lim bor, na qizim...»

Undagi manmanlik, kibr-havo qayoqqa ketdi.

O'jiz, yaramas qo'rqqoq. Bundaylarni o'ldirging ham kelmaydi.

«Mayli, o'ldirmaylik, — dedi bola Qulibekka. — Lekin bu yerdan abadiy ketgin, qorasi o'chsin. Bu yerda uning keragi yo'q. Yo'qolsin.»

O'razqul o'rnidan turib shimini ko'tarib oldi va o'girilib qarashga yuragi dov bermay lo'killagancha qochib qoldi. Uning xomsemiz yuzlari larsillab, etigidan galife shimi osilib qolgan edi. Biroq Qulibek uni to'xtatdi: «To'xta! Senga aytdigan oxirgi so'zimiz bor. Senda hech qachon bola bo'lmaydi. Sen yovuz va yaramas odamsan. Seni bu yerda hech kim yoqtirmaydi. O'rmon ham, birorta daraxt ham, hatto bir dona giyoh ham seni sevmaydi. Sen fashistsan. Sen bu yerdan umrbod ket. Qani, tezroq bo'!» O'razqul oldi-ketiga qaramay yugurardi. Qulibek uning orqasidan: «Shnel! Shnel!» deya xoxolab kular va yana vahima solish uchun avtomatidan havoga qarab o'q uzardi.

Bola o'zida yo'q shod edi. O'razqul ko'zdan g'oyib bo'lgach, Qulibek eshik oldida gunohkorlarcha turgan boshqa kishilarga qarab: «Shunday odam bilan qanday yashab keldilaring? Uyat emasmi sizlarga!» — dedi.

Bola o'zini yengil his qildi. Adolatli sud bajo keltirildi. U o'z xayollariga shunchalik berilib ketgan ediki, hatto qayerda yotganini ham, O'razqulning uyida nima munosabat bilan ichkilikbozlik qilayotganliklarini ham unutgan edi. Qahqahlab kulishlar uni bu orombaxsh holatdan yana o'ziga keltirdi. Bola ko'zini ochib yana quloq sola boshladi. Xonada Mo'min bobosi yo'q edi.

Qayoqqadir chiqib ketgan bo'lsa kerak. Xotinlar idish-tovoqlarni yig'ishtirishib, choy keltirishga hozirlik ko'rayotgan edilar. Seydahmad nimanidir baland ovoz bilan hikoya qilib berardi, o'tirganlar uning so'zlarini eshitib kulishardi.

— U yog'i nima bo'ldi? — Davom et!

— Sen shoshilma, bu yoqqa qara, qani, yana bir qaytarib ayt, — kulgidan ichagi uzilgan O'razqul yana so'ray boshladi, — sen unga javoban nima deding? Uni qanday qo'rqitding. Voy ichagim! Xa-xa-xa! — u hamon qornini ushlagan-cha qotib-qotib kulardi.

— Shunday qilib, — deya Seydahmad hikoyasini yana boshidan boshlashga jon deb rozi bo'ldi. — Biz bug'ilarga yaqinlashib borsak, o'rmon yoqasida uchtasi turgan ekan. Otlarni endigina daraxtga bog'lagan ham edik, chol hamroh ham qo'limdan ushlab: «Biz bug'ilarni otishimiz mumkin emas. Biz Bug'iboy avlodidanmiz. Shoxdor ona bug'ining farzandlarimiz!» dedi. O'zi bo'lsa bolalardek termilib turardi menga. Ko'zlari yalinib-yolvorib iltijo qilayotgandek boqardi. Mening esa o'lgiday kulgim qistardi. Lekin kulib yubormadim. Ha, kulmadim. Aksincha, bu haqiqatan ham shunday-ku: «Sen nima, turmaga tushging kelyaptimi?» — deyman. «Yo'q», — deydi u. «Bilasanmi, boylar zamonidagi hikoyalar kambag'al xalqni qo'rqitish uchun to'qilgan», dedim. Shunda u tilga kirib: «Sen nima deyapsan o'zi», dedi. Men bo'lsam: «Shuni aytyapmanki, sen bunaqa gaplaringni qo'y, aks holda qariligingga ham qaramay, tegishli joyga yozib yuboraman», dedim.

— Xa-xa-xa, — deb o'tirganlarning hammasi kulib yuborishdi. Ayniqsa O'razqul ularning ichida rohatlanib kulardi.

— Keyin biz sezdirmasdan ularga yaqin bordik. Agar ularning o'rnida boshqa hayvonlar bo'lgandami, allaqachon xabar topib ko'zdan g'oyib bo'lgan bo'lardi. Bu anqov bug'ilar esa bizdan cho'chimayotganday qochmasdi. Cho'chimagani yana ham yaxshi deb o'ylayman, — hikoya qilardi Seydahmad. — Men miltiq bilan oldinda, chol keyinda boryapmiz. Shu ondayoq menda shubha tug'ildi.

Umrimda chumchuq ham otgan emasdim. Hozir shunday bir holat yuzaga keldiki, agar tekkiza olmasam, o'rmonga qochadi, ketadi, keyin uning orqasidan yetib bo'psan, dovonning narigi yog'iga o'tib ketadi. Bunday tayyor o'ljani kim qo'ldan boy berishni istardi?

Bizning chol ovchi bo'lgan, vaqtida ayiqni ham qulatgan. Men unga miltiqni berib, mana, chol, oting, dedim. U bo'lsa, yo'q, otmayman, o'zing ot, deydi. Men bo'lsam unga: Men axir mastman-ku, dedim. O'zim esa oyoqda turolmayotgandek tebranardim. U o'rmondan yog'och olib chiqqanimizda siz bilan ichganimizni ko'rgan edi. Shuning uchun ham men o'zimni ayyorlikka soldim.

— Xa-xa-xa.

— Men tekkizolmayman dedim, bug'ilar ketib qoladi, keyin qaytib kelmaydi. Bizning esa quruq qaytib borishimiz yaxshi emas. O'zning bilasan. O'ylab ko'rgin. Nega bizni bu yoqqa yuborishdi? Indamaydi. Miltiqni ham olmaydi. Mayli, o'zingiz bilasiz, dedim-da, miltiqni tashlab ketmoqchi bo'ldim. U orqamdan ergashdi. Baribir, O'razqul meni haydaydi — sovxozga borib ishlayveraman, deydi. Qari-ganda qayoqqa borasan, dedim? Yana lom-mim demadi. Men sekin xirgoyi qildim:

Sariq-sariq tog'lardan,  
Sariq otida men keldim.  
Och eshiging, ey, sariq savdogar...

— Xa-xa-xa...

— Meni haqiqatan ham mast deb o'yladi. Miltiqni qo'lga olib jo'nab qoldi. Men qaytdim, Biz bir-birimiz bilan tortishib yotar ekanmiz, bug'ilar bu orada bir oz nariroqqa yurdi. Ko'ryapsanmi, deyman unga, ketib qoldi, keyin ularga yetib bo'lmaydi. Ular hali hurkib qochmaguncha otib olish kerak. Chol qo'lga miltiqni oldi va ularning orqasidan pusib bora boshladi. U hamon: «Kechir meni, Shoxdor ona bug'i, kechir...», — deb o'z-o'zicha shivirlardi. Men esa o'z-o'zimcha: «Ehtiyot bo'l, tekkiza olmasang, sen ham o'sha bug'ilar bilan birga boshing oqqan yoqqa qarab ket, boshqa qorangni ko'rsatma», dedim.

— Xa-xa-xa...

Ichimlik hidi bilan dud hidining birga qo'shilib anqishi, buning ustiga qahqaha urib kulishlar bolaning isitmasini oshirib yanada dimiqtirib yubordi. Og'riqning zo'ridan uning boshi tars yorilib ketayozdi. Nazarida kimdir uni tepayotganga, kimdir bolta bilan miyasini yorayotganga o'xshardi. Go'yo birov uning

ko'zini mo'ljalga olayotganday chap berib boshipi olib qochishga intilardi. Isitma natijasida holdan ketgan bola muzdek daryoda paydo bo'lib, baliqqa aylanib qoldi. Quyrug'i, tanasi, suzgich qanotlari — hamma-hammasi baliqniki-yu, faqat og'riyotgan boshigina o'zicha qolgan edi. U qop-qorong'i muzdek suv ostida suzib borardi. Xayolida umrhod shunday baliq bo'lib qolishni va toqqa hech qachon qaytmashlikni o'ylardi. «Qaytmayman endi, — deyardi u o'zicha. — Yaxshisi, baliq bo'laman, baliq bo'lib yashayman...»

Bola karavotdan tushib, sekin uydan chiqib ketganini hech kim payqamay qoldi. U zo'rg'a burchakka yetib borgan ham edi, birdan qayt qilib yubordi. U devorga suyangancha ingrab yig'lardi. O'pkasi to'lib yig'laganidan nafasi qisilib g'oldirardi:

— Yo'q, men, yaxshisi, baliq bo'laman. Bu yerdan suzib ketaman. Yaxshisi, baliq bo'laman.

O'razqulning uyi derazasidan esa mast kishilarning qahqahlab kulishlari-yu qiyqiriq ovozlari eshitalardi. Bu yovvoyi qahqaha bolani garang qildi, uning qalbida chidab bo'lmas dard-alamlarni qo'zg'adi. Bu dahshatli qahqahani eshitish ko'nglini behuzur qilayotgandek tuyuldi. U bir oz o'ziga kelish uchun hovliga chiqdi. Hovlida hech kim yo'q, huvillab yotardi... O'ti o'chib qolgan o'choq yonida ichkilikning zo'ridan o'lar holatda yotgan Mo'min boboga ko'zi tushdi. Chol tuproqda, o'sha Shoxdor ona bug'ining kesib tashlangan shoxlari yonida hushsiz yotardi. Bug'ining maydalangan kallasini it gajib yotgan edi. Bulardan boshqa biron kimsa yo'q.

Bola bobosining ustiga engashgancha uning yelkasidan tortqiladi.

— Bobo, yuring uyga ketamiz, uyga, — dedi u.

Chol javob bermadi, u hech nimani eshitmadi, boshini ham ko'tara olmadi. Ha, u nima ham deya olardi?

— Qani turing, bobo, uyga ketamiz, — dedi bola. Kim bilsin, u o'zining bolalik aqli bilan bobosining Shoxdor ona bug'i haqidagi ertagi uchun bu yerda ta'ziri yeb yotganini, o'z erki bilan unga qasd qilmaganligini, uning o'zi bu haqda bolaga hamma vaqt nasihat qilib kelganligini, ota-bobolar udumiga, o'z vijdoni va vasiyatlariga zid borganligini, baxti qaro qizini deb, nabirasini deb bu ishga qo'l urganligini fahmlay oldimikin yoki anglab yetmadimikin?..

Chol og'ir ahvolga tushib, g'am-alam o'tida yonib, bolaning ovozigga javob qilmasdan, go'yo o'lik singari yuzini yerga qilib yotardi.

Bola bobosining yoniga cho'qqayib o'tirgancha uni qo'zg'atishga harakat qildi.



— Bobo, boshingizni ko'tarsangiz-chi, — dedi u. Bolaning yuzlari oqarib, bo'shashib ketgan edi, qo'llari, lablari qaltirardi. — Bobo, bu menman. Eshityapsizmi? — deyardi u. — O'zimni juda yomon sezyapman, — deya yig'lardi u. — Boshim, og'riyapti, juda qattiq og'riyapti.

Chol ingrab, qimirlay boshladi, biroq hamon o'ziga kelolmagan edi.

— Bobo, Qulibek keladimi? — so'radi bola birdan ko'z yoshi aralash. — Ayting, mashinasida Qulibek keladimi? — gap bilan alaxsitmoqchi bo'ldi u cholni.

Bola bobosini yonbosh bilan ag'darilib yotishga majbur etdi va nogahon mast holda soqollarigacha loy va tuproqqa belanib, ayanchli holda yotgan cholning yuziga ko'zi tushib, seskanib ketdi. Bola shu daqiqada haligina O'razqul bolta bilan maydalab tashlagan oq bug'ining kallasini xayolidan o'tkazdi va qo'rquvdan o'zini chetga tortdi. Bobosidan nari ketar ekan, dedi:

— Men baliqqa aylanaman, eshityapsizmi, bobo, suzib ketyapman. Qulibek kelganda baliqqa aylanib qolganimni ayting.

Chol hech qanday javob qaytarmadi. Bola yurishda davom etdi. Daryoga tushib, suv kecha boshladi.

Bolaning suvda baliq bo'lib suzib yurganidan hali hech kimning xabari yo'q edi. Hovlida mast kishilarning kuylagan qo'shiqlari eshitilardi:

O'rkach-o'rkach toglardan,  
O'rkach tuyada men keldim.  
Och eshiging, ey, bukri savdogar,  
Biz ichamiz o'tkir vinodan...

Sen suzib ketding. Qulibekning kelishini kutib turmading. Afsus, ming afsuski, Qulibekning kelishini kutib turmading. Nega sen yo'ldan chopib bora qolmading. Agar yo'ldan uzoq muddat chopib borganingdami, albatta uni uchratarding. Qulibekning mashinasini uzoqdan tanigan bo'larding. Qo'lingni ko'targaningda u shu zahotiyiq mashinasini to'xtatgan bo'lardi.

— Sen qayoqqa ketyapsan? — deb so'rardi.

— Men sizni izlab ketayotgan edim! — deb javob bergan bo'larding.

U shunda seni mashinasi kabinasiga olgan bo'lardi.

Ikkaloving birga ketgan bo'lardilaring. Oldinda, yo'lda esa, hech kimga ko'rinmasdan Shoxdor ona bug'i yelday uchib borardi. Biroq sen uni ko'ra olgan bo'larding.

Ammo sen suvda suzib ketding.

Sen bu qo'shiqni eshitmading. Sen o'z ertagingdagi baliq kabi suzarding, bo'talog'im. Bilasanmi, sen hech qachon baliqqa aylanib qololmaysan va Issiqko'lgacha suzib borolmaysan, oq kemani ham ko'rolmaysan va unga: «Salom, oq kema, bu men!» — deb aytolmaysan.

Sen oqib ketding.

Endi shuni aytishim kerakki — sening go'dak qalbing nimani noxush ko'rgan bo'lsa, hammasini rad etding. Mening ovunchim ham, quvonchim ham shunda-da. Sen bir chaq nab so'ngan yashin kabi hayot kechirding. Chaqmoqlarni samo chaqadi. Samo esa abadiydir. Mening ovunchim ham, quvonchim ham shunda-da. Insondagi go'daklik vijdoni xuddi urug'dagi ilk kurtakning o'zginasi, kurtaksiz urug' unib chiqmaydi. Biz olamga kelmasdan ilgariyoq, toki tug'ilish va o'lish bor ekan, haqiqat tantana qilib kelmoqda.

Bo'talog'im, sen bilan vidolashar ekanman, sening so'zingni yana bir bor ta-krorlayman: «Salom, oq kema, bu men!»

## EZGULIK VA ADOLAT KUYCHISI

O'tgan asrning oltmishinchi yillarida qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov adabiyot osmoniga chaqmoqdek chaq nab kirib kelgan edi. O'sha paytlarda uning «Tog' va dasht qissalari» deb nomlangan va yuksak mukofot bilan taqdirlangan qissalarini qo'lma-qo'l o'qiganimiz yaxshi esimda. Hali rus tilini mukammal bilmasak-da (bu asarlar rus tilida yozilgan edi), Chingiz og'a yaratgan badiiy olamning beixtiyor asiri, chinakam muxlisi bo'lib qolgan edik. Yozuvchini hali ko'rmagan, bilmagan bo'lsak-da, u bir zumdayoq hammamizning sirdosh do'stimiz, mehribon akamizga aylangan edi. Oradan ko'p o'tmay, adibning «Qizil durrachali sarvqomatim» («Sarvqomat dilbarim») kitobining o'zbek tilida bosilib chiqishi biz yoshlar uchun chinakam adabiyot bayrami bo'ldi, bu daho ijodkorning ijod dunyosi bilan yanada keng, mukammal tanishish, oshno bo'lish imkoniyati tug'ildi. Ana shu kitob ko'p ming nusxada chiqqandan keyin, sal avvalroq bosilgan «Jamila» qissasi bilan birga, muholag'asiz aytish mumkinki, Chingiz og'a asarlarini o'qimagan savodli o'zbek kitobxonlari qolmadi hisob. Adib asarlarining katta samimiyat va ehtiros bilan yozilgani, hayot manzaralarini bo'yab-bejamasdan haqqoniyat bilan chizib bergani va ezgulik, adolat tuyg'usini baralla kuylagani, romantik ko'tarinki ruhi hammaga birdek manzur bo'lgan edi. Bu borada mohir tarjimonlarimizning ulkan xizmatlari bor. Chingiz og'aning dastlabki hikoya va qissalarini taniqli tarjimon va zahmatkash adabiyotshunos Asil Rashidov tarjimasini orqali o'zbek tilida o'qishga muyassar bo'ldik. Ana shu tarjimalar tufayli ilk bor «Jamila», «Sarvqomat dilbarim», «Birinchi o'qituvchi», «Somon yo'li» o'zbek o'quvchisining bir umrlik hamrohiga aylandi. Bu qissalarni o'qib, Jamila va Doniyorning ulkan qalbi, otanish muhabbati, Asal bilan Ilyosning shirin, ammo achchiq iztiroblarga to'la qismati, hayotini yosh avlod tarbiyasiga bag'ishlagan qishloq o'qituvchisi Dushanning fidoyiligi, urushda aziz farzandlaridan ajralgan To'lg'anoyning irodasi, matonati bilan tanishdik, ularning sevinch va tashvishlariga, dard-alamlariga sherik bo'ldik.

Ana shu asarlar Chingiz Aytmatovning nomini butun dunyoga tanitgani ma'lum. Bu dardchil qissalar millionlab o'quvchilarning yuragini zabt etdi. Adib asarlari syujeti asosida Rossiyada, Turkiyada kinofilmlar yaratildi, yuzlab tadqi-

qotlar yozildi. Chingiz Aytmatov dahosi haqida jahondagi mashhur yozuvchilar (Lui Aragon, Muxtor Avezov, Gabriel Markes va boshqalar) samimiy dil so'zlarini izhor etdilar. Jumladan fransuz adibi Lui Aragon «Jamila»ga «Jahondagi eng go'zal sevgi qissasi» deb baho bergan edi. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, Ch. Aytmatov asarlari jahondagi 165 tilga tarjima qilinib, 67,2 million nusxada bosilib chiqdi.<sup>1</sup>

Adibning bunchalik tez dovrug' qozonishiga sabab shuki, u barcha asarlarini katta ehtiros, samimiyat bilan yozadi, qahramonlariga xos insoniy joziba va murakkabliklarni, hayotiy to'qnashuv va ziddiyatlarni, qalb dramalarini jonli va yorqin suratlantiradi, milliy bo'yoqlarni, psixologik tahlil me'yorini bir maromda chuqurlashtirib boradi. Bunday katta mahoratga esa u jahon adabiyotidagi eng yaxshi an'analarni o'zlashtirgani va yirik yozuvchilarga xos yuksak tasvir san'atini munosib davom ettirgani tufayli erishdi. Adabiyotshunoslar adibning «Jamila», «Sarvqomat dilbarim» qissalarini prozada yozilgan lirik poema, nasriy doston deb bejiz ta'riflagan emas. Ular katta zavq, hayajon bilan o'qiladi.

Dastlabki muvaffaqiyatlar, umumxalq e'tirofi adibni yangi ijodiy cho'qqilarga ilhomlantirdi. Yozuvchi qirg'iz xalqi hayotining turli davrlari, turli qatlamlari haqida yanada teran, qahramonlarining taqdiri, qismati yanada murakkab qissa va romanlar yoza boshladi. Birin-ketin uning «Alvido, Gulsari», «Oq kema», «Erta qaytgan turnalar», «Sohil yoqalab chopayotgan olapar» qissalari e'lon qilindi. (Bu asarlarni ham o'zbek tiliga Asil Rashidov ag'dargan<sup>2</sup>). Ana shu mashhur qissalardan keyin adib ijodida yangi sahifa ochildi – u yirik epik janr roman janrida ham samarali ijod qilishga o'tdi. Yozuvchi hayotining so'nggi pallasida «Asrni qaritgan kun» («Bo'ronli bekat»), (Asil Rashidov tarjimasini), «Qiyomat» (Ibrohim G'afurov tarjimasini), «Kassandra tamg'asi» («Oxirzamon nishonalari») (Suyun Qorayev tarjimasini), «Mangu qayliq» (Ibrohim G'afurov tarjimasini) romanlarini e'lon qildi. Adib ijodining alohida cho'qqilari bo'lib qolgan bu romanlarda adolat va jaholat, ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi shafqatsiz kurash katta realistik mahorat bilan tasvirlanadi.

Yozuvchi o'tgan asrda yuz bergan ulkan qabohatlarni sho'ro zo'rvonligi tug'dirgan ma'naviy tanazzullarni – qatag'on jarohatlari, iqtisodiy buhronlar, ekolo-

1 Asil Rashidov. Chingiz Aytmatovning badiiy olami. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2008, 10-bet.

2 «Sohil yoqalab chopayotgan olapar» qissasi Mahkam Mahmudov bilan hamkorlikda tarjima qilingan.

gik falokatlarini, asriy qadriyatlar, ezgu udumlarning ayovsiz toptalishini yuksak mahorat bilan tasvirlab, qalblarni larzaga soladigan murakkab taqdirli insonlar – Tanaboy («Alvido, Gulsari»), Mo'min chol, Bola («Oq kema»), O'rxon bobo, Milgun, Emrayin, Kirisk («Sohil yoqalab chopayotgan olapar»), Edigey Bo'ron, («Asrni qaritgan kun»), Avdiy Kallistratov («Qiyomat») obrazlarini adabiyot olamiga olib kirdi. Adib asarlarida Ona Bug'u, Qora Nor, Akbara, Toshchaynar, Jaabars kabi jonivorlar obrazi ham katta mehr bilan tasvirlangan. U tabiat va jamiyatni yaxlit bir butunlikda, uyg'unlikda ko'rsatar ekan, ona sayyoramizda ro'y berayotgan og'ir falokatlar, kulfatlar hammamiz uchun birdek dahldor ekanligini badiiyat tiliga ko'chirib, bizni ogohlantiradi, og'ir o'ylari, teran mushohadalarini ochiq aytib, kitobxon bilan dardlashadi. Adib asarlarini o'qiganimizda undagi dardchil fikrlar beixtiyor yuragimizga ko'chib o'tadi, atrofimizda – tabiat va jamiyatda shiddat bilan kechayotgan hodisalarga befarq qarash mumkin emasligini, har qanday sharoitda ham vijdon bilan, adolat bilan yashash yuksak burch ekanligini chuqur his qila boshlaymiz.

Ayniqsa, qo'lingizdagi kitobdan joy olgan «Oq kema» qissasi shu jihatdan o'quvchini befarq qoldirmaydi. Unda hayot va odamlar, jonivorlar haqidagi murg'ak xayollari, beg'ubor orzulari shafqatsiz toptalgan, O'razqul kabi vahshiy odamlarning tuban qilmishlari, itoatgo'y bobosi Mo'min cholning muteliklaridan bag'ri ezilib ketgan, o'zi uchun muqaddas jonzotga aylangan Shoxdor ona bug'uning shafqatsizlarcha o'ldirilishidan qon yig'lagan qalbi pok Bolaning iztiroblari ulkan yozuvchiga xos buyuk bir ehtiros bilan tasvirlanadi. Quturib ketgan O'razqul Ona bug'uning kallasini bolta bilan chopib majaqlar ekan, atrofda gilarining hammasi bu dahshatli manzaraga befarq qarab turadilar. Mo'min chol, Bekay xola va boshqalar hamma narsaga itoat qilib o'rganganlar. Sharoit ularni tilsiz, zabonsiz, o'jiz kimsalarga aylantirib qo'ygan. Mutelikning o'zi eng katta illat darajasiga ko'tarilgan. Yozuvchi jaholatni ham, mutelik, itoatgo'ylikni ham qattiq qoralaydi, bunday muhitda yashab bo'lmasligini, inson sha'ni uchun bu tarzda yashash haqorat ekanligini asar mazmuniga chuqur singdirib yuboradi. Bola bunday g'addor sharoitga ko'nirik keta olmaydi. U o'ziga xos isyon ko'taradi. O'z sodda xayoli bilan yovuz odamlar o'rtasida yashagandan ko'ra baliqqa aylanib, suvda erkin suzib yurishni afzal deb biladi. U baliqqa aylanish uchun o'zini suvga tashlaydi – bevaqt xazon bo'lib, o'lib ketadi. Adib bu og'ir fojiga shunday nuqta qo'yadi: «...sening go'dak qalbing nimani noxush ko'rgan bo'lsa, hammasini rad etding. Mening ovunchim ham, quvonchim ham shunda-da. Sen

bir chaq nab so'ngan yashin kabi hayot kechirding. Chaqmoqlarni samo chaqadi. Samo esa abadiydir. Mening ovunchim ham, quvonchim ham shunda-da».

Asar mustabid sho'ro davri tug'dirgan yovuzliklarni, muteliklarni shafqatsizlik bilan qoralaydi, adib endi bunday yashash mumkin emasligi haqida bong uradi, odamlarni, avlodlarni ogohlantiradi. «Haqiqat, haqiqat va faqat haqiqatni aytish mening shiorim, e'tiqodim», deb yozadi u bir maqolasida. Yuksak e'tiqod bilan yashab, haqiqatni bor ovoz bilan kuylagan adib aldanmadi. Mustabid tuzum chok-chokidan so'kilib ketdi. Yangi mustaqil respublikalar vujudga keldi. O'z yurtini, ona tabiatni, ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylashga qodir yosh avlod voyaga yetdi. Ular o'z Vatanlarin, ayni zamonda Ona zaminni muqaddas saqlash uchun burchdor ekanliklarini yaxshi biladilar. Ana shu sog'lom nasllar uchun Chingiz Aytmatov yaratgan buyuk asarlar uzoq yillargacha dasturul amal bo'lib xizmat qiladi, ularni yaxshilikka, ezgulikka boshlaydi. Adib asarlarining umri uzoq, yo'li oydin bo'lishiga shubha yo'q. Chingiz Aytmatov manguликka dahldor adib sifatida abadiy yashaydi.

*Ortiqboy ABDULLAYEV,  
adabiyotshunos.*

## MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| <b>ALVIDO, GULSARI</b> .....            | 5   |
| <b>JAMILA</b> .....                     | 154 |
| <b>OQ KEMA (ERTAKDAN SO‘NG)</b> .....   | 205 |
| <b>Ezgulik va adolat kuychisi</b> ..... | 319 |

**Chingiz Aytmatov. Tanlangan asarlar.** — Toshkent: SMI-ASIA, 2009.

Nashr etuvchi – A. Arapov  
Muharrir – B. Egamqulov  
Rassom – A. Mamadjanov  
Dizayner – K. Abidjanov  
Mentrapaj – A. Holmatov

Bosishga ruxsat etildi 25 dekabr 2009 y.  
Adadi 4250 nusxa.

ISBN 978-9943-17-003-2

SMI-ASIA: 100000, Toshkent, C-1-15-25  
[www.smi-asia.uz](http://www.smi-asia.uz)

MEGA bosmaxonasida chop etilgan